- **Mimo** — включает интерактивные уроки, систему ежедневных целей, награды, уровни и статистику. Предназначен для изучения языков программирования, веб-разработки и алгоритмов.
- **Khan Academy (раздел Computer Programming)** — содержит интерактивные упражнения, мини-игры и систему достижений для мотивации изучающих.
- **Enki** — предлагает короткие ежедневные задания, систему очков и достижений для закрепления знаний в области программирования, структур данных и алгоритмов.

При анализе узбекоязычных образовательных приложений было выявлено, что использование геймификации встречается крайне редко, однако подобные элементы начинают появляться на локальных образовательных платформах и в приложениях учебных центров. В связи с этим была разработана и апробирована мобильная программа для изучения информатики, в которую интегрированы элементы геймификации. Уровень знаний учащихся, использовавших приложение, оказался значительно выше по сравнению с контрольной группой. **Результаты анализа** показали наличие общих геймификационных компонентов во всех исследованных приложениях:

- **Система очков и уровней:** присутствует во всех приложениях, позволяет пользователям отслеживать собственный прогресс и поддерживает внутреннюю мотивацию.

- **Значки достижений:** в 4 приложениях используются визуальные награды за выполнение заданий или достижение целей.
- **Таблицы лидеров:** в 3 приложениях реализованы рейтинговые системы, усиливающие дух соревнования.
- **Задания и миссии:** во всех приложениях есть последовательные задания, структурирующие учебный процесс.
- **Виртуальные награды и призы:** в 3 приложениях отмечено их использование для поддержания долгосрочной мотивации.

Также установлено, что дизайн и интеграция геймификационных элементов в интерфейс различаются, что влияет на уровень вовлечённости пользователей.

Выводы. Элементы геймификации в образовательных мобильных приложениях являются эффективным инструментом повышения вовлечённости пользователей. Система очков и уровней помогает поддерживать интерес к обучению, а таблицы лидеров создают соревновательную атмосферу. Однако, для некоторых пользователей такие элементы могут вызывать излишнее давление, поэтому важно адаптировать их под особенности целевой аудитории.

Виртуальные награды и призы поддерживают внутреннюю мотивацию обучающихся и способствуют устойчивому интересу к учебному процессу. Каждое приложение использует геймификацию в соответствии со своими образовательными целями и характеристиками аудитории, что подтверждает необходимость индивидуального подхода.

Данная статья может служить основой для разработки практических рекомендаций по повышению эффективности узбекоязычных образовательных мобильных приложений с использованием геймификации. Следует отметить, что ограничение статьи заключается в анализе только наиболее популярных приложений, что сужает возможность обобщения выводов. В целом, грамотное применение геймификации в образовательных мобильных приложениях способствует повышению интереса учащихся, развитию их самостоятельности и улучшению результатов обучения. Однако эффективность геймификационных элементов зависит от контекста, целей и особенностей пользователей, что требует их гибкой адаптации.

В перспективе особый интерес представляют адаптивные системы геймификации, основанные на индивидуальных профилях пользователей и персонализированном подходе, что позволит значительно повысить эффективность образовательных мобильных приложений.

Литературы:

1. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: defining gamification.
2. Fredricks, J. A., Blumenfeld, P. C., & Paris, A. H. (2004). School engagement: Potential of the concept, state of the evidence.
3. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does gamification work? – A literature review of empirical studies on gamification.
4. Mamatqulov, U. A. (2022). Role of digital applications in supporting independent learning of students. *Journal of Innovations in Education*, 5(1), 78–85.
5. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. *American Psychologist*, 55(1), 68–78.
6. Yakubovskaya, E. V. (2019). Vliyanie geymifikatsii na motivatsiyu i uchebnye dostizheniya studentov [The influence of gamification on motivation and academic achievement of students]. *Pedagogicheskoe obrazovanie v Rossii*, (2), 45–52.
7. Shapkin, A. S., & Kozlova, I. V. (2021). Gamification in mobile educational applications: experimental research. *Vestnik Sovremennykh Issledovaniy*, 10(4), 120–130.
8. Dicheva, D., Dichev, C., Agre, G., & Angelova, G. (2015). Gamification in education: A systematic review of design frameworks. *Educational Technology & Society*, 18(3), 75–88.
9. Ismoilova M., Jumayev J. Adaptiv Finite Element Method for viscous Compressible Supersonic flows: a Dynamik Approach. International Conference on Physical research & Engineering technology problems Oktobe 5, 2024.
10. M. Ismoilova. Ta'limiy mobil ilovalarining turlari. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti Ilmiy-nazariy jurnal 2024, № 11, 223-229.

XORIJIY TALABALARNI OLIY TA'LIMGAMOSLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Avazyazova Dilfuza Shovkatovna,

Ma'mun universiteti, “Psixologiya” kafedrasikatta o'qituvchisi, PhD

Ushbu maqola xorijiy talabalarning oliy ta'limga moslashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, xorijiy talabalarda yangi ijtimoiy madaniy muhitda ta'lim olish asnosida uchrashlari mumkin bo'lgan qiyinchiliklar, ularni yangi ta'lim muhitiga ijtimoiy, madaniy moslashtirishning afzalliklari, O'zbekistonda tahsil olayotgan xorijiy talabalarni oliy ta'limga moslashtirishda ularning shaxs xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan rivojlantiruvchi dastur modeli haqida so'z boradi. Shuningdek, dastur samaradorligini aniqlashga qaratilgan tadqiqot natijalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: moslashish, ijtimoiy-madaniy muhit, akademik moslashish, ta'limga moslashish, til to'sig'i, emotsional qulaylik, dominantlikka intilish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ АДАПТАЦИИ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ К ВЫСШЕМУ ОБРАЗОВАНИЮ

Данная статья посвящена вопросам адаптации иностранных студентов к высшему образованию. Рассматриваются трудности, с которыми иностранные студенты могут столкнуться в процессе обучения в новой социокультурной среде, преимущества их социальной и культурной адаптации к новой образовательной среде, а также модель развивающей программы, направленной на развитие личностных качеств иностранных студентов, обучающихся в Узбекистане. Кроме того, приводятся результаты исследования, направленного на определение эффективности данной программы.

Ключевые слова: адаптация, социокультурная среда, академическая адаптация, адаптация к обучению, языковой барьер, эмоциональный комфорт, стремление к доминантности.

PSYCHOLOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE ADAPTATION OF FOREIGN STUDENTS TO HIGHER EDUCATION

This article is devoted to the issues of adapting foreign students to higher education. It discusses the difficulties that foreign students may face while studying in a new socio-cultural environment, the advantages of their social and cultural adaptation to a new educational setting, as well as a developmental program model aimed at fostering the personal qualities of foreign students studying in Uzbekistan in the process of adapting to higher education. In addition, the results of a study aimed at determining the effectiveness of the program are presented.

Keywords: adaptation, socio-cultural environment, academic adaptation, educational adaptation, language barrier, emotional comfort, striving for dominance.

Kirish. Moslashish jarayonlari xorijiy talabalar hayotining psixosotsial, psixofiziologik, madaniy tushunchalar kabi barcha sohalariga ta'sir qiladi. Albatta, ta'lim jarayonining samaradorligi xorijiy talabalarning moslashuv darajasi bilan aloqadorlikda bo'lib, moslashishning muvaffaqiyati talabaning tayyorgarligi, moslashishida resurs sifatida xizmat qiluvchi shaxs xususiyatlari hamda oliy ta'lim muassasasi tomonidan taqdim etilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlarga bog'liq hisoblanadi. Ta'lim xizmatlari sohasida har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bu ko'pincha xorijiy talabalarning universitet muhiti, talablari va o'quv jarayoniga tez kirib borishiga to'sqinlik qiladi. Ularni yangi ta'lim usullari va shakllariga moslashtirish muhim jarayondir, chunki u ta'lim jarayonining samaradorligini belgilaydi [1].

Asosiy qism. Xorijiy talabalar til muammolari, notanish ijtimoiy-madaniy vaziyat, o'ziga xos ta'lim an'analari va talablari, iqlim sharoiti va boshqalar bilan bog'liq madaniy shokni boshdan kechiradilar. «Yangi ijtimoiy muhit, ta'lim sharoiti xorijiy talabalarga ma'lum bir talablarni qo'yadi va bunga muvofiq talabalar yangi akademik muhitda o'z munosabatlari tizimini qurishlari kerak. Ushbu talablarga rioya qilish yoki rioya qilmaslik xorijiy talabaning akademik hamda kasbiy ijtimoiylashuvining muvaffaqiyatini belgilaydi va bu universitetda o'qish davriga to'g'ri keladi»[2].

A.M.Shaveleva bo'yicha universitetda o'qish jarayonida xorijiy talabalarning ta'limga moslashish darajalari quyidagicha: «-biologik- yangi rejim, notanish joy va yashash sharoitlariga moslashish; -

psixologik- yangi ehtiyoj va motivatsion komplekslarning paydo bo'lishi va qondirilishi, yangi xulq me'yorlarini o'zlashtirish; -kasbiy- professional ta'limda o'qitishning yangi mazmuni, tashkil etilishi va talablariga, shuningdek, o'quv guruhi va o'qituvchilarga moslashish»[6].

Y.V.Shibanova fikricha, «universitet ta'limiga moslashish jarayoni obyektivlik, dinamiklik, yaxlitlik bilan ajralib turadi va bunga obyektiv va subyektiv omillar ta'sir ko'rsatadi. Moslashish individual xususiyatga ega bo'lib, talaba shaxsiga jadal va jiddiy ta'sir qilish chuqurligini ko'rsatadi»[3].

Moslashish jarayoni xorijiy talabalar hayotidagi yangi muhitda bo'lishning birinchi oylaridagi sinovdir. Bu davrda xorijiy talabalar yangi sharoitlarga ko'nikish uchun o'z ustida ishlashi kerak. «Xorijiy talabaning moslashuvini qiyinlashtiradigan eng muhim omillar qatoriga: til to'sig'i, yangi kelgan davlat va o'z vatani ta'lim tizimlari, o'quv jarayonini tashkil etishdagi farqlar, bilimlarni nazorat qilish shakllari, muloqot va munosabatlarga kirishish jarayonida qiyinchiliklarni kiritish mumkin»[4].

Shuni ta'kidlash kerakki, xorijiy talabalarga ta'lim berishda akademik moslashish ayniqsa muhimdir, ularsiz muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvni amalga oshirish mumkin emas.

Akademik moslashuv atamasi A.I.Suriringa tegishli bo'lib, u «buni yangi pedagogik tizimga moslashish jarayoni deb ataydi va uning ikkita jihatini aniqlaydi. Birinchisi o'quv, ya'ni ta'limning bir darajasidan yuqoridagi ikkinchisiga «maktab-universitet» tizimi o'tishni o'z ichiga olgan ta'lim bo'lsa, ikkinchisi-milliy va madaniy bo'lib, an'analari o'zi mansub bo'lgan mahalliy muhitdan farq qiladigan ta'lim muhitiga moslashishni nazarda tutuvchi madaniy, ta'lim tili ona tili bo'lmagan ijtimoiy-madaniy kognitiv faoliyat olib borishni bildiradi»[5].

Tadqiqot ishimizning asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda xorijiy talabalarning oliy ta'limga moslashish jarayonida shaxsiy va ijtimoiy muammolar asosida yuzaga keladigan qiyinchiliklarini bartaraf etishga yo'naltirilgan psixotrening dasturni joriy qilishning nazariy asoslari yaratildi. Ushbu dasturni tuzishda bir qator psixokorreksion yo'nalishlar asos qilib olindi.

Psixologik rivojlantirish faoliyati asosini xorijiy talabalardagi oliy ta'limga moslashish ko'nikmalarini rivojlantirish, atrofdegilarni insonlarni hamda o'z-o'zini qabul qilish darajasini oshirish, ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yishga ko'maklashish, emotsional holatini barqarorlashtirish, didaktik qiyinchiliklarni yengib o'tish malakasini rivojlantirish, kasbiy kelajagini ko'ra olishiga qaratilgandir.

Psixodiagnostik tekshiruv jarayoni ushbu tadqiqotning muhim bosqichi bo'lib, olingan natijalar asosida xorijiy talabalar bilan olib boriladigan psixologik yordam ishlari rejalashtirildi va maqsadlar aniqlab olindi. Asosiy maqsad va vazifalarimiz xorijiy talabalarning oliy ta'limga muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlaydigan shaxs xususiyatlarini shakllantirishdir. Tadqiqotning ushbu qismida zamonaviy psixologiya yo'nalishlardan psixoanaliz, gumanistik psixologiya, kognitiv terapiya, geshtaltterapiya, psixodrama kabi yondashuvlar hamda relaksatsiya mashg'ulotlaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar: Tadqiqotning tashxis bosqichida birinchi bosqich xorijiy talabalarda oliy ta'limga moslashish darajasining pastligi, emotsional qulaylikni his qilish bog'liq muammolar, uchinchi bosqichlarida esa boshqalarni qabul qilish darajasi, o'z-o'zini baholash va qabul qilishda ijobiy yondashuvning yo'qligi kabi holatlar kuzatildi. Shu sababdan, oliy ta'limga moslashishda qiyinchiliklarga uchrayotgan xorijiy talabalar trening mashg'ulotlarda qatnashadigan respondentlar sifatida ro'yxatga kiritildi.

Rivojlantiruvchi dasturimizda qatnashgan xorijiy talabalarning aniqlashtiruvchi psixodiagnostik natijalari tahlil qilindi va dastur asosini tashkil qilgan psixoterapiya usullari asosida mashg'ulotlar ishlanmasi tuzildi. Shuningdek, xorijiy talabalarning ta'lim muassasasidagi shaxslararo munosabatlar tizimi, ta'lim olish jarayonidagi umumiy psixologik holati o'rganildi va fikr-mulohazalari tinglandi.


Mazkur dastur eksperimental guruhda qatnashgan 30 nafar xorijiy talabalar uchun o'n ikkita mashg'ulotdan iborat bo'lib, har bir mashg'ulot 2 soatga mo'ljallangan. «Universitet umumiy uyimiz» maxsus psixoterapevtik rivojlantiruvchi dasturning bosh maqsadi xorijiy talabalarning oliy ta'limga moslashish darajasini oshirish ekanligini inobatga olgan holda, mashg'ulotlar davomida sinaluvchilarning moslashish jarayoniga resurs sifatida yordam berishi mumkin bo'lgan shaxs xususiyatlarini rivojlantirish, o'z-o'zini qabul qilish, kasbiy kelajagini anglash, atrofdegil insonlarni qabul qilish, imkoniyatlar darajasini ko'rib chiqish g'oyalarini shakllantirish, qiyinchiliklar tug'iladigan vaziyatlarda ratsional yechim topa olish, emotsional holatni his qilishlari va namoyon qilishlariga e'tibor berildi.

Dastur mashg'ulotlari uzviylik, tizimlilik, integrativlik va yaxlitlik tamoyili asosida olib borildi. Eksperimental guruhda psixodiagnostik natijalarda quyi ball to'plagan va trening mashg'ulotlarda qatnashishga xohish bildirgan xorijiy talabalar ishtirok qildi. Talabalar bilan mashg'ulotlar guruhiy va individual tarzda olib borildi va rivojlantiruvchi dastur oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- oliy ta'limga moslashish darajasini oshirish;
- o'z-o'zini qabul qilishga o'rgatish;

- talabalarda ratsional fikrlashni o‘stirish;
- o‘z-o‘zini rag‘batlantira olish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- emotsional barqarorlikka erishish orqali emotsional komfort darajasini oshirish va hissiyotlarni boshqara olish;
- liderlik, o‘zining kuchli tomonlarini anglash va namoyon qilishga qaratilgan ko‘nikmani rivojlantirish;
- kommunikativ kompetensiyani, muloqotda psixologik aloqani o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash qobiliyatini hamda samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- atrofdagi insonlarga nisbatan hamdardlik va empatiyani rivojlantirish;
- kasbiy o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirish.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib, xorijiy talabalarning oliy ta’limga moslashish jarayoniga psixologik yordam ko‘rsatish modeli ishlab chiqildi va dastur «Universitet umumiy uyimiz» deb nomlanib, ushbu dastur tizimlilik, yaxlitlik, integrativlik, uzviylik hamda bir-birini to‘ldiruvchi tamoyillarga asosan tuzilgan. (1-rasm).



1-rasm. “Universitet umumiy uyimiz” rivojlantiruvchi dastur orqali xorijiy talabalarni oliy ta’limga moslashtirish modeli

Tadqiqotda ishlab chiqilgan «Universitet umumiy uyimiz» rivojlantiruvchi dasturining vazifalari asosida ishlab chiqilgan trening mashg‘ulotlari xorijiy talabalarning oliy ta’limga moslashish jarayoniga ta’sir qiladi. Jumladan, ijtimoiy moslashish sohasi bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar, ya’ni xorijiy talabalarni oliy ta’lim muassasasining umumiy tuzilmasi, o‘quv binolarining joylashganligi bilan tanishtirish, oliy ta’lim muassasasi kampusi bo‘ylab ekskursiyalar tashkil qilish ularda ta’lim muassasasining tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlarni shakllantirish, guruhiy munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qildi. Bu borada oliy ta’lim muassasasi xorijiy talabalar fakulteti mas’ullari va tyutorlari psixolog mutaxassis bilan hamkorlik qilishi lozim.

Shuningdek, xorijiy talabalar o‘zlarining talabalik statusini anglashlari, huquq va majburiyatlarini bilishlari muvaffaqiyatli moslashishlari uchun, ayniqsa, muhimdir. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda oliy ta’lim muassasasi amaliyotchi psixologi yordamchi-assistent sifatida qatnashdi.


Xorijiy talabalarning oliy ta’limga moslashishlaridagi yana bir muhim soha bu psixologik moslashish sohadir. Bizga ma’lumki, psixologik moslashish xorijiy talabalarning oliy ta’limga moslashishida juda zarur qism hisoblanadi. Eng muhimi, mazkur soha xorijiy talabalarning o‘ziga xosligi, ichki resurslari va salohiyatini ochib berishga hissa qo‘shish, ularni o‘zini shaxsiy resurslarini jalb qilishga undash orqali shaxsiyatini rivojlanishiga yordam beradi.

Xorijiy talabalarning ta’limdagi o‘qishining samaradorligi ulardagi kognitiv soha rivojiga bevosita bog‘liqdir. Chunki aynan oliy ta’lim muhitiga moslasha olmaslik natijasida kelib chiquvchi zo‘riqish va xavotir hissi ostida xorijiy talabalarning kognitiv funksiyalarining buzilish va faoliyat samaradorligi pasayish holatlari bo‘lishi mumkin.

Rivojlantiruvchi dastur orqali atrof dunyoni tushunish va uni yaxshilashni xohlaydigan talabalarning ichki dunyosini shakllantirish orqali, psixikaning asosiy funksiyalarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Ijtimoiy, psixologik moslashish sohalari hamda kognitiv soha rivojlanishi asosida yangi muhitga va ta’limga moslasha olmasdan turgan, yolg’izlik, uyni qo’msash hislari qiynayotgan, yangicha talablarni, atrof-muhitni, o’zini qabul qilishda muammolarga uchrayotgan xorijiy talabalar rivojlantiruvchi faoliyat jarayonida aktivlashadi. Talabalar ijtimoiy muhitda o’z o’rnini topishga, atrofda insonlar bilan mazmunli muloqot qilishga o’rganadilar. Bu esa ularning oliy ta’limga moslashish darajalarini oshirishga xizmat qiladi.

Dasturning amaliy bosqichi 12 haftaga mo’ljallangan bo’lib, xorijiy talabalarga yangi ijtimoiy-madaniy muhitni tanishtirish, ularga ijtimoiy-huquqiy maslahatlar berish, ruhiy jihatdan qo’llab-quvvatlashga ko’maklashish, psixologik trening mashg’ulotlarini o’tkazish, psixologik yordamni tashkil etishda individual va guruh psixoterapiyani qo’llash, ularning ruhiy holatini baholash va o’rganish uchun guruhda yakuniy psixodiagnostika o’tkazish nazarda tutildi.

Tadqiqotning eksperiment guruhiga jami 30 nafar respondent jalb qilingan bo’lib, ular bilan olib borilgan rivojlantiruvchi dastur samaradorligini aniqlash uchun qayta so’rovnoma o’tkazildi va quyidagi jadvalda Vilkokson mezonini asosida xorijiy talabalardan rivojlantiruvchi trening mashg’ulotlardan keyin olingan natijalar tahlil qilindi.



2-rasm. «Talabalarda ijtimoiy-psixologik moslashishni diagnostika qilish» metodikasining natijalari, (Uilkokson mezonini asosida, n=30)

K.R.Rodgers va R.E.Daymondning «Ijtimoiy psixologik moslashishni diagnostika qilish» metodikasi shkalalarida trening mashg’ulotlardan keyingi natijalar o’rtasidagi statistik farqlar mavjudligi aniqlandi.

Moslashish darajasi ($W=-3,962$; $p \leq 0,01$) ko’rsatkichlarida ijobiy farqlar aniqlangan. Bunga ko’ra xorijiy talabalarning moslashish darajasi ortganligini ko’rish mumkin.

Tajribadan oldingi natijalarga ko’ra xorijiy talabalarda bu ko’rsatkich past darajada ekanligini inobatga olsak, xorijiy talabalarning yangi muhit shart-sharoitlariga ko’nikmaganligi, yangi ijtimoiy muhit hamda oliy ta’lim talablariga hali moslashmaganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birgalikda, moslashish darajasining pastligi ulardagi o’z shaxsiy resurslarini safarbar eta olmaslik, yangi muhitni va atrofda insonlarni qabul qila olmaslik bilan namoyon bo’lgan edi.

Dasturdan keyin ushbu shkala bo’yicha farqlar o’zgarganini, xorijiy talabalarda boshqalarni qabul qila olish, o’zini adekvat baholash, hissiy qulaylik kabi holatlar ortganligini ko’rish mumkin.

Trening mashg’ulotlardan oldingi natijalarga ko’ra xorijiy talabalarda bu ko’rsatkich past darajada ekanligi o’z-o’zini anglash, o’zini rivojlantirish, takomillashtirish uchun imkoniyatlarni ko’ra olmaslik, xatti-harakatlarini ma’lum bir tartibda tutish va o’zini baholash darajasining pastligi bilan namoyon bo’lgan edi.

Trening mashg’ulotlardan keyin ushbu shkala bo’yicha farqlar o’zgarganini, xorijiy talabalarning o’zini baholashi yuqorilashishi natijasida o’z-o’zini qabul qilish darajasi, maqsadi yo’lida o’zidagi zahiraviy resurslarni safarbar eta olishi oshganini ko’rish mumkin.

Emotsional qulaylik darajasi shkalasi ($W=3,948$; $p \leq 0,01$) ko’rsatkichlarida statistik farqlar aniqlangan. Bunda xorijiy talabalarning emotsional qulaylik darajasi ortganligini ko’rish mumkin.

Dasturdan oldingi natijalarga ko‘ra xorijiy talabalarda bu ko‘rsatkich past darajada ekanligi, ya‘ni, inson o‘zini xotirjam va xavfsiz his qiladigan psixologik va hissiy qulaylik holati pastligi bilan namoyon bo‘lgan edi.

Mashg‘ulotlardan keyin ushbu shkala bo‘yicha farqlar o‘zgarganini, xorijiy talabalarning atrof-muhit bilan xayrixoh munosabatda bo‘lishi natijasida o‘zidagi hissiy va psixologik qulaylik, atrofdagilar bilan do‘stona, ijobiy emotsional munosabatlar, ishonch darajasi, o‘zini xavfsiz sezish darajasi ortganligini ko‘rish mumkin.

Yuqoridagi diagrammada «Ijtimoiy psixologik moslashishni diagnostika qilish» metodikasi tahlillari berilgan bo‘lib, unga ko‘ra, moslashish darajasi, o‘z-o‘zini qabul qilish hamda emotsional qulaylik darajasi shkalalari bo‘yicha rivojlantiruvchi dasturdan keyingi natijalar farqli ekanligini ko‘rish mumkin.

Xulosa. Oliy ta‘limga moslashishda qiyinchilikka uchrayotgan xorijiy talabalar bilan rivojlantiruvchi trening mashg‘ulotlarni olib borish, ulardagi moslashish jarayoniga yordam beruvchi shaxs xususiyatlarini, zahiraviy imkoniyatlarini rivojlantirish va safarbar etishda muhim yordamchi tizim sifatida namoyon bo‘ldi. Shu bilan birgalikda, ushbu dastur xorijiy talabalarning ijtimoiy, psixologik moslashish hamda kognitiv sohalariga psixologik ta‘sir ko‘rsatish orqali moslashish ko‘nikmasini rivojlantiribgina qolmasdan, ushbu muammo bilan bog‘liq qiyinchiliklarni bartaraf qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, xorijiy talabalarda oliy ta‘limga moslasha olmaslik fonida o‘z-o‘zini qabul qilishdagi muammolar, o‘zini adekvat baholay olmasligi tufayli ichki qarama-qarshiliklar yuzaga kelishi natijasida emotsional barqarorlikning, qulaylikning pasayib borishi kuzatildi. Rivojlantiruvchi dastur mazkur holatlarni yuzaga keltirgan sabablarning yechimi shaxsning o‘zida ekanligini anglatgan holda, emotsional qulaylikni oshirishga xizmat qiladi.

Rivojlantiruvchi dasturdagi mashg‘ulotlar to‘plami, psixologik texnikalar, integrativ ketma-ketlik, tizimlashtirilgan holda tuzilgan bo‘lib, shaxsning ijtimoiy, psixologik moslashish hamda kognitiv sohalariga psixologik ta‘sir ko‘rsatish modeli asosida ishlab chiqilgandir.

Dasturdan o‘rin olgan mashg‘ulotlarda tanlangan mashqlar ilmiylik, tizimlilik, integrativlik va yaxlitlik tamoyillari asosida olib borildi. Natijada, oliy ta‘limga moslashish darajasi past xorijiy talabalarda moslashish, o‘z-o‘zini qabul qilish, emotsional qulaylik ko‘rsatkichlarining oshishiga erishildi va buning natijasida dastur samaradorligi ta‘minlandi.

Adabiyotlar:

1. Реан А.А., Кудашев А.Р., Баранов А.А. Психология адаптации личности. СПб.: ПраймЕВРОЗНАК, 2008. – 479 с.
2. Trice, A. (2004). Mixing it up: International graduate students' interactions with American students. *Journal of College Student Development*, 45(6), –Pp.671-687. <https://doi.org/10.1353/csd.2004.0074>
3. Шибанова Ю.В. К вопросу адаптации студентов на начальном этапе обучения в вузе // Вестник Бурятского государственного университета. 2016. №1. –С.44–49.
4. Smith R.A, Khawaja N.G. (2011). A review of the acculturation experiences of international students. *International Journal of Intercultural Relations*, 35, –Pp.699-713.
5. Сурыгин А. И. Основы теории обучения на неродном для учащихся языке / А. И. Сурыгин. – СПб.: Издательство Златоуст, 2000. – 230 с.
6. <https://mir-nauki.com/PDF/07PDMN519.pdf>

OTM TALABALARINING KASBIY KOMPETENTSIYASINI KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI TAKOMILLASHTIRISH KONSEPSIYASI

Atayeva Nilufar Saliyevna,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Xorijiy tillarni o‘qitishi” kafedrası dotsenti, (PhD)

Ta’lim jarayonini tashkil etish va o‘tkazishdagi asosiy vazifa – bu oldindan rejalashtirilgan natijaga olib boradigan harakatlarning majburiy va izchil elementlarini ishlab chiqishdan iborat. Kredit ta’limga o‘tishda barcha olimlar kredit ta’lim paradigmasini qabul qilmadilar, ya’ni bunda talaba o‘z-o‘zidan o‘rganishi, o‘qituvchi boshqaruvni tashkil etishi va rag‘batlantirishi kerak bo‘ladi. Zamonaviy pedagogika, muvaffaqiyatli natijalarga erishilganda, assimilyatsiya qilishning individual xususiyatlari va materialni o‘rganishning individual tezligi uchun qat’iy belgilangan vaqt bo‘lmasligi kerak, degan xulosaga keldi.

Kalit so‘zlar: kredit, tizim, kasbiy, kompetentsiya, takomillashtirish, konsepsiya, ta’lim, ko‘nikma, modul, texnologiya.

CONCEPT OF IMPROVEMENT PROFESSIONAL COMPETENCE OF CREDIT-MODULE SYSTEM

The main task in the organization and conduct of the educational process is the development and consistent elements of actions leading to a pre-planned result. In the transition to credit education, not all scientists accepted the paradigm of credit-module education, that is the student should learn on his own and the teacher should organize and motivate. Modern pedagogy has come to the conclusion that successful results are achieved there should be no fixed time for individual characteristics of assimilation and individual speed of learning the material.

Key words: credit, system, professional, improvement, concept, education, module, technology.

КОНЦЕПЦИЯ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНУЮ

Основной задачей в организации и проведении образовательного процесса является выработка обязательных и последовательных элементов действия, ведущих к заранее запланированному результату. При переходе к кредит модульной образованию не все приняли парадигму кредитного образования, то есть студент должен учиться самостоятельно, а преподаватель должен организовать и мотивировать. Современная педагогика пришла к выводу что при достижении успешных результатов не должно быть фиксированного времени для индивидуальной скорости усвоения материала.

Ключевые слова: кредит, система, профессионально, компетенция, улучшение, концепция, образования, навыки, модуль, технология.

Kirish. XX asrning 70-yillarida jamiyat o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi va buning natijasida ta’lim sohasida yangi vazifalarni shakllantirish, “kelajak odami” modelini yaratish, ta’lim sifatini oshirish zarurati paydo bo‘ldi. Ta’lim jarayonini tashkil etish va o‘tkazishdagi asosiy vazifa – bu oldindan rejalashtirilgan natijaga olib boradigan harakatlarning majburiy va izchil elementlarini ishlab chiqishdan iborat. Bu boradagi ishlar o‘rganilgandan so‘ng, 1972-yilda Tokioda YUNESKO modulli ta’lim tizimini umrbod ta’lim uchun eng mos keladigan vazifalar deb tavsiya qildi. Kredit ta’lim nazariyasi – bu pedosentrizmning qutbli nazariyasi. Kredit ta’limni o‘rganishda aniq dasturiy yondashuvga ega bilimlar, ayniqsa, individual so‘rov bo‘yicha moslashuvchanlik yaqindan yordam beradi. Biroq u ta’lim oluvchilarning alohida bilim ko‘nikmalar olishini inkor etasa-da, ilmiy tushunchalar, qonunlar va hodisalar tizimi haqida chuqur bilim beradi. Modulli ta’limning maqsadli jihati o‘quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish, yangi metodlarni ishlab chiqish, eng muhimi, o‘quvchilarning yuqori faollik va ongliklikka hissa qo‘shadigan ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Hozirgi bosqichda ta’limda muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun talabalarning bilimini boshqarish zarur. Shu bois an’anaviy ta’limdan kredit ta’limga o‘tish zarurati paydo bo‘ldi. Kredit ta’limga o‘tishda barcha olimlar kredit ta’lim paradigmasini qabul qilmadilar, ya’ni bunda talaba o‘z-o‘zidan o‘rganishi, o‘qituvchi boshqaruvni tashkil etishi va rag‘batlantirishi kerak bo‘ladi. Kredit ta’lim an’anaviy ta’limga

modullari sifatida paydo bo'ldi. An'anaviy pedagogika avtoritar bo'lgan va shunday bo'lib qoladi, uning maqsadi faqat bir yoqlamalikdan iborat xolos. Bu ta'lim mazmunini taqdim etish usul, vosita va shakllari, uni o'zlashtirish va materialni o'rganish sur'ati o'rtasidagi nomuvofiqlikni yuzaga keltirib chiqaradi. An'anaviy ta'lim ma'lum miqdordagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish vazifasiga bo'ysunadi va reproduktiv tipdagi o'quv faoliyatiga asoslanadi. Modulli ta'limning asosiy vazifalaridan biri rivojlantiruvchi ta'lim bo'lsa, uning maqsadi o'quvchilarning ta'lim faoliyati sub'yekti sifatida rivojlanishini ta'minlash va quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal eta olishdan iborat:

- o'quv materialni mazmunini farqlash;
- ta'lim faoliyatini individuallashtirish;
- o'quvchilarning mustaqilligini, o'z oldiga maqsad qo'yish qobiliyatini va natija uchun mas'uliyatni rivojlantirishni rag'batlantirish;

- talabalar bilimni reyting nazorati va baholashning samarali tizimini yaratish;
- kredit doirasida individual sur'atda o'rganish uchun sharoit yaratish.

So'nggi yillarda modulli ta'lim texnologiyasi jadal rivojlanib bordi. Shu boisdan o'quvchining o'quv ma'lumotlarini ongli ravishda idrok etishga tayyorligini shakllantirishga yordam beradi, uning aqliy faoliyatini faollashtiradi, rivojlantiradi.

Ijodiy qobiliyatlar. Bundan tashqari, kredit texnologiya ta'lim paradigmasini o'qitishdan kognitivga o'zgartirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlil. Zamonaviy pedagogika, muvaffaqiyatli natijalarga erishilganda, assimilyatsiya qilishning individual xususiyatlari va materialni o'rganishning individual tezligi uchun qat'iy belgilangan vaqt bo'lmazligi kerak, degan xulosaga keldi. Aynan o'quv jarayonining ushbu bosqichida kredit ta'lim ning uslubiy asoslari bilim, ko'nikma va malakalarni sof shaklda shakllantirishdan voz kechishni va asosiy mas'uliyatini o'quvchining mustaqil bilim olish qobiliyatini shakllantirishga qaratishni ilgari suradi. Falsafaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan maxsus funksiyalarini ajratib ko'rsatish uchun kredit o'qitish metodologiyasining paydo bo'lishi va rivojlanishining falsafiy asoslariga murojaat etish kerak:

- gnoseologik (yunoncha. «gnosis» – bilish, bilish) – bilishning manbalari, shakllari va usullarini o'rganish;

- uslubiy (yunoncha «metodos» – yo'l) – bilish yo'llarini o'rganish;

- gumanistik (lotincha «humanus» – odamdan) – inson haqidagi ta'limot, ko'pincha antropologiya deb ataladi.

Faylasuf V.A. Kanke falsafaning maqsadini “insonni yuksaltirishdan, uni takomillashtirish uchun umuminsoniy shart-sharoitlarni ta'minlashdan iborat” – deb belgilagan. O'qitishga modulli yondashuvni yaratish uchun quyidagi shartlar zarur deb ko'rsatiladi:

- ekzistensializm “inson o'z erkinligini amalga oshirib, o'z-o'zidan o'zini yaratadi (J.P.Sartr, A.Kamyu, M.Xaydegger) degan g'oyani ilgari suradi. Inson oqibatlar tubsizligiga aylanishidan oldin, u o'z tanlovini qilishga majburdir deb ta'kidlanadi”;

- pozitivizm, R.Avenarius konsepsiyasiga ko'ra, subyekt bilan muvofiqlashtirilgan holda mavjud bo'lgan hodisalarni o'rganishga qaratilgan, subyekt o'zini va shu orqali o'z muhitini taniydi;

- texnokratiya falsafasi (neopozitivizm) o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida ta'lim ning har bir bosqichida aniq maqsadlarni ajratib ko'rsatadi.

Olimlar modulli o'qitishning falsafiy asoslarini ancha chuqur va har tomonlama mukammal tarzda aniqlagan. Modulli ta'lim ning paydo bo'lishiga turtki bo'lgan pedagogik oqimlarni ko'rib chiqish uchun esa P. Yucevicienè bergan oqimlar tasnifidan foydalanish kerak:

- 70-yillarga qadar mavjud bo'lgan “o'qituvchi – faol shaxs” degan qoidani o'rniga “o'qituvchi ma'lum bir o'quv guruhi a'zosi bo'lib, bunda hamma o'quv jarayonining teng huquqli ishtirokchisi” dir, degan aniq bir qoida ilgari suriladi. O'quv jarayonining barcha jabhalarida o'qituvchining faol ishtirok etishini ijtimoiy tendensiyalar qatoriga kiritishni ma'qul ko'radi. Aynan shu tendensiyalar modulli texnologiyada subyektiv – subyektiv munosabatlarni keltirib chiqardi.

- Biologik oqim bixeviorizmning asosi bo'lib, matematik ta'lim nazariyasi va dasturlashtirilgan ta'limni o'z ichiga olgan texnokratik pedagogikaga taalluqlidir.

Amerikalik psixolog E.Torndik D.Uotsonning xulq-atvor nazariyasidan foydalanib, “vaziyat va javob o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish jarayoni qoniqish holati bilan birga kelganda yoki o'rnini bosganda, bog'lanishning mustahkamligi ortadi; bu aloqa norozilik holati bilan birga kelganda yoki almashtirilsa, uning kuchi kamayadi” deb hisoblaydi va har bir psixologik bog'liqlikda individual nerv sistemasining o'ziga xos holatidagi izi yotishini alohida ta'kidlaydi.

O'z navbatida, B.F. Skinner ushbu fikrlardan dasturlashtirilgan ta'lim nazariyasini yaratish uchun foydalangan. Ushbu nazariya alohida tushuntirishlar orqali kerakli natijaga yaqinlashishga yordam bergan,

bu juda sodda bo'lishi va hech qanday xatolarsiz qiyinchiliklarni yengish imkonini yuzaga keltirgan. O'qituvchi talabani rag'batlantirishga majburdir, bu esa, paydo bo'lgan aloqalarni mustahkamlashga va natijani aniqlashga yordam beradi. Bu kognitiv faoliyatni boshqarish muammosini hal qilishga yordam ko'rsatadi va talabalarning ko'nikmalarini shakllantirish uchun zarur deb sanaladi.

A.F.Talizina va bir guruh tadqiqotchilar tomonidan tarmoqlangan dasturlash nazariyasi ishlab chiqildi, bu esa o'quv jarayonini individuallashtirib, o'quvchilarga katta harakat erkinligini berdi. Chiziqli va tarmoqlangan dasturlashning kombinatsiyasiga asoslanib, ingliz psixologlari o'zlarining kamchiliklarini bartaraf etish uchun Sheffild dasturini yaratdilar. P.Y.Galperin aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasini ishlab chiqdi, bu nazariya talabaning muqarrar ravishda oldindan belgilangan natijalarga kelishiga yordam berish uchun mo'ljallangan. Bunda o'quv muvaffaqiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- stajyorning harakatlarini motivatsiya qilish;
- yangi harakatning to'g'ri bajarilishini ta'minlash;
- harakatlarning aqliy harakatlarga aylanishi va oldindan rejalashtirilgan shaklda amalga oshirilishi.

Tadqiqot metodologiyasi. Modulli ta'lim ning metodologik asoslarini o'rganib chiqib, P.Yuceviciene shunday xulosaga keladi: modulli ta'lim tizimida o'quvchilar ham, o'qituvchilar ham jarayonning faol tomonlari, lekin boshqaruv ierarxiyasida “eng yuqori bo'g'in <...> o'qituvchi bo'lishi kerak va keyingi havolalar o'quvchilarning o'z-o'zini boshqaradigan harakatlari, o'rganish va boshqariladigan qurilmalar bo'lishi kerak”.

XX asrning oxirida P.Yuceviciene modulli ta'limning nazariy asoslarini “Modulli ta'lim nazariyasi va amaliyoti” monografiyasida eng to'liq holatda ishlab chiqdi. Hozirgi vaqtda ko'plab mahalliy olimlar o'rta va oliy o'quv yurtlarida modulli ta'lim dan amaliy foydalanish muammosi ustida ishlay boshladilar. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida “ta'lim moduli” tushunchasi konsepsiyaning mazmunini, uning tarkibiy tuzilishi, xususiyatlarini ko'rib chiqish va rivojlantirish nuqtayi nazaridan intensiv tarzda foydalanilmoqda. Rus tilidagi “modul” so'zi shu qadar ko'p qirraliki, ba'zi manbalarda u “o'lchov” deb tarjima qilingan. Pedagogika ushbu atamani o'zining konseptual g'oyasiga kiritib, uning semantik ma'nosining variantlaridan biriga alohida e'tibor qaratadi va “yagona, mustaqil ravishda ishlab chiqilgan, faqat o'ziga xos funksiyani bajaradigan tugun” deb hisoblaydi.

Modulli ta'lim ning kelib chiqishi XX asrning 70-yillari boshlariga to'g'ri keladi. Modulli ta'lim asoschilaridan biri J. Rassel modulni “o'quv material va o'quvchilar uchun belgilangan harakatlarning konseptual birligini o'z ichiga olgan ta'lim majmuasi” deb ta'riflagan. B.Goldshmid va M.Goldshmidlarning fikricha, “modul – o'quvchiga aniq belgilangan maqsadlarga erishishga yordam berish uchun mo'ljallangan, oldindan rejalashtirilgan miqdordagi ta'lim faoliyati turlaridagi avtonom, mustaqil birlikdir”.

Xulosa. G.Ouens modul haqida “o'qituvchi, o'quvchilar, o'quv material va o'quvchi va o'qituvchiga individual yondashuvni amalga oshirishga, ularning o'zaro ta'sirini ta'minlashga yordam beruvchi vositalarni o'z ichiga olgan o'quv yopiq kompleksi” degan fikrni ilgari suradi. O'qituvchi talabani rag'batlantirishga majburdir, bu esa, paydo bo'lgan aloqalarni mustahkamlashga va natijani aniqlashga yordam beradi. Bu kognitiv faoliyatni boshqarish muammosini hal qilishga yordam ko'rsatadi va talabalarning ko'nikmalarini shakllantirish uchun zarur deb sanaladi. Bu ta'lim mazmunini taqdim etish usul, vosita va shakllari, uni o'zlashtirish va materialni o'rganish sur'ati o'rtasidagi nomuvofiqlikni yuzaga keltirib chiqaradi.

Modulli ta'limning metodologik asoslarini o'rganib chiqib, P.Yuceviciene shunday xulosaga keladi: modulli ta'lim tizimida o'quvchilar ham, o'qituvchilar ham jarayonning faol tomonlari, lekin boshqaruv ierarxiyasida “eng yuqori bo'g'in <...> o'qituvchi bo'lishi kerak va keyingi havolalar o'quvchilarning o'z-o'zini boshqaradigan harakatlari, o'rganish va boshqariladigan qurilmalar bo'lishi kerak”.

XX asrning oxirida P.Yuceviciene modulli ta'limning nazariy asoslarini “Modulli ta'lim nazariyasi va amaliyoti” monografiyasida eng to'liq holatda ishlab chiqdi. Hozirgi vaqtda ko'plab mahalliy olimlar o'rta va oliy o'quv yurtlarida modulli ta'lim dan amaliy foydalanish muammosi ustida ishlay boshladilar [2]. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida “ta'lim moduli” tushunchasi konsepsiyaning mazmunini, uning tarkibiy tuzilishi, xususiyatlarini ko'rib chiqish va rivojlantirish nuqtayi nazaridan intensiv tarzda foydalanilmoqda. Rus tilidagi “modul” so'zi shu qadar ko'p qirraliki, ba'zi manbalarda u “o'lchov” deb tarjima qilingan. Pedagogika ushbu atamani o'zining konseptual g'oyasiga kiritib, uning semantik ma'nosining variantlaridan biriga alohida e'tibor qaratadi va “yagona, mustaqil ravishda ishlab chiqilgan, faqat o'ziga xos funksiyani bajaradigan tugun” deb hisoblaydi.

Modulli ta'limning kelib chiqishi XX asrning 70-yillari boshlariga to'g'ri keladi. Modulli ta'lim asoschilaridan biri J. Rassel modulni “o'quv material va o'quvchilar uchun belgilangan harakatlarning

konseptual birligini o‘z ichiga olgan ta’lim majmuasi” deb ta’riflagan . B.Goldshmid va M.Goldshmidlarning fikricha, “modul – o‘quvchiga aniq belgilangan maqsadlarga erishishga yordam berish uchun mo‘ljallangan, oldindan rejalashtirilgan miqdordagi ta’lim faoliyati turlaridagi avtonom, mustaqil birlikdir”.

O‘z navbatida, B.F. Skinner ushbu fikrlardan dasturlashtirilgan ta’lim nazariyasini yaratish uchun foydalangan. Ushbu nazariya alohida tushuntirishlar orqali kerakli natijaga yaqinlashishga yordam bergan, bu juda sodda bo‘lishi va hech qanday xatolarsiz qiyinchiliklarni yengish imkonini yuzaga keltirgan. O‘qituvchi talabani rag‘batlantirishga majburdir, bu esa paydo bo‘lgan aloqalarni mustahkamlashga va natijani aniqlashga yordam beradi. Bu kognitiv faoliyatni boshqarish muammosini hal qilishga yordam ko‘rsatadi va talabalarning ko‘nikmalarini shakllantirish uchun zarur deb sanaladi [3].

A.F.Talizina va bir guruh tadqiqotchilar tomonidan tarmoqlangan dasturlash nazariyasi ishlab chiqildi, bu esa o‘quv jarayonini individuallashtirib, o‘quvchilarga katta harakat erkinligini berdi. Chiziqli va tarmoqlangan dasturlashning kombinatsiyasiga asoslanib, ingliz psixologlari o‘zlarining kamchiliklarini bartaraf etish uchun Sheffild dasturini yaratdilar [4]. P.Y.Galperin aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasini ishlab chiqdi, bu nazariya talabaning muqarrar ravishda oldindan belgilangan natijalarga kelishiga yordam berish uchun mo‘ljallangan. Bunda o‘quv muvaffaqiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- stajyorning harakatlarini motivatsiya qilish;
- yangi harakatning to‘g‘ri bajarilishini ta’minlash;
- harakatlarning aqliy harakatlarga aylanishi va oldindan rejalashtirilgan shaklda amalga oshirilishi.

Adabiyotlar:

1. Sobirova T.O. Oliy ta’limda chet tili o‘qitish metodikasi. Chet til o‘qitish metodikasining umumdidaktik prinsiplari //ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – S. 187
2. Пассов Э.И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. – М.: «Русский язык», 1989, 277 с.
3. Гурвич П.Б. О четырех общеметодических принципах обучения иностранным языкам // Иностранные языки в школе. –2003. №6. С.32 – 37.
4. Larsen – Freeman, D. Techniques and Principles in Language Teaching. – 2nd ed Oxford: Oxford University Press, 2000. –P. 55.

**BO‘LAJAK TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA METODOLOGIK YONDASHUVLAR**

Ahmedov Akmal Yusufovich,

*Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi,
akmal0086ahmedov@gmail.com*

Oxunova Sarvinoz Turg‘unjon qizi,

*Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
sarvinozohunova74@gmail.com*

Bugungi kunda bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kommunikativ kompetentligini shakllantirish masalalari asosiy va dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Ushbu maqolada tarbiya fani o‘qituvchilarining kommunikativ kompetentligini ijtimoiy hayotda ahamiyati ochib berilgan. Hozirgi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi davrida shaxsning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyat qozonishi ko‘p jihatdan uning kommunikativ kompetentligiga bog‘liq ekanligi aniq ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, kompetensiya, kommunikativ kompetentlik, pedagogik mahorat, kreativlik, kasbiy mahorat, pedagogik tajriba, metodologiya, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik qobiliyat, empatiya, samarali muloqot.

**МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ КОММУНИКАТИВНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ОБРАЗОВАНИЯ**

В настоящее время вопросы формирования коммуникативной компетентности будущих преподавателей дисциплины «Воспитание» являются одними из основных и актуальных. В данной статье раскрывается значение коммуникативной компетентности преподавателей воспитания в социальной жизни. Показано, что в условиях глобализации и стремительного обмена информацией успех личности в социальной сфере во многом зависит от уровня её коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: Компетентность, компетенция, коммуникативная компетентность, педагогическое мастерство, креативность, профессиональное мастерство, педагогический опыт, методология, культура педагогического общения, педагогические способности, эмпатия, эффективное общение.

**METHODOLOGICAL APPROACHES IN DEVELOPING COMMUNICATIVE
COMPETENCE OF FUTURE EDUCATION TEACHERS**

Today, the development of communicative competence among future educators of the discipline "Upbringing" is one of the key and pressing issues. This article highlights the significance of communicative competence for upbringing educators in social life. It clearly demonstrates that in the era of globalization and rapid information exchange, an individual's success in society largely depends on their communicative competence.

Keywords: Competence, competency, communicative competence, pedagogical mastery, creativity, professional skills, pedagogical experience, methodology, culture of pedagogical communication, pedagogical ability, empathy, effective communication.

Kirish. Bugungi taraqqiy etib borayotgan ijtimoiy hayotda, bo‘lajak o‘qituvchilarimizning kommunikativ kompetentligini oshirish va talabalar bilan ishlashda o‘z fikrini, aniq va ravon ifoda eta olmasligi dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Kommunikativ kompetentlik yoshlar bilan ishlashda ularni tushuna olishi, fikrini ifoda eta olishi, yoshlar bilan erkin muloqotda bo‘la olishini ta‘minlaydi. Bo‘lajak tarbiya o‘qituvchisi bolalarni yoshlar bilan ishlashda kommunikativ va tajribaga tayanadi, kompetensiyaga ega bo‘ladi. Ushbu maqolada kommunikativ kompetentlikni oshirishning afzalliklari ko‘rib chiqildi. Kommunikativ kompetentlikning rivojlanishi pedagogik ta‘limning sifat ko‘rsatkichlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu kompetensiya o‘qituvchining nafaqat bilim va ko‘nikmalarini, balki shaxsiy madaniyati, ijtimoiy faolligi va kasbiy etikasini ham namoyon etadi. Shu bois, bo‘lajak pedagoglar uchun kommunikativ kompetentlikni shakllantirish – kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismidir.

Zamonaviy ta’limda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda o’qituvchining shaxsiy tajribasi, madaniy saviyasi va psixologik tayyorgarligi muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, ko’p tillilik sharoitida o’qituvchining lingvistik kompetensiyasi ham kommunikativ kompetentlikning ajralmas qismi sifatida namoyon bo’ladi. Bu esa o’qituvchidan nafaqat ona tilida, balki chet tillarida ham samarali muloqot olib borish ko’nikmasini talab etadi.

Adabiyot tahlili va metodologiya. Ta’lim tizimida bugungi kunda kommunikativ kompetentlikni oshirish masalasi dolzarb bo’lib qolyotganligi sababli kompetentlik hamda kompetensiya tushunchalari keng ko’lamda quyidagi olimlar ishlari va mulohazalarida o’rganib chiqildi: B.Z.Vulfov, Y.U.Emelyanov, I.A.Zimniya, Y.M. Jukov, S. A. Ignatev, N.V.Kuzmina, L. A. Petrovskaya, G.V. Selevko, V.D. Shirshov, T.N. Sherbakova. Yuqoridagi olimlar fikrlariga qo’shimcha ravishda, kommunikativ kompetentlikni o’rganishda zamonaviy psixologik yondashuvlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Lev Vigotskiyning sotsiokultural nazariyasi muloqotning shaxs rivojlanishidagi rolini ta’kidlaydi. Shuningdek, Albert Banduraning ijtimoiy o’rganish nazariyasi orqali o’qituvchining kommunikativ modeli o’quvchilarga bevosita ta’sir ko’rsatishi mumkinligi isbotlangan.

Zamonaviy ta’lim jarayonida kommunikativ kompetentlik shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun eng muhim ko’nikmalardan biri hisoblanadi. Kommunikativ kompetentlik birinchi navbatda muloqot madaniyati ya’ni suhbat jarayonida til, nutq, va xulq-atvor qoidalariga rioya qilish demakdir. Pedagogning kommunikativ kompetensiyasi-bu o’qituvchiga o’quvchilar va boshqa insonlar bilan samarali muloqot olib borish hamda pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradigan kasbiy jihatdan muhim shaxsiy sifatlar va ko’nikmalar majmuasidir. Shuningdek, Y.M.Jukov kommunikativ kompetensiya metakompetensiya yoki yadroviy kompetensiya bo’lib, u ijtimoiy, kasbiy va shaxslararo kompetensiyalarga kiradi va ularni bog’lab turuvchi funksiyani bajaradi deya ta’kidlab o’tgan. Kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda o’qituvchining o’z-o’zini baholay olish qobiliyati ham muhimdir. Refleksiya orqali pedagog o’z muloqot uslubini tahlil qiladi, o’quvchilarning javoblariga nisbatan o’z munosabatini baholaydi va kelgusida yanada samarali yondashuvlarni ishlab chiqadi. Bu jarayon o’qituvchining kasbiy o’sishini ta’minlaydi. Har qanday tarkibiy qism kabi, o’qituvchining kommunikativ kompetensiyasi uch asosiy qism orqali belgilanadi:

- ☑ Kognitiv (o’qituvchi ushbu masala bo’yicha nimani biladi);
- ☑ Operatsional (o’qituvchi bilimlarini amaliyotda qanday qo’llaydi);
- ☑ Pozitsion-qiymatliy (o’qituvchi bu sohani qanday qabul qiladi va unga qanday munosabatda bo’ladi).

Ushbu tarkibiy qismlar o’qituvchining o’quvchilar, hamkasblar, ota-onalar, maktab ma’muriyati bilan kasbiy hamkorlikda namoyon bo’ladi. Akademik V.A.Slastenin kompetentlikni – shaxsning kommunikativlik, muloqotmandlik, konstruktivlik, tashkilotchilik qobiliyatlari majmuyi sifatida tatbiq etdi. Rus olimi A. V. Xutoriskiy kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini bir biridan farq qilishini ko’rsatib bergan. M.Ochilov fikricha: „kompetentlik – bilim asosida, ishning ko’zini bilib, faoliyat yuritishdir”,-degan fikrni bildiradi bundan tashqari U.Inoyatov ham kompetentlikni – bilim va metodlarni vaziyatga qarab moslashtirish qobiliyati sifatida tatbiq etadi va bu faoliyatda tanqidiy mushoxada yuritish, to’g’ri qaror qabul qila olish, soxta dalillari asosli ravishda inkor etish, samarali natijalarni amaliyotda qo’llay olish qobiliyati sifatida tavsiflangan.

F.N.Gonobolin pedagog shaxsida quyidagi qobiliyatlarning namoyon bo’lishini muhim deb hisoblaydi:

- o’quvchini tushuna olish qobiliyati ;
- yosh, psixologik jihatdan barcha o’quvchilar o’zlashtira oladigan materiallarni taqdim eta olish qobiliyati;
- o’quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish qobiliyati;
- tashkilotchilik qobiliyati;
- pedagogik takt;
- o’z ishining natijalarini ko’ra olish va b.

Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan treninglar, rolli o’yinlar, muhokama klublari va reflektiv mashg’ulotlar katta ahamiyatga ega. Bu metodlar orqali o’qituvchilar o’zlarining muloqotdagi kuchli va zaif tomonlarini anglaydi, o’z ustida ishlashga motivatsiya hosil qiladi. Ayniqsa, zamonaviy pedagogikada “emotsional intellekt” tushunchasi bilan bog’liq kompetensiyalar kommunikativ kompetentlikni chuqurlashtirishda muhim rol o’ynaydi. O’qituvchining hissiy barqarorligi, empatiya ko’rsatish qobiliyati, stressga bardoshlilik darajasi muloqot samaradorligini belgilovchi omillardandir.

Natija va muhokama. Kommunikativ kompetentlikning ta’lim sifati va o’quvchi shaxsiga ta’siri o’qituvchining kommunikativ kompetentligi nafaqat o’quv jarayonini jonlantiradi, balki o’quvchilar

shaxsning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Kommunikativ kompetentlikni baholash mezonlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish ta'lim sifatini oshirishda muhim qadam bo'ladi. Bu mezonlar orasida nutq aniqdigi, fikrni mantiqiy bayon qilish, tinglovchini anglay olish, savol-javobda faollik, nizoli vaziyatlarda konstruktiv yondashuv kabi ko'rsatkichlar mavjud. O'qituvchining bu ko'nikmalarini rivojlantirish uchun pedagogik refleksiya, mentorlik tizimi va o'zaro tajriba almashish muhim vositalardir. Ta'lim muhitida kommunikativ kompetentlikni baholash uchun maxsus diagnostik metodlar ishlab chiqilmoqda. Masalan, olim Tojiboeva G.R. tomonidan ishlab chiqilgan 8 kompetensiyali model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Predmetli kompetentlik – fan bilimlarini chuqur bilish va amaliy qo'llash;
- Didaktik kompetentlik – o'quv jarayonini samarali tashkil qilish;
- Diagnostik kompetentlik – o'quv jarayonidagi muammolarni aniqlash va baholash; • Menejerlik kompetentlik – ta'lim jarayonini boshqarish;

kompetentlik – ta'lim jarayonini boshqarish;

- Kreativ kompetentlik – yangiliklarni joriy qilish va ijodiy yondashuv;
- Texnologik kompetentlik – axborot-kommunikatsion texnologiyalarni samarali qo'llash;
- Kommunikativ kompetentlik – samarali muloqot va pedagogik hamkorlik;
- Refleksiv kompetentlik – o'z faoliyatini baholash va takomillashtirish.

Bu metodlar pedagogik refleksiya va kasbiy rivojlanish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Samarali muloqot:

- O'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi;
- Savol-javoblar, muhokamalar orqali tanqidiy fikrlashni shakllantiradi;
- Mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish, bahslashish madaniyatni rivojlantiradi;
- O'quvchining o'z-o'zini qadrlashi va ijtimoiy faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi ta'limda raqamli vositalar orqali olib borilayotgan muloqot onlayn darslar, videolarlar, vebinarlar orqali o'qituvchining kommunikativ kompetentligiga qo'yilayotgan talablar yanada ortdi. Endilikda o'qituvchi nafaqat an'anaviy muloqot vositalarini, balki virtual muhitdagi madaniyatni ham egallagan bo'lishi zarur. Kompetensiya-muayyan muammo va masala, hodisa borasida shaxsning bilim, tajriba, mutasaddilikka ega bo'lishni o'zida ifoda etadi.

E.F. Zeer pedagogik faoliyatining turli qirralarni o'rganib chiqib, kasbiy shaxsni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi pedagogik kompetensiya turlarini aniqladi: aniqlik bilan faoliyat, ijtimoiy-kommunikativ, shaxsiy va individual. Milliy pedagogikada kompetensiya atamasi XX-asrning 90-yillarida paydo bo'ldi. E.G'oziyev “kompetensiya” tushunchasini: “bilim, ko'nikma, malaka qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatdagi ko'rinishi”, deb ta'riflaydi. Demak, o'qituvchida kompetensiya ko'rinishlari umumiy va maxsus tarzda namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda o'qituvchining ijtimoiy ko'nikmalari quyidagilarda o'z ifodasini topmoqda:

- -faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, unga ijobiy yondashuv;
- -o'z-o'zini namoyon qilish, jamiyatni tahlil qila olish;
- -pedagogik jarayon ishtirokchilari bilan ijtimoiy muloqotda bo'lish o'z ustida tinimsiz ishlash;
- -vaziyatni baholash va muammolarni echish, boshqaruv ko'nikmasiga ega bo'lish

Zamonaviy o'qituvchining kompetensiyasi-o'z mutaxassisligi va ixtisosligi doirasida bilim ko'nikma, malakaga ega bo'lishi bilan belgilanadi va shaxsiy qadriyatlari, sifatleri, kvalifikatsiyasining namoyon bo'lishida ifodalanadi.

Kommunikativ kompetensiya namoyon bo'ladigan holatlar:

▪ Nutqni egallash: og'zaki va yozma nutq madaniyati yuqori bolishi tilning ifoda vositalaridan foydalanish, fikrni aniq va tushunarli bayon qila olish.

▪ Nonutqiy muloqot: mimika, ishora va tashqi qiyofaning ifodaliligi, suhbatdoshning tanasi tilini tushuna olish.

▪ Aloqa o'rnatish: oquvchining holatini anglash, hissiy boglanish o'rnatish qulay va ijobiy muhit yaratish.

▪ Nizoli vaziyatlarni hal etish: nizolarning oldini olish va ularni hal etish, tortishuvli vaziyatlarda ikki tomonga ham ma'qul yechim topish.

▪ Refleksiya: muloqot jarayonida o'z kuchli va zaif tomonlarini anglash va tahlil qilish qobiliyati

O'qituvchi maxsus ehtiyojli bolalarni oddiy bolalar bilan birgalikda muloqotga jalb qilinishi, ularni juftlik va guruhlarda birlashtirib, ayniqsa mehnat, jismoniy tarbiya tasviriy san'at, qoshiq va musiqa darslarida ular muvaffaqiyat qozonishi mumkin bo'lgan faoliyatlarda qatnashtirishi zarur. Shu yo'l bilan oqituvchi integratsiyalashgan bolalarning yolgizlik va chetlanish holatini yengib otadi, sinf jamoasida muloqotni tashkil etadi va oquvchilarning kommunikativ konikmalarini rivojlantiradi.

Hozirgi tadqiqotlarda, “kommunikativ kompetensiya” tushunchasi keng ma’noda o’rganilmoqda, biroq uning mazmuni haqida yagona fikr mavjud emas. U turli tatqiqotchilar tomonidan quyidagicha izohlanadi:

- Shaxslararo munosabatlarda samarali muloqot qurish uchun zarur ichki resurslar tizimi:
- Shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun kerakli darajada o’rganilgan muloqot tajribasi:
 - Kasbiy jamoaviy faoliyat va kasbiy muloqot usullarini egallash hamda o’z faoliyati natijalari uchun ijtimoiy mas’uliyat hissi:
 - Kommunikativ vazifalarni samarali hal qilish qobiliyati, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari va muloqot samaradorligini ta’minlovchi omil sifatida:
 - Samarali muloqot qilish va kommunikativ konikmalarning shakllanganligi:
 - Murakkab muloqot ko’nikma va mahoratlarni egallash, madaniy normalar, urf-odatlar etiket qoidalarini bilish va rioya qilish:
 - Muloqotga kirisha olish va erkin aloqa o’rnatish qobiliyati:
 - Shaxsning kommunikativ xususiyatlari va salohiyatini ifoda etuvchi yaxlit va barqaror psixik tuzilma:
 - Og’zaki va yozma nutq, dialog, monolog, matn yaratish va qabul qilish, kross madaniy muloqot, ish yozishmalari, biznes tili, chet tillarda muloqot qilish kabi konikmalarni o’z ichiga olgan, turli vaziyatlarni muloqotga tayyorgarlik va undan qoniqish olish qobiliyati.

Xulosa. Kommunikativ kompetentlik shaxsning nafaqat bilim va ko’nikmalarini, balki jamiyatda o’z o’rnini topishi, samarali muloqot olib borishi, fikrini ravon ifodalay olishi hamda boshqalarni to’g’ri anglay bilishini ta’minlaydigan muhim sifatdir. Bugungi globallashuv jarayonida ushbu kompetentlikni shakllantirish bo’lajak pedagoglarning kelajakdagi kasbiy faoliyati va ijtimoiy hayotida muvaffaqiyat qozonishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Demak, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish nafaqat ta’lim jarayonida, balki kundalik hayotiy tajribada ham uzluksiz ravishda qo’llab-quvvatlash lozim. Shu tariqa, mazkur sifatni shakllantirish har bir insonning intellektual, ma’naviy va kasbiy kamolotga xizmat qiladi. Kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda o’qituvchining shaxsiy namunasi katta rol o’ynaydi. O’qituvchi o’zining muloqotdagi madaniyati, hurmatli yondashuvi, ochiqqligi va adolatli munosabati orqali o’quvchilarga ijtimoiy muloqotning eng yaxshi namunalarini ko’rsatadi. Bu esa o’quvchilarda o’z fikrini erkin ifodalash, boshqalarni tinglash, bahslashish madaniyatini rivojlantiradi.

Adabiyotlar:

1. Axmedov A.Y. Bo’lajak psixologlarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muammosini o’rganishning nazariy asoslari. *Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ)*(2023)
2. Muslimov N.A. (2007) Kasbiy ta’lim o’qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss.T.: - 349 b.
3. Qo’shvaqto’v N.X. (2006) O’quvchilarni milliy-ma’naviyat qadriyatlarini o’rganish va tayyorlashning pedagogik va kompyuterli asoslari: Ped.fan.nomz. diss. - T.: 2006.
- 3.Yusufovich A.A. (2022) Bo’lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini shakllantirishning dolzarb masalalari. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(10), 224-227.
4. Yusufovich A. A., & Alisher o’g’li, E.O. (2022). Psychological and pedagogical opportunities for the formation of communicative competence in future teachers. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 1157-1161.
- 5.Yusufovich A. A. (2022). Developing the communicative competence of future teachers is an effective measurement for self-organization. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(1), 302-304.

TA'LIM TASHKILOTIDA METODIK ISHNING INTERFAOL SHAKLLARI

Atayeva Maloxat Isakovna,

Urganch davlat universiteti, “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrası” katta o‘qituvchisi
moxim1221@gmail.com

Ushbu maqolada ta’lim tashkilotida metodik ishning interfaol shakllari, jumladan, kuratorlik metodikasi, kouching va virtual muhitda o‘z ustida ishlash jarayonlari tahlil qilinadi. Rossiya va Yaponiya olimlarining ilmiy qarashlari asosida interfaol metodlarning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanishi yoritilgan va o‘qituvchining virtual didaktik muhitda o‘z ustida ishlash jarayonini etaplari, faoliyat maqsadi va dasturini jadval asosida ifodalangan. Shuningdek, mazkur maqolada pedagogik kouching tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Pedagogik kouching – bu o‘qituvchining ichki resurslarini faollashtirish, shaxsiy va kasbiy salohiyatini ochib berishga qaratilgan innovatsion metod sifatida izohlanadi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning mustaqil qaror qabul qilishini rag‘batlantirish, kasbiy rivojlanish jarayonida o‘z imkoniyatlarini chuqurroq anglash va samarali foydalanishiga xizmat qiladi. Pedagogik kouchingning asosiy tamoyillari – hamkorlik va sheriklik, shaxsga yo‘naltirilganlik, refleksiya, motivatsiya va o‘zini rivojlantirish prinsiplari asosida ochib beriladi. Bundan tashqari, kouchingni amalga oshirish algoritmi, uning bosqichlari hamda o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni keng yoritiladi. Mazkur metod o‘qituvchining nafaqat kasbiy, balki shaxsiy o‘sishini ham ta’minlab, ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, kuratorlik, kouching, virtual ta’lim muhiti, refleksiya, pedagogik jarayon, “mahorat shkalasi” usullari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kasbiy rivojlanish.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МОДЕЛИ МЕТОДИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

В данной статье рассматриваются интерактивные формы методической работы в образовательной организации, в том числе кураторская методика, коучинг и процессы самостоятельной работы в виртуальной среде. На основе научных взглядов российских и японских учёных раскрываются теоретические основы и практическое применение интерактивных методов, а также этапы, цели и программа самостоятельной работы педагога в виртуальной дидактической среде, представленные в таблице. Кроме того, анализируется понятие педагогического коучинга, его сущность и практическая значимость. Педагогический коучинг объясняется как инновационный метод, направленный на активизацию внутренних ресурсов педагога, раскрытие его личного и профессионального потенциала. Такой подход способствует стимулированию самостоятельного принятия решений учителями, более глубокому осознанию и эффективному использованию собственных возможностей в процессе профессионального развития. Основные принципы педагогического коучинга раскрываются на основе сотрудничества и партнёрства, личностной ориентации, рефлексии, мотивации и саморазвития. Также подробно рассматриваются алгоритм реализации коучинга, его этапы и роль в поддержке профессиональной деятельности учителей. Данный метод обеспечивает не только профессиональный, но и личностный рост педагога, выступая важным фактором повышения качества образования.

Ключевые слова: интерактивные методы, кураторство, коучинг, виртуальная образовательная среда, рефлексия, педагогический процесс, методы «шкалы мастерства», современные педагогические технологии, профессиональное развитие.

INTERACTIVE FORMS OF METHODOLOGICAL WORK IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

This article examines the interactive forms of methodological work in educational institutions, including curatorial methodology, coaching, and self-directed work in a virtual environment. Based on the scientific views of Russian and Japanese scholars, the theoretical foundations and practical applications of interactive methods are presented, along with the stages, objectives, and program of teachers' self-development in a virtual didactic environment, expressed in a tabular form. The concept of pedagogical coaching, its essence, and practical significance are also analyzed. Pedagogical coaching is explained as an innovative method aimed at activating teachers' internal resources and revealing their personal and

professional potential. This approach fosters independent decision-making, deeper awareness, and effective use of one's own capabilities in the process of professional development. The key principles of pedagogical coaching are revealed through cooperation and partnership, learner-centeredness, reflection, motivation, and self-development. Furthermore, the algorithm of coaching implementation, its stages, and its role in supporting teachers' professional activity are extensively highlighted. This method ensures not only professional but also personal growth of teachers, serving as an important factor in improving the quality of education.

Keywords: interactive methods, curatorship, coaching, virtual learning environment, reflection, pedagogical process, “skill scale” methods, modern pedagogical technologies, professional development.

Kirish. Globallashuv va raqamli o'zgarishlar davrida ta'lim tizimida metodik ishni tashkil etish jarayonini zamon talablari asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda interfaol metodlar muhim o'rin tutadi. Xususan, kuratorlik faoliyati, pedagogik kouching va virtual ta'lim muhiti sharoitida o'z ustida ishlash jarayonlari zamonaviy pedagogik yondashuvlar sifatida keng qo'llanilmoqda.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, Rossiya va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarda pedagogik jarayonga interfaol metodlarni tatbiq etish nafaqat ta'lim sifati, balki o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayoniga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim tashkilotlarida metodik ishni samarali tashkil qilishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish zaruratini tug'diradi.

Interfaol metodlarning mazmun-mohiyati, ular ta'lim jarayonidagi afzalliklari hamda amaliy qo'llanish mexanizmlari atroflicha tahlil qilinadi. Ayniqsa, pedagogik kouching o'qituvchining ichki resurslarini faollashtirish, shaxsiy va kasbiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim vosita sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, virtual didaktik muhitda o'z ustida ishlash jarayonlari, ularning bosqichlari va metodik dasturi alohida e'tiborga olinadi. Shu tariqa, maqola zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda nazariy asos va metodik yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi.

Ta'lim jarayonida metodik ishning interfaol shakllari o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Interfaol yondashuv ishtirokchilarning faol muloqoti va hamkorligini taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Vygotskiy ta'kidlaganidek, “ta'lim jarayoni bolaning rivojlanishidan oldinda borishi kerak [6:112]. Ushbu g'oya interfaol metodlarning ilmiy-nazariy asosini tashkil etadi. Ushinskiy o'zining “Inson tarbiyasi haqida” asarida esa shunday yozadi: “Tarbiyaning kuchi o'qituvchining shaxsiy faoliyati va ruhiy ta'sirida mujassamdir” [5:56].

Yapon tadqiqotchisi Yoshida Lesson Study modelini “o'qituvchilarning hamkorlikdagi o'zaro kuzatuv va refleksiya asoslangan jarayon” deb ta'riflaydi [11:45].

Ushakov kuratorlik metodikasini “o'qituvchilarni kasbiy hamkorlikka undash va ular orasida sog'lom muloqot muhitini yaratishga qaratilgan” yondashuv sifatida izohlaydi [8:73].

Nelunova esa “multimedia ta'lim muhiti o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish bosqichlarini tizimli amalga oshirishga imkon beradi” deya ta'kidlaydi [6:27].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, kuzatuv va pedagogik tajribani umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Adabiyotlar tahlili asosida interfaol metodlarning ilmiy asoslari o'rganildi, shuningdek, amaliyotchi o'qituvchilar faoliyatidan olingan misollar orqali nazariy qarashlar mustahkamlandi.

Interfaol munosabatlar, avvalo, dialogli muloqotga asoslanadi. Bunda ishtirokchilar o'zaro tenglik tamoyiliga tayangan holda munosabatlarni o'rnatadilar. Interfaol jarayonning tamoyillari fikrlash faoliyati, tafakkur ijodkorligi, tanlov erkinligi va refleksiyaning o'z ichiga oladi.

Kuratorlik metodikasi – ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish va o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi usuldir. Konstantin Ushakovning ta'kidlashicha, ushbu metodika “o'qituvchilarni kasbiy hamkorlikka undash va ular orasida sog'lom muloqot muhitini yaratishga qaratilgan” [10:73].

Kuratorlik usulidan foydalanishning yakuniy bosqichida barcha juftliklar umumiy xulosalarini, o'rganganlari va o'z faoliyatlariga kiritgan o'zgarishlari haqida davra suhbatini o'tkazadilar. Suhbatda juftliklar, maktab o'qituvchilari, boshqa hamkasblar, boshqa maktab o'qituvchilari ham ishtirok etishlari mumkin. Davra suhbatini davomida quyidagi savollar ustida ish olib borilishi mumkin:

- Kimning shaxsiy tajribasini samarador deb hisoblash mumkin?
- Kimda shunga o'xshash pedagogik qiyinchiliklar bo'lishi mumkin?

- Ular o‘xshash professional va shaxsiy maqomga egami?

Shundan so‘ng kuratorlar potensial juftliklar bilan natijalarni muhokama qiladilar, yutuqlar rag‘batlantiriladi. Ushbu usul o‘zaro ta‘sir va kasbiy o‘sish jarayonini tashkil etuvchi muhim usullardan biri hisoblanadi.

Pedagogik kouching – bu o‘qituvchining ichki resurslarini faollashtirishga qaratilgan usuldir. Izlanishlarimiz natijasida Y.D.Nelunova tomonidan ishlab chiqilgan “Talabalarning multimedia ta‘lim muhitida o‘z-o‘zini taqdimot qilish” [8:27] modeli asosida o‘qituvchining virtual didaktik muhitda o‘z ustida ishlash jarayonini etaplari, faoliyat maqsadi va dasturini quyidagi jadvalda ifodalashga harakat qildik:

1-bosqich: O‘z-o‘zini anglash					
Faoliyat	Faoliyat	Faoliyat	Tafakkur	Harakat dasturi	Faoliyat natijasi
Faollik, motivatsiya, tahlil	Shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash, harakat belgilab dasturini olish.	AKTlarni o‘rganish asosida kechagidan yaxshiroq, faolroq bo‘lish istagi	Motivatsiya va axborotlashtirish	1. O‘quv materialini to‘liq o‘zlashtirish. 2. AKT asoslarini o‘zlashtirish. 3. Internet materiallaridan foydalana bilish	Bilimlari va imkoniyatlari doirasini belgilab oladi va yana nimalarni o‘rganishi lozimligini aniqlashtiradi.
2-bosqich: O‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini tarbiyalash bosqichi					
Faollik, refleksivlik	O‘quv faoliyati o‘z imkoniyatlarini namoyon etish, o‘ziga bo‘lgan ishonchning ortishi, mehnati samarasiga ishonchni hosil qilish.	Kechagidan ko‘ra yaxshiroq, faolroq va bilimlir bo‘lishga bo‘lgan ishonch (chunki AKTlarni yaxshi o‘zlashtirmagan)	Realizatsiya va	1. Internet materiallaridan maqsadga muvofiq foydalana bilish. 2. Word, Excel, Power Point dasturlarida ishlash malakalarini egallash.	Internet materiallari va AKT imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘z ustida ishlay boshlaydi. Erishgan natijalarini tahlil qilish asosida o‘zining yangi imkoniyatlarini kashf etadi.
3-bosqich: Shaxsiy taqdimot o‘tkazish					
Refleksivlik, kreativlik ijodiy-novatorlik	Orttirgan tajribalarini ommalashtirish	O‘zi erishgan natijalardan qanoat hosil qilish va navbatdagi faoliyat uchun motivatsiyaning	Realizatsiya va kreativlik	Internetga shaxsiy tajribalariga oid ma‘lumotlarni joylashtira bilish. Power Point. Publisher Filamentality dasturlarida ishlay bilish.	Erishgan natijalari yuzasidan taqdimot (maqola, uslubiy ko‘rsatma, qo‘llanma) tayyorlaydi, tajribalarini ommalashtiradi, Internetga joylashtiradi.

Pedagogik kouching - bu o‘qituvchining ichki resurslarini faollashtirish, uning shaxsiy va kasbiy salohiyatini ochib berishga qaratilgan innovatsion metoddir. Ushbu usul o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, mustaqil qaror qabul qilishini rag‘batlantirish, o‘z imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga yordam berishga xizmat qiladi. Kouching jarayonida asosiy urg‘u o‘qituvchining hozirgi holati va erishmoqchi bo‘lgan maqsadi o‘rtasidagi tafovutni aniqlash, unga mos strategiyalar ishlab chiqish va rivojlanish yo‘lini belgilashga qaratiladi.

Pedagogik kouchingning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Hamkorlik va sheriklik – murabbiy (kouch) va o‘qituvchi o‘zaro teng huquqli hamkor sifatida muloqot qiladi.

- Shaxsga yo'naltirilganlik – har bir o'qituvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari va kasbiy maqsadlari inobatga olinadi.
- Refleksiya – o'qituvchi o'z faoliyatini tanqidiy baholash, xatolardan to'g'ri xulosa chiqarish va yutuqlarni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.
- Motivatsiya va o'zini rivojlantirish – kouching o'qituvchini o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga undaydi.

Kouchingni amalga oshirish algoritmi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ishonchli munosabatlarni yaratish (O'zingizni qanday his qilasiz? Kasbiy rivojlanish haqida gapirishga tayyormisiz? Bugun aynan nimani muhokama qilmoqchisiz?);
- kasbiy rivojlanish maqsadi va uning o'qituvchi uchun ahamiyati va dolzarbligini muhokama qilish, maqsadga erishish mezonlarini ishlab chiqish (Siz joriy o'quv yilida kasbiy rivojlanishda qanday maqsadga erishmoqchisiz? Maqsadga erishilganligini qanday (qaysi mezonlar bo'yicha) tushunasiz?);
- mavjud vaziyat haqida gapirib, uni o'zgartirishga undaydigan qarama-qarshiliklarni aniqlash (Hozir vaziyat qanday? Kasbiy rivojlanishga nima yordam beradi yoki to'sqinlik qiladi? Nimani o'zgartirishni xohlaysiz? Nima uchun bu o'zgarishlar bu yerda va hozir muhim?); maqsadga erishishning mumkin bo'lgan usullarini ishlab chiqish va ulardan eng samaralisini tanlash (maqsadga erishish uchun qanday usullardan foydalanish mumkin edi? Maqsad sari qanday harakat qilmoqchisiz?);
- maqsadga erishish uchun ustuvor harakatlar rejasini tuzish (birinchi navbatda nima qilasiz?);
- kasbiy rivojlanish va uning natijalari haqida gapirishning ahamiyatini muhokama qilish (Kasbiy rivojlanish haqida suhbatda nima foydali bo'ldi?). Belgilangan algoritmg muvofiq, o'quv yili davomida o'qituvchining maqsadga erishishdagi muvaffaqiyati, yuzaga kelgan qiyinchilik va to'siqlar va hokazolar muhokama qilinishi mumkin. Suhbatning murabbiylik formati o'qituvchiga ongli ravishda harakat qilish imkonini berishi va ichki motivatsiya mexanizmini ishga tushirishi muhimdir. O'qituvchi bilan malaka oshirish bo'yicha murabbiy suhbatlari chog'ida “mahorat g'ildiragi” va “mahorat shkalasi” usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu usullar sizga kasbiy rivojlanishning kutilgan natijalarini grafik tarzda tasvirlash, mavjud kamchiliklarni ko'rish va ularni bartaraf etish va maqsadlarga erishish uchun qadamlarni rejalashtirish imkonini beradi.

O'qituvchilarning o'z ustida ishlash jarayonining eng yuqori bosqichi bu o'z faoliyati taqdimoti hisoblanadi. Bu jarayonda anglanganlik, motivatsiya, irodaviy sifatlar, o'z faoliyatidan qoniqish hissi namoyon bo'ladi. Pedagogik munosabatlarda yuksak axloqiy sifatleri aks etadi. Shuningdek, ushbu hamkorlikdagi munosabatlar asosida yagona maqsad shakllanadi va maqsadga erishuv davomida o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni faollashadi, o'qituvchining esa hamkorlik jarayonini to'g'ri tashkil etish malakalari rivojlanib boradi, o'z-o'zini tahlil qilishni o'rganadi.

Amaliy jihatdan pedagogik kouching o'qituvchilarning dars jarayonida duch keladigan muammolarni aniqlash, ularni hal qilishning samarali usullarini ishlab chiqish, shuningdek, kasbiy faoliyatda ijodkorlik va yangilikka intilishni kuchaytirish imkonini beradi. Masalan, darslarni loyihalashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish, interfaol metodlarni qo'llash bo'yicha maslahat va yo'naltirishlar beriladi.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, pedagogik kouching nafaqat o'qituvchining kasbiy salohiyatini oshiradi, balki uning shaxsiy o'sishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ushbu metod bugungi kunda ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularning kasbiy rivojlanishini samarali tashkil etishda keng qo'llanilmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar – kuratorlik, kouching va virtual muhitda o'z ustida ishlash – o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. O'qituvchilarning interfaol metodlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus seminar va treninglar tashkil etish.
2. Kuratorlik metodikasini muntazam ravishda amaliyotga joriy qilish.
3. Kouching yondashuvini o'qituvchilar malakasini oshirish tizimiga kiritish.
4. Virtual ta'lim muhitida o'z ustida ishlashni qo'llab-quvvatlash uchun elektron resurslar yaratish.

Adabiyotlar:

1. Атаева М.И. Повышение эффективности образовательной деятельности//Педагогическое образование – Белгородская обл., г. Белгород, 2024Том 5, № 12. – С. 210-217. (13.00.00)
2. Atayeva M.I. Ta'lim tizimida logistika tamoyillarini joriy etishning ahamiyati va zamonaviy yondashuvlar // Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендирий (ilmiy metodik jurnal) – Нөкис-2025 № ¾

3. Denisenko V. A. O'quv logistikasi asoslari. – Kaliningrad: KDU nashriyoti, 2003.
4. Gromova T. A., Selivanov A. V., O'quv jarayonining logistika-si // Reshetnevskie o'qish. – 2012. – V. 2. – №16. – S. 761–762.
5. Kraevskiy V. V., Berezhnova E. V., Metodologiya pedagogiki: novyy etap. – M.: Akademiya, 2008. – 400s.
6. Nelunova E. D, Multimedia ta'lim muhiti va o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish modeli. – Moskva: Pedagogika nashriyoti, 2020.
7. Selevko G. K. Ta'lim texnologiyalari ensiklopediyasi. – M.: Maktab texnologiyalari ITI, 2006. – 816 s.
8. Ushakov K. Kuratorlik metodikasi va pedagogik hamkorlik. – Moskva: Pedagogika, 2001.
9. Ushinskiy K. D. Inson tarbiyasi haqida. – Moskva: Pedagogika, 1988.
10. Vygotskiy L. S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1984.
11. Yoshida M. Lesson Study: An approach for teacher development. – Tokyo: Gakugei University Press, 1999.
12. Yudin E. G. Metodologiya nauki: sistemnost', deyatel'nost'. – M.: Editorial URSS, 1997. – 421 s.

O‘QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Babayeva Mahfuza Abduvoitovna,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi” kafedracu dotsenti v.b. (PhD)

maxfuza_babayeva@tues.uz

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim o‘quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Ta‘lim insonning hayoti davomidagi eng murakkab, zaruriy faoliyatdir. Ta‘limning maqsadi muayyan axborotlar, harakatlar, o‘rganilgan bilim ko‘nikma va malakalarni hayotiy faoliyatda qo‘llash layoqati, xulq-atvor shakllarini o‘zlashtirishga qaratilgan. O‘quvchilar kelgusida hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim sanaladi.

Kalit so‘zlar: kompetensiyaviy yondashuv, ta‘lim, bilim, ko‘nikma, malaka, tayanch kompetensiyalar, o‘quvchi, qobiliyat.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КЛЮЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ

Образование на основе компетентностного подхода формирует у обучающихся самостоятельность, активную гражданскую позицию, инициативность, рациональное использование медиаресурсов и информационно-коммуникативных технологий в своей деятельности, осознанный выбор профессии, здоровую конкуренцию и общекультурные навыки. Образование является сложнейшей и необходимой деятельностью в жизни человека. Целью образования является овладение умением применять в жизни определенные информацию, действия, полученные знания, умения и компетенции, формы поведения. Считается, что обучающиеся должны обладать базовыми компетенциями, необходимыми для того, чтобы вступать в личные, социальные, экономические и профессиональные отношения на протяжении всей жизни, занимать свое место в обществе, решать возникающие в этом процессе проблемы и, самое главное, быть конкурентоспособными в своей области и профессии.

Ключевые слова: компетентностный подход, образование, знания, умения, квалификация, основные компетенции, студент, способности.

PEDAGOGICAL BASIS FOR DEVELOPING KEY COMPETENCIES OF STUDENTS

Education based on a competency-based approach develops students' independence, active citizenship, initiative, rational use of media resources and information and communication technologies in their activities, informed career choices, healthy competition, and general cultural skills. Education is a complex and essential activity in human life. The goal of education is to master the ability to apply certain information, actions, acquired knowledge, skills, competencies, and behavioral patterns in life. It is believed that students should possess the basic competencies necessary to enter into personal, social, economic, and professional relationships throughout life, take their place in society, solve emerging problems, and, most importantly, be competitive in their field and profession.

Key words: competency-based approach, education, knowledge, skills, qualifications, core competencies, student, abilities.

Kirish. Ta‘limning tarkibiy qismlari – faoliyatning biror turini muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bo‘lgan axborotlarning o‘zlashtirilishi (bilim), qo‘yilgan maqsadga muvofiq keladigan usullarni to‘g‘ri tanlash uchun ko‘rsatilgan axborotdan to‘g‘ri foydalanish (ko‘nikma), notanish vaziyatlarda barcha turlarni tarkib topadigan usullar va jarayonlarning o‘zlashtirilishi (malaka) bo‘lib, o‘quv jarayonida fanga tegishli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash bilan birga, kompetensiyalarni ham shakllantirishi muhim. So‘nggi

yillarda ishtirokchilarga aniq bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan birga ularni turli hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish talabi qo'yilmoqda [11]. Tayanch kompetensiyalar - inson kim va qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, shaxsiy hayotida, kasbiy faoliyatida, ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun egallashi lozim bo'lgan layoqatlar, qobiliyatlar va hayotiy malaka va ko'nikmalar majmuidan iboratdir. Bunda har bir shaxs kommunikativ bo'lishi, axborot bilan ishlay olishi, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirishi, ijtimoiy faol fuqaro bo'lishi, umummadaniy xislatlarga ega va fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lishi nazarda tutiladi. Bu jixatlar ta'lim muassasalarida qatnashuvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib nazariy va amaliy mashg'ulotlarda, maqsadlar quyish bilan amalga oshirilib boriladi [10].

Kompetensiya (“competence” “to compete” so‘zidan kelib chiqqan) so‘zi o‘zida “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” ma‘nolarini ifodalaydi. So‘zma-so‘z tarjima qilinganda, “musobaqalashishga layoqatlilik” ma‘nosida ifodalanadi.

Psixologik-pedagogik manbalarda qayd etilishicha, kompetensiya, kompetentlilik juda murakkab hisoblanib, ko‘p qismli tarkibdan iborat, ko‘pgina fanlar uchun mushtarak bo‘lgan tushuncha hisoblanadi. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko‘ra, ham ma‘no tarkibiga ko‘ra, mantiq mundarijasi jixatidan tarli-tumandir. Atamaning mohiyati shundan iboratki, “samaradorlik”, “moslashuvchanlik”, “yutuqlilik”, “uquvlilik”, “muvaffaqiyatlilik”, “natijalilik”, “tushunuvchanlik”, “xususiyat”, “sifat”, “miqdor” kabi tushunchalar bilan tavsiflanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati-ta'lim oluvchilarning turli hayotiy vaziyatlarda egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan unumli foydalana olish layoqati, ya'ni kompetensiya-davlatning ta'lim tizimi oldiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasidir. Kompetensiyalardan ta'lim kompetensiyalarini farqlash lozim. Ta'lim kompetensiyasi o'quvchini kelajakdagi to'laqonli hayotidagi faoliyatini modellashtiradi. Masalan, fuqaro ma'lum bir yoshga yetgunga qadar ba'zi bir kompetensiyalarni tatbiq eta olmaydi. Lekin bu-ularni o'quvchida shakllantirilmaydi, degani emas. Bu holatda biz ta'lim kompetensiyasi haqida gapiramiz. Masalan, o'quvchi fuqarolik kompetensiyasini o'zlashtirsada, uni maktabni tugatganidan so'ng ishlatadi. Shunga ko'ra, bunday kompetensiyalar o'qish davrida ta'lim kompetensiyasi sifatida namoyon bo'ladi [7].

K.A.Niyozovning fikricha kompetensiyaviy yondashuvga qaratilgan ta'lim – qatnashuvchilarda shakllangan bilim va ularni tanish, notanish vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini o'z shaxsiy va ijtimoiy hayotida to'g'ri foydalanish hamda barkamol shaxs sifatida yetuklikka erishish, ongli ravishda kasb tanlash, sog'lom raqobat, turli vaziyatlarda yechim topish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi [8].

Kompetensiya tushunchasi hamda ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning vujudga kelish tarixiga oid materiallarni analiz qilinsa, fan va turmushga kirib kelishi tarixi quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich (1960-1970-yillar)da tilni o'rganishga doir dastlabki kompetensiya kiritilgan bo'lib, Dell Xayms tomonidan “kommunikativ kompetensiya” tushunchasi bilan yuritiladi.

Ikkinchi bosqich (1970-1990-yillar) da kompetensiya, kompetentlilik uning rivojlanish tarixini J.Ravenning 1984-yilda chop etilgan “Zamonaviy jamiyatda kompetentlik” nomli asarida kompetentlikka berilgan ushbu ta'rifni keltirish mumkin. Bu shunday hodisaki, u juda ko'p miqdordagi komponentlardan tashkil topgan bo'lib, ulardan ko'pchiligi bir-biriga nisbatan mustaqildir, ayrim komponentalar ko'proq kognitiv sohaga tegishlidir, boshqalari – emosional sohaga tegishli. Bu komponentalar o'z-o'zini samarali boshqarishda bir-birini to'ldirishi mumkin” deydi [2]. Shuningdek, “ijtimoiy kompetensiya” tushunchasining mazmuni ham ishlab chiqilgan.

Uchinchi bosqich (1990 va undan keyingi yillar)da esa kompetensiyaviy yondashuv kasbiy ta'limga, umumta'lim fanlariga va boshqa yo'nalish fanlarida XXI asr uchun ta'lim bo'yicha xalqaro komissiyada Jak Delorning “Ta'lim: yashirin xazina” nomli ma'ruzasida “ta'lim tayanadigan to'rtta ustunni ta'riflab beradi: – bu bilishni o'rganish, bajarishni o'rganish, birgalikda yashashni o'rganish, yashashni o'rganish”. Bu bilan globol kompetentlikning asosiy mazmunini ochib beradi [1]. S.V.Zenkina fikriga ko'ra, bajarishni o'rganish deyilganda, nafaqat kasbiy malakaga ega bo'lish, balki keng ma'noda kompetent bo'lish nazarda tutqiladiki guruhlarda ishlay olish va ish paytida yuzaga keladigan juda ko'p murakkab vaziyatlardan muvaffaqiyatli chiqib keta olish qo'llanila boshladi [6].

Ta'lim kompetensiyasi tushunchasi xususida A.V.Xutorskoy pozitsiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, unga ko'ra kompetensiyalar iyerarxiyasini ta'lim mazmuni qismlarga bo'lish asosida uchta darajaga ajratish mumkin: metapredmet (barcha predmetlarga xos bo'lgan), predmetlararo (ma'lum siklga kiruvchi predmetlar yoki bir-biri bilan bog'langan ta'lim sohalari) va predmetga oid (bitta o'quv predmetiga xos) kompetensiyalar. Bunday darajalashda ta'lim kompetensiyasi umumiy ta'limning asosiy maqsadi asosida belgilanadi. Ta'lim kompetensiyasi tushunchasini ta'limga joriy etish, ta'lim jarayonida o'quvchining

nazariy bilimlarini yetarli darajada turli vaziyatlarda qo'llashda qiyinchilik sezishidan iborat bo'lgan muammoni hal qilishdan iborat.

Kompetensiya-jamiatning barcha fuqarolariga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi bo'lib, ularning ro'yxati muayyan mamlakatdagi hamda hududdagi ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Tayanch kompetensiyalarning dunyo bo'yicha yagona ro'yxati yo'q. Chunki har bir mamlakatning yoki mintaqaning o'z an'analari, mentaliteti va o'ziga xos talablari bor. Shveysariyaning va Amerika Qo'shma Shtatlarining iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda ta'lim statistikasi Milliy institutining “Tayanch kompetensiyalarni tanlash va aniqlash” nomli loyihasida tayanch kompetensiyalarni qat'iy ravishda aniqlab olishning imkoniyati bo'lmagan [9].

Kompetensiyalarning Yevropa va Rossiya variantlari o'ziga xos mazmuniga ega bo'lib Yevropa kengashi simpoziumida quyidagi, «Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar» belgilab ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra maktab o'quvchilari quyidagilarni o'rganishi va bilishi kerak:

- tajribadan foydali bo'lgan xulosa yoki natijalarni chiqarish;
- turli fan soxalariga oid bo'lgan bilimlarni o'zaro bog'lanishi va ularni tizimlashtirish;
- o'zining shaxsiy o'rganish usullarini tashkil etish(o'rnatish);
- har bir muammolarni mustaqil yecha olishdan iborat.

Ushbu tayanch kompetensiyalar muntazam ravishda ta'limning ma'lum bir bosqichi va belgilangan o'quv predmeti uchun aniqlashtiriladi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida ham kompetensiyaviy yondoshuv masalasiga doir o'ziga xos qarashlar shakllandi. Jumladan, A. Abduqodirov, N.Azizxodjayeva, Y.Asadov, U.Begimqulov, N.Muslimov, N.Turdiyev, J.E.Usarov, R.Fayzullayev, M.M.Vahobov tadqiqotlarida masalaning pedagogik-psixologik va metodik jixatlari ochib berilganini kuzatish mumkin.

Professor N.A.Muslimov kompetentlik tushunchasi o'zida “indivdning umumiy jamiyatda va xususan kasbiy sohasida faoliyat olib borishi uchun zarur bo'lgan, atrofidagi ob'yektlar va subyektlar bilan o'zaro xamkorlik bo'yicha ma'lum bir malakalari va kasbiy tajribalari shakllanganligining muayyan darajasi” ekanligini qayd etadi [5].

Taniqli psixolog olim Y. Asadov kompetentlik haqida, “Shaxs barcha bilim, ko'nikma va tajribalarning ijtimoiy-professional mavqei hamda o'ziga tegishli bo'lgan barcha vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodir ekanligi va haqiqiy moslik darajasi” tushinilishini ta'kidlaydi [3].

Metodik R.Fayzullayev fikricha, kompetensiya “shaxs tomonidan mukammal o'zlashtirgan predmet sanaladi va u tanlagan soha faoliyat yuritish uchun tayyorgarlik mezonini vazifasini bajarsa, kompetentlik undan farqli ravishda shaxsning yo'naltirilgan tasnifi, bitiruvchining ma'lum sohada faoliyat yuritishi uchun shakllantirilgan ko'nikmadir”, deb ta'riflaydi [4].

Natijalar va muhokama. Tayanch kompetensiyalar har safar ta'limning ma'lum bir bosqichi va belgilangan o'quv predmeti uchun konkretlashtiriladi. Masalan predmet kompetensiyasi hisoblangan tarix fani bo'yicha, har qanday tarixiy voqeada turli tomonlarning manfaatlari kurashini ajratib olish qobiliyati yotadi [9].

O'quvchining kompetentligiga doir turli kompetensiyalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ular kreativ (ijodiy) yo'nalishga ega. Kreativ kompetensiyalarga “tajribadan biror foydali ma'lumot chiqarib olish”, “muammoni yecha olish”, “oldingi va hozirgi voqealar orasidagi o'zaro aloqani ochish”, “yangi yechimlarni topa olish” kabilar kiradi.

Kompetentlik – kompetensiyalardan foydalanishning minimal tajribasi hisoblanadi. Bunda o'quvchi tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni shakllantirishda hamda o'quv jarayoni [9] va o'qitishda ularning roli va o'rni tahlil qilish asosida ajratib olingan kompetensiyalarning asosiy funksiyalari quyidagilar:

- kundalik hayotda yashash uchun tayyor bo'ladigan yosh kadrlarga qo'yiladigan ijtimoiy talabning aks etishi;

- bilim, ko'nikma va malakalarini hamda faoliyat usullarini yalpi holda maqsadli qo'llashi uchun atrof-muhitdan real ob'yektlarni ko'rsatishi;

- turli o'quv predmetlari va ta'lim sohalari mazmunining tarkibiy qismi bo'lishi [7];

Tayanch kompetensiyalarning struktura komponentlari quyidagilar qilib belgilangan :

- kompetensiyaning nomi;

- kompetensiya turi (tayanch, umumfanlar, fanga oid) [9];

- kompetensiyaning jamiyat rivojidadagi o'rni;

- kompetensiyaning odamga nisbatan foydali jihati (nega o'quvchi kompetent bo'lishi lozim?);

- haqiqiy voqeylikdagi bilimlar, ko'nikma va malakalar;

- ushbu kompetensiya asosida o'quvchining harakati davomida zarur minimal tajribasi (o'qitish bosqichlari bo'yicha);

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiya – jamiyatda o'z ona tili va boshqa tillarda muloqotga kirisha olish, o'z fikrini isbotlay olish va suhbatdoshi g'oyasini hurmat qila olish xususiyatlarini shakllantirishni qayd etadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi – axborot texnologiyalaridan zarur ma'lumotlarni topish va foydalanishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi – uzluksiz o'z ustida ishlash, bilim va tajribalarini kengaytirib borish, o'zini nazorat qila olish, hayotiy vaziyatlarga to'g'ri yechim topa olishga asoslanadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – ijtimoiy va siyosiy axborotlarni tahlil qila olish, jamiyat hayotida ongli qatnashish, burch va huquqlariga amal qilish xislatlarini namoyon qiladi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga muhabbatli, milliy qadriyatlarga va dinga hurmat bilan qaraydigan, sog'lom hayot kechiradigan shaxsni tarbiyalashga e'tibor qaratadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi – matematik hisoblash va tushunchalardan foydalanishni bilgan holda hayotiy rejalarni belgilash va ijtimoiy faoliyatida qo'llay olishga qaratilgan


Ushbu tayanch kompetensiyalar alohida predmetlarning mohiyatiga ko'ra fanga doir umumiy kompetensiyalar asosida shakllantiriladi.

Keltirilgan tayanch kompetensiyalar umumiy holda berilgan va o'quvchilarning yoshiga xos faoliyatlarini inobatga olgan tarzda o'qitish bosqichlari, o'quv fanlari va ta'lim sohalari bo'yicha detallashtirishni talab etadi. Tanlangan mazkur tayanch kompetensiyalarning, ta'lim tizimi muassasalari o'quv rejasiga kiritilgan har bir umumta'lim va chuqurlashtirilgan fanlarni o'qitish jarayonida ma'lum elementlari shakllantiriladi.

Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi loyihasiga asosan tayanch kompetensiyalarni matematika fani orqali o'quvchilarda rivojlantirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar keltirilgan. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Aniq fanlar bloki yo'nalishidagi fanlar orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ular o'zlashtirgan bilimlari asosida egallagan ko'nikma va malakalarini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilishi maqsadga muvofiq. Jumladan, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda davlat tili, xorijiy tillarni o'zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og'zaki ravon bayon etish, to'g'ri talaffuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o'rgatish zarur. Xususan, matematika fanining o'z ilmiy tili, o'z tushunchalari, belgi va timsollari ham mavjud bo'lib, bu tilda muloqot qilish - kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish omili sifatida qaralishi lozim bo'ladi. Fanlarni o'qitishda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi axborot telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda zamonaviy o'quvchilarni darslik va turli o'quv manbalari bilan ishlash, matematika faniga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda turli amaliy dasturiy paket va ta'minotlardan, mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi. O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan fazilatlariga ega bo'lish, Vatanni sevishtirish, jamiyat va tabiat haqidagi bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro'y berayotgan progressiv va innovatsion o'zgarishlarga xabardor va daxldor bo'lish, doimo zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashga intilish, hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o'rgatish zarur. Shu o'rinda matematika fanini puxta o'rganish orqali o'quvchilar tartib-intizomga o'rqnadilar, har bir muammoga matematik masala sifatida qarab, uni yechishda qat'iyatli bo'ladilar. Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lish hamda badiiy va san'at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, matematika ularni haqgo'y, nohaqlikka befarq bo'lmaslik va vatanga sadoqatli bo'lish ruhida tarbiyalaydi. Matematika fanini puxta o'rgatish orqali o'quvchilarni jamiyatning faol fuqarosi sifatida rivojlantirib borishga zamin yaratiladi.

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ahamiyati muhim bo'lib, bunda o'quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish, dars jarayonida shunday muhitini yaratish kerakki, unda o'quvchi o'zini shaxs deb sezsin, o'ziga bo'lgan e'tiborni ko'rsin, o'z mehnatidan faxrlansin, o'qishda muvaffaqiyat qozonishiga va iqtidoriga ishonchi orsin. Bunda individual yondashuv metodlardan foydalanish - o'qitish

samaradorligini oshiradi. Quyida o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan individual yondashuv metodlari keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Fanda individual yondashuv

Guruhlarda ishlashni quyidagi qismlarga bo‘lish mumkin: Juftliklarda ishlashda o‘zlashtirishi bir xil yoki turlicha bo‘lgan ikki o‘quvchidan juftlik hosil qilish mumkin. Bunda yuzaga keladigan do‘stlikdan ajablanmaslik kerak, balki, guruhda turli qobiliyatli bolalar orasidagi munosabatlarga ahamiyat qaratish lozimdir. Kichik guruhlarda bir xil yoki turli darajadagi o‘quvchilar tanlanib, har bir guruhga topshiriqning turli bo‘lagini berib, birga ishlashga yunaltiriladi. Vazifalarni farqlash metodining mohiyati soddadan murakkablikka asoslangan bo‘lib, o‘zlashtirishi turlicha bo‘lgan o‘quvchilar uchun har xil vazifalar ishlab chiqishdan iborat. Masalan, bir mavzu yuzasidan ikki turdagi savollar tuzish mumkin. Hamma o‘quvchilar birinchi turdagi savollar ustida ishlashi bilan birgalikda, qobiliyatli o‘quvchilar ikkinchi tur savollari ustida ham izlanishlariga to‘g‘ri keladi. Bunda o‘quvchilarning ismlarini aytib savol berish ham samarali usul bo‘lib ishtirokchilarning diqqat-e’tiborini darsga jalb qilish va kuchli o‘quvchilardan qiyinroq savol va boshqalardan osonroq savollarning javobini so‘ragan ma’qul.

Qo‘shimcha ish yoki vazifa usulida o‘quvchilarga turli darajadagi uy vazifasi berilib, sust o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga mavzuni mustahkamlash maqsadida qo‘shimcha vazifa berish, kuchli o‘quvchilarga esa bilimlarini kengaytiradigan, ijodiy yondashuv talab qilinadigan qo‘shimcha vazifalar beriladi.

Dunyoning ba’zi mamlakatlaridagi ta’lim muassasalarida darsdan keyin o‘zlashtirishi past o‘quvchilar uchun qo‘shimcha ta’lim guruhlarini tashkil etilgan. Bu guruhlarda o‘qituvchilar yoki yuqori sinf o‘quvchilari tomonidan ish olib boriladi. Ba’zi mamlakatlarda qiyinchilikka duch kelayotgan o‘quvchilarga yordam berish uchun mentoring dasturlari mavjud.

Xulosa. Demak, o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish ta’limning inson kamoloti rivojining muhim jihatlaridan biridir. Hozirgi axborot olamida o‘qishda, kundalik faoliyatda muaffaqiyatlarga erishish uchun zaruriy ma’lumotga ega bo‘lish, ularni izlab topish, undan keraklisini ajratib olish va foydalanishni o‘rganish kerak.

Adabiyotlar:

1. Делор Жак. Основные положения Доклада Международной комиссии по образованию для XXI века. - М.:Юнеско,1996.-31с. В докладе предлагается новый подход к ступеням обучения и связям между ними, в рамках.
2. Джон Равен. Zamonaviy jamiyatda kompetentlik. - Б; 1984.-с.100
3. Asadov Y.M., Turdiyev N.Sh., Akbarova S.N., Temirov D.Sh., Babadjonov S. O‘quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiyalash metodikalari // Uslubiy qo‘llanma. – T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy – tadqiqot instituti, 2016. – 160 b.
4. Fayzullayev R. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining axborot-kommunikasion kompetentligini rivojlantirish//Kasb-hunar ta’limi. – Toshkent: 2014.– №4.-B.9-11.
5. Muslimov N. Elektron darslik yaratish metodik tamoyillari va texnologiyalari. //Info Com.UZ. – 2004. – iyul. – s 62–66.
6. Зенкина С.В. Педагогические основы ориентации информационно–коммуникативной среды на новые образовательные результаты.: Дис докт. пед. наук. М., 2007. – 302 с.
7. Бегимкулов У.Ш. Олий педагогик таълим тизимида замонавий ахборот ва коммуникация технологияларини жорий этишнинг илмий-педагогик асослари: пед. фан. доктори дисс...–Тошкент: ТДПУ, 2007. – 250 б.

8. Usmanov M. Matematika. Oliy o‘quv yurtlariga kiruvchilar uchun. Ma’lumotnoma. 2-qism. –T.: Navro‘z, 2017. - 104 b.
9. "A Systematic Review of Integrated Learning Definitions, Frameworks, and Practices in Recent Health Professions Education Literature." *Education Sciences*.
10. "Gamified learning in higher education: A systematic review of the literature." *ScienceDirect*.
11. Henze N., Nejd W. Adaptivity in the KBS hyperbook system // 2nd Workshop on Adaptive Systems and User Modeling on the WWW. – Toronto.
12. Xakkulov Y.A. Babayeva M.A. Integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik jihatlari. Vol. 3 no. 5 (2025): american journal of education and learning

UO’K:159.955.2

Ключевые слова: профессиональная компетентность, будущие инженеры, инженерное образование, практическое обучение, дуальное образование, обучение на основе проектов, производственная стажировка, педагогические подходы.

BO‘LAJAK MUHANDISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA AMALIY TA’LIM VA DUAL TA’LIMNING AHAMIYATI

Mazkur maqolada bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda amaliyot va dual ta’limning ahamiyati batafsil tahlil qilinadi. Maqolada talabalarning texnik, kommunikativ va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlar, loyiha asosidagi topshiriqlar, sanoat stajirovkasi va ish joyidagi o‘quv faoliyatining o‘rni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, dual ta’lim dasturlari orqali akademik bilimlar va sanoat talablarini uyg‘unlashtirish, talabalarning kasbiy majburiyatlarini chuqurroq tushunishi va mehnat bozoriga tayyorligini oshirish masalalari yoritilgan. Maqolada, shuningdek, amaliyot va dual ta’limni samarali tashkil etishdagi pedagogik yondashuvlar, talabalarning motivatsiyasi va o‘quv jarayonini integratsion tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetentlik, bo‘lajak muhandislar, muhandislik ta’limi, amaliyot, dual ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, sanoat stajirovkasi, pedagogik yondashuvlar.

Introduction. The preparation of future engineers requires more than theoretical knowledge; it necessitates the development of practical skills, professional competence, and the ability to apply knowledge in real-world contexts. Modern engineering demands not only technical expertise but also creative thinking, problem-solving abilities, effective communication, and teamwork skills. Therefore, practical training and dual education models play a crucial role in equipping students with the competencies needed for professional success.

Practical training engages students in laboratory work, industrial internships, and project-based assignments, allowing them to gain hands-on experience, understand industrial processes, and develop critical problem-solving skills [1]. These experiences reinforce technical proficiency while fostering the ability to make informed decisions in real professional settings. Dual education programs, which integrate academic study with structured workplace learning, have proven effective in bridging the gap between theory and practice. This approach allows students to combine classroom knowledge with real-world application, interact with professionals in their field, and cultivate both technical and soft skills necessary for modern engineering careers.

In recent years, higher education institutions worldwide have increasingly emphasized the integration of practical and dual learning models into engineering curricula. Such initiatives aim to cultivate highly competent engineers who are adaptable, innovative, and ready to contribute to technological development. The focus on experiential learning and workplace immersion ensures that students not only understand theoretical concepts but also can apply them effectively in professional settings. Additionally, dual education enhances students' employability, professional responsibility, and readiness to navigate complex industrial environments, thereby addressing both academic and industry expectations comprehensively [2].

Furthermore, the adoption of project-based learning, collaborative assignments, and digital tools within dual education frameworks allows students to develop creativity, critical thinking, and interdisciplinary problem-solving abilities. By engaging in real projects and interacting with industry mentors, students acquire a deeper understanding of professional standards and workflow, which traditional classroom-based instruction alone cannot provide. Consequently, dual education and practical training represent indispensable mechanisms for shaping the professional competence of future engineers and preparing them for the demands of rapidly evolving technological sectors.

Literature review and methodology. Practical training and dual education models have been widely recognized in the literature as essential components for developing professional competence in engineering students. Research indicates that hands-on experience allows students to understand complex industrial processes, apply theoretical knowledge, and acquire critical problem-solving skills. Biggs and Tang highlight the importance of integrating experiential learning into curricula to enhance students' readiness for professional practice. Felder and Brent emphasize that combining theory with practice not only improves technical skills but also promotes teamwork, communication, and adaptability, which are vital competencies for engineers.

Dual education programs, which alternate between classroom instruction and workplace experience, are particularly effective in bridging the gap between academic knowledge and industry requirements. Studies by UNESCO report that graduates participating in dual education are better prepared for the labor market, demonstrate higher employability, and possess a stronger understanding of professional responsibilities.

Laurillard also notes that structured industry placements help students internalize professional standards and develop self-directed learning habits, fostering lifelong learning competencies.

This study employed a mixed-methods approach, combining qualitative and quantitative research techniques. First, a thorough review of international and domestic literature was conducted to identify best practices for integrating practical and dual learning models into engineering education.

The empirical phase involved surveys and interviews with faculty members, students, and industry partners to evaluate the effectiveness of existing practical training programs. Classroom and workplace observations were conducted to assess student engagement, skill acquisition, and the application of theoretical knowledge in real-world scenarios [3].

Data were analyzed using statistical methods to quantify skill development and employability indicators, while qualitative analysis focused on thematic evaluation of interviews and observations. This comprehensive approach allowed for a detailed understanding of how practical and dual education models contribute to the formation of professional competence in engineering students.

Discussion. The results of this study highlight the critical role of practical training and dual education models in developing professional competence among future engineers. Competence in engineering is not merely the accumulation of theoretical knowledge; it requires the ability to apply concepts in real-world situations, solve complex problems, work effectively in teams, and communicate clearly. Practical training, which involves hands-on laboratory exercises, internships, and industry-based projects, provides students with opportunities to experience real engineering tasks, thereby reinforcing theoretical knowledge with practical application.

Dual education, which combines academic study with workplace experience, further enhances the development of professional competence. By alternating between classroom instruction and industrial

placements, students gain a deeper understanding of the professional environment, industry standards, and workplace expectations. This approach also encourages self-directed learning, time management, and responsibility, which are essential attributes for professional engineers [4]. The dual education model exposes students to the dynamics of real engineering workplaces, including collaboration with multidisciplinary teams, adherence to project timelines, and adaptation to evolving technologies.

Empirical evidence from surveys and interviews in this study indicates that students who participated in structured dual education programs demonstrated higher levels of technical skill, critical thinking, and problem-solving capabilities compared to peers who received traditional classroom instruction alone. Students reported increased confidence in applying theoretical concepts to practical tasks and an improved understanding of the relationship between academic knowledge and industry requirements. Furthermore, interaction with industry professionals helped students develop communication skills, teamwork, and professional ethics, which are indispensable for career readiness.

The discussion also highlights the role of mentorship and supervision in the success of practical and dual education programs. Faculty members and industry supervisors play a crucial role in guiding students, providing feedback, and ensuring that learning objectives are achieved.

Regular assessment and reflection sessions allow students to identify strengths and areas for improvement, promoting continuous professional growth. The combination of structured guidance and autonomous problem-solving encourages the development of independent thinking and decision-making skills.

Despite the demonstrated benefits, several challenges in implementing practical and dual education models were observed.

Limited availability of high-quality industrial placements, disparities in resources across institutions, and varying levels of faculty experience in supervising workplace learning were identified as significant barriers [5].

Some students initially struggled to adapt to active, practice-oriented learning methods, preferring conventional lectures. These challenges emphasize the need for strategic planning, collaboration between educational institutions and industry partners, and faculty development programs aimed at enhancing teaching and supervision skills in practical settings.

Moreover, the study emphasizes the need for curriculum alignment to maximize the effectiveness of dual education programs. Clear articulation of learning outcomes, defined competencies, and assessment criteria ensures that practical and workplace experiences contribute meaningfully to professional development. The integration of project-based learning, simulation exercises, and case studies further strengthens students' ability to apply theoretical knowledge in realistic contexts [6].

Conclusion. Practical training and dual education play a pivotal role in developing the professional competence of future engineers. These approaches allow students to integrate theoretical knowledge with hands-on experience, acquire essential technical and soft skills, and prepare for real-world professional challenges. By combining classroom learning with workplace immersion, students gain a comprehensive understanding of industrial processes, project management, and professional responsibilities that are critical for successful engineering practice [7].

The successful implementation of practical and dual education programs requires careful curriculum design, collaboration between universities and industry partners, structured mentorship, and continuous assessment of student outcomes. Addressing challenges such as limited industrial placements, varying levels of student engagement, and differences in faculty readiness is essential to maximize the benefits of these educational models.

Moreover, integrating project-based assignments, industrial internships, and collaborative learning activities enhances creativity, critical thinking, and interdisciplinary problem-solving skills. Such experiential learning opportunities ensure that students not only acquire technical expertise but also develop professional attitudes, ethical decision-making abilities, and the capacity to innovate in complex technological environments.

In conclusion, incorporating practical and dual learning models into engineering education ensures that graduates are better prepared for the workforce, possess comprehensive professional competence, and can contribute effectively to technological development and innovation.

These approaches represent indispensable pedagogical mechanisms for shaping future engineers who are adaptable, skilled, and ready to meet the evolving demands of modern industry.

References:

1. Badalov U. N. Pedagogical mechanisms for developing professional competence and creativity in future engineers //Экономика и социум. – 2024. – №. 2-1 (117). – С. 130-131.
2. Muradova A. Program-Didactic possibilities of using virtual educational technologies in preparing future engineers for professional activity //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2024. – Т. 3244. – №. 1. – С. 030037.
3. Муродова А. Virtual ta’lim texnologiyalari asosida bo ‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-tuzulmaviy modelini yaratish //Цифровизация современного образования: проблема и решение. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 188-191.
4. Muradova A. Technology of development of professional and technical component of future engineers by means of virtual education technology //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B2. – С. 306-311.
5. Murodova A. Bo’lajak muhandislarni kasbi faoliyatga tayyorlashda virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish //Sambhram xabarnomasi. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 293-297.
6. Abdurasulovich H. J., Qizi M. A. Y. Virtual ta’lim texnologiyalari asosida bo’lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 10. – С. 182-189.
7. Hamidov J., Muradova A. Technology for development of professional and technical components of future engineers through virtual educational technology.

GNOSEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Choriyeva Zuhra Tolib qizi,
IPU NTM dotsenti
zuhrachoriyeva5975@gmail.com

Mazkur maqolada gnoseologik yondashuvning ilmiy mohiyati yoritilgan hamda bu yondashuv asosida talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan bo'lib, bilimning vujudga kelishi, anglanishi va shaxsiy tajriba orqali chuqurlashuvi kompetensiyaviy yondashuv bilan bevosita uzviy bog'liqligi, gnoseologik yondashuv talabani bilim egallashdagi subyektiv faolligini, ijodiy tafakkurini va o'z-o'zini anglashini jadallashtirish orqali kasbiy kompetensiyalarning shakllanishiga xizmat qilishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: gnoseologik yondashuv, bilish jarayoni, kasbiy kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, talaba faolligi, bilim qurilishi, tanqidiy fikrlash, refleksiya, innovatsion ta'lim, metodologik asoslar.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ЭПИСТЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

В данной статье освещается научная сущность гносеологического подхода, а также проанализированы теоретические и практические основы формирования профессиональной компетентности у студентов на его основе. Показано, что возникновение, осознание и углубление знаний через личный опыт напрямую связано с компетентностным подходом. Гносеологический подход способствует формированию профессиональных компетенций за счёт активизации субъективной активности студентов в усвоении знаний, развития их творческого мышления и самопознания.

Ключевые слова: гносеологический подход, познавательный процесс, профессиональная компетентность, компетентностный подход, активность студента, конструирование знаний, критическое мышление, рефлексия, инновационное обучение, методологические основы.

SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS OF FORMING PROFESSIONAL COMPETENCE IN STUDENTS BASED ON THE EPISTEMOLOGY APPROACH

This article highlights the scientific essence of the gnoseological approach and analyzes the theoretical and practical foundations of developing students' professional competencies based on this approach. It demonstrates that the emergence, understanding, and deepening of knowledge through personal experience is directly linked to the competency-based approach. The gnoseological approach contributes to the formation of professional competencies by enhancing students' subjective engagement in acquiring knowledge, fostering creative thinking, and promoting self-awareness.

Keywords: gnoseological approach, cognitive process, professional competence, competency-based approach, student activity, knowledge construction, critical thinking, reflection, innovative learning, methodological foundations.

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talab — bu shunchaki bilim berish emas, balki har tomonlama rivojlangan, tanqidiy fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan, raqobatbardosh kompetent shaxsni shakllantirishdir. Shu nuqtayi nazardan, gnoseologik yondashuv — ya'ni bilimning kelib chiqishi, shakllanishi va shaxs tomonidan o'zlashtirilish jarayonini o'rganuvchi nazariy asoslar — bugungi ta'lim jarayonida muhim ilmiy-metodologik vosita sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuv talabani tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchisi emas, balki uni mustaqil izlanish, anglash va tahlil qilish orqali egallovchi faol subyektga aylanishini ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonining mazmunan yangilanishi hamda zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashuvi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yildagi yangi tahririda ta'limga oid bandlar orqali mustahkamlandi. Jumladan, Konstitutsiyaning 50-moddasida: "Har kim sifatli ta'lim olish huquqiga ega. Davlat ta'lim tizimini rivojlantirishga va uning samaradorligini oshirishga ko'maklashadi", — deb belgilangan. Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririda ta'limning insonparvarlik,

demokratik tamoyillar asosida tashkil etilishi, bilim olishda faollik va ijodkorlikning muhimligi alohida qayd etilgan. Bu esa gnoseologik yondashuvni kasbiy ta'limga tatbiq etish zaruratini yanada asoslaydi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham raqamli iqtisodiyot, ilg'or texnologiyalar, zamonaviy kompetensiyalar asosidagi ta'limga o'tish masalasi asosiy yo'nalishlardan biri sifatida ko'rsatilgan. Bu strategik hujjatda yoshlar kasb-hunarga, oliy ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondirish va ularni mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlash maqsad qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida ta'limning falsafiy va ilmiy asoslarini qayta ko'rib chiqish, har bir bosqichda bilim emas, balki hayotiy ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish zarurligini ta'kidlab kelmoqda. Jumladan, 2022-yilgi oliy ta'lim muassasalari rahbarlari bilan uchrashuvda u quyidagicha fikr bildirgan edi: “Talabalarga tayyor bilim emas, tafakkur beradigan tizim yaratmasak, biz zamonaviy jamiyatga mos mutaxassis tayyorlay olmaymiz.”

Shu bois, gnoseologik yondashuv asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish — nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo'lib, hozirgi ta'lim siyosati va islohotlari ruhiga to'la mos keladi. Bu yondashuv orqali talabalarda mustaqil fikrlash, o'z bilimni qurish, professional muammolarni hal etish va o'z ustida ishlash kompetensiyalari shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili. Umuman olganda ta'lim nazariyasi bo'yicha donishmand allomalarimiz va mutaxassis-olimlar ko'plab shug'ullanganlar. «Antik pedagogikada tabiatga, atrof-muhitga o'zaro insoniy munosabatlar majmuasi bo'lgan donishmandlik pedagogikasi shakllangan. Bu vaqtlarda ta'lim-tarbiyaning bosh maqsadi ham yoshlarda donishmandlik sifatlarini shakllantirish bo'lgan.

Donishmandlik pedagogikasida yoshlarda mehnatsevarlik, ma'naviy-axloqiy sifatlar bilan uyg'un rivojlantirilishi maqsadga muvofiq ekanligi ilgari surilgan. Bu pedagogik qarashlar mashhur «Avesto»(er. av. VII asr) asarida va qadimgi Xitoyning Dao maktabi (er. av.III asr) tajribalarida aks etgan edi. Eramizdan avvalgi II asrlarga kelib O'rta Osiyo, qadimgi Hindiston pedagogikasida saxiylik, sofdillik, inson qalbi kabi tushunchalar ilgari surilgan. 610-yillarga kelib, islom dinining muqaddas manbalari Qur'oni Karim, Hadisi sharifda inson mohiyati to'la ochib berilib, komil inson tarbiyasi bosh maqsad qilib qo'yilgan edi.

Qur'oni Karimdagi ta'lim-tarbiyaga oid ulug' xazina talqinlari al-Buxoriy hazratlari to'plagan hadislarida beriladi. Ta'lim-tarbiya, insoniy munosabatlarning falsafiy asoslari tasavvuf ilmida ham ochib berila boshladi. Antik falsafada ham zohiriy va botiniy ilmlar bir-biriga uyg'un ravishda qaralgan. Demokrit, Aflotun, Arastu asarlarida insonparvarlik g'oyalari ilgari surilgan edi.

Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino asarlarida ong va fan uzviyligi ilgari surilgan bo'sa, Al-Xorazmiy, Umar Xayyom, Ahmad Farg'oniy ta'limotlarida esa amaliy faoliyat ustuvorligi g'oyalari ustunlik qilgan. XIII-XIV asrlarda Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband hazratlarining ulug' tariqatlarida mehnatsevarlik insonparvarlik, poklik, soflikning asosi ekanligini nazariy va amaliy isbotlangan. Masalan: Bahouddin Naqshband hazratlari: «Diling - Ollohda, qo'ling - mehnatda bo'lsin» - degan shiorni ilgari surdilar va unga o'zlari hayotlarida ibratona amal qilib yashadilar.

Ma'lumki, ta'limda asosiy rol ta'lim beruvchiga yuklatiladi va uzluksiz ravishda ta'lim oluvchiga bilim beriladi. Ta'lim oluvchilar faoliyati esa ta'lim beruvchidan chuqur va ongli ravishda bilim olishdan iboratdir. Bu borada G'arb mutaffakkirlaridan Gelvetsiv, Didro, R.Ouenlar tarbiyaning ustuvorligi g'oyasini ilgari surishdi. K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy ta'lim va tarbiyani uyg'unligi g'oyasini targ'ib qildilar. S.G.Shatskiy, L.V.Zankov, Suxomlinskiylar ta'limda amaliyotni tadbqiqiy, ongli o'zlashtirish ahamiyatiga ega ekanligini ishlab chiqishdi.

Yan Amos Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida "Bilim — bu inson aqlining tabiatni anglash yo'lida bosib o'tadigan bosqichma-bosqich rivojlanishidir. Haqiqiy bilim ko'z bilan ko'rilgan, quloq bilan eshitilgan va amaliyotda qo'llangan tajriba asosida shakllanadi. Ta'lim tabiatga mos holda tashkil etilsa, bilim insonning ongida mustahkam va barqaror o'rtnashadi", degan fikrlarni ilgari surgan.

Ayniqsa, nemis faylasufi, pedagog va psixologi Fridrix Gerbart (1776-1841) uning bu sohadagi xizmatlari katta bo'lib, u ta'lim oluvchilarning aqliy rivojlanishi va ularning intellektual ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida ta'lim nazariyasini ishlab chiqishga harakat qildi. U ta'lim oluvchilarga berilayotgan bilim ularning sezgi va irodasini rivojlantirishi va ta'limning tarbiyaviy xarakteriga ta'siriga alohida e'tibor berdi. Uning fikricha, "Bilish bu — mavjud tasavvurlar bilan yangi tushunchalar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirdir." Gerbart bilish jarayonini psixik holatlar va irodaviy faollik bilan bog'laydi. U bilimni nafaqat tafakkur mahsuli, balki shaxs tarbiyasining muhim vositasi deb hisoblaydi. Shu bois, ta'lim psixologik qonuniyatlarga asoslanishi va ongli, faol bilish orqali tashkil etilishi kerak, deb ta'kidlaydi.

Amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Jon Dyui (1859-1952) ta'lim oluvchi faoliyatini faollashtiruvchi soha tarafdori sifatida maktablarni keskin yangilashda qatnashdi. Bosh maqsad bilimni yetkazib bermasdan, balki ta'limni shaxsiy tajriba asosida, ya'ni bolalarning tug'ma qobiliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratish maqsadida u maktab tizimini isloh qilishni taklif etdi. Jon Dyui

gnoseologik yondashuvda bilimni faol amaliy tajriba mahsuli sifatida ko‘radi. Uning fikricha, "Bilim — bu insonning muammoni hal qilishdagi faol tajribasi jarayonida shakllanadi." Dyui ta'kidlaydiki, ta'lim — bu hayotga tayyorgarlik emas, balki o'zi hayotdir. Bilim inson uchun muammoni hal qilish vositasi bo'lib, uni faol izlanish, sinov va refleksiya orqali olish kerak. An'anaviy ta'lim tizimiga qarshi Dyui va uning hamkorlari yaratgan konsepsiya (qarashlar tizimi) "ilg'or" deb ataldi. Ilg'orlar didaktikasi ko'pincha erkin tarbiya g'oyasiga tayangan.

Erkin tarbiyani fransuz faylasuf-ma'rifatparvari J.J. Russo (1712-1778), nemis pedagogi F.A.Disterverg va o'sha davrdagi ma'rifatparvar pedagoglardan, rus yozuvchisi, mutafakkir va pedagog L.N.Tolstoy (1828-1910) Yasno-polyanadagi maktabda bolalarni erkin tarbiyalash g'oyasini namoyon etgan.

Agar yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, gnoseologiya haqida so'z yuritadigan bo'lsak, shunday ta'rif berish mumkin: Gnoseologiya (yun. *gnosis* – bilim, *logos* – ta'limot) – bilish nazariyasi bo'lib, inson tafakkuri orqali bilim qanday paydo bo'lishi, shakllanishi va asoslanishini o'rganadi. Pedagogikada esa bu yondashuv talaba shaxsining bilish faoliyatini markazga qo'yadi. Bunday yondashuvda o'qituvchi — yo'lbo'shchi, talaba esa — bilimni yaratuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Jean Piagetga ko'ra, bilim tashqi muhitdan tayyor holda olinmaydi, balki shaxsiy tafakkur faoliyati asosida "quriladi" (konstruksiya qilinadi). Lev Vigotskiy esa bilish jarayonini ijtimoiy-psixologik muhit bilan bog'lab, shaxs taraqqiyotini "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi orqali izohlaydi.

Bugungi kunda pedagogik gnoseologiya sohasida erishilgan ilmiy yutuqlar, xususan, tarixiy mutafakkirlar va zamonaviy olimlarning fikrlari asosida, bilish jarayonining murakkabligi va shaxsning faolligi oldingi o'rinlarda turishi zarurligi aniqlandi. Menimcha, ta'lim jarayonida bilim faqat tashqi manbalardan qabul qilinadigan ma'lumot emas, balki talabaning ongli va faol faoliyati natijasida yaratiladigan mahsulotdir. Shunday ekan, ta'lim beruvchi faqat bilim uzatuvchi emas, balki bilim yaratuvchi jarayonning yo'lbo'shchisi bo'lishi lozim.

Shuningdek, Jon Dyui va Fridrix Gerbartning gnoseologik yondashuvda ilgari surgan asosiy fikrlari — bilish jarayonining faol, tajriba va irodaga asoslangan bo'lishi — bugungi ta'lim tizimlari uchun juda muhimdir. Bu esa ta'limni yanada amaliy, hayotga yaqin va shaxs rivojini ta'minlovchi jarayon sifatida tashkil etish zaruratini ko'rsatadi. Gnoseologiyani bu o'rni ta'limning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli, pedagogik gnoseologiya konsepsiyasini chuqur o'rganish va uni amaliyotga keng joriy etish orqali, zamonaviy ta'lim jarayonlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin, deb hisoblayman.

Gnoseologik yondashuv pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil bo'lib, bilish jarayonini chuqur tushunish va boshqarish imkonini beradi. Bu esa o'qituvchining ta'lim jarayonini samarali tashkil etishi va ta'lim sifatini oshirishiga xizmat qiladi. Kasbiy kompetensiya — bu shaxsning kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishlashiga imkon beradigan bilim, ko'nikma, malaka, shaxsiy sifat va qadriyatlar majmuasidir. Zamonaviy oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarda:

- mustaqil fikrlash,
 - muammoni tahlil qilish va hal qilish,
 - kasbiy muloqotga kirishish,
 - innovatsion faoliyat yuritish
- kabi jihatlar shakllantirilishi zarur.

Gnoseologik yondashuv asosida kasbiy kompetensiyani shakllantirish mexanizmlari quyidagilardan iborat:

Gnoseologik yondashuv asosidagi faoliyat	Kasbiy kompetensiyalarning shakllanishi
Tadqiqot va izlanishga yo'naltirilgan topshiriqlar	Tanqidiy fikrlash, analitik tahlil
Muammoli ta'lim metodlari	Qaror qabul qilish va muammo yechish ko'nikmalari
Loyiha asosida o'qitish	Amaliy va kommunikativ kompetensiyalar
Refleksiya va o'z-o'zini baholash	Shaxsiy mas'uliyat va o'zini rivojlantirish kompetensiyasi

Mazkur jadvalda **gnoseologik yondashuv asosidagi faoliyatlar** bilan **kasbiy kompetensiyalarning shakllanishi** o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ochib berilgan. Unga ko'ra, pedagogik jarayonda qo'llaniladigan faoliyat turlari nafaqat bilimlarni egallashga, balki shaxsiy va kasbiy sifatlarning rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot va izlanishga yo'naltirilgan topshiriqlar — tanqidiy fikrlash va analitik tahlilni shakllantiradi. Bu jihat, avvalo, o'quvchining bilimni tayyor holda emas, balki mustaqil izlanish orqali

egallashini ta'minlaydi. Natijada, ilmiy fikrlash, dalillash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa pedagog shaxsida **bilishga intilish va gnoseologik faoliyatning** asosiy mezonlaridan biri sanaladi.

Muammoli ta'lim metodlari — qaror qabul qilish va muammo yechish kompetensiyasini rivojlantiradi. Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish o'quvchilarni faollikka undaydi, ularni mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi. Bu esa bo'lajak pedagogning kelajakdagi kasbiy faoliyatida turli vaziyatlarda tezkor va to'g'ri yechim topa olishiga zamin yaratadi.

Loyiha asosida o'qitish — amaliy va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiradi. Loyiha faoliyati o'quvchini amaliyotga yaqinlashtiradi, bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi. Shu bilan birga, hamkorlikda ishlash, jamoada muloqot qilish, fikr almashish jarayonida **kommunikativ kompetensiyalar** kuchayadi. Bu esa zamonaviy pedagog uchun dolzarb ko'nikmalardan biridir.

Refleksiya va o'z-o'zini baholash — shaxsiy mas'uliyat va o'zini rivojlantirish kompetensiyasini rivojlantiradi. Refleksiv yondashuv o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarni ko'ra olish qobiliyatini oshiradi. Natijada, o'qituvchi o'z kasbiy o'sishini ongli ravishda rejalashtirish, o'z ustida doimiy ishlash va shaxsiy mas'uliyatni his qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, **gnoseologik yondashuv** asosida tashkil etilgan pedagogik faoliyat bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Har bir metod va faoliyat turi ma'lum kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvning gnoseologiya bilan uzviy bog'liqligi shundaki, bilim faqat o'zlashtiriladigan ma'lumot emas, balki **mustaqil izlanish, muammo yechish, refleksiya va muloqot orqali shakllanadigan jarayon** sifatida qaraladi. Shu bois, bo'lajak pedagogni tayyorlashda mazkur yondashuv o'zining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini to'la namoyon qiladi. Shunday qilib, gnoseologik yondashuv orqali bilimni o'zlashtirish — bu faqat informatsiyani yod olish emas, balki talabaning fikrlash, tahlil qilish, qaror qabul qilish va ijodkorlik faoliyatidir. Bularning barchasi kasbiy kompetensiyaning negizini tashkil qiladi.

Natija va tahlillar. Qarshi shahrida faoliyat yuritayotgan Iqtisodiyot va pedagogika universitetining Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalariga ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar davomida olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayonining metodik va mazmuniy asoslari o'zaro uzviy bog'liqlikda tashkil etilishi zarur. Pedagogik faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun har bir bosqichda o'rganiladigan fan va mavzular hajmi, mazmuni, shuningdek, ularni o'qitish strategiyalari o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim darajasiga mos holda farqlanadi. Shunday yondashuvlar mavjudki, ular ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi:

- ta'lim jarayonida samarali savol-javob, diskussiya va interaktiv o'quv metodlarini qo'llash o'quvchilarning faolligini oshirib, ularning tanqidiy fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi;

- tadqiqotga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlaridan foydalanish talabalar tomonidan mustaqil fikrlash, ilmiy izlanishlar olib borish va muammolarni tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish imkonini yaratadi;

- portfel metodidan foydalanish o'quv jarayonidagi bilim va ko'nikmalarning tizimli hujjatlashtirilishini ta'minlab, o'quvchilarning individual taraqqiyotini baholash va yo'naltirishda muhim vosita hisoblanadi;

- har bir fan doirasida muammoli vaziyatlarni qo'llash ta'lim kontentining amaliylashtirilishini kuchaytirib, o'quvchilarning muammoni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

- talabalarga o'z fikrini ravon ifoda etish va analitik tahlil qilish imkonini berish ta'lim jarayonida mustaqil va kreativ fikrlashni rag'batlantiradi hamda o'quvchilar orasida samarali kommunikatsiya muhitini yaratadi.

Xulosa. Gnoseologik yondashuvning kasbiy kompetensiyani shakllantirishdagi ahamiyati ta'lim jarayonida talabaning faolligi va bilish subyekti sifatida faol ishtirokini ta'minlashga asoslanadi. Ushbu yondashuv orqali o'quv jarayoni nafaqat bilimlarni qabul qilish va yodlashga qaratilgan bo'lib, balki bilimlarni chuqur anglash, tahlil qilish va ularni real amaliyot sharoitida samarali qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, gnoseologik yondashuv ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, ijtimoiy muloqot va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga imkon beradi, bu esa zamonaviy kasbiy faoliyatning talablariga javob beruvchi malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, gnoseologik yondashuv pedagogik jarayonni metodologik jihatdan qayta tashkil etish, ta'lim mazmuni va metodlarini talabaning kognitiv faoliyatiga moslashtirish orqali kasbiy kompetensiyalarning kompleks va tizimli shakllanishini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, ta'limning sifatini oshirish va professional faoliyat samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Demak, gnoseologik yondashuv – bu kasbiy ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni birlashtirgan, ta'lim

oluvchining shaxsiy rivojlanishiga, uning kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalarini mustahkamlashga yo‘naltirilgan fundamental metodologik baza hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2023. – 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2020. – 35 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni. – 2022-yil 28-yanvar.
4. Mirziyoyev, Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
5. Mirziyoyev, Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – 400 b.
6. Выготский Л.С. Мышление и речь. — М.: Педагогика, 1982.
7. Bruner J. The Process of Education. — Harvard University Press, 1960.
8. Dewey J. Experience and Education. — New York: Macmillan, 1938.
9. Choriyeva Z.T. Ona tilini o‘qitish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish: Ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023. – 145 b.
10. Choriyeva Z.T. Development of professional qualities of future primary education teachers // Zien Journal of Social Sciences and Humanities. – USA, 2022. – Vol. 13. – ISSN 2769-996X. – SJIF(2023): 6.795.
11. Hasanboyeva O. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -T.: TDPU, 2019.

**ZAMONAVIY MAKTAB TA'LIM PARADIGMASIDA O'QITUVCHI
PROFESSIOGRAMMASI VA UNING IMIJIGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

Doniyorova Gulbahor Bobir qizi,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika nazariyasi.
Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi 3-bosqich tayanch doktoranti
gd257272@gmail.com

Mazkur maqolada zamonaviy maktab ta'lim paradigmasi sharoitida o'qituvchi professiogrammasining mazmuni va uning tarkibiy qismlari tahlil qilinadi. Unda o'qituvchi kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlar majmuasi hamda pedagogik imijning mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, maktab o'qituvchisi imijiga qo'yiladigan zamonaviy talablar — tashqi madaniyat, nutq va muloqot madaniyati, raqamli savodxonlik, kreativlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi jihatlar ochib beriladi. Maqolada o'qituvchi professiogrammasi va pedagogik imijining o'zaro bog'liqligi ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinib, ularni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy maktab ta'lim paradigmasi, o'qituvchi professiogrammasi, pedagogik imij, kasbiy kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, raqamli savodxonlik, kommunikativ madaniyat, kreativlik, shaxsiy sifatlar, ijtimoiy mas'uliyat.

**В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПАРАДИГМЕ, ПРОФЕССИОГРАММУ
УЧИТЕЛЯ И ТРЕБОВАНИЯХ К ЕГО ИМИДЖУ**

Эта статья проанализирует содержание профессора учителя в контексте современного образовательного парадигации и его компонентов. Он охватывается набором знаний, навыков и личных качеств, необходимых в профессионализме учителя, а также сущностью педагогического изображения. Кроме того, современными требованиями к имиджу школы являются культура внешней культуры, речи и диалога, круиза и социальной ответственности. В статье взаимозависимость профессора учителя и педагогического имина анализируется на научной теории и рекомендации по эффективному использованию инновационных педагогических технологий в их развитии.

Ключевые слова: современная образовательная партия, преподавательская профессия, педагогическая иммиграция, инновационные технологии, цифровые технологии, творчество, личное качество, социальная ответственность.

**IN THE MODERN EDUCATIONAL PARADIGM, TEACHER PROFESSIONAL CURRICULUM
AND THE REQUIREMENTS FOR ITS IMAGE**

This article will analyze the content of a teacher professor in the context of the modern educational paradiation and its components. It is covered by the set of knowledge, skills and personal qualities required in the professionalism of the teacher, as well as the essence of the pedagogical image. Also, modern requirements for the school's image are the culture of external culture, speech and dialogue, cruise and social responsibility. In the article, the interdependence of the teacher Professional curriculum and Pedagogical Imijing is analyzed on a scientific-theory, and recommendations for the effective use of innovative pedagogical technologies in their development.

Keywords: Modern Education Party, Teaching Profession, Pedagogical Immigration, Innovative Technology, Digital Technology, Creativity, Personal Quality, Social Responsibility.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Globallashuv, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, inson kapitaliga bo'lgan ehtiyojning ortishi zamonaviy ta'lim paradigmasining shakllanishiga sabab bo'ldi. Zamonaviy maktab ta'lim paradigmasi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etadi. Bunday sharoitda maktab o'qituvchisining kasbiy faoliyati faqat bilim berish jarayoni bilan cheklanmay, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativlik va ijtimoiy faollikni shakllantirishga qaratilishi zarur. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining samarali ishlashi va ta'lim sifatining oshishi uchun pedagoglarning kasbiy malakalarini va imijlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga

ega. O‘zbekiston Respublikasining 2021-2030-yillarga mo‘ljallangan ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi va "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonunlari bo‘ljak pedagoglarni tarbiyalashda muhim huquqiy asoslarni taqdim etadi. O‘zbekistonda ta’lim tizimining modernizatsiya qilishga bo‘lgan e’tibor, pedagogik imijning mustahkamlanishi va pedagoglarning innovatsion yondashuvlarini qo‘llashga qaratilgan dasturlar asosida shakllanadi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalar ham pedagogik imijni shakllantirishga oid metodlarni o‘rgatishda ahamiyatli manba hisoblanadi

Asosiy qism. O‘qituvchi faoliyatining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri – professiogramma bo‘lib, u pedagog shaxsining kasbiy va psixologik xususiyatlari, bilim va ko‘nikmalari, pedagogik mahorati hamda kommunikativ qobiliyatlarini o‘zida mujassam etadi. Shu bilan birga, professiogrammada belgilangan sifatlar amaliy faoliyatda o‘qituvchining pedagogik imiji orqali namoyon bo‘ladi. Pedagogik imij o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘qituvchining tashqi qiyofasi, nutqi, muloqot madaniyati, kasbiy salohiyati va ijtimoiy obro‘cini qamrab oluvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir. Imij – maqsadga qaratilgan shakllantirilgan qiyofa bo‘lib, ommaga emotsional-psixologik ta’sir etishning umumlashgan ko‘rinishidir.

O‘qituvchi faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan uning professiogrammasi – ya’ni kasbiy bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlar majmuasiga bog‘liq. Pedagogik imij – o‘qituvchining tashqi ko‘rinishi, nutqi, muloqot madaniyati, kasbiy salohiyati va ijtimoiy obro‘cini o‘zida mujassam etuvchi ko‘p qirrali tushunchadir.

Zamonaviy maktab sharoitida o‘qituvchi imijiga qo‘yiladigan talablar tobora ortib bormoqda. O‘quvchi va ota-onalarda ijobiy taassurot uyg‘otish, jamoada obro‘-e’tibor qozonish, innovatsion texnologiyalarni egallash hamda raqamli savodxonlikni rivojlantirish o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, o‘qituvchi professiogrammasi va pedagogik imijini o‘rganish, ularni takomillashtirish yo‘llarini izlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagog maqomi to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida ushbu aks ettirilgan muhim omillardan anglash mumkinki, pedagogga xos bo‘lgan ma’naviy-ahloqiy fazilatlar uning imijiga ta’sir etuvchi eng muhim jihatlardan hisoblanadi. Har bir pedagog ana shu fazilatlarini doimiy nazorat qilishi va uni yanada rivojlantirish masalasiga e’tibor qaratishi faqat rasman emas, balki amalda ham uning obro‘si, mavqeini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilar va pedagogik jamoa orasida unga qanday munosabatda bo‘lishni ta’minlovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Quyida pedagogik imijni mustahkamlashning amaliy usullari keltirilgan. (1-rasm).

Zamonaviy ta’lim paradigmasida o‘qituvchi professiogrammasi va pedagogik imijiga qo‘yiladigan talablar ortib borayotganligi, ularning o‘zaro dialektik bog‘liqligini ilmiy jihatdan tadqiq etish, mavjud nazariy qarashlarni tahlil qilish va takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Raqamli vositalardan foydalanish, media va axborot savodxonligi, interaktiv texnologiyalardan samarali foydalanish zamonaviy o‘qituvchining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Pedagogik kompetensiya (o‘quv jarayonini tashkil etish), psixologik kompetensiya (o‘quvchi shaxsini anglash), kommunikativ kompetensiya (muloqot madaniyati) va AKT kompetensiyasi (raqamli texnologiyalardan foydalanish) bugungi o‘qituvchidan talab qilinadi. Zamonaviy pedagogika o‘qituvchidan nafaqat bilim, balki kommunikativ ko‘nikmalarni ham talab etadi[3].


Professiogramma — o‘qituvchi kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui. Unda quyidagi asosiy bloklar ajratiladi:

Kasbiy bilimlar: fan bo‘yicha chuqur bilim, metodika, pedagogika va psixologiya.

Amaliy malakalar: dars jarayonini tashkil etish, interfaol usullardan foydalanish, baholash tizimini qo‘llash.

Shaxsiy sifatlar: adolat, mas’uliyat, sabr-toqat, mehribonlik, intizomlilik.

Innovatsion kompetensiyalar: axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llay olish, kreativ yondashuv, doimiy o‘zini rivojlantirishga intilish.



1-rasm. Pedagogik imijni mustahkamlashning amaliy usullari

Professiogrammada belgilangan bilim, ko'nikma va sifatlar pedagogik imijda namoyon bo'ladi. Masalan, o'qituvchining muloqot madaniyati uning kommunikativ kompetensiyasi bilan, tashqi ko'rinishi va nutq ravonligi esa shaxsiy madaniyati bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois, professiogramma va pedagogik imijni alohida emas, balki bir butun tizim sifatida o'rganish lozim. O'qituvchining ijobiy pedagogik imijini shakllantirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim hisoblanadi:

- Pedagogik treninglar va kommunikativ mashg'ulotlar orqali nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish;
- Raqamli texnologiyalar va mediaimijdan samarali foydalanish;
- Kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish: uzluksiz ta'lim, ilmiy izlanishlar, innovatsion metodlarni amaliyotga tatbiq etish.

O'qituvchining ijobiy imiji ta'lim jarayonida samarali muhit yaratadi. Masalan, tartibli tashqi ko'rinish va muloqot madaniyati o'quvchilarda ishonch uyg'otadi, nutq ravonligi bilimlarning oson o'zlashtirilishini ta'minlaydi, kasbiy obro' esa ota-onalar va hamkasblar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Shunday qilib, pedagogik imij o'qituvchining ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. O'qituvchi pedagogik imijini takomillashtirish zamonaviy ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Avvalo, maxsus pedagogik treninglar va kommunikativ mashg'ulotlar orqali nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish mumkin. Bu o'qituvchining o'quvchilar bilan samarali munosabat o'rnatishiga yordam beradi.

Ikkinchi muhim yo'nalish—raqamli texnologiyalar va mediaimijni shakllantirishdir. O'qituvchi ijtimoiy tarmoqlarda, onlayn ta'lim platformalarida faol ishtirok etishi, zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishi orqali o'zining kasbiy nufuzini oshiradi.

Uchinchi yo'nalish esa—o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishidir. Ilmiy izlanish olib borish, malaka oshirish kurslarida qatnashish, innovatsion pedagogik metodlarni o'zlashtirish va tajribaga joriy etish o'qituvchining imijini mustahkamlaydi va uni zamonaviy ta'lim talablariga moslashtiradi. O'qituvchi o'ziga ishonchli bo'lsa, bu bolalarga ham ijobiy ta'sir qiladi. Mehribonlik va adolat hissi o'quvchilarda ishonch uyg'otadi. Stressni boshqarish, sabr-toqatlilik o'qituvchining imijida muhim rol o'ynaydi. Pedagogning emotsional barqarorligi sinf muhitini belgilaydi. Kuchli pedagogik imij o'quvchilar motivatsiyasini oshiradi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish

imijni mustahkamlaydi. O‘quvchilar darsga faol qatnashadi, bu esa natijalarga ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchining ijobiy imiji maktab obro‘sinini oshirishga ham xizmat qiladi.

Pedagog o‘zi istagan tarzda o‘z imijini yaratishi mumkin. Bunda rus psixologi I.Kriksunovanning quyidagi ketma-ketligiga rioya etishi tavsiya etiladi:

1. Tubdan o‘zini o‘zgartirib maqsadga yo‘naltirilgan xususiy imij yaratish.
2. Aniq konsepsiya (g‘oya) va maqsad asosida imijni tarkib toptirish.
3. Tanlangan obraz uchun imij tashkil etuvchi o‘zo‘zini baholay olish ko‘nikmasini o‘zlashtirish.
4. Asosiy adresat (auditoriya) imijni aniqlab, ijtimoiy rollarini bilib olish.
5. Imij shakllanishda obyektiv va subyektiv cheklanishlarni inobatga olgan holda ichki ustanovka fundamentini talab etilgan imijni qaror toptirish.
6. O‘z-o‘zini prezentatsiya etish texnologiyasini o‘zlashtirish.
7. Tarkib toptirilgan imijni yaqinlari yoki hamkasblariga prezentatsiya qilish.
8. Qo‘yilgan maqsadga qay darajada erishilganligini tahlil va korrektirovka qilish.
9. O‘z imijini qo‘llab amaliy muloqotda sinab ko‘rish.
10. Kelajakda o‘z imijini mukamallashtirish va rivojlantirish [4].

S.D.Yakusheva fikriga ko‘ra o‘qituvchining qiyofasi bu - shaxsiy integral sifati, intellektual, odatiy, kinetik, nutq, ekologik va badiiy madaniyatning sinteziga ajraladi. (2-rasm).

Pedagogik imij (S.D.Yakusheva bo‘yicha)				
Intellektual madaniyat	Odatiy (lot. habitus — ko‘rinish) madaniyat	Nutq madaniyati	Ekologik madaniyat	Badiiy madaniyat
Moslashuvchanlik fikrlash, aks ettirish va o‘z-o‘zini anglash, rivojlanishi bilan bog‘liq ijodkorlik va o‘shish professionaldan o‘qituvchi shaxsining mahorati	Bu shaxsiy madaniyat, rang sxemasini belgilaydigan individuallik, shu jumladan, jismoniy va psixofiziologik xususiyatlari; uslub (romantik, sport, dramatik), o‘rnatish individual ijodiy xususiyatlariga mos keladi kasb talablari bilan rivojlanish	Shaxsiy madaniyat, ustida rivojlanmoqda obyektiv ravishda mavjud ulanishlar orasida til va kognitiv jarayonlar, taxmin qilish uslub hissi, rivojlangan did va bilimdonlik	Material va ijtimoiy (atrof-muhit va aksessuarlar);	Integratsiyalashgan shaxsiy sifati, madaniyat va san‘at, aksio-mantiqiy va estetik-axloqiy tamoyillar har xil turdagi kasblarda faoliyat va aloqa yuritish

2-rasm. O‘qituvchi obrazining tarkibiy qismlari

Yakusheva ta’kidlaganidek, pedagogik imij - o‘qituvchining obro‘-e’tiborini oshiradi. O‘quvchilarda darsga qiziqish uyg‘otadi. Maktabning ijobiy muhitini yaratishga yordam beradi. Ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlaydi. Jamiyatda o‘qituvchining nufuzini ko‘taradi.

Pedagogik imijni rivojlantirish yo‘llari:

- Nutq madaniyatini doimiy takomillashtirish;
- Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash;
- O‘z ustida ishlash va ilmiy izlanish olib borish;
- Sog‘lom turmush tarziga rioya qilish;
- O‘quvchilar va ota-onalar bilan ijobiy muloqot o‘rnatish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zamonaviy ta’lim paradigmasi o‘qituvchidan yangicha kasbiy yondashuv, keng qamrovli kompetensiyalar va yuqori darajadagi pedagogik imijni talab etmoqda. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi professiogrammasi uning kasbiy faoliyatini belgilovchi nazariy va amaliy mezonlar majmui sifatida pedagogik imij bilan uzviy bog‘liqdir. Professiogrammada ifodalangan bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlar o‘qituvchi imijining mazmunini shakllantiradi, imij esa o‘z navbatida kasbiy obro‘ va ta’lim jarayonining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchi pedagogik imijining zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlanishi uchun tashqi madaniyat, kommunikativ mahorat, raqamli savodxonlik va kreativlik asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu jihatdan, pedagogik treninglar, raqamli texnologiyalardan foydalanish, mediaimijni

shakllantirish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish o'qituvchining professiogrammasi va imijini takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlari hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogning jamlama ko'rsatkichi uning shakllangan imijidir. Pedagog o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berar ekan, avvalambor o'z shaxsiga o'quvchilar diqqat, e'tiborini qaratib qiziqтира olsagina olib borayotgan fanga o'quvchilar qiziqishi va o'zlashtirishi ortib borishi mumkin. Pedagoglar imiji o'zi ishlab turgan o'quv muassasi imijining ko'rsatkich etaloni deb ham hisoblanadi. Pedagogni bilimlar saltanatiga, bolalarni yetaklab borayotgan sehgargarlarga qiyoslashimiz mumkin. Zamonaviy pedagog o'z kasbiy faoliyat yo'lidan to'xtamasdan oldinga asta-sekin qarab boradi. Pedagog kasbining diqqatga sazovor jihatlaridan biri shundaki, o'rganilayotgan mukammal bilimlarning chek-chegarasiga yetib bo'lmaydi. O'qituvchi yosh avlodni bilimlar saltanatiga yo'naltirishi, yetaklashi, hamroh bo'lishi, qo'llab-quvvatlashi o'z-navbatida unga nisbatan ishonch hissini uyg'onishida imijning o'rni beqiyosdir.

Shunday qilib, o'qituvchi professiogrammasi va pedagogik imijini chuqur o'rganish hamda ularni zamonaviy ta'lim talablari asosida takomillashtirish nafaqat o'qituvchining shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyati, balki ta'lim tizimi samaradorligini oshirishning ham muhim omili hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining “Pedagog maqomi to'g'risida” Qonuni, O'RQ-901-son 01.02.2024 yil.
2. Аверьянов А.И, Рассказова А.Л. Методические рекомендации для студентов МГПИ. Протокол № 9 от 12-апреля 2010 г.- С.4-7
3. Hasanboyeva O, Pedagogika nazariyasi va amaliyoti, Toshkent, 2021.
4. Криксунова И. Создай свой имидж. СПб: «Лань», 1997 .
5. Qodirova, D. “O'qituvchining kasbiy mahorati va pedagogik imij.” Ta'lim va innovatsiya, №4, 2021 y.
6. To'xliyev, B. (2022). Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. 2022 y.
7. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. T.: «IQTISOD MOLIYA» nashriyoti, 2010 y.
8. Sharipova M. O'qituvchi professiogrammasi va imijga qo'yiladigan talablar. Toshkent: Ilm Ziyo. 2020 y.

SHAXSLARARO MUNOSABATLAR MUAMMOSINI NAZARIY METODOLOGIK TAHLIL QILISH

Eshmamatov Bahodir Xolmurza o'g'li,

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

“Psychology (Social Psychology)” yo'nalishi magistranti.

Ushbu maqola shaxslararo munosabatlar muammolarini nazariy va metodologik jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan asosiy muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va hal qilish yo'llari o'rganilgan. Maqolada shaxslararo munosabatlarning psixologik, ijtimoiy va madaniy aspektlari tahlil qilingan, zamonaviy nazariy yondashuvlar va metodologik asoslar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalarida shaxslararo munosabatlar muammolarini hal qilishda kompleks yondashuvning zarurligini ko'rsatuvchi xulosalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: shaxslararo munosabatlar, kommunikatsiya, konflikt, ijtimoiy psixologiya, metodologiya, nazariy tahlil.

THEORETICAL METHODOLOGICAL ANALYSIS OF THE PROBLEM OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS

Статья посвящена теоретико-методологическому анализу проблем межличностных отношений. В исследовании рассматриваются основные проблемы, возникающие в межличностных отношениях, причины их возникновения и пути решения. Анализируются психологические, социальные и культурные аспекты межличностных отношений, рассматриваются современные теоретические подходы и методологические основы. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости комплексного подхода к решению проблем межличностных отношений.

Ключевые слова: межличностные отношения, коммуникация, конфликт, социальная психология, методология, теоретический анализ.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ

This article is devoted to the theoretical and methodological analysis of the problems of interpersonal relationships. The study examines the main problems that arise in interpersonal relationships, their causes and solutions. The article analyzes the psychological, social and cultural aspects of interpersonal relationships, considers modern theoretical approaches and methodological foundations. The results of the study provide conclusions indicating the need for a comprehensive approach to solving the problems of interpersonal relationships.

Keywords: interpersonal relationships, communication, conflict, social psychology, methodology, theoretical analysis.

Kirish. Shaxslararo munosabatlar jamiyatning asosiy tuzilma birliklaridan biri bo'lib, insonning ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy dunyoda globallashuv jarayonlari, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy o'zgarishlar shaxslararo munosabatlarga yangi muammolar olib kelmoqda. Bu muammolar nafaqat individual, balki jamiyat darajasida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi va kompleks yechimlarni talab qiladi [1]. Shaxslararo munosabatlar muammolari turli shakllarda namoyon bo'ladi: kommunikatsiya buzilishi, o'zaro tushunmovchilik, konfliktlar, ijtimoiy ajralish va boshqa ko'plab omillar. Bu muammolarning kelib chiqish sabablari psixologik, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillarga bog'liq bo'lib, ularning chuqur tahlili zaruratni tug'diradi. Shaxslararo munosabatlardagi muammolar nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi [2].

Tadqiqotchilar shaxslararo munosabatlar sohasida turli nazariy yondashuvlarni ishlab chiqqan. Ijtimoiy psixologiya, kommunikatsiya nazariyasi, konfliktologiya va boshqa fanlar doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar bu sohadagi muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo bu nazariy yondashuvlarning metodologik asoslari va amaliy qo'llanilishi haqida yetarli darajada tizimli tahlil mavjud emas [3]. Maqolaning maqsadi shaxslararo munosabatlar muammolarini nazariy va metodologik jihatdan kompleks tahlil qilish, mavjud yondashuvlarning samaradorligini baholash va yangi yechim yo'llarini taklif etishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: shaxslararo munosabatlardagi asosiy muammolarni aniqlash, ularning nazariy asoslarini tahlil qilish, metodologik yondashuvlarni baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Shaxslararo munosabatlar muammolarini o'rganishda turli metodologik yondashuvlar qo'llaniladi. Nazariy tahlil usuli asosiy metodologik vosita sifatida xizmat qiladi, chunki bu sohadagi muammolar ko'pincha murakkab va ko'p qirrali tabiatga ega. Adabiyotlar tahlili metodologiyasi shaxslararo munosabatlar sohasida olib borilgan tadqiqotlarning umumlashtirilgan natijalarini olish imkonini beradi [4].

O'zbek psixologiya fanida shaxslararo munosabatlarga oid tadqiqotlar A.P. Boboyeva tomonidan olib borilgan. Uning ishlarida shaxslararo munosabatlarda madaniy omillarning roli va O'zbekiston jamiyatiga xos xususiyatlar tahlil qilingan. Boboyeva shaxslararo munosabatlardagi milliy o'ziga xosliklarni ta'kidlab, an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy talablar orasidagi ziddiyatlarni ko'rsatgan [5]. M.G. Davletshin o'z tadqiqotlarida kommunikativ kompetentlikning shakllanishini o'rgangan va shaxslararo munosabatlarda samarali kommunikatsiya qoidalarini ishlab chiqqan [6].

F.M. Kadirova ijtimoiy psixologiya sohasidagi ishlarida shaxslararo munosabatlardagi gender omillarni tahlil qilgan va erkaklar hamda ayollar o'rtasidagi kommunikatsiya xususiyatlarini o'rgangan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, gender stereotiplari shaxslararo munosabatlarda jiddiy to'siqlar yaratishi mumkin [7]. H.I. Hasanova konflikt psixologiyasi sohasida olib borgan tadqiqotlarida shaxslararo konfliktlarning kelib chiqish sabablari va ularni hal qilish usullarini ishlab chiqqan. Uning ishi ayniqsa oila va ish joyidagi munosabatlardagi konfliktlarni tahlil qilish jihatidan qimmatli [8]. N.A. Musulmonqulova o'z tadqiqotlarida ijtimoiy adaptatsiya jarayonlarini o'rgangan va yangi muhitga moslashish jarayonida yuzaga keladigan shaxslararo munosabatlar muammolarini tahlil qilgan [9].

Rossiya psixologlaridan A.A. Bodrov shaxslararo munosabatlarda stress omillarini o'rgangan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy hayot sharoitlari shaxslararo munosabatlarda yangi stress omillarini yaratadi va bu klassik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi [10]. B.H. Myasishchev tomonidan ishlab chiqilgan munosabatlar psixologiyasi nazariyasi shaxslararo munosabatlar muammolarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nazariya shaxslararo munosabatlarni shaxsning umumiy rivojlanishi kontekstida ko'rib chiqadi [3]. A.B. Petrovskiy ijtimoiy psixologiya sohasidagi tadqiqotlarida shaxslararo munosabatlarda guruh dinamikasining rolini ko'rsatgan va jamoaviy faoliyat sharoitida yuzaga keladigan munosabatlar muammolarini tahlil qilgan [2].

Xorijiy tadqiqotchilardan Daniel Goleman hissiy intellekt nazariyasini ishlab chiqqan va shaxslararo munosabatlarda hissiy kompetentliklarning ahamiyatini ko'rsatgan. Uning tadqiqotlari shuni isbotlaydi ki, shaxslararo munosabatlardagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan hissiy zukoning rivojlanganlik darajasiga bog'liq [1]. John Gottman oila psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlarida er-xotin munosabatlarini prognozlash metodlarini ishlab chiqqan va shaxslararo munosabatlardagi barqarorlik omillarini aniqlagan. Uning "To'rt otliq" nazariyasi shaxslararo munosabatlardagi buzilishlarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Metodologik jihatdan shaxslararo munosabatlar muammolarini o'rganishda tizimli yondashuv muhim o'rin tutadi. Bu yondashuv muammolarni yakka holda emas, balki murakkab tizim sifatida ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Shaxslararo munosabatlardagi muammolar ko'pincha bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ularning yechimi ham kompleks xarakterga ega bo'lishi kerak.

Natijalar va muhokama. Olib borilgan nazariy tahlil natijalarida shaxslararo munosabatlardagi asosiy muammolar bir necha guruhga bo'linishi mumkin: kommunikativ muammolar, hissiy-psixologik muammolar, madaniy va qiymatlar tizimidagi farqlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri. Har bir guruh o'ziga xos xususiyatlarga ega va maxsus yondashuv talab qiladi. Kommunikativ muammolar eng keng tarqalgan shaxslararo munosabatlar muammolari hisoblanadi. Bu muammolar orasida noto'g'ri kommunikatsiya uslublari, tinglash qobiliyatining etishmasligi, verbal bo'lmagan signallarni noto'g'ri talqin qilish va boshqalar kiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi kommunikatsiya usullarini o'zgartirayotgan bo'lsa-da, shaxslararo munosabatlarda yangi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Hissiy-psixologik muammolar shaxslararo munosabatlarda muhim o'rin tutadi. Bu guruhga hissiy nazoratning etishmasligi, empatiyaning yo'qligi, shaxsiy chegaralarni belgilashda qiyinchiliklar va psixologik himoyalash mexanizmlarining noto'g'ri ishlashi kiradi. Goleman va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida hissiy intellektning rivojlanishi shaxslararo munosabatlar sifatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkinligi ko'rsatilgan.

Madaniy va qiymatlar tizimidagi farqlar, ayniqsa ko'p milliy va ko'p madaniyatli jamiyatlarda muhim muammo hisoblanadi. O'zbekiston kabi ko'p milliy davlatda bu muammo alohida ahamiyat kasb etadi. An'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy hayot tarzi orasidagi ziddiyat, avlodlar orasidagi qadriyatlar farqi va globallashtirish ta'siri shaxslararo munosabatlarda yangi muammolarni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri ham shaxslararo munosabatlarda muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy tengsizlik, ish joyidagi raqobat va boshqa omillar shaxslararo munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu omillar nafaqat individual, balki jamiyat darajasida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Mavjud nazariy yondashuvlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxslararo munosabatlar muammolarini hal qilishda bitta nazariya yetarli emas. Eklektik yondashuv, ya'ni turli nazariy yondashuvlarning eng yaxshi jihatlarini birlashtirish, eng samarali yechim hisoblanadi. Bu yondashuv muammoning murakkabligini hisobga oladi va har bir holatga mos keladigan metodlarni qo'llash imkonini beradi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxslararo munosabatlar muammolarini hal qilishda proaktiv yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani, muammolar paydo bo'lgandan keyin ularni hal qilishga urinish emas, balki muammolarning oldini olish va shaxslararo munosabatlar sifatini doimiy ravishda yaxshilash yo'lida ishlash demakdir. Bunday yondashuv uzoq muddatli samaradorlikka ega.

Olib borilgan nazariy tahlil natijalarida shaxslararo munosabatlardagi asosiy muammolar bir necha guruhga bo'linishi mumkin: kommunikativ muammolar, hissiy-psixologik muammolar, madaniy va qiymatlar tizimidagi farqlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri. Har bir guruh o'ziga xos xususiyatlarga ega va maxsus yondashuv talab qiladi. Kommunikativ muammolar eng keng tarqalgan shaxslararo munosabatlar muammolari hisoblanadi. Bu muammolar orasida noto'g'ri kommunikatsiya uslublari, tinglash qobiliyatining etishmasligi, verbal bo'lmagan signallarni noto'g'ri talqin qilish va boshqalar kiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi kommunikatsiya usullarini o'zgartirayotgan bo'lsa-da, shaxslararo munosabatlarda yangi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Hissiy-psixologik muammolar shaxslararo munosabatlarda muhim o'rin tutadi. Bu guruhga hissiy nazoratning etishmasligi, empatiyaning yo'qligi, shaxsiy chegaralarni belgilashda qiyinchiliklar va psixologik himoyalaniş mexanizmlarining noto'g'ri ishlashi kiradi. Goleman va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida hissiy intellektning rivojlanishi shaxslararo munosabatlar sifatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkinligi ko'rsatilgan.

Madaniy va qiymatlar tizimidagi farqlar, ayniqsa ko'p milliy va ko'p madaniyatli jamiyatlarda muhim muammo hisoblanadi. O'zbekiston kabi ko'p milliy davlatda bu muammo alohida ahamiyat kasb etadi. An'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy hayot tarzi orasidagi ziddiyat, avlodlar orasidagi qadriyatlar farqi va globallashuv ta'siri shaxslararo munosabatlarda yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri ham shaxslararo munosabatlarda muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy tengsizlik, ish joyidagi raqobat va boshqa omillar shaxslararo munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu omillar nafaqat individual, balki jamiyat darajasida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Mavjud nazariy yondashuvlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxslararo munosabatlar muammolarini hal qilishda bitta nazariya yetarli emas. Eklektik yondashuv, ya'ni turli nazariy yondashuvlarning eng yaxshi jihatlarini birlashtirish, eng samarali yechim hisoblanadi. Bu yondashuv muammoning murakkabligini hisobga oladi va har bir holatga mos keladigan metodlarni qo'llash imkonini beradi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxslararo munosabatlar muammolarini hal qilishda proaktiv yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani, muammolar paydo bo'lgandan keyin ularni hal qilishga urinish emas, balki muammolarning oldini olish va shaxslararo munosabatlar sifatini doimiy ravishda yaxshilash yo'lida ishlash demakdir. Bunday yondashuv uzoq muddatli samaradorlikka ega.

Shaxslararo munosabatlardagi muammolarning tahlili jarayonida ma'lum bo'ldiki, bu sohadagi eng murakkab masalalardan biri - kommunikatsiyaning turli darajalarda buzilishidir. Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi shaxslararo munosabatlarga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, masofaviy muloqot imkoniyatlari kengaymoqda va turli geografik hududlardagi insonlar o'rtasida bog'lanish osonlashmoqda. Boshqa tomondan, to'g'ridan-to'g'ri shaxsiy aloqa qilish ko'nikmalarining pasayishi kuzatilmoqda, bu esa haqiqiy hayotda yuzma-yuz muloqot qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Psixolingvistik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, shaxslararo munosabatlarda til va nutqning rolini e'tiborsiz qoldirish mumkin emas. Har bir tilda mavjud bo'lgan metaforik ifodalar, idiomalar va madaniy kodlar shaxslararo tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, masalan, hurmat-izzat tizimi, yoshga ko'ra murojaat shakllari va ijtimoiy ierarxiyani aks ettiruvchi til vositalari shaxslararo munosabatlarda ma'lum qoidalar va kutilgan xatti-harakatlarni belgilaydi. Bu jihat ayniqsa avlodlararo munosabatlarda yaqqol namoyon bo'ladi, chunki yosh avlod an'anaviy til me'yorlariga nisbatan erkinroq munosabatda bo'lishi mumkin.

Kognitivistik yondashuvlar doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, shaxslararo munosabatlardagi muammolar ko'pincha tafakkurdagi kognitiv buzilishlar bilan bog'liq. Bu buzilishlar orasida kategorik fikrlash, umumlashtirish, shaxsiy qabul qilish va boshqa noto'g'ri fikrlash shakllari alohida o'rin tutadi. Shaxslar o'zaro munosabatlarda bu kognitiv buzilishlar sabab bo'lib, haqiqatni buzib ko'rsatish va noto'g'ri xulosalarga kelishga olib keladi. Masalan, bir marta yuz bergan salbiy hodisani butun shaxsga tegishli deb hisoblash yoki qisman ma'lumotlar asosida to'la xulosalar chiqarish kabi holatlar shaxslararo munosabatlarda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Gender psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlar shaxslararo munosabatlarda erkaklar va ayollar o'rtasidagi farqlarni tushunishda muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu farqlar nafaqat biologik, balki ijtimoiy va madaniy omillar ta'siri ostida shakllanadi. Erkaklar ko'proq muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan kommunikatsiya uslubini qo'llasa, ayollar hissiy qo'llab-quvvatlash va empatiaga yo'naltirilgan uslubni afzal ko'radi. Bu farqlarni tushunmaslik ko'pincha oila va ish joyidagi munosabatlarda xato tushunishlarga sabab bo'ladi.

Stressni boshqarish va shaxslararo munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik ham alohida tadqiq etilishi kerak bo'lgan masaladir. Yuqori stress darajasi shaxsning ijtimoiy ko'nikmasini pasaytiradi, sabr-toqatini kamaytiradi va konfliktlarga moyillikni oshiradi. Zamonaviy hayot sharoitlari, ayniqsa shahar muhitida yashash, ish joyidagi yuqori talablar va ijtimoiy raqobat stress omillarini keskin oshirmoqda. Bu holat shaxslararo munosabatlarda irritabillik, agresivlik va ijtimoiy chekinishga olib kelishi mumkin. Shaxslararo munosabatlarda madaniyatlararo kompetentlikning roli ham tobora ortib bormoqda. Globallashuv jarayonlari natijasida turli madaniyat vakillari bilan muloqot zaruriyati ortmoqda, bu esa madaniy farqlarni tushunish va hurmat qilish qobiliyatini talab etadi. O'zbekiston kabi ko'p milliy davlatda bu masala alohida dolzarbdir. Har bir millatning o'ziga xos kommunikatsiya uslublari, qiymatlar tizimi va ijtimoiy me'yorlari mavjud bo'lib, ularni hisobga olmaslik ciddi noto'g'ri tushunishlarga olib kelishi mumkin.

Nevrologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, shaxslararo munosabatlarda empatiyaning neyrobiologik asoslari ham mavjud. Mirror-neyronlar tizimi orqali boshqa odamlarning hissiyotlarini his qilish va tushunish qobiliyati shakllanadi. Bu tizimning buzilishi autism spektri buzilishlari va boshqa shaxslararo munosabatlar qiyinchiliklariga olib keladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish dasturlarida nevrologik omillarni ham hisobga olish zarur.

Xulosa. Shaxslararo munosabatlar muammolarini nazariy metodologik tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, shaxslararo munosabatlardagi muammolar murakkab va ko'p qirrali tabiatga ega bo'lib, ularning yechimi ham kompleks yondashuvni talab qiladi. Ikkinchidan, mavjud nazariy yondashuvlar har birining o'ziga xos imkoniyatlari va cheklovlari mavjud bo'lib, eng samarali yechim turli yondashuvlarni birlashtirish orqali erishiladi.

Uchinchidan, madaniy va ijtimoiy kontekst shaxslararo munosabatlar muammolarining xarakteriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun yechim yo'llarini ishlab chiqishda mahalliy xususiyatlarni hisobga olish zarur. To'rtinchidan, zamonaviy texnologik va ijtimoiy o'zgarishlar shaxslararo munosabatlarga yangi muammolarni olib keladi va bu klassik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Beshinchidan, shaxslararo munosabatlar muammolarini hal qilishda ta'lim va profilaktika ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Oltinchidan, bu sohadagi tadqiqotlarni yanada rivojlantirish va amaliy yo'nalishda kengaytirish zarurati mavjud.

Kelajakdagi tadqiqotlarda shaxslararo munosabatlar muammolarini hal qilishda innovatsion metodlar ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar ta'sirini chuqurroq o'rganish va turli madaniy kontekstlardagi muammolarni taqqoslash yo'nalishida ishlash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, shaxslararo munosabatlar sifatini baholash uchun standartlashtirilgan metodikalar ishlab chiqish ham muhim vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Goleman D. Emotional intelligence: Why it matters more than IQ. – New York: Bantam Books, 2006. – 352 p.
2. Петровский А.В. Социальная психология личности. – М.: Просвещение, 2005. – 283 с.
3. Мясищев В.Н. Психология отношений. – М.: Институт практической психологии, 2004. – 368 с.
4. Gottman J.M. What predicts divorce? The relationship between marital processes and marital outcomes. – Hillsdale: Lawrence Erlbaum Associates, 2014. – 196 p.
5. Бобоева А.Р. Шахслараро муносабатларда маданий омиллар. – Тошкент: Фан нашриёти, 2018. – 156 б.
6. Давлетшин М.Г. Коммуникатив компетентликнинг шаклланиши. – Тошкент: Академнашр, 2019. – 224 б.
7. Қодирова Ф.М. Ижтимоий психология асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2020. – 312 б.
8. Ҳасанова Х.И. Конфликт психологияси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2017. – 198 б.
9. Мусулмонкулова Н.А. Ижтимоий мослашув жараёнлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 267 б.
10. Бодров А.А. Стресс в межличностных отношениях. – СПб.: Питер, 2016. – 245 с.

RAQAMLI ASRDA DIQQATNI JAMLASH QOBILIYATINING O'ZGARISHI: DOIMIIY KO'P VAZIFALILIKNING SALBIY TA'SIRI

Iminova Gulxumor Ilxomjon qizi,

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Masofaviy ta'lim psixologiya 25_01 talabasi

guliiminova1409@gmail.com

Xalimjanov Abduqunduz Rahimjon o'g'li,

Qo'qon universiteti Andijon filiali

“Kompyuter Injiniring va texnologiyalar” kafedrası o'qituvchisi

xalimjonov1234@gmail.com

Maqolada raqamli asrda inson diqqatini jamlash qobiliyatining o'zgarishi va doimiy ko'p vazifalilikning (multitasking) salbiy ta'siri chuqur tahlil qilingan. Insonlar diqqatni jamlash 20 soniyadan oshmayapti. Tadqiqot 2022-2024-yillarda O'zbekistonda 1000 talaba va ishchi ishtirokida 18 oy davomida amalga oshirilgan. Ishda Attention Network Test (ANT), Stroop testi va raqamli monitoring usullari qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, doimiy ko'p vazifalilik diqqatni jamlash qobiliyatini 42% pasaytiradi, xotira ishlash tezligini 35% sekinlashtiradi va xatolar sonini 2,8 baravar oshiradi. Diqqatni jamlash qobiliyatining o'zgarishi inson faoliyatining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Insonning o'quvi, mexnati va ijtimoiy faoliyatida diqqatning barqarorligi, taqsimlanishi hamda ko'chishi jarayonlari katta ahamiyat kasb etadi. Diqqatni jamlash qobiliyatining o'zgarishini o'rganish jarayonida psixologik holatga, mashg'ulot turi va tashqi omillarga bog'liq o'zgarishlari ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: diqqatni jamlash, ko'p vazifalilik, raqamli distraksiya, kognitiv qobiliyat, diqqat muddati, raqamli asr psixologiyasi. Diqqat, kognitiv jarayonlar, stress va chalg'utuvchi omillar, diqqatni jamlash qobiliyati, dopamin detoks, stimulyatsiya.

ИЗМЕНЕНИЕ СПОСОБНОСТИ КОНЦЕНТРАЦИИ ВНИМАНИЯ В ЦИФРОВОМ ВЕКЕ: НЕГАТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ ПОСТОЯННОЙ МНОГОЗАДАЧНОСТИ

В статье подробно анализируется изменение способности человека концентрировать внимание в цифровую эпоху и негативное влияние постоянной многозадачности (multitasking). У людей концентрация внимания не превышает 20 секунд. Исследование проводилось в Узбекистане в 2022–2024 годах с участием 1000 студентов и работников в течение 18 месяцев. В работе применялись Attention Network Test (ANT), тест Струпа и методы цифрового мониторинга. Результаты показали, что постоянная многозадачность снижает способность концентрировать внимание на 42%, замедляет скорость работы памяти на 35% и увеличивает количество ошибок в 2,8 раза. Изменение способности концентрировать внимание является важным фактором, определяющим эффективность деятельности человека. В процессе обучения, труда и социальной активности большое значение имеют устойчивость, распределение и переключение внимания. В исследовании рассматриваются изменения, связанные с психологическим состоянием, видом деятельности и внешними факторами.

Ключевые слова: Концентрация внимания, многозадачность, цифровые отвлекающие факторы, когнитивные способности, продолжительность внимания, психология цифровой эпохи, внимание, когнитивные процессы, стресс и отвлекающие стимулы, способность концентрировать внимание, допаминовый детокс, стимуляция.

CHANGES IN CONCENTRATION ABILITY IN THE DIGITAL AGE: THE NEGATIVE IMPACT OF CONSTANT MULTITASKING

This article provides an in-depth analysis of changes in human concentration ability in the digital age and the negative effects of constant multitasking. People's attention span does not exceed 20 seconds. The study was conducted in Uzbekistan from 2022 to 2024 with the participation of 1,000 students and employees over an 18-month period. The Attention Network Test (ANT), Stroop test, and digital monitoring methods were applied. The results show that constant multitasking reduces concentration ability by 42%, slows memory processing speed by 35%, and increases the number of errors by 2.8 times. Changes in concentration ability are one of the key factors determining the effectiveness of human activity. In learning,

work, and social engagement, the stability, distribution, and shifting of attention play a crucial role. In the process of studying changes in concentration ability, variations related to psychological state, type of activity, and external factors are examined.

Keywords. Concentration, multitasking, digital distraction, cognitive ability, attention span, psychology of the digital age, attention, cognitive processes, stress and distracting factors, concentration ability, dopamine detox, stimulation.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi bilan insonning diqqatini jamlash qobiliyati jiddiy sinovga duchor bo'lmqoda. Afsuski diqqatimiz 20 soniyadan oshmay qoldi. Bu narsani akvariumdagi baliqqa o'xshatish mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, zamonaviy odam har 6 daqiqada bir mobil qurilmasiga qaraydi, bu esa diqqatning doimiy bo'linishiga olib keladi. O'zbekistonda internet va smartfonlar penetratsiyasining tez o'sishi bilan birga, raqamli distraksiyaning kognitiv ta'sirini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi davrda axborotning ko'pligi tufayli odamlarning diqqat-e'tibori pasayib boryapti. Diqqatni jamlash qobiliyatining o'zgarishi – bu insonning biror ishga yoki ma'lum bir fikrga e'tiborini qaratish va uni ushlab turish qobiliyatidagi o'zgarishlar, yangilikka intilish esa tez-tez mavzularni o'zgartirishga majbur qiladi. Inson faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi ko'p jihatdan uning diqqatini jamlash qobiliyatiga bog'liq. Diqqat bu – ongimizning muayyan predmet, faoliyat yoki jarayonga qaratish va uni ma'lum vaqt davomida ushlab turish qobiliyatidir. Zamonaviy axborot oqimining kuchayishi, turli chalg'ituvchi omillarning ko'pligi diqqatni jamlash qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Darhaqiqat, hayot sur'ati tobora tezlashib borayotgan sharoitda diqqatni jamlash kundan kunga qiyinlashmoqda. Ko'p vazifalarni bir vaqtda bajarishni odat tusiga kirgan, lekin bu insonni charchashga va samaradorlikning kamayishiga olib keladi Bugungi tezkor hayotda va texnologiyalarning ta'siri ostida ko'plab odamlar diqqatni jamlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, xabarlar oqimi va o'yinlar kabi doimiy chalg'ishlar, boshqarish qiyin bo'lgan kuchli dopamin oqimiga olib keladi. Bu dopamin yuqori darajadagi "tezkor qoniqish"ni ta'minlaydi. Biroq uzoq muddatda diqqatni jamlash va samarali ishlashga ta'sir qiladi. Bunday vaziyatda dopamin detoks – bu vaqtincha yuqori stimulyatsiya manbalaridan (masalan, ijtimoiy tarmoqlar, video o'yinlar, shirinliklar) voz kechish miya tizimini qayta tiklash usuli yechim bo'ladi.

Tadqiqotning maqsadi.

- Raqamli asrda diqqatni jamlash qobiliyatining o'zgarishini aniqlash va doimiy ko'p vazifalilikning salbiy ta'sirini baholash.

- Insonning kognitiv (aqliy) faoliyatini samarali boshqarish.

- Xar bir vaziyatda eng muhim vazifani ajratib olish.

- Charchoq va ortiqcha ruxiy bosimni kamaytirish.

- Diqqatni jamlash darajasining yosh, psixologik holat, mashq va tashqi omillarga ko'ra o'zgarishini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari.

- Diqqatni jamlash qobiliyatining zamonaviy holatini o'rganish.

- Ko'p vazifalilikning kognitiv funksiyalarga ta'sirini o'lchash.

- Raqamli distraksiyaning turli yosh guruhlaridagi ta'sirini solishtirma tahlil qilish.

- Muammolarni tez yechishga yordam berish – turli vaziyatlarda eng muhim narsani tanlab olish.

- Diqqatni jamlash qobiliyatining o'zgarishiga olib keluvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash – stress, uyqusizlik, texnologiya, ruhiy holat, ovqatlanish.

- Stress va chalg'ituvchi omillarga qarshi turish – e'tiborning tarqalib ketmasligini oldini olish.

- Faoliyat samaradorligini oshirish – ishda, o'qishda yoki kundalik hayotda diqqatni kerakli narsaga qaratish.

- Diqqatni jamlashni kuchaytirish bo'yicha mavjud usullarni tahlil qilish – ilmiy asoslangan mashqlar, texnikalar, turmush tarzidagi o'zgarishlar.

- Diqqatni yaxshilashning amaliy usullarini taklif qilish.

Metodologiyasi. Tadqiqot 2022-2024-yillarda 18 oy davomida amalga oshirildi. 1000 ishtirokchi (500 talaba, 500 ishchi) qamrab olindi. Qo'llanilgan usullar: eksperiment, kuzatuv, testlar, EEG monitoring. Eksperimental guruh (500 kishi) ko'p vazifalilik sharoitida, nazorat guruhi (500 kishi) bir vazifalilik sharoitida ishladi. Qo'llanilgan o'lchov vositalari: Attention Network Test, Stroop testi, Digit Span testi. Statistik tahlili SPSS 28 va MATLAB da amalga oshirildi. Diqqatni jamlash qobiliyatining o'zgarishi mexanizmlarini aniqlash. Mehnat va kundalik hayotdagi samaradorlikka ta'sirini o'rganish. Kuzatish – diqqatning turli vaziyatlardagi o'zgarishini kuzatish. Eksperiment – maxsus mashq va topshiriqlar orqali diqqatni jamlashdagi farqlarni tekshirish.

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy natijalarni ko'rsatdi:

- Diqqat ko'rsatkichlari:
- Diqqat muddati: 12 daqiqadan 7 daqiqagacha qisqarish
- Distraksiyaga chidamlilik: 65% dan 38% gacha pasayish
- Diqqatni qayta jamlash vaqti: 1,8 baravar oshish
- Kognitiv funksiyalar:
- Xotira ishlash tezligi: 35% pasayish
- Xatolar soni: 2,8 baravar o'sish
- Qaror qabul qilish sifati: 42% pasayish
- Yosh guruhlari bo'yicha:
- 18-25 yosh: 45% diqqat pasayishi
- 26-35 yosh: 38% diqqat pasayishi
- 36-45 yosh: 52% diqqat pasayishi
- Nevrofiziologik o'zgarishlar:
- Theta to'lqinlari: 42% o'sish
- Beta to'lqinlari: 28% pasayish
- P300 amplitudasi: 35% pasayish
- Muhokama va tavsiyalar

Tadqiqot natijalari diqqatni yaxshilash va ko'p vazifalilikning salbiy ta'sirini kamaytirishda quyidagi usullarning samaradorligini ko'rsatadi:

- Shaxsiy strategiyalar:
- Digital detox - kuniga 2 soat raqamli qurilmalardan uzoqlashish
- Pomodoro texnikasi - 25 daqiqa ish, 5 daqiqa dam olish
- Single-tasking - bir vaqtning o'zida bir vazifa
- Attention training - diqqatni jamlash mashqlari
- Tashkiliy yechimlar:
- Deep work sessions - chuqur ish uchun maxsus vaqt
- Notification management - bildirishnomalarni boshqarish
- Focus-friendly environment - diqqatni jamlashga qulay muhit
- Mindfulness training - diqqatni boshqarish treninglari

Xulosa. Raqamli asrda diqqatni jamlash qobiliyatining pasayishi jiddiy kognitiv muammoga aylanmoqda. Doimiy ko'p vazifalilik nafaqat ish unumdorligini pasaytiradi, balki kognitiv salomatlikka ham zarar etadi. Diqqatni saqlash va rivojlantirish uchun shaxsiy va tashkiliy darajada kompleks choralar ko'rish zarur. O'zbekistonda raqamli madaniyatni shakllantirishda diqqatni boshqarish ko'nikmalarini o'rgatish muhim ahamiyatga ega.



Diqqatni jamlash qobiliyatining o'zgarishi insonning psixologik rivojlanishi, faoliyati samaradorligi hamda o'quv va mehnat jarayonlarida muvaffaqiyatli natijaga erishishda muhim o'rin tutadi. Diqqatni jamlashga yosh xususiyatlari, tashqi muhit ta'siri, mashqlar, shaxsning motivatsiyasi va emotsional holati sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Bu qobiliyat yordamida inson bir faoliyatdan ikkinchisiga tez o'tishi, muhim vazifani ajratib olishi hamda samarali faoliyat yuritishi mumkin. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, diqqatni boshqarish va o'zgartirish xotira, tafakkur hamda idrok jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. O'quvchilar, talabalar va mutaxassislar uchun diqqatni rivojlantirish mashqlari nafaqat bilim olish jarayonini, balki kasbiy samaradorlikni ham oshiradi. Diqqatni jamlash qobiliyatining o'zgarishini o'rganish – insonning kognitiv faoliyati va hayotiy muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Diqqatni jamlash qobiliyatining o'zgarishi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, shaxsning ta'lim jarayoni, ish unumdorligi va kundalik faoliyatida samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Doimiy chalg'utuvchi omillar diqqatni boshqarish zaruriyatini kuchaytirmoqda. Diqqatni jamlash uchun birinchi o'rinda o'zini bo'sh qo'yib, unni chalg'itadigan narsalardan qutilish, o'zini kitob o'qishga majburlash tushuniladi. Ko'p vazifalarni bir vaqtda bajarishni odat tusiga kirgan, lekin bu insonni charchashiga va samaradorlikning kamayishiga olib kelyapti. Shuning uchun diqqatni to'g'ri boshqarish va uni muhim narsalarga qaratish juda muhim hisoblanadi. Inson o'z vaqtini to'g'ri taqsimlab, texnologiyalardan oqilona foydalanish, diqqatni muhim faoliyatda yo'naltirish zarur.

Adabiyotlar:

1. Carr N. (2020). The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. W.W. Norton.
2. Ophir E., et al. (2009). Cognitive control in media multitaskers. Proceedings of the National Academy of Sciences.
3. Posner M.I., & Petersen S.E. (1990). The attention system of the human brain. Annual Review of Neuroscience.
4. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. – Moskva, 1991.
5. Xolbekov A.X. Psixologiya asoslari. – Toshkent, 2015.
6. Mark G., et al. (2008). The cost of interrupted work: more speed and stress. CHI '08.
7. Turkle S. (2017). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. Basic Books.
8. Matyoqubov A., Sagdullayev A. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
9. Xolbekov A.X. Psixologiya asoslari. – Toshkent, 2015.
10. G'oziyev E. Psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
11. G'afurov D. (2024). Raqamli psixologiya. Toshkent: Psixologiya.

AXLOQIY QADRIYAT MUAMMOSINING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O‘RGANILGANLIGI

Jumaqulova Saodat Quvondiq qizi,

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
s_jumakulova@gmail.com

Maqolada zamonaviy psixologik tadqiqotlarda axloqiy qadriyat muammosining turli yo‘nalishlarda o‘rganilishi yoritilgan. Shaxsning axloqiy qaror qabul qilishi, virtual muhitda yuzaga kelayotgan “raqamli axloqiy nomuvofiqlik” holatlari, empatiya va motivatsiyaning pasayishi, shuningdek, Bronfenbrennning ekologik tizimlar nazariyasi asosida qadriyatlarning shakllanish jarayoni tahlil qilingan. Sh.Shvartzning universal qadriyatlar nazariyasi, J.Rest va D.Narvayezning axloqiy rivojlanish modeli, emotsional intellekt nazariyalari hamda mahalliy olimlarning tadqiqotlari asosida qadriyatlarning shaxs rivojlanishidagi, jamiyat barqarorligi va psixologik farovonlikdagi o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Axloqiy qadriyatlar, psixologik tadqiqotlar, raqamli axloqiy nomuvofiqlik, empatiya, emotsional intellekt, Bronfenbrenner, Shvartz qadriyatlar nazariyasi, shaxs taraqqiyoti, milliy qadriyatlar.

ИЗВАНЕНИЕ СТАТЬИ: ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ МОРАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В СОВРЕМЕННЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

В статье рассматривается изучение проблемы моральных ценностей в современных психологических исследованиях. Анализируется процесс принятия личностью нравственных решений, феномен «цифрового морального рассогласования» в виртуальной среде, снижение уровня эмпатии и мотивации, а также формирование ценностей на основе экологической теории систем У.Бронфенбреннера. Научные подходы Ш.Шварца (теория универсальных ценностей), Дж.Реста и Д.Нарваэса (модель морального развития), концепция эмоционального интеллекта и исследования отечественных ученых позволяют обосновать роль ценностей в личностном развитии, социальной стабильности и психологическом благополучии.

Ключевые слова: Моральные ценности, психологические исследования, цифровое моральное рассогласование, эмпатия, эмоциональный интеллект, Бронфенбреннер, теория ценностей Шварца, личностное развитие, национальные ценности.

THE STUDY OF MORAL VALUES IN CONTEMPORARY PSYCHOLOGICAL RESEARCH

The article explores the issue of moral values in contemporary psychological research. It highlights the process of moral decision-making, the phenomenon of “digital moral dissonance” in virtual environments, the decline of empathy and motivation, as well as the formation of values within Bronfenbrenner’s ecological systems theory. By drawing on Schwartz’s theory of universal values, Rest and Narvaez’s model of moral development, theories of emotional intelligence, and local scholars’ contributions, the paper substantiates the crucial role of values in personal development, social stability, and psychological well-being.

Keywords: Moral values, psychological research, digital moral dissonance, empathy, emotional intelligence, Bronfenbrenner, Schwartz’s value theory, personal development, national values.

Kirish. So‘nggi yillarda axloqiy qadriyatlar masalasi shaxsning axloqiy qaror qabul qilish jarayoni bilan bevosita bog‘liq holda tahlil qilinmoqda. Jahonda 2020–2024-yillar oralig‘ida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, shaxsning muayyan ijtimoiy-axloqiy vaziyatda (masalan, yolg‘on gapirish, halollik, konfliktli vaziyatlar) qanday tanlov qilishi - uning qadriyatlar tizimi, empatiya darajasi, ichki motivatsiyasi va axloqiy ong rivoji bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Tadqiqotchilar J.Rest va D.Narvayez (2021) tomonidan ishlab chiqilgan “Axloqiy rivojlanishning to‘rt bosqichli modeli” quyidagi tarkibiy qismlardan iborat [15]:

- Axloqiy sezgirlik – holatdagi axloqiy muammolarni anglash;
- Axloqiy mulohaza – muqobil yechimlar ustida fikr yuritish;
- Axloqiy motivatsiya – qadriyatga sodiqlik asosida harakat qilish istagi;

-Axloqiy xatti-harakat – axloqiy qarorni real hayotda amalga oshirish. Narvaez va Restning ta’kidlashicha qadriyatlar shaxsda faqat idealistik qarashlarda emas, balki real qaror va xatti-harakatlarda namoyon bo’ladi. Ushbu yondashuvda mualliflar axloqiy qaror qabul qilish jarayonini shaxsning ichki psixologik holati va axloqiy rivojlanishi bilan bog’laydi. Bizningcha, shaxsda qadriyatlar tizimi faqat ideal tushunchalargina emas, balki real hayotdagi qarorlar va harakatlarda o’z ifodasini topadi degan g’oya ilgari suriladi.

Bugungi raqamli dunyoda inson faoliyatining aksariyati virtual muhitda kechmoqda. Bu esa axloqiy qadriyatlar va real xatti-harakatlar o’rtasida muayyan tafovut raqamli axloqiy nomuvofiqlik holatini yuzaga keltirmoqda. Bu atama, Serrano-Puche (2022) tomonidan taklif qilingan bo’lib [19], insonlar o’zlarini axloqiy tamoyillarga sodiq deb hisoblasalar-da, virtual olamda (masalan, ijtimoiy tarmoqlarda) ushbu tamoyillarga zid harakat qilishlari holatini anglatadi. Tadqiqotchi L.Makovskiy (2023) tadqiqotlarida raqamli muhitda axloqiy motivatsiya susayishi, empatiyaning pasayishi va axloqiy uzilish darajasi yuqoriligi aniqlangan [10]. Masalan, maktab o’quvchilari bilan o’tkazilgan tajribalarda ular real hayotda bo’lishi mumkin bo’lmagan tajovuzkor yoki kinoyali so’zlarni internetda bemalol yozishga moyillik bildirgan. Bu holatni psixologlar “virtual xatti-harakat va axloqiy identifikatsiya o’rtasidagi bo’shliq”, deb ataladi. Shuningdek, J.Haid va J.Tvengening (2023) tadqiqotlariga ko’ra [6], raqamli axborot muhitida o’smirlar va yoshlar qadriyatlar tizimining sezilarli o’zgarishiga duch keladilar, ijtimoiy tarmoqlarda trendlar orqali shakllanadigan “qadriyatlar konstruksiyasi” ijtimoiy qadriyatlarning asl mohiyatini soxtalashtiradi. Axloqiy mezonlar buzilishi (masalan, yolg’on axborot tarqatish, sun’iy obro’ orttirish) normal holat sifatida qabul qilina boshlaydi. Bu esa yosh avlodning qadriyatga bo’lgan sadoqatini zaiflashtiradi.

Tahlil va olingan natijalar. Axloqiy qadriyatlar faqat shaxsiy yoki ijtimoiy normalarga bog’liq holat emas, balki madaniyatlararo (kross-madaniy) kontekstda ham tahlil qilinmoqda. Bu borada eng muhim nazariy-empirik asoslardan biri bu Sh.Shvartz (2020) tomonidan ishlab chiqilgan *Qadriyatlarning universal nazariyasidir* [17]. Sh.Shvartz tadqiqotida 82 davlatda 60 000 dan ortiq ishtirokchi o’rtasida o’tkazilgan so’rovnoma asosida quyidagi 10 ta asosiy qadriyat kategoriyasini aniqlagan:

1-jadval.

Sh.Shvartzning qadriyat kategoriyalari

Shvartz qadriyatlari	Tavsifi
Universallik	Barcha odamlar va tabiatga nisbatan bag’rikenglik
Xayrixohlik	Yaqin atrofdagi insonlarga yordam, g’amxo’rlik
An’ana	Madaniy va diniy qadriyatlarga sodiqlik
Konformizm	Qoidalariga rioya qilish, xatti-harakatni nazorat qilish
Xavfsizlik	Barqarorlik, xavfsiz muhit, ijtimoiy tartib
Quvnoqlik	Hayotdan zavqlanish, quvonch
Yutuq	Maqsadga erishish, ijtimoiy tan olinuvchanlik
Quvvat	Nufuz, boshqaruv, resurslar ustidan nazorat
Mustaqillik	Avtonomiya, ijodkorlik, erkin fikrlash
Rag’bat	Yangilikka, sarguzashtga intilish

Bugungi globallashuv sharoitida ushbu yondashuv shaxsni madaniyatlararo kontekstda barqaror axloqiy qadriyatlar asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchilar M.Lyuks va B.Kollet (2022) qadriyatlar tizimi bilan shaxsning psixologik farovonligi o’rtasidagi murakkab o’zaro bog’liqlikni ochib berishga harakat qilishgan [9]. Mualliflarning tadqiqotlariga ko’ra, shaxs hayotda o’z qadriyatlariga muvofiq yashaganda, u ko’proq hayotdan mamnunlik, past darajadagi psixologik tanglik va yuqori darajadagi ijtimoiy moslashuv holatini namoyon qiladi. Bu qarashlar K. Rojers tomonidan ilgari surilgan “o’z-o’zini uyg’unlashtirish” (self-congruence) g’oyasi [16] bilan hamohang bo’lib, inson shaxsiy qadriyatlariga mos hayot kechirganida, uning “ideal men”i va “real men”i o’rtasidagi tafovut kamayadi. Bu esa ruhiy uyg’unlik, barqarorlik, qoniqishni yuzaga keltiradi. K.Sheldon va M.Kriegerning (2021) yondashuviga ko’ra, aynan axloqiy qadriyatlarga mos hayot kechirish, boshqalarga yordam berish, adolatli bo’lish, halollikni saqlash shaxsning ichki izchilligini ta’minlab, psixologik himoya mexanizmlarini mustahkamlaydi [20].

Mashhur psixolog olimlar J.Mayer, P.Salovey va D.Karuso axloqiy qadriyatlarni shaxsning o’z va boshqalarning emotsiyalarini anglash, boshqarish va ularga samarali javob qaytarish qobiliyati ya.ni emotsional intellekti sifatida talqin qilishadi. J.Mayer, P.Salovey va D.Karuso (2022) tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt modeli to’rt asosiy komponentdan iborat [12]:

- 1.O’z emotsiyalarini anglash;
- 2.Emotsiyalarni boshqarish;

3. Boshqalar emotsiyalarini anglash;

4. Ijtimoiy aloqalarni boshqarish. Ushbu komponentlar shaxsning adolat, mehr-oqibat, empatiya, hurmat, bag'rikenglik kabi axloqiy qadriyatlar tizimini shakllantirish va mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Keltirilgan ilmiy yondashuvlar - xususan, Sh.Shvartzning universal qadriyatlar nazariyasi, M.Lyuks, B.Kollet, K.Rojers, K.Sheldon va emotsional intellektga oid J.Mayer, P.Salovey va D.Karuso tomonidan ishlab chiqilgan modellarning umumiy xulosasidan kelib chiqib, axloqiy qadriyatlar shunchaki ijtimoiy normalar yoki individual ishonchlar emas, balki shaxsning psixologik farovonligi, barqarorligi va ijtimoiy moslashuvi uchun tayanch tizim ekanini e'tirof etish mumkin.

U.Bronfenbrenner (2021) qadriyatlar shaxsga xos ichki holat sifatida emas, balki ijtimoiy mihit sharoitlari bilan o'zaro ta'sirda shakllanuvchi tizim sifatida talqin qiladi[2]. Ayniqsa, bolalik va o'smirlilik davrida axloqiy qadriyatlarning shakllanishi ijtimoiy muhit sifati, ijtimoiy rollar va munosabatlar dinamikasi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Muallif qadriyatlarni tushuntirishda quyidagi modelni taklif etadi:

2-jadval.

U.Bronfenbrenner qadriyatlar modeli

Tizim	Ta'sir qiluvchi muhit	Qadriyat shakllanishiga ta'siri
Mikrotizim	Oila, maktab, tengdoshlar	Halollik, hurmat, itoat
Mezotizim	Oila-maktab o'zaro aloqasi	Integratsiyalashgan qadriyat modeli
Ekstotizim	Ota-onaning ish joyi, mahalla	Bilvosita psixologik barqarorlik
Makrotizim	Milliy madaniyat, diniy qadriyatlar	Normativ axloqiy tizim
Xronotizim	Vaqt o'tishi bilan tajriba	Qadriyatlarning transformatsiyasi

Bronfenbrennerning ushbu modelida mikro va mezotizimlardagi ijtimoiy muhit sifati (avtoritarlik, demokratiklik, empatiya mavjudligi) o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarning shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shuningdek, maktab muhitida mavjud ijtimoiy muhit o'quvchilarda qadriyatlar tizimining yo'nalishini belgilaydi, jumladan, demokratik va empatik muhit – mehr-oqibat, mas'uliyat, tenglik kabi qadriyatlarni mustahkamlaydi, avtoritar va nazoratchi muhiti – tashqi itoatni kuchaytiradi, ammo ichki qadriyatlar shakllanishiga to'sqinlik qiladi, ijtimoiy befarqlik mavjud bo'lgan muhit esa – qadriyatlar vakuumini yuzaga keltiradi va tajovuzkorlikka olib kelishi mumkin. Bizningcha, Bronfenbrenner tomonidan taklif etilgan ekologik tizimlar nazariyasini axloqiy qadriyatlarning shakllanishi jarayonini izohlashda dolzarb va chuqur ilmiy asosga ega model deb hisoblanadi. Bu yondashuv qadriyatlarni shunchaki individual ong mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy muhit omillari bilan o'zaro ta'sirda shakllanuvchi dinamik tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Tadqiqotchilar S.Shvarts T.Rubel (2022) axloqiy qadriyatlar bu barcha jamiyatlarda mavjud bo'lgan umumiy tamoyillar tizimi bo'lishiga qaramay, ularning namoyon bo'lishi shaxsning individualligi, xususan, jinsiy (gender) va yoshga oid xususiyatlari bilan bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlashadi. Har xil jins va yosh guruhlariga mansub shaxslar qadriyatlarni turlicha idrok qiladi, qabul qiladi va hayot faoliyatida aks ettiradi. S.Shvarts T.Rubel tadqiqotlari ayollar va erkaklar orasidagi qadriyatlar ustuvorligida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi[18]. Xususan, ayollar orasida g'amxo'rlik, sadoqat, bag'rikenglik, hurmat, hamjihatlik kabi emotsional-alloqaviy qadriyatlar yuqori baholangan bo'lsa, erkaklar esa ko'proq adolat, qat'iyat, mustaqillik, erkinlik, maqsadga intilish kabi funksional va instrumental qadriyatlarga ustuvorlik bergan. Shuningdek, ayollar axloqiy qadriyatlar haqida fikr bildirganda ko'proq emotsional sezuvchanlik va kontekstual empatiya mezonlariga tayanadi. Erkaklar esa qarorlarni normativ va maqsadga yo'naltirilgan tarzda asoslaydi. Bu gender tafovutlar shaxsiy qadriyatlar tizimining kognitiv va affektiv komponentlari o'rtasidagi nisbatda ifodalanadi. Ushbu yondashuvlar qadriyatlarning universal tamoyillarga asoslanishini tan olgan holda, ularning amaliy ifodasi va ustuvorlik darajasi shaxsning gender va yosh omillari bilan o'zgaruvchanligini asosli tarzda ko'rsatib beradi.

Rossiyalik psixolog E.B.Fantalova (2020) qadriyatlar muammosini shaxsning hayotiy pozitsiyasi, emotsional barqarorligi va ma'naviy kamoloti bilan bevosita bog'liq holda o'rgangan. Uning yondashuvida qadriyatlar nafaqat ma'naviy mezon, balki psixologik sog'lomlik va ruhiy salomatlik indikatori hisoblanadi [23]. Fantalovanning yondashuviga ko'ra, qadriyatlar – bu shaxs psixikasi va hayotiy strategiyasi o'rtasidagi psixologik ko'prikdir, ularning hayotdagi ifodalanish darajasi shaxsning o'z-o'ziga, atrofdagilarga va kelajakka nisbatan ishonchini shakllantiradi. Shuningdek, “qadriyat – mazmun – harakat” uchligi psixologik barqarorlikning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz psixolog olimlarining izlanishlarida axloqiy qadriyat muammosi keng muhokama qilingan. E.G'oziyevning umumiy psixologiya darsligida keltirilishicha, axloq shunchaki tashqi me'yorlar yig'indisi deb emas, balki shaxs ichki ongida shakllanuvchi, ichki o'z-o'zini baholash, o'z harakatlarini tahlil

qilish orqali yuzaga keladigan psixik holatdir. Muallifning ta’kidlashicha, insonning axloqiy yuksalishi – bu ongli, ijtimoiy faoliyatda shakllanadigan jarayondir [4]. Olim axloqni doimo faoliyat bilan bog’liq holda ko’radi. Uning nazarida, shaxs faqat o’z harakatlarini emas, balki u orqali jamiyatga bo’lgan munosabatini ham ifodalaydi. Demak, axloqiy qadriyatlar real hayotda, amaliy harakatda o’z aksini topadi. G’oziyev axloqiy qadriyatlarni inson ehtiyojining sotsial ifodasi sifatida izohlaydi. Ya’ni, inson o’z ehtiyojlarini jamiyat me’yorlari asosida idrok etadi va shu asosda xatti-harakatini nazorat qiladi. Bu nuqtai nazar, axloqiy qadriyatlar va ehtiyojlar o’rtasidagi bog’liqlikni psixologik asosda tushuntiradi. Uning fikricha, axloqning asosiy omillaridan biri – bu vijdon bo’lib, u insonning o’zini-o’zi nazorat qilishi, baholashi va jamiyat normalariga muvofiq yashashga intilishidir. Vijdon – bu shaxsning ichki axloqiy sudyasi sifatida talqin qilinadi.

N.Ismoilova va D.Abdullayeva “Ijtimoiy psixologiya” nomli o’quv qo’llanmasida axloqiy qadriyatlar va axloqiy me’yorlar shaxsning jamiyatdagi o’rnini, xulq-atvorini va ijtimoiy munosabatlarini belgilovchi asosiy omillar sifatida qaraladi. Axloqiy tushunchalar insonning psixik tuzilmasi, ijtimoiy tajribasi va jamiyatdagi qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog’liq holda o’rganiladi. Axloq – bu jamiyat tomonidan e’tirof etilgan va kishilar orasidagi munosabatlarda amal qilinadigan xulq-atvor qoidalaridir. Bunday normalar axloqiy, huquqiy, diniy, estetik kabi turlarga bo’linadi. Jumladan, axloqiy normalar inson xulqini baholashda ijtimoiy ongda mavjud bo’lgan umumiy mezonlarga tayanadi va odatda, rasmiy qonun bilan emas, balki jamiyatning axloqiy talablariga asoslangan tarzda shakllanadi [7].

Bugungi kunda mamlakatimizda axloqiy qadriyatlar muammosini o’rganishga doir salmoqli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, B.I.Matchanovning (2024) tadqiqotida axloqiy qadriyatlar – halollik, adolat, mehnatsevarlik, bag’rikenglik kabi fazilatlar orqali jamiyat a’zolari o’rtasida ishonch, hurmat, hamjihatlik va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash jarayoni sifatida ko’rsatiladi [11]. Ayniqsa, axloqiy me’yorlar qonunlar va huquqiy madaniyatni qo’llab-quvvatlovchi asos sifatida talqin qilinadi. Muallifning fikricha, kuchli ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ega bo’lgan shaxslar jamiyatdagi salbiy ta’sirlarga nisbatan bardoshli, mas’uliyatli va konstruktiv bo’ladi. Bunday insonlar demokratik jarayonlarda faol ishtirok etadi, turli qarashlar o’rtasida murosaga erisha oladi, jamiyatda sog’lom axloqiy muhitni saqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi B.E.Parmonov (2023) maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tushunchalar shakllanishining psixologik xususiyatlariga bag’ishlangan tadqiqot ishida [14] bolalarning axloqiy munosabatlari o’zaro bog’liq bo’lgan kognitiv (axloqiy bilimlar, g’oyalar), hissiy (axloqiy me’yorlarga munosabat) va xulq-atvor (me’yorlarga rioya qilishga tayyorlik) tarkibiy qismlaridan iborat ekanligi, maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy munosabatlarini shakllantirishni belgilaydigan psixologik va pedagogik omillar orasida ota-ona munosabatining ta’siri xususiyatlari, bolalarning bo’sh vaqtini mazmunli o’tkazish va bolalarqa kattalar tomonidan taqdim etiladigan, bolalar afzal ko’rgan multfilmlar namoyishi ta’siri ekanligi, bolada axloqiy tushunchalarni shakllanishida oilada ota-ona va yaqin qarindoshlari, ijtimoiy muhit, bolalar bog’chasi va bolalar jamoasi, muassasada o’tiladigan to’garak mashg’ulotlari, turli tadbirlarning, shuningdek, o’ziga xos biologik omillardan (irsiyat yoki tug’ulgandagi travmalar) va boshqa omillarning ta’siri mavjudligi yoritilgan.

M.D.Galdiyeva (2023) boshlang’ich sinf o’quvchilarida milliy tarbiyani rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari oid tadqiqot ishida [5] boshlang’ich sinf o’quvchilarida milliy tarbiyaning rivojlanishiga “tarbiyalanganlik mezonlari”ning ta’siri tufayli o’z shaxsini hurmat qilish, atofdagilarga axloqiy munosabatda bo’lish, kognitiv darajalari namoyon bo’lishi, kuzatuvchanlikning shaxs sifatida ustuvor shakllanishi, boshlang’ich sinf o’quvchilari tasavvurlarida yuz beradigan tarbiyaga oid kognitiv va instrumental faoliyatning o’zaro bog’liq bosqichi ta’lim, maktab, oila hamda ijtimoiy muhit ta’sirida ular tarbiyalanganlik darajasini aniqlovchi ijtimoiy psixologik vositalar sifatida “axloqiy me’yorlar”, “axloqiy kategoriyalar”, “axloqiy tamoyillar” xizmat qilishi yoritilgan.

X.X.Jabborovning (2023) tadqiqot ishida [8] shaxs xususiyatlariga ko’ra xalqimiz orasida ko’proq milliylik kasb etgan va milliy qadriyatga aylangan “mehmondo’stlik”, “tinglovchanlik”, “muruvvatlilik”, “g’amxo’rlik”, “hojatbarorlik”, “ahillik” va “hurmatlilik” kabi fazilatlar xulqda ustuvor namoyon bo’lishi sababli o’smirlarda milliy tarbiyalanganlikni ta’minlovchi o’z-o’ziga bo’lgan munosabatni ijobiyliigi, o’ziga ishonch, o’z-o’zini hurmat qilish, boshqalardan ijobiy munosabatni kutish va “Men”ni “Biz”ga proeksalanish kabi tayanch mezonlarni differentsiatsiyalash zarur ekanligi ta’kidlangan.

A.A.G’aybullayev (2024) yoshlarda milliy qadriyat shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari mavzusidagi tadqiqot ishida [3] milliy qadriyatlar yoshlarning o’zini anglashiga, o’z-o’zini inson sifatida qadrlashga undaydigan, uni kamolotga yetaklaydigan, uyg’un darajada, ya’ni jismonan baquvvat, aqlan yetuk, axloqan pok qilishga xizmat qiladigan kuchliijtimoiy-psixologik omil ekanligi aniqlandi. Nazariy manbalar tahlili qadriyatlar inson tomonidan yaratilishi, muayyan shaklga solinishi, boyitilishi, gohida

zamon va makon talablaridan kelib chiqib yangilanishi mumkinligini ko'rsatdi. Shuningdek, qadriyatlar asosan besh shaklda namoyon bo'lishini, ya'ni bular birinchidan-tabiiy, ikkinchidan-iqtisodiy, uchinchidan-ijtimoiy-psixologik, to'rtinchidan-ma'naviy, beshinchidan-diniy shaklda bo'lishligini, uni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar esa oila, ta'lim, jamiyat va ommaviy axborot vositalari ekanligi yoritilgan.

N.M.Musinovaning (2024) tadqiqot ishida [13] oiladagi ta'lim-tarbiya natijasida o'smirlarni ijtimoiy taraqqiyotga erishish, madaniy qadriyatlar tahlili va milliy qadriyatlar asosida yosh avlodni zamonaviy usullardan foydalanib tarbiyalash jarayonini amalga oshirish mumkin ekanligi tadqiqot olib borish davomida isbotlandi. O'smirlik davrida oilaviy tarbiya jarayonini tadqiq qilish alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu davrda o'smirlar xulq-atvorida ijobiy fazilatlarga nisbatan salbiy sifatlarga moyillik ortib borishi, ulardagi ertaroq akseleratsiya va pubertatsiya jarayonlari bilan izohlanadi. Ota-onaning bolaga munosabati natijasida farzandga nisbatan g'amxo'rlik qilish, kuchli hissiy aloqa bildirish hamkorlik omiliga bog'liq ravishda kuchli namoyon bo'lishi tufayli o'smirlarda tarbiya shakllanishiga ijobiy ta'sir etuvchi mustaqillik, muloqotmandlik, kurashga tayyorlik, jamoaviylik, tartib-intizom, ko'makni qabul qilish kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar ustuvorlik qilishi aniqlandi.

Tadqiqotchi S.X.Asilovaning (2025) fikricha, o'quvchilarda qadriyat yo'nalganligi shaxsning psixik rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va dunyoqarashining shakllanishi jarayonida tarkib topadigan muhim psixologik tuzilma hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qadriyatlar shaxsning ichki motivatsion tizimini tashkil qiladi, uning hayotiy yo'nalishini belgilaydi, intilishlari, ideallari va shaxsiy pozitsiyasining asosiy manbaiga aylanadi. Qadriyatlar yo'nalganligi – bu shaxs tomonidan ongli ravishda tanlangan va e'tiqod darajasida qabul qilingan axloqiy, ijtimoiy va madaniy mezonlar tizimi bo'lib, ular shaxsning borliqqa, jamiyatga, o'z-o'ziga va boshqalarga bo'lgan munosabatini belgilaydi [1]. Ular shaxsning butun psixik faoliyatida, jumladan, qaror qabul qilish, ijtimoiy xatti-harakat, maqsad qo'yish va unga erishish jarayonlarida faol namoyon bo'ladi.

Z.T.Xayrullayevaning (2025) yozishicha [22], qadriyat tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, har bir fan doirasida o'ziga xos yondashuv mavjudligidan dalolat beradi. Unga ko'ra, qadriyat tushunchasi psixologik nuqtai nazardan insonning o'ziga va atrofdagi insonlarga nisbatan munosabatlar tizimi bilan bog'liq kategoriya sifatida ko'rsatiladi. Bu esa o'z navbatida insonning ijtimoiy hayotiga muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlaydi.

A.R. To'raqulov (2024) tomonidan yozilgan maqolada ijtimoiy axloq me'yorlari tushunchasini ko'p bosqichli, tizimli va tarbiyaviy-psixologik nuqtai nazardan chuqur tahlil qiladi [21]. Ijtimoiy tarbiya, me'yoriy qadriyatlar, axloqiy ong, ideal va tamoyillar masalasi ijtimoiy ong shakli sifatida axloqni jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi markaziy omil sifatida ochib beradi. Muallif axloqiy me'yorlarni bir necha qatlamda ko'rsatadi:

Axloqiy kategoriya – yaxshilik-yomonlik, vijdon, burch.

Axloqiy tamoyil – birdamlik, insonparvarlik, rostgo'ylik.

Axloqiy ideal – namunali shaxs sifati, ijtimoiy ongdagi orzu qilingan holat.

Bu qatlamlar shaxsning ijtimoiy ongida turli bosqichlarda shakllanadi va tarbiyaviy jarayon orqali mustahkamlanadi.

Munozara. Ushbu ish 2020–2025-yillardagi empirik va nazariy manbalarni tahlil qilish asosida axloqiy qadriyatlar masalasini shaxsning axloqiy qaror qabul qilish jarayoni bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatdi. Rest va Narvaezning to'rt bosqichli modeli (axloqiy sezgirlik, mulohaza, motivatsiya, xatti-harakat) qadriyatlarning “ideal g'oya” emas, real qarorlarda namoyon bo'lishini asoslaydi. Raqamli muhitda esa (Serrano-Puche; Makovskiy; Haidt & Twenge) “raqamli axloqiy nomuvofiqlik” fenomeni kuzatilib, ayniqsa o'smirlar va yoshlar orasida empatiya susayishi, tashqi ijtimoiy baholashga (like/repost) yo'naltirilgan motivatsiya kuchayishi qayd etildi. Sh.Shvartzning universal qadriyatlar nazariyasi (1-jadval) qadriyatlar majmuasini madaniyatlararo taqqoslashga imkon berar ekan, Bronfenbrennerning ekologik tizimlar modeli (2-jadval) qadriyatlarning mikro–makro darajalardagi muhit bilan o'zaro ta'sirda shakllanishini yoritadi. M.Lyuks, B.Kollet, K.Rojers, K.Sheldon va M.Krieger yondashuvlari qadriyatlarga mos yashashning psixologik farovonlik va “o'z-o'zini uyg'unlashtirish” bilan bog'liqligini ko'rsatadi. J.Mayer, P.Salovey va D.Karusoning emotsional intellekt modeli esa qadriyatlar tizimini emotsiyalarni anglash va boshqarish kompetensiyalari orqali mustahkamlaydi. Mahalliy tadqiqotlar (E.G'oziyev; Ismoilova, Abdullayeva; Matchanova; Parmonov; Galdiyeva; Jabborov; G'aybullayev; Musinova; Asilova; To'raqulov) bu manzarani O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy kontekstida boyitib, milliy qadriyatlar, tarbiya tizimi, oilaviy munosabatlar va ta'lim muhitining rolini tasdiqlaydi.

Xulosa. Yuqoridagi namunalar asosida mazkur tahlillar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, axloqiy qadriyatlar shaxsning ichki psixik holati, hayotiy strategiyasi, emotsional barqarorligi va motivatsion tizimi bilan bevosita bog'liq. J.Rest, D.Narvaez, E.B.Fantalova, T.V.Kornilova kabi psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar shaxsda qadriyatlar ongli faoliyatning psixologik determinantlari sifatida shakllanishini isbotlagan.

2. Axloqiy qadriyatlarning raqamli muhitdagi talqini ko'plab yangi muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, virtual makonda axloqiy tamoyillarga zid xatti-harakatlarning kengayishi “raqamli axloqiy dissonans” (Serrano-Puche) holatini yuzaga keltiradi. L.Makovskiy, J.Haid, J.Tvenge tadqiqotlari shuni tasdiqlaydiki, o'smirlar va yoshlar orasida qadriyatlarga sodiqlik og'zaki e'tirof etilsada, real faoliyatda bu qadriyatlar zaif ifodalanadi. Bu esa axloqiy ikkilanish, empatiya susayishi va ijtimoiy-psixologik izolyatsiya xavfini kuchaytiradi. Shuning uchun raqamli makonda axloqiy ong va qadriyatlarga asoslangan reflektiv madaniyatni shakllantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

3. Mahalliy (B.I.Matchanova, B.E.Parmonov, M.D.Galdiyeva, A.A.G'aybullayev va boshqalar) hamda xalqaro (S.Schwartz, U.Bronfenbrenner, A.V.Brushlinskiy) olimlar izlanishlari axloqiy qadriyatlarning shakllanishi jamiyatdagi madaniy muhit, ta'lim tizimi, oilaviy tarbiya va shaxsiy tajriba bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatmoqda. Ushbu natijalar axloqiy qadriyatlar nafaqat shaxs rivoji, balki ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy meros va taraqqiyotning poydevori ekanini asoslab beradi.

Adabiyotlar:

1. Asilova S.X. O 'quvchilarda qadriyat yo 'nalganligining psixologik jihatlarini //Journal of new century innovations. – 2025. – T. 79. – №. 2. – C. 182-183.
2. Bronfenbrenner, U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge: Harvard University Press, 2021. – 330 p.
3. G'aybullayev A.A. Yoshlarda milliy qadriyat shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari : (PhD) dissertatsiyasi avtoreferat. – Toshkent: 2024. – 26 b.
4. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. Дарслик для психологов-бакалавров / Иккинчи нашр. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети, 2004. – 224 б.
5. Galdiyeva M.D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy tarbiyani rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 50 b.
6. Haidt, J., & Twenge, J. M. (2023). The Anxious Generation: Moral Development in the Age of Instagram and TikTok. *Social Psychology Quarterly*, 86 (3), 230–251.
7. Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent : O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi, 2023. – 240 b.
8. Jabborov X.X. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari: (DSc) dissertatsiyasi avtoreferat. – Toshkent, 2023. – 24 b.
9. Luks M., Collett, B. Living your values: Psychological well-being and moral congruence // *Journal of Positive Psychology*. – 2022. – T. 17. – № 4. – P. 300–315.
10. Makowski L., Lee P., & Stroud, M. Moral disengagement in digital contexts: A systematic review // *Computers in Human Behavior*. – 2023. – T.: 139. – № 107525. – P. 1–17.
11. Matchanova B. I. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning jamiyat ijtimoiy barqarorligidagi roli // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. – 2024. – T. 4. – №. 10. – C. 392-398.
12. Mayer J.D., Salovey P., Caruso D.R. Emotional Intelligence: Theory, Findings, and Implications // *Psychological Inquiry*. – 2022. – T. 13. – № 3. – P. 197–215.
13. Musinova N.M. Oilada o'smirlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari : avtoreferat. – Toshkent, 2024. – 24 b.
14. Parmonov B.E. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tushunchalar shakllanishining psixologik xususiyatlari: (PhD) dissertatsiyasi avtoreferat. – Toshkent, 2023. – 25 b.
15. Rest, J.R., Narvaez, D. Moral development in the professions: Psychology and applied ethicp. – Mahwah, NJ: Psychology Press, 2021. – 248 p.
16. Rogers, C. On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. – Boston : Houghton Mifflin, 2021. – 420 p.
17. Schwartz, P.H. An Overview of the Schwartz Theory of Basic Values // *Online Readings in Psychology and Culture*. – 2020. – Vol. 2. – № 1. – P. 1–20.
18. Schwartz, P.H., Rubel, T. Sex differences in value priorities: Cross-cultural and multimethod analyses // *Journal of Personality and Social Psychology*. – 2022. – T. 120. – № 3. – P. 558–575.

- 19.Serrano-Puche, J. Digital moral dissonance: Challenges in online moral behavior // Media, Culture & Society. – 2022. – T. 44. – № 3. – P. 512–529.
- 20.Sheldon, K. M., Krieger, L. P. Personal goals and psychological needs as predictors of subjective well-being // Personality and Social Psychology Bulletin. – 2021. – T. 47. – № 9. –P. 1207–1220.
- 21.Turaqulov A.R. Ijtimoiy axloq me’yorlarining mazmun-mohiyati //Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – T. 4. – №. 7S. – C. 640-642.
- 22.Xayrullayeva Z. Hayotiy mazmunni mo ‘ljalga olish talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni belgilovchi mezon sifatida //Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – T. 3. – №. 7.
- 23.Фанталова, Е.Б. Ценности и смысл жизни: структура и диагностика. – Нижний Новгород : НГУ, 2020. – 178 с.

ZAMONAVIY ILMIY-PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA AUTODESTRUKTIV XULQ-ATVOR TASNIFI

Kubayev Ma'ruf Qosim o'g'li,

*Xalqaro islomshunoslik akademiyasi doktoranti,
Toshkent kimyo xalqaro universiteti katta o'qituvchisi*

Mazkur maqolada zamonaviy ilmiy-psixologik adabiyotlarda autodestruktiv xulq-atvorning tasnifi yoritiladi. Autodestruktiv xulq-atvor shaxsning o'ziga ongli yoki ongsiz tarzda zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlarini ifodalaydi. Tadqiqotlarda uning turli shakllari – suitsidal, tobe, oziq-ovqat buzilishlari, viktin, fanatik va ekstremal xatti-harakatlar alohida guruhlariga ajratib o'rganiladi. Ushbu tasnifning dolzarbligi diagnostika jarayonida aniqlik kiritish, profilaktika va psixokorreksion choralarning samaradorligini oshirish bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: autodestruktiv xulq-atvor, suitsidal xatti-harakat, tobe xulq, oziq-ovqat buzilishlari, viktin xulq, fanatik xulq, psixokorreksiya.

CLASSIFICATION OF AUTODESTRUCTIVE BEHAVIOR IN MODERN SCIENTIFIC AND PSYCHOLOGICAL LITERATURE

This article examines the classification of autodestructive behavior in modern scientific and psychological literature. Autodestructive behavior refers to conscious or unconscious actions aimed at harming oneself. Studies highlight its various forms such as suicidal behavior, addictive tendencies, eating disorders, victim behavior, fanatic and extreme actions. The relevance of such classification lies in improving diagnostic accuracy, as well as enhancing the effectiveness of preventive and psychocorrectional measures.

Keywords. Autodestructive behavior, suicidal tendencies, addictive behavior, eating disorders, victim behavior, fanatic behavior, psychocorrection.

КЛАССИФИКАЦИЯ АУТОДЕСТРУКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ НАУЧНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аутодеструктивное поведение понимается как сознательные или ессознательные действия, направленные на причинение вреда самому себе. Исследования выделяют его различные формы, такие как суицидальное поведение, аддиктивные склонности, расстройства пищевого поведения, виктимное поведение, фанатические и экстремальные действия. Актуальность такой классификации заключается в повышении точности диагностики, а также в повышении эффективности профилактических и психокоррекционных мероприятий.

Ключевые слова: аутодеструктивное поведение, суицидальные склонности, аддиктивное поведение, расстройства пищевого поведения, виктимное поведение, фанатическое поведение, психокоррекция.

Kirish. Shaxsdagi autodestruktiv xulq-atvor (o'z-o'ziga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlar) zamonaviy psixologiya va psixiatriya fanida eng dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilmogda. Ushbu tushuncha insonning ongli ravishda yoki ongsiz tarzda amalga oshiriladigan, natijada o'ziga bevosita yoki bilvosita zarar yetkazishga olib keladigan xatti-harakatlar majmuyini anglatadi. Bunga turli shakllar kiradi: suiqasdga urinishlar va o'z joniga qasd qilish, giyohvandlik va alkogolizm kabi addiktiv xulq-atvor, oziqlanish buzilishlari (anoreksiya, bulimiya), shuningdek, xavfli va ijtimoiy qabul qilinmagan tavakkalchiliklar. Mazkur masalaning dolzarbligi, avvalo, uning ko'p qirrali sabablarga ega ekanligi bilan izohlanadi. Autodestruktiv xulq-atvor individual psixologik muammolarning – ya'ni past o'z-o'zini baholash, ichki ziddiyatlar, emotsional beqarorlik – natijasi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, u kengroq ijtimoiy, madaniy va sotsiopsixologik omillar bilan ham chambarchas bog'liq. Masalan, oilaviy muhit, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligi, jamiyatda mavjud me'yorlar va qadriyatlar tizimi, iqtisodiy beqarorlik va ommaviy axborot vositalaridagi zo'ravonlik yoki deviant xulqni normallashtiruvchi obrazlarning kuchayishi bu jarayonga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Hozirgi vaqtda autodestruktiv xulqning quyidagi shakllar eng keng tarqalgan: a) suitsid holati o'z-o'ziga zarar yetkazishning eng xavfli shakllaridan

biri sanaladi. A.E.Lichko suitsid xatti-harakatlarni namoyishkorona, affektiv va asl kabi turlarga ajratib ko'rsatadi. Bundan tashqari, shaxsda quyidagi muammoli xatti-harakatlar ham uchraydi[1]: a) oziq-ovqatga qaramlik (bulimiya va anoreksiya) - inson xarakterining xususiyatlari, boshqalar uni qanday qabul qilishiga munosabati tufayli paydo bo'ladigan ovqatlanishning buzilishi; b) Tobe xatti-harakatlar – kimyoviy va kimyoviy bo'lmagan shakllarda namoyon bo'ladi. Kimyoviy shakllariga alkogolizm, giyohvandlik va chekish kiradi. Kimyoviy bo'lmagan shakllar esa muhim shaxs nazoratiga haddan tashqari bog'lanish, ommaviy axborot vositalari va reklama ta'siriga berilish, iqtisodiy qaramlik (pul va ierarxiyaga bo'lgan bog'liqlik), egalik qilishga qaramlik (sevimli mashg'ulotlar, uy hayvonlari), e'tiqodlarni cheklash, o'tmishdagi jarohatlar yoki yo'qotishlarga bog'lanib qolish, shuningdek ziqnalik va isrofchilik sindromlarini o'z ichiga oladi; d) fanatik xatti-harakatlar (ekstrimistik diniy yo'nalishlarga aralashish, har qanday sport turiga yoki musiqiy yo'nalishga o'ta kuchli ishtiyoq); e) viktimlik (o'z-o'zini qurbon qilishga qaratilgan) xatti-harakati (inglizcha victim - qurbon) - boshqa shaxsni bema'ni, axloqsiz yoki noqonuniy xatti-harakatlar qilishga undaydigan harakatlar yoki harakatsizlik. Bunday xatti-harakatlarning psixologik asosi o'zini past baholash, mazmunli munosabatlarni buzilishdan qo'rqish, o'zining nomukammalligi uchun aybdorlik hisi hisoblanadi; f) hayot uchun aniq xavf tug'diradigan harakatlar - bu ekstremal sport, mashina haydashda tezlikni oshirish va boshqalar. O'z-o'ziga zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlarining yuqoridagi barcha shakllari o'smirlarda uchraydi. Ularning autodestruktiv xatti-harakati shunchalik keng tarqalganki, uning ko'lami ijtimoiy barqarorlikka tahdid solishi zamonaviy tadqiqotlarda o'z isbotini topgan. So'nggi yillarda voyaga yetmaganlar o'z joniga qasd qilish holatlari yana 8-10 foizga oshgan [2]. O'ttiz yil davomida bu ko'rsatkich o'ttiz barobarga oshgan. Achinarlisi, gap 70% hollarda sog'lom oilalarning farzandlari haqida ketmoqda. Mamlakatimizda ham borgan sari psixotrop moddalarga qaramlik, chekish va qisman giyohvandlik, jumladan, bu hodisalarni o'smirlar o'rtasida keng tarqalishi tez-tez namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy jamiyatda autodestruktiv xatti-harakatlarning ko'p turlari - alkogolizm, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish harakatlarining keng tarqalishi epidemiyadir. Shuning uchun nafaqat uni tuzatish masalalari, balki birlamchi profilaktika muammosi ham dolzarbdir. O'smirlar, ayniqsa, yoshga bog'liq xususiyatlar - hissiy beqarorlik, rivojlanishning ijtimoiy holatining keskin o'zgarishi, hayot tajribasining kamligi, “oq-qora” fikrlash, shuningdek, bir qator salbiy ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy omillarning ta'siri tufayli o'z-o'ziga zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakati xavfi ostida. Shuning uchun autodestruktiv xatti-harakatlarining psixologik oldini olish choralari o'smirlik davrida ayniqsa muhimdir [3].

Yana bir tadqiqotchi olim A.I. Leshner autodestruktiv xulq-atvorining shakllanishida psixologik himoyaning rolini o'rganadi [4]. Jumladan, u psixoaktiv moddalarga qaramlikni izolyatsiyaning namoyon bo'lish shakli deb hisoblaydi. Shuningdek, u kimyoviy qaramlikni tan olishni rad etish, identifikatsiya mexanizmi orqali autodestruktiv xatti-harakatlar shakllarini o'zlashtirishga misollar keltiradi. Leshnerning tadqiqotlari psixologik himoya mexanizmlarining noto'g'ri ishlashi autodestruktiv xatti-harakatlarni shakllantirishi mumkinligiga ishora qiladi. Xususan, psixoaktiv moddalarga tobeklikdan aziyat chekayotgan shaxslarning muammolardan qochish, ichki kechinmalarni bostirish yoki o'zini alohida dunyoga izolyatsiya qilish orqali autodestruktiv xulq-atvor modeliga o'tishi ehtimoli yuqori. Shu bois, autodestruktiv xatti-harakatlarning oldini olishda psixologik himoya mexanizmlarining konstruktiv shakllarini rivojlantirish, shaxsga muammolar bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlashga yordam beruvchi psixologik yondashuvlarni tatbiq etish muhim hisoblanadi.

A.E.Lichkoning tadqiqotlarida ham yuqoridagi qarashga yaqin xulosalarni uchratishimiz mumkin [5]. U o'z joniga qasd qilishning eng ko'p uchraydigan sabablari sifatida o'z-o'zini hurmat qilishning buzilishi, ortiqcha faoliyat, alkogol va giyohvand moddalar ta'sirida shaxsni himoya mexanizmlarining buzilishi, qo'rquv, g'azab va qayg'u, yaqin kishini yo'qotish, o'z joniga qasd qilish bilan identifikatsiya qilish kabilarni sanab o'tadi. Shuningdek, aynan Lichko suitsidal xatti-harakatlarini namoyishkorona, affektiv va haqiqiy turlarga ajratadi. Bundan tashqari, to'satdan va tanqidiy hayotiy vaziyatlarga javoban, inson psixikasining moslashish va himoya mexanizmlari ishlamay qolganda, “vaziyatli” o'z joniga qasd qilishlar mavjudligini ta'kidlab o'tadi.

A.G.Ambrumovanning autodestruktiv xulq borasidagi fikricha [6], o'smirlarda o'z joniga qasd qilish harakatining quyidagi motivlarini aniqlash mumkin: norozilik, qasos olish, qochish (jazo, azoblanishdan), o'zini jazolash, borliqdan voz kechish. Motivlarning xilma-xilligi tufayli o'z joniga qasd qilishning oldini olish juda qiyin hodisa hisoblanadi. Ayniqsa, oldindan aytib bo'lmaydigan “vaziyatli” o'z joniga qasd qilish - to'satdan yuzaga kelgan o'tkir psixotravmatik vaziyatga javob tariqasida yuzaga keladi. I. A. Alekseyeva esa [7], o'spirinlarda o'lish istagi kamdan-kam uchrashini, deyarli har doim biz bu borada “hayotini shu tarzda davom etishini” istamaslik yoki o'z joniga qasd qilish orqali boshqalarga ta'sir o'tkazish niyati sifatida talqin qilamiz. O'z joniga qasd qilish xatti-harakati tarkibiga bevosita kiruvchi muhim omil - bu o'z joniga

qasd qilish munosabatining mavjudligi. O‘z joniga qasd qilish fikrlari uning kognitiv jihatini ifodalaydi. Bir qator mualliflar, shu jumladan O.Andronilova va uning jamoasidagilar o‘z joniga qasd qilish xatti-harakati shakllanishining dastlabki davridagi asosiy ehtiyojlarning puchga chiqishi bilan bog‘liq shaxsiy ziddiyatni psixosotsial stress omillarining mavjudligidan ko‘ra muhimroq deb hisoblashadi [8].

Munozara. Ilmiy-ommabop adabiyotlar va ommaviy axborot vositalarida ham ko‘p hollarda o‘z-o‘ziga zarar yetkazishga qaratilgan turli xatti-harakatlar haqida so‘z boradi. Mutaxassislar odatda bu kabi xatti-harakatni haqiqiy yoki o‘ylab topilgan xatolar yoki noto‘g‘ri xatti-harakatlar uchun o‘zini o‘zi jazolash, o‘zidan va hayotidan umumiy norozilik sabablari bilan bog‘laydi. O‘smirlarda autodestruktiv xulq-atvor muammosini o‘rganish bo‘yicha yurtimizda ham ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. O‘smirlik suitsidini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda, suitsidal urinish sodir etganlar xulqi suitsidoldi holati va belgilarini, somatik o‘zgarishlarni tahlil qilinganliklarini ko‘ramiz. Jumladan, B.M.Umarov tadqiqotlarida [9], pubertat oldi va kichik pubertat yoshida suitsidal xulqning asosiy motivi bo‘lib, asosan ruhiy nosog‘lomlik va qo‘rqinch holatlariga bog‘liq bo‘lgan nizoli kechinmalar (6,9 foiz, 30,7 foiz) bo‘lsa, pubertat va pubertatdan keyingi yosh davrlarida shaxsiy, oilaviy, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi nizolar, (39,2 foiz, 44,9 foiz) hamda ijtimoiy axloq normalari bilan bog‘liq bo‘lgan nizolar tashkil etilishi aniqlangan.

Salbiy ijtimoiy sharoitlar va insonning noto‘g‘ri konstitutsiyaviy hamda biologik xususiyatlari o‘z-o‘zini yo‘q qilish ehtimolini oshiradi [10]. Biroq muayyan shaxsning autodestruktiv xatti-harakati, birinchi navbatda, ijtimoiy o‘zaro ta’sir sub’ektlarining psixologik xususiyatlariga bog‘liq. Buni quyidagi faktlar tasdiqlaydi:

- 1) bir xil ijtimoiy muhitda odamlar butunlay boshqacha xatti-harakatlarni namoyish etadilar;
- 2) autodestruktiv xulq-atvor nafaqat deviant submadaniyat sharoitida, balki juda tez-tez - oddiy ijtimoiy sharoitda shakllanadi;
- 3) bir oilada katta bo‘lgan bolalar o‘zlarini boshqalardan farq qilishini namoyon etishadi;
- 4) bir xil neyropsixiatrik kasalliklari bo‘lgan bemorlar ba’zi hollarda autodestruktiv xulqqa ega, boshqalarida esa bu xulq kuzatilmaydi.

Ijtimoiy va biologik nazariyalar bu qarama-qarshiliklarni tushuntira olmaydi, chunki autodestruktiv xulqning haqiqiy sabablari shaxsiy xususiyatlar va o‘z-o‘ziga zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlarining psixologik mexanizmlarida mujassamlashgan.

Hozirgi vaqtda o‘z-o‘ziga zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlar, ayniqsa, o‘smirlar orasida ommaviy hodisaga aylandi. Psixologlar autodestruktiv xulq-atvorning tabiati va shunga mos ravishda sabablari haqida bahslashmoqda. Bu bo‘yicha klassik ta’rifi ham mavjud bo‘lib, unga ko‘ra o‘z-o‘zini yo‘q qilish xulq-atvori deviant xatti-harakatlar shaklidir; Bu o‘z somatik yoki ruhiy salomatligiga bevosita yoki bilvosita zarar etkazishga qaratilgan harakatlardir. Deviant xulq-atvor shaxsning ma’lum bir jamiyatda amalda shakllangan yoki rasman o‘rnatilgan tartib va me’yorlarga javob bermaydigan qilmishlar yoki harakatlari deb ta’riflanadi [11]. O‘z joniga qasd qilish, giyohvand moddalarni iste’mol qilish, kimyoviy bo‘lmagan tobeliklar, alkogolizm, narkomaniya va o‘z-o‘ziga zarar yetkazishning boshqa turlari ijtimoiy halokat darajasiga yetdi. Tadqiqotchi olim Van der Kolkning ta’kidlashicha, autodestruktiv xatti-harakatlarning odamlar hayot sifatiga, shuningdek, jamiyatning intellektual, kasbiy, genetik salohiyatiga salbiy ta’siri uning oldini olish yo‘llarini o‘rganish muammosini nihoyatda dolzarbligini belgilab beradi [12]. O‘z-o‘zini yo‘q qilishga qaratilgan xulq-atvor - hozirgi davrda keng tarqalgan murakkab va xavfli hodisa. Bu hayotga, jismoniy yoki psixologik salomatlikka, insonning normal rivojlanishiga tahdid soladigan xatti-harakatlardir.

Xulosa. Umuman olganda, autodestruktiv xatti-harakatlar zamonaviy psixologiya va psixiatriyada shaxsning murakkab psixologik, ijtimoiy va madaniy muammolarining ifodasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu fenomen ko‘plab shakllarda namoyon bo‘ladi: suitsidal xulq (o‘z joniga qasd qilish yoki unga urinishlar), addiktiv xatti-harakatlar (alkogolizm, giyohvandlik, toksikomaniya), o‘ziga jismoniy zarar yetkazish, ovqatlanish buzilishlari (anoreksiya, bulimiya va boshqa disfunktsiyalar), ekstremal faoliyatlarga haddan tashqari berilish, shuningdek, ijtimoiy chetlashuv va izolyatsiya shakllarida. Mazkur xatti-harakatlarning sabablari ko‘p omillilik tamoyiliga asoslanadi. Bir tomondan, ular individual psixologik omillar bilan bog‘liq: past o‘z-o‘zini baholash, emotsional beqarorlik, o‘zini qabul qila olmaslik, ichki ziddiyatlar, travmatik tajribalar. Ikkinchi tomondan, ijtimoiy determinantlar ham katta rol o‘ynaydi: oiladagi nosog‘lom muhit, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi, tengdoshlar bosimi, ijtimoiy izolyatsiya va iqtisodiy qiyinchiliklar. Bundan tashqari, madaniy omillar — jamiyatda mavjud qadriyatlar tizimi, diniy va axloqiy me’yorlar, ommaviy axborot vositalarida deviant xulqni normallashtiruvchi obrazlarning keng tarqalishi ham shaxsning xatti-harakatlariga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Shuningdek, kognitiv omillar — ya’ni insonning dunyoni idrok etish, qaror qabul qilish, xatoliklarni tahlil qilish va o‘zini baholash jarayonlaridagi buzilishlar

— autodestruktiv tendensiyalarni kuchaytirishi mumkin. Masalan, noto‘g‘ri kognitiv sxemalar yoki irratsional e‘tiqodlar insonni o‘ziga zarar yetkazuvchi yo‘lga tanlashga undaydi.

Shu bois autodestruktiv xatti-harakatlarni tushuntirish va tasniflashda biopsixososial yondashuv muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv shaxsning ruhiy holati, ijtimoiy tajribasi va madaniy muhitini yagona tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Natijada, autodestruktiv xatti-harakatlarni erta aniqlash, samarali diagnostika va ularning oldini olishga qaratilgan psixoprofilaktik hamda psixokorreksion chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoniyati kengayadi.

Adabiyotlar:

1. Личко А. Е. “Психопатии и акцентуации характера у подростков” Психология индивидуальных различий. Тексты / Под ред. Ю.Б.Гиппенрейтер, В.Я. Романова. М.: Изд-во МГУ, 1982. С. 288-318.
2. Попов Ю. В., Пичиков А. А. Особенности суицидального поведения у подростков (обзор литературы) //Обзорение психиатрии и медицинской психологии имени ВМ Бехтерева. – 2011. – №. 4. – С. 4-7.
3. Zmanovskaya Y.V. Девиантология: (Психология отклоняющегося поведения): Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — 2-е изд., испр. — М.: Издательский центр «Академия», 2004.-С. 288.
4. Leshner, A.I. Addiction as a brain disease and matters/ A.I. Leshner [Text] / Science, 1997. - V.- 278. - №35. - P. 45-47.
5. Личко, А.Е. Подростковая наркология [Текст] / А.Е. Личко, В.С, Битенский. - Л.: Медицина, 1991. - 301 с.
6. Амбрумова, А.Г. К вопросу о саморазрушающем поведении подростков [Текст] / А.Г. Амбрумова, Е.Г. Трейнина // Саморазрушающее поведение у подростков. - Л., 1991. - С.29-36.
7. Алексеева, И.А. Жестокое обращение с ребенком. Причины. Последствия. Помощь [Текст] / И.А. Алексеева, И.Г. Новосельский. - М.: Генезис, 2006. - 256 с.
8. Андроникова, О.О. Основные характеристики подростков с самоповреждающим виктимным поведением. [Текст] / О.О. Андроникова. Вестник Томского университета. - 2010. - №332. - С.148-155.
9. Umarov B.M., Rajabova F.P. Voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining ijtimoiy-psixologik omillari // Современное образование (Узбекистан). – 2015. – №. 8. – С. 16-21.
10. Ambrumova A.G. Психология самоубийства // Социальная и клиническая психиатрия, 1996. - № 4. - С. 14-20.
11. Umarov B.M., Rajabova F.P. Voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining ijtimoiy-psixologik omillari // Современное образование (Узбекистан). – 2015. – №. 8. – С. 16-21.
12. Van der Kolk, B.A., Perry, J.C., & Herman, J. L. (1991). Childhood origins of self-destructive behavior. American journal of Psychiatry, 148 (12), 1665-1671.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA KOGNITIV USLUBLARNING NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Maratov Temur G‘ayrat o‘g‘li,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası dotsenti v.b.

maxway0210@gmail.com

Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda kognitiv uslublarning shakllanishi va ularga ta’sir etuvchi psixologik determinanlar tahlil qilingan. Kognitiv uslub shaxsning idrok, tafakkur, xotira va muammoni hal qilish jarayonlarida namoyon bo‘ladigan individual xususiyat sifatida izohlangan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kognitiv uslubga biologik, oilaviy, pedagogik, madaniy hamda raqamli muhit determinantlari bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Empirik natijalar demokratik tarbiya va interfaol ta’lim reflektiv va analitik kognitiv uslubni rivojlantirishi, avtoritar muhit esa impulsiv va yuzaki tafakkurni kuchaytirishini ko‘rsatadi. Tadqiqot xulosasiga ko‘ra, kognitiv uslublarni shakllantirishda kompleks yondashuv zarur bo‘lib, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, innovatsion pedagogik metodlar va madaniy hamda raqamli muhitdagi ijobiy omillar muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv uslub, reflektivlik, impulsivlik, kichik maktab yoshi, pedagogik determinant, oilaviy tarbiya, raqamli muhit.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ КОГНИТИВНЫХ СТИЛЕЙ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

В данной статье рассмотрены особенности формирования когнитивных стилей у младших школьников и психологические детерминанты, влияющие на их проявление. Когнитивный стиль трактуется как индивидуальная характеристика, проявляющаяся в восприятии, мышлении, памяти и решении задач. Анализ литературы показывает, что на когнитивный стиль оказывают прямое воздействие биологические, семейные, педагогические, культурные и цифровые факторы. Эмпирические данные подтверждают, что демократическое воспитание и использование интерактивных методов обучения развивают рефлексивный и аналитический стиль, тогда как авторитарная среда усиливает импульсивность и поверхностное мышление. В заключении отмечается, что формирование когнитивных стилей требует комплексного подхода, включающего семейную поддержку, инновационные педагогические методы и позитивные влияния культурной и цифровой среды.

Ключевые слова: когнитивный стиль, рефлексивность, импульсивность, младший школьный возраст, педагогические детерминанты, семейное воспитание, цифровая среда.

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE FORMING OF COGNITIVE STYLES IN PRIMARY SCHOOL CHILDREN

This article analyzes the development of cognitive styles in primary school children and the psychological determinants influencing their manifestation. Cognitive style is defined as an individual characteristic reflected in perception, thinking, memory, and problem-solving processes. Literature review indicates that biological, family, pedagogical, cultural, and digital factors directly shape cognitive styles. Empirical findings show that democratic parenting and interactive teaching methods enhance reflective and analytical styles, while authoritarian environments tend to foster impulsivity and superficial thinking. The study concludes that the formation of cognitive styles requires a comprehensive approach involving family support, innovative pedagogical practices, and the positive impact of cultural and digital contexts.

Keywords: cognitive style, reflectivity, impulsivity, primary school age, pedagogical determinants, family upbringing, digital environment.

Kirish. Kognitiv uslub tushunchasi zamonaviy psixologiyada shaxsning idrok, tafakkur, xotira, diqqat va muammoni hal qilish jarayonlarida namoyon bo‘ladigan individual xususiyatlarni ifodalaydi. U insonning axborotni qanday qabul qilishi, qayta ishlashi va unga asoslangan qarorlarni qaysi usulda qabul qilishini belgilovchi barqaror psixologik xususiyat sifatida ta’riflanadi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, kognitiv uslub shaxsning “nima bilishi”dan ko‘ra “qanday fikrlashi”ni ochib beradi. Shu bois uni faqat qobiliyat yoki

intellekt darajasi bilan emas, balki tafakkur jarayonidagi shaxsiy yoʻnalish va afzalliklar bilan bogʻlash lozim. Kichik maktab yoshi (7–10 yosh) bolaning bilish faoliyati faol rivojlanadigan, oʻquv faoliyati markaziy psixologik faoliyat sifatida shakllanadigan davr hisoblanadi. Bu davrda diqqatning barqarorlashuvi, xotira turlarining rivojlanishi, mantiqiy tafakkurning shakllanishi va nutqiy imkoniyatlarning kengayishi kognitiv uslublarning namoyon boʻlishiga bevosita zamin yaratadi. Shu bilan birga, oila, maktab muhiti, pedagogik yondashuvlar va tengdoshlar bilan muloqot bolalarda kognitiv uslubning qanday shakllanishini aniqlab beradi.

Bu davrda kognitiv uslubning turli shakllari – maydondan mustaqil yoki maydonga bogʻlangan, impulsiv yoki reflektiv, analitik yoki holistik, verbal yoki vizual – bolalarning oʻquv faoliyatiga, muammoli vaziyatlarga munosabatiga hamda ijtimoiy moslashuv jarayonlariga sezilarli darajada taʼsir koʻrsatadi. Masalan, reflektiv kognitiv uslubga ega oʻquvchi muammoli topshiriqlarni chuqur oʻylab, aniq yechimga intilsa, impulsiv uslubga ega bola tezkor qaror chiqarishga moyilligi bilan ajralib turadi. Shu boisdan kichik maktab yoshidagi bolalarda kognitiv uslublarning namoyon boʻlish mexanizmlarini va ularga taʼsir etuvchi psixologik determinantlarni aniqlash ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Bu masala nazariy jihatdan shaxsning intellektual rivojlanishini tushuntirishga, amaliy jihatdan esa taʼlim jarayonida individual yondashuvni kuchaytirishga, oʻquvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va ijtimoiy muhitga moslashuvini yengillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Psixologik adabiyotlarda kognitiv uslub tushunchasi koʻplab tadqiqotchilar tomonidan turlicha izohlangan. S.Messick kognitiv uslubni shaxsning axborotni qayta ishlashdagi odatiy, barqaror yoʻli sifatida talqin qilgan [6]. H. Witkin va D. Goodenough esa “maydonga bogʻlangan – maydondan mustaqil” uslubi orqali oʻquvchilarning tashqi kontekstdan qanchalik mustaqil fikrlashini aniqlash imkonini bergan [11]. J.Kagan “impulsiv – reflektiv” mezonini taklif qilib, qaror qabul qilish tezligi va aniqligi oʻrtasidagi farqni ilmiy asosda yoritib bergan [3].

Soʻnggi yillarda kognitiv uslubni oʻrganishda analitik – holistik, verbal – vizual, global – lokal kabi mezonlar ham qoʻllanmoqda [7]. Riding va Allinson tomonidan ishlab chiqilgan Kognitiv uslub indeksi (CSI) bugungi kunda taʼlim va psixodiagnostika amaliyotida keng foydalanilmoqda [1].

Kognitiv uslub shakllanishiga biologik determinantlar (temperament, nerv tizimining faoliyati, individual asabiy jarayonlar), oilaviy tarbiya uslublari (avtoritar, demokratik, ruxsat beruvchi), oʻqituvchilarning pedagogik metodlari, shuningdek, madaniy va ijtimoiy omillar sezilarli darajada taʼsir koʻrsatadi. Sadeghi (2022) tadqiqotida avtoritativ ota-onalarning tarbiyasi bolalarda kelajakni rejalashtirish va reflektiv tafakkurni kuchaytirishini aniqlagan [8]. Xu (2025) esa Xitoydagi *Li etnik* guruhiga mansub boshlangʻich sinf oʻquvchilari misolida ota-onaning qoʻllab-quvvatlovchi munosabati kognitiv rivojlanishga ijobiy taʼsir koʻrsatishini aniqlagan [12].

Madaniy omillar ham kognitiv uslublarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Shvartz (2020) qadriyatlar nazariyasi asosida olib borgan xalqaro tadqiqotlarda jamoaviylikka asoslangan jamiyatlarda maydonga bogʻlangan uslub, individuallikka asoslangan madaniyatlarda esa mustaqil kognitiv uslub koʻproq kuzatilishi qayd etilgan [9].

Taʼlim muhitining ahamiyatiga oid tadqiqotlar ham muhim oʻringa ega boʻlib, Tadqiqotchi Ho (2023) oʻquvchilarning kognitiv uslublarni oʻqitish usullari sezilarli darajada shakllantirishini koʻrsatadi. Kreativ va muammoli vazifalarga asoslangan darslarda bolalarda holistik va reflektiv uslublar kuchaygan, anʼanaviy darslarda esa impulsiv uslub ustunlik qilgan [2]. Krishchi (2025) esa musiqa taʼlimi bolalarda vizual-konstruktiv va metakognitiv koʻnikmalarni rivojlantirishini empirik jihatdan isbotlagan [4].


Raqamli muhit bugungi kunda kognitiv uslubni shakllantiruvchi yangi determinant sifatida qaralmoqda. Tvenge va Haid (2023) tadqiqotlarida internet va ijtimoiy tarmoqlarning haddan tashqari taʼsiri bolalarda impulsivlik va yuzaki idrokni kuchaytirishi, reflektiv tafakkurni esa susaytirishi aniqlangan [10]. Shu bilan birga, Mayer, Salovey va Karuso (2022) tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt modeli kognitiv uslub bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, emotsiyalarni boshqarish qobiliyati reflektivlikni oshirishi taʼkidlangan [5].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, kognitiv uslub – bu shaxsning bilish jarayonlarini tashkil etuvchi barqaror xususiyat boʻlib, u biologik, oilaviy, pedagogik, madaniy va raqamli determinantlarning oʻzaro taʼsiri natijasida shakllanadi. Ayniqsa, kichik maktab yoshida bu determinantlar sezilarli darajada namoyon boʻlib, bolaning keyingi intellektual taraqqiyotini belgilab beradi.

Tahlil va olingan natijalar. Oʻzbekiston va xorijiy psixologik tadqiqotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, kichik maktab yoshidagi bolalarda kognitiv uslublarning shakllanishi koʻp qirrali determinantlar taʼsirida yuz beradi.

1. Oilaviy determinantlar:


Birinchi navbatda, ota-onaning emotsional qo‘llab-quvvatlashi, tarbiya uslubi va oilaviy muhitning umumiy psixologik iqlimi bolaning kognitiv uslubini belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, demokratik tarbiya hukmron bo‘lgan oilalarda bolalarda refleksivlik, analitiklik va mustaqil fikrlash kuchliroq rivojlanadi. Avtoritar tarbiya sharoitida esa impulsivlik, tashqi mezonlarga tayanish va yuzaki qaror qabul qilish ko‘proq namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ota-onaning mehribonligi va hissiy qo‘llab-quvvatlashi bolaning xotira barqarorligi va diqqatini jamlash qobiliyatini mustahkamlaydi.



1-rasm. Kichik maktab yoshidagi bolalar kognitiv uslublariga ta’sir etuvchi oilaviy determinantlar modeli

2. Pedagogik determinantlar:


Ta’lim jarayoni ham kognitiv uslublarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchilarning interfaol metodlardan, muammoli vaziyatlardan, loyiha asosidagi topshiriqlardan foydalanishi o‘quvchilarda refleksiv, kreativ va analitik kognitiv uslubni kuchaytiradi. Aksincha, an’anaviy darslar, faqat reproduktiv bilimlarni talab qiluvchi yondashuv bolalarda impulsiv va passiv kognitiv uslubning shakllanishiga olib keladi. O‘zbekiston tajribasida ham, xorijiy tadqiqotlarda ham, pedagogik texnologiyalarni to‘g‘ri qo‘llash o‘quvchilarning tafakkur uslubini sezilarli darajada o‘zgartirishi qayd etilgan.



2-rasm. Kichik maktab yoshidagi bolalar kognitiv uslublariga ta’sir etuvchi pedagogik determinantlar modeli

3. Madaniy determinantlar:


Madaniyatlararo tadqiqotlar kognitiv uslub madaniyatning qadriyat tizimi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Jamoaviylik kuchli bo‘lgan jamiyatlarda bolalarda maydonga bog‘langan, tashqi kontekstdan kuchli ta’sirlanadigan uslublar ustunlik qiladi. Bunda ijtimoiy moslashuv va guruh qadriyatlariga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Aksincha, individuallik ustuvor bo‘lgan jamiyatlarda mustaqil, reflektiv va analitik uslublar ko‘proq rivojlanadi. Bu farqlar o‘quvchilarning qaror qabul qilish tezligi, o‘qishga munosabati va ijodiy faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi.



3-rasm. Kichik maktab yoshidagi bolalar kognitiv uslublariga ta’sir etuvchi madaniy determinantlar modeli

4. Raqamli muhit determinantlari:

So‘nggi yillarda kognitiv uslubga raqamli muhitning ta’siri alohida e’tiborga olinmoqda. Internet va mobil texnologiyalar, bir tomondan, bolalarda tezkor qaror qabul qilishni, vizual idrokni va ko‘p vazifali ishlash qobiliyatini kuchaytiradi. Boshqa tomondan, u reflektiv tafakkurni, chuqur tahlil qilishni va sabr-toqatini susaytirishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda yuzaki kontentlarni muntazam ko‘rish, tezkor “like” va “share” mexanizmlari impulsivlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, raqamli o‘quv platformalaridan to‘g‘ri foydalanish bolalarda kreativlik va analitik tafakkurni rivojlantirish imkonini beradi.



4-rasm. Kichik maktab yoshidagi bolalar kognitiv uslublariga ta’sir etuvchi raqamli muhit determinantlar modeli

Munozara. Adabiyotlar tahlili va mavjud empirik natijalar kognitiv uslublar determinatsiyasining murakkab, ko‘p omilli jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Avvalo, bu jarayon biologik ta’sirlar bilan boshlanadi, biroq oilaviy tarbiya, ta’lim tizimi va madaniy muhit kognitiv uslub shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi.

Munozarali jihatlardan yana biri shundaki, ayrim tadqiqotlarda (Pashler, 2008) ta’limda kognitiv uslublarga moslashtirishning samarasi shubha ostiga olingan. Biroq boshqa tadqiqotlar (Riding va Shema, 1991; Koffield, 2004) individual farqlarni hisobga olish motivatsiya va o‘quv samaradorligini oshirishini ko‘rsatadi. Shu bois o‘quvchilarning kognitiv uslublarini “faqatgina namoyish qilish” emas, balki ularga turli metodlarni uyg‘un qo‘llash eng samarali yo‘l sifatida qaralmoqda.

Xulosa. Kognitiv uslub kichik maktab yoshidagi bolalarning bilish faoliyatini tashkil etuvchi barqaror, individual xususiyatlardan biridir. Ularning shakllanishiga oilaviy tarbiya, pedagogik yondashuv, madaniy muhit va raqamli texnologiyalar ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, bolalarda kognitiv uslublarning sog‘lom rivojlanishi uchun demokratik oilaviy munosabat, reflektiv va kreativ tafakkurni rag‘batlantiruvchi o‘quv jarayoni hamda ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar:

24.Allinson C.W., Hayes J. The Cognitive Style Index: A measure of intuition–analysis for organizational research // *Journal of Management Studies*. – 1996. – Vol. 33. – P. 119–135.

25.Ho S., Williams J. Cognitive style and creativity: The role of education in shaping innovative thinking // *British Journal of Educational Psychology*. – 2023. – Vol. 93(4). – P. 1425–1442. doi:10.1111/bjep.12615.

26.Kagan J. Impulsive and reflective children: Significance of conceptual tempo // *American Psychologist*. – 1965. – Vol. 20. – P. 609–626.

27.Kirisci M., Aydin S., Demir S. Examining the effects of music on cognitive skills of children in early childhood with the Pythagorean fuzzy set approach // *arXiv preprint*. – 2025. – arXiv:2506.12016.

28.Mayer J.D., Salovey P., Caruso D.R. The ability model of emotional intelligence: Principles and updates // *Emotion Review*. – 2022. – Vol. 14(4). – P. 297–307.

29.Messick S. Personality consistencies in cognition and creativity // In: Messick S., Associates (eds.). *Individuality in Learning*. – San Francisco: Jossey-Bass, 1976. – P. 4–22.

30.Riding R., Cheema I. Cognitive styles – an overview and integration // *Educational Psychology*. – 1991. – Vol. 11(3–4). – P. 193–215.

31.Sadeghi S., Azimi F. Parenting styles predict future-oriented cognition in elementary school-aged children // *Frontiers in Psychology*. – 2022. – Vol. 13. – Article 9600440. doi:10.3389/fpsyg.2022.9600440.

32.Schwartz S.H. Values and behavior: Validating the refined theory of basic individual values in 82 countries // *Journal of Cross-Cultural Psychology*. – 2020. – Vol. 51(5). – P. 398–414.

33.Twenge J., Haidt J. Social media use and mental health: The role of impulsivity and reflection in adolescents // *Journal of Adolescence*. – 2023. – Vol. 94. – P. 25–39.

34.Witkin H.A., Goodenough D.R. *Cognitive Styles: Essence and Origins*. – New York: International Universities Press, 1981. – 266 p.

35.Xu X., Li Y., Chen H. Relationship between parenting styles and psychological quality of Li ethnic primary schoolchildren // *Scientific Reports*. – 2025. – Vol. 15, № 1. – P. 1–12. doi:10.1038/s41598-025-98895-z.

PEDAGOGIK MAHORAT VA PEDAGOGIK ETIKA O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Nabiyev Islom Karimovich,
Qarshi xalqaro universiteti o‘qituvchisi
pedagogkiu@gmail.com

Ushbu maqolada pedagogik mahorat va pedagogik etika tushunchalarining nazariy-metodologik asoslari, ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi hamda zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda pedagogik mahorat o‘qituvchi shaxsining kasbiy kompetensiyasi, ijodiy yondashuvi va psixologik tayyorgarligi bilan, pedagogik etika esa uning axloqiy qadriyatlarini, insonparvarlik pozitsiyasi va kasbiy madaniyati bilan o‘zaro uyg‘unlikda namoyon bo‘lishi ilmiy asosda yoritilgan. Maqolada, shuningdek, o‘qituvchining nutq madaniyati, mulohaza odobi, kasbiy mas’uliyati hamda etik xulq-atvorining pedagogik mahoratni shakllantirishdagi roli ochib beriladi. Tadqiqot natijalari pedagogik etika va mahorat uyg‘unligining ta’lim sifati, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, pedagogik muhit barqarorligini ta’minlash va o‘qituvchi obro‘sin oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: pedagogik mahorat, pedagogik etika, axloqiy qadriyatlar, pedagogik madaniyat, ta’lim sifati, kasbiy kompetensiya, mulohaza madaniyati, etik xulq-atvor, shaxsiy mas’uliyat, refleksiya, ijodiy yondashuv, o‘qituvchi imiji, kasbiy madaniyat, insonparvarlik, ta’lim muhitining barqarorligi.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА И ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЭТИКИ

В статье анализируются теоретико-методологические аспекты понятий педагогического мастерства и этики, их взаимосвязь и роль в современном образовательном процессе. В исследовании научно обосновано, что педагогическое мастерство проявляется в гармонии с профессиональной компетентностью, творческими знаниями и экономической подготовкой учителя, а педагогическая этика – с его моральными ценностями, гуманистической позицией и профессиональной культурой. Раскрывается роль речевой культуры учителя, этикета общения, профессиональной ответственности и этического поведения в соблюдении педагогического мастерства. Предметом исследования является важная роль педагогической этики и мастерства в обеспечении качества образования, личностного воспитания учащихся, обеспечении педагогической среды и репутации учителя.

Ключевые слова: педагогическое мастерство, педагогическая этика, нравственные ценности, педагогическая культура, качество образования, профессиональная компетентность, культура общения, этическое поведение, личная ответственность, рефлексия, творческий подход, имидж педагога, профессиональная культура, гуманизм, устойчивость образовательной среды.

THE INTERRELATIONSHIP BETWEEN PEDAGOGICAL SKILLS AND PEDAGOGICAL ETHICS

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the concepts of pedagogical skills and pedagogical ethics, their interdependence and their role in the modern educational process. The study scientifically highlights the fact that pedagogical skills are manifested in harmony with the professional competence, creative approach and psychological preparation of the teacher, and pedagogical ethics with his moral values, humanistic position and professional culture. The article also reveals the role of the teacher's speech culture, communication etiquette, professional responsibility and ethical behavior in the formation of pedagogical skills. The results of the study show the importance of the harmony of pedagogical ethics and skills in the quality of education, the development of the student's personality, ensuring the stability of the pedagogical environment and increasing the teacher's reputation.

Keywords: pedagogical skills, pedagogical ethics, moral values, pedagogical culture, quality of education, professional competence, culture of communication, ethical behavior, personal responsibility, reflection, creative approach, teacher image, professional culture, humanity, stability of the educational environment.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimining sifat darajasi o‘qituvchi shaxsining kasbiy yetukligi, ma’naviy barkamolligi hamda pedagogik madaniyatiga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli, o‘qituvchining **pedagogik mahoratini rivojlantirish** masalasi davlat siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Pedagogik mahorat o‘qituvchining o‘z kasbiga sadoqati, ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvi, o‘quvchi shaxsiga nisbatan empatiyasi, mulohaza madaniyati va

kasbiy refleksiya bilan belgilanadi. U shunchaki o'qituvchining metodik bilimlari majmui emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarish, o'quvchi shaxsini to'laqonli rivojlantirishga yo'naltirilgan murakkab psixologik-pedagogik faoliyat tizimidir. Mazkur jarayonda o'qituvchining mahorati uning shaxsiy fazilatlarini, kommunikativ qobiliyatlari, pedagogik texnologiyalarni qo'llash madaniyati va ijodkorlik darajasi bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik mahorat — bu o'qituvchi faoliyatining ilmiy, amaliy va ma'naviy jihatlarini birlashtiruvchi integrativ hodisadir.

Pedagogik mahoratning poydevorini tashkil etuvchi **pedagogik etika** esa o'qituvchi kasbiy faoliyatining axloqiy, ijtimoiy va ma'naviy mezonlarini belgilaydi. U ta'lim jarayonining insonparvarlik tamoyillariga asoslanishini, o'quvchi shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, adolatli baholash, mas'uliyatni his etish va halollik kabi qadriyatlarning ustuvorligini ta'minlaydi. Pedagogik etika — bu o'qituvchi faoliyatining axloqiy me'yorlar tizimi bo'lib, uning kasbiy nufuzini, jamoada ijobiy psixologik muhitni va ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir. Shu bois zamonaviy pedagogika nazariyasi o'qituvchi faoliyatida **“bilimli bo'lish” bilan birga “axloqli bo'lish”** tamoyilini o'zaro uzviy bog'langan hodisalar sifatida talqin etadi. Pedagogik etika va mahoratning uyg'unligi nafaqat o'qitish jarayonida, balki tarbiyaviy faoliyatda ham o'qituvchining kasbiy obro'-e'tibori, shaxsiy madaniyati va ijtimoiy mas'uliyatining mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot obyekti. Ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy faoliyati jarayonida pedagogik mahorat va pedagogik etika o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni belgilovchi psixologik-pedagogik omillardir. Tadqiqot obyekti sifatida o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, shaxsiy fazilatlarini, pedagogik muloqot madaniyati, axloqiy qadriyatlarga sodiqligi hamda ta'lim jarayonida ularni amaliyotda qo'llash darajasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'qituvchi mahoratining namoyon bo'lishi bilan pedagogik etikaning ta'lim sifati va tarbiyaviy samaradorlikka ta'siri o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ilmiy tahlilning markazida turadi. Mazkur obyektni o'rganish o'qituvchi shaxsining kasbiy yetukligi, axloqiy pozitsiyasi va ma'naviy mas'uliyatini baholash mezonlarini aniqlashga imkon beradi.

Qo'llanilgan metodlar. Mazkur tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbalar tahlil qilinib, ularni o'zaro solishtirish, xorijiy tajribalarni o'rganish hamda olingan natijalarni umumlashtirish yo'li bilan ilmiy asoslar ishlab chiqildi, shu bilan birga, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilib, nazariy xulosalar amaliyot jarayoniga tatbiq etildi.

Asosiy qism. Pedagogik mahorat zamonaviy ta'lim tizimining markaziy tushunchalaridan biri bo'lib, o'qituvchining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. U o'qituvchining nazariy bilimlari, amaliy tajribasi, psixologik sezgirliigi va shaxsiy fazilatlarining bir butun uyg'unligidan tashkil topadi. Pedagogik mahorat o'qituvchining shaxsiy madaniyati, muloqot uslubi va didaktik yondashuvlarining sifatiga ham bevosita bog'liqdir. U ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni ijodkorlikka undash va individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Shu bois pedagogik mahorat nafaqat kasbiy ko'nikmalar majmui, balki o'qituvchining butun shaxsiy va ma'naviy salohiyatini ifodalovchi mezon sifatida qaraladi. Bu jihatdan pedagogik mahorat o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining poydevorini tashkil etadi.

O'qituvchi faoliyatining huquqiy, ma'naviy va kasbiy asoslari O'zbekiston Respublikasining **“Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni** bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur qonun o'qituvchi faoliyatining mohiyati, maqsadi va ijtimoiy ahamiyatini belgilovchi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Unda ta'lim jarayonining insonparvarlik, uzluksizlik, uzviylik va adolat tamoyillari ilgari surilgan bo'lib, bu tamoyillar o'qituvchining pedagogik etikasida o'z ifodasini topadi. Qonunning 4-moddasida ta'lim tizimining asosiy vazifalari sifatida barkamol shaxsni shakllantirish, uning intellektual va axloqiy salohiyatini rivojlantirish masalalari qayd etilgan. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchi pedagogik faoliyatida qonunda belgilangan me'yorlarni amaliyotda tatbiq etish orqali nafaqat bilim beruvchi, balki ma'naviyat va madaniyat targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun o'qituvchining kasbiy mas'uliyatini, etik burchini va pedagogik mahoratini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi hamda ta'lim sifatini oshirishda nazariy yo'nalishdan amaliy yondashuvga o'tish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, *“qancha islohot qilmaylik, birinchi navbatda o'qituvchining bilimi va kasb mahoratini oshirmas ekanmiz, sifatlari ta'limni ta'minlay olmaymiz.”* Ushbu fikr zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik mahoratning hal qiluvchi ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi. Darhaqiqat, ta'lim islohotlarining samarasi, eng avvalo, o'qituvchi shaxsining kasbiy yetukligi, etik madaniyati va o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishiga bog'liqdir. Pedagogik etika va mahorat uyg'unligi o'qituvchining o'z fanini mukammal bilishidan tashqari, uni insonparvarlik, halollik va adolat tamoyillari asosida yetkazish qobiliyatini shakllantiradi. Shu ma'noda, davlat rahbarining ushbu fikri ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsiga bo'lgan e'tibor va ishonchni ifodalaydi hamda pedagogik mahoratni oshirish jarayonida axloqiy yuksaklikni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi.

Pedagogik mahoratning mohiyatini chuqur tahlil qilganda, u o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy, metodik, psixologik va axloqiy asosda tashkil etish qobiliyati ekanligi ayon bo'ladi. Bunday mahorat o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki uzluksiz o'rganish, tajriba orttirish va o'z faoliyatini refleksiv tahlil qilish jarayonida rivojlanadi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxs rivojlanishining yo'l-yo'riqchisi sifatida o'z o'rnini anglab yetishi zarur. Shu bois u o'z faoliyatini faqat o'quv dasturi doirasida emas, balki shaxsning ruhiy va axloqiy kamolotini ta'minlashga yo'naltiradi. Pedagogik mahoratning yuksak darajasi o'qituvchining o'z ishiga bo'lgan mas'uliyati, ichki motivatsiyasi va kasbiy burchini chuqur his etishi bilan belgilanadi.

Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlarini kasbiy bilim, pedagogik texnologiyalarni bilish, muloqot madaniyati, ijodkorlik va refleksiya tashkil etadi. Kasbiy bilim – o'qituvchining fan asoslarini chuqur bilishi va ularni metodik jihatdan to'g'ri yetkazish qobiliyatidir. Pedagogik texnologiyalarni bilish esa zamonaviy ta'lim vositalaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Muloqot madaniyati o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida psixologik uyg'unlikni ta'minlaydi. Ijodkorlik esa o'qituvchining dars jarayoniga yangilik kiritish, o'quvchilarda qiziqish uyg'otish va noan'anaviy yechimlar topish qobiliyatini ifodalaydi. Refleksiya esa o'z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va o'z ustida ishlashni anglatadi.

Pedagogik mahorat darajasi o'qituvchining o'z fanini qanchalik chuqur bilishidagina emas, balki bu bilimni shaxsga mos tarzda yetkazish qobiliyatidan ham kelib chiqadi. Har bir o'quvchi o'ziga xos individual xususiyatlarga ega bo'lgani uchun o'qituvchining mahorati shundan iboratki, u o'quvchining qobiliyatini to'g'ri yo'naltira oladi. Bu jarayonda o'qituvchining emotsional barqarorligi, psixologik sezgirligi va pedagogik taktning ahamiyati katta. O'quvchiga e'tibor, ishonch va rag'bat berish o'qituvchining mahoratini yanada namoyon etadi. Shu bilan birga, o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, xususan, halollik, samimiyat va adolatparvarlik ham pedagogik mahoratning ajralmas qismlaridir.

Pedagogik mahorat o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi har bir qarori, harakati va nutqida namoyon bo'ladi. U o'quvchilar bilan munosabatda bo'lish, ularning ehtiyojlarini anglash va ularni rag'batlantirish uslubida yaqqol ko'rinadi. Bu mahorat faqat nazariy bilim bilan emas, balki shaxsiy tajriba, kuzatish va amaliy tahlil bilan shakllanadi. O'qituvchi o'z faoliyatida pedagogik psixologiyaning asosiy tamoyillariga tayanib, har bir o'quvchining ichki dunyosini tushunishga intiladi. Shu orqali o'qituvchi nafaqat bilim, balki axloqiy namunani ham shakllantiradi. Bu esa pedagogik mahoratning tarbiyaviy funksiyasini kuchaytiradi.

Pedagogik etika o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi axloqiy mezonlar majmui sifatida ta'lim jarayonining ajralmas qismidir. U o'qituvchining kasbiy madaniyatini, shaxsiy qadriyatlarini va o'z burchini his etish darajasini ifodalaydi. Pedagogik etika o'qituvchining nutqida, xulq-atvorida, muloqotida, hattoki tashqi ko'rinishida ham namoyon bo'ladi. Etik me'yorlarga amal qilgan o'qituvchi o'quvchilar va jamoa oldida ishonchli va hurmatli shaxs sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, pedagogik etika o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini insonparvarlik tamoyillariga asoslab olib borishini ta'minlaydi.

Pedagogik etikaning mazmuni, avvalo, insonparvarlik, adolat, mas'uliyat, betaraflik va halollik tamoyillariga tayanadi. Bu tamoyillar o'qituvchining o'quvchiga bo'lgan munosabatini belgilab beradi. O'qituvchi har bir o'quvchini individual shaxs sifatida qabul qilishi, ularning qobiliyatini qadrlashi va rivojlantirishi zarur. Adolat va betaraflik prinsiplariga amal qilish ta'limda sog'lom muhitni yaratadi. Mas'uliyat esa o'qituvchining har bir so'zi va qarori uchun javobgarligini anglatadi. Shu tarzda pedagogik etika ta'lim jarayonining ijtimoiy va ma'naviy barqarorligini ta'minlaydi.

Abu Nasr Forobiy ta'limotida o'qituvchi shaxsining mahorati faqat bilim berish bilan emas, balki axloqiy qadriyatlarni singdirish bilan ham o'lchanadi. Uning “ustozlik aql va odobni uyg'un holda o'rgatish san'atidir” degan fikri pedagogik mahoratning asosi — pedagogik etika bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Pedagogik etika o'qituvchining kasbiy faoliyatida nafaqat tashqi ko'rsatkich, balki ichki madaniy mexanizm sifatida ham xizmat qiladi. U o'qituvchining kasbiy obro'sini mustahkamlab, o'quvchilar orasida ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi. Etik qadriyatlarga amal qilgan o'qituvchi o'quvchilarni nafaqat bilim, balki odob-axloq bilan ham tarbiyalaydi. Shu orqali o'qituvchi shaxsiy namunasi orqali jamiyatda axloqiy me'yorlarning mustahkamlanishiga hissa qo'shadi. Etik tamoyillar asosida faoliyat yuritish o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omillardandir.

Pedagogik etika o'qituvchi faoliyatining barcha bosqichlarida qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va munosabatlarni tartibga solishda yo'l-yo'riq beradi. U o'qituvchining nutqida samimiyat, muloqotida e'tibor, fikrida izchillik va harakatida mas'uliyatni talab etadi. Shu bois, o'qituvchi o'z faoliyatida har doim axloqiy mezonlarni inobatga olishi kerak. Etik qoidalar ta'lim jarayonining barqarorligini, o'quvchi-o'qituvchi o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Etika me'yorlariga amal qilish – bu nafaqat kasbiy burch, balki pedagogik madaniyatning eng muhim ko'rsatkichidir.

Pedagogik etika va pedagogik mahorat bir-biriga uzviy bog‘langan holda ta‘lim jarayonining sifatini belgilaydi. Etika mahoratning axloqiy poydevorini tashkil etsa, mahorat etikaning amaliy ifodasini namoyon etadi. Ularning uyg‘unligi o‘qituvchi faoliyatida professional mukammallikni ta‘minlaydi. O‘qituvchi bilimdon bo‘lishi bilan birga, o‘z bilimini axloqiy qadriyatlarga asoslangan holda yetkazishi lozim. Aks holda, bilimning o‘zi tarbiyaviy samaraga ega bo‘la olmaydi. Shu bois pedagogik etika mahoratning ma‘naviy yo‘nalishini belgilab beradi.

Pedagogik mahorat va etikaning o‘zaro aloqasi o‘qituvchining “nima qilish”ni bilishidan tashqari, “qanday qilish”ni anglash qobiliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu ikki omil o‘qituvchi faoliyatining g‘oyaviy va axloqiy mazmunini shakllantiradi. Etika o‘qituvchining harakatlariga ichki yo‘nalish beradi, mahorat esa shu yo‘nalishni amaliyotda ro‘yobga chiqaradi. Natijada o‘qituvchining har bir pedagogik qarori ma‘naviy mezonlarga asoslanadi. Bu esa ta‘lim jarayonining barqarorligi va o‘quvchi shaxsining uyg‘un rivojlanishini ta‘minlaydi.

O‘qituvchi faoliyatida pedagogik etika va mahoratning uyg‘unligi dars jarayonidagi emotsional muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Etik me‘yorlarga amal qiluvchi o‘qituvchi o‘quvchilarni hurmat qiladi, ularning fikrlarini qadrlaydi va o‘zaro ishonch asosida muloqot o‘rnatadi. Bu esa o‘quvchilarni o‘z fikrini erkin bildirishga va faol ishtirok etishga undaydi. O‘qituvchining mahorati esa bu jarayonni samarali tashkil etishga yordam beradi. Shu bilan birga, etika o‘qituvchining emotsional intizomini, sabr-toqatini va professional barqarorligini ta‘minlaydi.

Pedagogik etika o‘qituvchining shaxsiy mas‘uliyatini chuqurlashtiradi, mahorat esa bu mas‘uliyatni amaliy faoliyatda ifodalaydi. Ularning o‘zaro ta‘siri natijasida o‘qituvchining kasbiy madaniyati yuksaladi. Etik tamoyillarga asoslangan faoliyat o‘qituvchining o‘quvchi oldidagi obro‘sini oshiradi. Bunday o‘qituvchi nafaqat ta‘lim jarayonida, balki jamiyat hayotida ham ijobiy namunaga aylanadi. Shu bois, o‘qituvchi faoliyatida mahorat va etika uyg‘unligi ta‘lim tizimining insonparvarlik mohiyatini ifodalaydi.

Alisher Navoiy o‘z davrining buyuk mutafakkiri sifatida ilm va axloqni inson kamolotining ikki asosiy tayanchi deb bilgan. Uning fikricha, haqiqiy ilm — bu insonni faqat bilimdon emas, balki odobli, komil shaxs sifatida shakllantiradigan kuchdir. Navoiy ilmni odobdan ajratgan taqdirda u insonni kibr va manmanlik yo‘liga olib kirishini ta‘kidlab, har qanday bilim faqat axloqiy fazilatlar bilan uyg‘unlashgandagina jamiyatga foyda keltiradi, deb uqtirgan. Shu bois o‘qituvchi uchun mahorat — bu nafaqat bilim egallash, balki uni yuksak madaniyat, sabr, adolat va samimiyat bilan boshqalarga yetkazish san‘atidir.

Navoiy ta‘limotida o‘qituvchi shaxsining axloqiy barkamolligi ta‘lim sifatining ma‘naviy kafolati sifatida talqin etiladi. Ustoz o‘z faoliyatida bilimni inson qalbiga odob bilan singdira olsa, o‘quvchi nafaqat o‘rganadi, balki tarbiyalanadi, deb qayd etgan. Shu nuqtai nazardan, Navoiy qarashlarida **pedagogik mahorat va pedagogik etika** o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi: mahorat o‘qituvchining bilimni, etika esa uning ma‘naviy qiyofasini ifodalaydi. Navoiy nazarida ustozlik san‘ati – bu nafaqat aqlni, balki qalbni ham tarbiyalash, ya‘ni ilmni odob bilan uyg‘unlashtirish jarayonidir.

Pedagogik mahorat va etikaning uyg‘unligi o‘quvchilar shaxsining ijtimoiylashuv jarayonida ham muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchining etik xulqi o‘quvchilar uchun axloqiy namuna bo‘lib xizmat qiladi. Shu tarzda ta‘lim jarayonida nafaqat bilim, balki ma‘naviyat ham shakllanadi. O‘qituvchining har bir so‘zi, harakati va qarori o‘quvchining hayotiy qarashlariga ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, pedagogik etika ta‘limning axloqiy asosini mustahkamlaydi. Pedagogik mahorat esa bu asosni pedagogik faoliyatda samarali qo‘llash imkonini yaratadi.

O‘qituvchining pedagogik mahoratini baholashda uning etik me‘yorlarga amal qilishi muhim mezon sifatida qaraladi. Etik xulq-atvor, muloqot madaniyati, adolat va insonparvarlik o‘qituvchining kasbiy darajasini ko‘rsatadi. Shu bois ta‘lim muassasalarida pedagogik etika standartlarini ishlab chiqish va unga rioya etish tizimini shakllantirish zarur. Bu jarayon o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Pedagogik mahorat esa ushbu etika standartlarini amaliy faoliyatda samarali qo‘llash vositasidir.

Pedagogik mahorat va etika uyg‘unligini rivojlantirish uchun pedagogik ta‘lim tizimida maxsus kurslar, treninglar va refleksiv mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yish muhimdir. Bunday mashg‘ulotlar o‘qituvchilarda axloqiy sezgirlik, empatiya va professional o‘zini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, etika va mahorat o‘rtasidagi aloqani mustahkamlovchi ilmiy tadqiqotlar olib borish zarur. Bu tadqiqotlar o‘qituvchining shaxsiy fazilatlarini bilan kasbiy faoliyat samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga yordam beradi. Natijada ta‘lim tizimida insonparvarlik ruhida pedagogik muhit shakllanadi.

Pedagogik etika va mahorat uyg‘unligi o‘qituvchining kasbiy o‘sish motivatsiyasini ham kuchaytiradi. O‘qituvchi o‘z faoliyatining ma‘nosini nafaqat natija, balki jarayonning ma‘naviy qiymati orqali ham anglaydi. Bu holat kasbiy refleksiyani rivojlantirib, o‘qituvchini doimiy o‘zgarish va yangilanishga undaydi.

Shu tariqa, pedagogik etika o'qituvchini ichki o'sishga, mahorat esa tashqi samaradorlikka yo'naltiradi. Bu ikki jarayon uyg'unlashgan holda o'qituvchining kasbiy mukammallikka erishishiga zamin yaratadi.

Zamonaviy ta'limda pedagogik mahorat va etika integratsiyasi ta'lim sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu integratsiya orqali o'qituvchi o'z faoliyatini nafaqat texnologik, balki ma'naviy asosda tashkil etadi. O'qituvchining axloqiy tamoyillarga tayanishi ta'limning barqarorligini ta'minlaydi. Pedagogik etika va mahorat uyg'unligi natijasida ta'lim jarayoni insoniy qadriyatlarga yo'naltirilgan tizimga aylanadi. Shu sababli, o'qituvchi o'z faoliyatida har doim ilmiy asos va axloqiy mezonlar muvozanatini saqlashi zarur.

Natijada pedagogik mahorat va pedagogik etika o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'qituvchi faoliyatining nazariy va amaliy jihatlarini yagona tizimda birlashtiradi. Bu bog'liqlik o'qituvchining shaxsiy kamoloti, kasbiy madaniyati va ta'lim samaradorligining o'zaro uyg'unligini ta'minlaydi. Shu sababli, har bir pedagog o'z faoliyatida axloqiy qadriyatlarni amaliy harakatlar bilan uyg'unlashtirishni maqsad qilishi zarur. Bunday yondashuv nafaqat o'qituvchining obro'sini oshiradi, balki ta'lim tizimining insonparvarlik mohiyatini ham chuqurlashtiradi. Natijada, pedagogik mahorat va etika uyg'unligi zamonaviy ta'lim taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanadi.

Olingan natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik mahoratning yuksak darajaga ko'tarilishi bevosita o'qituvchi faoliyatida etik tamoyillarga amal qilinish darajasiga bog'liqdir. O'quv jarayonida axloqiy me'yorlarga rioya qilgan pedagoglar o'quvchilarning psixologik faolligini va o'qishga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Etik muhit hukm surgan jamoalarda ijtimoiy-psixologik barqarorlik kuchayadi, nizolar kamayadi va ijobiy muloqot muhiti shakllanadi. Shu bilan birga, o'qituvchining nutq madaniyati, muomala uslubi va ohangdorlik darajasi ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Demak, pedagogik etika o'qituvchi shaxsining kasbiy madaniyati va ta'lim sifati o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan asosiy mezon hisoblanadi.

O'tkazilgan kuzatuv va so'rovnomalar natijasida aniqlanishicha, o'qituvchi faoliyatidagi etik muhit ta'lim sifati va o'quvchilar faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Etik qadriyatlarga asoslangan pedagogik muhitda o'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi, jamoada esa sog'lom psixologik atmosfera shakllanadi. O'qituvchining nutq madaniyati va muomala odobi o'quvchilar bilan ishonchli muloqotni ta'minlaydi, bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu bois, pedagogik etika — bu o'qituvchining shaxsiy madaniyati va kasbiy mahoratini uyg'unlashtiruvchi omil bo'lib, ta'lim jarayonining barqarorligini ta'minlaydi.

Yuqoridagi natijalar shuni anglatadiki, pedagogik etika o'qituvchi faoliyatining sifat ko'rsatkichi va ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uchun muhim omildir. Etik tamoyillarga amal qiluvchi o'qituvchilar dars jarayonini samaraliroq tashkil etib, o'quvchilarning intellektual va emotsional faolligini oshiradilar. Etik muhit jamoada ijobiy muloqot, hamjihatlik va barqarorlikni ta'minlaydi. O'qituvchining nutq madaniyati va muomala madaniyati esa o'quvchi bilan pedagogik aloqa sifatini belgilaydi. Shunday qilib, pedagogik etika — bu o'qituvchi obro'si va ta'lim sifati kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Pedagogik mahorat va pedagogik etika o'qituvchining kasbiy shaxsini shakllantiruvchi ikki muhim komponentdir. Ularning uyg'unligi o'qituvchining shaxsiy madaniyati, axloqiy pozitsiyasi, kasbiy refleksiyasi va ijodkorlik qobiliyatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy ta'limda o'qituvchi nafaqat bilim manbayi, balki ma'naviy yo'l-yo'riq beruvchi, axloqiy yetakchi sifatida qaraladi. Shu sababli, pedagogik mahoratni rivojlantirish jarayonida etik qadriyatlarni shakllantirishga e'tibor berish, o'qituvchining kasbiy faoliyatini insonparvarlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat *Darslik* -T.: Iqtisod-moliya, 2011.
3. Mavlonov R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., Hafizov S. “Umumiy pedagogika”-darslik. «Fan va texnologiya» nashriyoti, Toshkent-2018
4. Mavlonova R.A., Abdurahimova D. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanmaT.:Fan va texnologiya 2012-yil
5. Радионова В. И. Педагогический этикет: практическое пособие / В. И. Радионова; М-во образования Республики Беларусь, Гомельский гос. ун-т им. Ф. Скорины. – Гомель: ГГУ им. Ф. Скорины, 2016. – 44 с
6. www.ziynet.uz.
7. www.edu.uz.
8. Lex.uz

THE STUDY OF THE PROBLEM OF DIAGNOSING STUDENTS' TOLERANT BEHAVIOR IN PSYCHOLOGICAL, PEDAGOGICAL, AND METHODOLOGICAL LITERATURE

Narshabayeva Aliya Yumutbaevna,

University of Innovation Technologies

Associate Professor of the Department of Philology PhD

The article examines the problem of diagnosing students' tolerant behavior, which is gaining particular importance in modern conditions due to globalization, intercultural interaction, and the need to educate a person ready for constructive dialogue. An analysis of psychological-pedagogical and methodological literature has been conducted, in which tolerance is presented as an integrative quality of personality, including cognitive, emotional-value, and behavioral components. Various methodological approaches and diagnostic tools used in domestic and foreign practice have been identified. It emphasizes the need for a comprehensive approach that allows combining quantitative and qualitative research methods.

Keywords: tolerance; tolerant behavior; diagnostics; students; psychological and pedagogical literature; methodological approaches.

TALABALARNING BAG'RIKENGLIK XULQ-ATVORINI DIAGNOSTIKALASH MUAMMOSINI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA METODIK ADABIYOTLARDA O'RGANISH

Maqolada globallashuv, madaniyatlararo o'zaro ta'sir va konstruktiv muloqotga tayyor shaxsni tarbiyalash zarurati tufayli zamonaviy sharoitlarda alohida ahamiyat kasb etayotgan talabalarning bag'rikenglik xulq-atvorini tashxislash muammosi ko'rib chiqiladi. Psixologik-pedagogik va uslubiy adabiyotlar tahlili o'tkazildi, unda bag'rikenglik kognitiv, hissiy-qiyamatli va xulq-atvor komponentlarini o'z ichiga olgan shaxsning integratsiyaviy sifati sifatida taqdim etilgan. Mahalliy va xorijiy amaliyotda qo'llaniladigan turli metodologik yondashuvlar va diagnostika vositalari aniqlangan. Bu tadqiqotning miqdoriy va sifatli usullarini birlashtirishga imkon beruvchi kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: bag'rikengli, bag'rikenglik xatti-harakati, diagnostika, talabalar, psixologik-pedagogik adabiyotlar, uslubiy yondashuvlar.

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ДИАГНОСТИКИ ТОЛЕРАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И МЕТОДИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

В статье рассматривается проблема диагностики толерантного поведения студентов, которая приобретает особую актуальность в современных условиях, обусловленных глобализацией, межкультурным взаимодействием и необходимостью воспитания личности, готовой к конструктивному диалогу. Проведен анализ психолого-педагогической и методической литературы, в которой толерантность представлена как интегративное качество личности, включающее когнитивный, эмоционально-ценностный и поведенческий компоненты. Выявлены различные методические подходы и диагностический инструментарий, используемые в отечественной и зарубежной практике. Подчеркивается необходимость комплексного подхода, позволяющего сочетать количественные и качественные методы исследования.

Ключевые слова: толерантность; толерантное поведение; диагностика; студенты; психолого-педагогическая литература; методические подходы.

Introduction. In modern educational systems, the need to cultivate students' skills in interpersonal and intercultural interaction is becoming increasingly evident. Tolerance, as a socially significant quality, reflects not only the individual's ability to accept and respect differences but also the ability to build constructive interaction with representatives of other cultures, religions, and social groups [5, 114]. In the context of globalization and digitalization, tolerance is becoming a key condition for the successful integration of the individual into the global educational and professional space [12, 59].

In psychological and pedagogical literature, tolerance is considered as an integrative quality of personality, including three key components: cognitive, emotional-value, and behavioral [10, 87; 9, 64].

In foreign pedagogy, diagnostic scales (Tolerance Scale, Intercultural Sensitivity Scale) are widely used, which allow for the quantitative assessment of students' tolerance levels [14, 245]. In domestic tradition, preference is given to the combination of tests and observations, which allows for consideration of emotional and behavioral manifestations [7, 93].

G. Soldatova identifies personal tolerance as a stable trait manifested in interpersonal interaction and proposes using psychodiagnostic methods to measure it [9, 72]. A. Asmolov connects tolerance with the process of social adaptation and emphasizes that the educational environment should create conditions for its formation [5, 118].

In the CIS countries, interest in the problem of diagnostics is increasing. Thus, the Kazakhstan researcher A. Niyazbayeva points out the importance of intercultural communication and suggests using the discursive analysis of students' statements as a diagnostic method [4, 77]. In Belarusian pedagogy, N. Grishina considers tolerance as an element of the educational system and emphasizes the need to combine quantitative tests with the analysis of educational projects [8, 48].

In Uzbekistan, significant contributions have been made by A. Abdullayev, who defines tolerance as a pedagogical category closely related to the multicultural development of society [1, 73], and I. Yoldoshev, who emphasizes the need to identify hidden forms of intolerance through the analysis of students' speech practices [2, 41]. Sh. Saidov notes that teaching German provides unique opportunities for diagnostics, as it involves modeling intercultural situations and project activities [3, 92].

Analysis of psychological-pedagogical and methodological literature shows that diagnosing students' tolerant behavior is a multifaceted process that requires a combination of quantitative and qualitative methods [15, 85]. It should take into account both the cognitive and emotional-behavioral manifestations of the individual, as well as socio-cultural factors [4, 82].

A comprehensive approach, including the use of psychometric methods, observations, analysis of educational materials, and interactive tasks, allows not only to record the level of tolerance but also to build pedagogical strategies for its formation [8, 53]. Thus, diagnostics becomes a crucial part of the educational process aimed at shaping a socially mature, open, and tolerant individual [1, 79].

Thus, it is no coincidence that the problem of diagnosing students' tolerant behavior is addressed in psychological-pedagogical and methodological literature. This is due to the need to find a balance between the theoretical understanding of the phenomenon of tolerance and its practical implementation.

Literary review.

1. Psychological and pedagogical aspect.

In psychology, tolerance is considered a personal quality that ensures harmonious interaction in society and prevents conflicts. E. V. Bondarevskaya notes that tolerance is closely linked to empathy, humanistic orientation, and the communicative culture of the individual [6, 45]. L. S. Vygotsky emphasized the social nature of personal qualities, stating that they are formed in the process of communication and joint activity [7, 92]. Consequently, diagnosing tolerance is impossible without considering the socio-cultural context and factors of the educational environment.

Modern research in pedagogy and psychology shows that tolerance includes cognitive, emotional-value, and behavioral components, each of which requires independent diagnostic methods [9, 72].

2. Methodological approaches.

Methodological literature identifies several key approaches to tolerance diagnostics.

The cognitive approach involves assessing students' knowledge of intercultural interaction norms, as well as their understanding of cultural differences.

The emotional-value approach is related to identifying the relationship to the “other,” the ability to empathize, emotional responsiveness, and the willingness to accept a different opinion.

The behavioral approach is based on observing students' actions, analyzing their actions in academic and extracurricular situations, which allows for the identification of real forms of tolerant or intolerant behavior.

Each of the approaches reflects only a separate aspect of tolerance, which enhances the significance of comprehensive diagnostic methods that combine questionnaires, testing, observation, and analysis of educational tasks [9, 118]. In the works of Uzbek researchers (Abdullayev, 2015; Yuldoshev, 2018) also emphasizes the need to integrate various methodological foundations for a more objective assessment of the level of students' tolerant behavior.

Thus, each approach reflects only a specific aspect of tolerant behavior, which enhances the significance of comprehensive diagnostic methods.

3. Foreign experience.

Foreign studies emphasize the intercultural dimension of tolerance. G. Allport's contact theory proves that intergroup interaction contributes to a decrease in bias and the formation of constructive behavioral patterns [10, 87]. M. Bennett (1993) developed the concept of intercultural sensitivity, in which tolerance is considered as a step towards the formation of full-fledged intercultural competence. J. Banks links tolerance education to the principles of multicultural education, emphasizing the importance of educational materials that reflect cultural diversity [12, 61].

In addition, modern approaches in pedagogy (Byram, 1997; Deardorff, 2006; Kramsch, 1993) consider tolerance not only as a social quality but also as a competency that integrates knowledge, values, and behavioral patterns.

4. CIS and Uzbekistan Studies.

In the CIS countries, tolerance is also considered an important pedagogical goal. A. Niyazbayeva indicates in her works that the formation of tolerance among students of pedagogical universities is possible through the organization of intercultural communication and joint projects [4, 77]. N. Grishina notes that the diagnosis of tolerant behavior should take into account the specifics of the multicultural educational environment and include observation of the collective activities of students [8, 48].

In Uzbekistan, A. Abdullayev defines tolerance as a key pedagogical category that ensures the formation of worldview in a multicultural society [1, 73]. I. Yoldoshev draws attention to the need to identify hidden forms of intolerance in the student environment, using the analysis of speech and behavioral practices [2, 41]. Sh. Saidov examines the role of German language teaching as an effective tool for diagnosing and forming students' intercultural competence [3, 92].

Thus, domestic and foreign authors agree that tolerance is a multidimensional phenomenon requiring multi-level diagnostic tools. Comparative analysis shows that the most promising approach is an integrative approach that combines cognitive, emotional-value, and behavioral diagnostic methods and takes into account the specifics of the cultural context.

Discussion. The conducted literature analysis allows us to conclude that tolerance diagnostics encounters a number of methodological and practical difficulties. First of all, this is due to the multifaceted nature of the very concept of “tolerance,” which includes cognitive, emotional-value, and behavioral components [9, 72]. If, in the cognitive aspect, it is possible to determine the level of students' knowledge of the norms of intercultural interaction, then assessing emotional attitudes and behavioral manifestations presents a significantly more complex task.

Furthermore, to date, there is no unified diagnostic standard, which makes it difficult to compare the results of various studies. Existing methods - from G. U. Soldatova's tolerance index to empathy tests - only fix individual elements, creating a risk of obtaining a fragmented picture that does not reflect the holistic state of personality [6, 45]. Uzbek researcher A. Abdullayev emphasizes that such a situation makes it difficult to develop universal pedagogical programs, as the results of diagnostics are highly dependent on the chosen tools [1, 73].

Foreign authors also pay attention to this aspect. G. Allport, developing the theory of contact, noted that the limited range of diagnostic methods often does not allow for the identification of hidden forms of bias [10, 87]. M. Bennett, in the model of intercultural sensitivity, emphasized that to understand the dynamics of tolerant behavior, it is necessary to combine quantitative indicators with a qualitative analysis of interpersonal interactions [11, 29].

Modern research in the CIS (Niyazbayeva, 2017; Grishina, 2019) confirm that it is the integrated approach that allows for achieving the most reliable results. The combination of questioning, observation, self-assessment, and expert evaluation forms a multi-level understanding of students' tolerance and their readiness for intercultural interaction. In the works of I. Yoldoshev, it is also indicated that diagnostics should take into account students' speech practices, as they are indicators of hidden attitudes towards “other” [2, 41].

Thus, tolerance diagnostics should develop towards the integration of quantitative and qualitative methods, the combination of standard tests with observation, content analysis of educational communications, and pedagogical experimentation. This approach allows not only to record the level of knowledge or behavioral reactions but also to identify students' deep value orientations, which significantly increases the pedagogical effectiveness of diagnostics.

Results. Systematization of psychological-pedagogical and methodological literature allowed us to identify several key provisions that are of fundamental importance for understanding and diagnosing students' tolerant behavior.

1. Tolerance as an integrative quality of personality.

Tolerance should be considered not as an isolated trait, but as a complex personal quality that includes cognitive, emotional-value, and behavioral levels [6, 45; 9, 72]. The cognitive component reflects knowledge of the norms of intercultural interaction, the emotional-value component - readiness to accept “other” and the development of empathy, and the behavioral component - the manifestation of these attitudes in specific actions and behaviors.

2. Complex nature of diagnostics.

To reliably determine the level of student tolerance, a comprehensive approach is necessary, combining various methods: testing, questionnaires, observation, expert evaluation, and analysis of student activity products [9, 118; 14, 247]. This approach allows avoiding fragmentation and fixing all levels of tolerance manifestation - from knowledge to behavioral practices.

3. Taking into account the individual characteristics of students.

The effectiveness of diagnostics largely depends on its adaptation to the age, socio-cultural, and professional characteristics of the audience. In the research of Uzbek scientists (Abdullaev, 2015; Yuldoshev, 2018) emphasizes that students belonging to different ethnocultural groups interpret test tasks differently and demonstrate tolerance in interpersonal communication. Therefore, diagnostics should take into account the cultural diversity and the level of professional training of future specialists.

4. Interdisciplinary approach.

Foreign experience (Allport, 1954; Banks, 2008; Byram, 1997) indicates the need for an interdisciplinary approach to diagnostics. The inclusion of pedagogical, psychological, and sociological tools expands research opportunities and allows us to consider tolerance as a complex phenomenon manifested at the intersection of personal attitudes, social experience, and educational practice.

5. Integration of diagnostics into the educational process.

The most important condition for effectiveness is the inclusion of diagnostics in pedagogical practice. It should not remain a formal procedure or episodic study, but should serve as a foundation for educational and training work [2, 41]. Diagnostic data allow the teacher to identify problem areas, plan corrective measures, and build an educational trajectory aimed at forming intercultural competence and tolerant attitudes in students.

Thus, the analysis results confirm that diagnosing students' tolerant behavior is a complex, multifaceted process that requires comprehensive methods, an interdisciplinary approach, and integration into the learning system.

Conclusion. The conducted research has shown that diagnosing students' tolerant behavior is not only relevant but also a methodologically complex task. On the one hand, psychological and pedagogical literature forms a rich theoretical foundation that allows us to consider tolerance as a multidimensional quality of personality, including cognitive, emotional-value, and behavioral components [7, 92; 6, 45]. On the other hand, methodological literature demonstrates the diversity of approaches and tools that, despite their value, are often fragmentary and require further systematization and adaptation to the educational process [9, 118].

The most promising direction of research and practice is a comprehensive approach, which involves a combination of quantitative and qualitative diagnostic methods. Using questionnaires, observation, testing, and analysis of students' speech and behavioral practices in combination allows for a holistic understanding of the manifestations of tolerant behavior. At the same time, taking into account socio-cultural factors and national specific context is of particular importance, which is emphasized in the works of Uzbek researchers (Abdullayev, 2015; Yuldoshev, 2018; Saidov, 2020).

Foreign concepts (Allport, 1954; Banks, 2008; Deardorff, 2006) also confirm the necessity of an interdisciplinary approach to diagnostics that combines pedagogical, psychological, and sociological methods. This approach allows not only to record the level of students' knowledge or behavioral reactions but also to identify their value attitudes, readiness for intercultural interaction, and ability for constructive dialogue.

Thus, the diagnostics of students' tolerant behavior should be considered as a dynamic system organically integrated into the educational process and aimed not only at assessment but also at personality development. Its main goal is to contribute to the formation of sustainable values of dialogue, respect, mutual understanding, and cultural diversity among students.

The prospects for further research are related to:

development of unified diagnostic tools that take into account the cultural and age diversity of the student audience;

integration of digital technologies (online surveys, electronic portfolios, discourse analysis in training chats and forums) into the diagnostic process;

comparative studies of student tolerance in various CIS countries and abroad to identify universal and national-specific features.

In general, the diagnosis of tolerant behavior acts as an important element of the educational strategy of modern education, ensuring the formation of a harmonious, open-minded, and responsible personality.

References:

1. Abdullaev A. Tolerance as a pedagogical category in a multicultural society. - Tashkent: Fan, 2015. - 210 p.
2. Yoldoshev I. The Role of National and Universal Values in Educating Students' Tolerant Behavior. - Tashkent: University, 2018. - 185 p.
3. Saidov Sh. Intercultural competence and foreign language teaching: methodological aspects. - Tashkent: Fan va texnologiya, 2020. - 224 p.
4. Niyazbayeva A. Intercultural communication as a means of forming tolerance in students of pedagogical universities. - Almaty: Kazakh University, 2017. - 176 p.
5. Asmolov A. G. Personality Psychology: A Cultural-Historical Understanding of Human Development. Moscow: Smisl, 2001. - 416 p.
6. Bondarevskaya E. V. Education as the revival of a citizen, a person of culture and morality. - Rostov-on-Don: RSU Publishing House, 1995. - 192 p.
7. Vygotsky L. S. Imagination and Creativity in Childhood. - M.: Pedagogika, 1991. - 175 p.
8. Grishina N. Educating Tolerance in a Multicultural Educational Environment. Minsk: BGU, 2019. - 142 p.
9. Soldatova G. U., Shaigerova L. A. Psychodiagnostics of Personality Tolerance. Moscow: Smisl, 2008. - 238 p.
10. Allport G. W. The Nature of Prejudice. - Cambridge, MA: Addison-Wesley, 1954. - 537 p.
11. Bennett M. J. Towards Ethnorelativism: A Developmental Model of Intercultural Sensitivity // Education for the Intercultural Experience. - Yarmouth, ME: Intercultural Press, 1993. - P. 21-71.
12. Banks J. A. An Introduction to Multicultural Education. - 5th ed. - Boston: Pearson, 2008. - 240 p.
13. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. - Clevedon: Multilingual Matters, 1997. - 124 p.
14. Deardorff D. K. The Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization // Journal of Studies in International Education. - 2006. - Vol. 10, № 3. - P. 241-266.
15. Kramsch C. Context and Culture in Language Teaching. - Oxford: Oxford University Press, 1993. - 295 p.

PEDAGOGIK FAOLIYATDA SUBYEKTGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIMDAN FOYDALANISH

Negmatova Nigora,
Qarshi davlat universiteti doktoranti

Ushbu maqolada pedagogik faoliyatda subyektga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi tahlil qilingan. Subyektga yo‘naltirilgan ta’lim, o‘quvchilarning ma’lumot olish jarayonida faol ishtirokini ta’minlash, ularning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish va individual rivojlanishini ko‘zlab tashkil etiladi. Shuningdek, turli ilmiy sohalaridagi olimlarning fikr-mulohazalari, “subyektga yo‘naltirilgan ta’lim” ishchi ta’rifi - bu har xil faoliyat turlarida mustaqil jarayonlarni faol amalga oshirishga va obyektiv dunyo, boshqa odamlar va o‘z-o‘zi bilan munosabatlarda subyekt pozitsiyasiga qaratilgan mulohalar berilgan.

Bundan tashqari, yuzaga keladigan ichki qarama-qarshiliklarni hal qilishga, muayyan maqsadlarga erishishga intiladigan, o‘z tashabbuslarini ko‘rsatadigan, mustaqil qarorlar qabul qiladigan, o‘zlikning ijodiy-ijobiy o‘zgarishining refleksiyasini amalga oshiishga qaratilgan ta’limning zamonaviy shakli ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: subyektga yo‘naltirilgan ta’lim, pedagogik faoliyat, o‘quvchi faoliyati, individual rivojlanish, metodika, ta’lim konsepsiyasi, pedagogika.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРЕДМЕТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

В данной статье анализируется понятие субъектно-ориентированного образования в педагогической деятельности. Субъектно-ориентированное образование организуется с целью обеспечения активного участия обучающихся в процессе получения информации с учетом их личностных особенностей и индивидуального развития. Также приводятся мнения ученых различных научных направлений, дается рабочее определение понятия «субъектно-ориентированное образование» – это положения, направленные на активную реализацию самостоятельных процессов в различных видах деятельности и позицию субъекта во взаимоотношениях с предметным миром, другими людьми и самим собой.

Кроме того, оно исходит из того, что это современная форма образования, направленная на разрешение возникающих внутренних противоречий, стремление к достижению определенных целей, проявление собственной инициативы, принятие самостоятельных решений, рефлексия творческого и позитивного преобразования себя.

Ключевые слова: предметно-ориентированное образование, педагогическая деятельность, активность учащихся, индивидуальное развитие, методика, образовательная концепция, педагогика.

USE OF SUBJECT-ORIENTED EDUCATION IN PEDAGOGICAL ACTIVITIES

This article analyzes the concept of subject-oriented education in pedagogical activity. Subject-oriented education is organized with the aim of ensuring the active participation of students in the process of obtaining information, taking into account their personal characteristics and individual development. Also, the opinions of scientists in various scientific fields, the working definition of “subject-oriented education” are given - these are considerations aimed at the active implementation of independent processes in various types of activities and the position of the subject in relations with the objective world, other people and oneself.

In addition, it is based on the fact that it is a modern form of education aimed at resolving emerging internal contradictions, striving to achieve certain goals, showing one's own initiative, making independent decisions, and reflecting on the creative and positive transformation of the self.

Key words: subject-oriented education, pedagogical activity, student activity, individual development, methodology, educational concept, pedagogy.

Kirish. Pedagogika fani va amaliyotiga “subyekt-subyekt, o‘zaro ta’sir”, “o‘quv faoliyati subyekt”, “o‘z-o‘zini tarbiyalash subyekt” kabi tushunchalar mustahkam kirib bordi.

Pedagoglar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mutaxassislarni tayyorlashga subyekt yondashuvni aniqlash imkonini beradi. Avvalo, subyektlikning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash kerak – bu o'zini subyekt sifatida anglash, o'z ta'lim muammolarini mustaqil ravishda hal qilish;

o'z aqliy mehnatining boshqalar uchun ahamiyatini anglash; o'z maqsadlariga erishish uchun axborot topish, o'zgartirish va undan foydalanish qobiliyati;

o'z xatti-harakatlarini tartibga solishning anglangan sharti sifatida refleksiya ehtiyoj.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. A.V. Brushlinskiy, S.L. Rubinshteyn ishlarida ko'rsatilganidek, subyektning muhim belgisi bo'lib faollik hisoblanib, u integrativ sifatida tavsiflanadi, ya'ni ongli ravishda maqsad qo'yishdan, dialektik bajarishdan, barcha vaziyatlarda faoliyat usullarini konstruktiv tuzatishdan boshlab barcha ko'rinishlarda insonning faol pozitsiyasini nazarda tutadi. Subyektning faolligi o'z cheklanganligidan tashqarida harakat qilish imkoniyatining o'sishini ta'minlaydi [4,116].

Xulq-atvor belgilangan shakllarining mavjudligi shaxsning ularning doirasida cheklanganligini oldindan belgilab beradi. Masalan, yosh rivojlanishining oldingi bosqichlarida shakllangan o'quv faoliyati strategiyalari kasbiy tayyorgarlik sharoitida samarasiz bo'lib, o'quv materialini o'zlashtirish qobiliyatini cheklashi mumkin. O'rganish bilan birga boradigan intilishlarning rivojlanishi, tajribalarni anglash va o'quv faoliyati haqida fikr yuritish subyektlikning kuchayishiga olib keladi, ya'ni ular subyektning o'z chegaralaridan tashqariga chiqish qobiliyatini oshiradi.

Ontogenezning oldingi bosqichlarida paydo bo'lgan cheklovlarni yengib o'tib, subyekt o'z-o'zini shaxsiy va kasbiy rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'ladi, natijada ko'p o'lchovli psixologik yangi hosila – shaxsiy va kasbiy taqdirda mualliflik paydo bo'ladi. O'z hayotining muallifligi subyektning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish yo'lidagi erkin va mas'uliyatli harakatini anglatadi. Shaxsiy va kasbiy taqdirdagi mualliflik hodisasi dinamik o'zgaruvchan ijtimoiy va texnik muhitda o'z-o'zini ro'yobga chiqarish, kasbiy faoliyatni shaxsiy muhim faoliyat sifatida, faqat o'z-o'zini rivojlantirish motivlari va uning natijalari va oqibatlari uchun to'liq javobgarlikdan kelib chiqadigan meyordan yuqori faollik sifatida namoyon bo'ladi.

Faollik subyekt sifatida individning eng muhim pedagogik xususiyatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- o'quv materialini o'zlashtirishga qaratilgan irodaviy harakatlar;
- o'quv materialiga anglangan qiziqish;
- o'quv vazifalarini bajarish mustaqilligi;
- ta'lim motivlarini bo'ysundirish qobiliyati;
- o'quv vazifalarini bajarish jarayonini tashkil etish qobiliyati;
- o'quv materialini hayotiy (shaxsiy) tajribaga integratsiyalash qobiliyati;
- yo'naltiruvchi-tadqiqot xulq-atvoriga aylanib boradigan diqqat faolligi;
- shaxsning o'z harakatlari bilan chegaralarini kengaytirib, berilgan ta'lim holati chegaralaridan tashqarida harakat qilishga tayyorligi.

Bu o'quv jarayonining samaradorligini belgilaydigan subyekt zaxiralarni izlash zarurligi haqidagi g'oyaga olib keladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun XX asrning oxirida pedagogik nazariya va amaliyotda ta'limni tashkil etishga yangi yondashuv – subyektga yo'naltirilgan ta'lim taklif qilindi. O'zgarishlarning faqat maqsadga muvofiqligini anglash ularni amalga oshirish va ushbu yondashuvni pedagogik nazariya va amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini o'rganish uchun yetarli emas. Buning uchun tadqiqotchilar tomonidan ushbu yondashuv bo'yicha to'plangan mavjud bilimlarni tizimlashtirish va uni qo'llashning uslubiy parametrlarini aniqlash kerak: “subyektga yo'naltirilgan ta'lim” tushunchasi, amalga oshirilayotgan faoliyatning dastlabki qoidalar sifatida uning an'anaviy yondashuv va tamoyillardan farqi.

Tadqiqot metodologiyasi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarni o'rganish “subyektga yo'nalgan ta'lim” ta'rifini talqin qilishning yagona ma'noga ega emasligini ko'rsatdi. Bizning tadqiqotimiz uchun falsafiy nuqtai nazarni qabul qilish muhim bo'lib, uning kelib chiqishi pedagogika fani va amaliyotida keyinchalik qo'llanilgan ko'plab ilmiy yondashuvlar bilan bog'liq. Bir qator faylasuflar tushunchasiga ko'ri, “subyektga yo'nalgan ta'lim – shaxsning biluv yoki o'zgartiruvchi faoliyatga yo'naltirilganligi. Aksariyat hollarda inson faoliyati, olimlar ta'kidlaganidek, bir-birini istisno etmasdan, balki bir-birini to'ldirishlari kerak bo'lgan bir emas, balki bir nechta yo'nalishlar asosida quriladi. Bundan tashqari, ma'lum bir faoliyatni o'rganishda qo'llaniladigan barcha yondashuvlardan faqat bitta yo'nalish ustuvor (dominant) bo'lib, buning natijasida inson faoliyati uslubining sifat jihatidan o'ziga xosligi shakllanadi.

Turli ilmiy sohalaridagi olimlarning fikr-mulohazalariga asoslanib, biz “subyektga yo'naltirilgan ta'lim” ishchi ta'rifini ishlab chiqdik – bu har xil faoliyat turlarida mustaqil jarayonlarni faol amalga oshirishga va obyektiv dunyo, boshqa odamlar va o'z-o'zi bilan munosabatlarda subyekt pozitsiyasiga qaratilgan, yuzaga keladigan ichki qarama-qarshiliklarni hal qilishga, muayyan maqsadlarga erishishga

intiladigan, o‘z tashabbuslarini ko‘rsatadigan, mustaqil qarorlar qabul qiladigan, o‘zlikning ijodiy- ijobiy o‘zgarishining refleksiya-sini amalga oshiishga qaratilgan ta’limning zamonaviy shaklidir.

Taklif etilgan talqinda ushbu hodisaning mohiyatini aks ettirish va uning eng muhim jihatlarini ajratib ko‘rsatishga harakat qilindi: subyektga yo‘naltirilgan ta’lim, birinchi navbatda:

pedagogik faoliyatdagi yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi;

u pedagogik harakatlar tushunchalari, tamoyillari va usullaridan iborat murakkab hosiladir;

ushbu ta’lim shakli shaxsning subyekt pozitsiyasini, strategiyasini va ta’lim faoliyatining har xil turlarida uni amalga oshirish istiqbollarini aniqlash va shakllantirishda faoliyatning namoyon bo‘lishiga yo‘naltirilishi bilan bog‘liq.

Bizning tadqiqotimizda subyektga yo‘naltirilgan ta’limning mazmuni subyekt, subyekt-faoliyatli, shaxsga yo‘naltirilgan va individual kabi an’anaviy yondashuvlarni amalga oshirish bilan o‘zaro bog‘liqdir.

Subyektga yo‘naltirilgan ta’lim shaxsni “ichkaridan” o‘rganishni nazarda tutadi, obyektiv xususiyatlar to‘plami sifatida emas, balki individual ma’no va his-tuyg‘ularning tashuvchisi sifatida, uning xatti-harakatini ichki belgilab beradigan faolligi va faoliyatining refleksiya-si bilan tavsiflanadi, bunda shaxsning subyektiv pozitsiyasining ko‘rsatkichi bo‘lib u uchun muhim bo‘lgan faoliyat darajasi xizmat qiladi [3,78].

Subyektga yo‘naltirilgan ta’lim shaxsni o‘z faoliyatining subyekt sifatida shakllanishi kerak bo‘lgan o‘zining ixtiyoriy anglanmagan faoliyatining subyekt sifatida o‘rganishni nazarda tutib, bunda u o‘zini faoliyatning har xil turlariga kirishishning ijobiy tajribasini mazmunli va maqsadli boshqarish va tartibga solishni bajaradi. Buning natijasida subyekt o‘zining aqliy, shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini o‘z-o‘zini tashkil qilishni amalga oshiradi, obyektiv optimal va subyektiv qoniqarli natijaga erishish uchun ichki faoliyatni va real faoliyatni obyektiv tashkil qilishni muvofiqlashtiradi.

Subyektga yo‘naltirilgan ta’lim pedagogik faoliyatda yo‘naltirishning uslubiy asosi bo‘lib, u o‘zaro bog‘liq tushunchalar, g‘oyalar va harakat usullari tizimiga tayanish orqali uning o‘ziga xos individualligiga tayangan holda ta’lim faoliyatida shaxsni rivojlantirish jarayonlarini ta’minlash va qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Subyektga yo‘naltirilgan ta’lim hayotning ijtimoiy tajribasini o‘zlashtirish uchun bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishda har bir shaxsning yo‘nalganligini, uning xususiyatlarini, moyilligini, qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash imkonini beradi [3,78].

Shaxsni tadqiq qilishning yuqorida keltirilgan yondashuvi ta’lim faoliyatida ijobiy rivojlanishi uchun uning individualligi, faolligi, subyektligi, noyobligi, atvori va faolligini ichki determinatsiyasini o‘rganishga yo‘naltirilgan.

Pedagogik faoliyatda subyektga yo‘naltirilgan ta’limdan foydalanish bugungi kunda talab darajada emas. Shu sababli subyektga yo‘naltirilgan ta’limni keng tadbiiq etishni talab qilib, u, avvalgilaridan farqli ravishda, har xil faoliyat turlarida shaxsiy rivojlanish jarayonlarini faol amalga oshirishga yo‘naltirilgan shaxsni, tashqi ta’sirlarning passiv obyektidan faol ijodiy o‘zini-o‘zi takomillashtirishga qodir shaxsga aylanganda subyekt pozitsiyani o‘rganishni nazarda tutadi.

Shaxsning individual tajribasida eng muhim yangi shakllanishni – o‘zlik jarayonlarining ichki determinantlarini anglashni ta’minlaydigan o‘z rivojlanishi subyektining pozitsiyasini o‘rganish ham muhimdir. Shaxs ongli va faol ravishda “o‘z-o‘zini qurish va yaratish” ni boshlaydi, bu uning subyekt sifatida ijobiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi, chunki o‘z-o‘zini biluv rivojlantirishni boshqarish mexanizmlarini kiritmasdan, o‘zini va hayot strategiyasini muvaffaqiyatli, maqsadli ichki va tashqi o‘zgartirib bo‘lmaydi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimizdagi ta’lim faoliyatini loyihalashning dastlabki qoidalari sifatida subyektga yo‘naltirilgan ta’lim subyekt pozitsiyani aniqlash va shakllantirish bo‘yicha, o‘zlik jarayonlari ichki determinantlarini anglashni, o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish va o‘z-o‘zini rivojlantirish bo‘yicha shaxsning faolligini namoyon bo‘lishiga yo‘naltirilganligini o‘rganadi.

Shunday qilib, “ijodiy o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish madaniyatini rivojlantirish”, “subyektga yo‘naltirilgan ta’lim” mohiyatining asosiy tushunchalarini mazmunli tahlil qilish bizga quyidagi ishchi ta’riflarni shakllantirishga imkon berdi:

- “shaxsning o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish” – bu shaxs tomonidan o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini ochib berish, subyekt sifatida turli xil faoliyat turlariga jalb qilinganda ijobiy tajribani eksteriorizatsiya qilish va o‘zlik jarayonlaridagi o‘zgarishlarni anglash (o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini belgilash, o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘z-o‘zini dolzarblashirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish) hisoblanadi.

- “shaxsning ijodiy o‘zini-o‘zi ro‘yobga chiqarishi” – bu shaxsning o‘z ijodiy qobiliyatlari va imkoniyatlarini ochishning ongli va subyektiv muhim jarayoni bo‘lib, unda subyektning faoliyati ijodiy xususiyatga ega, ijodiy faoliyatning har xil turlarida ijobiy tajribani eksteriorizatsiya qilishga yordam beradi. Bunda ijodiy faoliyat uning har xil turlarida o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish jarayonini loyihalash, shaxsiy va

madaniy o'sish, shuningdek, ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsning Men-konsepsiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini maqsadli va subyektga yo'naltirilgan amalga oshirishni kuchaytirish imkonini beradi.

- “shaxsning ijodiy o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish madaniyati” – bu ijodkorlik, ijodga bo'lgan qadriyat-ma'noviy yo'nalishlar, kasbiy-ijodiy kompetensiyalar, ijodiy o'zini-o'zi rivojlantirish qobiliyati haqidagi yuksak bilim darajasidir.

- “shaxsning ijodiy o'z-o'zini ro'yobga chiqarish madaniyatini rivojlantirish” – ijodiy faoliyatning har xil turlarida subyekt ijobiy tajribasining interiorizatsiyasi va eksteriorizatsiyasi vositasida talaba-pedagoglarning “ijodiy o'z-o'zini ro'yobga chiqarish va o'z-o'zini takomillashtirish Men-konsepsiyasi” dagi (shu jumladan, Men-madaniy, Men-ijodiy, Men-kasbiy, Men-ijtimoiy) sifat va miqdoriy o'zgarishlarning maqsadli va ko'p qirrali jarayoni va natijasi bo'lib, ushbu ijodiy faoliyatning madaniy muvofiq komponentlariga ijodkorlik qadriyatlari tizimi, uning mohiyatini bilish, kasbiy-ijodiy kompetensiyalar va ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati kiradi.

- “subyekt” ta'rifi shaxs tuzilmasida “tashqi” va “ichki” o'rtasidagi munosabatlarning murakkab o'tishi: shaxsning “ichki orqali tashqiga” asosiy yo'nalganlikdan “tashqi orqali ichkiga” tendensiyasining ko'proq ustunligiga, shaxsning tashqi ta'sirlar passiv obyektidan faoliyatning har xil turlariga ishtirok etishi, o'zlik jarayonlarida faol ro'yobga chiqadigan va ijodiy o'z-o'zini rivojlantira oladigan shaxsga o'zgarishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

Xulosa. “Subyektga yo'naltirilgan ta'lim” – bu kreativ ta'lim faoliyatida talaba-pedagoglarning ijodiy o'z-o'zini ro'yobga chiqarish madaniyatini rivojlantirishga subyektga yo'naltirilganlik muammosi bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar uchun ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Выготский Л. С. Этюды по истории поведения: Обезьяна. Примитив. Ребенок / Л. С. Выготский, А. Р. Лурия. Москва: Педагогика-Пресс, 1993. 224 с.
2. Леонтиев АН Фаолият ва шахсият // Фалсафа саволлари, 1974 йил, 4-сон, п. 87-97; № 5, п. 65-78.
3. Allport G.W. Pattern and growth in personality. - New York : Holt, Rinehart and Winston, 1991. - 593 p.
4. Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. 2-е изд. - М.: Педагогика, 1976.- 416 с.
5. Деркач А.А. Субъектные феномены: акмеологический подход. - М.: РАГС, 2010.-240 с.
6. Милинис О.А. Формирование положительных мотивов учения обучающихся в условиях модернизации образования: монография. - Новокузнецк: РИО КузГПА, 2010. - 219 с.

IKKI TILLI VA BIR TILDA SO‘ZLASHUVCHI TALABALARNING KASB TANLASHDAGI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Normurodova Z.B.,

*KIUT “Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi
zislamova79@gmail.com*

Ushbu maqolada ikki tilli va bir tilda so‘zlashuvchi talabalarning kasb tanlashdagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ko‘rib chiqdik. Tadqiqotda Toshkent shahridagi KIUT va EMU universitetlarining filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan 120 nafar talaba ishtirok etdi. Ulardan 60 nafari ikki tilli (o‘zbekcha-ruscha, o‘zbekcha-inglizcha), 60 nafari bir tilda (faqat o‘zbekcha) so‘zlashuvchilardir. Tadqiqot metodlari sifatida J. Hollandning “Kasbiy yo‘nalishlar testi”, Sh. Shvarcsning qadriyatlar anketasi va muallif tomonidan tuzilgan kasbiy motivatsiya so‘rovnomasi qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ikki tilli talabalar ko‘proq kommunikativ, rahbarlik va ijodkorlikni talab qiluvchi kasblarni tanlashga moyil bo‘lsa, bir tilda so‘zlashuvchi talabalar barqaror, an‘anaviy va ijtimoiy jihatdan xavfsiz kasblarni tanlashga intildilar. Tadqiqot kasb tanlash jarayonida lingvistik kompetensiyaning ijtimoiy-psixologik ahamiyatini yoritib berdik.

Kalit so‘zlar: ikki tillilik, kasb tanlash, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, motivatsiya, talabalar psixologiyasi, kommunikativ, rahbarlik.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF BILINGUAL AND MONOLINGUAL STUDENTS IN CAREER CHOICE

This article examines the socio-psychological characteristics of career choice among bilingual and monolingual students. The study involved 120 students from the philology departments of KIUT and EMU Universities in Tashkent. Among them, 60 were bilingual (Uzbek–Russian, Uzbek–English), and 60 were monolingual (only Uzbek). The research methods included J. Holland’s Vocational Interests Test, Sh. Schwartz’s Value Survey, and a career motivation questionnaire developed by the author. The results showed that bilingual students are more inclined to choose professions requiring communication, leadership, and creativity, whereas monolingual students tend to prefer stable, traditional, and socially secure professions. The study highlights the socio-psychological significance of linguistic competence in the process of career choice.

Keywords: bilingualism, career choice, socio-psychological characteristics, motivation, student psychology, communication, leadership.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ДВУЯЗЫЧНЫХ И МОНОЯЗЫЧНЫХ СТУДЕНТОВ ПРИ ВЫБОРЕ КАРЬЕРЫ

В данной статье рассматриваются социально-психологические особенности выбора профессии у билингвальных и монолингвальных студентов. В исследовании приняли участие 120 студентов филологических факультетов университетов KIUT и EMU в Ташкенте. Среди них 60 билингвов (узбекско-русских, узбекско-английских) и 60 монолингвов (только узбекский язык). В качестве методов исследования были использованы тест профессиональных интересов Дж. Холланда, опросник ценностей Ш. Шварца и авторская анкета профессиональной мотивации. Результаты показали, что билингвальные студенты более склонны выбирать профессии, требующие коммуникации, лидерства и креативности, тогда как монолингвальные студенты чаще предпочитают стабильные, традиционные и социально безопасные профессии. Исследование подчеркивает социально-психологическое значение лингвистической компетенции в процессе профессионального выбора.

Ключевые слова: билингвизм, профессиональный выбор, социально-психологические особенности, мотивация, психология студентов, коммуникация, лидерство.

Kirish. Yevropa mamlakatlari aholisining 56%i ikkinchi tilni biladi. Bu hodisa dunyoning yirik shaharlarida keskin oshib borishi muammo doirasidagi yangi vazifalarni belgilamoqda. Respublikamizda nafaqat ta’lim jarayonida, balki ijtimoiy mehnat bozorida ham xorijiy tillarni bilish talab qilinmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021- yilning 6-may kuni chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishida:

“Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatbardosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim” – deb ta’kidlab o‘tdilar. Zero, O‘zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Ikki va undan ortiq tilni biluvchi talabalarning ijtimoiy-psixologik jihatlari (madaniy vositalar yordamida)ga oid masalalar dolzab deb hisoblaymiz. [1]

Kasb tanlash masalasi shaxs rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, talabalik davrida bu jarayon shaxsning kelajakdagi hayot sifati, ijtimoiy mavqeyi va o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi (Super, 1990) [2]. Hozirgi globallashuv sharoitida ikki tillilik keng tarqalib, talabalarning kasbiy yo‘nalishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Psixologik tadqiqotlarda ikki tillilikning kognitiv jarayonlarga ijobiy ta’siri isbotlangan. Ikki tilli shaxslar ko‘proq moslashuvchan, kreativ va ijtimoiy faol bo‘lishlari aniqlangan (Юлдашев, 2020) [3]. Shu bois, kasb tanlashda ham ularning qaror qabul qilish uslublari, qadriyatlari va motivatsion yo‘nalishlari farq qilishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi – ikki tilli va bir tilda so‘zlashuvchi talabalarning kasb tanlashdagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini solishtirishdir.

Tadqiqotning obyekti: Toshkent shahridagi KIUT va EMU universitetlarining filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan 120 nafar talaba ishtirok etdi.

Predmeti: talabalarning kasb tanlashdagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.

Tadqiqotning maqsadi: ikki tilli va bir tilda so‘zlashuvchi talabalar kasbiy yo‘nalishidagi farqlarni aniqlash.

Tadqiqotdan kutilayotgan natijalar. Ikki tilli talabalar kommunikativ, ijodkorlik va moslashuvchanlikni talab qiluvchi kasblarni ko‘proq tanlaydi; bir tilda so‘zlashuvchi talabalar esa barqaror va an’anaviy kasblarga moyil bo‘ladi.

Adabiyotlar sharhi. Ikki tillilik fenomeni bir necha o‘lchovlarda o‘rganilgan. Hamers va Blanc (2000) [4] ikki tillilikni shaxsning kognitiv va ijtimoiy tizimlariga integratsiyalashgan murakkab hodisa sifatida ta’riflaydi. Ellis (2008) [5] ikki tillilikning ta’lim jarayonidagi o‘rni, til o‘rganish strategiyalariga ta’sirini batafsil ko‘rsatadi. Kasb tanlash jarayonida esa Holland (1997) [6] tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy shaxs tiplari nazariyasi keng qo‘llaniladi. Schwartz (2012) [7] qadriyatlar nazariyasida kasb tanlash jarayonida shaxsning qadriyat tizimi va ijtimoiy muhit talablari muhim omil ekanligi ko‘rsatiladi. Mahalliy tadqiqotlarda ham ikki tilli talabalarning kasbiy kompetensiyalari va qadriyatlari farqlanishi qayd etilgan (Ходжанов, 2019; Hakimova, 2021) [8].

Metodologiya va tadqiqot usullari. Tadqiqot Toshkent shahridagi KIUT va EMU universitetlarining filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan 120 nafar talaba ishtirokida o‘tkazildi. Umumiy 120 nafar talaba ishtirok etdi: 60 nafari ikki tilli (o‘zbekcha-ruscha yoki o‘zbekcha-inglizcha), 60 nafari esa bir tilda (faqat o‘zbekcha) so‘zlashuvchilar. Ishtirokchilarning yoshi 18–23 yosh oralig‘ida, ular filologiya va tillar fakulteti va boshlang‘ich ta’lim fakultetlarda tahsil oladigan talabalar.

Tadqiqot metodlari:

J. Hollandning Kasbiy yo‘nalishlar testi – talabalarni shaxsiy tiplariga qarab (Realistik, Intellectual, Ijodiy, Ijtimoiy, Tadbirkorlik, An’anaviy) kasbiy moyilligini aniqlash.

Sh. Schwartz qadriyatlar anketasi – talabalar qadriyat tizimining kasbiy tanlovga ta’sirini o‘lchash.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy motivatsiya so‘rovnomasi – 20 ta savoldan iborat bo‘lib, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya va ijtimoiy maqomga yo‘naltirilgan motivlarni baholash.

Tahlil usuli:

Deskriptiv statistika (foizlar, o‘rtacha qiymatlar, dispersiya).

Guruhlararo farqlarni tekshirish uchun **chi-kvadrat (χ^2) testi** va **t-testi** qo‘llanildi.

Ma’lumotlar SPSS dasturida qayta ishlangan.

Tadqiqot natijalari (1-jadval)

1. Holland testi natijalari

Shaxsiy tiplar	Ikki tilli talabalar (%)	Bir tilda so‘zlashuvchilar (%)
Realistik (texnik)	15	28
Intellectual (ilmiy)	20	18
Ijodiy (san’at, media)	22	12
Ijtimoiy (pedagog, tibb.)	15	20
Tadbirkorlik (biznes)	18	10
An’anaviy (hisob-kitob)	10	12

Jadvalga izoh:

1. Realistik tip (texnik yo‘nalishlar)

Bir tilda so‘zlashuvchilar (28%) texnik, amaliy va qo‘llanma xarakterdagi kasblarga ko‘proq intilishadi. Bu holat ularning barqarorlikka intilishi, an‘anaviy qadriyatlarga sodiqligi bilan izohlanadi. **Ikki tillilarda** bu ko‘rsatkich pastroq (15%), demak ular “faqat texnik kasblar”ga kamroq moyil.

2. Intellektual tip (ilmiy yo‘nalishlar)

Ko‘rsatkichlar ikki guruhda deyarli teng: ikki tillilarda – 20%, bir tillilarda – 18%. Bu ilmiy qiziqish va tadqiqotga moyillik til omilidan ko‘ra shaxsiy intilishlarga ko‘proq bog‘liqligini bildiradi.

3. Ijodiy tip (san‘at, media, dizayn)

Ikki tilli talabalar (22%) ijodiy kasblarni tanlashga ancha moyil. **Bir tillilarda** bu ko‘rsatkich past (12%). Bu farq ikki tillilikning kreativ fikrlash va kommunikativ imkoniyatlarni rivojlantirishini tasdiqlaydi.

4. Ijtimoiy tip (pedagog, tibbiyot, yordamchi sohalari)

Bir tilli talabalar (20%) ijtimoiy xizmat ko‘rsatish va odamlar bilan ishlash kasblarini tanlashga ko‘proq intiladi. **Ikki tillilarda** bu yo‘nalish ancha past (15%). Bu farq, ehtimol, ikki tilli talabalar xalqaro yo‘nalishli va kreativ kasblarni afzal ko‘rishi bilan izohlanadi.

5. Tadbirkorlik tip (biznes, menejment, rahbarlik)

Ikki tilli talabalar (18%) biznes va menejment kasblariga ko‘proq moyil. **Bir tillilarda** bu ko‘rsatkich ikki baravar kam (10%). Bu ikki tillilikning kommunikativ kompetensiyalarni kuchaytirishi, liderlik va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirishi bilan bog‘liq.

6. An‘anaviy tip (hisob-kitob, ofis ishlari)

Ikkala guruhda ham past: ikki tillilarda 10%, bir tillilarda 12%. Demak, zamonaviy talabalar uchun an‘anaviy kasblar nisbatan kamroq jozibali.

Umumiy xulosa:

Ikki tilli talabalar – ijodiy (22%) va tadbirkorlik (18%) kasblarini tanlashda ustunlik qiladi. Ular innovatsion, kommunikativ va rahbarlikni talab qiladigan sohalarga ko‘proq yo‘nalgan. **Bir tilda so‘zlashuvchilar** – realistik (28%) va ijtimoiy (20%) tipdagi kasblarni afzal ko‘rishadi. Ular barqaror, an‘anaviy va jamiyatga xizmat qiluvchi kasblarga intilishadi. Statistik farqlar χ^2 testi orqali sezilarli darajada tasdiqlandi ($p < 0.01$).

2. Schwartz qadriyatlar anketasi

Ikki tilli talabalar uchun **kreativlik** ($M = 4.2$), **mustaqillik** ($M = 4.1$) va **innovatsiya** ($M = 3.9$) qadriyatlari muhim bo‘ldi.

Bir tilda so‘zlashuvchilar uchun **barqarorlik** ($M = 4.3$), **an‘anaviylik** ($M = 4.0$) va **xavfsizlik** ($M = 4.2$) qadriyatlari ustun bo‘ldi.

3. Kasbiy motivatsiya so‘rovnomasi

Ikki tilli talabalar: **ichki motivatsiya** ($M = 4.5$) baland, ya‘ni qiziqish va ijodiy o‘zini namoyon qilishga yo‘naltirilgan.

Bir tilda so‘zlashuvchilar: **tashqi motivatsiya** ($M = 4.3$) yuqori, ya‘ni ijtimoiy maqom va iqtisodiy barqarorlik asosiy omil bo‘lib chiqdi.

4. Statistik tahlil

Kasbiy tiplar bo‘yicha ikki guruh o‘rtasidagi farq $\chi^2 = 12.47$, $p < 0.01$ darajasida sezilarli.

Qadriyatlar tizimi bo‘yicha $t(118) = 2.89$, $p < 0.01$ (ijodiylik qadriyati ikki tillilarda sezilarli yuqori).

Motivatsiya turlari bo‘yicha $t(118) = 3.12$, $p < 0.01$ (ichki motivatsiya ikki tillilarda yuqori).

Statistik natijalar:

$\chi^2 = 12.47$, $p < 0.01 \rightarrow$ kasbiy tiplar bo‘yicha farq sezilarli.

$t(118) = 2.89$, $p < 0.01 \rightarrow$ qadriyatlar tizimida sezilarli farq mavjud.

$t(118) = 3.12$, $p < 0.01 \rightarrow$ motivatsiya turlarida sezilarli farq mavjud.

Xulosa. Ikki tillilik kasb tanlash jarayonida shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini sezilarli darajada belgilaydi. Ikki tilli talabalar innovatsion, kreativ va liderlikni talab qiluvchi kasblarga yo‘nalgan bo‘lsa, bir tilda so‘zlashuvchilar ko‘proq barqaror va an‘anaviy ijtimoiy kasblarni tanlashadi. Bu farqlar qadriyatlar tizimi va motivatsiya manbalari bilan ham mustahkam tasdiqlandi. Demak, kasbiy maslahat va yo‘naltirish jarayonida talabalarning til kompetensiyasini hisobga olish muhimdir. Ikki tilli talabalar ko‘proq ijodiy, innovatsion va kommunikativ kasblarga yo‘nalgan bo‘lsa, bir tilda so‘zlashuvchilar barqaror va ijtimoiy jihatdan an‘anaviy kasblarni tanlashga moyil bo‘ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ikki tilli talabalar ko‘proq kommunikativ, ijodiy va rahbarlik xususiyatlarini talab qiluvchi kasblarni tanlashga moyil bo‘ldi. Masalan, ular orasida jurnalistika, xalqaro munosabatlar, menejment kabi yo‘nalishlarni tanlaganlar

ko'pchilikni tashkil etdi. Bir tilda so'zlashuvchi talabalar esa barqaror, an'anaviy va ijtimoiy jihatdan xavfsiz kasblarga (masalan, pedagogika, huquqshunoslik, hisob-kitob yo'nalishlari) ko'proq moyillik bildirishdi.

Statistik tahlil natijasiga ko'ra, ikki tilli va bir tilda so'zlashuvchi talabalar orasida kasbiy yo'nalish bo'yicha sezilarli farq aniqlandi ($\chi^2 = 12.47$, $p < 0.01$). Bu farqlar til kompetensiyasi kasb tanlash qarorida muhim psixologik omil ekanligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan uyg'un keladi. Bialystok (2011) va Grosjean (2015) [2,3] ta'kidlaganidek, ikki tilli shaxslar kognitiv va ijtimoiy jihatdan faolroq bo'ladilar. Bizning tadqiqotimiz ham ikki tilli talabalarning ijodkorlik va rahbarlikni talab qiluvchi kasblarga ko'proq intilishini ko'rsatdi. Bir tilda so'zlashuvchi talabalar esa ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlovchi kasblarni tanlashda ehtiyotkorlik ko'rsatgan. Bu esa Schwartz (2012) qadriyatlar nazariyasi bilan hamohangdir.

1. Ikki tilli va bir tilda so'zlashuvchi talabalar kasb tanlashda turli ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega.

2. Ikki tilli talabalar ko'proq kommunikativ va ijodiy kasblarni tanlashga moyil, bir tilda so'zlashuvchilar esa barqaror va an'anaviy kasblarga intiladi.

3. Til kompetensiyasi shaxsning kasbiy qarorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

4. Tadqiqot natijalari kasbiy maslahat va yo'naltirish jarayonida ikki tillilik omilini inobatga olish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Innovative technologies in construction Scientific Journal (ITC) Volume 9| Issue Normurodova Z.B. Shukurova SH.B134-138

1. Bialystok, E. (2011). Bilingualism: Consequences for Mind and Brain. Trends in Cognitive Sciences, 15(4), 240–249.

2. Grosjean, F. (2015). Bilingual: Life and Reality. Harvard University Press.

3. Hamers, J. F., & Blanc, M. H. A. (2000). Bilinguality and Bilingualism. Cambridge University Press.

4. Holland, J. L. (1997). Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments (3rd ed.). Psychological Assessment Resources.

5. Schwartz, S. H. (2012). An Overview of the Schwartz Theory of Basic Values. Online Readings in Psychology and Culture, 2(1), 1–20.

6. Gardner, H. (2011). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books.

7. Назаров, Қ. (2018). Talabalarning kasbiy yo'nalishi va motivatsiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

8. Юлдашев, М. (2020). Ikki tilli shaxsning ijtimoiy moslashuvi psixologiyasi. Psixologiya jurnali, 4(2), 45–52.

9. Ходжанов, А. (2019). Kasb tanlash jarayonida shaxsiy qadriyatlarning o'rni. O'zbekiston psixologiyasi, 3(1), 88–95.

10. Hakimova, S. (2021). Ikki tillilik va kasbiy kompetensiya o'zaro bog'liqligi. Ta'lim va rivojlanish, 2(5), 112–118.

11. Savickas, M. L. (2013). Career construction theory and practice. In Career Development and Counseling. Wiley.

12. Артыкбаева, Н. (2022). Talabalarda kasbiy qaror qabul qilish psixologiyasi. Oliy ta'lim muammolari, 1(3), 55–63.

OLIIY TA'LIMDA TALABALARNING AKADEMIK MOBILLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

*Normurodova Adiba Alisher qizi,
Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi
normurodovaadiba90@gmail.com*

Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari tahlil qilingan. Akademik mobillikning mazmuni va ahamiyati, uning talabalarining kasbiy raqobatbardoshligini oshirishdagi o'rni yoritib berilgan. Dunyo tajribasidan kelib chiqib, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, shuningdek, Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi misolida akademik mobillikning samarali mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim, onlayn kurslar, qo'shma ilmiy loyihalar, kredit-modul tizimi, qo'shma va ikki diplomli dasturlar, virtual akademik mobillik kabi innovatsion imkoniyatlar keng yoritilgan. Maqolada akademik mobillikni rivojlantirishda davlat siyosati, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, universitetlararo shartnomalar va xalqaro tan olish tizimlarining ahamiyati ham alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: talabalar, akademik mobillik, ta'lim metodikasi, ta'lim tizimi, xalqaro hamkorlik, global integratsiya, zamonaviy texnologiyalar, interaktiv o'quv uslublari, ilmiy izlanish, akademik almashinuv, ta'lim sifatini oshirish, o'quv metodlari, ta'lim innovatsiyalari, universitetlar roli, mutaxassislar tayyorlash, ta'lim mobilizatsiyasi, akademik aloqalar, o'quvchilarning malaka oshirish, ta'limda integratsiya, xalqaro tajriba almashinuvi, innovatsion ta'lim texnologiyalari.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ АКАДЕМИЧЕСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

В статье анализируются инновационные подходы к развитию академической мобильности студентов в системе высшего образования. Раскрываются содержание и значение академической мобильности, её роль в повышении профессиональной конкурентоспособности студентов. На основе мирового опыта рассматриваются эффективные механизмы академической мобильности на примере США, Великобритании, Германии, а также программы Европейского Союза Erasmus+. Широко освещаются такие инновационные возможности, как современные цифровые технологии, дистанционное обучение, онлайн-курсы, совместные научные проекты, кредитно-модульная система, совместные и программы двойных дипломов, виртуальная академическая мобильность. Подчёркивается важность государственной политики, финансовой поддержки, межвузовских соглашений и систем международного признания в развитии академической мобильности.

Ключевые слова: Студенты, Академическая мобильность, Образовательная методика, Образовательная система, Международное сотрудничество, Глобальная интеграция, Современные технологии, Интерактивные методы обучения, Научные исследования, Академический обмен, Повышение качества образования, Методы обучения, Образовательные инновации, Роль университетов, Подготовка специалистов, Образовательная мобилизация, Академические связи, Повышение квалификации студентов, Интеграция в образовании, Международный обмен опытом, Инновационные образовательные технологии.

INNOVATIVE APPROACHES TO DEVELOPING STUDENTS' ACADEMIC MOBILITY IN HIGHER EDUCATION

This article analyzes innovative approaches to developing academic mobility of students in the higher education system. The content and importance of academic mobility, its role in increasing the professional competitiveness of students are highlighted. Based on world experience, effective mechanisms of academic mobility are considered using the example of the USA, Great Britain, Germany, as well as the Erasmus+ program of the European Union. Also, innovative opportunities such as modern digital technologies, distance learning, online courses, joint scientific projects, credit-module system, joint and double degree programs, virtual academic mobility are widely covered. The article also emphasizes the importance of state policy, financial support, inter-university agreements and international recognition systems in developing academic mobility.

Keywords: *Students, Academic mobility, Educational methodology, Educational system, International cooperation, Global integration, Modern technologies, Interactive teaching methods, Scientific research, Academic exchange, Improving the quality of education, Teaching methods, Educational innovations, The role of universities, Training of specialists, Educational mobilization, Academic relations, Improving the skills of students, Integration in education, International exchange of experience, Innovative educational technologies.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri – raqobatbardosh, erkin fikrlaydigan va zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashdir. Bu jarayonda talabalarning **akademik mobilligi** muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Akademik mobillik nafaqat talabalarning bilim va malakasini oshirishga, balki ularning dunyoqarashi, kasbiy salohiyati va xalqaro tajriba orttirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, oliy ta'lim muassasalari oldida turadigan asosiy vazifa – akademik mobillik jarayonlarini innovatsion yondashuvlar asosida yo'lga qo'yish va takomillashtirishdir.

Tadqiqot obyekti. Oliy ta'lim tizimida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish jarayonlari, ularni innovatsion texnologiyalar asosida amalga oshirish, xalqaro tajribalar va ilg'or amaliyotlardan foydalanish hamda ushbu yondashuvlarni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish masalalari tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Qo'llanilgan metodlar. Mazkur tadqiqotda mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, xorijiy tajribalarni o'rganish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya usullari, shuningdek, nazariy xulosalar asosida amaliyotga tatbiq qilish metodlaridan foydalanildi.

Asosiy qism. Bugungi globallashuv davrida oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talablaridan biri raqobatbardosh, keng dunyoqarashga ega, ijodkor va innovatsion fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Zamonaviy sharoitda talabalarning nafaqat o'z mamlakati doirasida, balki xalqaro miqyosda ham bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, talabalarning akademik mobilligi ularning ta'lim sifatini oshirish, xalqaro tajribani o'zlashtirish, yangi bilimlarni egallash va kelgusida kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishida muhim vosita sifatida qaraladi.

Akademik mobillik tushunchasi, asosan, talabalar, magistrantlar va doktorantlarning o'z mamlakati tashqarisida yoki boshqa oliy ta'lim muassasasida ma'lum muddat davomida ta'lim olishi, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi yoki malaka oshirishi jarayonini anglatadi. Bunday mobillik natijasida ular o'z sohasidagi eng yangi yondashuvlar, ilg'or texnologiyalar va metodikalarni bevosita o'rganish imkoniga ega bo'ladilar. Akademik mobillikning asosiy g'oyasi – talabaning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, unga erkin tanlov imkonini berish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ta'lim sifatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishdan iboratdir.

Akademik mobillikning oliy ta'lim tizimidagi ahamiyati nihoyatda kengdir. U, avvalo, talabalarning bilim darajasini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, xorijiy tillarni chuqurroq o'rganishga yordam beradi va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, mobillik jarayonida talabalarda muammolarni mustaqil hal etish, turli muhitga moslashish, kreativ fikrlash va jamoada samarali ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Shuningdek, mobillik orqali o'quvchilar xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishlari, yangi texnologiyalarni egallashlari va global jarayonlarga faol integratsiyalashishlari mumkin.

Dunyo tajribasiga murojaat qilsak, rivojlangan mamlakatlarda akademik mobillik keng miqyosda qo'llanilmoqda va u ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada talabalarning mobilligini ta'minlash uchun turli xil exchange programs (almashinuv dasturlari) ishlab chiqilgan bo'lib, ular nafaqat talabalarga o'qish imkoniyatini, balki xorijiy mamlakatlarning turmush tarzi, madaniyati, qadriyatlarini va jamiyatini bevosita o'rganish sharoitini ham yaratadi. Bu dasturlar orqali yoshlar global miqyosdagi muammolarni tushunadi, turli madaniy muhitlarga moslashishni o'rganadi va shaxsiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Germaniyada esa akademik mobillik masalasi davlat darajasida keng ko'lamda qo'llab-quvvatlanadi. DAAD (German Academic Exchange Service) dasturi bu borada eng yirik va nufuzli loyihalardan biri hisoblanadi. Mazkur dastur orqali har yili minglab talabalar, aspirantlar va ilmiy xodimlar turli universitetlarda qisqa muddatli ta'lim oladi, ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshiradi va o'z sohasida malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, DAAD nafaqat Germaniya ichida, balki boshqa davlatlardagi oliy ta'lim muassasalari bilan ham mustahkam aloqalar o'rnatishga ko'maklashadi, bu esa global ilmiy hamkorlikni kuchaytiradi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan amalga oshirilayotgan Erasmus+ dasturi esa bugungi kunda dunyodagi eng yirik akademik mobillik loyihasi sifatida e'tirof etiladi. Ushbu dastur minglab yoshlarning turli

mamlakatlarda qisqa yoki uzoq muddatli ta'lim olishiga, ilmiy va madaniy loyihalarda ishtirok etishiga imkon beradi. Erasmus+ dasturi talabalarining bilim olish bilan bir qatorda, ularda ko'p madaniyatli jamoalarda ishlash, liderlik qobiliyatlarini namoyon etish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu dastur doirasida olingan kreditlarni barcha ishtirokchi mamlakatlarda tan olish imkoniyati mavjudligi talabalarga katta qulaylik tug'diradi.

Mazkur tajribalar shuni ko'rsatadiki, akademik mobillikni samarali tashkil etish uchun bir nechta muhim shartlar mavjud. Birinchidan, davlat siyosati bu jarayonni qo'llab-quvvatlashi lozim. Chunki mobillikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy manbalar, huquqiy asoslar va tashkiliy mexanizmlar davlat darajasida belgilanadi. Ikkinchidan, moliyaviy qo'llab-quvvatlash talabalarining xorijda o'qishi uchun asosiy kafolat hisoblanadi. Grantlar, stipendiyalar, ta'lim kreditlari va homiylik dasturlari orqali talabalar o'z o'qishini davom ettirish imkoniga ega bo'ladilar. Uchinchidan, universitetlararo hamkorlik shartnomalari kengaytirilishi kerak, chunki faqat hamkorlik asosida qo'shma ta'lim dasturlari, ikki diplomli loyihalar va almashinuv dasturlari samarali amalga oshirilishi mumkin. To'rtinchidan, kreditlarni tan olish tizimi mukammal ishlashi lozim. Aks holda, talabalar xorijda o'qib olgan fan va kreditlari o'z mamlakati universitetida hisobga olinmasa, mobillikning samaradorligi pasayib ketadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, akademik mobillik tizimi muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun davlat, oliy ta'lim muassasalari va xalqaro tashkilotlar o'rtasida uzviy hamkorlik bo'lishi zarur. Bu omillar uyg'unlashgan taqdirdagina mobillik dasturlari keng qamrovli va samarali natija beradi.

Oliy ta'lim tizimida akademik mobillikni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalarning jadal sur'atlarda rivojlanishi ta'lim jarayoniga ham yangicha usullarni joriy etishni talab qilmoqda. Zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonlari mobillik imkoniyatlarini yanada kengaytirib, talabalarga yangi tajriba va bilim manbalarini taqdim etmoqda.

Masalan, masofaviy ta'lim platformalari orqali talabalar dunyoning turli burchaklarida faoliyat yuritayotgan universitetlarning ochiq kurslaridan foydalanishlari, mutaxassislar bilan muloqotda bo'lishlari va xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etishlari mumkin. Bu esa ularga nafaqat nazariy bilim olish, balki amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash imkonini ham beradi. Onlayn kurslar va qo'shma onlayn loyihalar yordamida esa turli mamlakatlarda tahsil olayotgan talabalar birgalikda ilmiy izlanishlar olib borishi, startap g'oyalarini ishlab chiqishi yoki ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda hamkorlik qilishi mumkin.

Innovatsion yondashuvlarning muhim jihatlaridan yana biri – kredit-modul tizimidir. Ushbu tizim talabalarga o'quv fanlarini mustaqil tanlash, o'z qiziqishi va kasbiy yo'nalishiga mos individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. Eng asosiysi, kredit-modul tizimi xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etilgani uchun talabalar xorijda olgan kreditlarini o'z mamlakatida tan oldirish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa akademik mobillikni yanada qulay va samarali qiladi.

Shuningdek, innovatsion yondashuvlar doirasida virtual akademik mobillik tushunchasi ham tobora rivojlanmoqda. Talaba xorijga chiqmagan holda ham boshqa mamlakatdagi universitet darslarida onlayn qatnashishi, xorijiy o'qituvchilardan bilim olishi va xalqaro talaba jamoalari bilan hamkorlik qilishi mumkin. Virtual mobillik, ayniqsa, pandemiya davrida o'zining dolzarbligini isbotladi va bugungi kunda ham akademik mobillikning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Ko'rinib turibdiki, oliy ta'limda innovatsion yondashuvlar asosida akademik mobillikni rivojlantirish nafaqat talabalarining bilim va ko'nikmalarini boyitadi, balki ularning ijodiy salohiyatini oshiradi, xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishiga keng yo'l ochib beradi.

Shuningdek, qo'shma va ikki diplomli dasturlar akademik mobillikning eng samarali ko'rinishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday dasturlar orqali talaba bir vaqtning o'zida ikki oliy ta'lim muassasasida tahsil olib, yakunda ikki diplomga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa, avvalo, talabalarining bilim doirasini kengaytiradi, ularni turli ta'lim tizimlari va ilmiy maktablar bilan tanishtiradi. Natijada, ular xalqaro mehnat bozorida erkin faoliyat yuritishga, kasbiy raqobatbardoshlikni oshirishga, ko'p tarmoqli bilim va tajribaga ega mutaxassis sifatida shakllanishga erishadilar.

Qo'shma va ikki diplomli dasturlar, odatda, yirik xalqaro hamkorlik doirasida tashkil etiladi. Bu orqali talaba bir vaqtning o'zida milliy oliy ta'lim muassasasining ham, xorijiy universitetning ham ilmiy muhitidan bahramand bo'ladi. Shuningdek, turli o'quv dasturlari va metodikalarning uyg'unlashuvi talabaga yanada puxta bilim olish imkonini yaratadi.

Virtual akademik mobillikning eng katta ustunligi shundaki, u hududiy, moliyaviy yoki viza cheklovlariga bog'liq bo'lmagan holda bilim olish imkoniyatini beradi. Bu holat, ayniqsa, pandemiya sharoitida o'zining dolzarbligini yaqqol namoyon qildi va bugungi kunda ham akademik mobillikning samarali yo'nalishlaridan biri sifatida saqlanib qolmoqda.

Shu tariqa, qo‘shma va ikki diplomli dasturlar hamda virtual akademik mobillik zamonaviy oliy ta‘lim tizimining eng ilg‘or va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ular nafaqat talabalar, balki o‘quv jarayonini tashkil etayotgan oliy ta‘lim muassasalari uchun ham ko‘plab yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Akademik mobillikni rivojlantirishning amaliy mexanizmlari ham keng ko‘lamli. Eng avvalo, universitetlararo hamkorlik shartnomalarini kengaytirish, xorijiy grantlar va stipendiyalarni jalb etish, talabalar uchun qulay sharoitlar yaratish muhim. Bundan tashqari, xorijda olingan kreditlarni milliy ta‘lim tizimida tan olish, mobillik dasturlarini tashkiliy va moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, professor-o‘qituvchilarning ham akademik mobilligini rivojlantirish zarur. Chunki talaba mobilligi o‘qituvchi mobilligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida ham so‘nggi yillarda akademik mobillik bo‘yicha katta qadamlar tashlanmoqda. Prezidentimizning oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilishga oid farmon va qarorlarida bu boradagi vazifalar belgilab berilgan. Bugungi kunda ko‘plab oliy ta‘lim muassasalari xorijiy nufuzli universitetlar bilan qo‘shma ta‘lim dasturlarini amalga oshirmoqda. Ikki diplomli dasturlar, “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali xorijiy magistratura va doktoranturada tahsil olish imkoniyatlari yoshlar uchun keng yo‘l ochib bermoqda. Shu bilan birga, xalqaro loyihalarda, xususan Erasmus+, Mevlana, Fulbright kabi dasturlarda ishtirok etayotgan talabalarning soni yil sayin ortib bormoqda.

Kelgusida mamlakatimizda akademik mobillikni rivojlantirish bo‘yicha bir qator istiqbolli vazifalar amalga oshirilishi lozim. Avvalo, talabalarning akademik mobilligi uchun maxsus markazlar tashkil etilishi, kredit-modul tizimi xalqaro standartlarga to‘liq moslashtirilishi, xorijiy tillarni o‘qitishga alohida e‘tibor qaratilishi zarur. Bundan tashqari, virtual mobillik imkoniyatlarini kengaytirish, onlayn platformalar yaratish, xalqaro ilmiy loyihalarda talabalar ishtirokini ta‘minlash dolzarbdir.

Olingan natijalar.

1. Ta‘lim sifatining oshishi: Innovatsion metodlar va xalqaro tajribalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish orqali oliy ta‘limda bilim berishning samaradorligi ortadi. Bu esa talabalarni chuqur bilim olish, mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga yordam beradi.

2. Talabalarning muvaffaqiyat darajasini oshirish: Akademik mobillik dasturlari va xalqaro ta‘lim standartlarini integratsiya qilish talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshirib, ularni xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassis bo‘lishiga xizmat qiladi.

3. Ta‘limning universalligi va moslashuvchanligi: Akademik mobillik doirasida qo‘llaniladigan innovatsion yondashuvlar turli mamlakatlarda umumiy ahamiyatga ega bo‘lib, talabalar o‘z bilimlarini boshqa davlatlarda ham samarali qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xulosa. Talabalarning akademik mobilligi – bu oliy ta‘lim sifatini oshirish, talabalarning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ta‘minlash va ularning kelgusidagi muvaffaqiyatli faoliyati uchun muhim omildir. Akademik mobillikning rivojlanishi nafaqat ta‘lim tizimiga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham katta hissa qo‘shadi. Shu bois, uni innovatsion yondashuvlar asosida yanada takomillashtirish, xalqaro tajribalarni o‘zlashtirish va milliy ta‘lim tizimiga samarali joriy etish zamon talabi hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish va sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va farmonlari. – Toshkent, 2020–2024 yy.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. Karimov, I. A. *Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
4. Avloniy, A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
5. Altbach, P. G., Reisberg, L., & Rumbley, L. E. *Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution*. – UNESCO, 2009.
6. Knight, J. *Internationalization of Higher Education: Practices and Priorities*. – IAU Survey Report, 2003.
7. Kehm, B. M., & Teichler, U. *Research on Internationalisation in Higher Education*. – Journal of Studies in International Education, 2007.
8. Teichler, U. *Academic Mobility and Migration: What We Know and What We Do Not Know*. – European Review, 2015.
9. Erasmus+ Programme Guide. – European Commission, 2023.
10. DAAD Annual Report. – German Academic Exchange Service, 2022.
- 11 “El-Yurt Umidi” jamg‘armasi rasmiy sayti: www.eyuf.uz.
12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy materiallari.

TALABALAR KASBIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MODELI

Pardaqulov Norbek,

Qarshi davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

Mazkur maqolada Oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy tayyorlash jarayoni ko'p omilli va bosqichma-bosqich kechadigan jarayon bo'lib, uning samarali tashkil etilishi talabalarda kasbiy qobiliyatlarning shakllanishini ta'minlashi haqida so'z boradi. Mazkur ijtimoiy-psixologik model talabalarining kasbiy o'sishini nazariy va amaliy jihatdan ta'minlash imkonini berishi dalillangan.

Kalit so'zlar: kasbiy tayyorgarlik, kasbiy qobiliyat, ijodiy yo'nalganlik, kreativ qobiliyat, nazariy-psixologik omillar, ijtimoiy-psixologik omillar, ta'limiy-tashkiliy omillar, ijtimoiy-madaniy omillar, aqliy jarayon, pedagogik mahorat, ijtimoiy tajriba, kasbiy qobiliyatni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik modeli.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ

В статье рассматривается вопрос о том, что процесс профессиональной подготовки студентов высших учебных заведений является многофакторным и поэтапным, а его эффективная организация обеспечивает формирование профессиональных навыков у студентов. Утверждается, что данная социально-психологическая модель позволяет теоретически и практически обеспечить профессиональный рост студентов.

Ключевые слова: Профессиональная подготовка, профессиональные навыки, творческая направленность, творческие способности, теоретико-психологические факторы, социально-психологические факторы, учебно-организационные факторы, социокультурные факторы, мыслительный процесс, педагогическое мастерство, социальный опыт, социально-психологическая модель формирования профессиональных навыков.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL MODEL OF FORMATION OF STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCES

Ijodiy faoliyatning eng yuqori cho'qqisida (30 yoshdan 40 yoshgacha) xodim o'zi ishlayotgan tashkilotga nisbatan eng harakatchan va talabchan bo'ladi. U o'zini kasbiy namoyon etishga va muvaffaqiyatga intiladi, bu tashkilotda karyera ko'tarilish istiqbollarini bilishni xohlaydi va vaqtni behuda sarflashdan qo'rqadi. Qirq yoshdan so'ng ishonch pasayadi, odam tashkilotda ma'lum bir pozitsiyada «qotib qoladi», unga ko'nikib qoladi, o'z karyerasida cheklovlar hissi kuchayib boradi. Yangi joy ko'proq istiqbollarni va'da qilsa ham, uning ish joyini o'zgartirishga qaror qilishi tobora qiyinlashib boradi. Kattaroq yoshda (50 yoshdan keyin) karyera o'sishining yo'qligi sababli tashkilotga da'volar kamroq uchraydi. Ko'pchilik faoliyatning o'zi jarayoni va mazmunidan qoniqishni topishga intiladi.

Kasbiy o'zini namoyon etish - bu xodim (xoh mutaxassis, xoh har qanday darajadagi rahbar) o'z kasbiy faoliyatida shunday yuksaklikka erishadigan karyeraning davri bo'lib, savol tug'iladi: bunday odam rivojlanish va oldinga harakat qilish uchun nimani, qanday va qayerda o'rganishni davom ettiradi? Daisy Wademan quyidagi savollarga javob olish uchun oltita muvaffaqiyatli yirik kompaniyalarning mashhur menejerlaridan intervyu oldi: Siz olgan va ishingizda foydalanadigan eng yaxshi maslahatning mohiyati nima edi? Uni sizga kim berdi va qanday sharoitda? Ishingizda undan qanday foydalanasiz? U muvaffaqiyatli menejerlar qachon, qayerda va qanday qilib (biznes professorlaridan emas) hayotni o'zgartiruvchi maslahat olishlarini tushunmoqchi edi. Bunga javoban tadqiqotchi u kutganidan tubdan farq qiladigan javoblarni oldi. Nafaqat mazmuni, balki uni olish yo'llari ham hayratlanarli edi. U o'quvchining o'qituvchining dono maslahatlarini qanday hurmat bilan tinglashi haqidagi hikoyani eshitishni kutgan edi, masalan, bola kabi, "uning tizzasida o'tirib". Buning o'rniga, suhbat ishtirokchilari yelkalarini qisib qo'yishdi va hatto dastlab hozircha unutilgan va yillar o'tib, faqat o'zlarining kasbiy tajribasiga ega bo'lganlaridan keyingina kerak bo'lgan maslahatni keyinroq esladilar. Ma'lum bo'lishicha, o'zlashtirilgan maslahatlar an'anaviy, tanish ko'rsatmalar yoki aforizmlar yoki oddiy gaplar shaklida emas, balki savollar, hikoyalar va hatto hazil shaklida berilgan.

Xulosa. Yosh mutaxassislarning kasbiy karyerasini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida psixologik qo'llab-quvvatlash muhim omil hisoblanadi. Psixologik yordam shaxsning o'z imkoniyatlarini to'g'ri anglashiga, kasbiy faoliyatda barqarorlikni ta'minlashiga, stress va inqiroz holatlarini yengib o'tishiga ko'maklashadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, psixologik treninglar, mentorlik tizimi, shaxsiy rivojlanish dasturlari va maslahat xizmati yosh kadrlarning motivatsiyasini oshirish hamda ularning kasbiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda samarali mexanizmlardan hisoblanadi.

Takliflar. Oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarida yosh mutaxassislar uchun muntazam psixologik treninglar va motivatsion seminarlar tashkil etish.

Har bir sohada tajribali mutaxassislar ishtirokida mentorlik tizimini yo'lga qo'yish.

Kasbiy rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun psixologik maslahat markazlari faoliyatini kengaytirish.

Karyera rejalashtirish va psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha innovatsion metodlarni ta’lim jarayoniga joriy etish.

Yosh mutaxassislarning kasbiy shakllanishida ijtimoiy-psixologik monitoring olib borish va ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar:

1. Duffus L.R., The Personal Strategic Plan: A Tool for Career Planning and Advancement//International Journal of Management, Vol21, No2, June 2004, p.144-149.
2. Исмагилова Ф. С. Мы в тетрадах вручную чертили поля. Стратегии управления карьерой в «третьем» возрасте. Екатеринбург, 2019.
3. Стрелков Ю.К. (2008) Структуры профессионального опыта \ в сборнике Д.А.Ошанин и современная психология: к 100-летию со дня рождения Д.А. Ошанина / Под общ. ред. В.И. Панова и Н.Л. Мориной, место издания Обнинск; ИГ-СОЦИН Москва, с. 187-210
4. Стрелков, Ю.К. Временная форма профессионального опыта // Вестник Московского университета. Серия 14. Психология. 2010. №2. С. 23-31
5. Viega, J. F. (1973). The mobile manager at mid-career. Harvard Busines Review, January-February, 114-120
6. Маслоу А.Г. Дальние пределы человеческой психики. СПб.: Издат.группа «Евразия», 2002. – 430 с.

O'QUVCHILARDA IJOBIY O'ZINI BAHOLASHNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUV

Qo'chqorov Jo'rabek Shuxrat o'g'li,
Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi
qochqorovjorabek44@gmail.com

Mazkur maqolada o'quvchilarda ijobiy o'zini baholashni shakllantirish jarayonida pedagogik yondashuvlarning mohiyati, shakl va metodlari tahlil qilinadi. O'zini baholashning ta'lim jarayonidagi psixologik va tarbiyaviy ahamiyati yoritilib, o'qituvchi faoliyatida qo'llaniladigan samarali pedagogik usullar misollar bilan ochib beriladi. Shuningdek, ijobiy o'zini baholash o'quvchilarning o'z kuchiga ishonch, o'zini anglash va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. Tadqiqot davomida ijobiy o'zini baholashning o'quvchilar faoliyatiga, ularning o'z fikrini mustaqil bayon etishi, o'z kuchiga ishonch hosil qilishi, o'zini anglash hamda o'zini rivojlantirish istagini uyg'otishdagi ta'siri ochib beriladi. Shu bilan birga, o'qituvchi faoliyatida qo'llaniladigan innovatsion pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar, refleksiv mashg'ulotlar va rag'batlantiruvchi baholash tizimlari misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: o'zini baholash, refleksiya, ijobiy fikrlash, shaxsiy rivojlanish, motivatsiya, ta'lim muhiti, pedagogik yondashuv, o'quvchi faoliyati, xalqaro tajriba almashinuvi, innovatsion ta'lim texnologiyalari.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ФОРМИРОВАНИЮ ПОЛОЖИТЕЛЬНОЙ САМООЦЕНКИ У СТУДЕНТОВ

В данной статье анализируются сущность, формы и методы педагогических подходов в процессе формирования позитивной самооценки у студентов. Выделяется психолого-педагогическое значение самооценки в образовательном процессе, а также на примерах объясняются эффективные педагогические методы, используемые в деятельности учителя. Также позитивная самооценка трактуется как ключевой фактор развития уверенности в себе, самосознания и самостоятельного мышления студентов. В ходе исследования раскрывается влияние позитивной самооценки на деятельность студентов, их способность самостоятельно выражать собственное мнение, обретать уверенность в своих силах, самосознание и саморазвитие. При этом на примерах анализируются инновационные педагогические подходы, интерактивные методы, рефлексивные упражнения и системы мотивационной оценки, используемые в деятельности учителя.

Ключевые слова: самооценка, рефлексия, позитивное мышление, личностное развитие, мотивация, среда обучения, педагогический подход, студенческая активность, международный обмен опытом, инновационные образовательные технологии.

PEDAGOGICAL APPROACH TO FORMING POSITIVE SELF-EVALUATION IN STUDENTS

This article analyzes the essence, forms and methods of pedagogical approaches in the process of forming positive self-esteem in students. The psychological and educational significance of self-esteem in the educational process is highlighted, and effective pedagogical methods used in teacher activity are explained with examples. Also, positive self-esteem is interpreted as a key factor in developing students' self-confidence, self-awareness and independent thinking. During the study, the impact of positive self-esteem on students' activities, their ability to express their own opinions independently, gain confidence in their own strengths, self-awareness and self-development is revealed. At the same time, innovative pedagogical approaches, interactive methods, reflective exercises and motivational assessment systems used in teacher activity are analyzed based on examples.

Keywords: self-assessment, reflection, positive thinking, personal development, motivation, learning environment, pedagogical approach, student activity, international exchange of experience, Innovative educational technologies.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — barkamol, ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi va o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay oladigan shaxsni

tarbiyalashdir. Ta’lim sifati o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini egallash darajasi bilan bir qatorda, ularning o’ziga nisbatan munosabati, ya’ni o’zini baholay olish qobiliyati bilan ham belgilanadi.

O’zini baholash shaxs rivojining muhim psixologik ko’rsatkichi bo’lib, u insonning o’z imkoniyatlarini anglash, kamchiliklarini bartaraf etish va muvaffaqiyat sari intilishida asosiy omil hisoblanadi. Ayniqsa, maktab davrida shakllanadigan ijobiy o’zini baholash bola shaxsining keyingi rivojlanishida, uning ijtimoiylashuvida va o’qishga bo’lgan motivatsiyasida katta ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, o’qituvchining har bir pedagogik faoliyatida o’quvchilarda ijobiy o’zini baholashni shakllantirishga yo’naltirilgan yondashuvlarni to’g’ri tanlash, ularni rag’batlantirish, muvaffaqiyatni qadrlash va konstruktiv tanqid orqali o’sishga undash alohida o’rin tutadi.

Tadqiqot obyekti. Mazkur tadqiqotning obyekti — umumta’lim maktablarida ta’lim olayotgan o’quvchilarning shaxsiy rivojlanish jarayoni, ularning o’z-o’zini anglash, o’zini baholash hamda o’qituvchi bilan o’zaro pedagogik muloqotda bo’lish faoliyatidir.

Qo’llanilgan metodlar. Mazkur tadqiqotda o’quvchilarda ijobiy o’zini baholashni shakllantirish jarayonini o’rganish maqsadida turli ilmiy-pedagogik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Xususan, mavzuga oid ilmiy, psixologik va metodik adabiyotlarni **tahlil qilish**, o’zini baholash jarayonining mazmunini aniqlashda **qiyosiy taqqoslash**, xorijiy mamlakatlarda qo’llanilayotgan ilg’or tajribalarni **o’rganish**, ularning amaliy ahamiyatini **umumlashtirish** metodlari qo’llanildi.

Asosiy qism. O’quvchilarda ijobiy o’zini baholashni shakllantirish — bu o’quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish jarayonida eng muhim psixologik va pedagogik vazifalardan biridir. O’zini baholay olish insonning o’z imkoniyatlarini to’g’ri anglash, kuchli va zaif tomonlarini farqlay bilish, o’z oldiga maqsad qo’yish va unga erishish yo’lida harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Bu jarayon shaxsning “men” konsepsiyasi, o’ziga bo’lgan ishonch va motivatsiya bilan bevosita bog’liqdir.

Ta’lim jarayonida o’quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki o’z faoliyatini tahlil qiluvchi, o’rganish jarayoniga faol ishtirokchi sifatida ham shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, o’quvchining o’zini baholay bilish malakasi uning o’qish motivatsiyasini oshiradi, o’z ustida ishlashga, mustaqil fikrlashga va ijobiy rivojlanishga turtki beradi. O’quvchi o’zini qanday ko’rsa, o’sha ko’rinishda shakllanadi. Agar bola o’zini ijobiy qabul qilsa, o’z imkoniyatlariga ishonsa, u o’rganishga ishtiyoq bilan yondashadi. Aksincha, o’zini past baholovchi bola o’z kuchiga ishonmaydi, muvaffaqiyatsizlikdan qo’rqadi va faoliyatda passiv bo’lib qoladi.

Ijobiy o’zini baholash – bu shunchaki o’ziga yaxshi baho berish emas, balki o’z imkoniyatlarini real baholagan holda o’z kuchiga ishonish, o’z kamchiliklarini tan olib, ularni bartaraf etishga intilish holatidir. Bunday sifat o’quvchilarda mustahkam ijtimoiy pozitsiyani, o’z fikrini erkin ifoda etish, tanqidni konstruktiv qabul qilish va o’z harakatlarini ongli nazorat qilish imkonini beradi.

O’quvchilarda ijobiy o’zini baholashni shakllantirish jarayoni murakkab, lekin izchil yondashuvni talab etuvchi pedagogik faoliyatdir. O’qituvchi bu jarayonda faqat bilim beruvchi emas, balki yo’naltiruvchi, maslahat beruvchi, psixologik qo’llab-quvvatlovchi shaxs sifatida namoyon bo’ladi. O’qituvchining so’zi, nutqi, munosabati va darsdagi psixologik muhit o’quvchining o’zini anglashiga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Masalan, o’qituvchining “Sen buni uddalading”, “Senga bu topshiriq juda yaxshi chiqdi”, “Yana biroz harakat qilsang, yanada yaxshi bo’ladi” kabi ijobiy fikrlari bolada ishonch uyg’otadi, shuningdek, ularning o’ziga nisbatan ijobiy munosabatini kuchaytiradi. Bu oddiy so’zlar o’quvchining ichki motivatsiyasini faollashtiradi, o’qishga bo’lgan qiziqishini oshiradi va o’zini qadrlash tuyg’usini mustahkamlaydi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, o’zini baholashni shakllantirish jarayoni to’rtta asosiy bosqichdan iborat bo’lishi mumkin. Dastlabki bosqichda o’quvchi o’z faoliyatini anglashni boshlaydi, ya’ni o’z xatti-harakatlariga tahliliy yondasha oladi. Keyingi bosqichda u o’z bahosini o’qituvchi yoki tengdoshlari fikri bilan solishtiradi, bu esa refleksiya ko’nikmasini rivojlantiradi. Uchinchi bosqichda o’quvchi o’z kamchiliklarini aniqlab, ularni tuzatish yo’lida harakat qiladi. So’nggi bosqichda esa o’z yutuqlarini ijobiy mustahkamlash orqali barqaror o’zini baholash shakllanadi.

Bunday yondashuvda o’qituvchi har bir o’quvchini individual tarzda o’rganib, ularning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olishi zarur. Ba’zi o’quvchilar uchun tanqid rag’batlantiruvchi bo’lishi mumkin, boshqalar esa undan cho’chiydi. Shu sababli, pedagogning tili, ohangi va munosabati o’quvchi ruhiyatiga mos bo’lishi kerak.

O’quvchilarda o’zini baholashni shakllantirishda bir qator pedagogik yondashuvlar muhim rol o’ynaydi. Eng avvalo, bu shaxsga yo’naltirilgan yondashuvdir. Unga ko’ra, har bir o’quvchi individual shaxs sifatida qabul qilinadi, ularning o’rganish uslubi, qobiliyati, qiziqishlari hisobga olinadi. Bu yondashuvda o’quvchi o’qitish jarayonining markazida turadi. Shaxsga yo’naltirilgan ta’limda o’qituvchi o’quvchining faolligini qo’llab-quvvatlaydi, mustaqil fikrlash va o’zini ifoda etish imkoniyatini yaratadi.

Motivatsion yondashuv ham bu borada muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi baholashni faqat nazorat qilish vositasi emas, balki o'quvchini o'rganishga undovchi, unga ijobiy ruh bag'ishlovchi vosita sifatida qo'llashi kerak. Rag'batlantiruvchi so'zlar, kichik yutuqlarni e'tirof etish, o'quvchining harakatini qadrlash – bularning barchasi o'zini ijobiy baholashni mustahkamlaydi.

Refleksiv yondashuv esa o'quvchiga o'z faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Dars yakunida “Bugun nimalarni o'rgandim?”, “Nimasi qiyin bo'ldi?”, “Qanday yaxshilashim mumkin?” kabi savollar orqali o'quvchi o'z ishini mustaqil baholaydi. Bu esa uning tafakkurini, tanqidiy fikrlashini va o'z faoliyatiga nisbatan mas'uliyatini rivojlantiradi.

Hamkorlikka asoslangan yondashuvda esa o'qituvchi va o'quvchi o'rganish jarayonining teng huquqli ishtirokchilariga aylanadi. O'qituvchi o'z bilimini o'quvchi bilan birga izlaydi, unga yo'l ko'rsatadi. Bunday muhitda o'quvchi o'z fikrini erkin ayta oladi, tanqidni dushmanlik emas, balki o'sish imkoniyati sifatida qabul qiladi.

Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar ham ijobiy o'zini baholashni rivojlantirishda samarali vosita bo'la oladi. Masalan, “Portfolio” usuli o'quvchining o'z faoliyati natijalarini tahlil qilib borishiga yordam beradi. U o'z yutuqlarini, xatolarini, o'zgarishlarini ko'rib turadi va bu orqali o'z o'sishini baholaydi. “O'zini baholash varaqalari” ham shunga o'xshash vazifani bajaradi: o'quvchi har bir dars yakunida o'z ishtirokini, faoliyatini “Men bajardim”, “Men yaxshilashim kerak” kabi mezonlar asosida tahlil qiladi.

Ijobiy o'zini baholashni rivojlantirishda sinfda yaratiladigan muhit ham katta ahamiyatga ega. Agar sinfda ishonch, hurmat va qo'llab-quvvatlash muhiti hukm sursa, o'quvchilar o'z fikrini ochiq aytadi, xatolardan cho'chimaydi. Aksincha, qo'rquv, tanqid va adolatsizlik muhitida esa bola o'z fikrini yashiradi, o'zini past baholaydi. Shuning uchun o'qituvchi sinfda har bir o'quvchi o'zini qadrlay, e'tiborga loyiq his qiladigan muhitni yaratishi kerak.

Baholash jarayonida o'qituvchi “xato qilding” kabi so'zlarni “buni boshqacharoq qilish mumkin”, “yana urinib ko'r, albatta chiqadi” degan shaklda ijobiy ifoda etishi zarur. Chunki bolalar ko'pincha tanqidni o'z shaxsiga qaratilgan deb qabul qiladilar. Konstruktiv, yumshoq, yo'naltiruvchi baholash o'quvchini himoyalangan, o'rganishga tayyor holatga keltiradi.

O'qituvchining ijobiy munosabati o'quvchilarning psixologik barqarorligini ta'minlaydi, ularni o'z kuchiga ishonishga o'rgatadi. Bu jarayonda o'qituvchining empatiyasi — ya'ni o'quvchini tushuna bilish, uning his-tuyg'ulariga e'tibor berish fazilati nihoyatda muhimdir. Empatik o'qituvchi o'quvchini faqat o'quvchi sifatida emas, balki shaxs sifatida ko'radi, u bilan ruhiy aloqani o'rnatadi.

Pedagogik amaliyotda ijobiy o'zini baholashni shakllantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi: rag'batlantirish tizimi (maqto'v, tabassum, ball yoki belgilar orqali e'tirof etish), jamoaviy muhokamalar, o'yin texnologiyalari, rolli o'yinlar va refleksiya mashg'ulotlari. Ayniqsa, kichik sinf o'quvchilarida bu usullar o'zini qadrlashni, o'z fikrini aytish jasoratini shakllantiradi.

O'rta va yuqori sinf o'quvchilari uchun esa mustaqil tahlil, o'zini baholash varaqalari, o'zaro baholash mashg'ulotlari, loyiha ishlari orqali ijobiy o'zini baholashni mustahkamlash mumkin. O'quvchilar o'z natijalarini ko'rib, o'z mehnatining samarasini his qilganda, ularning ichki motivatsiyasi kuchayadi.

Shunday qilib, ijobiy o'zini baholashni shakllantirish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki ijtimoiy moslashuv uchun ham muhimdir. O'zini qadrlaydigan bola boshqalarni ham hurmat qiladi, o'z fikrini himoya qila oladi, jamiyatda faol pozitsiyani egallaydi. O'qituvchi esa bu jarayonda yo'lbo'shchi, ruhlantiruvchi va ishonch manbai bo'lib qoladi.

O'qituvchining so'zida ishonch, munosabatida adolat, yondashuvda empatiya bo'lsa, har bir o'quvchi o'zini qadrlashni o'rganadi. Bu esa ta'limning eng oliy maqsadi — barkamol, o'ziga ishongan, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Olingan natijalar. 1. O'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir: Ijobiy o'zini baholashni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlar o'quvchilarda o'z kuchiga ishonchni oshiradi, o'z fikrini erkin ifoda etish, mas'uliyat bilan qaror qabul qilish kabi fazilatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

2. Ta'lim motivatsiyasining kuchayishi: Rag'batlantiruvchi baholash tizimlari va refleksiv mashg'ulotlar o'quvchilarda o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bu esa ularning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirib, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga zamin yaratadi.

3. O'z-o'zini anglash va tahlil qilish ko'nikmasi: Pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarga o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini baholash, o'zini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

4. Ijtimoiy faollik va muloqot madaniyati: Ijobiy o'zini baholashni shakllantirish jarayonida o'quvchilar jamoada ishlash, fikr almashish, boshqalarni qadrlash va o'z fikrini madaniyatli tarzda ifodalash ko'nikmalarini egallaydilar.

5. Pedagogik jarayon samaradorligining oshishi: O‘qituvchi tomonidan ijobiy tilda fikr bildirish, har bir o‘quvchi yutug‘ini e‘tirof etish, rag‘bat so‘zlarini qo‘llash orqali sinfda sog‘lom psixologik muhit yaratiladi. Natijada o‘quvchilarning o‘zini baholash darajasi oshib, ta‘lim jarayonining umumiy sifat ko‘rsatkichi yaxshilanadi.

Xulosa. O‘quvchilarda ijobiy o‘zini baholashni shakllantirish — bu shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan murakkab, ammo zaruriy pedagogik jarayondir. O‘zini baholay oladigan o‘quvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi, o‘z yutuq va kamchiliklarini tan oladi, o‘z ustida ishlashga intiladi. Bunday o‘quvchi nafaqat bilimli, balki hayotda mustaqil qaror qabul qila oladigan, o‘z kuchiga ishonadigan, ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanadi.

Ijobiy o‘zini baholash o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, motivatsiyani oshiradi, o‘qish jarayoniga ijobiy ruh bag‘ishlaydi. Shu bois har bir o‘qituvchi baholashni faqat nazorat yoki intizom vositasi sifatida emas, balki o‘quvchini rivojlantirish, rag‘batlantirish, o‘zini anglash va o‘ziga ishonchni mustahkamlash vositasi sifatida qo‘llashi zarur.

Mazkur jarayonda o‘qituvchining nutqi, munosabati, psixologik sezgirligi, ijobiy muhit yaratish mahorati alohida ahamiyatga ega. Har bir o‘quvchi o‘zini e‘tiborga loyiq, qadrlanadigan shaxs sifatida his qilgan taqdirdagina, unda ijobiy o‘zini baholash shakllanadi.

Demak, ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda ijobiy o‘zini baholashni shakllantirish — bu zamonaviy pedagogikaning asosiy maqsadlaridan biridir. Chunki ijobiy o‘zini baholay olgan o‘quvchi — bu o‘zini anglagan, jamiyatda o‘z o‘rnini topgan, mustaqil fikrlovchi va ma‘naviy yetuk shaxsdir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. *Yangi O‘zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumta‘lim tizimida ta‘lim sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2022.
4. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq.* – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
5. Hasanboyeva O., Yo‘ldosheva S. *Pedagogika nazariyasi va tarixi.* – Toshkent: Noshir, 2018.
6. Yo‘ldoshev J., Hasanboyeva O. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2019.
7. To‘raqulova Z. *O‘quvchilarda ijobiy motivatsiyani shakllantirishda pedagogik yondashuvlar.* – Toshkent: TDPU ilmiy axborotnomasi, 2021.
8. Nabiyeva M. *O‘quvchilarning o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari.* – “Ta‘lim taraqqiyoti” jurnali, №4, 2022.
9. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
10. Shodmonova S., Rasulova D. *Pedagogik psixologiya.* – Toshkent: TDPU, 2020.

O‘SPIRINLIK YOSHIDA SUITSIDAL XAVF OMILLARI: PSIXOSOTSIAL TAHLIL

Sadilloyev Odiljon Oripovich,

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

O‘spirinlik davrida suitsidal xavf omillarini psixosotsial jihatdan tahlil qilish ushbu yosh bosqichining murakkab ruhiy kechinmalari, identifikatsiya inqirozlari va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarni chuqur o‘rganishga qaratilgan. Mazkur davrda shaxsning o‘zini anglash jarayoni kuchayib, emotsional beqarorlik, o‘z-o‘zini baholashdagi tafovutlar, oilaviy va maktab muhitidagi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi suitsidal xatti-harakatlarning shakllanishida muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli o‘spirinlarning psixologik holati, ularning stressga bardoshliligi, kommunikativ ko‘nikmalari va empatik munosabatlari tizimli tarzda tahlil qilinishi zarur.

Tadqiqotning psixosotsial tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘spirinlarda suitsidal xavf individual-psixologik omillar depressiv holatlar, o‘zini rad etish hissi, ichki nizolar bilan bir qatorda, ijtimoiy muhitdagi bosim, oilaviy ziddiyatlar, internetdagi salbiy kontent ta‘siri hamda ijobiy ijtimoiy model yetishmovchiligi natijasida kuchayadi. Shu nuqtayi nazardan, profilaktik ishlar, psixologik treninglar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi tizimlarni takomillashtirish o‘spirinlarda hayotga ijobiy munosabatni shakllantirish, ularning psixik barqarorligini mustahkamlash va suitsidal xavfni kamaytirishda asosiy strategik yo‘nalish hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: suitsid, shaxs, omil, o‘spirin, beqarorlik, empatiya, depressiya, muhit, ijtimoiylashuv, nizo, ruhiy kechinma, shaxsiyat.

ФАКТОРЫ РИСКА СУИЦИДА В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ: ПСИХОСОЦИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Подростковый возраст представляет собой сложный этап психического развития, в котором резко усиливаются процессы самосознания, эмоциональной неустойчивости и поиска жизненного смысла. Анализ суицидального риска в данном периоде требует всестороннего психосоциального подхода, учитывающего как индивидуально-психологические, так и социальные детерминанты. Низкая самооценка, трудности в межличностных отношениях, дефицит поддержки со стороны семьи и образовательной среды, а также влияние негативного интернет-контента способствуют формированию аутоагрессивных тенденций. Поэтому особое внимание уделяется выявлению ранних признаков эмоционального неблагополучия и формированию у подростков устойчивых механизмов психологической защиты.

Психосоциальный анализ показывает, что факторы суицидального риска у подростков формируются на пересечении личностных и социокультурных влияний. Ключевыми становятся депрессивные состояния, внутренняя изоляция, чувство беспомощности, а также давление со стороны социальных сетей и сверстников. Профилактические меры, направленные на развитие позитивного мировоззрения, эмоциональной грамотности и коммуникативных навыков, являются важнейшими условиями укрепления психологической устойчивости личности и снижения вероятности суицидального поведения в подростковом возрасте.

Ключевые слова: самоубийство, индивид, фактор, подросток, нестабильность, эмпатия, депрессия, среда, социализация, конфликт, психологический опыт, личность.

SUICIDAL RISK FACTORS IN ADOLESCENCE: A PSYCHOSOCIAL ANALYSIS

Adolescence is a complex stage of psychological development characterized by heightened self-awareness, emotional instability, and an active search for identity and life meaning. The analysis of suicidal risk during this period requires a comprehensive psychosocial perspective that integrates both individual and environmental factors. Low self-esteem, difficulties in interpersonal communication, lack of family or educational support, and exposure to negative online influences significantly increase vulnerability to self-destructive behaviors. Therefore, early identification of emotional distress and the formation of strong psychological defense mechanisms are essential for prevention.

The psychosocial analysis reveals that suicidal risk factors among adolescents emerge from the intersection of personal and sociocultural dynamics. Depression, inner conflicts, feelings of helplessness, peer pressure, and virtual social comparison play a decisive role. Preventive efforts focusing on developing

positive life attitudes, emotional intelligence, and communication competence are crucial in strengthening adolescents' mental resilience and reducing the likelihood of suicidal behavior.

Keywords: *suicide, individual, factor, adolescent, instability, empathy, depression, environment, socialization, conflict, psychological experience, personality.*

Kirish. O'spirinlik davri inson hayotidagi eng muhim va mas'uliyatli bosqichlardan biri bo'lib, bu davrda shaxsning ruhiy, ijtimoiy hamda axloqiy rivojlanish jarayoni keskin faollashadi. Shaxs o'zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish, hayotiy maqsadlarni shakllantirish va o'z o'rnini topish istagida bo'ladi. Shu jarayonda hissiy beqarorlik, shubha, o'zini past baholash, jamiyat tomonidan qabul qilinmaslik qo'rquvi kabi holatlar tez-tez kuzatiladi. Bunday holatlar o'spirinlarda ichki nizolar, stress va o'z hayotiga nisbatan salbiy fikrlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Zamonaviy ijtimoiy hayotda raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va virtual muhitning keng tarqalishi o'spirinlarning psixologik holatiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Virtual muloqotdagi bosim, taqqoslash, ijobiy ijtimoiy model yetishmovchiligi hamda yolg'izlik hissi suitsidal fikrlarning shakllanishini kuchaytiradi. Shu sababli, bugungi kunda o'spirinlarning ruhiy holatini, ularning emotsional barqarorligini va ijtimoiy moslashuv jarayonini tizimli o'rganish zaruriyatga aylangan. Bu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shaxsning o'ziga nisbatan bo'lgan munosabatini, oilaviy qo'llab-quvvatlash darajasini va ijtimoiy ta'sir mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida yoshlarning psixologik salomatligini mustahkamlash, suitsidal xulq-atvorni erta aniqlash va profilaktika qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Prezidentimiz tashabbusi bilan yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, psixologik xizmatlarni rivojlantirish, ta'lim muassasalarida psixoprofilaktika dasturlarini kengaytirish ishlari tizimli yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, o'spirinlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida ruhiy qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish psixologik xavflarni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Suitsidal xavf omillarining psixosotsial tahlili yoshlarning hayotiy qadriyatlarini, kommunikativ ko'nikmalari, o'zini anglash darajasi hamda ijtimoiy munosabatlar sifatiga bog'liq holda o'rganilishi kerak. Shaxsning emotsional intellekti past bo'lgan hollarda stressni boshqarish qobiliyati sustlashadi, bu esa depressiv holatlar va o'ziga nisbatan negativ fikrlarning kuchayishiga olib keladi. Shu jihatdan, o'spirinlarda ijobiy hayotga qarashni, stressga bardoshlilikni va o'ziga ishonchni shakllantirish ijtimoiy-psixologik muhofaza mexanizmlarini mustahkamlashda asosiy omil sanaladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, o'spirinlik davrida suitsidal xatti-harakatlarning oldini olish, ularni keltirib chiqaruvchi psixosotsial omillarni aniqlash hamda samarali profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunda nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Bu boradagi izlanishlar o'spirinlarning ruhiy sog'lig'ini saqlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va kelajak hayotga ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, suitsidal xavf omillarining psixosotsial tahlili mavzusi psixologiya fanining dolzarb, amaliy va insonparvar yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tiborga loyiqdir.

Asosiy qism. O'zbekiston psixologiya maktabida o'spirinlik davridagi suitsidal xavf omillari, ularning psixologik profilaktikasi va ijtimoiy-ruhiy barqarorligini ta'minlash masalalari bir necha yillardan beri ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Jumladan, V.M. Karimova 2015-yilda o'spirinlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi va stress holatlari ularning emotsional beqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan(1). G'.Sattarova 2017-yilda o'spirinlarning o'zini baholashdagi tafovutlar, ichki nizolar va oilaviy munosabatlar suitsidal holatlarning shakllanishida muhim omil ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan(2). B.R. Qodirov 2019-yilda esa o'spirinlarda psixik stressni boshqarish, o'zini tuta bilish va affektiv nazoratni shakllantirish bo'yicha o'tkazgan trening dasturlari orqali suitsidal fikrlarning kamayishini ko'rsatgan. So'nggi yillarda Z.I. Ibodullayev 2022-yilda va N.Sh. Yuldasheva 2023-yilda yoshlar orasida psixologik inqiroz holatlari, depressiv kayfiyat va o'z-o'zini qadrsizlashtirish tendensiyalarining ortishi bilan bog'liq omillarni empirik tadqiqotlar asosida tahlil qilgan. Ushbu izlanishlar O'zbekiston ta'lim tizimida psixologik xizmatni takomillashtirish va suitsidal xavfni kamaytirishga qaratilgan muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Rossiya, Qozog'iston va Belarus olimlari o'spirinlarda suitsidal xavfning shakllanish mexanizmlarini ko'p qirrali yondashuv asosida o'rganib kelishmoqda. E.G. Eydemiller 2005-yilda oila ichidagi emotsional sovuqlik va avtoritar tarbiya uslubining o'spirinlarda o'z joniga qasd qilish fikrlarini kuchaytirishini aniqlagan (4). A.Y. Varga 2008-yilda esa ota-ona va bola o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik bog'liqlik darajasining pastligi suitsidal xatti-harakatlarning muhim determinanti ekanini ta'kidlagan (5). N. Tolstux 2011-yilda o'spirinlik inqirozida identifikatsiya va o'zini topish jarayonining buzilishi suitsidal xavf bilan bog'liqligini aniqlagan (6). I.V. Dubrovina 2016-yilda va L.I. Bojovich 2018-yilda o'spirinlarning ichki

motivatsion tizimlari, ijtimoiy moslashuv va affektiv beqarorlikni tahlil qilib, psixologik yordamning ijtimoiy moslashuvga yo'naltirilgan shakllarini taklif etganlar (7). So'nggi yillarda T.A. Gurko 2021-yilda tomonidan Rossiyada o'spirinlar orasida internet ta'siri va kiberbosim omillarining suitsidal fikrlarga olib kelish mexanizmlari psixodiagnostik jihatdan o'rganilgan.

Xalqaro miqyosda o'spirinlik davrida suitsidal xavf omillarini o'rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlandi. E. Durkgeim 1897-yilda o'zining “Suicide” asarida suitsidal xatti-harakatlarning ijtimoiy integratsiya darajasi bilan bevosita bog'liqligini nazariy asosda ko'rsatgan(9). Keyinchalik A. Bek 1967-yilda depressiv fikrlash va o'zini qadrsiz his qilish suitsidal tendensiyalarni kuchaytirishini kognitiv model orqali izohlagan. T. Joiner 2005-yil “Interpersonal-Psychological Theory of Suicide” nazariyasida o'zini keraksiz his qilish va ijtimoiy ajralishning suitsidal xulqqa asosiy sababchi ekanini ta'kidlagan. M. Linehan 2010-yilda o'spirinlar uchun dialektik-behavioral terapiya DBT-yilda usullarini ishlab chiqib, o'z joniga qasd qilish xavfini kamaytirishga qaratilgan amaliy dasturlarni yaratgan. Yaqinda WHO 2021-yil va UNICEF 2022-yildagi hisobotlarida esa dunyo bo'yicha o'spirinlar orasida suitsidal holatlar 15–19 yosh oralig'ida yuqori darajada ekanligi, bu esa global psixologik profilaktikaning dolzarbligini tasdiqlaydi(14).

Mazkur tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek, MDH va jahon olimlarining tadqiqotlari bir nuqtada — o'spirinlik davrining ruhiy beqarorlik davri sifatida suitsidal xavf omillari bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Shuningdek, barcha yondashuvlar psixosotsial qo'llab-quvvatlov, emotsional intellektni rivojlantirish va psixologik yordam tizimini kuchaytirish suitsidal xatti-harakatlarni kamaytirishda eng samarali yo'l ekanini ko'rsatmoqda. Shu bois, ushbu ilmiy yo'nalishning rivoji milliy psixologiya va amaliy psixoprofilaktika uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'spirinlik davri inson ruhiy rivojlanishining eng murakkab va mas'uliyatli bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda shaxsning o'zini anglash, mustaqil fikrlash, hayotga nisbatan munosabatni shakllantirish, ijtimoiy qadriyatlarga moslashish va o'z “Men”ini topish jarayonlari faol kechadi. Shu bois bu bosqichda emotsional beqarorlik, ichki ziddiyatlar, o'zini rad etish, o'ziga ishonchsizlik va hayotdan norozilik kabi holatlar tez-tez kuzatiladi. Bunday holatlar o'spirinning ruhiy muvozanatini izdan chiqarib, suitsidal fikrlar, o'z joniga qasd qilish xohishlari yoki o'ziga zarar yetkazuvchi xulq-atvor shakllanishiga olib kelishi mumkin. O'spirinning ruhiy olami aynan shu davrda sezgir va tashqi ta'sirlarga juda ochiq bo'ladi.

Suitsidal xatti-harakatlarning shakllanishida psixologik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy va oilaviy muhitning roli ham nihoyatda katta. Ota-onalar o'rtasidagi ziddiyatlar, mehr yetishmasligi, haddan ortiq tanqidiy yoki befarq munosabat o'spirinning ruhiy dunyosida o'zini qadrsiz his qilish, rad etilganlik va yolg'izlik hissinı kuchaytiradi. Aksincha, mehrga asoslangan oilaviy muhit, e'tiborli ota-ona, farzandni tinglay bilish va unga ishonch bildirish o'spirinning psixologik barqarorligini ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, oila suitsidal xavfni kamaytiruvchi eng muhim ijtimoiy himoya tizimi sifatida qaraladi.

Ijtimoiy muhit, ayniqsa tengdoshlar guruhi va ta'lim muassasalaridagi munosabatlar ham suitsidal xavf omillari qatoriga kiradi. Maktab yoki kollejda kamsitilish, tazyiq, befarqlik yoki ijtimoiy izolyatsiya o'spirin ongida o'ziga nisbatan salbiy baho shakllanishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, virtual makon – ijtimoiy tarmoqlar, internetdagi salbiy kontent, suitsidal sahifalar yoki o'z joniga qasd qilishni “qahramonlik” sifatida ko'rsatuvchi materiallar – o'spirinlar uchun ruhiy tahdid manbaiga aylanmoqda. Axborot oqimining tezligi va filtrlanmagan mazmuni o'spirinning hissiy barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi, bu esa zamonaviy davrda suitsidal xavfning global ijtimoiy muammoga aylanishiga olib kelmoqda.

Suitsidal xavf omillari orasida psixologik jihatdan eng muhimlari – past o'zini baholash, depressiv kayfiyat, stressga bardoshlilikning sustligi va emotsional intellektning rivojlanmaganligidir. O'zini qadrlamaydigan, hayotda ma'no topa olmayotgan, ichki ziddiyatlarni hal qila olmaydigan o'spirinlarda o'ziga nisbatan befarqlik va rad etilganlik hissi kuchayadi. Ayni paytda, bunday holatlarda o'spirinning muammolariga e'tibor qaratish, psixologik qo'llab-quvvatlash va suhbat orqali ichki kechinmalarni yengillashtirish katta ahamiyatga ega. O'spirin ruhiyatidagi suitsidal fikrlar doimiy holat emas, balki vaqtinchalik psixologik inqiroz belgisi ekanini anglash muhimdir.

Shu bois, o'spirinlik davrida suitsidal xavf omillarini kamaytirish uchun ijtimoiy, psixologik va pedagogik tizimlar o'zaro hamkorlikda ishlashi zarur. Maktab psixologlari, o'qituvchilar, ota-onalar va ijtimoiy xodimlar birgalikda o'spirinlarga psixologik yordam ko'rsatish, ijobiy kommunikatsiyani rivojlantirish va stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratishlari kerak. Shu bilan birga, o'spirinlarda hayot mazmunini anglash, maqsad sari intilish, o'zini qadrlash va o'zini boshqalar bilan solishtirmaslik madaniyatini rivojlantirish suitsidal xavfni kamaytiruvchi eng muhim psixoprofilaktik yo'nalishlardan biridir.

Shuningdek, o'spirinlik davrida suitsidal xavfni chuqurlashtiruvchi omillar orasida madaniy-axloqiy qadriyatlarning susayishi va ma'naviy bo'shliq ham alohida o'rin tutadi. Shaxsiy muvaffaqiyatni faqat

moddiy mezonlar bilan o'lovchi muhitda o'spirin o'zini “muvaqqiyatsiz” deb his qiladi va o'z mavjudligini keraksiz deb biladi.

Umuman olganda, o'spirinlik davrida suitsidal xavf masalasi shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy darajalarda chuqur o'rganishni talab qiladigan murakkab psixosotsial muammodir. Insonparvarlik, ruhiy sog'lomlik va ijtimoiy birdamlik tamoyillariga asoslangan yondashuvga bu xavfni kamaytirish va o'spirinlarning hayotga ijobiy qarashini shakllantirish imkonini beradi. Shu tariqa, yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, ularni hayotga muhabbat ruhida tarbiyalash va ularning ichki dunyosiga e'tibor qaratish jamiyat barqarorligi uchun eng muhim psixologik va ma'naviy asoslardan biridir.

1-jadval.

O'spirinlik davrida suitsidal xavf omillari va ularning psixosotsial ta'siri

№	Omil turi	Omil nomi	Psixosotsial mazmuni	Izoh
1	Ichki psixologik omillar	Emotsional beqarorlik	Kayfiyatning tez o'zgarishi, affektiv portlashlarga moyillik	Ruhiy muvozanatning yo'qolishi suitsidal fikrlarni rag'batlantiradi.
		O'zini past baholash	O'zini qadrsiz his qilish, o'ziga ishonchsizlik	O'z joniga qasd qilish fikrining kognitiv zaminini yaratadi.
		Depressiv holatlar	Hayotdan norozilik, maqsadsizlik, umidsizlik	Psixik inqiroz holatida o'zini rad etish kuchayadi.
2	Oilaviy omillar	Mehr yetishmasligi	E'tibor va emotsional ilqlikning yo'qligi	Bolada “men keraksizman” hissi shakllanadi.
		Ota-ona ziddiyatlari	Oila ichidagi doimiy nizolar, agressiv muhit	Ruhiy xavfsizlik hissi yo'qoladi, stress kuchayadi.
		Qo'llab-quvvatlovchi muloqot mavjudligi	Ota-ona farzandni tinglay oladi, unga ishonadi	Ijobiy aloqa suitsidal xavfni pasaytiradi.
3	Ijtimoiy omillar	Tengdoshlar bosimi	Kamsitish, masxara qilish, ijtimoiy izolyatsiya	“Jamiyatga keraksiz” hissi kuchayadi.
		Maktab muhiti	Ijobiy psixologik iqlim, o'qituvchi e'tibori	Ruhiy barqarorlikni ta'minlaydi.
		Internet va kiberbosim	Virtual tarmoqlarda salbiy kontent va suitsidal targ'ibot	Hissiy ta'sir kuchli, taqlid tendensiyasi ortadi.
4	Shaxsiy rivojlanish omillari	Maqsadlilik va hayotiy motivatsiya	Hayotga ijobiy munosabat, orzular va rejalarining mavjudligi	Hayot mazmunini anglagan shaxs suitsidal fikrlardan yiroq bo'ladi.
		Stressga bardoshlilik	Qiyinchiliklarga qarshi psixologik tayyorgarlik	Psixik immunitetni kuchaytiruvchi omil hisoblanadi.
		Emotsional intellekt	O'z hissiyotini boshqarish va boshqalarni tushunish qobiliyati	Empatiya va ijobiy muloqot ruhiy salomatlikni mustahkamlaydi.

Jadval ma'lumotlarini chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'spirinlik davrida suitsidal xavfning shakllanishi — bu bir vaqtning o'zida psixologik, ijtimoiy va oilaviy omillarning o'zaro ta'siridan iborat murakkab tizimdir. Har bir omil o'spirinning ichki ruhiy holatiga, o'zini anglash darajasiga va ijtimoiy moslashuv imkoniyatlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Eng yuqori foiz ko'rsatkichlari “emotsional beqarorlik” va “o'zini past baholash” kabi ichki psixologik omillarga to'g'ri keladi. Bu shuni anglatadiki, o'spirinning suitsidal xavfi ko'p hollarda tashqi omillardan emas, balki ichki ruhiy muvozanatning buzilishidan, affektiv barqarorlikning yetishmasligidan kelib chiqadi. Emotsional beqarorlik, odatda, gormonal o'zgarishlar, stress, o'zini jamiyatda topa olmaslik yoki shaxslararo nizolar natijasida yuzaga keladi. Shu sababli o'spirinlarda hissiyotlarni boshqarish, o'zini anglash va o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirish suitsidal fikrlarni kamaytirishda asosiy yo'nalish hisoblanadi.

Oilaviy omillar jadvalda alohida e'tibor qaratilgan muhim bloklardan biridir. “Mehr yetishmasligi” va “ota-ona o'rtasidagi ziddiyatlar” o'spirin ruhiyati uchun eng xavfli ijtimoiy stressorlar hisoblanadi. Bu omillar bolaning ichki emotsional xavfsizlik hissinı buzadi, unga “men keraksizman” degan noto'g'ri e'tiqodni singdiradi. O'spirin shunday vaziyatda o'z joniga qasd qilishni azobdan qutulish yo'li sifatida qabul qilishi mumkin. Shu bois, oilaviy muhitda ijobiy psixologik iqlim yaratish, mehr, e'tibor va ishonch

asosida muloqot oʻrnatish oʻspirinlarda suitsidal xavfni sezilarli darajada kamaytiradi. Aksincha, avtoritar, jazolovchi yoki befarq ota-ona uslubi bolaning ruhiy muvozanatini yanada izdan chiqaradi. Shuning uchun psixoprofilaktika ishlarida oilaviy psixologik treninglar, suhbatlar va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash dasturlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy omillar orasida “tengdoshlar bosimi” va “internet-kiberbosim” zamonaviy davrda suitsidal xavfning eng yangi va keng tarqalgan koʻrinishlari sifatida ajralib turadi. Oʻspirin shaxsining psixologik xususiyati shundaki, u oʻzini atrofdagilar bilan taqqoslashga, jamiyatda oʻz oʻrnini topishga intiladi. Shu jarayonda agar u doimiy ravishda kamsitish, rad etish yoki izolyatsiyaga duch kelsa, u holda ijtimoiy befoydalik hissi kuchayadi. Bu ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda oʻzini boshqalar bilan solishtirish, “ideal hayot” tasvirlariga taqlid qilish orqali psixik bosim ostida qolayotgan yoshlar orasida kuchli kuzatilmoqda. Shunday qilib, internet makoni oʻspirin ruhiyatiga ikki yoʻnalishda taʼsir qiladi: bir tomondan, u ijtimoiy qoʻllab-quvvatlov manbai boʻlishi mumkin, ikkinchi tomondan esa, notoʻgʻri axborot va suitsidal kontentlar oʻspirin ongini chalgʻitadi va salbiy his-tuygʻularni kuchaytiradi.

Shaxsiy rivojlanish omillari esa suitsidal xavfni kamaytiruvchi himoya mexanizmlarining markazida turadi. “Maqsadlilik va hayotiy motivatsiya”, “stressga bardoshlilik” hamda “emotsional intellekt” kabi koʻrsatkichlar oʻspirin ruhiyatining barqarorligini belgilovchi asosiy mezonlardir. Hayotda aniq maqsadga ega, orzularini roʻyobga chiqarish yoʻlida harakat qilayotgan oʻspirinlar suitsidal fikrlardan yiroq boʻladilar, chunki ular hayotning mazmunini his qiladilar. Stressga bardoshli oʻspirin esa qiyinchiliklarni tabiiy jarayon sifatida qabul qilib, ularni bartaraf etish yoʻlini izlaydi, oʻz his-tuygʻularini boshqarishni oʻrganadi. Emotsional intellekti rivojlangan shaxs oʻz hissiyotlarini toʻgʻri anglaydi, boshqalarning tuygʻularini sezadi va ijtimoiy muammolarga konstruktiv yondashadi — bu esa suitsidal xavfga qarshi eng samarali ruhiy immunitetdir.

Jadvalda keltirilgan omillar oʻspirinlik davridagi suitsidal xavfning psixosotsial mexanizmlarini aniq koʻrsatib beradi. Shaxsda ichki barqarorlikni mustahkamlash, oilada iliq muhit yaratish, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlov tizimini kengaytirish hamda yoshlar ongiga hayotning maʼnaviy va ijtimoiy qadriyat sifatida singdirish suitsidal xavfni kamaytirishning asosiy shartlaridir. Shu sababli, bu jadval nafaqat ilmiy tahlil vositasi, balki amaliy psixoprofilaktika strategiyasini shakllantirish uchun ham metodologik asos boʻlib xizmat qiladi.

Oʻspirinlik davrida suitsidal xavf omillarini psixosotsial jihatdan tahlil qilish natijalari shuni koʻrsatadiki, ushbu davr inson hayotining eng nozik, ziddiyatli va ruhiy jihatdan beqaror bosqichlaridan biridir. Bu bosqichda shaxs oʻzini anglash, mustaqillikka intilish, ijtimoiy qadriyatlarga munosabat bildirish va hayotdagi oʻz oʻrnini topish jarayonlarini boshdan kechiradi. Shu sababli, har qanday ijtimoiy-psixologik beqarorlik, oilaviy ziddiyat, ijtimoiy tazyiq yoki emotsional qoʻllab-quvvatlov yetishmasligi oʻspirin ruhiyatiga kuchli salbiy taʼsir koʻrsatadi. Natijada, oʻzini qadrsiz his etish, umidsizlik, ijtimoiy ajralish va depressiv holatlar suitsidal fikrlarning shakllanishiga olib keladi.

Mazkur mavzu tahlili shuni anglatadiki, suitsidal xavf omillarini bir tomonlama — faqat individual yoki ijtimoiy omillar bilan bogʻlash toʻgʻri emas. Aksincha, bu hodisa shaxsning ichki psixologik holati bilan bir qatorda, oilaviy munosabatlar sifati, taʼlim muassasalaridagi psixologik iqlim, tengdoshlar guruhi taʼsiri va ommaviy axborot vositalari orqali shakllanayotgan ijtimoiy bosimlar oʻrtasidagi murakkab oʻzaro taʼsir natijasidir. Shu bois, suitsidal xavfni kamaytirish uchun kompleks yondashuv — yaʼni psixologik, pedagogik, ijtimoiy va maʼnaviy choralarni uygʻunlashtirgan tizim zarur.

Oʻspirinlarda suitsidal fikrlarning oldini olishda oila asosiy himoya instituti sifatida hal qiluvchi oʻrin tutadi. Ota-onaning mehr-muhabbati, muloqotdagi samimiylik, bolaga ishonch bildirish va uni tinglay bilish — bu ruhiy barqarorlikning poydevoridir. Shu bilan birga, taʼlim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish, oʻqituvchilarni ruhiy profilaktika masalalariga oʻqitish, ijtimoiy tarmoqlarda sogʻlom gʻoyalarni targʻib etish va yoshlar uchun motivatsion dasturlar yaratish zaruriy ehtiyojga aylangan.

Shaxsiy darajada esa oʻspirinlarda hayotiy maqsadni anglash, stressni boshqarish, oʻzini qadrlash va emotsional intellektini rivojlantirish suitsidal xavfni kamaytiruvchi eng muhim psixologik himoya mexanizmlaridir. Hayotga ijobiy qarash, oʻzini jamiyatning bir qismi sifatida his qilish, oʻz orzu va niyatlariga ishonch bilan intilish ruhiy salomatlikni mustahkamlaydi.

Oʻspirinlik davrida suitsidal xavf — bu nafaqat shaxsning individual muammosi, balki butun jamiyatning ijtimoiy-psixologik salomatligi bilan bogʻliq dolzarb masaladir. Uni kamaytirish uchun insonparvarlik, maʼnaviylik va ruhiy qoʻllab-quvvatlov tamoyillariga asoslangan tizimli ishlar olib borish zarur. Har bir oʻspirin oʻz hayotining qadrini, mazmunini va jamiyatdagi oʻrnini anglagandagina suitsidal xavf keskin kamayadi, sogʻlom, barqaror va maʼnaviy yetuk avlod tarbiyasiga zamin yaratiladi.

Oʻspirinlarda suitsidal xavfni kamaytirish uchun, avvalo, taʼlim muassasalarida psixologik qoʻllab-quvvatlov tizimini kuchaytirish, oʻquvchilar ruhiy holatini muntazam kuzatish va erta ogohlantiruvchi

diagnostika usullarini joriy etish zarur. Har bir maktabda malakali psixologlar faoliyat yuritib, o‘quvchilar bilan individual suhbatlar o‘tkazishlari lozim. Oila suitsidal xavfni kamaytiruvchi eng muhim omil bo‘lib, ota-onalar farzandlari bilan samimiy muloqot o‘rnatishlari, ularni tinglash va tushunishga harakat qilishlari kerak. Mehrli va ishonchli oilaviy muhit o‘spirinning ruhiy barqarorligini ta‘minlaydi va depressiv holatlarning oldini oladi. Ijtimoiy muhitda sog‘lom psixologik iqlim yaratish ham muhim. Maktab va kollej jamoalarida o‘zaro hurmat, birdamlik va do‘stlikni targ‘ib etuvchi ijtimoiy tadbirlar, shuningdek, kamsitish va befarqlikka qarshi profilaktik ishlar olib borilishi kerak.

Xulosa. Internet makonida yoshlarni kiberbosim va suitsidal kontentlardan himoya qilish uchun axborot madaniyatini oshirish, ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirish lozim. Shuningdek, o‘spirinlar uchun “Hayotni qadrlayman” kabi motivatsion treninglar, stressni yengish mashg‘ulotlari va ijobiy fikrlashga o‘rgatuvchi dasturlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Suitsidal xavfni kamaytirish uchun oila, ta‘lim muassasalari va jamiyat o‘rtasida uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, yoshlarni mehr, ishonch va ma‘naviy qadriyatlarga tayangan holda tarbiyalash zarur. Shu yo‘l bilan o‘spirinlarda hayotga ijobiy munosabat, ruhiy barqarorlik va kelajakka ishonchni mustahkamlash mumkin.

Adabiyotlar:

1. Karimova V. M. Psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. – 350 b.
2. Sattarova G‘. O‘spirinlarning ruhiy rivojlanishida oilaviy muhitning ahamiyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 268 b.
3. Yuldasheva N. Sh. Yoshlar psixologiyasida suitsidal xavf omillarining tahlili. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2023. – 176 b.
4. Эйдемиллер Э. Г., Юстицкис В. В. Психология и психотерапия семьи. – Москва: Академический проект, 2005. – 384 с.
5. Варга А. Я. О родительской любви: Психологические исследования взаимоотношений в семье. – Москва: Институт практической психологии, 2008. – 256 с.
6. Толстых Н. Подростковый кризис: Проблемы идентичности и самосознания. – Москва: Педагогика, 2011. – 220 с.
7. Божович Л. И. Личность и её формирование в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 2018. – 344 с.
8. Гурко Т. А. Психологические аспекты интернет-зависимости у подростков. – Москва: Психология и общество, 2021. – №2. – С. 45–52.
9. Durkheim É. Le Suicide: Étude de sociologie. – Paris: Félix Alcan, 1897. – 462 p.
10. Beck A. T. Depression: Clinical, Experimental, and Theoretical Aspects. – New York: Harper & Row, 1967. – 370 p.
11. Joiner T. Why People Die by Suicide. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2005. – 304 p.
12. Linehan M. Cognitive-Behavioral Treatment of Borderline Personality Disorder. – New York: Guilford Press, 2010. – 558 p.
13. World Health Organization (WHO). Suicide Worldwide in 2021: Global Health Estimates. – Geneva: WHO Press, 2021. – 72 p.
14. UNICEF. Adolescent Mental Health Report 2022: Global Overview and Recommendations. – New York: UNICEF Publications, 2022. – 88 p.

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI MUSTAQIL TA‘LIMINI
TASHKIL ETISHDA ARALASH TA‘LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH USULI**

*Saidova Nilufar Ro‘zimurotovna,
Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti*

Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta‘limini tashkil etish muammolari va ularning yechimlariga doir tahlil ma‘lumotlari keltirilgan. Shuningdek, oliy ta‘lim muassasalari ta‘lim va tarbiya jarayoniga aralash ta‘lim texnologiyalarini qo‘llashga oid tadqiqotchilarning ishlari tahlil etilgan hamda kredit-modul tizimi sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta‘limini va ishini tashkil etish muammolari o‘rganilgan. Ushbu muammoning yechimi sifatida, ya‘ni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta‘limini aralash ta‘lim texnologiyasi asosida tashkil etish tuzilmasi, undan foydalanish usullari berib o‘tilgan. Shu bilan birga mazkur maqolada, tadqiqot doirasida taklif etilgan tuzilmani samaradorligini aniqlash bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borilgan hamda uning ishonchlilik darajasi Student-Fisher kriteriyasidan foydalanib isbotlangan.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiya, elektron ta‘lim, aralash ta‘lim, kredit-modul, tuzilma, ta‘lim muhiti, tajriba-sinov, Student-Fisher.

**МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СМЕШАННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ В ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

В данной статье представлена аналитическая информация о проблемах организации самостоятельного обучения будущих учителей начальной школы и путях их решения. Также анализируются работы исследователей и учёных по применению технологий смешанного обучения в образовательном процессе высших учебных заведений, изучаются проблемы организации самостоятельного обучения и работы будущих учителей начальной школы в условиях кредитно-модульной системы. В качестве решения данной проблемы предлагается структура организации самостоятельного обучения будущих учителей начальной школы на основе технологий смешанного обучения и методика её применения. В рамках исследования проведена педагогическая экспериментальная работа по определению эффективности предлагаемой структуры, доказана её надёжность с использованием критерия Стьюдента-Фишера.

Ключевые слова: информационные технологии, электронное обучение, смешанное обучение, кредитно-модульная система, структура, образовательная среда, эксперимент-тест, Стьюдент-Фишер.

**METHOD OF USING BLENDED EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN ORGANIZING
INDEPENDENT EDUCATION OF FUTURE PRIMARY TEACHERS**

This article presents analytical information on the problems of organizing independent education of future primary school teachers and their solutions. Also, the work of researchers and scientists on the application of blended learning technologies in the educational process of higher educational institutions is analyzed, and the problems of organizing independent education and work of future primary school teachers in the context of the credit-module system are studied. As a solution to this problem, a structure for organizing independent education of future primary school teachers based on blended learning technologies and methods of using it are given. At the same time, in this article, pedagogical experimental work was carried out to determine the effectiveness of the proposed structure within the framework of the study, and its reliability was proven using the Student-Fisher criterion.

Keywords: information technology, e-learning, blended learning, credit-module, structure, learning environment, experiment-test, Student-Fisher.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalari kredit-modul tizimiga o‘tkazilganligi sababli auditoriya mashg‘ulotidan kam bo‘lmagan soat mustaqil ta‘limga ajratilgan. Bu o‘z navbatida bo‘lajak mutaxassislarni, xususan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mustaqil ta‘limini tashkil etish tizimini takomillashtirish muammosi mavjudligini anglatadi. Ushbu muammoni bartaraf etish usullaridan biri,

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mustaqil ta'limini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan, jumladan aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanish taqozo etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mustaqil ta'limiga aralash ta'lim texnologiyasini faol joriy etilishi, nafaqat ularning kognitiv qiziqishini rivojlantirish muammosini hal qilishga, balki o'quv-kognitiv faoliyatni boshqarishning tubdan yangi imkoniyatlarini ochishga, shuningdek, ta'lim va tarbiya ishlarining samaradorligini oshirishga imkon beradi.[1]


Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Aralash ta'lim bugungi kunda tobora ommalashib borayotgan o'qitish shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu shakldagi o'qitish jarayonida talaba global tarmoqning manzillarida joylashtirilgan ta'lim muhitlaridan foydalangan holda mustaqil ta'lim oladi, agar tushunmaydigan savollar tug'lsa guruhi bo'lib onlayn va oflayn maslahatlashadi hamda professor-o'qituvchi tomonidan yordam ko'rsatiladi [4]. Guruhli mashg'ulotlar davomida aralash ta'limning qo'llanilishi tufayli har bir talaba o'quv-ma'lumotlarini o'zlashtirish borasida o'zida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni namoyon etgan holda muloqot ko'nikmalarini o'zlashtirib boradi, o'tilgan o'quv-ma'lumotlarni takrorlaydi va yangi mavzuni o'rganish uchun tayyorlanadi [5]. Aralash ta'lim ko'p holatlarda topshiriqlarga tayanadi va asosiy, muhim ma'lumotlar negizida tashkil etiladi, qo'shimcha ma'lumotlar esa talabaga onlayn platformalar orqali tarqatiladi [6]. Talaba ushbu muhitlardan foydalanib mustaqil ta'lim olar ekan, guruhning a'zolari bilan onlayn rejimda tashkil etilayotgan muhokamada ishtirok etish orqali hamkorlik qiladi. Shuningdek, ta'limning turli bosqichlarida masofaviy va mustaqil ta'lim samarali ravishda uyg'unlashtiriladi [7].

Bu borada, G.R.Shodiyevaning bildirishicha, aralash ta'lim texnologiyasi – bu qisman elektron va onlayn formatda o'qitishga mo'ljallangan texnologiyadir. Bunda talabalar qisman mustaqil ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladi [4]. M.Eryilmaz Mijares Illiana [5]ning fikriga ko'ra, aralash ta'lim – bu elektron va an'anaviy ta'limning integratsiyalash asosida mashg'ulotlarni hamda talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyadir. W.Deechaining ta'biri bilan aytganda, aralash ta'lim – bu turli resurslarni, xususan, yuzma-yuz o'quv mashg'ulotlari va elektron ta'lim elementlarini o'zaro integratsiyalash asosida o'rganish usulidir [6]. V.I.Blinov [7], M.L.Kondakova [9], A.O.Norbekov [10]larning fikriga ko'ra, aralash ta'lim texnologiyasining asosiy vazifasi global tarmoqning manzillarida joylashtirilgan turli axborot-ta'lim muhitlaridan, ta'lim platformalardan va ta'limga oid web-saytlardan foydalanib o'qitishni nazarda tutib, masofaviy ta'lim uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Shuningdek, auditoriyada o'qitish va elektron muhitda ta'lim olishni o'zaro uyg'unlashtiradi hamda talabalarining fanga oid egallagan bilimni mustaqil sinab ko'rish imkonini beradi [8].

Aralash ta'limni yuqorida keltirilgan imkoniyatlarini tahlil etish asosida aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish lozim. Bunda quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:

- har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini faniga oid kerakli ko'nikma va malakalarni qulay formatda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- professor-o'qituvchi va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faol ijtimoiy o'zaro munosabati yuzaga keladi;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'lim olishini didaktik yondashuvlarning xilma-xilligi ta'minlanadi;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar tomonidan zamonaviy mehnat, aloqa vositalarini tashkil etish rivojlanadi;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mustaqil faoliyatini ustuvorligi oshadi;
- har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mustaqil o'quv faoliyatini individual qo'llab-quvvatlashni tashkil etadi;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mustaqil ta'limda fanni o'zlashtirishda jamoaviy o'quv faoliyatini tashkil etishni ta'minlaydi;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mustaqil ta'lim trayektoriyasiga moslashuvchanligi ta'minlanadi;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini onlayn va oflayn rejimda qayta foydalanish mumkin bo'lgan o'quv va uslubiy tarkibi integratsiyalanadi.

Natija. Olib borilgan izlanishlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mustaqil ta'limini aralash ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etishda quyidagi tuzilmadan foydalanish taklif etiladi.



1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mustaqil ta'limini aralash ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etish tuzilmasi

Bunda T – testlarni, R – Reproduktiv darajali topshiriqlarni, P – produktiv darajali topshiriqlarni, Q – qisman-izlanishli topshiriqlarni, K – kreativ darajali topshiriqlarni anglatadi.


Taklif etilayotgan tuzilmada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mustaqil ta‘limini aralash ta‘limning Flex modelidan foydalanish nazarda tutilgan. Buni uch bosqichda tashkil etish g‘oyasi ilgari surilgan. Birinchi bosqichda E-Learning, D-Learning, M-Learning o‘qitish tizimlari asosida nazariy o‘rganishga qaratilgan. Ikkinchi bosqichda to‘rt bosqichli topshiriqlarni bajarish taklif etilgan. Uchinchi bosqichda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining natijalarini baholashga qaratilgan.

Ushbu taklif etilayotgan tuzilmani samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Pedagogika tajriba-sinov ishlari Navoiy davlat universitetida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari jalb etilib, ular tajriba (62 nafar) va nazorat (67 nafar) guruhlariga ajratildi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning tajriba va nazorat guruhga ajratishda bilim darajasi bir xillilikka amal qilindi. Ularning natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tajriba boshidagi ko‘rsatkichlari									
Tajriba guruhi					Nazorat guruhi				
Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining umumiy soni	5 (a‘lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining umumiy soni	5 (a‘lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)
62	7	16	33	6	67	6	19	37	5

Ushbu 1-jadvaldagi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining natijalarini o‘zlashtirish dinamikasini quyida keltirilgan (2- rasmga qarang):



2-rasm. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tajriba boshidagi ko‘rsatkichlari

Mazkur tajriba-sinovga jalb etilgan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining natijalari tahlil etilib, ishonchliligini tekshirish maqsadida Student-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil etildi.

Mazkur kriteriyadan foydalanishda tanlanmalar uchun mos o‘rta qiymatlar $\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 n_i X_i$, tarqoqlik

koefitsiyentlarini $D_n = \sum_{i=1}^4 \frac{n_i (x_i - \bar{X})^2}{n-1}$, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini formuladan foydalanib hisoblandi.


Hisoblash natijasiga ko‘ra tajriba va nazorat guruhidagi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining natijalari deyarli bir xil ekanligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishining navbatdagi bosqichida tajriba guruhiga ajratilgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarga mustaqil ta'limi tadqiqot doirasida taklif etilgan tuzilmadan foydalanildi. Nazorat guruhiga ushbu imkoniyat berilmadi. Bunda, ya'ni tajriba oxirida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagi natijalarga erishildi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Tajriba guruhi					Nazorat guruhi				
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining umumiy soni	5 (a'lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining umumiy soni	5 (a'lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)
62	9	30	21	2	67	7	18	38	4

2-jadvalda keltirilgan natijalarini o'zlashtirish dinamikasini quyida keltirilgan (3- rasmga qarang)



3-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tajriba oxiridagi ko'rsatkichlari

Ushbu 2-jadvalda keltirilgan sonli ma'lumotlar yuqorida keltirilgan formulalar asosida hisoblandi. Hisoblash natijasiga ko'ra, tajriba guruhining o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi, ya'ni 8,1 % ga oshganligi ma'lum bo'ldi.

Muhokama. Mavzuga oid olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, auditoriyadan tashqari vaqtda professor-o'qituvchi va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'rtasidagi muloqot muhim sanaladi. Shuning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni mustaqil ta'limini samarali tshkil etishni zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq sanaladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni mustaqil ta'limini samarali tashkil etishni zamonaviy yondashuvi sifatida aralash ta'lim texnologiyalardan foydalanishni taklif etish mumkin.

Xulosa. Shunday qilib globallashuv sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni mustaqil ta'limini va ishini samarali tashkil etishda tadqiqot doirasida taklif etilgan tuzilmadan foydalanish taklif etiladi. Taklif etilayotgan tuzilma bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni mustaqil ta'limini tashkil etishda aralash ta'lim texnologiyasidan foydalanish nazarda tutilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari raqamli muhitda ta'lim olish orqali kasbiy kompetentligi rivojlanadi.

Adabiyotlar:

1. Mirsanov U. M. Uzluksiz ta'lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o'qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.

2. Шарапова Г.В. Иммунология фанини ўқитиш самарадорлигини оширишда электрон таълим ресурслардан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш (педагогика олий таълим муассасалари мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2022. – 159 б.
3. Auezova R. T. Bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’limini veb-kvest texnologiyasi asosida tashkil etish metodikasini takomillashtirish (informatika va raqamli texnologiya fani misolida) // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Nukus, 2024. – 152 b.
4. Shodiyeva G.R. Use of blended educational technology in developing students' competence in natural geography // The multidisciplinary journal of science and technology. – VOLUME-3, ISSUE-4. SSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, SJIF 2022-2.889, 2023-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2023. – P. 215-219.
5. Eryilmaz M. The Effectiveness of Blended Learning Environment / M. Eryilmaz // Contemporary Issues in Education Research. 2015. – Vol. 8. – No. 4. – P. 251-256.
6. Deechai W. The Need for Blended Learning Development to Enhance the Critical Thinking of Thai Vocational Students / W. Deechai, T. Sovajassatakul, S. Petsangsri // Mediterranean Journal of Social Sciences. – 2019. – Vol. 10. – No. 1. – P. 131-140.
7. Блинов В.И. Модели смешанного обучения: организационно-дидактическая типология / В.И. Блинов, Е.Ю. Есенина, И.С. Сергеев // Высшее образование в России. 2021. – Т. 30. – № 5. – С. 44-64.
8. Mijares Illiana. Blended learning: Are we getting the best from both worlds? Literature Review for EDST 561 [Электронный ресурс]. URL: <http://elk.library.ubc.ca/bitstream/handle/2429/44087/EDST561-LRfinal-1.doc.docx?sequence=1> (дата обращения: 03.08.2014).
9. Кондакова М. Л. Смешанное обучение; ведущие образовательные технологии современности / М. Л. Кондакова Е. В. Латыпова // Вестн. образования. – 2013.
10. Норбеков А.О. Педагогика олий таълим муассасаларида компьютер таъминоти фанини ўқитиш самарадорлигини ошириш методикаси // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган Диссертация. – Қарши, 2021. –171 б.

PEDAGOGIK JARAYONNING MOHIYATI

*Sattorova Malikaxon Abdug'affor qizi,
Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi
msattorova090@gmail.com*

Mazkur maqolada pedagogik jarayonning mohiyati, uning asosiy tarkibiy qismlari, bosqichlari, qonuniyatlari va zamonaviy yondashuvlar doirasidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, pedagogik jarayonda subyekt va obyektlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, metodik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarning ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola ta'lim sifatini oshirishda pedagogik jarayonni chuqur tushunish muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: pedagogik jarayon, ta'lim, tarbiya, subyekt, obyekt, metodlar, bosqichlar, pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, zamonaviy yondashuv.

СУЩНОСТЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА

В данной статье раскрыта сущность педагогического процесса, его основные компоненты, этапы, закономерности и роль в условиях современных образовательных подходов. Особое внимание уделено взаимодействию между субъектами и объектами педагогического процесса, а также значению методических и инновационных технологий. Подчеркивается важность глубокого понимания педагогического процесса для повышения качества образования.

Ключевые слова: Педагогический процесс, обучение, воспитание, субъект, объект, методы, этапы, педагогические технологии, инновации, современные подходы.

THE ESSENCE OF THE PEDAGOGICAL PROCESS

This article explores the essence of the pedagogical process, including its key components, stages, principles, and relevance within modern educational approaches. Special attention is given to the interaction between subjects and objects of the pedagogical process, as well as the role of methodological and innovative technologies. The article emphasizes the importance of understanding the pedagogical process for improving the quality of education.

Keywords: Pedagogical process, education, upbringing, subject, object, methods, stages, pedagogical technologies, innovation, modern approaches.

Kirish. Pedagogika insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, uning asosiy vazifasi yangi avlodni tarbiyalash, ularni hayotga tayyorlashdan iboratdir. Shu jihatdan pedagogik jarayonning mohiyatini anglash nafaqat pedagoglar, balki ta'lim siyosatini belgilovchi mutasaddilar uchun ham nihoyatda muhimdir. Pedagogik jarayon bu – shaxsni shakllantirishga, uning ijtimoiy tajribani egallashiga va rivojlanishiga yo'naltirilgan faoliyatlar tizimidir.

Pedagogika tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasi. Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslari bilan shug'ullangan. Zamonaviy pedagogika bolalar bilan birgalikda kattalarning ham o'quv-tarbiyaviy, madaniy hamda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi bilan shug'ullanishni ko'zda tutadi.

Pedagogika tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o'quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo'sinlarini belgilab beradi.

Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish pedagogikaning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi.

Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doir qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini ifoda etadi.

O'qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. Tarbiyalash va o'qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatлари

shakllantiriladi. Shaxsni tarbiyalash va o'qitish orqali o'zida oldin bo'lmagan ma'naviy-intellektual sifatlarga ega bo'ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo'ladi. Inson va uni shakllantirishga doir fan sifatida pedagogika falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik, psixologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, demografiya, tarix, adabiyot, tibbiyot, matematika va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq. Pedagogika fani va amaliyoti taraqqiyotida bu fanlarning nazariy asoslari, tadqiqot metodlari, ilmiy xulosalarni aniqlash, tahlil qilish hamda umumlashtirish usullaridan foydalanadi.

Asosiy qism. Pedagogik jarayon – bu ta'lim va tarbiyaning birligiga asoslangan murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, u inson shaxsini har tomonlama va uyg'un rivojlantirishga qaratilgan. U nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni, balki axloqiy, estetik, jismoniy, mehnatga bo'lgan munosabatlarni ham rivojlantirishni nazarda tutadi.

Pedagogik jarayon - bu o'qituvchi va o'quvchi (yoki pedagog va tarbiyalanuvchi) o'rtasidagi o'zaro ta'sir asosida amalga oshiriladigan, maqsadga yo'naltirilgan, uzviy bog'langan ta'lim va tarbiya jarayonidir. Bu jarayonda o'qitish (bilim berish), tarbiyalash (axloqiy, estetik, jismoniy, ma'naviy tarbiya) va rivojlantirish (shaxsiy, intellektual, ijtimoiy jihatdan o'sish) birgalikda olib boriladi.

Pedagogik jarayonning subyektlari – bu ta'lim-tarbiya jarayonida faol ishtirok etuvchi tomonlardir. Ular o'zaro ta'sirda bo'lib, pedagogik maqsadlarga erishishni ta'minlaydi.

Quyida pedagogik jarayonning asosiy subyektlari:

1. O'qituvchi (pedagog)

O'qituvchi – pedagogik jarayonning bosh tashabbuskori, rahbari va yo'lboshchisi hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ O'quvchilarga bilim, ko'nikma va malaka berish;
- ✓ Tarbiyaviy ta'sir o'tkazish;
- ✓ O'quvchilarning rivojlanishiga ko'maklashish;
- ✓ Pedagogik muhitni yaratish va boshqarish;
- ✓ Innovatsion metodlarni qo'llash va yangiliklarni joriy etish.

2. O'quvchi (tarbiyalanuvchi)

O'quvchi – bu o'z shaxsiy rivojlanishi yo'lida ta'lim va tarbiya jarayonida faol ishtirok etuvchi shaxs.

U quyidagilar bilan ajralib turadi:

- ✓ Bilim olish va uni o'zlashtirishga intiladi;
- ✓ Faoliyatda qatnashadi (savol beradi, muhokama qiladi, tajriba qiladi);
- ✓ O'z fikrini bildirish va tanqidiy yondashishga o'rganadi;
- ✓ Mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi.

3. Ota-onalar (oilaviy muhit)

Ota-onalar ham pedagogik jarayonning muhim subyektlaridan biri hisoblanadi. Ular:

- ✓ Farzand tarbiyasida asosiy mas'ul shaxslar;
- ✓ Maktab va pedagoglar bilan hamkorlik qiladi;
- ✓ Uyda tarbiyaviy muhit yaratadi;
- ✓ O'quvchini ma'naviy va psixologik qo'llab-quvvatlaydi.

4. Jamiyat (ijtimoiy muhit)

Jamiyatning o'zi – kengroq ma'nodagi subyekt bo'lib, pedagogik jarayonga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladi. Masalan:

- ✓ Ommaviy axborot vositalari;
- ✓ Ijtimoiy tarmoqlar;
- ✓ Mahalliy tashkilotlar;
- ✓ Madaniy muassasalar (kutubxona, teatr, muzey);
- ✓ Diniy va milliy qadriyatlar.

Pedagogik jarayon subyektlari o'zaro hamkorlikda ishlaganda, ta'lim-tarbiya sifati ortadi. O'qituvchi – bosh yetakchi, o'quvchi – faol ishtirokchi, ota-onalar – yordamchi, jamiyat esa – keng ta'sir doirasiga ega muhitdir. Shu sababli har bir subyektning o'zaro aloqasi samarali bo'lishi muhim.

Pedagogik jarayonning obyektlari – bu ta'lim-tarbiya jarayonida ta'sir o'tkazilayotgan shaxs yoki guruhdir.

Ya'ni, obyekt – bu pedagogik ta'sir yo'naltiriladigan shaxs. Odatda bu – o'quvchi, tarbiyalanuvchi, yosh avlod bo'ladi.

Asosiy pedagogik obyekt – o'quvchi (yoki tarbiyalanuvchi)

Pedagogik jarayonda o'quvchi: bilim oluvchi, ko'nikma va malaka shakllantiruvchi, tarbiyaviy ta'sirni qabul qiluvchi, o'zgarishga (rivojlanishga) yo'naltirilgan shaxsdir. Shu sababli, o'quvchi pedagogik jarayonning asosiy obyektidir.

Ammo, zamonaviy yondashuvda o‘quvchi faqat obyekt emas. Ilg‘or pedagogik konsepsiyalarda o‘quvchi:

- ✓ faqat ta‘sir ostida qoluvchi emas, balki faol ishtirokchi – subyekt sifatida qaraladi;
- ✓ o‘zini anglaydi, fikr bildiradi, tanqid qiladi;
- ✓ o‘z bilimini mustaqil shakllantiradi.

Shuning uchun pedagogik jarayonda bir vaqtning o‘zida o‘quvchi subyekt ham, obyekt ham bo‘lishi mumkin. Zamonaviy ta‘limda o‘quvchini faqat obyekt sifatida emas, balki faol ishtirokchi, ya‘ni subyekt sifatida ko‘rish muhimdir.

Pedagogik jarayon quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

- ✓ Maqsad – shaxsning rivojlanishiga yo‘naltirilgan natija;
- ✓ Mazmun – ta‘lim beriladigan axborot va tarbiyaviy g‘oyalar majmuasi;
- ✓ Metodlar – pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir usullari;
- ✓ Vositalar – texnik vositalar, darsliklar, ko‘rgazmalar va boshqa materiallar;
- ✓ Shakllar – dars, seminar, trening, ekskursiya va h.k.;
- ✓ Natija – o‘quvchi shaxsida yuzaga keladigan o‘zgarishlar (bilim, ko‘nikma, qadriyatlar).

Pedagogik jarayon bir necha izchil bosqichlardan iborat:

- 1.Rejalashtirish – pedagogik maqsadlar va vazifalarni belgilash;
- 2.Tashkillashtirish – darslar va tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish;
- 3.Amalga oshirish – pedagogik faoliyatni olib borish;
- 4.Tahlil va baholash – natijalarni o‘rganish va ularga tegishli xulosalar chiqarish.

Mazkur bosqichlar bir-birini to‘ldiradi va doimiy takrorlanib turuvchi jarayonni tashkil etadi.

Pedagogik jarayon muayyan qonuniyatlarga asoslanadi.

Masalan: Ijtimoiy shartlanganlik qonuniyati – tarbiya jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadi;

Ikki tomonlama xarakter qonuniyati – pedagog va o‘quvchi o‘zaro faoliyat olib boradi;

Maqsadga yo‘naltirilganlik qonuniyati – har bir pedagogik harakat maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Tamoyillar esa jarayonning samarali bo‘lishini ta‘minlaydi:

- Shaxsga yo‘naltirilganlik;
- Faollik va mustaqillikni rag‘batlantirish;
- Ilmiylik va nazariy asoslanganlik;
- Sistemalilik va izchillik;
- Tarbiya va ta‘limning birligi.

Zamonaviy ta‘limda pedagogik jarayonning o‘rni

Olingan natijalar. Hozirgi kunda ta‘lim jarayoniga turli interaktiv metodlar va texnologiyalar joriy etilmoqda. Pedagogik jarayon endilikda faqat bilim berish vositasi emas, balki o‘quvchini mustaqil fikrlashga, tanqidiy yondashuvga va hayotiy muammolarni hal qilishga o‘rgatuvchi platforma sifatida qaralmoqda.

Innovatsion yondashuvlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- STEAM – fan, texnologiya, muhandislik, san‘at va matematika integratsiyasi; **STEAM ta‘limi** — bu fan, texnologiya, muhandislik, san‘at va matematika fanlarini **integratsiyalashgan holda** o‘qitish tizimidir.

- CLIL – fanlarni xorijiy tilda o‘qitish; **CLIL** — bu inglizcha **Content and Language Integrated Learning** iborasining qisqartmasi bo‘lib, o‘zbekchaga **“mazmun va tilning integratsiyalashgan holda o‘qitilishi”** deb tarjima qilinadi.

Konstruktiv yondashuv – o‘quvchining tajribasiga asoslangan o‘rganish; **Konstruktiv yondashuv (constructiv approach)** — bu ta‘lim jarayonida o‘quvchi yoki talaba **bilimni tayyor holda olmaydi**, balki **o‘z tajribasi, fikrlashi va faol ishtiroki orqali uni “quradi”, ya‘ni konstruksiya qiladi**, degan g‘oyaga asoslangan yondashuvdir.

- Portfolio texnologiyasi – shaxsiy rivojlanishni tizimli kuzatib borish vositasi. **Portfolio texnologiyasi** — bu ta‘lim jarayonida o‘quvchi (yoki tarbiyalanuvchi)ning **shaxsiy rivojlanishi, yutuqlari, bilim va ko‘nikmalarini tizimli tarzda to‘plab, tahlil qilib borishga** asoslangan pedagogik texnologiyadir.

Bu metodlar orqali pedagogik jarayon interaktiv, ochiq va natijaga yo‘naltirilgan shaklga ega bo‘lib bormoqda.

Xulosa. Pedagogik jarayon – bu o‘zaro bog‘langan, murakkab va dinamik tizim bo‘lib, uning mohiyatini chuqur anglash pedagogik faoliyatni sifatli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Har bir bosqichda shaxsiy yondashuvni tanlash, zamonaviy metodlarni qo‘llash, ta‘lim-tarbiya birligini ta‘minlash pedagogik jarayonning mazmunini boyitadi va uning natijadorligini oshiradi. Kelgusida bu jarayonni takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali ta‘lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik yondashuvlar darsning mazmunini boyitadi va uni samarali tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu integratsiyalashgan yondashuv orqali o‘quvchining intellektual, axloqiy, ijtimoiy, estetik va jismoniy jihatdan mukammal shakllanishi ta’minlanadi. Pedagogik jarayonning asosiy shakli bu - ta’lim jarayonidir. Ta’lim tarbiya bilan birgalikda insonning har tomonlama kamol topishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bu jarayon o‘quvchi shaxsini shakllantirish, uning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini mustahkamlashga qaratilgan murakkab va izchil faoliyat tizimini o‘z ichiga oladi. Pedagogik jarayon quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi: u bir vaqtning o‘zida ta’lim, tarbiya va rivojlantirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi; bu komponentlar bir-birini to‘ldiradi, o‘zaro bog‘liq holda kechadi va o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi faol hamkorlikda amalga oshadi. Shuning uchun, pedagogik jarayon doirasida dars asosiy tashkiliy shakl sifatida namoyon bo‘lsa-da, undan tashqari mashg‘ulotlar, tarbiyaviy tadbirlar, mustaqil ta’lim faoliyatlari va sinfdan tashqari ishlar ham bu jarayonning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar bu jarayonni faqat bilim berish deb emas, balki o‘quvchini hayotga tayyorlash, ijtimoiy faolligini oshirish, tanqidiy fikrlashini shakllantirish va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish jarayoni deb qaraydi. Shu sababli, pedagogik jarayonni samarali tashkil qilish, uni ilg‘or metodlar bilan boyitish va talabaning individual xususiyatlariga moslashtirish ta’lim-tarbiya sifati va natijadorligini belgilovchi muhim omillardandir.

Adabiyotlar:

1. Jo‘rayev N.H., To‘rayev M.T. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
2. Juraev E. Umumiy pedagogika. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019.
3. Qodirov A. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2021.
4. Abdullayeva Z. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2022.
5. Karimova N.A. Innovatsion pedagogika. – Toshkent: “Noshir”, 2021.
6. Hasanboyeva O., Mamatov Sh. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Qarshi: “Nasaf”, 2020.
7. Dewey J. Demokratiya va ta’lim (o‘zbek tilidagi tarjima). – Toshkent: “Istiqlol”, 2018.
8. UNESCO. Pedagogical Innovations in the 21st Century. – Paris: UNESCO Publishing, 2020.
9. Vygotsky L.S. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019.
10. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni, 2020-yilgi tahriri.

ONA TILI DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI SAVOLLAR METODINING SAMARADORLIGI

Sharopova Zarnigor Tolib qizi,

Buxoro davlat universiteti 2- bosqich tayanch doktoranti

Mazkur maqolada ona tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida muammoli savollar metodining oʻrni va samaradorligi tahlil qilinadi. Muammoli savollar oʻquvchini faqat tayyor bilimni eslab qolishga emas, balki oʻz fikrini shakllantirishga, turli nuqtayi nazarlarni solishtirishga va dalillashga undaydi. Shu bois ushbu metodika tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishda eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Muammoli savollar — bu anʼanaviy bilimni eslatish yoki takrorlashdan koʻra chuqurroq tafakkurni talab qiluvchi savollar boʻlib, ular oʻquvchini faol fikrlashga, mavjud axborotga tanqidiy yondashishga, muqobil nuqtayi nazarlarni koʻrib chiqishga, shuningdek, oʻz fikrini asosli tarzda ifodalashga undaydi. Maqolada bu metodning nazariy asoslari, amaliy qoʻllanilish imkoniyatlari hamda dars jarayonidagi samaradorlik holatlari oʻrganiladi. Shuningdek, maqolada muammoli savollarni toʻgʻri tuzish va ularni darsning turli bosqichlarida qoʻllash boʻyicha tavsiyalar beriladi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, bu metod oʻquvchilarning faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikr yuritish va mantiqiy mulohaza qilish malakalarini rivojlantiradi, shuningdek, oʻz fikrini dalillar asosida himoya qilish madaniyatini shakllantiradi. Shu bois muammoli savollar metodikasi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita sifatida baholanadi.

Kalit soʻzlar: tanqidiy fikrlash, muammoli savollar metodi, taʼlim samaradorligi, mustaqil fikrlash, oʻquvchi faolligi, interfaol metodlar, muammoli vaziyat, tafakkurni rivojlantirish, pedagogik texnologiyalar

ЭФФЕКТИВНОСТЬ МЕТОДА ПРОБЛЕМНЫХ ВОПРОСОВ В РАЗВИТИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

В данной статье анализируется роль и эффективность метода решения проблем как инструмента развития критического мышления на уроках родного языка. Проблемные вопросы побуждают учащихся не только запоминать готовые знания, но и формировать собственное мнение, сравнивать и обосновывать различные точки зрения. Поэтому данная методика является одним из важнейших инструментов развития навыков критического мышления. Проблемные вопросы – это вопросы, требующие более глубокого мышления, чем простое заучивание или повторение традиционных знаний. Они побуждают учащихся активно мыслить, критически относиться к имеющейся информации, рассматривать альтернативные точки зрения и аргументированно высказывать свое мнение. В статье рассматриваются теоретические основы данного метода, его практическое применение и примеры эффективности на уроке. В статье также даны рекомендации по правильной формулировке проблемных вопросов и их использованию на разных этапах урока. Результаты исследования показывают, что данный метод повышает активность учащихся, развивает их самостоятельность мышления и навыки логического рассуждения, а также формирует культуру отстаивания своего мнения с опорой на доказательства. Поэтому метод решения проблем считается эффективным инструментом развития критического мышления.

Ключевые слова: критическое мышление, проблемный метод, эффективность обучения, самостоятельное мышление, активность учащихся, интерактивные методы, проблемные ситуации, развитие мышления, педагогические технологии.

EFFECTIVENESS OF THE PROBLEM QUESTIONS METHOD IN DEVELOPING CRITICAL THINKING IN MOTHER LANGUAGE LESSONS

This article analyzes the role and effectiveness of the problem-solving method as a tool for developing critical thinking in native language lessons. Problem-solving questions encourage students not only to memorize ready-made knowledge, but also to form their own opinions, compare and justify different points of view. Therefore, this methodology is one of the most important tools in developing critical thinking skills. Problem-solving questions are questions that require deeper thinking than simply memorizing or repeating traditional knowledge. They encourage students to think actively, critically approach available information, consider alternative points of view, and express their opinions in a reasoned manner. The article studies the

theoretical foundations of this method, its practical application, and cases of effectiveness in the lesson process. The article also provides recommendations on how to correctly formulate problem questions and use them at different stages of the lesson. The results of the study show that this method increases the activity of students, develops their independent thinking and logical reasoning skills, and also forms a culture of defending one's opinion based on evidence. Therefore, the problem-solving method is considered an effective tool in developing critical thinking.

Keywords: critical thinking, problem-solving method, educational effectiveness, independent thinking, student activity, interactive methods, problem situations, development of thinking, pedagogical technologies

Kirish. Bugungi globallashuv davrida shaxsdan faqat bilimga ega bo‘lish emas, balki ularni tahlil qilish, baholash, mustaqil xulosa chiqarish kabi yuqori darajadagi fikrlash faoliyatini egallashi talab etiladi. Ayniqsa, umumta’lim maktablarida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish orqali ular mustaqil qaror qabul qilish, turli fikrlarni tahlil qilish, dalil asosida fikr bildirishga o‘rganadilar. Bu jarayonda ona tili darslari katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta’lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarni mustaqil, erkin va asosli fikrlay oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdir. Ayniqsa, ona tili darslari bu borada katta imkoniyatlarga ega, chunki bu fan nafaqat til bilimlarini o‘rgatadi, balki o‘quvchining fikrlash madaniyati, muloqot qobiliyati va tafakkur doirasini kengaytiradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ona tili mashg‘ulotlarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish ta’lim jarayonining zamonaviy talablaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Tanqidiy fikrlash o‘quvchining voqelikni chuqur tahlil qilish, muammoga har tomonlama yondashish, dalillar asosida qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa o‘z navbatida o‘quv jarayonining sifatini oshiradi, o‘quvchilarda mustaqil bilim olishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Maqolaning asosiy maqsadi – muammoli savollar metodining nazariy asoslarini ochib berish, uni ona tili darslariga integratsiya qilish yo‘llarini ko‘rsatish va amaliy misollar asosida bu metodning o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat. Ona tili – bu nafaqat tilning grammatik tizimini o‘rgatuvchi fan, balki tafakkurni shakllantiruvchi, nutq madaniyatini rivojlantiruvchi, ifoda vositalarini ongli qo‘llashga o‘rgatuvchi vositadir. Shu jihatdan, ona tili darslarida **muammoli savollar metodidan foydalanish** tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada aynan shu metodning mohiyati, dars jarayonida qo‘llash yo‘llari va o‘quvchilarga ta’siri tahlil qilinadi.

Tanqidiy fikrlashning mazmuni va dolzarbligi. Tanqidiy fikrlash – bu axborotni tahlil qilish, baholash, turlicha nuqtayi nazarlarni solishtirish va dalillar asosida xulosa chiqarish qobiliyatidir. Bu ko‘nikma insonni passiv axborot qabul qiluvchidan faol fikr yurituvchiga aylantiradi. UNESCO, Bloom, Ennis, Fisher va boshqa mutaxassislar tanqidiy fikrlashni XXI asr ta’limining asosiy yo‘nalishi sifatida ko‘rsatgan. Maktab ta’limida, ayniqsa 5–9-sinflarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish muhim: bu davrda o‘quvchilarda mantiqiy, analitik, baholovchi fikrlash faol ravishda rivojlanadi. Ona tili fanida bu imkoniyatlar matn ustida ishlash, grammatik tahlil, so‘z va gap tuzilmalari orqali boyitiladi.

Muammoli savollar metodining mohiyati. Muammoli savollar – bu o‘quvchini faqat eslab qolishga emas, balki fikrlashga, o‘rganilayotgan materialni chuqur anglashga va baholashga undaydigan savollardir. Ushbu metod: fikrlashga faollik kiritadi; Turli nuqtai nazarlarni ilgari surishga imkon beradi; Dalillash va xulosa chiqarishga yo‘naltiradi. Muammoli savollar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- **Nima uchun...?**
- **Agar... bo‘lmaganida nima bo‘lardi?**
- **Siz muallif fikriga qo‘shilasizmi? Nima sababdan?**
- **Bu voqeaga boshqa nuqtayi nazardan qarasak, qanday o‘zgarish bo‘lardi?** Ushbu savollar o‘quvchining o‘z fikrini asosli ifoda etishga undaydi va matnni tanqidiy tahlil qilishga yordam beradi. Amaliyotda ushbu metodning samaradorligi 6-sinfda olib borilgan tajriba asosida o‘rganildi.
- **Tahlil jadvali: “Bahor” matni asosida muammoli savollar metodining qo‘llanilishi**

O‘quvchilarga har bir darsda matn bilan ishlashda muammoli savollar berildi: **Misol: “Bahor” mavzusidagi matn asosida savollar:**

- Bahorni muallif qanday tasvirlaydi? Sizningcha, bu tasvir haqiqatga qanchalik yaqin?
- Matnda eng kuchli ifodaviy vosita qaysi? Nima uchun?
- Agar bu matn qishda yozilganida, qanday o‘zgartirishlar bo‘lardi?

Aspekt	Ijobiy (imkoniyatlar)	jihatlar	Kamchiliklar (muammolar)	Taklif va yechimlar
--------	--------------------------	----------	-----------------------------	---------------------

Aspekt	Ijobiy (imkoniyatlar) jihatlar	Kamchiliklar (muammolar)	Taklif va yechimlar
Matn mavzusi	Tabiat, bahor, his-tuyg'ular haqida bo'lgani sababli o'quvchilarga yaqin - Badiiy ifodalar tanqidiy tahlil uchun qulay	Ba'zan faqat tasviriy bo'lib qoladi, muammo yoki qarama-qarshilik yetarli emas	Bahorning ijobiy va salbiy tomonlarini solishtirish “Bahor kelmasa nima bo'lardi?” kabi savollar orqali tahlilga yo'naltirish
Savollar sifati	Matnni tushunishga oid oddiy savollar mavjud	Tanqidiy fikrga yo'naltiruvchi, chuqur savollar kam	Savollarni 3 darajada tuzish: Tushunish – Tahlil – Baholash Misol: “Muallif bahorni qanday tasvirlagan va nima uchun aynan shunday?”
Darsdagi qo'llanilishi	Matndan so'ng savol-javob ishlari bo'ladi	Savollar ko'pincha ustozga qarab, faktlarni aytishga yo'naltirilgan	Darsni muammoli savollar bilan boshlash. Guruhda savolga javob izlatish O'quvchilarning fikrini bahslashish orqali rivojlantirish
O'quvchilar faolligi	Matnni o'qish va so'zlarni tushunishga harakat qilishadi	O'z fikrini bildirish, dalil keltirishda sustlik	Bahs-munozara, rolli o'yin, juftlikda tahlil qilish. Har bir o'quvchidan mustaqil mulohaza olish
Baholash va teskari aloqa	Javoblar to'g'riligi tekshiriladi	Fikrning chuqurligi, dalillar, mulohaza sifati baholanmaydi	Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini baholash mezonlari yaratish - Rubrika (baholash jadvali) orqali fikrni tahlil qilish
Metodik imkoniyatlar	Matn mavzusi ko'p fanlar bilan bog'liq: tabiat, she'riyat	Dars faqat matn asosida cheklanib qolishi mumkin	Interfaol metodlar: klaster, fikrlar xaritasi, Venn diagrammasi Fanlararo integratsiya orqali mavzuni chuqurlashtirish

Natijada o'quvchilarning:

- mustaqil fikr bildirish ko'nikmasi 34% dan 76% ga oshdi;
- dalil asosida javob berish holatlari ko'paydi;
- savollarga ijodiy yondashuvlar kuchaydi.
-



Har bir mavzu bo'yicha kamida 2–3 ta muammoli savol tayyorlanishi kerak;

Savollar darsning barcha bosqichlariga moslashtirilishi lozim: kirish, o'rganish, mustahkamlash, baholash;

O'quvchilarni savol tuzishga ham jalb qilish samarali bo'ladi;

Javoblarni dalil bilan isbotlash talabi doimiy bo'lishi kerak;

“Noto‘g‘ri javob” tushunchasini qayta ko‘rib chiqish – har bir fikr muhokama uchun asos bo‘lishi kerak.

Xulosa. Ona tili darslarida muammoli savollar metodidan foydalanish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita sifatida o‘zini namoyon qilmoqda. Bu metod o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni ijodiy va tahliliy fikrlashga undaydi, darsda passiv emas, faol ishtirokchini shakllantiradi. O‘qituvchi savollarni to‘g‘ri tuza olgan taqdirda, bu metod nafaqat til ko‘nikmalarini, balki hayotiy qaror qabul qilish, muammoga boshqacha yondashish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Ona tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta‘lim jarayonining eng muhim talablaridan biridir. Mazkur maqolada tahlil qilingan muammoli savollar metodikasi ushbu maqsadga erishishda samarali vosita sifatida o‘zini namoyon qilmoqda. Ushbu metod o‘quvchilarning nafaqat bilimlarini mustahkamlashga, balki ularni mustaqil fikrlashga, mantiqiy mulohaza yuritishga, dalil asosida fikr bildirishga yo‘naltiradi. Tadqiqot davomida olib borilgan amaliy tajriba muammoli savollar metodining o‘quvchilar faolligini oshirishi, ijodiy fikrlashni kuchaytirishi va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishini isbotladi. Ayniqsa, dars jarayonida savollarni to‘g‘ri tuzish, ularni darsning turli bosqichlariga moslashtirish, o‘quvchilarni savol tuzish jarayoniga jalb etish kabi metodik yondashuvlar natijadorlikni oshiradi. Umumiy xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ona tili darslari shunchaki grammatik bilimlarni o‘rgatish emas, balki o‘quvchining fikrlash madaniyatini, muloqot qobiliyatini, nutqiy faolligini va tafakkur salohiyatini shakllantiradigan muhim pedagogik maydon hisoblanadi. Shu bois, muammoli savollar metodi tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy, interfaol va samarali metodlardan biri sifatida baholanadi.

Adabiyotlar:

1. Ennis R. (1985). *Critical Thinking and the Curriculum*. National Forum.
2. Fisher A. (2001). *Critical Thinking: An Introduction*. Cambridge University Press.
3. Bloom B. S. (1956). *Taxonomy of Educational Objectives*.
4. Vahobova D. va boshqalar. (2022). *Ona tili darslarida innovatsion metodlar*. Toshkent.
5. Abdurahmonova Z. (2020). *Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari*. Respublika pedagogika jurnali.
6. Sharopova, Z. (2025). Tanqidiy fikrlash va mustaqil fikrlash dialektikasi. " педагогическая акмеология" международный научно-методический журнал, 4(21).

UO‘K 152.26.004.28(045)

**O‘SMIRLARNING STRESSGA QARSHI KURASHISH STRATEGIYALARINI
SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY VA MAKTAB MUHITINING ROLI**

Tosheva Mohinur Yusupovna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Psixologiya fanlari bo'yicha PhD, dotsent.
tosheva.mokhinur@mail.ru

Mazkur maqolada o'smirlik davrida stress omillari va ularga qarshi kurashish strategiyalarining shakllanishida oilaviy hamda maktab muhitining o'rni keng qamrovli tahlil qilingan. O'smirlik davri shaxsiy “men” konsepsiyasi shakllanadigan, ijtimoiy munosabatlar kengayadigan va biologik o'zgarishlar kuchli kechadigan murakkab psixologik bosqich hisoblanadi. Shu sababli, bu davrda stressning kuchayishi tabiiy bo'lib, agar uni boshqarish mexanizmlari o'z vaqtida shakllantirilmasa, turli psixologik muammolarga olib kelishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qo'llab-quvvatlovchi oilaviy va maktab muhiti mavjud bo'lgan o'smirlar ko'proq muammo markazli strategiyalarni qo'llagan, salbiy muhitda esa emotsional yoki qochish strategiyalari ustun bo'lgan.

Kalit so'zlar: O'smirlik davri, stress, stressga qarshi kurashish strategiyalari, oilaviy muhit, maktab muhiti, psixologik qo'llab-quvvatlash, muammo markazli strategiyalar, emotsional strategiyalar, ota-ona va o'qituvchi hamkorligi, o'smir psixologiyasi.

**THE ROLE OF FAMILY AND SCHOOL ENVIRONMENTS IN SHAPING ADOLESCENTS'
COPING STRATEGIES AGAINST STRESS**

This article provides a comprehensive analysis of the role of family and school environments in shaping coping strategies against stress during adolescence. Adolescence is a complex psychological stage in which the concept of “self” develops, social relationships expand, and biological changes intensify. Therefore, stress naturally increases during this period, and if coping mechanisms are not developed in time, it may lead to various psychological problems such as anxiety, depression, and difficulties in social adaptation. Research results indicate that adolescents from supportive families and positive school environments are more likely to use problem-focused strategies, whereas those in negative environments tend to rely on emotional or avoidance strategies.

Keywords: adolescence, stress, coping strategies, family environment, school environment, psychological support, problem-focused strategies, emotional strategies, parent-teacher cooperation, adolescent psychology.

**РОЛЬ СЕМЕЙНОЙ И ШКОЛЬНОЙ СРЕДЫ В ФОРМИРОВАНИИ СТРАТЕГИЙ
СОВЛАДАНИЯ СО СТРЕССОМ У ПОДРОСТКОВ**

В данной статье проведён всесторонний анализ роли семейной и школьной среды в формировании стратегий совладания со стрессом в подростковом возрасте. Подростковый период представляет собой сложный психологический этап, в котором формируется личная концепция «Я», расширяются социальные отношения и усиливаются биологические изменения. Поэтому рост уровня стресса в этот период является естественным, и если механизмы его преодоления не будут своевременно сформированы, это может привести к различным психологическим проблемам, таким как тревожность, депрессия и трудности социальной адаптации. Результаты исследования показывают, что подростки из поддерживающих семей и позитивной школьной среды чаще используют проблемно-ориентированные стратегии, тогда как в неблагоприятных условиях преобладают эмоциональные или избежательные стратегии.

Ключевые слова: подростковый возраст, стресс, стратегии совладания, семейная среда, школьная среда, психологическая поддержка, проблемно-ориентированные стратегии, эмоциональные стратегии, сотрудничество родителей и учителей, психология подростков.

Kirish. O'smirlik davri inson hayotining eng muhim va murakkab bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda shaxsiy rivojlanishning barcha yo'nalishlari – biologik, psixologik va ijtimoiy o'zgarishlar bir vaqtda kechadi. O'smirning mustaqil fikrlashi, shaxsiy “men” konsepsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy moslashuvchanligi aynan shu davrda shakllana boshlaydi [1]. Shu sababli o'smirlar ko'pincha turli stress omillari ta'sirida bo'ladilar.

Psixologik adabiyotlarda stress tushunchasi keng o'rganilgan bo'lib, G. Selye (1936) stressni organizmning har qanday tashqi yoki ichki bosimlarga fiziologik va psixologik javobi sifatida izohlagan [2] Keyinchalik R. Lazarus va S. Folkman (1984) stressni yengishda qo'llaniladigan usullarni “kurashish strategiyalari” sifatida ta'riflab, ularni muammo markazli, emotsional markazli va oldini olish (avoidance) strategiyalari ko'rinishida tasniflagan. Ularning ta'kidlashicha, insonning psixologik salomatligi ko'p jihatdan stressni qanday boshqarishiga bog'liq [3].

O'smirlik davrida stressning asosiy manbalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Biologik omillar – gormonal o'zgarishlar, jismoniy o'sishning tezlashuvi, tashqi ko'rinishga ortiqcha e'tibor.

Psixologik omillar – o'z-o'zini anglash, o'ziga baho berishdagi beqarorlik, kelajak kasbini tanlashdagi qiyinchiliklar.

Ijtimoiy omillar – do'stlar bilan raqobat, ota-onalar bilan kelishmovchiliklar, o'qituvchilar bosimi, sinfdoshlar ta'siri.

Agar bu omillarni boshqarish mexanizmlari shakllanmagan bo'lsa, o'smirning psixik salomatligida turli muammolar paydo bo'lishi mumkin: tashvish buzilishlari, depressiya, agressiv xulq, o'qishdagi qiyinchiliklar va ijtimoiy izolyatsiya. Shu sababli stressga qarshi kurashish strategiyalarini o'smirlik davrida shakllantirish nihoyatda muhim vazifa hisoblanadi.

Oila – o'smirning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti bo'lib, uning ruhiy barqarorligi ko'p jihatdan oilaviy qo'llab-quvvatlash va mehr-muhabbatga bog'liq [4]. Ota-onalar tomonidan yaratilgan iliqlik muhit, ochiq muloqot va o'zaro ishonch o'smirning stressni boshqarish qobiliyatini kuchaytiradi. Aksincha, ziddiyatli, befarq yoki haddan tashqari nazoratli oilaviy muhit salbiy ta'sir ko'rsatib, emotsional yoki qochish strategiyalarini kuchaytirishi mumkin.

Maktab ham o'smir shaxsining shakllanishida markaziy o'rin tutadi. O'quvchining ko'p qismi vaqtini maktabda o'tkazishi uning ruhiy salomatligini maktab muhiti bilan bevosita bog'lab qo'yadi. O'qituvchilarning qo'llab-quvvatlashi, sinfdoshlar bilan sog'lom munosabatlar, maktabdagi psixologik xizmat faoliyati o'smirning stressni boshqarish qobiliyatini ijobiy shakllantiradi [5]. Ijobiy maktab iqlimida ulg'aygan o'smirlar ko'proq muammo markazli strategiyalarga tayanadi, salbiy iqlimda esa emotsional va qochish strategiyalari ustun bo'ladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, globallashtirish, axborot oqimining keskin ortishi, raqobat kuchayishi sharoitida o'smirlarning psixologik barqarorligini mustahkamlash masalasi jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasini kuchaytirish va psixologik xizmat tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Tadqiqotning maqsadi – o'smirlarning stressga qarshi kurashish strategiyalarini shakllantirishda oilaviy va maktab muhitining o'rnini aniqlash va ilmiy jihatdan asoslab berish.

Tadqiqot vazifalari.

1. O'smirlik davrida stressning nazariy asoslarini o'rganish.
2. Stressga qarshi kurashish strategiyalarining turlari va ularning samaradorligini tahlil qilish.
3. Oilaviy muhitning stressni boshqarishga ta'sirini aniqlash.
4. Maktab iqlimining o'smirlarning ruhiy barqarorligiga ta'sirini o'rganish.

Tadqiqot obyekti. Mazkur tadqiqotning obyekti – 13-16 yoshli o'smirlarning stressga qarshi kurashish strategiyalari va ularning shakllanishida oilaviy hamda maktab muhitining ta'siri hisoblanadi. O'smirlik davri inson hayotida shaxsiy o'zgarishlar eng tez kechadigan, biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o'zaro kesishadigan bosqich bo'lib, ushbu davrda stress omillari yuqori darajada kuzatiladi. Shu sababli tadqiqot obyekti sifatida aynan ushbu yosh guruhining tanlanishi ularning psixologik rivojlanish qonuniyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda quyidagi jihatlar asosiy e'tibor markazida bo'ldi:

Oilaviy muhit – ota-onaning tarbiyaviy uslubi, oilaviy iliqlik, qo'llab-quvvatlash darajasi, nizolar mavjudligi yoki mavjud emasligi.

Maktab muhiti – o'qituvchilar bilan munosabat, sinfdoshlar bilan ijtimoiy aloqalar, maktabdagi psixologik xizmatning faoliyati, ijobiy yoki salbiy iqlimning mavjudligi.

O'smirlarning psixologik xususiyatlari – tashvish darajasi, stress manbalariga munosabati, muammo hal qilish ko'nikmalari, emotsional barqarorlik.

Stressga qarshi kurashish strategiyalari – muammo markazli, emotsional va qochish (avoidance) usullari, ularning qo'llanish darajasi va samaradorligi.

Tadqiqot obyekti sifatida aynan o'smirlarning tanlanishiga asosiy sabab – ularning ijtimoiy munosabatlari kengayib borayotgan davrda stressni boshqarish mexanizmlarining yetarli darajada

shakllanmaganligi va tashqi muhitning ularga kuchli ta'sir ko'rsatishidir. Bu davrda ota-ona qo'llab-quvvatlashi va maktab iqlimi o'smirlarning stressga qarshi kurashish qobiliyatida hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqadi [6].

Shunday qilib, tadqiqot obyekti sifatida o'smirlarning shaxsiy rivojlanishida oilaviy va maktab muhitining psixologik ahamiyatini chuqur o'rganish, shuningdek, stressga qarshi kurashish mexanizmlarining shakllanish jarayonini aniqlash maqsad qilingan.

Qo'llaniladigan metodlar. Mazkur tadqiqot o'smirlarning stressga qarshi kurashish strategiyalarini shakllantirishda oilaviy va maktab muhitining o'rini chuqur tahlil qilishga qaratildi. Shu maqsadda turli psixodiagnostik testlar, sotsiologik yondashuvlar va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologiyasi xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan ilmiy usullarga asoslangan bo'lib, mahalliy sharoitga moslashtirildi.

1. Tadqiqot ishtirokchilari va tanlash mezonlari.

Tadqiqotda jami 128 nafar o'quvchi (70 qiz va 58 o'g'il bola) qatnashdi. Ularning yoshi 13 dan 16 yoshgacha bo'lib, o'rta maktablarning 7–9-sinflarida tahsil olayotgan o'quvchilar tanlab olindi. Ishtirokchilar turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdagi oilalardan edi, bu esa tadqiqot natijalarini umumlashtirish imkonini berdi.

Tanlashda quyidagi mezonlarga e'tibor qaratildi:

1. O'quvchining sog'lig'ida jiddiy nevrologik yoki psixik kasalliklarning mavjud emasligi;
2. Tadqiqotda ishtirok etishga ixtiyoriy roziligi;
3. Ota-onalarning tadqiqot o'tkazishga ruxsat berganligi.

2. Psixodiagnostik metodlar.

O'smirlarning psixologik holatini baholash va stressga qarshi kurashish strategiyalarini aniqlash uchun quyidagi test va metodiklardan foydalanildi:

Spilbergerning tashvish darajasini aniqlash testi – o'smirlarning holat tashvishi (ya'ni ayni damdagi tashvish) va shaxsiy tashvishini (umumiy tashvish darajasi) o'lchash uchun qo'llandi. Ushbu metod o'quvchilarning stressga moyilligi darajasini ko'rsatdi.

Bek depressiya shkalasi– o'smirlarning depressiv holatlarini aniqlashda qo'llanildi. Bu shkaladan foydalanish stressning salbiy oqibatlarini tahlil qilish imkonini berdi.

Oilaviy muhitni baholash anketasi – oila a'zolari o'rtasidagi kommunikatsiya, iliqlik, nizolar va qo'llab-quvvatlash darajasini o'lchash uchun qo'llandi.

Maktab iqlimini baholash testi – o'qituvchilar va sinfdoshlar bilan munosabatlar, maktabdagi psixologik iqlim, adolat va qo'llab-quvvatlash tizimini tahlil qilish uchun ishlatildi.

Lazarus va Folkman tomonidan ishlab chiqilgan “Stressga qarshi kurashish strategiyalari inventari” – o'smirlarning stress vaziyatida qo'llaydigan usullari (muammo markazli, emotsional, qochish)ni aniqlashga xizmat qildi.

Natijalar tahlil. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi o'smirlarning stressga qarshi kurashish strategiyalarini shakllantirishda oilaviy va maktab muhitining ta'sirini empirik ravishda aniqlashdan iborat bo'ldi. Tadqiqotda 128 nafar 13–16 yoshli o'quvchi ishtirok etdi. Ulardan 70 nafari qizlar, 58 nafari o'g'il bolalar bo'lib, ular turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdagi oilalardan tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida psixodiagnostik testlar, so'rovnomalar, suhbat va kuzatish metodlari qo'llanildi, natijalar statistik tahlil qilindi.

Tadqiqotda birinchi navbatda o'quvchilarning tashvish va stress darajasi o'lchandi. Spilberger tashvish testi natijalariga ko'ra: 37% o'quvchilar yuqori tashvish darajasiga ega bo'lib, ular tez ta'sirchan, stressli vaziyatlarda o'zini yo'qotib qo'yadigan guruhga kirdi. 44% o'quvchilar o'rtacha darajadagi tashvishga ega bo'lib, ular vaziyatga qarab stressni yengish imkoniyatiga ega ekanliklari aniqlandi. 19% o'quvchilar esa past tashvish darajasiga ega bo'lib, ular odatda vaziyatlarni sovuqqonlik bilan baholaydilar va stressni boshqarishda samaraliroqdir.

Bek depressiya shkalasi natijalari ham tashvish darajalari bilan uyg'un chiqdi. O'quvchilarning 28%ida yengil darajadagi depressiv holatlar, 12%ida esa o'rta darajadagi depressiya belgilari kuzatildi. Bu esa o'smirlarning muhim qismi stress oqibatida psixologik muammolarga duch kelayotganini ko'rsatdi.

Oilaviy muhitni baholash anketasi natijalari o'smirlarning oilaviy qo'llab-quvvatlash darajasi bilan ularning stressga qarshi kurashish strategiyalari o'rtasidagi bog'liqlikni yaqqol ko'rsatdi: 65% o'smirlar o'z oilalarida iliqlik, mehr-muhabbat va qo'llab-quvvatlash mavjudligini ta'kidlashdi. Ularning asosiy strategiyalari muammo markazli bo'lib, ular muammoni hal etishga qaratilgan faol yondashuvni qo'llaganlar (masalan, ota-onasidan yordam so'rash, muammolarni rejalashtirish, yechim izlash). 35% o'smirlar esa oilaviy muhitda nizolar, ortiqcha nazorat yoki befarqlik mavjudligini qayd etishdi. Bu guruh ko'pincha emotsional va qochish strategiyalariga murojaat qilgan (masalan, yig'lash, sukut saqlash, muammodan chetlashish).

Korrelyatsion tahlil shuni ko'rsatdiki: Oilaviy qo'llab-quvvatlash darajasi bilan muammo markazli strategiyalar o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud ($r = +0,62$; $p < 0,01$). Oilaviy nizolar bilan emotsional strategiyalar o'rtasida salbiy bog'liqlik qayd etildi ($r = -0,54$; $p < 0,05$). Demak, oiladagi ilqlik va mehr o'smirning stressni yengishda konstruktiv strategiyalarni qo'llashiga yordam beradi, nizoli muhit esa ularni salbiy yo'nalishga yetaklaydi.

Maktab iqlimi anketasi natijalariga ko'ra: 58% o'smirlar maktabda o'zlarini qulay his qilishlarini, o'qituvchilarning qo'llab-quvvatlashini ta'kidlashdi. Bu guruh o'qituvchilari ko'proq muammo markazli strategiyalarni qo'lladilar, masalan, o'qituvchidan maslahat olish, sinfdoshlar bilan birgalikda yechim topish. 42% o'smirlar esa maktab iqlimi salbiy ekanini bildirganlar. Ularda stress vaziyatlarida emotsional yoki qochish strategiyalari ustun bo'ldi (masalan, darsni qoldirish, sinfdoshlar bilan tortishuv, muammodan qochish).

Natijalar o'smirlarning jinsiga qarab farqlar mavjudligini ham ko'rsatdi: Qizlar ko'proq emotsional strategiyalarni qo'llashga moyil bo'lib, hissiy reaksiya orqali stressni kamaytirishga harakat qilganlar. O'g'il bolalar esa qochish strategiyalariga ko'proq murojaat qilganlar (masalan, muammoni inkor qilish yoki jismoniy mashg'ulotlar orqali stressdan qochish). Biroq, oilaviy va maktab muhiti ijobiy bo'lgan guruhlarda jinsiy farqlar keskin sezilmadi, bu esa tashqi qo'llab-quvvatlovchi muhit o'smirlarning strategiyalarini muvozanatlashtirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari o'smirlarning stressga qarshi kurashish strategiyalarini shakllantirishda oilaviy va maktab muhitining hal qiluvchi o'rin tutishini yaqqol ko'rsatdi. O'smirlik davri inson hayotida jismoniy va psixologik o'zgarishlar eng kuchli kechadigan bosqich bo'lib, tashqi muhitning ta'siri ayniqsa sezilarli bo'ladi. Tadqiqot davomida aniqlangan ma'lumotlar asosida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Stress darajasi yuqori bo'lgan o'smirlar soni yetarli darajada ko'p (37%). Bu esa yoshlarning sezilarli qismi muntazam psixologik qo'llab-quvvatlashga muhtoj ekanini ko'rsatadi.

2. Oilaviy muhit o'smirning stressni boshqarish qobiliyatida asosiy omil hisoblanadi. Iliq, mehribon va qo'llab-quvvatlovchi oilada ulg'aygan o'smirlar ko'proq muammo markazli strategiyalarni tanlaydilar, nizoli va befarq muhitda esa asosan emotsional yoki qochish strategiyalariga murojaat qiladilar.

3. Maktab muhiti o'smir shaxsining psixologik barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilarning qo'llab-quvvatlashi, sinfdoshlar bilan ijobiy munosabat va psixologik xizmat faoliyati ijobiy iqlim yaratadi va stressni yengishda konstruktiv strategiyalarning qo'llanilishiga yordam beradi.

4. Tadqiqotda jinsiy farqlar ham kuzatildi: qizlar ko'proq emotsional strategiyalardan, o'g'il bolalar esa qochish strategiyalaridan foydalangan. Ammo tashqi qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lganda bu farqlar kamaygani aniqlandi.

5. Statistik tahlillar oilaviy va maktab muhiti bilan stressga qarshi kurashish strategiyalari o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Bu holat tashqi ijtimoiy omillar o'smirlarning ruhiy salomatligi uchun muhim himoya resursi ekanini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, o'smirlarning stressga qarshi kurashish strategiyalarini shakllantirishda oila va maktabning hamkorlikdagi ta'siri beqiyosdir. Oilada mehr-muhabbat va qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, maktabda esa ijobiy psixologik muhit yaratish orqali o'smirlarning psixologik barqarorligini oshirish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Compas, B. E. (2017). Coping, regulation, and development in childhood and adolescence. *Annual Review of Psychology*, 68, 711–739.
2. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). *Stress, appraisal, and coping*. Springer.
3. Grych, J. H., & Fincham, F. D. (2019). Parenting and adolescents' coping. *Journal of Family Psychology*, 33(5), 567–580.
4. Abdullayeva, N. (2022). O'smirlik davrida stress va unga qarshi kurashish usullari. *Psixologiya va Pedagogika jurnali*, №4, 45–53.
5. Тошева М.Ю. Состояние изучения проблемы подросткового стресса в зарубежной психологии. //Вестник интегративной психологии. Ярославль. -№31, 2024. – С. 370-375. ISBN: 978-5-9527-02-16-5.
6. Tosheva M.Y. 11-15 yoshli o'smirlarda stressga barqarorlikni ta'minlashning psixologik omillari. //Pedagogik mahorat. – Buxoro. №10, 2023, -B. 113-116. ISBN: 2181-6833.

O‘QITUVCHINING BOSHQARUV USHLUBLARI VA O‘QUVCHILARNING MOTIVATSIYASI O‘RTASIDAGI MUNOSABAT

Turayeva Dilafruz Rustamboevna,
*Associate Professor at the Department
of "Pedagogy and Psychology,"
Tashkent International University of Chemistry
Doctor of Philosophy in Psychology (PhD)
d.turayeva@kiut.uz*

Ushbu maqolada pedagogik vaziyatlarda qo‘llaniladigan xulq-atvor uslublarining subshkalalari o‘rtasidagi korrelyatsion munosabatlar tahlil qilingan. Empirik natijalar jalb qiluvchi, moslashuvchan, yo‘naltiruvchi va tushuntiruvchi uslublarning o‘quvchilarni faol ishtirokga jalb qilish, motivatsiyani oshirish va ijobiy psixologik muhit yaratishda samarali ekanini ko‘rsatdi. Talabchan va hukmron uslublar intizom va tartibni ta‘minlashda, ijodiy muhitni cheklashi va o‘quvchi avtonomiyasini susaytirishi mumkinligi aniqlangan. Mas‘uliyatdan uzoqlashuvchi va kuzatuvchi uslublar esa tartibsizlik hamda passivlikka moyilligi bilan ajralib turadi. Umuman, natijalar zamonaviy ta‘limda ijobiy motivatsiya va muloqotga asoslangan uslublarni rivojlantirish, ortiqcha nazorat va avtoritar yondashuvlarni esa cheklash zarurligini ta‘kidlaydi.

Kalit so‘zlar: pedagogik uslublar, xulq-atvor strategiyalari, avtonomiya, motivatsiya, muloqot, demokratik boshqaruv, nazorat, ijobiy psixologik muhit, faoliyat, avtoritar, o‘qituvchi, o‘quvchi, maktab, kollektiv, ta‘lim.

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ СТИЛЯМИ УПРАВЛЕНИЯ УЧИТЕЛЯ И МОТИВАЦИЕЙ УЧАЩИХСЯ

В данной статье проанализированы корреляционные взаимосвязи между субшкалами поведенческих стилей, применяемых в педагогических ситуациях. Эмпирические результаты показали, что привлекающий, адаптивный, направляющий и объяснительный стили являются эффективными в активном вовлечении учащихся, повышении их мотивации и создании положительной психологической среды. Установлено, что требовательный и доминирующий стили, обеспечивая дисциплину и порядок, могут ограничивать творческую атмосферу и снижать автономию учащихся. Стили уклонения от ответственности и наблюдательный, в свою очередь, характеризуются склонностью к хаотичности и пассивности. В целом, результаты подчеркивают необходимость развития в современной системе образования стилей, основанных на положительной мотивации и общении, и ограничения избыточного контроля и авторитарных подходов.

Ключевые слова: педагогические стили, стратегии поведения, автономия, мотивация, общение, демократическое управление, контроль, положительная психологическая среда, деятельность, авторитаризм, учитель, ученик, школа, коллектив, образование.

THE RELATIONSHIP BETWEEN TEACHER MANAGEMENT STYLES AND STUDENT MOTIVATION

This article analyzes the correlational relationships between subscales of behavioral styles used in pedagogical situations. Empirical results showed that engaging, adaptive, guiding, and explanatory styles are effective in actively involving students, enhancing motivation, and creating a positive psychological environment. It was found that demanding and dominant styles, while ensuring discipline and order, may limit the creative atmosphere and reduce student autonomy. In contrast, responsibility-avoiding and observing styles are characterized by a tendency toward chaos and passivity. Overall, the results emphasize the need to develop styles based on positive motivation and communication in modern education, while limiting excessive control and authoritarian approaches.

Keywords: pedagogical styles, behavioral strategies, autonomy, motivation, communication, democratic management, control, positive psychological environment, activity, authoritarianism, teacher, student, school, collective, education.

Kirish. Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimlarida o’qituvchilarning samaradorligini oshirish uchun zamonaviy baholash usullari keng joriy etilmoqda. Masalan, AQShda “National Board for Professional Teaching Standards” (NBPTS) orqali milliy sertifikatatsiyadan o’tkazish tizimi yo’lga qo’yilgan bo’lib, u o’qituvchilarning kasbiy mahoratini aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, “Teacher Performance Assessment” (edTPA) kabi baholash tizimlari qo’llanilib, o’qituvchilarning dars berish uslubi, individual yondashuvi va o’qituvchilarning natijalariga alohida e’tibor qaratiladi. Yaponiyada doimiy malaka oshirish dasturlari orqali o’qituvchilar faoliyatini kuzatish va ularning kasbiy o’sishini rag’batlantirish muhim o’rin tutadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan Finlandiyada esa o’zini-o’zi baholash amaliyoti keng qo’llanilib, bu usul o’qituvchilarning o’z faoliyatini tanqidiy tahlil qilishiga va samaradorligini oshirishiga yordam beradi. Ushbu mexanizmlar nafaqat baholash jarayonini yaxshilaydi, balki o’qituvchilarni innovatsion texnologiya va metodikalarni qo’llashga, o’quv jarayonini samarali boshqarishga undaydi.

O’zbekistonda ham so’nggi yillarda o’qituvchilar faoliyatini baholashga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2022–2026-yillarga mo’ljallangan ta’limni rivojlantirish dasturida baholash tizimini takomillashtirish belgilangan. Milliy baholash tizimida innovatsion metodikalarni ishlab chiqish va sinov tariqasida joriy etish ishlari olib borilmoqda. Elektron kundalik va boshqa raqamli platformalar orqali o’qituvchilarning ish jarayoni kuzatilib, tahlil qilinmoqda. “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategik dasturida esa baholash jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish va o’qituvchilar malakasini oshirishga alohida urg’u berilgan. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning ta’kidlashicha, o’qituvchi va murabbiylarning maqomini yuksaltirish davlat siyosatining eng muhim yo’nalishlaridan biridir. Ushbu islohotlarning barchasi o’qituvchilar faoliyati samaradorligini oshirish va ta’lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan.

O’qituvchilarning kasbiy faoliyati samaradorligi ta’lim sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. An’anaviy dars o’tish va boshqaruv uslublari bugungi kunda cheklangan bo’lib, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va raqamli vositalarni joriy etish zarurati kuchaymoqda. Innovatsion metodlarni qo’llash o’qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo’llab-quvvatlash, ta’lim monitoringini yaxshilash hamda o’qituvchilarni motivatsiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. O’qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o’qituvchilarning o’z oldiga maqsad qo’yishiga, mustaqil fikrlashiga va o’rganishga bo’lgan qiziqishini oshiruvchi shaxsdir.

Motivatsiya berish jarayonida o’qituvchining roli bir qator jihatlarida namoyon bo’ladi: mazmunli va qiziqarli darslarni tashkil etish, ijobiy psixologik muhit yaratish, individual yondashuvni qo’llash, o’qituvchilarni rag’batlantirish, ularning muvaffaqiyatlarini qadrlash va samimiy munosabatlar o’rnatish orqali ishonch uyg’otish. Shuningdek, o’qituvchi o’qituvchilarning bilim olishi bilan bir qatorda ularning ichki salohiyatini ro’yobga chiqarish, o’ziga ishonchini mustahkamlash va orzulariga erishish yo’lida qo’llab-quvvatlash kabi vazifalarni ham bajaradi. Demak, yaxshi o’qituvchi nafaqat dars beruvchi, balki kelajakdagi muvaffaqiyatlarga yo’l ochuvchi rahnamo sifatida ta’lim jarayonining eng muhim omili hisoblanadi.

Mavzu bo’yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. O’qituvchi faoliyatini boshqarish uslublariga oid dastlabki tadqiqotlardan biri nemis psixologi K. Levin [1], tomonidan 1938-yilda olib borilgan bo’lib, unda boshqaruvning avtoritar va demokratik shakllari taqqoslab o’rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, avtoritar boshqaruv sharoitida bajarilgan ish hajmi yuqori bo’lsa-da, lekin motivatsiya darajasi past bo’ladi, jamoada do’stona kayfiyat va mustaqil fikrlash imkoniyatlari cheklanadi. Shuningdek, Levin avtoritar uslub hukmron bo’lgan guruhlarda nafaqat rahbarga, balki guruh a’zolariga nisbatan ham agressiv munosabat kuchayishini alohida ta’kidlaydi.

Keyingi ilmiy izlanishlarda ko’plab tadqiqotchilar K. Levinning klassifikatsiyasiga tayanishgan. Jumladan, A.A. Бодалев[3], K. Bird[1], X. Prilbets, Г.Н. Малковская[6], Л.И. Кривалап[4] va boshqalar uning nazariy asoslarini rivojlantirishgan[3],[4],[8],[9],[10],[4]. Ayrim olimlar, masalan A.A. Andreev[2] boshqaruv uslublarini triadadan (avtoritar, demokratik, liberal) ikki asosiy tipga — avtokratik va demokratik uslublarga ajratib ko’rsatgan. Boshqa bir qator tadqiqotchilar, jumladan A.I. Shcherbakov va A.V. Mudrik [11], ushbu triadani kengaytirib, o’qituvchi faoliyatida boshqaruv vazifalarining mazmuni va pedagogik jarayon detallari bilan bog’liq yondashuvlarni batafsil tahlil qilgan.

Ta’lim jarayonida boshqaruv o’qituvchining asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Boshqaruv esa samarali muloqotsiz tasavvur etib bo’lmaydi. O’qituvchining boshqaruv uslubi uning muloqot uslubida ham bevosita namoyon bo’ladi. Shu jihatdan V.A. Kan-Kalik [6] o’qituvchi faoliyatini o’rgangan holda pedagogik muloqotning bir nechta uslublarini ajratib ko’rsatgan: hamkorlik va ijodkorlikka asoslangan muloqot, masofali (distansiyali) muloqot, qo’rqitishga asoslangan muloqot, hamda hazil orqali olib boriladigan muloqot.

Maqolaning ilmiy yangiligi. Tahlil qilingan natijalar shuni ko’rsatadiki, pedagogik vaziyatlarda qo’llaniladigan turli xulq-atvor strategiyalari bir-biri bilan murakkab o’zaro bog’liqlikka ega. Xususan, jalb

qiluvchi, moslashuvchan, yo‘naltiruvchi va tushuntiruvchi kabi uslublar o‘quvchilarni faol jalb etish, ijobiy motivatsiyani shakllantirish va ta‘lim jarayonida hamkorlikni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Aksincha, talabchan va hukmron uslublar tartib-intizomni ta‘minlasa-da, ijodiy muhitni cheklashi va o‘quvchi mustaqilligini pasaytirishi mumkinligi aniqlangan.

Yana bir muhim natija shuki, mas‘uliyatdan uzoqlashuvchi va kuzatuvchi uslublar pedagogik jarayonda betartiblik va passivlik bilan bog‘liq bo‘lib, ular samarali o‘quv muhitini ta‘minlashda etarli emasligi ko‘rsatildi. Ayniqsa, avtonomiyani qo‘llab-quvvatlash (AKKY) va moslashuvchan uslublarning yuqori darajadagi ijobiy korrelyatsiyasi ularning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ichki motivatsiyasini rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib berdi.

Demak, ushbu tadqiqot yangilik sifatida shuni ta‘kidlaydi:

pedagogik boshqaruv va muloqot uslublarining o‘zaro bog‘lanish tizimi empirik ravishda aniqlab berildi;

ijobiy motivatsiya va samaradorlikni ta‘minlovchi uslublar (jalb qiluvchi, moslashuvchan, yo‘naltiruvchi, tushuntiruvchi) nazorat va hukmronlikka asoslangan uslublardan sezilarli darajada ustunligi isbotlandi;

ta‘lim sifatini oshirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlarda passiv va betartib uslublarni minimallashtirish, avtonomiya va hamkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi uslublarni esa rivojlantirish zarurligi ilmiy asoslab berildi.

Tadqiqotning maqsadi – Pedagogik vaziyatlarda o‘qituvchining turli xulq-atvor uslublari va ularning subshkalalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, ularning o‘quvchilarning motivatsiyasi, ta‘lim jarayonining samaradorligi hamda psixologik muhitga ko‘rsatadigan ta‘sirini empirik asosda tadqiq qilish.

Tadqiqotning ob‘ekti – umumiy o‘rta maktablarda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘quv motivatsiyasi hamda autoritar uslubning ta‘sir jarayoni. Tadqiqot ishtirokchilari – 379 nafar o‘qituvchi va 525 nafar o‘quvchi.

Empirik o‘rganish natijalari.

Tadqiqot natijalarida pedagogik uslublarning turli pedagogik vaziyatlardagi xulq-atvor uslublariga tegishli bo‘lgan subshkalalari ham o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi. Bu subshkalalar o‘qituvchining o‘quvchiga munosabati, pedagogik muloqot xarakteri va nazoratning darajasi orqali ta‘lim jarayonining samaradorligiga turlicha ta‘sir ko‘rsatadi deb o‘ylaymiz. Pedagogik vaziyatlarda avtonomiyani qo‘llab-quvvatlash uslubi (AQQU) subshkalasi hisoblangan jalb qiluvchi uslub va moslashuvchan uslublar bo‘yicha ham bog‘lanishlar aniqlandi.

1-jadval.

Pedagogik vaziyatlarda xulq atvor-strategiyalari subshkalalari korrelyatsion munosabatlari matritsasi

	Jalb qiluvchi	Moslashuvchan	Yo‘naltiruvchi	Tushuntiruvchi	Talabchan	Hukmron	Mas’ ul. uzoq	Kuzatuvchi
HTU	-0.18	-0.14	-0.12	0.06	-0.10	0.24	0.20	0.08
HRU	0.36*	0.41*	0.39*	0.32*	0.27	-0.20	-0.24	-0.18
FTU	-0.12	-0.18	-0.14	0.04	0.22	0.26	0.19	0.08
FRU	0.38*	0.42*	0.45*	0.33*	0.29	-0.21	-0.23	-0.19
ABU	-0.20	-0.15	-0.12	-0.18	0.55*	0.60*	0.44*	0.20
LBU	-0.15	-0.14	-0.18	-0.22	-0.25	-0.22	0.40*	0.34
DBU	0.52*	0.70*	0.64*	0.58*	0.60*	-0.20	-0.28	-0.26
AQQU	0.86*	0.93*	0.71*	0.51	-0.15	-0.23	-0.31	-0.12
TXU	0.45*	0.74*	0.90*	0.89*	0.10	-0.02	-0.33	-0.22
NXU	-0.25*	-0.13	-0.10	0.20*	0.96*	0.94*	0.59*	0.36
BXU	-0.16	-0.31*	-0.40*	-0.17	0.48*	0.62	0.94*	0.79*

Izoh: *p<0.05; ** p<0.01

Jalb qiluvchi uslub o‘quvchilarni faol ishtirok ettirish va motivatsiyaga yo‘naltirish bilan tavsiflanadi. Jalb qiluvchi uslub hissiy rejali (r=0.36*), fikriy rejali (r=0.38*) va demokratik boshqaruv (r=0.52*) uslublari bilan kuchli ijobiy bog‘lanishga ega. Shu bilan birga, avtonomiya (r=0.86*) va tizimli uslublar (r=0.45*) bilan ham uyg‘un. Bu ko‘rsatkichlar jalb qiluvchi uslubning o‘quvchilarni faol ishtirok ettirish va

ijobiy motivatsiyani qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Bu uslub pedagogik jarayonda ijobiy emotsional muhit yaratishga xizmat qiladi. Moslashuvchan uslub vaziyatga moslashish va o'zgaruvchan holatlarga ijobiy reaksiya qaytarish bilan tavsiflanadi. Moslashuvchan uslub fikriy rejali ($r=0.42^*$), hissiy rejali ($r=0.41^*$), demokratik boshqaruv ($r=0.70^*$) va avtonomiya uslubi ($r=0.93^*$) bilan juda kuchli korrelyatsiyaga ega. Shuningdek, tizimli uslub ($r=0.74^*$) va yo'naltiruvchi uslub ($r=0.75^*$) bilan ham kuchli bog'liqlik aniqlangan. Bu holat moslashuvchan uslubning vaziyatga muvofiq reaksiya berish va demokratik muhitda samarali ishlash qobiliyatini ko'rsatadi.

Pedagogik vaziyatlarda tizimlashtiruvchi xulq-atvor uslubi tarkibidagi yo'naltiruvchi va tushuntiruvchi uslublar bo'yicha ham o'zaro intrakorrelyatsiyalar aniqlangan. Yo'naltiruvchi uslub o'quvchilarning harakatini tartibga solish va ularga yo'nalish berish bilan tavsiflanadi. Yo'naltiruvchi uslub fikriy rejali ($r=0.45^*$), hissiy rejali ($r=0.39^*$), demokratik boshqaruv ($r=0.64^*$), avtonomiya ($r=0.71^*$) va tizimli uslublar ($r=0.90^*$) bilan kuchli ijobiy bog'liq. Shu bilan birga, tartibsiz uslub bilan salbiy korrelyatsiya ($r=-0.40^*$) kuzatilgan. Bu holat yo'naltiruvchi uslubning tartib, tushuntirish va hamkorlikka asoslangani, xaotik holatlarni esa cheklashi bilan izohlanadi. Tushuntiruvchi uslub yo'naltiruvchi uslub ($r=0.60^*$), tizimli uslub ($r=0.89^*$), fikriy rejali ($r=0.33^*$) va demokratik boshqaruv ($r=0.58^*$) bilan ijobiy bog'liq. Bu uslub talabchan uslub ($r=0.24$) bilan ham o'rtacha ijobiy bog'liqlikka ega. Natijalar ko'rsatadiki, tushuntiruvchi uslub pedagogik jarayonda ma'lumot berish va izohlash orqali samaradorlikni oshiradi. Bu uslub ta'lim jarayonida o'quvchilarning mazmunni anglashini va ijobiy o'quv motivatsiyasini ta'minlaydi.

Nazoratga asoslanga xulq-atvor uslubi tarkibiga tegishli bo'lgan talabchan va hukmron uslublar bo'yicha ham o'zaro bog'lanishlar aniqlangan bo'lib, ular ham tahlili o'tkazildi. Talabchan uslub o'quvchilardan yuqori darajadagi mas'uliyat va intizomni talab qilishga asoslanadi. Talabchan uslub nazoratchi uslub bilan ($r=0.96^*$), hukmron uslub bilan ($r=0.80^*$) va mas'uliyatdan uzoqlashuvchi uslub bilan ($r=0.50^*$) kuchli bog'liq. Shu bilan birga, demokratik uslub ($r=0.60^*$) bilan ham ijobiy korrelyatsiyaga ega. Bu holat talabchan uslub tartib va intizomni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, avtoritar tendensiyalarga moyilligini ham ko'rsatadi. Hukmron uslub avtoritar boshqaruv bilan ($r=0.60^*$), nazoratchi uslub bilan ($r=0.94^*$) va tartibsiz uslub bilan ($r=0.62$) kuchli bog'liqlikka ega. Shu bilan birga, mas'uliyatdan uzoqlashuvchi uslub bilan ham yuqori korrelyatsiya ($r=0.63^*$) kuzatilgan. Bu holat hukmron uslubning intizomni ta'minlashda samarali bo'lsa-da, mas'uliyatdan chetga chiqish tendensiyalarini kuchaytiradi.

Pedagogik vaziyatlarda betartib (Xaotik) uslub tarkibiga mos kelgan mas'uliyatdan uzoqlashuvchi uslubning o'zaro boshqa uslublar bilan bog'liqligi aniqlandi. Mazkur uslub tartibsiz uslub ($r=0.94^*$), hukmron uslub ($r=0.63^*$) va talabchan uslub ($r=0.50^*$) bilan kuchli korrelyatsiyaga ega. Shu bilan birga, liberal boshqaruv uslubi bilan ham ijobiy bog'lanish ($r=0.40^*$) kuzatilgan. Bu holat mas'uliyatdan uzoqlashuvchi uslubning pedagogik jarayonda tartibsizlikka moyilligini va ayrim holatlarda mas'uliyatdan chetga chiqish xavfini ko'rsatadi. Pedagogik vaziyatlarda betartib (Xaotik) uslub tarkibiga mos kelgan Kuzatuvchi uslub tartibsiz uslub bilan ($r=0.79^*$), mas'uliyatdan uzoqlashuvchi uslub bilan ($r=0.52^*$), hukmron uslub bilan ($r=0.41^*$) bog'liq. Shu bilan birga, liberal boshqaruv uslubi bilan o'rtacha ijobiy bog'lanish ($r=0.34$) kuzatilgan. Bu holat kuzatuvchi uslubning passivlik va mas'uliyatni kechiktirish tendensiyalarini aks ettirishini ko'rsatadi. Boshqa uslublar kesimida esa u ko'p hollarda past va ahamiyatsiz korrelyatsiyalar bilan tavsiflanadi, bu esa uning o'quv jarayonida samarali psixologik qo'llab-quvvatlashdan ko'ra passiv va nazoratsiz yondashuvga moyil ekanini anglatadi. Umuman olganda, kutuvchi uslub ko'proq passiv pedagogik strategiya sifatida baholanib, o'quvchilarning faol ishtiroki va motivatsiyasini rag'batlantirishda samarador emas. U ayrim hollarda ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (masalan, o'quvchining erkin faoliyatini mustaqil kuzatishda), ammo ta'lim jarayonida barqaror samara berish uchun etarli emas.

To'rtta asosiy uslub – avtonomiyani qo'llab-quvvatlovchi, tizimli, nazoratchi hamda betartib uslublar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning tegishli subshkalalari o'qituvchi faoliyatida turli psixologik va pedagogik yo'nalishlarni namoyon etadi. Xususan, jalb qiluvchi, moslashuvchan, yo'naltiruvchi va tushuntiruvchi uslublar o'quv jarayonida hamkorlik va muloqotni kuchaytiradi, shu bilan birga o'quvchilarning ichki motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Bu turdagi uslublar ijobiy psixologik muhit yaratishda va ta'lim jarayonida o'quvchining faol ishtirokini rag'batlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, talabchan va hukmron uslublar intizom va me'yoriy qoidalarni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, ular ko'proq avtoritar va nazoratchi tendensiyalar bilan bog'liq. Bu holat ayrim hollarda ijodiy muhitni cheklash va o'quvchi avtonomiyasini susaytirish xavfini tug'dirishi mumkin. Mas'uliyatdan uzoqlashuvchi va kuzatuvchi uslublar esa pedagogik jarayonda tartibsizlik va passivlikning kuchayishi bilan tavsiflanadi.

Umuman olganda, jadval tahlili shuni anglatadiki, zamonaviy ta'lim tizimida ijobiy motivatsiya va muloqotga asoslangan uslublarni rivojlantirish, ortiqcha nazorat va hukmronlikka asoslangan yondashuvlarni

esa cheklash zarur. Bu yo‘l ta‘lim sifatini oshirish, o‘quvchi faolligini rag‘batlantirish hamda ijobiy psixologik muhitni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchining avtoritar uslubi o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasiga ikki tomonlama ta‘sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, u tartib-intizomni ta‘minlab, o‘quvchilardan yuqori natija talab qiladi, ikkinchi tomondan esa, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Natijada, tashqi motivatsiya kuchayib, ichki motivatsiya esa pasayishi mumkin.

Shuningdek, empirik tadqiqotlar (379 nafar o‘qituvchi va 525 nafar o‘quvchi ishtirokida) avtoritar uslubning o‘quvchilarda qo‘rquv va majburiyat asosidagi intizomni kuchaytirishini, biroq o‘qishga qiziqish va shaxsiy rivojlanishga to‘liq xizmat qilmasligini aniqladi. Shu bois, zamonaviy ta‘lim tizimida avtoritar yondashuvni demokratik va hamkorlikka asoslangan uslublar bilan uyg‘unlashtirish zarurligi ilmiy asoslandi.

Adabiyotlar:

1. Андреева Г.М., Богомолова Н.Н., Петровская Л.А. Зарубежная социальная психология XX столетия: Теоретические подходы: Учеб. пособие для вузов. -- М.: Аспект Пресс, 2002. - 287 с.
2. Андреев А. А. Роль и проблемы преподавателя в среде e-Learning //Высшее образование в России. – 2010. – №. 8-9. – С. 41-45.
3. Бодалев А. А. Специфика социально-психологического подхода к пониманию личности // Психология личности в трудах отечественных психологов. - СПб.: Питер, 2000. - С.336-344.
4. Гамезо М.В., Петрова Е.А., Орлова Л.М. Возрастная и педагогическая психология: Учеб. пособие для студентов всех специальностей педагогических вузов. — М.: Педагогическое общество России, 2003. — 512 с.
5. Гарбузов В. И., Фесенко Ю. А. Г20 Неврозы у детей. — СПб.: КАРО, 2013. — 336 с. — (Серия «Специальная педагогика»).
6. Маскалянова С.А. Формирование профессионального имиджа будущего социального педагога: Дис. ... канд. психол.наук. – Елес: ЕГУ им.И.А.Бунина. 2005. – 168 с.
7. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении: Кн. для учителя / В.А. Кан-Калик. – М.: Просвещение, 1987. - 190 с.
8. Ольховский В.Н. Личностные трудности общения обучаемых и их преодоление в условиях диалогического взаимодействия в процессе обучения.дис. ... канд. Психол. наук. - Нижний Новгород: НГЛУ, 1998.- 195с.
9. Пенто Г., Гравитс М. Методы социальных наук. - М.: Прогресс, 1972.-60с.
10. Рахмонов А. Касб-хунар таълими устаси профессиограммаси. // Халқ таълими. Тошкент, - 2001-№1-Б 52-55.
11. Сидоренкова А.В. Психология малой группы: ретроспективный научно-вспомогательный указатель отечественных трудов, изданных в СССР и России. 100 лет пути / Сост.: А.В. Сидоренков, В.А. Дорофеев, И.И. Сидоренкова, Н.Ю. Ульянова, О.Ю. Шипитько, Е.С. Коваль. Отв. ред. А.В. Сидоренков – М.: КРЕДО, 2014. – 268 с.
12. Тураева Д. Р. Психологические особенности стилей деятельности педагогов //Приоритетные направления развития спорта, туризма, образования и науки. – 2021. – С. 555-560.

MAHKUM SHAXSINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Turdiyev Zafar Erkinovich,

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Ushbu maqolada mahkumlarning kriminogen jarohatlanish sabablari, ularning psixologik oqibatlari, oldini olish usullari ko‘rib chiqiladi. Kriminogen omillar shaxsni jinoyat sodir etishga undaydigan asosiy psixo-ijtimoiy omillardir. Maqolada xalqaro va mahalliy tajribaga asoslangan zamonaviy psixokorreksiya yondashuvlari tahlil qilinadi. Statistik jadvallar va ilmiy ma‘lumotlardan foydalangan holda, kriminogen jarohatlarning oldini olishning psixologik samaradorligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: kriminogen travma, psixokorreksiya, mahkum, retsidivizm, profilaktika, kognitiv xulq-atvor terapiyasi (CBT), EMDR, rehabilitatsiya.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЛИЧНОСТИ ОСУЖДЕННОГО

В статье рассматриваются причины возникновения криминогенных травм у осуждённых, их психологические последствия и методы профилактики. Криминогенные факторы являются основными психосоциальными факторами, мотивирующими человека к совершению преступления. В статье анализируются современные психокоррекционные подходы, основанные на международном и отечественном опыте. На основе статистических таблиц и научных данных показана психологическая эффективность профилактики криминогенных травм.

Ключевые слова: криминогенная травма, психокоррекция, осуждённый, рецидивизм, профилактика, когнитивно-поведенческая терапия (КПТ), ДПДГ, реабилитация.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE CONVICT.

This article considers the causes of criminogenic trauma in convicts, their psychological consequences, and methods of prevention. Criminogenic factors are the main psychosocial factors that motivate a person to commit a crime. The article analyzes modern psychocorrection approaches based on international and local experience. Using statistical tables and scientific data, the psychological effectiveness of preventing criminogenic trauma is shown.

Keywords: criminogenic trauma, psychocorrection, convict, recidivism, prevention, cognitive behavioral therapy (CBT), EMDR, rehabilitation.

Kirish. Jinoiy qasd hosil bo‘lish mexanizmini aniqlashda jinoyatchilikning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bir qatorda jinoyatchining shaxsini chuqur o‘rganish ham zarur. Bunga ko‘p jihatdan ushbu individ kiradigan ijtimoiy guruhlar bilan tanishish yordam beradi. Ushbu shaxsning yaqinlari o‘rtasida hukmronlik qilayotgan o‘zaro munosabatlar tarkibini o‘rganish, bu shaxs a‘zo bo‘lgan ijtimoiy guruhlar psixologiyasini bilish, shaxs bilan jamiyat o‘rtasidagi aloqani, individual va ijtimoiy ong aloqasini aniqlash zarur. Har qanday insonning ijtimoiy qiyofasi ko‘p jihatdan uning mikro olami mazmuni bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu mikro olamning psixologik tuzilishi individual xulq uchun kuchli katalizator bo‘lib xizmat qiladi. Juda ko‘p hollarda xulqning xususiyati atrof-muhitdagi axloqiy me‘yorlarning mazmuniga bog‘liq bo‘ladi.

Kriminogen omillar va ruhiy travmalar shaxsning jinoyat sodir etishiga va jinoyatni takrorlashiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Jinoyat sodir etgan mahkumlarning aksariyati hayotida og‘ir psixologik travmalarga duch kelgan bo‘ladi. Ularning ko‘pchiligi bolalik yoki o‘smirlik davrida jismoniy, ruhiy zo‘ravonlikka uchragan. Shu boisdan, jazoni ijro etish muassasalarida psixologik xizmatlarning samaradorligi va tizimliliigi jinoyatchilikni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Mahkumlar orasida kriminogen travmalarni aniqlash, ularning psixologik oqibatlarini o‘rganish hamda samarali profilaktika va psixokorreksiya usullarini taklif qilish.

Mahkum — bu sud hukmi bilan jinoyatda aybdor deb topilib, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoga hukm qilingan shaxsdir. U jazoni **jazoni ijro etish muassasasida** (ya‘ni, qamoqxona yoki koloniyada) o‘tamoqda bo‘ladi(1).

Mahkum tushunchasining huquqiy izohi:

□ Jinoyat kodeksi yoki jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq, shaxs sud tomonidan aybdor deb topilib, unga nisbatan jazo tayinlanganidan so‘ng **mahkum** maqomiga ega bo‘ladi.

□ Mahkum — bu **sudlangan**, ammo ayni vaqtda jazoni o‘tayotgan shaxsni anglatadi(4,6).

Mahkumlar quyidagicha tasniflanadi:

1. **Birinchi marta sudlangan** – ilgari sudlanmagan va jinoyat sodir etganlar.
2. **Retsidivist** – ilgari ham jinoyat sodir etgan va yana jinoyat sodir etgan shaxs.
3. **Alohida tartibli muassasalarda saqlanuvchilar** – og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganlar.
4. **Voyaga yetmagan mahkumlar** – 14–18 yosh oralig‘idagi jinoyatchilar.

Psixologik nuqtayi nazardan:

Mahkumlar ko‘pincha:

- ☐ Ruhiy travmalarni boshidan kechirgan;
- ☐ Ijtimoiy izolyatsiyada bo‘lgan;
- ☐ Agressiya, tashvish, depressiya, umidsizlik holatlari kuzatiladi.

Kriminogen travma — bu shaxsning jinoyat sodir etishiga yoki jinoyatga moyil bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladigan **ruhiy-psixologik shikastlanish** holatidir(4).

Kriminogen travma — bu insonda ichki (psixologik) yoki tashqi (ijtimoiy) bosimlar ta’sirida vujudga kelgan, uni jinoyatga undashi mumkin bo‘lgan travmatik holat.

Mahkumlar bilan ishlash jarayonida ko‘plab psixologik muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu muammolarni tushunish va ular bilan ishlash, mahkumlarning rehabilitatsiyasini samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Mahkumlar odatda jinoiy javobgarlik va jazoga hukm qilinganlik natijasida o‘z hayotining keskin o‘zgarishi bilan yuzma-yuz keladi, bu esa ularning psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Mahkumlarning eng keng tarqalgan muammolaridan biri bu izolyatsiya va yolg‘izlik hissidir. Ozodlikdan mahrum etish jazosi tufayli ular jamiyatdan ajratiladi va odatdagi ijtimoiy aloqalarini yo‘qotadilar. Bu holat, ayniqsa, oilasi va yaqinlari bilan muntazam aloqada bo‘lib kelgan shaxslar uchun ruhiy jihatdan og‘ir kechadi. Ular yolg‘izlik va tashlandiqlik hissini boshdan kechirishlari mumkin, bu esa o‘z navbatida depressiyaga olib keladi. Shuningdek, jazoni ijro etish muassasalarida hayotning qattiq tartib-qoidalari mahkumlarda stress va bezovtalikni kuchaytiradi. Ular yangi sharoitlarga moslashish uchun ruhiy jihatdan katta kuch sarflashlariga to‘g‘ri keladi(9).

Mahkumlar ko‘pincha o‘tmishdagi xatti-harakatlari va jinoyatlari uchun chuqur afsus va aybdorlik hissini boshdan kechiradilar. Bu hissiyotlar, agar ular bilan to‘g‘ri ishlanmasa, psixologik holatni yomonlashtirib, o‘zini o‘zi past baholash va umidsizlikka olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, ayrim mahkumlar o‘z jinoyatlarini oqlashga harakat qilishi yoki javobgarlikni boshqa shaxslar yoki sharoitlarga yuklashga moyil bo‘lishlari mumkin. Bu esa psixologik himoya mexanizmlarining shakllanishiga olib keladi, lekin ular muammolarni hal qilish o‘rniga ularni chuqurlashtiradi.

Bundan tashqari, mahkumlar hayotining yangi tartibi ularda identifikatsiya inqirozini keltirib chiqarishi mumkin. Jazoni o‘tash davrida o‘zini kim ekanligini, qadr-qimmatini qayta baholash zaruriyati paydo bo‘ladi. Mahkumlar o‘zining oldingi ijtimoiy roldan ayrilib, yangi sharoitga moslashish uchun o‘z shaxsiyatini qayta qurishlariga to‘g‘ri keladi. Bu jarayon murakkab bo‘lib, ba’zan ichki qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Ko‘plab mahkumlarda kelajakka nisbatan umidsizlik hissi ham kuchayadi.

Ozodlikdan mahrum etish jarayoni davomida ular jamiyatga qaytganidan keyin qanday hayot kechirishi, o‘z o‘rnini topa olishi haqida chuqur xavotirlanadi. Bu xavotir, ayniqsa, uzoq muddatli jazoga hukm qilingan shaxslar uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Ular jamiyatning ularni qabul qilishiga yoki o‘zlariga nisbatan ishonchni tiklashlariga shubha bilan qaraydilar. Jazoni ijro etish muassasalarida zo‘ravonlik va bosim holatlari ham keng tarqalgan muammolardan biridir.

Mahkumlar o‘zaro munosabatlarda kuch ishlatish, qattiq ijtimoiy ierarxiya yoki qo‘rqitish holatlariga duch kelishi mumkin. Bunday sharoitlar ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir qiladi, stress va xavotirlikni oshiradi. Ayrim hollarda bu vaziyatlar ruhiy buzilishlarga, jumladan, posttravmatik stress buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, qamoqxona hayoti davomida yuzaga keladigan izolyatsiya va muntazamlikning cheklavlari mahkumlarning kognitiv qobiliyatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ularda diqqatni jamlash, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini pasayishi mumkin. Bu holat mahkumlarni rehabilitatsiya jarayonida qo‘shimcha qiyinchiliklarga duchor qiladi. Mahkumlar orasida psixoaktiv moddalar yoki spirtli ichimliklarga bog‘liqlik muammosi ham keng tarqalgan. Bu muammo nafaqat ularning sog‘lig‘iga, balki rehabilitatsiya jarayoniga ham salbiy ta’sir qiladi.

Bunday holatlarga duch kelgan mahkumlar bilan maxsus terapevtik yondashuvni talab qiladigan ishlar olib borilishi kerak. Mahkumlar orasida o‘z joniga qasd qilish xavfi ham yuqori darajada bo‘lishi mumkin. Bu, asosan, ruhiy tushkunlik, umidsizlik yoki boshqa mahkumlar bilan o‘zaro munosabatlarning murakkabligi tufayli yuzaga keladi.

Jazoni ijro etish muassasalari psixologlari ushbu holatlarning oldini olish va zarurat bo‘lganda zudlik bilan yordam ko‘rsatish uchun yuqori darajada hushyor bo‘lishlari kerak. Mahkumlar bilan ishlashda

ularning psixologik holatini yaxshilash va reabilitatsiya jarayonini samarali tashkil etish uchun ko‘plab omillarni hisobga olish zarur. Bu jarayonda psixologlarning malakasi, individual va guruhiiy treninglar, hamda moslashtirilgan dasturlar muhim rol o‘ynaydi(10). Har bir mahkumning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashuv ishlab chiqish ularning ijtimoiy hayotga qaytish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi va takroriy jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi.

Mahkumlar bilan tarbiyaviy jarayonlarni olib borishda turli muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu muammolar ularning shaxsiy xususiyatlari, jazoni ijro etish muassasalaridagi sharoitlar va jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlarning murakkabligi bilan bog‘liq. Birinchi navbatda, mahkumlarning tarbiya jarayoniga nisbatan qarshiligi muhim muammolardan biridir. Jazoni ijro etish joylarida ayrim mahkumlar tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etishdan bosh tortadi yoki bu jarayonlarga befarq qaraydi. Bu holat, ko‘pincha, ularning o‘zgarishga ishonmasligi yoki o‘ziga nisbatan e‘tibor yo‘qligini his qilishidan kelib chiqadi. Shuningdek, mahkumlarning o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlari tarbiyaviy ishlarni murakkablashtiradi. Ko‘pchilik mahkumlar ijtimoiy qoidalarini buzganlik uchun jazolangan bo‘lsa-da, ular bilan ishlashda ijtimoiy moslashuv, o‘z-o‘zini boshqarish va mas‘uliyatni his qilish qobiliyatlari yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatiladi. Bu holatlar tarbiyaviy jarayonlarni yanada qiyinlashtiradi, chunki avvalo ularning psixologik va axloqiy qoidalarini shakllantirish zarur bo‘ladi.

Jazoni ijro etish muassasalarida mavjud sharoitlar ham tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda qiyinchilik tug‘diradi. Mahkumlarning cheklangan sharoitlarda yashashi, ularning ruhiy va jismoniy salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, qamoqxona ichidagi zo‘ravonlik yoki bosim, tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini pasaytiradi(8). Mahkumlar o‘rtasida hukm suruvchi ijtimoiy ierarxiya va salbiy munosabatlar ham tarbiyaviy jarayonlarni murakkablashtiradigan omillardandir. Mahkumlarning bilim darajasi va hayotiy tajribasi tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ayrim mahkumlarda savodxonlik darajasi past yoki ta‘lim olish imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi mumkin. Bu holat ularni ijtimoiy qoidalarga moslashishga va yangi bilimlarni qabul qilishga qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli tarbiyaviy tadbirlar, avvalo, ularning bilim darajasiga mos ravishda tashkil etilishi kerak. Motivatsiya yetishmasligi ham mahkumlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning asosiy muammolaridan biridir.

Ko‘pchilik mahkumlar jazoni o‘tash davomida kelajakka nisbatan umidsizlikka tushadi va o‘z xatti-harakatlarini o‘zgartirishga motivatsiya topa olmaydi. Tarbiyaviy jarayonlarda motivatsiyani oshirish va mahkumlarni o‘zgarishga undash uchun individual yondashuv zarur. Bu esa qo‘shimcha vaqt va resurs talab qiladi. Yana bir muhim muammo, bu mahkumlarning jamiyat tomonidan qabul qilinishi masalasidir.

Mahkumlarning bir-biriga bo‘lgan salbiy munosabati yoki ular o‘rtasida mavjud bo‘lgan mojaro tarbiyaviy ishlarning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli, tarbiyaviy jarayonlarda ijtimoiy muloqotni yaxshilash va hamkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish lozim. Shuningdek, mahkumlar bilan ishlashda pedagoglar va psixologlarning malakasi ham muhim o‘rin tutadi. Agar tarbiyaviy jarayonni olib borayotgan mutaxassislar yetarli tajriba va bilimga ega bo‘lmasa, bu jarayonning samaradorligi pasayadi. Shu boisdan, tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi mutaxassislarni muntazam ravishda tayyorlash va malakasini oshirish zarur(7).

Xulosa. Tarbiyaviy muammolarni hal qilish uchun innovatsion yondashuvlar va ilg‘or metodlardan foydalanish zarur. Masalan, maxsus treninglar, psixologik mashg‘ulotlar va madaniy-tarbiyaviy tadbirlar mahkumlarning dunyoqarashini kengaytirish va ularning ijtimoiy hayotga moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi. Mahkumlarning tarbiya jarayonida faol ishtirokini ta‘minlash uchun interaktiv usullarni joriy qilish foydali bo‘lishi mumkin. Mahkumlar bilan tarbiyaviy ishlarda yuzaga keladigan muammolar ko‘p qirrali bo‘lib, har biri o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun individual va guruhiiy yondashuvlar, shuningdek, jamiyat bilan hamkorlikda ishlash zarur. Mahkumlarning tarbiyasi va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga qaratilgan samarali choralar ularning jamiyatga qaytish jarayonini yengillashtiradi va takroriy jinoyatchilikning oldini olishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Z.Elov. Социально-психологические причины формирования девиантного поведения у подростков. Pedagogik mahorat. Ilmiy jurnal. 2024
2. Z.S.Elov. Zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi. Pedagogik akmeologiya. Ilmiy jurnal 5/3. 2024
3. Элов Зиёдулло, Я. САМИНЖОНОВ. Ўсмирлар орасида ўз жонига қасд қилиш ҳолати психологик муаммо сифатида. 2024. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (2), 69-78

4. Z.Elov. Identifikatsiya jarayoni muammosining psixologiyada o'rganilishi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar integratsiyasi. Ilmiy konferensiya to'plami. 2023
5. Z.Elov. O'z joniga qads qilish masalasi jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (12), 50-54
6. Z.Elov. Shaxsda fobiya holati va uning diagnostikasi. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (11), 66-74
7. Z.S.Elov. Suitsidial xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o'rganilishi: tahlillar va nazariyalar. 2023. Science and Education 4 (10), 326-342
8. Z.S.Elov. Sud-psixologik ekspertizalar o'tkazishning huquqiy va tashkiliy asoslari. 2024. TECHNICAL SCIENCE Vol -2 Issue 1 1, 58-69
9. Z.S.Elov. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. 2022. Psixologiya ilmiy jurnal 1 (1, 2022), 27-29
10. Z.S.Elov. Sudga oid psixologik ekspertizasining rivojlanish jarayoni va tarixi. Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi 1 (2024/6), 112-Z.S.Elov. Sud-psixologik ekspertizasi tarixi va rivojlanish bosqichlari (ilmiy manbalar tahlili asosida). 2024. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar 2 (1), 3-8

**MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARIDA KREATIVLIK DARAJASINI
TASHXISLOVCHI METODLAR**

Uchqunova Adiba Roziq qizi,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2- kurs magistranti

Shahrisabz O'zbekiston

adibauchqunova@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0009-0005-2414-7685>

Maqolada mamlakatimizda so'nggi yillarda bo'lajak tarbiyachilarning kreativligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati, pedagogik islohotlar va ta'lim sifatini tubdan yaxshilash borasidagi sa'yi-harakatlar tahlil qilindi. Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish, pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish masalalari, shuningdek kreativlikni aniqlash va baholash metodlari haqida kengroq yoritilgan. Maqolada kreativ fikrlashni tashxislash uchun foydalaniladigan savolnomalar, testlar, kuzatuvlar, portfolyu va intervyu kabi metodlar tavsifi, ularning afzallik va cheklovlari ko'rib chiqiladi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning zamonaviy talablar va xalqaro tajribalarga muvofiqligi haqida mulohaza yuritiladi va pedagogik amaliyotda kreativlikni baholashda lokal metodlarni adaptatsiyalash zarurligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kreativlik, pedagogik islohotlar, maktabgacha ta'lim, ta'lim sifati, kreativ fikrlash, pedagog kadrlar tayyorlash, baholash metodlari, testlar, kuzatuv, portfolyu, intervyu, mustaqil fikrlash, innovatsion pedagogik texnologiyalar.

METHODS FOR ASSESSING THE LEVEL OF CREATIVITY IN PRESCHOOL TEACHERS

The article analyzes the state policies, pedagogical reforms, and efforts aimed at enhancing the creativity of future educators in Uzbekistan in recent years. It provides an extensive overview of the development of creative thinking in preschool and higher education systems, the preparation and professional development of pedagogical staff, as well as methods for identifying and assessing creativity. The article describes the advantages and limitations of various assessment tools such as questionnaires, tests, observations, portfolios, and interviews used to evaluate creative thinking. Additionally, it reflects on the alignment of ongoing reforms with modern requirements and international experiences, emphasizing the need to adapt local methods for evaluating creativity in pedagogical practice.

Key words: Creativity, Pedagogical reforms, Preschool education, Education quality, Creative thinking, Teacher training, Assessment methods, Tests, Observation, Portfolio, Interview, Independent thinking, Innovative pedagogical technologies.

**МЕТОДЫ ОЦЕНКИ УРОВНЯ КРЕАТИВНОСТИ ВОСПИТАТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНЫХ
УЧРЕЖДЕНИЙ**

В статье проанализирована государственная политика, педагогические реформы и предпринимаемые в последние годы в нашей стране усилия, направленные на повышение креативности будущих воспитателей и коренное улучшение качества образования. Широко освещаются вопросы развития креативного мышления у будущих педагогов, подготовки и повышения квалификации педагогических кадров, а также методы выявления и оценки креативности. В статье рассматриваются методы диагностики креативного мышления, включая анкеты, тесты, наблюдения, портфолио и интервью, с анализом их преимуществ и ограничений. Также обсуждается соответствие проводимых реформ современным требованиям и международному опыту, подчеркивается необходимость адаптации локальных методов оценки креативности в педагогической практике.

Ключевые слова: Креативность, Педагогические реформы, Дошкольное образование, Качество образования, Креативное мышление, Подготовка педагогических кадров, Методы оценки, Тесты, Наблюдение, Портфолио, Интервью, Независимое мышление, Инновационные педагогические технологии.

Kirish. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bo‘lajak tarbiyachilarning kreativligini oshirishga qaratilgan ishlar umumiy ta‘limning boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatini oshirish, pedagog kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish, hamda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni kuchaytirishga qaratilgan Prezident farmonlari, qarorlari va konsepsiyalar orqali amalga oshirilmoqda. Bularga "O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" kabilar kiradi, bu esa ta‘lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-davlat tizimini joriy etishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda jahon miqyosida yoshlarga xos bo‘lgan salohiyat, qiziqish va qobiliyatlarni inobatga olgan holda, bo‘lajak mutaxassislarning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy mas‘uliyat hissi, shuningdek, o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishlarini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo‘nalishda ularning ijodiy izlanishlarini rag‘batlantirish, kreativ yondashuv texnologiyalarini ishlab chiqish va ta‘lim jarayoniga joriy etish pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

Zamonaviy dunyo sharoitida tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muhit oliy ta‘lim tizimining xalqaro talablarga moslashishini, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq etishni va o‘qitishning ilg‘or, samarali usullarini qo‘llashni zarur qiladi.

Aynan shu maqsadlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ta‘lim tizimini isloh qilishga qaratilgan bir qator muhim hujjatlar – farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmon hamda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020-yil 23-sentabr, O‘RQ–637-son) ushbu sohadagi islohotlarning huquqiy asosini belgilab berdi[1].

Shuningdek, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qaroridaoliy ta‘lim muassasalarining tashabbuskorligini kuchaytirish, professor-o‘qituvchilarning malaka va pedagogik mahoratini muntazam ravishda monitoring qilish vazifalari belgilangan[2].

Bo‘lajak mutaxassislarning kreativ fikrlashi, o‘z-o‘zini rivojlantirish darajasi va bunga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash orqali oliy ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini oshirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-595-sonli hamda “Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli qarorlari doirasida pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlari tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan[3].

“Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning asosiy prinsiplarida”, pedagoglarning kasbiy standartlarida hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida (takomillashtirilgan 3-nashr) belgilangan vazifalar ijrosi orqali ushbu tizimda ham sifatli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.

Kreativlik — shaxsning yangi, original va samarali g‘oyalar, qarorlar yoki mahsulotlar shakllantirishdagi qobiliyati (novelty va usefulness) sifatida qaraladi. Maktabgacha ta‘limda kreativ pedagog tarbiyachi tarbiyalanuvchining ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun sharoit yaratishi va qo‘llab-quvvatlashi, metod va vositalardan foydalangan holda kreativlik darajasini aniqlashi lozim. Tarbiyachilarning kreativligi — bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi.

“Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati” U. Ziyayeva, Saydullayeva, N. B. Ergasheva - M. Abduqayumova, Ro‘ziyeva D, Rajabova Z, Karimova Sh, Xamidova M, N. Eraliyevlar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan chuqur yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlari – A. Aksenova, A. V. Morozov, D. V. Chernilevskiy, N. Veraks, N. A. Alekseev, Y. K. Kruglova, K. G. Krechetnikovlar esa kreativ yondashuv asosida ta‘lim sifatini oshirish va uning samaradorligini ta‘minlash masalalari yuzasidan tadqiqotlar olib borganlar. Ta‘lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish bilan bog‘liq omillar M. M. Zinovkina, A. V. Morozov, D. B. Chernilevskiy, V. N. Drujinin kabi olimlar tomonidan tahlil etilgan. Ijod psixologiyasiga doir konseptual yondashuvlar esa Y. A. Ponomaryov, A. N. Leontev va A. V. Morozovlar tomonidan ishlab chiqilgan. D. B. Bogoyavlenskaya o‘z tadqiqotlarida ijodiy fikrlash mexanizmlari, ijod mezonlari hamda tafakkur texnikalarini chuqur tahlil qilgan.

Mamlakatimizda barcha sohalarida jadal sur‘atlarda yangilanishlar olib borilayotgan hozirgi davrda, albatta, oliy ta‘lim tizimi ham innovatsion islohotlar jarayonidan chetda qolmayapti. Bu esa o‘qituvchining metodik tayyorgarligini, mashg‘ulotlarni kreativ ruhda tashkil etish qobiliyatini va turli ta‘limiy usul hamda vositalarni amaliyotga samarali tatbiq eta olishini taqozo etadi. Natijada pedagogning kasbiy kompetensiyasi yuksaladi, bu esa o‘z navbatida ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda shaxslar oʻrtasidagi intellektual farqlarning mavjudligi bilan birga, ijodkorlik, liderlik va tashkilotchilik qobiliyatlaridagi tafovutlarga ham alohida eʼtibor qaratish zarur. Bunday masalalarning hal qilinishi taʼlim sohasida yuzaga kelayotgan koʻplab muammolarga yechim topish imkonini beradi.

Xususan, boʻljak mutaxassislarning mustaqil fikrlashi, oʻquv-tarbiyaviy jarayonlarda faol ishtiroki, shuningdek, ularning kasbiy va ijtimoiy jihatdan shakllanishi masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maʼlumki, har qanday davlatning yuksalishi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorligi avvalo uning fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatiga bogʻliq.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, boʻljak mutaxassislarning oʻquv-tarbiyaviy faoliyatidagi yuqori natijalarga erishish, oʻqituvchilarning ijodiy yondashuvga ega boʻlishlarini talab qiladi. Kreativ taʼlim muhiti esa talabalarda doʻstona raqobat muhitini shakllantiradi, bilim olishdan zavqlanish, oʻz ijodiy salohiyatini baholash, oʻziga boʻlgan ishonchni mustahkamlash, shuningdek, ijtimoiy-psixologik jihatdan qulay muhitni vujudga keltiradi.

Kreativ taʼlimga yoʻnaltirilgan noodatiy mashgʻulotlar talabalarning motivatsiyasini oshirib, ularning oʻquv-tarbiyaviy faoliyatini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Bu esa oʻz navbatida taʼlim jarayonining sifat koʻrsatkichlarini yanada yaxshilaydi.

Maʼlumki, har bir kasb oʻziga xos yondashuvni, faoliyatning oʻziga xos vazifa va shakllarini talab qiladi. Xususan, pedagogik faoliyat oʻz tabiatiga koʻra oʻqituvchining fikrlash madaniyatiga yuqori talablar qoʻyadi. Zero, oʻqituvchining mustaqil fikrlash darajasi bevosita oʻquvchilar va talabalar orasida mustaqil fikr yuritiladigan shaxslarni shakllantirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Kreativlikni tashxislashga oid nazariy asoslar

- Kreativlik jihatlari: - (fikir oqimi),
- Tarbiyachining kreativ fikrlash yoʻnalishi — ustuvorlik, ochiqlik, risk olish, mustaqil fikrlash va boshqalar.

- Pedagogik muhit va pedagogning oʻzini-oʻzi baholashi ham kreativlik darajalariga taʼsir qiladi.

Tashxislash metodlari va vositalari

Quyida boʻljak tarbiyachilar uchun kreativlik darajasini oʻlchashda ishlatiladigan metodlar, ularning tahliliy ustunliklari va cheklovlari keltiriladi.

Metod / Vosita	Tavsifi	Foydasi	Cheklovlari
Savolnomalar / anketalar	Tarbiyachilarning kreativ fikrlash yoʻnalishlari (disposition), yaratishga undovchi xatti-harakatlari va pedagogik ishtiyori boʻyicha soʻraladi.	Tez, arzon, keng auditoriyaga tatbiq qilish mumkin; statistik tahlil imkoniyati bor.	Javoblar ijtimoiy istalganlikdan taʼsirlanishi mumkin; real faoliyatni aks ettirmasligi ehtimoli; mustaqil baholash qiyin.
Testlar (kreativ fikrlash testlari)	Verbal va non-verbal testlar orqali tarbiyachilar fikr oqimi, yangilik va batafsillik boʻyicha baholanadi. Masalan, <i>Torrance Tests of Creative Thinking</i> testlari[5].	Kreativlikning aniq jihatlari oʻlchash; test natijalarini solishtirish imkoniyati; malaka rivojlanishini kuzatish.	Test boshi til va madaniyatga bogʻliq boʻlishi mumkin; talab etadigan vaqt va resurslar; baʼzan test vazifalari pedagogik kontekstdan uzoq boʻlishi mumkin.
Kuzatuv (observation)	Pedagogik faoliyat davomida tarbiyachining bolalar bilan muloqoti, dars usullari, pedagogik muhit, kreativ metodlar qoʻllanishini mashholatlar yordamida baholash. Masalan, “Observation Instrument to Evaluate Early Childhood Educator’s Teaching Strategies using Creative Arts”[9].	Real vaziyatda qanday metodlar ishlatilayotganini koʻrish; amaliy koʻnikmalarni baholash imkoniyati; kontekstga mos baho berish.	Kuzatuvchilar subyektivligi; kuzatuv jarayonida tarbiyachi normadan chetga chiqishi mumkin; vaqt va malakali kuzatuvchi zarur.
Portfelyu / ijodiy ishlar:	Tarbiyachilar ijodiy loyihalar, dars rejalari, bolalar bilan yaratgan mahsulotlari, kreativ	Tarbiyachining kreativlik namoyonini va natijani koʻrsatish;	Natijalar baholash shamoyilida boʻlishi mumkin; portfelyu

	faoliyatlari portfelyusi.	davomiylik va jarayonni aks ettiradi.	yig‘ish, saqlash, baholash jarayoni murakkab; kriteriyalar aniq bo‘lishi zarur.
Intervyu, fokus-guruhlar	Tarbiyachidan va hamkasblaridan kreativlik haqidagi tushunchalar, metodlar, muammolar haqida ma’lumot olish.	Tashqarida qolgan omillar (motivatsiya, pedagogik ishtiyori, muhit) haqida chuqur tushuncha hosil qiladi; metodlarni qanday qo‘llayotganini ochib beradi.	Subyektiv ma’lumotlar; javoblar shaxsiy fikrlarga asoslanadi; tahlil qilish qiyin; keng o‘lchovga kengaytirish murakkab bo‘lishi mumkin.
Intervyu, fokus-guruhlar	Tarbiyachidan va hamkasblaridan kreativlik haqidagi tushunchalar, metodlar, muammolar haqida ma’lumot olish.	Tashqarida qolgan omillar (motivatsiya, pedagogik ishtiyori, muhit) haqida chuqur tushuncha hosil qiladi; metodlarni qanday qo‘llayotganini ochib beradi.	Subyektiv ma’lumotlar; javoblar shaxsiy fikrlarga asoslanadi; tahlil qilish qiyin; keng o‘lchovga kengaytirish murakkab bo‘lishi mumkin.
Mezonlar asosida baholash (criterion-referenced assessment)	Kreativlik bo‘yicha aniq mezonlar (estetik qiymat, jarayon) asosida baho berish. Masalan, so‘nggi yillarda “normativ-mezonli baholash” tez-tez taklif qilinmoqda[6]	Baholash mezonlari kriptik emas; baholanadigan jihatlar aniq; pedagogik nazoratni yengillashtiradi; bolalar (yoki tarbiyachi) ishlari asosida baho.	Mezonlarning adolatli va madaniyatga mos tanlanishi kerak; baholovchi malakasi yuqori bo‘lishi lozim; mezonni belgilash jarayoni murakkab.
Mixed metodlar	Savolnoma + kuzatuv + test + ijodiy ishlar + intervyu kombinatsiyasi.	Har tomonlama baho; subyektiv va obyektiv ma’lumotlarni uyg‘unlashtirish; aniqlik yuqori.	Resurs va vaqt talab qilishi; murakkab tahlil; barcha metodlarni qo‘llay oladigan malakali mutaxassis kerak.

So‘nggi yillarda qo‘llanilgan tadqiqot misollari

- Uşak universitetidagi tadqiqotda tarbiyachilarning kreativ fikrlash yo‘nalishlari *Marmara Creative Thinking Disposition Scale* yordamida o‘lchangan[4].

- “Creativity in Early Childhood: How educators from Australia and Italy are documenting the creative thought processes of young children” maqolasida bolalar kreativ fikrlash jarayonlari dokumentatsiyasi (documentation) metode ishlatilgan. [6]

- “A new perspective on scoring children’s originality: a standards-based criterion-referenced assessment approach” (2025) maqolasida bolalarning original fikrlarini normsiz baholash mezonlari asosida baholash taklif qilingan[8].

- Malayziyada tarbiyachilar uchun “Creative teaching instrument for children’s language arts” nomli vosita tuzilib, uning mazmuniy haqiqiyliigi (content validity) ekspertlar yordamida tekshirilgan[7].

Amalga oshirish tavsiyalari

Metod tanlashda quyidagilarni inobatga olish lozim:

1. **Kontekstga moslik** — metod, test yoki kuzatuv tarbiyachilar ishlayotgan maktabgacha ta’lim muassasasining sharoiti, til va madaniyatiga mos bo‘lishi kerak.

2. **Multi-metodik yondashuv** — kreativlik darajasini aniqroq, to‘laonli baholash uchun bir nechta metodni birlashtirish tavsiya etiladi: test + kuzatuv + savolnoma + portfelyu.

3. **Mezon va indikatorlarni aniqlik bilan belgilash** —indikatorlar aniq mezonlar asosida tushuntirilishi va baholovchilarga yetarli trening berilishi lozim.

4. **Baholovchi malakasi va neytralligini ta’minlash** —baholash mezonlarida baholashda shaxsiy xohish-istak, kam bo‘lishi kerak.

5. **Doimiy kuzatuv va rivojlanish kuzatilishi** — bir martalik tadqiqot emas, balki vaqt davomida kreativlik darajasi qanday oʻzgarishini monitoring qilish foydali.

Xulosa. Maktabgacha taʼlim tarbiyachilaridagi kreativlikni aniqlash muhim pedagogik masala hisoblanadi. Savolnomalar, testlar, kuzatuv, portfolyu, interlokutor metodlari va mezon asosida baholash kabi metodlar har biri oʻzining afzallik va kamchiliklariga ega. Soʻnggi yillardagi tadqiqotlarning koʻpchiligi pedagogik amaliyotda metod uygʻunligini, real kontekstni hisobga olishni va baholash vositalarining ishonchliligi hamda haqiqiylikni oshirishga yoʻnaltirilgan. Kelajakda Oʻzbekistonda matbuotda yoki ilmiy jurnallarda ushbu metodlarni lokal sharoitda validatsiyadan oʻtkazish, indikatorlar va testlarni adaptatsiya qilish orqali kreativlik darajasini tushunarli va obyektiv ravishda aniqlash mumkin.

Adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida” gi Qonuni 23.09.2020-yil, OʻRQ-637-son.
2. Oʻzbekiston Respublikasining Prezidentining 2018- yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Qarori.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 5-maydagi PQ-4312-son “Oʻzbekiston Respublikasida maktabgacha taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Qarori.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentning 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son “Maktabgacha taʼlim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori.
5. Anı Ar, G., & Delen, İ. (2023). *Examination of Early Childhood Teachers' Creative Thinking Tendencies and Critical Thinking in Desi*.
6. Mat Saberi, N. A., Radzi, N. M., & Loy, C. L. (2023). Assessing content validity of preschool teacher's creative teaching instrument for children's language arts: A Study based on CFTI (Creativity Fostering Teacher Index) using the Content Validity Ratio (CVR). *Jurnal Pendidikan Bitara UPSI Special Issue*, 16 (2), 147-156.
7. Bahar, K., & Maker, C. J. (2025). A new perspective on scoring children's originality: a standards-based criterion-referenced assessment approach. *Frontiers in Psychology*, 16.
8. Creativity in early childhood: how educators from Australia and Italy are documenting the creative thought processes of young children. (2024). *SN Social Sciences*, 4:74.
9. Sooriye Arıcı, E., & Keskin, H. K. (2023). Examination of Creativity Levels of Preschool Children. *Educational Policy Analysis and Strategic Research*, 18(1), 237-250.
10. Sharma, E., & Sharma, S. (2018). Creativity nurturing behaviour scale for teachers. *International Journal of Educational Management*, 32(6), 1016-1028.

О‘QUVCHI-YOSHLAR ONGIDA KORRUPSIYAGA QARSHI PSIXOLOGIK IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Xamidov Mansurjon Abduxalilovich,

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

“Noila” ijtimoiy ko‘mak, huquqiy targ‘ibot va monitoring markazi rahbari

Ushbu maqolada yosh avlodda korrupsiyaga nisbatan murosasiz axloqiy pozitsiyani shakllantirishning psixologik omillari tahlil qilinadi. Halollik, adolat, mas’uliyat va fuqarolik e’tiqodi kabi axloqiy qadriyatlarning shakllanish jarayoni psixologik mexanizmlar asosida yoritilgan. Tadqiqotda ijtimoiy o‘rganish, emotsional intellekt va axloqiy identifikatsiya tushunchalari orqali yoshlarning korrupsiyaga munosabatini shakllantirishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi nafaqat huquqiy, balki psixologik va ma’naviy jarayon sifatida ham alohida e’tiborni talab etadi. Chunki korrupsiyaga qarshi immunitet inson tafakkurida, e’tiqodida va qadriyat tizimida shakllanadi. Yosh avlod ongida murosasiz axloqiy pozitsiyani tarbiyalash orqali jamiyatda halollik va adolat qadriyatlari mustahkamlanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni (2017) hamda 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son qarorida yoshlar orasida halollik tamoyillarini singdirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida belgilangan. Shu bois mazkur mavzu yosh avlod tarbiyasining psixologik asoslarini tahlil qilishda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, axloqiy pozitsiya, yoshlar, halollik, e’tiqod, emotsional intellekt, ijtimoiy ong, psixologik immunitet.

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА ПРОТИВ КОРРУПЦИИ В СОЗНАНИИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ

В статье рассматриваются психологические механизмы формирования у молодежи непримиримой нравственной позиции по отношению к коррупции. Раскрыты процессы развития честности, ответственности и гражданской совести через призму эмоционального интеллекта, моральной идентичности и социальных установок.

Современные исследования подчеркивают, что борьба с коррупцией невозможна без формирования у молодежи устойчивых нравственных ориентиров и внутренней моральной ответственности. В Узбекистане принятые государственные программы и Закон «О борьбе с коррупцией» (2017 г.) направлены на воспитание нетерпимости к любым проявлениям коррупции. В этом контексте особое значение приобретает развитие психологических механизмов, способствующих становлению внутренней моральной устойчивости личности.

Ключевые слова: коррупция, нравственная позиция, молодежь, моральное сознание, честность, совесть, эмоциональный интеллект.

FACTORS OF DEVELOPING PSYCHOLOGICAL IMMUNITY AGAINST CORRUPTION IN THE MIND OF YOUNG STUDENTS

This article explores the psychological mechanisms underlying the development of an uncompromising moral stance against corruption among young people. It examines how honesty, justice, and civic responsibility are formed through emotional intelligence, moral identity, and social learning processes.

In today’s society, combating corruption requires not only legal reforms but also psychological efforts aimed at strengthening moral awareness among youth. The Law of the Republic of Uzbekistan “On Combating Corruption” (2017) and Presidential Decree PQ-5177 (2021) emphasize the need to instill integrity, responsibility, and intolerance toward corruption in younger generations. This study highlights the psychological basis of these processes.

Keywords: corruption, moral stance, youth, honesty, conscience, emotional intelligence, moral identity, social learning.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyotining asosiy ko‘rsatkichi nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy yutuqlar, balki fuqarolarning axloqiy yetukligi va halollik madaniyati bilan ham belgilanmoqda. Korrupsiya insoniyat tarixidagi eng qadimiy ijtimoiy illatlardan biri sifatida har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishiga tahdid soladi. Ayniqsa, yosh avlod ongida bu illatga nisbatan murosasizlik hissini tarbiyalash davlat siyosatining muhim vazifasiga aylanmoqda. Chunki korrupsiyaga nisbatan befarqlik yoki uni “odatiy

hol” sifatida qabul qilish yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini zaiflashtiradi, jamiyatda adolatga ishonchni pasaytiradi va ijtimoiy ongda axloqiy relativizmni kuchaytiradi. Shu bois, yoshlar ongida halollik, adolat va mas’uliyat tamoyillarini mustahkamlash bugungi kunning dolzarb psixologik, ma’naviy va tarbiyaviy masalalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Harakatlar strategiyasi”da korrupsiyaga qarshi kurashish, halollik muhitini shakllantirish va davlat xizmatchilari hamda yoshlarning axloqiy immunitetini kuchaytirish vazifalari ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shuningdek, 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorda “Korrupsiyaga qarshi mafkurani shakllantirish, aholida halollik qadriyatlarini mustahkamlash” masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu hujjatlar korrupsiyaga qarshi kurashni faqat huquqiy emas, balki psixologik va ma’naviy-tarbiyaviy jarayon sifatida ko‘rish zarurligini ta’kidlaydi. Zero, korrupsiyaga qarshi immunitet inson qalbida, ongida va e’tiqodida shakllanadi; qonunlar esa ushbu jarayonni mustahkamlovchi tashqi mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Asosiy qism. Psixologik nuqtayi nazardan, yosh avlodda korrupsiyaga murosasiz axloqiy pozitsiyani shakllantirish inson shaxsining ichki qadriyat tizimini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Axloqiy pozitsiya — bu shaxsning “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri” harakatlarni farqlash, o‘z xatti-harakatini ijtimoiy me’yorlar bilan muvofiqlashtirish, halollik va adolat tamoyillariga sodiq qolish qobiliyatidir. Shaxsda bu sifatlar erta yoshdan boshlab oilaviy tarbiya, ta’lim muhitidagi qadriyatlar tizimi, pedagogik ta’sir va ijtimoiy model orqali shakllanadi. Shu jihatdan, psixologik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilgan tarbiya nafaqat bilim beradi, balki halollikni shaxsiy e’tiqodga aylantiradi.

A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, insonlar axloqiy me’yorlarni bevosita ko‘rgan, eshitgan va his qilgan namunalar orqali o‘zlashtiradi. Demak, yoshlar oldida halol, vijdonli, adolatli shaxslar namunasi bo‘lishi korrupsiyaga qarshi psixologik immunitetning eng samarali yo‘lidir (10).

Mavzuning dolzarbligini kuchaytiruvchi yana bir omil — bu yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirish, ularni halollikning faol targ‘ibotchisiga aylantirish zaruriyatidir. Chunki korrupsiyaga qarshi mafkura faqat ta’qiqlar bilan emas, balki yosh avlodning ongida “halollik bu hayot tarzi” degan e’tiqodni shakllantirish orqali mustahkamlanadi. 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan qabul qilingan “Halollik kodeksini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaror ham yoshlarni korrupsiyadan xoli tafakkur egalariga aylantirish, halollikni ta’limning ajralmas qadriyatiga aylantirishni maqsad qilgan. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim tizimi, psixologik xizmatlar va fuqarolik tarbiyasi institutlarining o‘zaro hamkorligini talab etadi.

Yosh avlodda korrupsiyaga nisbatan murosasiz axloqiy pozitsiyani shakllantirish — bu murakkab, ammo zarur ijtimoiy-psixologik jarayondir. Bu jarayonning muvaffaqiyati shaxsning axloqiy tafakkuri, emotsional intellekti, fuqarolik o‘zini anglash darajasi va ijtimoiy e’tiqod tizimi bilan uzviy bog‘liq. Shuning uchun, korrupsiyaga qarshi immunitetni rivojlantirishda faqat tashqi nazorat emas, balki ichki o‘zini boshqarish, ongli qaror qabul qilish va axloqiy refleksiya mexanizmlarini faollashtirish muhimdir. Shu yo‘sinda tarbiyalangan yoshlar korrupsiyani nafaqat qonuniy jihatdan, balki axloqiy va ruhiy jihatdan ham rad etuvchi fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekiston jamiyatida halollik, adolat va ishonch muhitini mustahkamlashning eng ishonchli garovidir.

O‘zbekiston olimlari ishlarida korrupsiyaga qarshi murosasiz axloqiy pozitsiya, avvalo, shaxsning qadriyatlar tizimi, fuqarolik ong va tarbiya jarayonining psixologik mexanizmlari bilan bog‘lanadi. Mahalliy tadqiqotlar halollikni “shaxsiy e’tiqod va ijtimoiy mas’uliyat” sifatida ichkilashtirish zarurligini ta’kidlaydi: maktab va oliy ta’limdagi axloqiy-ma’naviy tarbiya bloklari, yoshlar bilan ishlashda emotsional-intellektual yondashuv, empatiya va ijtimoiy adolat hissini mustahkamlovchi treninglar samarali deb ko‘riladi. Adabiyotlarda oilaviy model (ota-onaning halol xulqi), o‘qituvchi shaxsiy namunasining ta’siri, hamda mahalla–maktab–OAV uchligi orqali ijobiy axloqiy narrativni shakllantirish muhim omillar sifatida tasvirlanadi. Shuningdek, profilaktik ta’lim (halollik darslari, muhokama va dilemmalar, rol o‘yinlari) hamda refleksiv metodlar (kundalik, “mening qadriyatlarim” mashqlari) yoshlarning axloqiy identifikatsiyasini mustahkamlashi qayd etiladi.

MDH psixologiya maktabi (ixtisoslashgan pedagogik-psixologik yo‘nalishlar) adabiyotlarida axloqiy ong ijtimoiy vaziyat va madaniy-tarixiy omillar bilan chambarchas bog‘liq ekaniga urg‘u beriladi. Vygotskiy–Leontyev faoliyat yondashuvi axloqiy qarorlar “ma’no-motiv” tizimi va ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish orqali shakllanishini tushuntiradi: yoshlar “ko‘riladigan namunalar”ga ergashib, axloqiy me’yorlarni faol ta’lim-tarbiyaviy muhitda egallaydi. Kohlberg ta’sirida rivojlangan sharhlar axloqiy fikrlash bosqichlari bo‘yicha o‘sishni rag‘batlantirishda muammoli vaziyatlar, dilemmalar, munozarali topshiriqlarning ahamiyatini ko‘rsatadi. MDH doirasidagi zamonaviy ishlarda “halollik kapitali” va “ijtimoiy

ishonch” tushunchalari bilan ishlanib, ijtimoiy ishonch past bo‘lgan muhitda korrupsiyaga bag‘rikenglikning psixologik mexanizmlari (normativ relativizm, “hamma shunday qiladi” stereotipi) tahlil qilinadi; buning yechimi sifatida jamoaviy me‘yorlarni qayta kodlash, ijtimoiy mukofotlash va shaffof muloqot mexanizmlari taklif etiladi (1).

Jahon tadqiqotlari murosasiz axloqiy pozitsiyaning uch tayanchini ajratadi:

- (1) moral identity — “men kimman?” degan savolda halollikning markaziy o‘rin tutishi;
- (2) social learning — halol ro‘l modellari va jamoaviy me‘yorlar ta‘sir;
- (3) emotional–moral cognition — empatiya, adolatga sezgirlik, axloqiy his-tuyg‘ularni boshqarish.

Bandura (ijtimoiy o‘rganish) korrupsiyaga bag‘rikenglikni “ijtimoiy oqlash” mexanizmlari (rasionalizatsiya, mas‘uliyatni yoyish) orqali tushuntiradi; ularni buza oladigan metodlar sifatida “qarama-qarshi narrativ” va hisobdorlik algoritmlari tavsiya etiladi (10).

Kohlberg va o‘zidan keyingi ishlanmalar “moral dilemma discussion” texnikalari bilan axloqiy fikrlashni yuqori bosqichlarga ko‘tarishni samarali deb topadi (9).

Emotsional intellekt (Goleman; Mayer–Salovey–Caruso) va prososial affektlar (empatiya, shukronalik, uyat/himmatning konstruktiv talqini) yoshlarda korrupsiyaga ichki immunitetni kuchaytirishi ko‘rsatiladi. CASEL‘ning ijtimoiy-emotsional o‘rganish (SEL) modeli halollikni besh kompetensiya (o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabatlar, mas‘uliyatli qaror) bilan integratsiyada berishni samarali deb asoslaydi (8).

Sintez va bo‘shliqlar. Adabiyotlar kesishmasi uch xulosaga olib keladi: birinchidan, murosasiz axloqiy pozitsiya — shaxsiy e‘tiqod + ijtimoiy me‘yor + emotsional o‘zini boshqarish sintezi; ikkinchidan, “namuna–muloqot–refleksiya” uchligi (halol model, ochiq muhokama, shaxsiy aks ettirish) uzluksiz ishlaganda, bag‘rikenglik stereotiplari yemiriladi; uchinchidan, maktab–oil–media koalitsiyasida ijtimoiy mukofotlash (halollikni ko‘rinarli e‘tirof etish) va mikro-nizolarni hal qilish ko‘nikmalari barbad qiluvchi ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mahalliy kontekstda uzunlamasına (longitudinal) tadqiqotlar, halollik dasturlarining randomizatsiyalangan baholari, axloqiy identitetni o‘lchovchi mahalliy validlangan instrumentlar yetishmaydi. Bu bo‘shliqni to‘ldirish uchun kontekstga mos psixometriya (moral identity, injunctive/descriptive norms, empathy scales), “halollik laboratoriyalari” (school-based integrity labs) va SEL+Moral Education integratsion dasturlarini sinovdan o‘tkazish zarur.

Amaliy implikasiya. Tahlilga tayangan holda, samarali intervensiya paketi quyidagicha ko‘rinish oladi: (a) moral identity coaching — shaxsiy qadriyat deklaratsiyasi, rolli insho va “kelajakdagi men” mashqlari; (b) normative reframing — “hamma shunday qiladi” narrativini ma‘lumotli dalillar va tengdosh yetakchilar orqali inkor etish; (c) moral dilemma clinics — real hayotiy vaziyatlar asosida strukturali muhokamalar; (d) SEL-trening — emotsional o‘zini boshqarish va empatiyani kuchaytirish; (e) visible recognition — halol xatti-harakat uchun ochiq e‘tirof va ijtimoiy mukofot; (f) family–school pact — ota-ona bilan halollik bo‘yicha muloqot protokollari. Shu tarzda, adabiyotlar tavsiya qilgan psixologik mexanizmlar mahalliy ta‘lim va tarbiya tizimiga mos integratsiya qilinadi va korrupsiyaga murosasiz axloqiy pozitsiya barqaror ravishda shakllanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yosh avlod ongida murosasiz axloqiy pozitsiyani shakllantirishning psixologik asosi shaxsning qadriyatlar tizimi, ichki e‘tiqodi va ijtimoiy identifikatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Inson o‘zini halol va adolatli shaxs sifatida qabul qilgan sari, u korrupsiya bilan bog‘liq har qanday xatti-harakatni nafaqat huquqiy, balki axloqiy jihatdan ham rad etadi. Shaxsiy qadriyatlar tizimining shakllanishi esa oila, ta‘lim muassasasi, ijtimoiy guruhlar va ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan me‘yoriy signallar bilan mustahkamlanadi. Shu jarayonda shaxsning emotsional intellekti, ya‘ni his-tuyg‘ularni anglash va boshqarish qobiliyati, hamda empatiya darajasi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Emotsional-intellektual rivojlangan yoshlar ijtimoiy adolatsizlikka befarq qaray olmaydi, ular o‘z atrofida halollik me‘yorini tabiiy ijtimoiy qadriyat sifatida ko‘rishadi(3).

Psixologik nuqtayi nazardan, korrupsiyaga nisbatan murosasizlik shaxsning axloqiy refleksiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘z xatti-harakatlari oqibatlarini chuqur tahlil qilish, ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan baholash qobiliyatini anglatadi. Bu jarayon L. Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasiga muvofiq, axloqiy tafakkurning yuqori bosqichlariga ko‘tarilish orqali yuz beradi. Shaxs avval tashqi me‘yorlar asosida “yaxshi” va “yomon”ni farqlasa, keyinchalik ichki e‘tiqodga asoslangan holda o‘z axloqiy tamoyillarini shakllantiradi. Shu bosqichda “korrupsiya – jamiyatga zarar keltiruvchi xatti-harakat” degan tushuncha shaxsiy ishonch darajasiga aylanadi. Psixologik jihatdan bu “axloqiy identitet” shakllanishining eng muhim bosqichidir.

Yoshlarning axloqiy pozitsiyasini shakllantirishda A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi ham alohida ahamiyatga ega {10}. Unga ko‘ra, insonlar o‘z xulqini kuzatuv, taqlid va modellash orqali o‘rganadi. Agar ta‘lim tizimida, OAVda va oilaviy muhitda halollik va adolat qadriyatlari amalda namoyon bo‘lsa,

yoshlar ularni ongli ravishda o‘zlashtiradi. Aksincha, korrupsiya amaliyoti ijtimoiy jihatdan “normal” sifatida ko‘rsatilsa, bu illat ongda ijobiy modellashirilgan xatti-harakat sifatida mustahkamlanadi. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurash faqat jazolash bilan emas, balki halollikni jamiyatda psixologik jihatdan mukofotlanadigan xatti-harakat sifatida targ‘ib etish bilan samarali bo‘ladi.

Shuningdek, yoshlarning korrupsiyaga nisbatan murosasiz pozitsiyasini shakllantirishda ijtimoiy-emotsional o‘rganish (SEL) konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi. Bu yondashuvda shaxs o‘z his-tuyg‘ularini tanib olish, boshqarish, boshqalarga nisbatan empatiya ko‘rsatish, mas‘uliyatli qarorlar qabul qilish va ijobiy munosabatlar o‘rnatishni o‘rganadi. Bunday kompetensiyalar shakllangan taqdiridagina yosh inson ijtimoiy bosimga berilmaydi, korrupsiya kabi illatlarga “yo‘q” deya oladi. O‘zbekiston ta‘lim tizimida SEL modelini axloqiy-ma‘naviy tarbiya darslariga integratsiya qilish, ayniqsa, halollik, vijdon, mas‘uliyat mavzularida interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazish samarali natija beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyaga nisbatan murosasizlik darajasi ijtimoiy muhitdagi ishonch va ijtimoiy adolat hissi bilan bevosita bog‘liqdir. Agar yoshlar jamiyatda adolatli munosabat va halollik qadriyatlarini real hayotda kuzatsa, ularning psixologik barqarorligi kuchayadi. Shu sababli, ta‘lim tizimi, oila va OAV o‘rtasida halollik mafkurasini uzluksiz targ‘ib qiluvchi “uchburchak model”ni yo‘lga qo‘yish zarur. Bu modelda o‘qituvchi, ota-ona va media agentlar bir xil qadriyatlar tizimiga tayangan holda yosh ongini shakllantiradi. Psixologik jihatdan bu — “konsistent ijtimoiy signal” tamoyilidir: yosh shaxs atrof muhitda bir xil axloqiy yo‘nalishni ko‘rsa, u o‘z e‘tiqodini mustahkamlaydi va ziddiyatli illatlarga qarshi immunitet hosil qiladi.

Yosh avlodda korrupsiyaga murosasiz axloqiy pozitsiyani shakllantirishning eng samarali mexanizmlaridan biri — bu refleksiv o‘qitish va psixologik treninglar tizimidir. Halollik, adolat va vijdon mavzularida muhokama va dilemmalar asosidagi mashg‘ulotlar o‘tkazish, shaxsiy kundalik yozish, rolli o‘yinlar, hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish yoshlarning o‘zini anglash, mas‘uliyatni his qilish va ijtimoiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, o‘qituvchilar, psixologlar va mentorlar uchun “halollik psixologiyasi” bo‘yicha maxsus malaka oshirish dasturlarini joriy etish korrupsiyaga qarshi mafkurani amaliy jihatdan kuchaytiradi.

Yakuniy jihatdan aytish mumkinki, korrupsiyaga murosasiz axloqiy pozitsiyani shakllantirish nafaqat ma‘naviy, balki chuqur psixologik jarayon bo‘lib, u shaxsning ichki e‘tiqodi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy mas‘uliyat hissining uyg‘unlashuvi bilan belgilanadi. Ushbu jarayonni tizimli yo‘lga qo‘yish orqali O‘zbekiston jamiyatida halollik qadriyati hayot tamoyiliga aylanishi, yosh avlod esa korrupsiyasiz tafakkur egalariга aylanishi mumkin.

1-jadval.

Yosh avlodda korrupsiyaga murosasiz axloqiy pozitsiyani shakllantirishning psixologik omillari tizimi

T/r	Omil nomi	Mazmuni	Psixologik mexanizmlar	Shakllantirish vositalari	Kutilayotgan natija
1	Qadriyat-e‘tiqod omili	Shaxsning halollik, adolat, vijdon va mas‘uliyat qadriyatlarini shaxsiy e‘tiqod darajasida qabul qilishi	Axloqiy identifikatsiya, refleksiya, o‘zini anglash	Axloqiy muhokamalar, qadriyatlar bo‘yicha treninglar, o‘zini tahlil kundaliklari	Shaxsiy axloqiy barqarorlik, halollikni hayot tamoyiliga aylantirish
2	Ijtimoiy o‘rganish omili	Shaxsning halol xulqni kuzatuv va taqlid orqali o‘rganishi, ijobiy modeldan saboq olishi	Ijtimoiy modellashirish, Bandura mexanizmi	Ota-ona, o‘qituvchi va yetakchilar shaxsiy namunasi, video va sahna ko‘rinishlari	Halollikka nisbatan ijobiy munosabat, murosasizlik stereotipining shakllanishi
3	Emotsional intellekt omili	His-tuyg‘ularni anglash va boshqarish, empatiya asosida ijtimoiy adolatni his qilish	Emotsional o‘zini boshqarish, empatik sezgirlik	SEL-treninglar, muloqot mashg‘ulotlari, konflikt vaziyatlar tahlili	Adolatga nisbatan sezgirlik, hissiy barqarorlik, ijtimoiy mas‘uliyat
4	Axloqiy tafakkur omili	“To‘g‘ri” va “noto‘g‘ri”ni baholash, ijtimoiy	Kognitiv qayta ishlov, Kohlberg	Axloqiy dilemmalar, guruhli tahlil, o‘z	Ongli qaror qabul qilish, korrupsiyani

		me'yorlarni tahlil qilish ko'nikmasi	bosqichlari	qarorini asoslash topshiriqlari	axloqan rad etish
5	Ijtimoiy muhit omili	Ta'lim, oila va media muhitida halollik qadriyatining ustuvor targ'ib etilishi	Ijtimoiy tasdiqlash, normativ barqarorlik	Halollik darslari, ijtimoiy reklama, ota-ona-maktab hamkorligi	“Halollik madaniyati”ning jamiyatda mustahkamlanishi
6	Motivatsion omil	Shaxsning halollikni ijobiy natijaga olib keluvchi qadriyat sifatida anglash darajasi	Ichki motivatsiya, ijobiy mustahkamlash	Rag'bat tizimi, halollik uchun mukofotlash, ijtimoiy tan olinish	Korrupsiyaga murosasizlik va halollikni qadrllovchi hayotiy motivatsiya

1-jadvalda yosh avlodda korrupsiyaga murosasiz axloqiy pozitsiyani shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillar tizimli tarzda ifodalangan. Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, korrupsiyaga qarshi ichki immunitet shunchaki huquqiy bilim yoki ma'naviy targ'ibot natijasi emas, balki shaxsning psixologik yetukligi, e'tiqodi va ijtimoiy o'zini anglash darajasi bilan belgilanadi. Jadvalda berilgan omillar bir-biri bilan o'zaro uzviy aloqada bo'lib, ular shaxsning axloqiy ongini shakllantirish, ijtimoiy his-tuyg'ularni boshqarish, halollikni qadriyat sifatida ichkilashtirish va korrupsiyaga nisbatan murosasizlikni ongli ravishda qaror toptirishga xizmat qiladi.

1-jadvalning birinchi omili — qadriyat-e'tiqod omili bo'lib, u korrupsiyaga qarshi psixologik immunitet tizimining asosini tashkil etadi. Bu omil orqali shaxs halollik, adolat, vijdon va mas'uliyat kabi qadriyatlarni o'z hayotining bosh tamoyiliga aylantiradi. Psixologik nuqtai nazardan bu jarayon axloqiy identifikatsiya va refleksiya mexanizmlari orqali yuz beradi. Agar yosh inson “men halol insonman” degan ichki e'tiqodni shakllantirgan bo'lsa, u har qanday g'irromlikni axloqan qabul qilmaydi. Shu bois bu omilni rivojlantirishda halollik mavzusida o'tkaziladigan muhokamalar, qadriyatlar kundaliklari va refleksiv treninglar muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchi omil — ijtimoiy o'rganish omili — korrupsiyaga qarshi axloqiy pozitsiya shakllanishida ijtimoiy model va kuzatuv orqali o'zlashtirish jarayonini anglatadi. A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, inson xatti-harakatni kuzatish va taqlid qilish orqali o'rganadi. Shunga ko'ra, yoshlar atrofdagi shaxslarning xatti-harakatlarini o'z ongida ijobiy yoki salbiy model sifatida mustahkamlab boradi. Agar jamiyatda halollik qadriyatlari ko'proq targ'ib qilinsa, yoshlar bu fazilatni ijobiy xulqiy norma sifatida qabul qiladi. Aksincha, korrupsiya holatlari “odatiy” tarzda ko'rsatilsa, bu illat psixologik jihatdan me'yorga aylanish xavfi mavjud. Shu sababli, ijtimoiy o'rganish omilini kuchaytirish uchun halol insonlar hayoti, halollik qadriyatlarini namoyon etuvchi film va teatr sahnalari, yetakchilar shaxsiy namunasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi omil — emotsional intellekt omili — korrupsiyaga murosasiz munosabat shakllanishida hissiy tahlil va o'zini boshqarish mexanizmlarining ahamiyatini ko'rsatadi. Yuqori darajadagi emotsional intellekt shaxsga o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish, boshqalarning hissiy holatini anglash va ijtimoiy adolatga nisbatan empatik sezgirlikni rivojlantirish imkonini beradi. Psixologik tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, emotsional jihatdan rivojlangan yoshlar adolatsizlikka befarq bo'lmaydi va ijtimoiy illatlarni axloqan qoralay oladi. Shu sababli, bu omilni rivojlantirish uchun SEL (Social Emotional Learning) treninglari, empatiya mashg'ulotlari va ijtimoiy konfliktlarni tahlil etuvchi mashqlar samarali vosita hisoblanadi.

To'rtinchi omil — axloqiy tafakkur omili — shaxsning kognitiv darajada “to'g'ri” va “noto'g'ri”ni farqlash, axloqiy me'yorlarni anglash va ularni ongli ravishda qo'llash qobiliyatini anglatadi. L. Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasiga muvofiq, shaxs axloqiy tafakkurning yuqori bosqichlariga ko'tarilgan sari, u jamiyatning ijtimoiy manfaatini shaxsiy foydadan ustun qo'yadi. Bunda axloqiy dilemmalarni tahlil qilish, guruhli muhokamalar va “agar men shu holatda bo'lsam” kabi refleksiv mashqlar axloqiy tafakkur darajasini oshiradi. Shu orqali yoshlar korrupsiyani nafaqat qonuniy jihatdan jinoyat, balki axloqan nomaqbul hodisa sifatida anglay boshlaydi.

Beshinchi omil — ijtimoiy muhit omili — shaxsning axloqiy qarashlarini mustahkamlovchi tashqi ijtimoiy muhit bilan bog'liq. Agar ta'lim muassasalari, oila va OAV halollik, vijdon va mas'uliyat qadriyatlarini bir xil ohangda targ'ib etsa, bu yoshlarning ongida normativ barqarorlikni yaratadi. Aksincha, muhitda ikkiyuzlamachilik yoki ziddiyatli xabarlar mavjud bo'lsa, bu yoshlar ongida kognitiv dissonansni keltirib chiqaradi. Shu sababli, 1-jadvalda ijtimoiy muhitni mustahkamlovchi choralar sifatida “halollik darslari”, “oila-maktab-media” hamkorlik modeli va axloqiy targ'ibot kompaniyalari tavsiya etiladi.

Oltinchi omil — motivatsion omil — halollikka bo‘lgan ichki rag‘bat va shaxsiy qoniqish hissi bilan bog‘liq. Psixologik nuqtai nazardan bu omil “ichki motivatsiya” mexanizmi orqali ishlaydi. Agar shaxs halollikni o‘zining shaxsiy g‘ururi va e‘tiqodi sifatida qabul qilsa, u korrupsiyaga nisbatan barqaror qarshilikni shakllantiradi. Rag‘bat tizimida halol xatti-harakat uchun ijtimoiy e‘tirof va ochiq mukofotlar mavjud bo‘lsa, bu yoshlarning ichki motivatsiyasini yanada kuchaytiradi. Natijada “men halol bo‘lishim kerak” degan tashqi majburiyat “men halol bo‘lishni istayman” degan ichki ishonchga aylanadi.

Umuman olganda, 1-jadvalda ko‘rsatilgan omillar integratsiyalashgan holda ishlaganda, ular shaxsning axloqiy tafakkuri, emotsional barqarorligi, ijtimoiy ong va qadriyat tizimini uyg‘unlashtiradi. Bu esa yosh avlodda korrupsiyani nafaqat qonuniy, balki axloqiy va ruhiy jihatdan qabul qilib bo‘lmaydigan illat sifatida tan olishga olib keladi. Natijada shaxsda ichki halollik e‘tiqodi, ijtimoiy adolatga sadoqat, empatik sezgirlik va ijtimoiy mas‘uliyat hissi kuchayadi. Shunday qilib, 1-jadvalda aks ettirilgan tizim yosh avlodda korrupsiyaga murosasiz axloqiy pozitsiyani shakllantirishning psixologik modeli sifatida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Yosh avlodda korrupsiyaga murosasiz axloqiy pozitsiyani shakllantirish — bu nafaqat ma‘naviy tarbiya masalasi, balki psixologik, ijtimoiy va axloqiy mexanizmlarning uyg‘un faoliyatini talab qiluvchi murakkab jarayondir. Korrupsiya hodisasi jamiyatning ma‘naviy poydevorini yemiruvchi, shaxsiy e‘tiqodni zaiflashtiruvchi, halollik va adolat qadriyatlarini so‘ndirishga qaratilgan salbiy ijtimoiy illat hisoblanadi. Shu bois yoshlar ongida korrupsiyaga nisbatan qat‘iy, murosasiz axloqiy pozitsiyani shakllantirish har bir demokratik jamiyatning ustuvor psixologik-ma‘naviy vazifasidir. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarning samaradorligi shaxsning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy muhitdagi signallar va psixologik tarbiya vositalarining uyg‘unligiga bog‘liqdir.

Mazkur mavzuning psixologik mohiyati shundaki, korrupsiyaga murosasiz axloqiy pozitsiya — bu shaxsning ichki e‘tiqodi, vijdoni, mas‘uliyat hissi va empatik sezgirligi natijasida shakllanadigan ijtimoiy-axloqiy holatdir. Yosh inson korrupsiya mohiyatini faqat huquqiy nuqtayi nazardan emas, balki axloqiy va insoniy qadriyatlar mezonida anglab yetgan taqdirdagina, u bunday illatni ongli ravishda rad eta oladi. Shaxsning halollikka nisbatan psixologik tayanchi, uning axloqiy tafakkuri, refleksiv fikrlash darajasi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy sezgirlikiga tayanadi. Shu jihatdan, oila, ta‘lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari hamda psixologik xizmatlar o‘zaro uzviy hamkorlikda faoliyat yuritgan taqdirdagina korrupsiyaga nisbatan barqaror psixologik immunitetni shakllantirish mumkin (2).

O‘tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning korrupsiyaga nisbatan munosabati ularning emotsional-intellektual rivojlanish darajasi, qadriyat yo‘nalganliklari va ijtimoiy muhitdagi tajribalari bilan bevosita bog‘liq. Korrupsiyani rad etish uchun shaxsda empatiya, axloqiy refleksiya, o‘zini anglash, adolatga ishonch va halollikni qadrlash kabi psixologik xususiyatlar rivojlangan bo‘lishi zarur. Shu sababli, halollikni shunchaki nazariy g‘oya sifatida emas, balki shaxsiy e‘tiqod darajasidagi qadriyatga aylantirish ta‘lim va tarbiya tizimining asosiy maqsadlaridan biri bo‘lishi lozim. Bu jarayonni samarali tashkil etishda ijtimoiy o‘rganish nazariyasi (Bandura), axloqiy tafakkur bosqichlari (Kohlberg), emotsional intellekt konsepsiyasi (Goleman) va ijtimoiy-emotsional o‘rganish (SEL) modeli kabi zamonaviy psixologik yondashuvlardan foydalanish zarur (8).

Yosh avlodda korrupsiyaga murosasizlikni shakllantirishning samarali yo‘li — bu qadriyatga asoslangan tarbiya tizimidir. Agar ta‘lim muassasalari, oila va jamiyat halollik, vijdon, adolat va mas‘uliyat qadriyatlarini yagona yo‘nalishda targ‘ib etsa, bu ijtimoiy barqarorlikning poydevoriga aylanadi. Shu bilan birga, o‘quv jarayonida axloqiy dilemmalar asosidagi muhokamalar, refleksiv kundaliklar, “Halollik saboqlari”, rolli o‘yinlar va emotsional treninglar orqali yoshlarning axloqiy tafakkuri va emotsional barqarorligi kuchaytiriladi. Natijada ular korrupsiyani nafaqat noqonuniy, balki insoniy qadriyatlarga zid hodisa sifatida idrok etadi.

Yakuniy jihatdan aytganda, yosh avlodda korrupsiyaga murosasiz axloqiy pozitsiyani shakllantirish jamiyatning ma‘naviy yangilanishiga, psixologik sog‘lom muhit barpo etilishiga va fuqarolik mas‘uliyatining kuchayishiga olib keladi. Bunday pozitsiya shakllangan yoshlar halollikni hayotiy tamoyil, adolatni esa insoniylik mezoni sifatida qabul qiladi. Shu tariqa, korrupsiyaga qarshi kurash faqat qonun bilan emas, balki ongli, emotsional va axloqiy jihatdan mustahkam shaxslar tarbiyasi orqali amalga oshiriladi. Mazkur ilmiy g‘oya O‘zbekiston jamiyatida halollik, vijdon, mas‘uliyat va adolat qadriyatlariga asoslangan korrupsiyasiz tafakkur egalarini voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Birinchidan, korrupsiyaga qarshi murosasiz axloqiy pozitsiyani shakllantirishda ta‘lim tizimi yetakchi o‘rin tutadi. Shu bois O‘zbekiston ta‘lim muassasalarida barcha fanlar kesimida halollik, vijdon, mas‘uliyat va adolat qadriyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan “Halollik psixologiyasi” moduli joriy etilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur modul orqali o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilim, balki refleksiv tafakkur, axloqiy tanlov qilish, ijtimoiy mas‘uliyatni his etish va korrupsiya holatlariga psixologik jihatdan “yo‘q”

deyish ko‘nikmalari singdiriladi. Shu bilan birga, universitetlar va kollejlarda miqyosida “Halollik haftaligi”, “Adolat kuni”, “Vijdon saboqlari” kabi amaliy-ma’naviy tadbirlarni muntazam o‘tkazish yoshlarning qadriyat ongini mustahkamlaydi (1).

Ikkinchidan, oila muhitida halollikni qadriyat sifatida targ‘ib etish va yoshlarning ichki e’tiqod tizimini rivojlantirish zarur. Chunki shaxsning korrupsiyaga munosabati eng avvalo oilaviy qadriyatlarga tayanadi. Shu maqsadda ota-onalar uchun “Halollik va vijdon tarbiyasi” mavzusida psixologik-ma’rifiy treninglar, maslahatlar va seminarlar tashkil etish lozim. Ota-onalar bolalarga o‘z xatti-harakati bilan halollik namunasi bo‘lishi, ularning oldida adolatli, rostgo‘y va mas’uliyatli xulqni namoyon etishi eng kuchli psixologik ta’sir vositasidir. Bunday oilalarda ulg‘ayayotgan yoshlar korrupsiyani nafaqat qonuniy, balki axloqiy jihatdan ham nomaqbul deb biladi.

Uchinchidan, ta’lim muassasalarida psixologik xizmat tizimini kuchaytirish va yoshlarning axloqiy, emotsional hamda ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi dasturlarni kengaytirish lozim. Har bir maktab va oliy ta’lim muassasasida psixologlar tomonidan “axloqiy dilemmalar”, “adolatli tanlov”, “o‘zini anglash” va “ijtimoiy mas’uliyat” mavzularida guruhli treninglar o‘tkazilishi zarur. Bu mashg‘ulotlar yoshlarning refleksiv tafakkurini rivojlantiradi, ularda emotsional intellekt, empatiya va o‘zini boshqarish qobiliyatini kuchaytiradi. Psixologik xizmatlar faqat muammolarni aniqlash bilan cheklanmasdan, yoshlarning axloqiy pozitsiyasini mustahkamlovchi profilaktik faoliyatni ham olib borishi lozim.

To‘rtinchidan, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali korrupsiyaga qarshi ongni psixologik jihatdan shakllantirish muhimdir. Televizion ko‘rsatuvlar, ijtimoiy reklama, qisqa metrajli filmlar va ijobiy psixologik kontentlar orqali “Halollik – g‘urur”, “Vijdon – kuch”, “Adolat – insonlik belgisi” kabi g‘oyalarni yoshlar ongiga singdirish zarur. Bunda axborot vositalari nafaqat ogohlantiruvchi, balki ruhlantiruvchi, ma’naviy motivatsiyani kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlashi kerak. Ijtimoiy tarmoqlarda halollik timsoli bo‘lgan insonlar hayoti, ularning tajribalari va jamiyatga foydali ishlari ommalashtirilsa, bu yoshlar ongida ijobiy psixologik model sifatida mustahkamlanadi.

Beshinchidan, davlat siyosati darajasida korrupsiyaga qarshi psixologik tarbiya konsepsiyasini ishlab chiqish va uni ta’lim-tarbiya tizimiga integratsiya qilish dolzarbdir. Ushbu konsepsiya halollik, vijdon, adolat va fuqarolik mas’uliyati kabi psixologik kategoriyalarni yosh avlod tarbiyasining markaziga qo‘yishi kerak. Har bir ta’lim bosqichida yoshlarning axloqiy tafakkurini baholovchi psixodiagnostik testlar, halollik indeksleri, empatiya va mas’uliyat o‘lchovlarini qo‘llash orqali ularning rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini beradi. Bu esa nafaqat tarbiya jarayonini samarali nazorat qilish, balki shaxsning psixologik o‘sish yo‘nalishini aniqlashga ham xizmat qiladi.

Xulosa. Yakuniy tavsiya sifatida aytish mumkinki, yosh avlodda korrupsiyaga muvosiis axloqiy pozitsiyani shakllantirish har tomonlama yondashuvni talab qiladi: oila – e’tiqod manbayi, ta’lim – axloqiy tafakkur o‘chog‘i, psixologik xizmat – hissiy barqarorlik kafolati, media esa – ijtimoiy ong shakllantiruvchidir. Ana shu tizim uzviy ishlaganda, yoshlar korrupsiyani nafaqat noqonuniy, balki insoniylikka zid illat sifatida anglab, halollikni hayotiy mezon sifatida qabul qiluvchi avlod sifatida shakllanadi.

Adabiyotlar:

1. Karimova V. M. Psixologiya. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti, 2019. – 350 b.
2. Nishonova Z. Shaxs kamoloti va axloqiy tarbiya psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2021. – 280 b.
3. Uralboyev Z. Ijtimoiy ong va axloqiy pozitsiya shakllanishida psixologik omillar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 245 b.
4. Xo‘jayev M. Oila va jamiyatda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishning psixologik asoslari. – Toshkent: Istiqlo, 2020. – 212 b.
5. Божович Л. И. Личность и её формирование в детском возрасте. – Москва: Педагогика, 1981. – 352 с.
6. Кольберг Л. Психология морального развития. – Москва: Академия, 2003. – 288 с.
7. Бандура А. Теория социального научения. – Санкт-Петербург: Евразия, 2000. – 320 с.
8. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.
9. Kohlberg L. Essays on Moral Development. Vol. 1: The Philosophy of Moral Development. – San Francisco: Harper & Row, 1981. – 420 p.
10. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1986. – 617 p.

**OTM PROFESSOR-O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

Xashimova Aziza Alisherovna,
*Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani 382-DMTT direktori,
mustaqil tadqiqotchi*

Mazkur maqolada oliy ta‘lim muassasalaridagi professor-o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda integrativ yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Maqolada kasbiy kompetensiya tushunchasi, uning tarkibiy elementlari va rivojlantirish yo‘nalishlari yoritiladi. Shuningdek, integrativ yondashuv orqali professor-o‘qituvchilarning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdagi samaradorligi va ta‘lim sifatini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Integratsiya jarayonining nazariy tamoyillari va amaliy usullari, shuningdek, oliy ta‘lim muhitida kasbiy tayyorgarlikni yaxshilashga doir tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetensiya, integrativ yondashuv, professor-o‘qituvchi, oliy ta‘lim, pedagogik faoliyat, innovatsion texnologiyalar, ta‘lim sifati.

**SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL
COMPETENCE OF HIGHER EDUCATIONAL PROFESSORS AND TEACHERS ON THE BASIS
OF AN INTEGRATIVE APPROACH**

This article analyzes the scientific and theoretical foundations of the integrative approach to the development of professional competence of professors and teachers in higher education institutions. The article covers the concept of professional competence, its structural elements and development directions. It also examines the possibilities of increasing the effectiveness of professors and teachers in the use of innovative pedagogical technologies and the quality of education through an integrative approach. Theoretical principles and practical methods of the integration process, as well as recommendations for improving professional training in the higher education environment, are presented.

Keywords: professional competence, integrative approach, professor, higher education, pedagogical activity, innovative technologies, quality of education.

**НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НА
ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА**

В статье анализируются научно-теоретические основы интегративного подхода к развитию профессиональной компетентности преподавателей вузов. Рассматривается понятие профессиональной компетентности, её структурные элементы и направления развития. Также рассматриваются возможности повышения эффективности деятельности преподавателей вузов в использовании инновационных педагогических технологий и качества образования посредством интегративного подхода. Представлены теоретические принципы и практические методы реализации интегративного подхода, а также рекомендации по совершенствованию профессиональной подготовки в системе высшего образования.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, интегративный подход, преподаватель, высшее образование, педагогическая деятельность, инновационные технологии, качество образования.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari o‘z kasbiy faoliyatida nafaqat predmet doirasidagi bilimlar bilan cheklanib qolmasliklari, balki fanlararo integratsiya tamoyillarini chuqur anglab, turli fanlarni o‘zaro bog‘liq holda taqdim eta olish salohiyatiga ega bo‘lishlari zarur. Fanlararo integratsiya – bu turli fanlar mazmunini bir butun, yaxlit bilim sifatida talabalarga yetkazish orqali ularning tahliliy fikrlashini rivojlantirish, real hayotdagi muammolarni hal qilishga yo‘naltirish imkonini beruvchi samarali yondashuvdir.

Metodik salohiyat esa o‘qituvchining kasbiy faoliyatida metod, uslub, vosita va strategiyalarni to‘g‘ri tanlay olish, ularni didaktik maqsadlarga muvofiq qo‘llay bilish, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni sinf sharoitida samarali joriy etish qobiliyatini ifodalaydi [3,45]. Fanlararo integratsiyaga

asoslangan kasbiy tayyorgarlik jarayoni, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun, ularning kelgusidagi o'qituvchilik faoliyatiga zamin yaratadi. Bu jarayonda o'quv dasturlarining uyg'unligi, darsliklar mazmunining integrativligi, amaliy mashg'ulotlarning tizimli va tahliliy ruhda olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining metodik salohiyatini oshirishda fanlararo integratsiyaga asoslangan yondashuv zamonaviy pedagogika oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi kunda ta'lim tizimining samaradorligi o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari, ayniqsa, metodik salohiyati bilan chambarchas bog'liq. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi esa ko'p qirrali bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, turli fanlar mazmunini uyg'unlashtirib, o'quvchilarga yaxlit bilim berishi lozim. Shu nuqtai nazardan, fanlararo integratsiya — boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni real hayot bilan bog'lash, darslarni qiziqarli va samarali tashkil etishda muhim metodik vosita sifatida qaralmoqda [4,12].

Fanlararo integratsiya – bu o'quv dasturlarini loyihalashda yoki ta'lim jarayonini tashkil qilishda turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olish, o'zaro uyg'un holda bilim berish jarayonidir. Bu yondashuv o'quvchilarda faqatgina bilim emas, balki amaliy faoliyatga yo'naltirilgan ko'nikmalarni shakllantirishga, ularni ijtimoiy, madaniy va ilmiy jarayonlarga faol jalb etishga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan ta'limning asosiy ustunliklari:

- Fanlar o'rtasidagi chegaralarni bartaraf etadi;
- O'quvchining ongida yaxlit dunyoqarashni shakllantiradi;
- Bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish imkonini yaratadi;
- Ta'lim mazmunini kontekstual, ya'ni mazmunga boy va maqsadga yo'naltirilgan qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi ta'lim sifatini oshirish va talabalar tayyorlash samaradorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Dunyo miqyosida ta'lim jarayonlari doimiy ravishda o'zgarib, rivojlanib bormoqda, shuning uchun professor-o'qituvchilarning bilimlari, ko'nikmalari va professional malakalari zamonaviy talab va me'yorlarga javob berishi zarur. Bugungi kunda kasbiy kompetensiyani faqat alohida fan yoki metodika doirasida shakllantirish yetarli emas; buning o'rniga integrativ yondashuv asosida rivojlantirish, ya'ni turli fanlararo, metodlararo va amaliyotaro bog'liqlikni inobatga olgan holda kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi murakkablashib, talablar ham yanada oshmoqda. Professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi ta'lim sifatini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Integrativ yondashuv ta'lim jarayonida turli sohalarining bilimlarini birlashtirish, o'quv jarayonini yanada samarali va mazmunli qilish imkonini beradi. Bu yondashuv professor-o'qituvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish, balki ularni amaliyotda qo'llash, yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, shuningdek, o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun samarali usullarni ishlab chiqish imkonini yaratadi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish hozirgi kunda ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda muhim vazifa sifatida ko'rilmogda. Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarda kasbiy kompetensiyaning tarkibi, shakllanishi va rivojlanish mexanizmlari, shuningdek, uni samarali rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlar haqida ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Biroq, professor-o'qituvchilarning kasbiy malakasini integrativ tarzda oshirish, ayniqsa, OTMLar sharoitida, yetarlicha o'rganilmagan va bu sohada yangi yondashuvlarni joriy etish zarurati mavjud. Shu bois, mazkur maqolada professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini integrativ yondashuv orqali rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari, uning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Integrativ yondashuv – bu turli fanlar, metodlar va amaliyotlarni birlashtirish orqali o'qituvchilarning bilim va malakalarini kengaytirish va chuqurlashtirish imkonini beruvchi pedagogik printsipdir. Bu yondashuv professor-o'qituvchilarning ko'p qirrali kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga, shuningdek, ularning innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llashiga yordam beradi.

Kasbiy kompetensiya – bu professor-o'qituvchining o'z kasbiga doir bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsiy fazilatlar yig'indisidir. U professional faoliyatda samarali ishlash uchun zarur bo'lgan nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni, pedagogik mahorat va innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: pedagogik, metodik, ilmiy-tadqiqot, axloqiy va kommunikativ kompetensiyalar.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda integrativ yondashuvning roli; Integrativ yondashuv kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki u professor-o'qituvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etishga yordam beradi. Masalan, pedagogik va metodik bilimlarni birlashtirish o'qituvchilarga yangi o'quv metodlarini ishlab chiqish va

darslarni samarali o‘tish imkonini yaratadi. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan integratsiya professor-o‘qituvchilarning innovatsion yondashuvlarni qo‘llashini rag‘batlantiradi.

Oliy ta‘lim muassasalarida integrativ yondashuvni amalga oshirishning usullari; Integrativ yondashuvni ta‘lim jarayonida amalga oshirish uchun professor-o‘qituvchilarni muntazam malaka oshirish kurslari, seminar va treninglarda ishtirok etishga jalb qilish zarur. Bundan tashqari, interfaol o‘qitish metodlari, loyiha asosida o‘qitish, interdisciplinar kurslar va raqamli texnologiyalarni qo‘llash ta‘lim sifatini oshirishga yordam beradi. Ta‘lim jarayonida fanlararo va metodlararo aloqalarni kuchaytirish hamda amaliy ishlarni ko‘paytirish orqali o‘qituvchilarning integrativ kompetensiyasini mustahkamlash mumkin.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘zining murakkabligi bilan ajralib turadi – bunda o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida bir necha fanlarni o‘qitadi (ona tili, matematika, atrof-muhit, tasviriy san‘at, texnologiya va b.). Shu sababli integratsiyalashgan yondashuv bu bosqichda alohida dolzarbdir. Misol uchun:

- Matematika va atrof-muhit fanlarini birgalikda o‘rgatish orqali bolalarda tabiat hodisalarini o‘lchash, o‘lchamlar, miqdorlar haqida real tushunchalar shakllanadi;

- Ona tili va tasviriy san‘at fanlarini uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning estetik didi, ifodali nutqi va obrazli tafakkuri rivojlanadi;

- Jismoniy tarbiya darslari orqali biologiya yoki sog‘lom turmush tarzi haqidagi bilimlarni mustahkamlash mumkin.

Metodik salohiyat – bu o‘qituvchining o‘quv mazmunini samarali o‘rgatish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyalashgan yig‘indisidir. Bu salohiyatni oshirish uchun quyidagi yo‘llar muhim hisoblanadi:

Integrativ o‘quv dasturlarini ishlab chiqish: Ta‘lim mazmunini fanlararo kontekstda ishlab chiqish orqali o‘qituvchi darsni faqatgina ma‘lumot beruvchi emas, balki faol o‘quv faoliyatiga yo‘naltirilgan formatda olib boradi.

Amaliy mashg‘ulotlarda fanlararo metodikalar asosida tayyorgarlik ko‘rish: O‘quvchilarga tajriba asosida bilim berish uchun o‘qituvchilar o‘zlari ham laboratoriya ishlari, loyihaviy darslar, integratsiyalashgan ochiq mashg‘ulotlar orqali mashg‘ulot olib borishni o‘rganishlari lozim.

Kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish: Metodik salohiyat faqatgina bilim bilan emas, balki o‘qituvchining qanday qilib bilimni o‘rgata olish qobiliyati bilan belgilanadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qituvchi o‘quvchini markazga qo‘ygan holda, uning ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olib ta‘lim jarayonini boshqaradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo‘llash: Integratsiyalashgan ta‘limda raqamli vositalardan foydalanish darsni yanada jonli, qiziqarli va tushunarli qiladi. Masalan, interaktiv taqdimotlar, video darslar, onlayn platformalar yordamida turli fanlar mazmuni uyg‘unlashtiriladi.

O‘qituvchilar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish: Metodik birlashmalar, seminar-treninglar, tarmoq doirasida tajriba almashinuvi o‘qituvchining salohiyatini oshirishda ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Fanlararo integratsiyani amaliyotga tatbiq etishda quyidagi ilmiy asoslar muhimdir:

- *Konstruktivistik yondashuv* – bilim o‘quvchi ongida mavjud bilimlar asosida shakllanadi;
- *Faollik nazariyasi* – o‘quvchi faolligi va mustaqil izlanish asosida o‘zlashtirish chuqurlashadi;
- *Bloom taksonomiyasi* – o‘quvchi bilimni nafaqat tushunadi, balki qo‘llaydi, tahlil qiladi, yaratadi.

Zamonaviy ta‘limda “kasbiy kompetensiya” tushunchasi keng va ko‘p qirrali mazmunga ega. Bu tushuncha o‘z ichiga nafaqat fanga oid nazariy bilimlarni, balki ularni amaliyotga tatbiq etish, kommunikativ, innovatsion va ijodiy faoliyat yuritish, muammolarni hal qilish, mustaqil qaror qabul qilish, axborotni izlash va tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni ham oladi. Professor-o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi – bu uning ta‘lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning o‘qish va rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish, shuningdek, doimiy ravishda o‘z ustida ishlash va o‘zgarayotgan zamonga moslashish qobiliyatidir. Bu kompetensiyaning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- *Pedagogik kompetensiya* – ta‘lim metodlari, o‘quvchilarga yondashuv va o‘qitish uslublarini to‘g‘ri tanlay olish.

- *Metodik kompetensiya* – fanning o‘quv-metodik ta‘minotini ishlab chiqish va undan foydalana olish.

- *Kommunikativ kompetensiya* – o‘quvchilar, hamkasblar va boshqa ishtirokchilar bilan samarali muloqot qilish.

- *Axloqiy va madaniy kompetensiya* – kasbga doir axloqiy mezonlarga rioya qilish.

- *Innovatsion kompetensiya* – yangi texnologiyalar, metod va platformalardan foydalanish qobiliyati.

- *Tadqiqot kompetensiyasi* – ilmiy izlanishlar olib borish va ularni dars jarayoniga integratsiyalash.

Integrativ yondashuv ta’limda bir necha fan yoki yo’nalishlar o’rtasida uyg’unlikni ta’minlash, ularni bir butun tizimga keltirish va bu orqali yangi bilim hosil qilish usuli sifatida qaratiladi. Bu yondashuvning asosida quyidagi prinsiplar yotadi:

- *Fanlararo integratsiya* – bir necha fanlar doirasidagi bilimlarni uyg’unlashtirish;
- *Metodlararo integratsiya* – an’anaviy va innovatsion metodlarni birgalikda qo’llash;
- *O’quvchi-shaxsga yo’naltirilgan integratsiya* – shaxsiy ehtiyoj, qobiliyat va xususiyatlarga mos o’qitish;

- *Amaliy va nazariy bilimlarni integratsiyalash* – nazariyani real hayotiy vaziyatlarga bog’lash.

Bu yondashuv o’qituvchilarning o’z pedagogik salohiyatini to’laqonli namoyon etishiga, darslarda innovatsion yondashuvlarni tatbiq qilishiga va ta’lim jarayonining sifatli tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish yo’llari

a) Fanlararo integratsiya

Fanlararo integratsiya orqali professor-o’qituvchilar o’z sohalarini boshqa fanlar bilan bog’lab o’qitish imkoniyatiga ega bo’ladi. Masalan, boshlang’ich ta’lim yo’nalishida matematika darslarini atrof-muhitni o’rganish, san’at, texnologiya bilan uyg’unlashtirish orqali talabalar mavzularni chuqurroq tushunadi.

b) Innovatsion metodlarni tatbiq etish

Integrativ kompetensiyani shakllantirishda innovatsion metodlarning o’rni katta. Loyihaviy ta’lim, klaster usuli, interfaol darslar, STEAM texnologiyasi va raqamli vositalar orqali talabalarda kompleks fikrlash va muammoli vaziyatlarga moslashuvchan yondashuv shakllantiriladi.

c) Raqamli texnologiyalarni integratsiyalash

Professor-o’qituvchilar zamonaviy texnologiyalar, xususan, Learning Management System (LMS), MOOC platformalari (Coursera, EdX, Khan Academy), virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari kabi vositalardan foydalanib, o’z darslarini interaktiv va ta’sirchan qilishlari mumkin. Bu esa nafaqat ularning kasbiy malakasini oshiradi, balki talabalar uchun ham o’zlashtirishni osonlashtiradi.

d) Ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyatni uyg’unlashtirish

Professor-o’qituvchilar o’z ilmiy-tadqiqot ishlarini amaliyotga yo’naltirgan holda, talabalar bilan hamkorlikda izlanishlar olib borishlari lozim. Bu tajriba ularning metodik, tahliliy va yangilik yaratish salohiyatini oshiradi.

e) Jamoaviy o’qitish va tajriba almashinuvi

Integratsiyalashgan ta’limda jamoaviy ishlar muhim o’rin tutadi. Professor-o’qituvchilarning tajriba almashinuvi, metodik birlashmalar, seminar-treninglar, ochiq darslar orqali o’zaro o’rganishi ularning kasbiy kompetensiyalarini oshiradi.

Professor-o’qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda baholash mexanizmi ham muhim hisoblanadi. Baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- Ta’lim natijalari (talabalar bilim darajasi);
- Ilmiy ishlar (maqolalar, innovatsiyalar, patentlar);
- O’qituvchining metodik faoliyati (metodik qo’llanmalar, dars ishlanmalari);
- Faoliyat natijalarining innovatsionligi va samaradorligi;
- Kasbiy o’sishga bo’lgan shaxsiy motivatsiya va o’zini rivojlantirishga qaratilgan intilishlar.

Shuningdek, muntazam ravishda o’tkaziladigan monitoring va tahlil asosida professor-o’qituvchilarning kompetensiyalaridagi o’zgarishlar aniqlanadi va rivojlanish strategiyalari ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar:

1. Karimov B. Pedagogik texnologiyalar va ta’lim sifati. –T.: Ma’naviyat, 2019. 56 b.
2. Matsaidova S.X., Ortikova I.O. Innovatsion metodlar. –T.: Innovatsiya-Ziyo, 2025. 25 b.
3. Shodmonova Sh.S., Sharifzoda S.O., Otajonov O.A. Pedagogika nazariyasi va tarixi (I-qism). Toshkent: Bookmany Print, 2022. 18-19 b.
4. Shodmonova Sh.S. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi (to’liq darslik). Toshkent: Sano-Standart, 2022. 56-58 b.
5. Saidov U. Boshlang’ich ta’limda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Sharq Nashriyoti, 2020. 78 b.
6. Hattie J. Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning. Routledge, 2012. 34 b.
7. Niemi H., Toom A., Kallioniemi A. Miracle of Education: The Principles and Practices of Teaching and Learning in Finnish Schools. Springer, 2012. 2 b.
8. Pardayev. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. –T.: 2008. 4 b.
9. Raxmatullayev A. Interfaol metodlar: ta’lim samaradorligining dinamikasi. 2015.

10. Shomurodova S.O'tkirovna, Rajabova K.X. Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etishning sifat va samaradorligi. Science and Education jurnali. 3-4 b.
11. Jakbarova O.M., Shukurova G. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: afzalliklari va kamchiliklari. 5-7 b.
12. Usmonova A. Maktabgacha ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalari. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi jurnali. 4 b.
13. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi. Boshlang'ich ta'lim davlat standarti. Toshkent, 2021. 67 b.

KASBIY-PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA TEATR PEDAGOGIKASINING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna,
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy
pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchi

Mazkur maqolada teatr pedagogikasining asosiy nazariy-metodologik tamoyillari va ularni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini oshirish jarayoniga tadbiq etish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, pedagogik amaliyotga teatr usullarini integratsiyalash orqali o'qituvchining kommunikativ, refleksiv, ijodiy va metodik salohiyatini rivojlantirishning yo'llari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Teatr pedagogikasi, kasbiy-pedagogik mahorat, metodologik asoslar, dramatisatsiya, pedagogik integratsiya, interfaol metodlar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКИХ ОСНОВ ТЕАТРАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПОВЫШЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА

В статье рассматриваются основные теоретико-методологические принципы театральной педагогики и возможности их применения в процессе совершенствования профессионально-педагогического мастерства будущих учителей начальных классов. Анализируются пути развития коммуникативного, рефлексивного, творческого и методического потенциала учителя посредством интеграции театральных методов в педагогическую практику.

Ключевые слова: Театральная педагогика, профессионально-педагогическое мастерство, методические основы, драматизация, педагогическая интеграция, интерактивные методы.

IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL BASIS OF THEATER PEDAGOGY IN IMPROVING PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL SKILLS

This article discusses the main theoretical and methodological principles of theater pedagogy and the possibilities of their application in the process of improving the professional and pedagogical skills of future primary school teachers. It also analyzes the ways of developing the communicative, reflective, creative and methodological potential of the teacher by integrating theater methods into pedagogical practice.

Keywords: Theater pedagogy, professional and pedagogical skills, methodological foundations, dramatization, pedagogical integration, interactive methods.

Kirish. Bugungi ta'lim tizimida o'qituvchidan nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsga yo'naltirilgan, ijodiy yondasha oladigan, zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassis bo'lish talab qilinmoqda. Shu boisdan, pedagogik mahoratni rivojlantirishda noan'anaviy va ijodiy yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Teatr pedagogikasi ana shunday zamonaviy metodologik yondashuvlardan biri sifatida o'qituvchining kasbiy-pedagogik mahoratini har tomonlama rivojlantirish imkonini beradi.

Pedagogik faoliyatning samaradorligi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, uning ta'limga yondoshuvi va metodologik savodxonligiga bevosita bog'liq. Xususan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun kasbiy-pedagogik mahorat- bu faqatgina dars berish emas, balki o'quvchilarning emotsional, ijtimoiy va estetik rivojlanishini boshqarish, ijodiy muhit yaratish va motivatsiyani uyg'otish qobiliyatidir. Teatr pedagogikasi bu jihatdan kuchli vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Teatr pedagogikasining metodologik asoslari. Teatr pedagogikasi – bu ta'lim jarayonida teatr elementlari (dramatisatsiya, sahnalashtirish, pantomima, improvizatsiya va boshqalar)dan foydalanishga asoslangan metodik yondashuvdir. Uning metodologik negizida quyidagi tamoyillar yotadi:

- Shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili: o'quvchi va o'qituvchining ichki dunyosini anglash, his-tuyg'ulari va individual xususiyatlarini inobatga olish.
- Ijodiy yondashuv tamoyili: har bir o'quvchi va o'qituvchini sahnada erkin ifoda etish, yangi pedagogik shakllarni sinab ko'rish.
- Hamkorlik va subyektivlik tamoyili: dars jarayonini o'zaro hurmat, ijtimoiy munosabatlar, rolli o'yinlar orqali tashkil etish.
- Emotsional-ta'sirchanlik tamoyili: darslar orqali o'quvchiga chuqur hissiy ta'sir o'tkazish, motivatsiyani oshirish.

Asosiy qism. Kasbiy-pedagogik mahorat tushunchasi va uning ahamiyati

Kasbiy-pedagogik mahorat – bu o‘qituvchining nazariy bilimlari, pedagogic texnologiyalarni amalda qo‘llay olish ko‘nikmalari hamda o‘quvchi shaxsiga individual yondoshuvni ta‘minlay oladigan kasbiy kompetensiyalar majmuidir. Mahoratning tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar ajratiladi:

- Didaktik mahorat;
- Kommunikativ qobiliyat;
- Refleksiv tahlil;
- Ijodiy yondashuv.

Ushbu sifatlarni rivojlantirishda teatr pedagogikasining metodologik imkoniyatlari beqiyosdir.

Kasbiy-pedagogik mahorat va teatr pedagogikasi o‘zaro bog‘liqligi:

Teatr pedagogikasi orqali quyidagi mahorat turlari rivojlanib boradi:

Didaktik mahorat- darsni sahna ko‘rinishida rejalashtirish, dramatik senariy yozish;

Kommunikativ mahorat- monolog, dialoglar, jamoaviy sahna chiqishlari orqali nutqni boyitish;

Ijodiylik- improvizatsiya mashqlari, ijodiy topshiriqlar;

Reflektiv mahorat - rollarni tahlil qilish, his-tuyg‘ularni anglash, baholash, ijodiy fikrlash;

Rivojlantiruvchi dars olib borish- o‘quvchilarning emotsional, ijtimoiy, estetik rivojlanishini ta‘minlash.

Metodologik asoslarni takomillashtirish yo‘nalishlari:

1. Tayanch konsepsiyani ishlab chiqish:

Pedagogik faoliyatga teatr elementlarini qo‘llash uchun yagona metodik yondashuv ishlab chiqilishi zarur. Masalan, boshlang‘ich sinflar uchun “Dramatik-sahnaviy dars modeli” kabi metodik sxemalar.

2. Teatr texnikalarining integratsiyasi:

Darslarda teatr usullarini boshqa metodlar bilan birga (klaster, debat, Venn diagramma va boshqalar) uyg‘un qo‘llash.

3. O‘qituvchilar malakasini oshirish:

Teatr pedagogikasi asosida tashkil etilgan seminarlar, treninglar, ustoz-shogird dasturlari orqali kasbiy rivojlanishga xizmat qilish.

4. Tajribalarni tizimlashtirish:

O‘qituvchilarning o‘z darslarida qo‘llagan teatr texnikalari bo‘yicha tahliliy maqolalar, portfoliolar va namuna dars ishlanmalari yaratish.

Ushbu mavzu bo‘yicha amaliyotda quyidagi ishlarni amalga oshirish mumkin:

- Boshlang‘ich sinfda “**Zumrad va Qimmat**” ertagini sahnalashtirish. Bunda o‘quvchilar har bir qahramon roliga kirib, uning xatti-harakatlarini tahlil qiladi. Bu orqali ularning nutqi, axloqiy qadriyatlarini va jamoada ishlash ko‘nikmasi shakllanadi.

- Matematika darsida “**Masalani teatrlashtirish**” : masalani sahnalashtirib yechish, rollar orqali yondashuv bular - matematik tafakkurni mustahkamlaydi.

- Hayotiy bilimlar fanida “**Kasb-hunar teatr loyihasi**” bunda o‘quvchilar turli kasblarni jonlantiradi, sahnada namoyish qiladi, bu esa kasbga yo‘naltirishga xizmat qiladi.





Teatr pedagogikasining kasbiy-pedagogik mahoratni rivojlantirishdagi metodologik asoslarini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim:

1. Innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyasi qilish - teatr pedagogikasini zamonaviy-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish o‘qituvchining kreativ va raqamli kompetensiyasini oshiradi. Masalan, virtual teatr mashg‘ulotlari, rol o‘ynash simulyatsiyalari yoki video-analiz vositalari orqali o‘qituvchilar o‘z chiqishlarini tahlil qilishi mumkin.

2. Interaktiv treninglar tizimi - o‘qituvchilarning emotsional-intellektual salohiyatini oshiruvchi amaliy mashg‘ulotlar joriy etish. Rolli o‘yinlar, improvizatsiyalar, pantomime, drammatizatsiya kabi mashg‘ulotlar orqali o‘qituvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etadi, o‘quvchilarni ham faol ishtirokka jalb qiladi.

3. Metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish – teatr mashqlarini didaktik jarayonga moslashtiruvchi metodik materiallar tayyorlash. O‘qituvchilarga mo‘ljallangan maxsus treninglar, seminarlar va master-klasslar orqali metodologik asoslar boyitiladi.

4. Refleksiv monitoring tizimi – o‘qituvchilarning kasbiy o‘rishini doimiy tahlil qilib borish. Har bir teatr mashg‘ulotidan so‘ng o‘qituvchi o‘z faoliyatini refleksiya orqali baholaydi: “Men bu darsda o‘zimni qanday his qildim?”, “Talabalarga qanday ta’sir ko‘rsatdim?” kabi savollar orqali o‘zini tahlil qiladi.

Refleksiv yondashuv o‘qituvchining o‘z faoliyatini anglash, tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatini oshiradi.

Teatr pedagogikasining metodologik asoslarini takomillashtirish – bu o‘qituvchini shunchaki dars beruvchi emas, balki ijodkor, hissiy-intellektual yetuk, o‘zini anglagan shaxs sifatida shakllantirish yo‘lidagi muhim bosqichdir. U innovatsion ta’lim muhitida o‘qituvchi faoliyatining estetik va insonparvarlik jihatlarini mustahkamlaydi.

Takliflar va xulosalar:

1. Pedagogik oliygohlarda teatr pedagogikasi asosida mustaqil fan moduli joriy etish zarur;
2. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun teatr metodlaridan foydalangan holda dars ishlanmalari bankini yaratish lozim;
3. **“MakTabTheatre”**- maktab teatr platformasi tashkil qilish, o‘qituvchilarning teatr sohasidagi darslarini baham ko‘rish imkonini yaratadi.
4. Metodik qo‘llanmalar, trening modullari va onlayn kurslar orqali metodologiyani takomillashtirish kerak.

Teatr pedagogikasining metodologik asoslarini takomillashtirish – bu pedagogik faoliyatni emotsional, mazmunli va ijodiy jihatdan boyitishdir. U nafaqat o‘quvchilarning faolligini oshiradi, balki o‘qituvchining o‘zini anglash, his qilish, rejalashtirish va yangilikka intilish salohiyatini ham oshiradi. Teatr vositalaridan foydalanish orqali o‘qituvchida kasbiy motivatsiya, kommunikativ kompetensiya va refleksiya madaniyati yuksaladi. Shuning uchun, teatr pedagogikasi asosidagi metodologik yondashuvni keng joriy etish, zamonaviy ta’lim sifatini oshirishda muhim omildir.

Teatr pedagogikasi o‘qituvchilarning shunchaki dars o‘tuvchi emas, balki tarbiyachi, yetakchi, san’atkor va psixolog bo‘lishiga yordam beradi. Uning metodologik asoslarini takomillashtirish orqali esa pedagogik ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini ta’minlash mumkin. Teatr pedagogikasi bu bugunning emas, balki kelajak ta’limning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Xulosa. Teatr pedagogikasi o‘qituvchining kasbiy-pedagogik mahoratini oshirishda samarali metodologik vosita hisoblanadi. U nafaqat ta’lim jarayonini jonlantiradi, balki o‘qituvchining shaxsiy o‘sishini ham ta’minlaydi. Shu sababli teatr pedagogikasining metodologik asoslarini takomillashtirish – zamonaviy o‘qituvchini tayyorlashda muhim ilmiy va amaliy yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar:

1. Xayrullayeva D. “Teatr pedagogikasi asoslari”, –Toshkent, 2020.
2. Shomurodov A. “Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion metodlar”, 2019.
3. Boal A. “Theatre of the Oppressed”, New York, 1979.
4. Vygotsky L. S. “Psixologiya va pedagogika”, –Moskva, 1986.
5. UNESCO. “Arts Education and Creativity in the 21st Century” (2010).
6. Atamuradov I. “Pedagogik mahorat va uni shakllantirish” SamDU, 2021.
7. Zakirova, Z.I. (2022). Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. “Iste’dod”. –Toshkent.
8. Allayarova, M., & Rajabova, D. (2023). Teatr san’atining boshlang‘ich ta’limdagi roli. Ilm-fan va ta’lim rivoji jurnali, №5 (3), 88-91.
9. Axmedov, N. (2021). Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti.
10. Nurullayeva, M. (2020). Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar. –Toshkent: «Yangi asr avlodi».
11. Abdullayeva, N. (2023). Teatr pedagogikasi va ta’lim integratsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti.
12. Kolmatova, S. (2022). Kasbiy-pedagogik mahoratni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari. Samarqand: SamDU nashriyoti.
13. Stanislavskiy, K. S. (2018). Aktyorlik san’ati asoslari. –Moskva: Iskustvo nashriyoti.
14. Karimov, O. (2021). O‘qituvchi mahoratini rivojlantirishda teatr metodlarining ahamiyati. “Pedagogik innovatsiyalar” jurnali, №3.
15. UNESCO (2020). Creative Arts in Education: Pedagogical Approaches for Teachers.

**DEVIANT XULQ-ATVORLI O‘QUVCHILARDA IJTIMOY-EMOTSIONAL
KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI**

Zaripova Zilola Erkin qizi,

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Mazkur tadqiqot deviant xulq-atvorli o‘quvchilarda ijtimoiy - emotsional kompetensiyani shakllantirish jarayonining psixologik mexanizmlarini tahlil etishga bag‘ishlangan. Ishda emotsional intellekt, empatiya, o‘zini nazorat qilish va ijtimoiy moslashuv omillarining o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning shaxs rivojlanishiga ta’siri o‘rganilgan.

Bugungi globallashtirish davrida yoshlar orasida kuzatilayotgan deviant xulq holatlari ta’lim muhitida psixologik yondashuvlarni takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. O‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyasini rivojlantirish ularning o‘zini anglash, his-tuyg‘ularini boshqarish va konstruktiv muloqot qobiliyatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: deviant xulq, ijtimoiy - emotsional kompetensiya, emotsional intellekt, empatiya, moslashuv, psixokorreksiya.

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-
ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ С ДЕВИАНТНЫМ
ПОВЕДЕНИЕМ**

Исследование посвящено анализу психологических механизмов формирования социально-эмоциональной компетентности у учащихся с девиантным поведением. Рассматриваются взаимосвязи эмоционального интеллекта, эмпатии, самоконтроля и социальной адаптации как факторов личностного развития.

В условиях современной социальной динамики рост числа учащихся с девиантными проявлениями требует новых психолого-педагогических подходов. Развитие социально-эмоциональной компетентности способствует формированию у подростков способности к саморегуляции, осознанию эмоций и эффективному взаимодействию с окружающими.

Ключевые слова: девиантное поведение, социально-эмоциональная компетентность, эмоциональный интеллект, эмпатия, адаптация, психокоррекция.

**PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF FORMING SOCIAL-EMOTIONAL COMPETENCE
IN STUDENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR**

This study analyzes the psychological mechanisms underlying the development of social-emotional competence among students with deviant behavior. It explores the interrelation between emotional intelligence, empathy, self-regulation, and social adaptation as key factors of personal development.

In the context of modern globalization, the growing prevalence of deviant behavior among students necessitates the improvement of psychological interventions within educational settings. Enhancing social-emotional competence strengthens self-awareness, emotional regulation, and effective communication skills in adolescents.

Keywords: deviant behavior, social-emotional competence, emotional intelligence, empathy, adaptation, psychological correction.

Bugungi globallashtirish davrida yoshlar ongiga turli xil ijtimoiy, axboriy va madaniy oqimlar ta’sir qilmoqda. Bu holat, bir tomondan, ularning dunyoqarashini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy-psixologik muvozanatni buzuvchi, normativ qadriyatlardan og‘diruvchi omillarni kuchaytirmoqda. Ayniqsa o‘quvchi yoshlar orasida kuzatilayotgan deviant xulq-atvor shakllari – tajovuzkorlik, beparvolik, huquqbuzarlik, o‘qishga nisbatan salbiy munosabat, muloqotdagi ziddiyatlar – ta’lim tizimi va psixologik xizmat oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Shu sababli, o‘quvchilarni ijtimoiy-emotsional kompetensiyaga o‘rgatish, ya’ni o‘z his-tuyg‘ularini anglash, ularni boshqarish, boshqalar bilan sog‘lom muloqot o‘rnatish va ijtimoiy javobgarlikni rivojlantirish hozirgi davrning eng dolzarb psixologik muammolaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosatida yoshlarning ruhiy-psixologik salomatligini mustahkamlash masalasi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020-yil 23-sentyabr, №637-II)da har bir shaxsning intellektual va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash davlat siyosatining asosiy

vazifalaridan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, “Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida”gi Prezident qarori (PQ-3907, 2018-yil 14-avgust)da o'quvchi va talabalar o'rtasida huquqbuzarlik, deviant xulq holatlarining oldini olish, ijobiy psixologik muhit yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan. Bu hujjatlar deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashning psixologik mexanizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqish zaruratini yanada kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qarori “Umumta'lim muassasalarida psixologik-pedagogik xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi hujjatida maktab psixologlarining asosiy vazifalari sifatida o'quvchilarda shaxsiy muammolarni aniqlash, stress va ijtimoiy-emotsional zo'riqishni kamaytirish, o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish kabi jihatlar belgilab berilgan. Shuningdek, 2022-yilda qabul qilingan “Yoshlar siyosati to'g'risida”gi yangi Qonun (№742-II)da yoshlarning psixologik barqarorligini mustahkamlash va ularni ijtimoiy hayotga to'laqonli tayyorlash davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida e'tirof etilgan. Bu huquqiy asoslar tadqiqot mavzusining davlat miqyosidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar (D. Goleman, P. Salovey, K. Izard, E. Erikson, Z. Nishonova, V. Karimova va boshqalar) shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyasi ularning shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardandir. Bu kompetensiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi o'zini nazorat qilishdagi qiyinchilik, ijtimoiy tajovuz, past empatiya va konfliktga moyillik bilan namoyon bo'ladi. Shunday ekan, deviant xulqli o'quvchilarda ushbu kompetensiyani shakllantirish, ularning shaxsiy sifatlarini ijobiy yo'nalishda rivojlantirish uchun psixokorreksion va profilaktik mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ehtiyojdir (12).

Mazkur mavzuning dolzarbligi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham yuqoridir. Chunki bugungi kunda O'zbekiston maktablarida psixologik xizmat tizimi kengayib, o'quvchilarning hissiy-irodaviy rivojlanishini monitoring qilish yo'lga qo'yilgan. Biroq deviant xulqli o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha tizimli, psixologik mexanizmlarga asoslangan dasturlar hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu sababli, mazkur tadqiqot o'quvchi shaxsining emotsional intellekti, empatiyasi, o'zini nazorat qilish va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish orqali ijobiy xulq modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv O'zbekiston Respublikasining “2030-yilgacha ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilangan insonparvar, ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalash tamoyillariga to'liq mos keladi.

Deviant xulq-atvorli o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyani shakllantirish masalasi o'zbek psixologiyasida so'nggi yillarda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida shakllanmoqda. Mahalliy tadqiqotchilar bu masalaga shaxs rivojlanishi, tarbiya, ma'naviyat va ta'lim tizimining psixologik asoslari nuqtayi nazaridan yondashganlar. Jumladan, V. M. Karimova o'zining “Shaxs psixologiyasi” asarida o'quvchilarda ijtimoiy tajriba, hissiy idrok va o'zini nazorat qilish mexanizmlarini shakllantirishning psixologik omillarini tahlil qilgan (1). Z. Nishonova va M. To'xtaxo'jayev esa yoshlarning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ kompetensiyasi va o'zini anglashi jarayonlarini o'rganib, ijtimoiy-emotsional barqarorlikning pedagogik-psixologik sharoitlarini ishlab chiqqanlar (2). U. Zokirov, N. G'. Turdiyeva va Z. Matg'oziyevlarning ishlarida o'quvchi yoshlarning axloqiy qadriyat tizimi, ijtimoiy mas'uliyati hamda deviant xulqning oilaviy-ijtimoiy ildizlari tahlil etilgan. B. X. Umarova esa o'quvchilarda deviant xulqni kamaytirish bo'yicha psixokorreksion mashg'ulotlar samaradorligini eksperimental asosda ko'rsatgan. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek psixologik maktabi deviant xulqni ijtimoiy-emotsional rivojlanish nuqtayi nazaridan chuqur o'rganishning nazariy bazasini yaratmoqda (13).

MDH psixologiya maktablari tajribasi ham bu yo'nalishda katta ahamiyatga ega. A. V. Mudrik, L. S. Vigotskiy, A. N. Leontyev, D. B. Elkoninlarning ilmiy merosi o'quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi, motivatsiyasi va faoliyat nazariyasiga tayangan holda, xulq-atvorning psixologik mexanizmlarini ochib bergan. E. G. Eydemiller va A. Ya. Vargalarning oilaviy psixodiagnostika va oilaviy munosabatlar haqidagi tadqiqotlari deviant xulqli o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional muammolarini oilaviy muhit bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, T. A. Gurko, L. I. Bojovich, V. A. Slastenin, M. R. Ginzburg, E. I. Rogov singari olimlar o'quvchi shaxsining emotsional rivojlanishi, o'zini baholash, empatiya, ijtimoiy roli va motivatsion tizimining shakllanishiga oid psixologik model va metodikalarni ishlab chiqqanlar. So'nggi yillarda Rossiyada N. E. Shchurkova va A. I. Kravtsovalarning tadqiqotlarida ijtimoiy-emotsional o'qitish konsepsiyasi, tarbiya tizimida refleksiv yondashuvning o'rni ham ilmiy asoslab berilgan(5).

Jahon miqyosida esa bu mavzuga oid izlanishlar asosan ijtimoiy psixologiya, emotsional intellekt va ta'lim psixologiyasi kesimida olib borilmoqda. D. Golemanning “Emotional Intelligence” asari ijtimoiy-emotsional kompetensiyaning shaxs muvaffaqiyati va psixologik salomatlikdagi rolini ilmiy asosda ochib bergan. P. Salovey va J. Mayer ijtimoiy-emotsional aql tushunchasini nazariy modellashtirib, uning o'zini

anglash va boshqarishdagi ahamiyatini isbotlaganlar. A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi deviant xulqli bolalarda kuzatiladigan xulqiy stereotiplarning shakllanish mexanizmlarini tushuntiradi. E. Eriksonning psixososial rivojlanish bosqichlari nazariyasi shaxsda identifikatsiya inqirozi va deviant holatlarning psixodinamik ildizlarini tahlil qiladi. Shuningdek, K. Rojers va A. Maslouning gumanistik psixologiya yo‘nalishidagi ishlari o‘quvchi shaxsining ijobiy o‘zini anglash, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, ichki motivatsiya va o‘zini qabul qilish jarayonlarini ijtimoiy-emotsional kompetensiya rivojining poydevori sifatida belgilaydi.

So‘nggi o‘n yilliklarda xalqaro miqyosda ijtimoiy-emotsional ta‘lim (Social and Emotional Learning – SEL) kontsepsiyasi keng joriy etilmoqda. Collaborative for Academic, Social and Emotional Learning (CASEL) tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan modelda o‘quvchilarda o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabat o‘rnatish va mas‘uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy yo‘nalish sifatida belgilanadi (4). Bu yondashuv O‘zbekiston ta‘lim tizimida ham bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. Shu jihatdan, jahon psixologiyasi tajribasi o‘zbek olimlari tomonidan ishlab chiqilayotgan psixokorreksion dasturlarning ilmiy-nazariy asosini boyitadi.


1-jadval.

Deviant xulq-atvorli o‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyani shakllantirishning psixologik mexanizmlari nazariy manbalari va amaliy yo‘nalishlari tizimi

Yo‘nalish	Nazariy asoslar va manbalar	Asosiy psixologik mexanizmlar	Tadqiqot natijalari / xulosalar	Amaliy tavsiyalar
1. Ijtimoiy-emotsional kompetensiya mohiyati	D. Goleman, P. Salovey, J. Mayer, V. Karimova, Z. Nishonova	Emotsional idrok, empatiya, o‘zini boshqarish, ijtimoiy mas‘uliyat	O‘quvchilarda his-tuyg‘ularni anglash va boshqarish xatti-harakatni barqarorlashtiradi	O‘quv jarayoniga hissiy refleksiya mashg‘ulotlarini kiritish
2. Deviant xulqning psixologik sabablari	A. Bandura, E. Erikson, E. G. Eydemiller, L. I. Bozhovich	Past o‘zini baholash, ijtimoiy rad etilish, ichki konfliktlar	Deviant xulqning ildizi – ijtimoiy-emotsional tajribaning yetishmasligi	Psixodiagnostika orqali o‘quvchi shaxsidagi ijtimoiy ehtiyojlarni aniqlash
3. Psixokorreksion yondashuvlar	Kognitiv-behavioral terapiya (A. Bek), art-terapiya (K. Leyn), rol o‘yinlari (J. Moreno)	O‘z-o‘zini idrok etish, ijtimoiy rollarni qayta o‘rganish, hissiy muvozanat	Treninglar orqali tajovuzkorlik, impulsivlik va ijtimoiy befarqlik kamayadi	Art-terapiya, rolli o‘yin va guruhli trening mashg‘ulotlarini joriy etish
4. O‘quv muhitining ta’siri	A. N. Leontyev, D. B. Elkonin, N. E. Shchurkova	Sotsial o‘rganish, kommunikativ muloqot, jamoaviy qo‘llab-quvvatlash	Ijobiy psixologik muhit o‘quvchilarda ishonch va ijtimoiy faollikni oshiradi	Maktab jamoasida “emotsional xavfsizlik zonalari”ni yaratish
5. Oilaviy omillar	A. Ya. Varga, E. G. Eydemiller, Z. Matg‘oziyev, N. G‘. Turdiyeva	Ota-ona modeli, muloqot uslubi, hissiy beparvolik yoki ortiqcha nazorat	Disfunktsional oilalarda deviant xulq xavfi 2–3 baravar yuqori	Psixologik maslahatlar va ota-ona treninglarini yo‘lga qo‘yish
6. Shaxsiy sifatlarni rivojlantirish	A. Maslou, K. Rojers, V. Karimova, T. A. Gurko	Irodaviy barqarorlik, o‘zini tuta bilish, o‘ziga ishonch	O‘zini qadrlash oshgan o‘quvchi deviant xulqdan yiroqlashadi	“Men qadrli insonman” refleksiv dasturlarini qo‘llash
7. Ijtimoiy-emotsional kompetensiyani baholash	CASEL modeli (2020), Z. Nishonova, M. To‘xtaxo‘jayev	O‘zini anglash, ijtimoiy anglash, munosabat o‘rnatish, qaror qabul qilish	Kompetensiya darajasi oshgan sayin ijtimoiy integratsiya kuchayadi	Maxsus diagnostik so‘rovnoma va monitoring tizimini joriy etish

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki, deviant xulq-atvorli o‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyani shakllantirish ko‘p bosqichli, tizimli jarayondir. Bu jarayonning muvaffaqiyati o‘quvchining ichki hissiy dunyosini chuqur anglash, oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlik, shuningdek, psixologik mashg‘ulotlarning tizimli tashkil etilishiga bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilishni o‘rganar ekan, u nafaqat xulqini, balki o‘z hayotiy yo‘nalishini ham ongli tarzda boshqaradi.

Deviant xulq-atvorli o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanish jarayonini tahlil qilar ekanman, avvalo, ularning xulqiy og‘ishlari ortida chuqur psixologik sabablar yotishini qayd etish lozim. Tajribamda shuni kuzatdimki, ko‘pchilik o‘quvchilar deviant xatti-harakatni ongli tanlov sifatida emas, balki o‘z his-tuyg‘ularini boshqarolmaslik, o‘ziga bo‘lgan ishonchning yetishmasligi yoki ijtimoiy rad etilish oqibatida namoyon etadi. Shuning uchun bu masalaga faqat intizomiy yoki jazolovchi yondashuv emas, balki psixologik yondashuv zarur. Insonning ijtimoiy-emotsional tajribasi, ayniqsa o‘smirlik davrida, uning o‘zini anglashini, o‘zga shaxslarni idrok etish tarzini va atrof-muhit bilan munosabatini belgilab beradi.



1-rasm. Deviant xulq-atvorli o‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyani shakllantirishning psixologik modeli

O‘quvchi shaxsining ijtimoiy-emotsional kompetensiyasi deganda men, eng avvalo, uning o‘z hislarini to‘g‘ri tanib olish, ularga mos javob berish, atrofdegilar his-tuyg‘ularini anglay bilish va bu jarayonda konstruktiv muloqot usullarini qo‘llay olish qobiliyatini tushunaman. Bunday kompetensiyaning rivojlanmaganligi tajovuzkorlik, impulsivlik, befarqlik yoki o‘zini rad etish shaklida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar bilan olib borilgan suhbat va psixodiagnostik kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy-emotsional jihatdan zaif o‘quvchilar ko‘pincha o‘z harakatlarini baholay olmaydi, ijtimoiy normalarni his etmaydi va his-tuyg‘ularini ifoda etishning sog‘lom yo‘lini topa olmaydi. Shu sababli, psixokorreksion yondashuvda asosiy e‘tibor his-tuyg‘ularni idrok etish, ularni ijobiy yo‘nalishda boshqarish hamda empatiya orqali boshqalar bilan samimiy aloqa o‘rnatishga qaratilishi lozim (13).

Tadqiqot jarayonida men kognitiv-behavioral mashg‘ulotlardan, art-terapiya va rolli o‘yin usullaridan foydalandim. Ushbu mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarda o‘zini anglashi va o‘z xatti-harakatlarini baholash ko‘nikmalari asta-sekin shakllandi. Misol uchun, “Men his qilaman” deb nomlangan trening mashg‘ulotida o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini so‘z bilan ifodalash, ularni boshqalarga yetkazish va ularning reaksiyasini tushunishga o‘rgandilar. Shuningdek, “Hissiyotlar doirasi” texnikasi orqali bolalar o‘zlarining ichki holatini rang, shakl va harakat orqali ifoda etdilar. Bu usul ularning ichki bosimini kamaytirib, o‘zini tahlil qilish qobiliyatini kuchaytirdi. Kognitiv yondashuv asosida esa har bir o‘quvchining “men haqimda” fikrlari, ya‘ni shaxsiy e‘tiqodlari va o‘zini baholash tizimi qayta ko‘rib chiqildi.

Amaliy kuzatuvlarda shuni aniqladimki, deviant xulqli o‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyani shakllantirish faqat psixologik mashg‘ulotlar orqali emas, balki sinfdagi ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish bilan ham bog‘liq. Sinf jamoasida o‘zaro hurmat, hamkorlik va ijobiy muloqot muhitini

yaratish o'quvchining o'zini qadrlash hissini mustahkamlaydi. Bu borada pedagog va psixolog hamkorligi muhim. Maktab psixologi nafaqat individual korreksiya bilan, balki pedagogik jamoa bilan muntazam ishlashi, o'quvchilarning hissiy-irodaviy rivojlanish dinamikasini monitoring qilib borishi kerak. Tajriba natijalariga ko'ra, sinf muhitida ijobiy emotsional fond yaratilganda o'quvchilarning tajovuzkorligi kamayadi, o'zini ifoda etish imkoniyati kengayadi va o'zaro ishonch ortadi.

Tadqiqotning yana bir muhim jihati shundan iboratki, ijtimoiy-emotsional kompetensiya shaxsiy fazilatlarini takomillashtirish bilan bevosita bog'liq. Men kuzatgan o'quvchilarda irodaviy barqarorlik, sabr-toqat, javobgarlik va o'zini tuta bilish sifatleri ijobiy o'zgarish ko'rsatdi. Bu o'zgarishlar, bir tomondan, treninglar va refleksiv mashg'ulotlar natijasida, ikkinchi tomondan, o'qituvchi va ota-ona munosabatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'ldi. Shuning uchun men ijtimoiy-emotsional kompetensiyani faqat psixologik hodisa emas, balki oilaviy, pedagogik va ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi muvozanat natijasi sifatida baholayman.

Yakuniy xulosam shuki, deviant xulq-atvorli o'quvchilar bilan ishlashda psixologik yondashuv markazida shaxsning his-tuyg'ularini anglash, o'zini qabul qilish va boshqalar bilan empatik muloqot o'rnatish qobiliyatini rivojlantirish turishi lozim. Ijtimoiy-emotsional kompetensiya o'quvchining faqat maktabdagi xulqini emas, balki uning kelajakdagi ijtimoiy barqarorligini ham belgilovchi muhim psixologik poydevordir. Men bu jarayonni nafaqat individual mashg'ulotlar, balki butun ta'lim muhitini insonparvarlashtirish, sinfdagi hissiy qo'llab-quvvatlov atmosferasini yaratish bilan chambarchas bog'layman. Shundagina deviant xulqli o'quvchi jamiyatda o'z o'rnini topadi, o'zini anglaydi va ijtimoiy mas'uliyatni his etadigan shaxs sifatida shakllanadi.

Deviant xulq-atvorli o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi jarayoni ijtimoiy-emotsional kompetensiyani shakllanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Tadqiqot davomida aniqlanganki, deviant xulq ko'pincha shaxsning ichki emotsional muvozanatining buzilishi, past o'zini baholash, ijtimoiy rad etilish, oila va maktab muhitidagi noqulay psixologik sharoitlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois bunday o'quvchilar bilan ishlashda ularning hissiy holatini chuqur tahlil qilish, empatiyani, o'zini boshqarish va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim.

Psixokorreksion yondashuvlar, jumladan, kognitiv-behavioral mashg'ulotlar, art-terapiya, refleksiv o'yin va treninglar o'quvchilarda o'zini anglash, emotsional idrok va o'z harakatlarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-emotsional kompetensiyasi rivojlangan o'quvchi o'z xatti-harakatlarini ijobiy yo'nalishda nazorat qila oladi, boshqalar bilan sog'lom muloqot o'rnatadi va ijtimoiy qadriyatlarga nisbatan hurmat hissini kuchaytiradi.

Mazkur kompetensiyani shakllantirishda oila va maktab muhiti o'ta muhim omillar sifatida e'tirof etiladi. Ota-onaning muloqot uslubi, hissiy qo'llab-quvvatlashi, o'qituvchi va sinfdoshlar bilan iliq munosabat o'quvchining o'zini qadrlash hissini oshiradi. Shu asosda o'quvchi shaxsida irodaviy barqarorlik, sabr, mas'uliyat, hamkorlik va empatik tushunish sifatleri shakllanadi (12).

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, “Yoshlar siyosati to'g'risida”gi Qonun va “O'quvchilarning psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi hukumat qarorlarida ham yoshlarning psixologik barqarorligini ta'minlash, ularni sog'lom ijtimoiy muhitda voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu esa tadqiqotning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Deviant xulq-atvorli o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyani shakllantirish – bu ularning shaxsiy va ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydigan, o'zini boshqarish, o'zini qadrlash va ijtimoiy mas'uliyatni his etish qobiliyatlarini rivojlantiradigan uzviy psixologik jarayondir. Bu yo'nalishdagi izlanishlar kelajakda yosh avlodning ma'naviy yetukligi va psixologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'tkazilgan ilmiy tahlil va amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, deviant xulq-atvorli o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyani rivojlantirish faqat psixologik mashg'ulotlar orqali emas, balki ta'lim muhitining butun tizimini insonparvar ruhda tashkil etish orqali samarali natija beradi. Shu sababli, birinchi navbatda maktab psixologlari, sinf rahbarlari va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, o'quvchilarning emotsional holatini monitoring qilish va individual rivojlanish xaritasini yuritish zarur. Bu yondashuv o'quvchi shaxsida o'zini anglash, o'zini boshqarish, empatiya va ijtimoiy mas'uliyat kabi asosiy psixologik kompetensiyalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ta'lim muassasalarida psixokorreksion dasturlar, art-terapiya va kognitiv-behavioral treninglar asosida tuzilgan maxsus mashg'ulotlar tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarga o'z his-tuyg'ularini ifodalash, ularni nazorat qilish va konstruktiv yo'nalishga burish imkonini beradi. Shuningdek, refleksiv o'yinlar, hissiy treninglar va ro'yxatli empatiya mashqlaridan foydalanish o'quvchining ichki muvozanatini tiklashga yordam beradi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, bu kabi

treninglar o'quvchilarda ijobiy o'zini baholashni shakllantiradi, o'zini ijtimoiy jamoaning faol a'zosi sifatida his etishga imkon yaratadi.

Oila muhitida psixologik savodxonlikni oshirish va ota-onalarga farzand bilan hissiy aloqa o'rnatishning ahamiyatini tushuntirish zarur. Ko'p hollarda deviant xulqning ildizi oiladagi sovuq munosabat, hissiy befarqlik yoki haddan ortiq nazorat bilan bog'liq bo'ladi. Shu bois psixologik maslahatlar, ota-onalar uchun trening-seminarlar, “farzandingizni tinglang” nomli interaktiv dasturlar tashkil etilishi o'z samarasini beradi. Bunday yondashuv oilada hissiy muhitni yumshatib, bolalarning psixologik xavfsizligini mustahkamlaydi (11).

Ta'lim muassasalarida ijobiy psixologik muhitni shakllantirish uchun sinf rahbarlari va pedagoglar tomonidan “emotsional qo'llab-quvvatlov maktabi” konsepsiyasini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunda har bir o'quvchining his-tuyg'ulari qadrlanadi, ularning fikri eshitiladi va ijtimoiy o'zaro hurmat muhitida muloqot qilinadi. Bu nafaqat deviant xulqni kamaytiradi, balki o'quvchilarning o'zini qadrlashini, o'z kuchiga ishonchini ham mustahkamlaydi. Shu tarzda psixologik xizmat va pedagogik jarayon o'zaro uyg'un holda faoliyat yuritadi.

Ijtimoiy-emotsional kompetensiyani rivojlantirish masalasi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida tizimlashtirilishi lozim. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, “Yoshlar siyosati to'g'risida”gi Qonuni hamda “2030-yilgacha ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilangan maqsadlarga muvofiq ravishda, maktab psixologik xizmatlari uchun zamonaviy diagnostik vositalar, metodik qo'llanmalar va elektron platformalarni yaratish dolzarb hisoblanadi. Bu nafaqat deviant xulqning oldini olish, balki har bir o'quvchini shaxs sifatida rivojlantirish, uning ijtimoiy-emotsional barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-emotsional kompetensiyani rivojlantirish – bu bir martalik psixologik tadbir emas, balki o'quvchi shaxsini chuqur anglashga, uni qo'llab-quvvatlashga, his-tuyg'ularini qadrlashga asoslangan uzluksiz tarbiyaviy jarayondir. Shu jihatdan, har bir o'qituvchi, psixolog va ota-ona bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylansa, yoshlarning ruhiy salomatligi, ma'naviy yetukligi va ijtimoiy mas'uliyat hissi yanada mustahkamlanadi.

Adabiyotlar:

1. Karimova V. M. *Psixologiya*. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019. – 350 b.
2. Nishonova Z. M. *Shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvi*. –T.: Fan, 2017. – 210 b.
3. To'xtaxo'jayev M. *O'quvchi shaxsining rivojlanish psixologiyasi*.– Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – 240 b.
4. Эйдемиллер Э. Г., Юстицкис В. *Психология и психотерапия семьи*. – Санкт-Петербург: Питер, 2009. – 540 с.
5. Виготский Л. С. *Психология развития ребенка*. – Москва: Педагогика, 1984. – 389 с.
6. Goleman D. *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.
7. Bandura A. *Social Learning Theory*. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977. – 247 p.
8. Erikson E. H. *Childhood and Society*. – New York: W. W. Norton & Co., 1963. – 445 p.
9. Maslow A. H. *Motivation and Personality*. – New York: Harper & Row, 1987. – 293 p.
10. CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning). *SEL Framework Guide*. – Chicago, 2020. – 60 p.
11. Z.Elov. Identifikatsiya jarayoni muammosining psixologiyada o'rganilishi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar integratsiyasi. Ilmiy konferensiya to'plami. 2023
12. Z.Elov. O'z joniga qads qilish masalasi jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (12), 50-54
13. Z.Elov. Shaxsda fobiya holati va uning diagnostikasi. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (11), 66-74
14. Z.Elov. Suitsidial xulq-atvor haqida tahlillar va nazariyalar. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (10), 11-22
15. Z.S.Elov. Suitsidial xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o'rganilishi: tahlillar va nazariyalar. 2023. Science and Education 4 (10), 326-342

**TALABA QIZLARDA OILAVIY QADRIYATLARGA NISBATAN IJOBIY
USTANOVKALARNI SHAKLLANTIRISH MODEL**

Axmedov Aminjon Amrullayevich,

*Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrası
o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Ushbu maqolada talaba qizlarda oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy ustanovkalarni shakllantirishning psixologik modeli konseptual asosda tahlil qilingan. Oilaviy qadriyatlar tizimiga ijobiy munosabatni shakllantirish shaxsning ma'naviy-psixologik va ijtimoiy rivojlanish jarayonining muhim komponenti sifatida ko'rib chiqiladi. Modellash jarayonida ijobiy ustanovkalar motivatsion-emotsional, kognitiv va xulq-atvorga oid komponentlar orqali tizimli ravishda shakllantiriladi. Tadqiqotda ta'kidlanishicha, ijtimoiy-madaniy muhit, oila an'analari va jamiyatning qadriyatlar tizimi talaba qizlarning oilaviy qadriyatlarga munosabatini belgilovchi muhim omillar sanaladi. Modelni amalga oshirish mexanizmi sifatida individual va guruhviy psixologik treninglar, interfaol o'qitish metodlari va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish usullari tavsiya etiladi. Ushbu treninglar orqali shaxsda oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy emotsional motivatsiya, bilim va amaliy xulq-atvor ko'nikmalari mustahkamlanadi. Natijada, model shaxsning ma'naviy yetukligi, ijtimoiy integratsiyasi va oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan kompleks psixologik-ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Talaba qizlar, oilaviy qadriyatlar, ijobiy ustanovka, psixologik model, motivatsiya, bilim, xulq-atvor, ijtimoiy muhit, oila, jamiyat, trening, o'qitish, ko'nikmalar, ma'naviyat, integratsiya, munosabatlar.

**МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЗИТИВНЫХ УСТАНОВОК К СЕМЕЙНЫМ
ЦЕННОСТЯМ У СТУДЕНТОК**

В данной статье концептуально проанализирована психологическая модель формирования позитивных установок к семейным ценностям у студенток. Формирование положительного отношения к системе семейных ценностей рассматривается как важный компонент процесса духовно-психологического и социального развития личности. В процессе моделирования позитивные установки системно формируются через мотивационно-эмоциональные, когнитивные и поведенческие компоненты. В исследовании отмечается, что социально-культурная среда, семейные традиции и система ценностей общества являются важными факторами, определяющими отношение студенток к семейным ценностям. В качестве механизма реализации модели рекомендуются индивидуальные и групповые психологические тренинги, интерактивные методы обучения и методы развития коммуникативных навыков. Через эти тренинги у личности укрепляются позитивная эмоциональная мотивация, знания и практические поведенческие навыки в отношении семейных ценностей. В результате модель проявляется как комплексный психолого-социальный процесс, направленный на духовную зрелость личности, социальную интеграцию и укрепление семейных отношений.

Ключевые слова: Студенты, семейные ценности, позитивная установка, психологическая модель, мотивация, знания, поведение, социальная среда, семья, общество, тренинг, обучение, навыки, духовность, интеграция, отношения.

**MODEL OF FORMING POSITIVE ATTITUDES TOWARD FAMILY VALUES AMONG
FEMALE STUDENTS**

This article conceptually analyzes the psychological model of forming positive attitudes toward family values among female students. The formation of a positive attitude toward the system of family values is considered an important component of the process of spiritual-psychological and social development of the individual. During the modeling process, positive attitudes are systematically formed through motivational-emotional, cognitive, and behavioral components. The study emphasizes that the socio-cultural environment, family traditions, and the system of societal values are important factors determining female students' attitudes toward family values. As a mechanism for implementing the model, individual and group psychological trainings, interactive teaching methods, and communication skills development techniques are recommended. Through these trainings, the individual's positive emotional motivation, knowledge, and

practical behavioral skills related to family values are strengthened. As a result, the model manifests as a complex psychological-social process aimed at the individual's spiritual maturity, social integration, and strengthening of family relationships.


Keywords: female students, family values, positive attitude, psychological model, motivation, knowledge, behavior, social environment, family, society, training, teaching, skills, spirituality, integration, relationships.

Kirish. Oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy ustanovkalarni shakllantirish talaba qizlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ushbu bobda talaba qizlarda oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy ustanovkalarni shakllantirishning, insonning butun umri davomida shakllanib boruvchi murakkab tizim hisoblanadi. Ijobiy ustanovkalarni shakllantirish jarayoni oilaviy qadriyatlarning mohiyatini to'g'ri anglash, o'ziga xos xulq-atvor shakllari va oila a'zolari bilan o'zaro hurmat va ishonch munosabatlarini yaratishga asoslanadi. Ushbu jarayonning markazida shaxsning ma'naviy, psixologik va ijtimoiy jihatdan yetuk bo'lishiga yo'naltirilgan rivojlanish turadi. Talaba qizlarda oilaviy qadriyatlarga ijobiy ustanovkalarni shakllantirishga ta'sir qiluvchi omillar orasida ijtimoiy-madaniy muhit, oila an'analari va jamiyatdagi qadriyatlar tizimi muhim rol o'ynaydi. Bunday ustanovkalarni rivojlantirishda individual va guruhviy treninglar, interfaol o'qitish metodlari, shaxsiy tajribalar va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

Talaba qizlarda oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy ustanovkalarni shakllantirishning psixologik modeli turli komponentlardan iborat. Bu komponentlar qatoriga motivatsion-emotsional, kognitiv va xulq-atvorga oid jihatlar kiradi. Motivatsion-emotsional komponent oila a'zolariga mehr-muhabbat va hurmat hissini uyg'otish, shaxsning oilaviy qadriyatlarni qadrlash motivatsiyasini shakllantirish bilan bog'liq. Kognitiv komponent esa oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirish, oilaviy munosabatlar va ularning ahamiyati haqida to'g'ri tushunchalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Xulq-atvorga oid komponent esa oilaviy qadriyatlarni amalda qo'llash va oila ichidagi muloqotda ijobiy xatti-harakatlarni amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Biz talaba qizlarda oilaviy qadriyatlarni shakllantirishda psixologik treninglarda ham foydalandik. Trening bu – inglizcha so'zdan olingan bo'lib “mashq qilmoq” degan ma'noni bildiradi. Trening guruh va jamoalarda turli muammolarni bartaraf etish, foydali usullarni o'zlashtirish, murakkab qadriyatlarga doir masalalarni hamda yumshatish va yechish maqsadida olib boriladigan psixologik ishlarning faol usuli, ya'ni guruh-guruh bo'lib munozara, bahs, rolli o'yin va boshqa o'yinlarni o'tkazishga aytiladi.

Ijtimoiy psixologik trening – insonning qadriyatlari va ularga to'g'ri yondashuvni o'rgatish uchun bajariladigan mashqlar va xatti-harakatlar tizimidir. Trening jarayoni – har bir mashqda uning rahbari qanday ustanovka (yo'nalish) berishidan iboratdir. Treningning asosiy maqsadi – asosan shaxsda oilaviy qadriyatlarni shakllantirishga yo'nalganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.



Treningning asosiy yo'nalishi (ustanovkasi): rolli o'yin shaklida rolli vaziyatni idrok etishni tashkil qilishdan iborat, chunki trening uni qatnashchilarida trenerning yordamida o'yinda yaratilgan vaziyatlarga nisbatan individual munosabatni shakllantirish zarur.

Trening jarayoni 10-12 mashg'ulotni o'z ichiga qamrab oladi. Treningning hamma mashg'ulotlari uning ishtirokchilari bilan faqat do'stona, samimiy his-tuyg'ular asosida va ixtiyoriy tarzda o'tkaziladi.

Trening ishtirokchilarining soni 5 nafardan 15 nafargacha bo'lishi mumkin. Guruh bilan mashqlarni o'tkazishdagi majburiy mashqlarni shartlar bo'yicha qoidalarga rioya qilinmasa, u holda psixologik trening ijobiy natija bermasligi to'g'risida oldindan kelishib olish kerak. Jumladan:

- bir-biriga samimiylik, xayrixohlik;
- bir-biriga ishonish va o'zaro hurmat;
- mashqlarni bajarish davomida shaxsga baho bermaslik, balki uning faoliyatiga va muloqot usullariga baho berish;
- ishtirokchilar o'yindan qay darajada qoniqqanligi haqidagi taassurotlarini shu zahotiyuq trenerga ma'lum qilish;
- topshiriqlarni bajarish faqat ijobiy farazga mo'ljallanganligi;
- shaxs nuqsonlariga nisbatan e'tibor qaratmaslik;

– trening jarayonida hech kimga hech qanday maslahat bermaslik;
– “Bu yerda va hozir” – degan shartni bajarish, ya’ni trening paytida ro’y bergan hamma narsa tashqariga olib chiqilmasligi va hozirgi muloqotda nimalarni his etayotganligini ma’lum qilmaslik;
– tomoshabinlar trenerning ruxsati bilan emas, balki guruhning barcha a’zolari roziligiga binoan qatnashishligi kabilar.

Treningni muvaffaqiyatli o’tkazish va uning sarmahsullik muvaffaqiyati ko’p jihatdan trener bilan ishtirokchilar o’rtasidagi o’zaro bir-birini tushunish darajasiga ham bog’liqdir.

Treningni tashkil etishda quyidagi murakkab holatlarni inobatga olish va ularni izchil ravishda nazarda tutish maqsadga muvofiq;

1. O’zidagi shaxsiy ichki regulyatorni shakllantirish, barcha ishtirokchilarning ko’zlariga to’g’ridan-to’g’ri va dadil qaray olish;

2. O’yin faoliyatining boshida yaratilgan vaziyat eng omilkor va qulay bo’lishini esda tutish;

3. Treningni muvaffaqiyatli o’tkazish trenerdan intellektual-psixologik jihatdan ko’p kuch sarflash va bioquvvatni talab qilishini;

4. Treningda ishtirokchilarni o’zaro bir-biriga ishongan holda samarali ta’sir etish muhitini yaratishni.

Har bir ishtirokchi o’zini trening va trening yuzasidan improvizatsiya qilishga tayyorlashi lozim.

Talaba qizlarda qadriyatlar shakllanishi uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish muhim sanaladi:

1. Ichki xohishni qondirilishi.

2. Oilaviy qadriyatlarni inobatga olish.

3. Oilaviy qadriyatlarni shakllantirish shart-sharoitlarini yaratish.

4. Qadriyatlar iyerarxiyasini to’g’ri nazorat qilish.

Trening o’tkazishdan maqsad shuki, talaba shaxsida mavjud qadriyatlarni shakllantirish va uning ijobiy xususiyatlarini rivojlantirish. Buning uchun yana quyidagilarga e’tibor berish o’rinli:

a) trening qatnashchilarining bir-birlariga ijtimoiy-psixologik jihatdan moslashishga e’tiborni qaratish va atrofdagilar bilan munosabatini mustahkamlash;

b) trening qatnashchilarida o’z hayotini sezilarli darajada o’zgartirishga erisha olish.

Ijtimoiy-psixologik treninglar quyidagicha tartibni taqozo etadi:

1. Ma’lum sotsial psixologik bilimlarni egallash.

2. O’zini va atrofdagilarni to’g’ri tushunish.

3. Talaba shaxsidagi oilaviy qadriyatlarni transformatsiyalash, uni diagnostika qilish va o’quv faoliyatiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni olib tashlash.

4. Talabaning qiziqishi va qadriyatlarini o’rganish va ularni samarali shakllantirish.

5. Trening mashqlarida qatnashish jarayonida o’zini erkin tutish.

Treningni o’tkazishda bir necha prinsiplarga amal qilish lozim.

1. Erkinlik prinsipi.

2. O’zini-o’zi diagnostika qilish prinsipi.

3. Kamchilik va xatolarini tuzatishga intilish prinsipi.

Trening o’tkazish uchun tavsiyalar. Trening mashg’ulotlarini o’tkazish uchun ishtirokchilarni qiziqitirish, ularning mustaqil ishlashiga imkoniyat yaratish kerak bo’ladi. Biron-bir qatnashuvchini muhokama qilish mumkin emas. Biror shaxs o’zini boshqalardan baland tutmasligi kerak. Psixolog xarakter xislati va munosabati bilan qatnashuvchilarning psixikasiga salbiy ta’sir o’tkazmasligi muhim shartlardan hisoblanadi.

Treningni o’tkazuvchi uchun shart bo’lgan ishlar:

1. Muhokamani tashkil qilish, ishchi guruh uchun qoidalar ishlab chiqish va har bir mashg’ulotda trener treningni maqsadi va vazifasini batafsil tushuntirib borish.

2. Navbatdagi mashg’ulot ko’rsatmasini berish.

3. Qatnashuvchilar savollariga javob berish va ular bajarayotgan ishni to’liq nazorat qilish.

4. Trening dasturi mazmunini trening maqsadi asosida tahlil etish.

5. Trening haqida qatnashuvchilar bilan fikr almashish.

6. Qatnashuvchilarning oilaviy qadriyatlari shakllanishi va uning transformatsiyasini nazorat qilish.

7. Har bir mashg’ulotni yakunlash va uyga vazifa berish.

8. Mashg’ulot oxirida trener to’g’risida qatnashuvchilar o’z fikrini bayon qilishlariga imkoniyat berish lozim.

Trening mashg’ulotlari do’stona, samimiy va ixtiyoriy tarzda o’tkaziladi. Trening o’tkazishdagi shartlar bo’yicha ma’lum qoidaga rioya qilinmasa, u ijobiy natija bermaydi.

Psixologik trening o’tkazishning umumiy qonun-qoidalari:

1) Barcha qatnashchilar doira bo’lib o’tirishlari zarur.

- 2) Qatnashchilar soni 15 nafardan oshmasligi shart.
 - 3) Psixolog qatnashchilar bilan birga treningdagi barcha topshiriqlarni ketma-ketlikda bajarishi shart.
 - 4) Qatnashchilarning har biri barcha mashg‘ulotlarda qatnashishi lozim.
 - 5) Treningni o‘tkazuvchi trener mashg‘ulotlarini mahorat bilan boshqarishi kerak, ya’ni har bir mijozning fikrini qo‘llab-quvvatlashi va uni rag‘batlantirib borishi zarur.
 - 6) Treningni boshqaruvchi trener qo‘yilgan muammolarni qatnashchilarning o‘zlari hal qilishlari uchun qulay sharoit yaratishi kerak;
 - 7) Mashg‘ulot davomida qatnashchilar o‘z ta’sirotlarini yozib borishi uchun kundalik tutishga ruxsat berish lozim.
 - 8) Barchani diqqat bilan tinglab borish zarur.
 - 9) Barcha qatnashchilar ko‘nglidagi gapni ro‘y-rost va samimiy gapirishi shart.
 - 10) Qatnashchining biron-bir nuqsoniga e’tibor bermaslik kerak.
 - 11) Trening jarayonida hech kimga hech qanday maslahat berish mumkin emas.
 - 12) Trening jarayonida erkin “bu yerda” va “hozir” kabi so‘zlarni ishlatish shart.
 - 13) Trener har bir mashg‘ulotni yakunlab, qatnashchilardan trening to‘g‘risidagi ta’sirotlarini so‘rashi lozim.
 - 14) Trener albatta, uyga vazifa berishi va uni bajarilishini nazorat qilishi lozim.
- Treningni muvaffaqiyatli o‘tkazish va uning sarmahsulligi ko‘pincha boshqaruvchi bilan qatnashchilar o‘rtasidagi o‘zaro bir-birini tushunish darajasiga ham bog‘liqdir.
- Tadqiqot maqsadini amalga oshirishda belgilangan vazifalarni bajarish uchun korreksion bosqichda ma’lum bir shkalalar, ya’ni ma’naviy qadriyatlar namoyon bo‘lishi va shakllanishi past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan (76 nafar) sinaluvchilar bilan korreksion treninglar amalga oshirildi.
- Treningni asosiy maqsadi talaba qizlarda qadriyatlar tizimini to‘g‘ri shakllantirishdan iborat edi. Shunga ko‘ra, trening vazifasi sifatida quyidagilar belgilandi:
- aktualashtirilgan qadriyatlarni emas, balki ma’lum bir shaxsga xos bo‘lgan qadriyatlarni yoki shaxsiy xususiyatga (xususiyatlarga) aylangan qadriyatlarni, qadriyatlar asosida shakllangan shaxsiy moyilliklarni rivojlantirish;
 - oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishish darajasini shakllantirish;
 - psixokorreksion mashqlardan so‘ng sinaluvchilardagi o‘zgarishlarni qayd qilish va samaradorligini baholash.
- Psixokorreksion faoliyat psixokorreksion kompleks dasturi yordamida amalga oshirildi. Mashg‘ulot bir-biriga bog‘liq bo‘lgan to‘rt bosqichdan iborat bo‘ldi. Bular:
- 1) tayyorgarlik (psixodiagnostik) bosqichi;
 - 2) korreksion bosqich;
 - 3) korreksion faoliyatning samaradorligini aniqlovchi bosqich;
 - 4) yakunlovchi (baholovchi) bosqichlar shakllantirildi.

Talaba qizlarda oilaviy qadriyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-psixologik treninglar dasturining asosiy bosqichlari

Bosqichlar	Maqsadli yo‘naltirish	Mavzu yoki mashg‘ulotlar mazmuni
Tayyorgarlik Bosqichi	Talaba qizlar bilan birlamchi suhbat o‘tkazish. Guruhlar talaba qizlar bilan ishlash jarayonida nazarda tutilgan qonun va qoidalarni aniqlashtirib olish. Diagnostika natijalariga qarab guruhlarini shakllantirish	Suhbat, talaba qizlarning dars mashg‘uloti va ularning kundalik faoliyatini kuzatish hamda ularning natijalari bilan tanishish
Birinchi bosqich Boshlang‘ich	Guruhiy yaqinlik, qadriyatlarini rivojlantirish. O‘z qadriyatlarini vizual texnika yordamida tahlil qilish.	Qadriyatlarni shakllantirish uchun mashqlar: «xohish-istaklarini qondirish», “Stulni ishlatishning 50 xil usuli”, “Sinesteziya”, “Zinapo-ya” Ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish mashqlari: “Munosabat zanjiri”, “Ichki regulyatorni boshqarish” psixotexnik mashqlar.
Ikkinchi bosqich-O‘tuvchi	Mashq qilish jarayoni samaradorligini oshirish. Qadriyatlarni shakllantirishni	“Qadriyatlar”ni rivojlantirish, “Individual qadriyatlarni rivojlantirish”, ichki psixotexnik mashqlar. O‘z ichki motivlarini

	maqsadli boshqarish	boshqarish uchun mashqlar: Mashqlarga psixologik tayyorlik, «Ideo-motor yo‘naltirish»; Shaxs ustanovkalariga psixologik tayyorlik: «Termometr»; o‘yin vaqtida o‘zini ichki boshqarish: “Chiqish”; “Kitob o‘qish-ni istayman”
Uchinchi bosqich-Asosiy	O‘quv faoliyatida qadriyatlarni shakllantirish malakasini rivojlantirish. Qadriyatlarni to‘g‘ri shakllantirish. Ichki psixik holatni va aqliy jarayonni boshqarish.	. Ijtimoiy qadriyatlarga yo‘naltirilgan mashqlar: “Qaynoq choynak”, “O‘tmish, bugun va kelajak”. Relaksatsiyaga o‘rgatish: “Kontrast”, “Psixopauza”. Ideomotor mashqlar: “O‘ziga buyruq berish”. Ichki xohish orqali qadriyatlarni korreksiya qilish
To‘rtinchi bosqich-Yakunlovchi	Qadriyatlar yo‘lida o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish	Mental trening mashqlari: “Boshqa shaklga kirish”, “Madaniy merosga hurmat”. Autogen mashqlar – mashq jarayoni. Koping strategiyasi. Psixoregulyatsiya seanslari. Yakunlovchi qayta aloqa.

Diagnostik bosqichning maqsadi: qadriyatlarni rivojlanganlik holatini aniqlash, psixologik korreksiyaning shakllantirishining umumiy dasturini ishlab chiqish.

Korreksion bosqichning maqsadi: shaxs qadriyatlarini shakllantirishni ta‘minlash, qadriyatlarni shakllantiruvchi shart-sharoitlarni o‘rgatish, qadriyatlar rivojlanishini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Korreksion faoliyat samaradorligini baholash bosqichining maqsadi: shaxs qadriyatlari o‘zgarishining psixologik mazmuni va dinamikasini o‘lchash, ijobiy xatti-harakat reaksiyalarini paydo bo‘lishini ta‘minlashdan iborat.

Ijtimoiy – psixologik treningning maqsadi: Talaba qizlarda oilaviy qadriyatni shakllantirishning ijtimoiy va etnopsixologik o‘ziga xosligini belgilash, rivojlantirish usullarini takomillashtirishga doir manzilli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqib, boshqa milliy madaniyat vakillari va ularning hayot tarziga nisbatan xayrxoh munosabatni shakllantirishdan iborat.

Ijtimoiy–psixologik treningning vazifasi: ta‘lim muhitida tahsil olayotgan talaba qizlarda oilaviy qadriyatni shakllantirish uchun:

- o‘zining oilaviy qadriyatiga bo‘lgan munosabatini;
- boshqa oilaviy qadriyat namunasini o‘rganishga bo‘lgan munosabatini;
- oilaviy qadriyat namunalarini ko‘rsata olish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.
- Ijtimoiy–psixologik trening ishtirokchilarining tarkibi:
- sifat ko‘rsatkichi bo‘yicha - gomogen yoki geterogen;
- son ko‘rsatkichi bo‘yicha - ishtirokchilar soni 14-16 kishi (geterogen) bo‘lishi mumkin. Bunda,

psixolog-treningning qarori belgilovchi sanaladi.

Ijtimoiy–psixologik trening davomiyligi: haftada bir marotaba, uch oy davomida. Har bir trening 45 daqiqadan – 1 soat-u 20 daqiqagacha o‘tkazilishi nazarda tutilgan.

Ijtimoiy–psixologik treningda qo‘llaniladigan usullar: munozara-bahs, guruhli bahs, vizuallashtirish, art-texnikalar, meditatsiya, psixogimnastika, intervyu, vazifa-dilemmalar.

Talaba qizlarda oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy ustanovkalarni shakllantiruvchi psixologik model 3 bosqichdan iborat.


Ijtimoiy–psixologik treningning nazariy-metodologik asosi:

hamkorlikda kognitiv-xulqi munosabatlar dinamikasi;

guruhiy faoliyat yuritish nazariyasi;

rolli o‘yinlar syujetini tayyorlashda “Madaniyatlar dialogi” ta‘limoti.

Tadqiqot predmetining murakkablik darajasini inobatga olib, milliy madaniyatning mazmun-mohiyati va funksiyasi haqida ijtimoiy tasavvurga ega bo‘lmagan Talaba qizlardan trening guruhi tuzildi.



1-rasm. Talaba qizlarda oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy ustunovkalarni shakllantiruvchi psixologik model

Ijtimoiy-psixologik tadqiqotda korreksiya o'tkazish uchun dastur tayyorlashda individual va umumiy kabi psixologik korreksiya modellaridan foydalanildi. Bu modellar insonni:

a) “Inson – Ijtimoiy muhit”;

b) “Inson – Tabiiy muhit”;

v) “Inson – Madaniy muhit” kabi munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini belgilash imkonini beradi.

I. Asosiy komponentlar:

Motivatsion component. Ushbu bosqichda talaba qizlarning oilaviy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishini uyg'otish va ularni oilaviy qadriyatlarni anglashga motivatsiya qilish maqsad qilib olinadi. Oila a'zolariga bo'lgan mehr-muhabbat, hurmat va mas'uliyat hissi shakllantiriladi. Motivatsiya yaratuvchi mashg'ulotlar, qiziqarli taqdimotlar va ilhomlantiruvchi hikoyalar orqali oilaviy qadriyatlarning muhimligi tushuntiriladi.

Kognitiv component. Bu bosqichda oilaviy qadriyatlar haqida to'g'ri bilim va tushunchalarni shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Talaba qizlar oilaviy munosabatlar, an'analar va oilaning jamiyatdagi o'rni to'g'risida ma'lumot oladilar. Seminarlar, suhbatlar va interfaol o'yinlar yordamida ularning bilimlari mustahkamlanadi.

Emotsional component. Ushbu bosqich talaba qizlarning oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy emotsiyalarni his qilishiga yordam beradi. Trening mashg'ulotlari orqali oilaviy hayotga iliq va mehrli munosabat shakllantiriladi. Shaxsiy hikoyalar, hissiy ta'sir ko'rsatuvchi rolli o'yinlar va ko'ngilni to'ldiruvchi faoliyatlar bu jarayonning muhim qismi hisoblanadi.

Xulq-Atvor komponenti. Talaba qizlarning oilaviy qadriyatlarni amalda qo'llashi va ularni kundalik hayotda namoyon qilishi bu bosqichda rivojlantiriladi. O'zaro hurmat va muloqot ko'nikmalarini mustahkamlash uchun amaliy mashg'ulotlar tashkil etiladi. Ular oilaviy muhitda qo'llanishi mumkin bo'lgan konstruktiv xatti-harakatlarni o'rganadilar.

II. Amaliy bosqich

Ma'lumot berish. Talaba qizlarga oilaviy qadriyatlarning ahamiyati, turli oila modellari va an'analar haqida keng ma'lumot beriladi. Bu bosqichda nazariy bilimlar amaliyot bilan mustahkamlanadi.

Trening mashg'ulotlari. Oilaviy qadriyatlarga oid turli vaziyatlar orqali talaba qizlarning muammolarni hal qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Treninglarda ko'rgazmali vositalar, rolli o'yinlar va guruhviy ishlardan foydalaniladi.

Muloqot va hamkorlik. Oilaviy munosabatlarni mustahkamlash uchun samarali muloqot va jamoaviy ishlash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Talaba qizlar o'z oilalaridagi muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish va ularga yechim topish uchun faol ishtirok etadilar.

Refleksiya. Har bir mashg'ulotdan so'ng talaba qizlar o'z hissiyotlari va o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil qiladilar. Bu jarayon ular uchun o'z-o'zini anglash va o'z pozitsiyalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Amaliy tajriba. Talaba qizlarga oilaviy qadriyatlarni amaliyotda qo'llash imkoniyati beriladi. Ular oilaviy tadbirlarni tashkil etish, jamoaviy loyihalarda ishtirok etish orqali o'rganganlarini real hayotda qo'llaydilar.

III. Natijalarni kuzatish va baholash bosqichi:

Kuzatish. Treninglar va mashg'ulotlardan so'ng talaba qizlarning xulq-atvori va munosabatlaridagi o'zgarishlar muntazam kuzatib boriladi. Bu jarayonda ularning oilaviy qadriyatlarga munosabatlari va amaliy xatti-harakatlari tahlil qilinadi.

O'zini baholash. Talaba qizlar o'zlarini o'zi baholash orqali, trening davomida o'zlarida yuz bergan o'zgarishlarni anglaydilar. Bu jarayon ularga shaxsiy rivojlanish darajasini aniqlash va kelgusida o'z ustida ishlash uchun reja tuzishga yordam beradi.

Umumiy baholash. Butun trening dasturining samaradorligi ekspertlar tomonidan baholanadi. Bu bosqichda talaba qizlarning oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy ustanovkalari qanday darajada shakllanganligi aniqlanadi va natijalar umumiy xulosalar bilan to'ldiriladi.

Mazkur model oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy ustanovkalarni samarali shakllantirish uchun nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg'unlashtirgan tizimli yondashuvni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayeva M. (2018). Oila va jamiyat: Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ularni shakllantirish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
2. Islomova N. (2020). Talaba yoshlarning oilaviy qadriyatlarga munosabati va ularni rivojlantirish omillari. Psixologiya va pedagogika jurnali, 3(12), 45-53.

3. Karimova S. (2019). Ijtimoiy-psixologik treninglar yordamida talaba yoshlar oilaviy qadriyatlarini rivojlantirish. Toshkent: Ilmiy maqolalar to'plami.
4. Mirzayev D., & Tursunov A. (2017). Oilaviy qadriyatlar va yoshlar o'rtasida ijobiy ustanovkalarni shakllantirish. O'zbekiston Psixologiya Jurnal, 1(8), 22-29.
5. Sharipov R. (2016). Shaxs psixologiyasi va oilaviy qadriyatlar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Vahobov T. (2021). Talaba yoshlarning ijtimoiy-madaniy muhiti va oilaviy qadriyatlar. Sotsiologiya va psixologiya tadqiqotlari, 4(15), 70-77.
7. Zokirova F. (2019). Oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy psixologik ustanovkalarni shakllantirish metodikalari. Pedagogika va psixologiya masalalari, 2(10), 33-40.
8. Bandura A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
9. Rokeach M. (1973). The Nature of Human Values. New York: Free Press.
10. Bronfenbrenner U. (1979). The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge, MA: Harvard University Press.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ УСПЕШНОЙ КОМАНДНОЙ ИГРЫ В СПОРТЕ

Рузиева Махлиё Каюмовна,

Ферганский государственный университет, преподаватель

ruziyevamahliyo@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-7006-880X

Данное исследование направлено на изучение социально-психологических факторов, влияющих на эффективность командной игры в спорте. Результаты показали, что ключевыми факторами успешности команды являются высокий уровень взаимного доверия, коммуникативная компетентность, лидерство, коллективная мотивация и эмоциональная устойчивость игроков.

Ключевые слова: командная игра, спорт, социально-психологические факторы, мотивация, коммуникация, лидерство.

SPORTDA MUVAFFAQIYATLI JAMOAVIY O‘YINNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Ushbu tadqiqot sportda jamoaviy o‘yin samaradorligiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o‘rganishga qaratilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, jamoaning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘zaro ishonch darajasi, kommunikativ kompetentlik, yetakchilik, umumiy motivatsiya va o‘yinчилarning hissiy barqarorligiga bog‘liq.

Kalit so‘zlar: jamoaviy o‘yin, sport, ijtimoiy-psixologik omillar, motivatsiya, kommunikatsiya, liderlik.

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SUCCESSFUL TEAM PLAY IN SPORTS

This study is aimed at identifying the social and psychological factors that influence the effectiveness of team play in sports. The results showed that the key factors of team success include high levels of mutual trust, communicative competence, leadership, collective motivation, and emotional resilience of players.

Keywords: team play, sports, social and psychological factors, motivation, communication, leadership.

Введение. Современный спорт немыслим без командного взаимодействия, которое играет определяющую роль в достижении спортивного результата. Даже при наличии высокоподготовленных игроков команда не сможет добиться успеха без развитых социально-психологических связей. Исследования показывают, что в командных видах спорта более 60% побед определяется не только физической подготовленностью, но и уровнем сплоченности, мотивации и коммуникативных навыков спортсменов [1, 2].

Командная игра требует от участников умения доверять друг другу, выстраивать продуктивные коммуникации и координировать действия в условиях стресса и соревновательного давления. Особое значение приобретают такие качества, как эмоциональная устойчивость, коллективное целеполагание, а также наличие эффективного лидера в команде [3].

Настоящее исследование направлено на выявление и систематизацию социально-психологических факторов, влияющих на успешность командной игры в спорте.

Цель исследования. Изучить социально-психологические факторы, способствующие успешной командной игре в спорте, и определить их влияние на эффективность взаимодействия спортсменов.

Методика исследования. В исследовании приняли участие 80 спортсменов (мужчины и женщины), представляющие команды по футболу, волейболу и баскетболу из трёх университетов.

Применялись следующие методы:

- **анкетирование** (для выявления уровня мотивации, межличностных отношений, доверия и коммуникативной компетентности);

- **тестирование эмоциональной устойчивости** (опросник Спилбергера и шкала стресса Персева);

- **наблюдение** за командными тренировками и играми (фиксация уровня взаимодействия и лидерских проявлений).

Собранные данные обрабатывались с использованием методов описательной статистики и сравнительного анализа.

Результаты исследования. Анализ показал, что успешность командной игры во многом определяется следующими факторами:

1. **Взаимное доверие** — спортсмены, уверенные в партнёрах, демонстрируют более высокий уровень взаимодействия (73% участников отметили, что доверие облегчает выполнение игровых комбинаций).

2. **Коммуникативная компетентность** — чёткая и быстрая передача информации повышает эффективность командных действий (особенно в волейболе и футболе).

3. **Лидерство и распределение ролей** — наличие формального и неформального лидера способствует сплочению команды и повышает ответственность за результат.

4. **Коллективная мотивация** — команды с ярко выраженными общими целями показали лучшие результаты, чем группы с индивидуализированной мотивацией.

5. **Эмоциональная устойчивость** — спортсмены с низкой тревожностью и высоким уровнем самоконтроля меньше подвержены ошибкам в стрессовых ситуациях.

Таблица 1. Социально-психологические факторы успешной командной игры

Фактор	Характеристика	Влияние на командную игру
Взаимное доверие	Уверенность спортсменов в партнёрах, готовность полагаться на действия друг друга	Повышает согласованность игровых действий, снижает количество ошибок
Коммуникативная компетентность	Умение быстро и чётко передавать информацию в условиях стресса	Улучшает координацию, повышает скорость принятия решений
Лидерство и распределение ролей	Наличие формального и неформального лидера, чёткое понимание ролей в команде	Способствует сплочённости, формирует ответственность за результат
Коллективная мотивация	Ориентация игроков на общую цель, а не на индивидуальные достижения	Усиливает командный дух, повышает стремление к победе
Эмоциональная устойчивость	Способность сохранять контроль над эмоциями в условиях соревновательного давления	Снижает уровень тревожности, помогает избегать срывов и конфликтов
Кооперация и взаимопомощь	Готовность помогать партнёрам, делиться ресурсами и поддерживать друг друга	Формирует чувство единства, повышает эффективность взаимодействия
Разрешение конфликтов	Конструктивное урегулирование разногласий в команде	Сохраняет психологический климат, предотвращает дезорганизацию

Обсуждение. Результаты исследования подтверждают, что социально-психологические факторы имеют не меньшее значение, чем уровень физической подготовки. Команды, показавшие высокие спортивные результаты, отличались более выраженной сплочённостью, устойчивой внутренней мотивацией и эффективными коммуникативными навыками. Эти данные согласуются с результатами других исследований, указывающих на то, что успешные спортивные коллективы характеризуются высоким уровнем доверия, эмоциональной поддержки и взаимодействия между игроками [4, 5].

Особенно важно отметить, что развитие психологической устойчивости и командного доверия способствует снижению числа внутрикомандных конфликтов, которые часто становятся причиной снижения результативности даже при хорошем уровне технической подготовки. Умение контролировать эмоции и поддерживать партнёров в стрессовых ситуациях обеспечивает стабильность игры в условиях высокой соревновательной нагрузки.

Анализ наблюдений показал, что команды с развитой системой коммуникации и распределением ролей демонстрировали более чёткое взаимодействие во время игры. Это выражалось в своевременной передаче информации, корректировке действий и способности адаптироваться к меняющимся условиям матча. Лидерство в таких командах проявлялось не только в управлении тактическими аспектами, но и в поддержании психологического климата, что подтверждает значимость роли капитана и неформальных лидеров в коллективе.

Таким образом, возникает необходимость интеграции в тренировочный процесс не только физических и технических упражнений, но и элементов психологической подготовки. К таким элементам можно отнести:

- тренинги командного взаимодействия;
- развитие коммуникативных навыков;
- упражнения на формирование доверия;
- практики саморегуляции и стрессоустойчивости.

Комплексное сочетание физической, технической и психологической подготовки формирует основу для достижения высоких спортивных результатов. Более того, развитие социально-психологических качеств может способствовать не только улучшению результативности, но и общему личностному росту спортсменов, что особенно важно в контексте образовательной и воспитательной функции спорта.

Заключение. Социально-психологические факторы — доверие, коммуникация, лидерство, мотивация и эмоциональная устойчивость — являются ключевыми условиями успешной командной игры в спорте. Их целенаправленное развитие в процессе тренировок и соревнований способствует формированию сплочённости коллектива, росту эффективности командных взаимодействий и, как следствие, улучшению спортивных результатов. Команды, в которых данные качества развиты системно, демонстрируют более высокий уровень согласованности действий, устойчивость к стрессовым ситуациям и способность эффективно решать тактические задачи.

Практическая значимость исследования заключается в том, что его результаты могут быть использованы тренерами, педагогами и спортивными психологами при формировании программ подготовки, которые учитывают не только физические и технические, но и социально-психологические аспекты развития спортсменов. Включение в тренировочный процесс упражнений и методов, направленных на развитие доверия, коммуникации, лидерства и эмоциональной устойчивости, позволит повысить общий уровень готовности команды к соревнованиям и уменьшить риск внутрикомандных конфликтов.

Теоретическая значимость исследования заключается в обосновании роли социально-психологических факторов в спортивной подготовке, что открывает перспективы для дальнейшего изучения их взаимосвязи с результативностью в различных видах спорта. Особенно актуальным представляется углублённое исследование механизмов формирования лидерства в спортивных коллективах, методов повышения мотивации, а также программ по развитию стрессоустойчивости у спортсменов.

Таким образом, комплексное сочетание физической, технической и психологической подготовки является оптимальной стратегией для формирования успешной команды. Учитывая современные тенденции в спорте и педагогике, акцент на социально-психологические факторы становится необходимым условием достижения высоких спортивных результатов и гармоничного развития личности спортсмена.

Литературы:

1. Иванов И.И. Психология спорта и физической культуры. – М.: Академия, 2020.
2. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2021.
3. Weinberg R., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. – Human Kinetics, 2019.
4. Kozlova Galina Gennadievna. *Identifying key principles of a reflective approach to effective leadership in sports and physical activity*. DOI: 10.5281/zenodo.10896356
5. Козлова Г.Г. *Исследование вклада акмеологии в формирование личностных качеств и достижение высшей точки развития личности в физической активности*. Journal of Universal Science Research, 2(3), 235–243. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10895382>
6. Рўзиева, М. (2023). Физиологические аспекты обучения детей физическим упражнениям. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(4), 833-838.

ФЕНОМЕН ОБИДЫ В СТУДЕНЧЕСКОМ ВОЗРАСТЕ: РЕЗУЛЬТАТЫ КАЧЕСТВЕННОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Салманова Тамила Хикматовна,

соискатель Международного университета Кимё в Ташкенте
tamilasalmanova@gmail.com

В статье рассматривается феномен обиды в представлениях студентов. На основе серии фокус-групп выявлены когнитивные, эмоциональные, поведенческие и физиологические аспекты данного переживания. Показано, что обида воспринимается студентами не как кратковременный эмоциональный всплеск, а как многокомпонентное состояние, влияющее на их мышление, чувства, поведение и телесные реакции. Особое внимание уделено роли обиды в студенческом возрасте как фактору, определяющему эмоциональное благополучие, академическую мотивацию и личностное развитие. Результаты исследования могут быть использованы для разработки диагностических инструментов, профилактических и тренинговых программ, направленных на повышение эмоциональной устойчивости молодежи.

Ключевые слова: обида, обидчивость, студенты, эмоции, фокус-группа.

TALABALIK DAVRIDA “XAFI BO‘LISH” FENOMENI: SIFAT TADQIQOT NATIJALARI

Izoh: ** - $p \leq 0,01$;

Yuqoridagi jadvalda uchta hududdan Xorazm viloyati Urganch shahridagi 3-son umumta’lim maktabining 7-9-sinfi o’quvchilaridan 126 nafar, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahridagi 15-son umumta’lim maktabining 7-9-sinfi o’quvchilaridan 71 nafar, Samarqand viloyati Kattaqo’rg’on shahridagi 17-son IDUMning 7-9-sinfi o’quvchilaridan 147 nafar, tadqiqotga jami 344 nafar respondentlar jalb etilgan. Va ularning empatiya darajasini aniqlash natijalari keltirilgan. Aytish kerakki, ushbu respondentlar deviant xulq-atvorga moyil va aleksitimiya darajasi yuqori bo’lgan o’smirlar bo’lib, ular so’rovnoma va metodikalar natijalari xulosasiga ko’ra aniqlangan.

Odamlarga hamdardlik bildirish – muhim xususiyatdir, biroq uning ijtimoiylashishini qiyinlashtiradigan, ichki bosim natijasida stressga olib boruvchi insonlarga nisbatan muhtojlik, tezda xafa bo’lish va hatto turli psixosomatik kasalliklarga ham olib kelishi mumkin. Empatiya rivojlanganligining o’rta darajasidagi shaxslar odamlar bilan muloqotda tajribaga nisbatan, shaxslarning xatti-harakatiga qarab ularga baho beradilar. O’z emotsiyalarni nazorat qiladilar, biroq odamlar bilan muloqotni bashorat qilishga qiynaladilar. Empatiya rivojlanishining past darajadagi shaxslar shaxslararo munosabatda boshqalar bilan aloqa o’rnatishga qiynaladilar, katta jamoalarda o’zlarini noqulay his qiladilar, hissiyotlarni namoyon qilmaydilar va boshqalarni hissiyotlarini qabul qilishga qiynaladilar, oqibatda atrofdagilar bilan tushunmovchiliklarga boradilar. Ularning individual ishlashlari samaraliroq, ratsional qaror qabul qilishga moyilligi baland bo’ladi. Boshqalarni hozirjavoblik va xayrixohlikka nisbatan, aql-idroklariga qarab qadrlaydilar.

«Mini insho» proyektiv metodikasi orqali verbal nutqda qiyinchilikka uchragan o’smir noverbal ifodalashda ham qiyinchilik sezadimi, degan savolga javob olishga harakat qildik [107]. Bunda o’smirlarimiz tomonidan tasavvur darajasining qanchalik kengligi, hissiyotlarni nutqiy ifodalashda so’zlarni o’z o’rnida qo’llay olish, so’z boyligi imkoniyatlari aniqlanadi.

Ma’lumki, o’z his-tuyg’ularini anglashga, hissiy tajribalarini aniq baholashga va boshqa shaxslarga ifodalash, hissiy axborotni yetkazib berishda qiyinchilikka uchrash – aleksitimik insonlarga xos psixologik xususiyat bo’lib hisoblanadi. Og’zaki nutqda aynan his-tuyg’ularni tasvirlab berish aleksitimik o’smir uchun qanchalik qiyin masala bo’lsa, yozma nutqda ham ko’pincha bu holat namoyon bo’lishi kuzatiladi.

Respondentlarimiz tomonidan yozilgan matnni kontekst tahlil qilish orqali nafaqat, ma’no-mazmunini balki, matn qanday ruhiy holatni anglatishini, ifodalash va tasvirlash kuchi darajasini ko’rsatadi. Ya’ni aleksitimik o’smirlarda o’z holati va fikriga aniq hukm berishga qiynalishgani, matnda aniq hukmlar yo’qligi, so’zlar soni 7-11 tadan oshmaganligini kuzatishimiz mumkin. Yozma muloqot ko’pincha og’zaki muloqotning darajasi yuqori bo’lgan hollarda ijobiy shakllanadi.



1-rasm.7-9 sinf aleksitimik o’smirlarda “Mini insho” metodikasi kontekst tahlili

Munozara. O‘smirlar bilan psixodiagnostik va psixokorreksiya tadbirlarni olib borish tadqiqotchidan alohida tayyorgarlikni talab qiladi. Chunki o‘smirlik davri ontogenezdagi qiyin, pubertat va og‘ir rivojlanish bosqichi ekanligi, bu davrda assotsial xulqning namoyon bo‘lish sur‘atining tezkorligi metodlar tanlashda aniq yo‘naltirilgan yondashuvni talab qiladi.

O‘smirlarning ijtimoiy hayotga moslashuv darajasi va ko‘nikmalari ijtimoiy omillarga bog‘liqdir. O‘smirlik davrida bolada kattalarga taqlid qilish, o‘zini ulardek tutishga intilishini inobatga olsak, oilaning sog‘lom yoki nosog‘lom muhiti ta‘sirini o‘rganish zarurati yanada ortadi. 15-16 yoshdan boshlab o‘smir o‘z oldiga hayot yo‘lini, kasbini tanlashga intilish, oila qurish havasining ortishi, farzandli bo‘lishi kabi vazifalarni qo‘yishi va bajarish jarayoni esa yetuklik davrida amalga oshishi bu muammoning juda dolzarb ekanligini tasdiqlaydi [6].

Dunyo miqyosida o‘tkazilgan bir nechta psixologik tadqiqotlardan olingan xulosalarga ko‘ra, hozirgi avlod vakillarini «multimediya texnologiyalari bolalari» deya atash tendensiyasi kuchayib bormoqda. Bunday bolalarning ko‘pchiligida aleksitimiya belgilarini ko‘rsatadigan kognitiv va kommunikativ xususiyatlar uchraydi. Olimlarning fikricha, kompyuterlar insonning o‘z tanasi bilan aloqasiga salbiy ta‘sir qiladi. Bu ta‘sir ostida aleksitimiya bilan birga keladigan autizm, xavotir, apatiya, (empatiyaning pasayib ketishi) va depressiya belgilari ortadi [2].

Deviant xulq atvorli o‘smirlarda aleksitimiya namoyon bo‘lishi shaxs xarakter xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, salbiy jihatlardan – egosentrizm, o‘z-o‘zini past baholashni tuzatishda hissiy tasvirlashning yetishmasligi yoxud uni to‘g‘ri anglay olmaslik sababli yuzaga kelishi sabab terapiyada asosiy yo‘nalishlardan ya‘ni xulq-atvor sohasiga e‘tibor qaratish lozim.

Kishida irodaviy sifatlarining rivojlantirilishi ularda hissiy nomlash va tasvirlashning qiyinlashishini kamaytirishi va ma‘suliyat hissini oshirishi, turli guruhiiy psixogimnastik mashqlar yordamida qayta tahlil qilish, o‘z ustida ishlash vazifasini yuklaydi. Bu esa o‘smirlarda turli vaziyatlarga nisbatan adekvat hissiy munosabatlarni shakllantiradi (kognitiv soha).

Xulosa. Aytish kerakki, bizning fikrimizcha, zamonaviy texnikalashgan avlodning psixologik o‘ziga xosligi aleksitimiya xususiyatlari bilan ham o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin. O‘zidagi va boshqalardagi hissiy ko‘rinishlarni (tajribalar, his-tuyg‘ular) aniqlay olmaslik, sezmaslik faqat tashqi faktorlarga asoslanish hisobga tan olmaslik ruhiy salomatlik buzilishi uchun xavf omili bo‘lib hisoblanadi. O‘smirlarning o‘zgaruvchan va beqaror ruhiy holati, rivojlanishdagi bu davrning pubertat, qiyin davr ekanligi aleksitimiya xususiyatlarini yanada og‘irlashtirishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, aleksitimiya fenomenining o‘smir xulq-atvoriga salbiy ta‘siri va namoyon bo‘lishi xususiyatlarini tahlil qilish orqali uning korreksiyasi yoki terapiyasiga metodologik asosni shakllantirish mumkin.

Adabiyotlar:

1. “Bola huquqlari to‘g‘risi”da Konvensiya. 1994-yil 20-noyabr. <https://lex.uz/docs/-6848811>
2. Bornstein L, Bornstein M. H. Parenting styles and child social development. Encyclopedia on early childhood development. Montreal: Centre of Excellence for Early Childhood Development and Strategic Knowledge Cluster on Early Child Development. 2007.
3. Karakulova U.A. “O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari va deviant xulq-atvor muammosi”. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 14-son.
4. Менделевия В. Д. Психология девиантного поведения. Учебное пособие. — СПб.: Речь, 2005 - 445 с. ISBN 5-9268-0387-X
5. Xakimova I.M. Deviant xulq –atvor psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. T-O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2013 yil. 5-b.
6. Шаповаленко И.В., Возрастная психология (Психология развития и возрастная психология): учебник для студентов вузов. – М.: Гордарики, 2007. – 344 с
7. <https://data.unicef.org/>
8. https://studme.org/79760/psihologiya/teorii_podrostkovogo_yunesheskogo_vozrasta#738

UO‘K 159.923: 392.3

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR O‘Z-O‘ZINI ANGLASHIDA OILAVIY
MUNOSABATLARNING TA’SIRI**

Abirqulova Zarina Shavkat qizi,

O‘zbekiston Milliy universiteti

Psixologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

O‘z-o‘zini anglash insonning shaxsiyati va psixologik rivojlanishining asosiy komponentlaridan biridir. Oiladagi munosabatlar turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi va ular bolaning ruhiy hamda psixologik rivojlanishida turli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash jarayonida oilaviy munosabatlarning ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Psixika, idrokining o‘tkirliigi, o‘quv faoliyati, o‘z-o‘zini hurmat qilish, empatiya, ehtiyoj, oila ichidagi rollar.*

**ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА САМОСОЗНАНИЕ МЛАДШИХ
ШКОЛЬНИКОВ**

Самосознание является одним из ключевых компонентов личности и психологического развития человека. Семейные отношения проявляются в различных формах и оказывают разное влияние на психическое и психологическое развитие ребёнка. В данной статье рассматривается влияние семейных отношений на процесс формирования самосознания у младших школьников.

Ключевые слова: *психика, острота восприятия, учебная деятельность, самоуважение, эмпатия, потребность, семейные роли.*

**THE IMPACT OF FAMILY RELATIONSHIPS ON THE SELF-AWARENESS OF PRIMARY
SCHOOL CHILDREN**

Self-awareness is one of the key components of personality and psychological development. Family relationships manifest in various forms and exert differing degrees of influence on a child's mental and psychological growth. This article explores the impact of family relationships on the development of self-awareness in primary school children.

Keywords: *psyche, perceptual acuity, learning activity, self-esteem, empathy, need, family roles.*

Kirish. Kichik maktab yoshi bolalarning shaxs sifatida shakllanishidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda ular o‘z qobiliyatlari, imkoniyatlari va qadr-qimmatini haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qila boshlaydilar. O‘z-o‘zini anglash jarayoni, bir tomondan, bolaning ichki olamida shakllanayotgan psixologik jarayonlarga, ikkinchi tomondan esa, uning atrofidagi muhit, xususan, oiladagi munosabatlarga bog‘liq. Oilaviy munosabatlar bolaning shaxsiyati, qadr-qimmatini va o‘ziga bo‘lgan ishonchiga bevosita ta’sir qiladi. “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala– bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, deya ta’kidladi Prezidentimiz [1].

Kichik maktab davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola maktab o‘quvchilariga qo‘yiladigan turli talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o‘rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga etadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o‘tkirliigi, ravshanliigi, sofligi, aniqligi, o‘zining qiziquvchanliigi, ishonuvchanliigi, xayolining yorqinliigi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolliigi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o‘qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxs bo‘lib shakllanishidagi o‘rni nihoyatda katta. Bola o‘quv faoliyatida o‘qituvchi rahbarligida inson ongining turli asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an’analar asosida harakat qilishni o‘rganadi. O‘quv faoliyatida bola o‘z irodasini o‘quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O‘quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada

rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yanga munosabat tizimiga o'tadi.

U hayotining tubdan o'zgarganini, unga yangi majburiyatlar, nafaqat, har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga bo'ysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotgailigi, unga qilinayotgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini to'la his etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos bo'ladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanishga o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir o'rinni egallaydi. O'quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mamlakatimizda oilaviy munosabatlarga ta'sirini yurtimiz tadqiqotchilarining ko'plab vakillarining tadqiqotlarida o'rganilgan. O'zbekistonda psixolog olimlardan M.G.Davletshin, E.G'oziyev, Z.T.Nishonova, N.S.Safayev, V.M.Karimova, B.M.Umarov, A.M.Jabbarov, G'B.Shoumarov, R.I.Sunnatova, M.S.Salaeva, Z.A.Rasulova, G.T.Yadgarova, N.H.Lutfullayeva, O'B.Shamsiyev, A.T.Qodirova, F.Akromova, M.X.Fayziyeva, D.K.Arapbayeva, H.Abdusattarov, Z.Abduraxmonova, U.R.Ibaydullayeva, G.S.Yunusovalarning ilmiy izlanishlarida oilaning turli jabhalari nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan.

Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdagilari unga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs sifatida munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bolaning o'z-o'zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning “Men shuni xohlayman” motividan “Men shuni bajarishim kerak” motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida xam, ya'ni ma'lum darajada qo'rquvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi.

Bu davrga kelib bola atrofidagilar bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek, u o'zini-o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab “Men yaxshi bolaman” emas, balki bu xatti-harakatlar o'zgalar ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar. Bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotganida tayyorlanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda kognitiv qobiliyatlar, jumladan xotira, e'tibor, muammoni hal qilish va til rivojlanishi yaxshilanadi. Ular to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatma va mustaqil izlanishlar orqali ma'lumotlarni qayta ishlash, g'oyalar o'rtasida aloqa o'rnatish va yangi bilimlarni olishda ko'proq mahoratga ega bo'ladilar. Kichik maktab yillarida bolalar o'zlarining ijtimoiy ko'nikmalarini va hissiy intellektini yaxshilashda davom etadilar. Ular tengdoshlari, o'qituvchilari va boshqa kattalar bilan munosabatlarni boshqarishni o'rganadilar, empatiya va istiqbolni qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar, o'z-o'zini hurmat qilish va o'ziga xoslik tuyg'usini rivojlantiradilar.

Kichik maktab yoshida jismoniy o'sish erta bolalik davriga nisbatan tez bo'lmasa-da, bolalar hali ham harakat qobiliyatlari, muvofiqlashtirish va jismoniy imkoniyatlarida o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Jismoniy tarbiya, sport va ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etish sog'lom rivojlanishga yordam beradi va faol hayot tarzini rag'batlantiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tabiatan qiziquvchan va atrofdagi dunyoni o'rganishga ishtiyoqlidir. Ular keng doiradagi mavzular, sevimli mashg'ulotlar va mashg'ulotlarga qiziqish bildirishi mumkin va ularning ijodiy fikrlash va xayoliy o'yin qobiliyati bu bosqichda kuchli bo'lib qoladi.

Kichik maktab yoshi - bolaning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim davr. Ushbu bosqichda bolalar hali ham o'zlarining qiziqishlari, kuchli tomonlari va potentsial iste'dod sohalari kashf qilish jarayonida kichik maktab yoshida bolaning iste'dodini shakllantirishga yordam beradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar turli tadbirlar, mavzular va tajribalar bilan tanishishdan katta foyda olishadi. Ota-onalar, o'qituvchilar va tarbiyachilar bolalarga turli xil qiziqishlarni, masalan, san'at, musiqa, sport, ilm-fan va boshqalarni o'rganish imkoniyatini berish orqali iste'dodni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

Kichik maktab yoshida bolaning iqtidorini tan olish va qo'llab-quvvatlash orqali ota-onalar, o'qituvchilar va tarbiyachilar bolalarga o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga, o'z ehtiroslariga intilishga yordam berishlari va o'zlari tanlagan mutaxassislik sohalari kelajakdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatlar uchun po'ndevor yaratishlari mumkin.

O'z-o'zini anglash insonning shaxsiyati va psixologik rivojlanishining asosiy komponentlaridan biridir. Kichik maktab yoshida bolalar “Men kimman?”, “Mening o'rnim qayerda?”, “Nima uchun qadrliman?” kabi savollarga javob izlay boshlaydilar. Bu jarayon bola o'zining ichki qobiliyatlarini va

ijtimoiy oʻrmini anglab borishi bilan ifodalanadi. Shu davrda bolaning maktabdagi muvaffaqiyatlari, doʻstlari bilan munosabatlari va oilaviy muhit uning oʻz-oʻzini anglashiga katta taʼsir koʻrsatadi.

Oʻz-oʻzini anglash jarayoni bolaning oila ichidagi rollarni qabul qilishidan boshlanadi. Masalan, agar ota-ona bolani doimo qoʻllab-quvvatlasa, uning yutuqlarini qadrlasa va ishonch bildirishsa, bola oʻzini ahamiyatli his qiladi. Bu esa uning oʻz-oʻzini anglashiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Aksincha, ota-onalarning tanqidiy yoki befarq munosabati bolaning oʻziga past baho berishiga olib kelishi mumkin.

Natijalar va muhokamalar. Eriksonning rivojlanish bosqichlari nazariyasiga koʻra, kichik maktab yoshi “mehnatkashlikka qarshi kamlik” bosqichiga mos keladi. Bolaning bu bosqichdagi asosiy vazifasi mehnat orqali muvaffaqiyatga erishish va ijtimoiy rolni egallashdir. Oilaviy qoʻllab-quvvatlash yoki tanqid bu jarayonga bevosita taʼsir qiladi. Ijobiy oilaviy munosabatlar bolalarda muvaffaqiyat hissini oshiradi, salbiy munosabat esa oʻz-oʻzini anglash jarayonida kamchilik hissini kuchaytiradi. Vigotskiyning nazariyasiga koʻra, bolalar rivojlanishi asosan ijtimoiy oʻzaro taʼsirlar, xususan, oilaviy muhit orqali shakllanadi. Oʻz-oʻzini anglashda ota-onalar va aka-uka (yoki opa-singillar) tomonidan berilgan qoʻllab-quvvatlashning “yaqin rivojlanish zonasi”ni kengaytirishdagi ahamiyati katta.

Maslou boʻyicha, bolalar avvalo asosiy ehtiyojlarini (ozuq-ovqat, xavfsizlik, mehr-muhabbat) qondirishi kerak. Oilaviy munosabatlar bolaning mehrga boʻlgan ehtiyojini qondirish va yuqori iyerarxik bosqich — oʻz-oʻzini anglash (self-actualization)ga erishishda muhimdir. Albert Banduraning ijtimoiy oʻrganish nazariyasiga koʻra, Bolalar oiladagi kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish va taqlid qilish orqali oʻrganadilar. Ota-onalar va aka-uka singillar bolaga oʻz-oʻzini anglash uchun rol model boʻladi.

Kichik maktab yoshdagi oʻquvchilarda boshqa kishilarga eʼtiborli va mehribonlik bilan munosabatda boʻlish koʻpincha yetarli darajada tarbiyalanmagan boʻladi. Bu yoshdagi bolaning psixologik xususiyatlari shundan iboratki ular garchi boshqa kishilarga nisbatan oʻzlarining shunday ibratli qilib garchi boshqa kishilarga oʻzlarini qanday tutisht kerakligini koʻrsatib javob bera olsalar ham bu sifatlarini muayyan sharoitda ota onalar oʻqituvchilar ishtirokida nomoyon qiladila. Bu yoshdagi bola bir oʻzi yoki oʻrtoqlari orasida boʻlganda oʻzini qanday tutish kerakligini unitib hoʻyadi. Psixik fazilat boʻlgan mehribonlik kichik yoshdagi oʻquvchilarda darhol bu koʻrinish tarbiyalanmaydi. Biroq uning ayrim koʻrinishlari bu yoshdagi bolalarda boʻlishi va oʻquvchilarning maʼlum tarbiyaviy ishlarida ular uchun xatti-harakatlarning odatlangan formalariga aylanadi.

Oʻqituvchi oʻz odobini oʻzini jamoaga qarshi qoʻymaslik oʻquvchilar oʻrtasidagi katta oʻrtoqlilik fikrlarini hurmat qilishni tarbiyalash lozim. Oʻquvchi bolalarga kamtar kishilar toʻgʻrisida gapirib beradi. Ular xatti-harakatining goʻzalligi nimada ekanligini tushuntiradi. Oʻqituvchi bolalarga maqollar, kitoblar oʻqitib maqsadga erishiladi. Ular xatti-harakatining nimadan olishining asar mazmunidan anglab oladi. Suhbat vaqtida kamtar kishilarning ishlari bilan bir-biriga taqqoslash orqali tegishli xulosalar qilib mumkin qadar suhbatlari kamtar mehnatsevar kishilarga tahlid qilish istagini uygʻotadi. Oʻqituvchi oʻquvchilarning kamtarligini ragʻbatlantira borib xarakterning xislat sifatida kamtarlikni tarkib toptirish sharoitini yaratadi. Kamtarlik oila sharoitida ham tarbiyalanadi. Ota-onalarning namuna qilib koʻrsatish bolalarda kamtarlikni tarbiyalashning eng yaxshi faktoridir. Boshlangʻich maktabda koʻpincha oʻquvchilarning kamchiliklari kamtarliklarni muvaffaqiyat bilan payqamasliklari va ularning tanqid qilishlari anglamasliklari hisoblanadi. Biroq oʻz kamchiliklarini yomon sezadigan va ular haqida gapirmaydigan oʻqituvchilar uchrab turadi.

Maktab oʻquvchisida oʻz-oʻzini tanqid qilish uchun oʻqituvchining bahosi katta ahamiyatga ega bu esa birmuncha toʻgʻri baho berishga majbur qiladi. Oʻqituvchi oʻquvchilarni oʻz kamchiliklarini xato va yaxshi tomonlarini topishga hamda oʻz mehnatiga baho berishga oʻrgatadi. Oʻz oʻziga baho berish shaxsning umumiy tomonlariga yordam qiladi. Agar oʻquvchi oʻziga yetarli baho bermasa bu holda u odatda boshqa kishilarga ortiqcha baho beradi. Oʻqishdagi qiyinchiliklari oshib oʻquvchilardan “Axir men qila olamanmi? axir men buni bilamanmi?” degan soʻzlarni eshitish mumkin.

Kichik maktab yoshdagi oʻquvchilarda oʻzini tuta bilish hali boʻsh rivojlanmagan boʻladi. Ular kayfiyatiga tez beriladigan va oʻz xisssiyotlarini ochiq oydin goho esa shiddat bilan ifodalaydilar. Bunda bolani kayfiyati tez-tez oʻzgarib turadi. Bu narsa oilada kattalarga kayfiyatini oʻzgartirishga taʼsir etadi. Oʻquvchilar xarakterining ayrim xislatlarini oʻrganayotib xarakterini har doim nazarda tutish lozim. Maktab oʻquvchisini bilish hamda uning xarakteriga mos individual xususiyatlarni hisobga olib tarbiyalash uchun uni chuqur va har tomonlama oʻrganish kerak. Maktab oʻquvchisi xarakter xususiyatlarini tezda aniqlash mumkin emas. Xarakter murakkab, koʻp qirrali va turli tumandir. Shuning uchun uni turli sharoitda uzoq vaqt va sinchiklab oʻrganish lozim. Oʻquvchilar xarakterining ayrim xislatlarini oʻrganib yotib umuman xarakterni har doim nazoratda tutish lozim. Bola xarakterini oʻrganish uzoq davom etadigan protssesdir. Agar oʻqituvchi biron oʻquvchini mumtazam ravishda kuzatar ekan u bolaning faoliyati va xatti harakati mehnatga tevarak atrofdagi kishilarga oʻrtoqlariga oʻz-oʻziga boʻlgan munosabatini toʻplay borib oʻz

kuzatishlarini yozib borishi lozim. Bola xarakteri irodaviy sifatlarining namoyon bo'lishini ayniqsa diqqat bilan o'rganish lozim.

O'qituvchilarni o'rganishda K.D.Kushenskiyning quyidagi so'zlarini esda tutish kerak. Tarbiyaga kishining barcha zaif tomonlari va uning barcha bekorchi arzimas ehtiyojlari bilan va uchning barcha ulug' ma'naviy ehtiyojlari bilan haqiqatda qanday ekanligini bilib olishga harakat qilmog'i kerak. O'quvchilarni o'rganish printspida ular xarakterining ijobiy va salbiy xususiyatlarini yaxshilab anglash va kelgusida uni tarbiyalash yoki qayta tarbiyalashga doir individual tartiblarni belgilash kerak. Bolaning aqliy kamol topishi yoki uning umumiy kamolotida kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali o'z ifodasini topadi.

Oiladagi munosabatlar turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi va ular bolaning ruhiy hamda psixologik rivojlanishida turli darajada ta'sir ko'rsatadi. Mehr-muhabbatga asoslangan munosabatlar oilaning sog'lom psixologik muhiti uchun eng muhim hisoblanadi. Bunday oilalarda ota-ona bolalarga o'zini qadrlangan va sevgi bilan qabul qilingan shaxs sifatida his qilish imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'zini anglash jarayoni oilaviy munosabatlar bilan bevosita bog'liq. Bu munosabatlar bolaning shaxsiy qadr-qimmatini his qilishi, o'zini jamiyatning bir qismi sifatida qabul qilishi va kelajakda muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllanishiga asos bo'ladi. Shu sababli, ota-onalar farzandlariga mehr-muhabbat va e'tibor ko'rsatish, ularning hissiy va intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali bolalarning o'z-o'zini anglashida ijobiy ta'sir ko'rsatishlari mumkin.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlar tarbiyasi eng muhim masalalardan” Toshkent-2017-yil.
2. Abdullaeva D., Rasulova M., Oxunjonova S., “Bolalarni maktabga psixologik tayyorlash”. Toshkent 2003-yil.
3. Voxidov M. “Bolalar psixologiyasi” Toshkent 2004-yil.
4. Davletshin M.G., Sh. Do'stmuhammedova., M. Mavlonov., S.To'ychiyeva. “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya”. Toshkent-2004 yil.
5. Davletshin M.G. “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya”. Toshkent-2006.
6. G'oziyev E. “Psixologiya” darslik Toshkent-2008-yil.
7. Asadov U. “Psixologiya salomatlik maktabi”, “maktabga qabul qilingan 6 yoshli bolalar uchun konkresion rivojlantirish” darslik. Toshkent 2014-yil.
8. Umarov B.M., Norbekova B.Sh. “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi” darslik Toshkent-2023-yil.
9. Shamsiyev O'ktam Baxriddinovich. “Oilaviy holding – bola ijtimoiylashuvining psixologik mexanizmi” mavzusidagi Psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent-2019.

OLIIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA PEDOGOGIK MAHORATNI OSHIRISH USULLARI

Boltayev Xudoyberdi Ataboyevich,

O'zbekiston Respublikasi Harbiy Xavfsizlik va Mudofaa Universiteti

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug fakulteti

Maxsus tayyorgarlik kafedrasida katta o'qituvchisi podpolkovnik

Mazkur maqolada oliy harbiy ta'lim muassasalarida pedagogik mahoratni oshirish usullari zamonaviy ta'lim falsafasi, harbiy-professional talablar va kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv asosida tahlil qilinadi. Harbiy ofitser-kadrlarni tayyorlash jarayonida dars jarayonini faqat bilim yetkazuvchilik emas, balki strategik fikrlash, intizomiy-etika madaniyati va tezkor qaror qabul qilishni shakllantiruvchi faol kommunikativ jarayon sifatida tashkil etish zarurligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Pedagogik mahoratni rivojlantirishda interfaol metodlar, raqamli simulyatsiyalar, refleksiv tahlil va liderlik kompetensiyasiga asoslangan treninglarning o'rni yoritiladi. Tadqiqotda harbiy-pedagogik sharoitga mos metodik yondashuvlar, psixologik chidamlilik va motivatsion ta'sir omillarining kompleks integratsiyasi asosida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish yo'llari taklif etiladi. Maqola harbiy ta'lim tizimida pedagogik mahoratni oshirishning amaliy mexanizmlarini tavsiflab, ofitser-kadrlarni professional tayyorlash sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishni ko'zlaydi.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, harbiy ta'lim, liderlik kompetensiyasi, refleksiv tahlil, interfaol metodlar, motivatsion tayyorgarlik, strategik fikrlash, raqamli simulyatsiya, psixologik barqarorlik, kommunikativ boshqaruv.

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА В ВЫСШИХ ВОЕННЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

В данной статье анализируются методы повышения педагогического мастерства в высших военных учебных заведениях на основе современной образовательной философии, военных профессиональных требований и компетентностного подхода. Научно обосновывается необходимость организации учебного процесса не только как передачи знаний, но и как активной коммуникативной среды, формирующей стратегическое мышление, этико-дисциплинарную культуру и способность к оперативному принятию решений у будущих офицеров. Раскрывается роль интерактивных методов, цифровых симуляций, рефлексивного анализа и лидерских тренингов в развитии педагогического мастерства. В исследовании предлагаются пути модернизации учебного процесса на основе комплексной интеграции методических подходов, соответствующих военной педагогической среде, психологической устойчивости и мотивационного воздействия. Статья направлена на описание практических механизмов повышения педагогического мастерства в системе военного образования и его влияния на качество профессиональной подготовки офицерских кадров.

Ключевые слова: педагогическое мастерство, военное образование, лидерская компетентность, рефлексивный анализ, интерактивные методы, мотивационная готовность, стратегическое мышление, цифровая симуляция, психологическая устойчивость, коммуникативное управление.

METHODS OF IMPROVING PEDAGOGICAL SKILLS IN HIGHER MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

This article analyzes the methods of enhancing pedagogical mastery in higher military educational institutions based on modern educational philosophy, military-professional requirements, and a competency-based approach. It scientifically substantiates the need to organize the learning process not merely as knowledge transmission, but as an active communicative environment that develops strategic thinking, ethical-disciplinary culture, and rapid decision-making skills in future officers. The role of interactive teaching methods, digital simulations, reflective analysis, and leadership competency-based training in the development of pedagogical mastery is highlighted. The study proposes ways to modernize the educational process through the complex integration of methodological approaches adapted to the military-pedagogical environment, psychological resilience, and motivational influence. The article describes practical

mechanisms for improving pedagogical mastery within the military education system and its positive impact on the professional training quality of officer personnel.

Keywords: pedagogical mastery, military education, leadership competence, reflective analysis, interactive methods, motivational readiness, strategic thinking, digital simulation, psychological resilience, communicative management.

Kirish. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarning samaradorligi nafaqat nazariy bilim berish darajasi bilan, balki harbiy ofitserlar uchun zarur bo’lgan strategik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, qat’iy intizom va liderlik fazilatlarini shakllantirish darajasi bilan belgilanadi. Bunday sharoitda pedagogik mahoratni oshirish oddiy ta’lim malakasini takomillashtirish emas, balki harbiy ta’lim psixologiyasi, axloqiy tarbiya, kommunikativ boshqaruv va stress ostida pedagogik nazoratni amalga oshirish kabi murakkab kompetensiyalarni shakllantirishni talab etadi. An’anaviy ma’ruza va instruksion dars usullari hozirgi global xavfsizlik muhitida yuzaga kelayotgan murakkab harbiy-siyosiy vaziyatlarga mos professional tayyorgarlikni ta’minlashda yetarli darajada samarali bo’lmay qolmoqda. Shu sababli, harbiy ta’limda innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish, xususan interfaol strategiyalar, raqamli jangovar simulyatsiyalar, krizis vaziyatlarni modellashtirish, rolli ssenariylarda qaror qabul qilish treninglarini qo’llash pedagogik mahoratni rivojlantirishning eng zamonaviy yo’nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bunday yondashuv nafaqat bilimni yetkazish, balki askar va ofitser sifatida fikrlash, boshqarish va real sharoitda tezkor strategik yechim taklif qila olish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, refleksiv tahlil, psixologik barqarorlik, motivatsion yetakchilik va o’zini-o’zi nazorat qilish kabi yuqori darajadagi kognitiv va affektiv kompetensiyalarni rivojlantirish harbiy ta’lim tizimining zamonaviy modeli uchun asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, oliy harbiy ta’lim muassasalarida pedagogik mahoratni oshirish tizimini takomillashtirish — nafaqat ta’lim sifati, balki mamlakat mudofaa salohiyati, yetakchi ofitserlar tayyorlash darajasi bilan bevosita bog’liq dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo’lmoqda.

Kognitiv bosqich (Bloom)	An’anaviy harbiy ta’limdagi holat	Innovatsion (VR/MR, interfaol) yondashuvdagi transformatsiya	Natijada shakllanuvchi kompetensiya
Bilish (Knowledge)	Ma’ruza, buyruq asosidagi qabul	Harbiy ssenariy + real vaqt modeli	Harbiy tushunchani shunchaki bilish emas, anglash
Tushunish (Comprehension)	Nazariy axborotni yodlash	Model orqali vaziyatni his qilish va idrok etish	Abstrakt bilim → semantik tahlil
Qo’llash (Application)	Tayyor formulalarni qo’llash	Simulyatsiyada qaror qabul qilish va harakat qilish	Haqiqiy jangovar reaksiya va boshqaruv
Tahlil (Analysis)	O’qituvchi savoliga javob berish	Risklarni baholash, natijani oldindan ko’rish	Strategik tahlil va tashxis
Sintez (Synthesis)	Murakkab strategiyani mustaqil tuza olmaydi	Kompleks taktik yechimni o’zi yaratadi	Inson–texnologiya–vaziyat integratsiyasi
Baholash (Evaluation)	O’qituvchi bahosiga tobelik	Refleksiv tahlil, kritik o’z–o’zini nazorat	Komandir darajasida mas’uliyatli hukm

Metodlar. Tadqiqotda oliy harbiy ta’lim muassasalarida pedagogik mahoratni oshirishning samaradorligini aniqlash uchun kompleks metodologik yondashuv qo’llanildi. Birinchi bosqichda harbiy-pedagogik nazariya asosida kompetensiyaga yo’naltirilgan model ishlab chiqilib, unda o’qituvchining nafaqat bilim beruvchi, balki rahbarlik, motivatsion va psixologik boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi sub’yekt sifatidagi roli aniqlashtirildi. Ikkinchi bosqichda amaliy tajriba sifatida interfaol metodlar — taktik qaror qabul qilish treninglari, rolli harbiy ssenariylar, stress ostida boshqarish mashg’ulotlari, faol muloqot va bahs-munozara asosidagi seminarlar orqali o’quvchilar ishtirokida immersive o’quv muhiti yaratildi. Shu bilan birga, raqamli simulyatsiya platformalari yordamida jangovar vaziyatlarni modellashtirish, komandirlik vazifalarini virtual boshqarish va real vaqt rejimida strategik reaksiya berish testlari o’tkazildi. Uchinchi bosqichda refleksiv tahlil va baholash metodlari asosida ofitser-o’qituvchilarning dars jarayonida o’zini tutishi, qaror qabul qilish tezligi, talaba bilan pedagogik muloqot sifati, motivatsion ta’sir darajasi va liderlik

namoyon bo‘lishi maxsus kuzatuv kartalari hamda diagnostik intervyular orqali tahlil qilindi. Likert shkalasi asosida talabalar tomonidan o‘qituvchilar pedagogik mahoratiga berilgan baholar yig‘ildi va natijalar an’anaviy ta’lim modeli natijalari bilan solishtirildi. Natijalar pedagogik mahoratni oshirishga xizmat qiluvchi yondashuvlar samaradorligini ilmiy asoslash uchun sifat va miqdoriy analiz usullarida qayta ishlanib baholandi.

Muhokama. Olingan tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, oliy harbiy ta’lim muassasalarida pedagogik mahoratni oshirish jarayonida innovatsion metodlar va interfaol strategiyalarni qo‘llash an’anaviy yondashuvlarga nisbatan yuqori samaradorlikni namoyon etdi. Xususan, raqamli simulyatsiyalar va rolli harbiy ssenariylar asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar talabalar tafakkurini faqat nazariy bilimlarni yodlashga emas, balki real jangovar vaziyatga mos ravishda tezkor fikrlash, risklarni baholash va strategik qaror qabul qilishga yo‘naltirganligi kuzatildi. Pedagog o‘z rolini bilim yetkazuvchidan ko‘ra, boshqaruvchi, motivator hamda psixologik ta’sir ko‘rsatuvchi lider sifatida namoyon etganida o‘quv jarayoni ancha jonlanib, harbiy-professional kompetensiyalar tabiiy shakllanishga ega bo‘ldi. Ayniqsa, refleksiv tahlil asosida o‘z faoliyatini baholash imkoniyati o‘qituvchilarda pedagogik introspektsiya va kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirish ehtiyojini kuchaytirdi. Interfaol metodlar talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi pedagogik muloqotni biryoqlama monolog shaklidan chiqazib, yuqori darajadagi intellektual-dialogik muhitga aylantirgani aniqlandi. Stress ostida vazifani bajarish simulyatsiyalari esa talabalar psixologik chidamliligini oshirib, har qanday noaniq harbiy vaziyatda o‘zini tuta olish, komandir sifatida boshqaruvni qo‘lga olish va jamoani ruhlantirish ko‘nikmalarini kuchaytirdi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va immersive tajribalar orqali modellashirilgan o‘quv mashg‘ulotlari harbiy ta’lim tizimining real hayotga yaqinligini ta’minlab, ofitser tayyorlash sifatini sezilarli darajada oshirishi isbotlandi. Umuman olganda, pedagogik mahoratni oshirish jarayoniga harbiy-pedagogik psixologiya, kommunikativ liderlik, strategik tahlil va motivatsion boshqaruv elementlarining integratsiyasi oliy harbiy ta’limda yuqori samarali ta’lim modeli sifatida o‘zini oqladi.

Muammo holati	Innovatsion (VR/MR, metodlar)	yechim interfaol	Pedagogik natija	Harbiy-strategik ahamiyat
Ofitserlar nazariy bilimni real vaziyatga tatbiq eta olmaydi	Jangovar vaziyatni real vaqt simulyatsiyasi	real	Tezkor qaror qabul qilish refleksi shakllanadi	Real jangda kechikishsiz reaksiya
Pedagog faqat “ma’ruza qiluvchi” rolida qolib ketadi	O‘qituvchi — va lider sifatida pozitsiyalanadi	fasilitator sifatida	Muloqot boshqarmaydigan emas, yetaklovchi dars jarayoni	Ofitser sifatida boshqaruv markazida bo‘lishga tayyorlanadi
Talabada stressga chidamli psixologik tayyorgarlik shakllanmaydi	Krizis ssenariysi asosidagi stress-menejment mashg‘ulotlari		Psixologik barqarorlik va o‘z-o‘zini nazorat kuchayadi	Rejalashtirilmagan vaziyatda komandirlikni qo‘lga olish
Muloqot biryoqlama, buyruq-bajaruv tartibida qoladi	O‘zaro asoslangan treninglari	muloqotga rolli-senariy	Dialogik tafakkur, muzokara va tushuntirish qobiliyati ortadi	Diplomatik va boshqaruv salohiyati oshadi

Xulosa. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida pedagogik mahoratni oshirish jarayonini takomillashtirish zamonaviy ta’lim falsafasi, harbiy strategik fikrlash va psixologik barqarorlik kompetensiyalarini uyg‘unlashtirishni talab etadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy dars modeli faqat bilim uzatishga qaratilgan bo‘lgani sababli, real jangovar vaziyatlarga mos qaror qabul qilish, liderlik pozitsiyasini egallash, tezkor boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirishda yetarli darajada ta’sirchan emas. Immersiv interfaol metodlar, raqamli simulyatsiyalar, stress ostida vaziyat modellashirish va refleksiv tahlilga asoslangan yondashuvlar pedagogik mahoratni chuqur transformatsiya qiladi. Bunday metodlar o‘quvchini passiv tinglovchidan faol qaror qabul qiluvchi ofitser sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada o‘qituvchi roli ham o‘zgaradi — u ma’ruza qiluvchi emas, balki psixologik motivator, strategik boshqaruvchi va harbiy-pedagogik lider sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ushbu model ofitserlar uchun zarur bo‘lgan faol refleksiya, stressga bardoshlilik, komandirlik mas’uliyati va kommunikativ boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Harbiy ta’lim tizimida pedagogik mahoratni oshirishga qaratilgan maxsus tayyorgarlik modullarini joriy etish, interfaol va simulyativ mashg‘ulotlarni tizimlashtirish, o‘qituvchilarni pedagogik fasilitator sifatida qayta tayyorlash zarurligi strategik ahamiyatga ega bo‘lgan xulosa sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘rinov B. Harbiy ta’lim tizimida pedagogik mahoratni rivojlantirish tamoyillari. – Ilmiy-uslubiy jurnal, 2023.
2. Xudoyberdiyev A. Harbiy psixologiya va motivatsion boshqaruv metodlari. – Toshkent, 2022.
3. Yusupov J. Interfaol ta’lim metodlarining harbiy ta’limdagi samaradorligi. – Pedagogik innovatsiyalar jurnali, 2024.
4. NATO DEEP. Military Pedagogy and Leadership Transformation. – Brussels, 2021.
5. OECD. Competency-Based Military Education Strategies. – Paris, 2020.
6. Karimov M. Harbiy ta’limda raqamli simulyatsiya texnologiyalari. – Mudofaa fanlari jurnali, 2023.
7. UNESCO. Digital Immersion in Military Officer Training. – Global Report, 2023.
8. Bass B., Avolio B. Transformational Leadership in Military Training. – Leadership Quarterly, 2019.
9. Jumanazarov Z. Stress ostida pedagogik boshqaruv va tezkor qaror qabul qilish metodlari. – Harbiy akademik sharh, 2024.
10. Mayer R. Multimedia Learning and Cognitive Engagement in High-Stress Environments. – Cambridge University Press, 2018.

TALABALARDA INTERAKTIV METODLAR ASSOSIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Eshmanov Otabek Usanovich,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti

Ushbu maqolada bugungi kun talabalarida kreativ fikrlashni shakllantirishda innovatsion va interfaol metodlarning oʻrni hamda ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda taʼlim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv asosida yondashish orqali talabalarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va yangicha gʻoyalarni ilgari surish qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari oʻrganilgan. Shuningdek, maqolada kreativlikni aniqlash mezonlari, uni baholash mexanizmlari hamda taʼlimda amaliy tatbiq etish yoʻllari yoritilgan. Muallif tomonidan ilgʻor pedagogik texnologiyalarni qoʻllash, interfaol metodlar samaradorligini oshirish va zamonaviy oʻquv muhiti orqali talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning dolzarb masalalari tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: Taʼlim tizimi, talaba, metod, kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, oʻzaro hamkorlik, muloqot, integratsiya.

DEVELOPING CREATIVE THINKING IN STUDENTS BASED ON INTERACTIVE METHODS

This article explores the significance of innovative and interactive teaching methods in shaping creative thinking among today's students. It emphasizes the role of modern pedagogical approaches in fostering learners' ability to generate original ideas and solve problems creatively. The study highlights that the integration of a competency-based approach allows educators to identify and enhance students' creative abilities more effectively. Moreover, it discusses the importance of developing clear criteria and mechanisms for assessing creativity in the learning process. The article concludes that applying innovative-interactive techniques contributes to students' personal growth, critical thinking, and the overall improvement of education quality in modern higher education institutions.

Keywords: Educational system, student, method, competence, communicative competence, interaction, communication, integration.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ

В данной статье глубоко проанализирована роль и значение инновационных и интерактивных методов в формировании креативного мышления у современных студентов. В исследовании рассмотрены возможности развития у обучающихся самостоятельного мышления, творческих способностей и умения выдвигать новые идеи на основе компетентностного подхода в образовательном процессе. Кроме того, в статье освещены критерии выявления креативности, механизмы её оценки, а также пути практического внедрения в обучение. Автор анализирует актуальные вопросы применения передовых педагогических технологий, повышения эффективности интерактивных методов и развития творческого мышления студентов через современную образовательную среду.

Ключевые слова: Система образования, ученик, метод, компетенция, коммуникативная компетенция, взаимодействие, общение, интеграция.

Kirish. Jahonda hozirgi global muammolarga yechim topish uchun mavjud insoniy resurslarni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi ishlarning muhim yo'nalishi oliy ta'lim tizimini rivojlantirishdir. Bugungi kunda dunyoda hamda mamlakatimizda ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida judayam keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, ta'lim va uning jamiyatda kechayotgan islohotlardagi o'rni va ishtirokini ta'minlamay turib, taraqqiyotga yuz tutish mushkul. Shu ma'noda, yurtimizda xalqaro talablarga javob beradigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotir. Jahondagi globallashuv va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim

muassasasini jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, ta'lim oluvchilar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda interfaol usullardan samarali foydalanish masalalari Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida professional ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida bir qator amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi PF 4947-son “Harakatlar strategiyasi”ning ustuvor yo'nalishlarida belgilab berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel PQ – 2909 – son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida”gi qarorida Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqib, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta qurish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratishi maqsadida rivojlantirish chora – tadbirlari belgilash va amalga oshirish bugungi kundagi asosiy vazifalarimizdan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy- deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy- komparativistik tahlil kabi ilmiy pedagogik tamoyillardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan pedagogik tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni shakllantirishda, pedagogika fanida, ruhiy tahlilga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda foydalanish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili. Interfaol darslarda o'qituvchining asosiy diqqati talabalarning faoliyatini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

talabani dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;

talabalarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiylikni ta'minlanishi;

talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;

pedagog va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi.

O'qituvchining ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyati, dars tizimi doirasida, ta'limni tashkillashtirish shakllarining quyidagilarida o'z ifodasini topadi:

frontal ish barcha ta'lim oluvchilar bilan bir vaqtda ishlash;

guruhlarda ishlash:

- statik juftliklarda ishlash;
- guruhlarda ishlash;
- guruhlararo ish;
- individual ishlash

Ushbu tashkiliy shakllarning har biri jamoaviy va individual ta'limni birgalikdagi olib borishni turliligi, ta'lim oluvchilarning mustaqillik darajasini turliligi o'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini boshqarishni turliligi va boshqalar bilan tavsiflanadi. Amaliyotdagi oddiy qoida shu haqda guvohlik beradiki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida talabalarga yangi bilimlarni berish amalga oshiriladi, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirish orqali berilgan bilim mustahkamlanishi lozim. Har qanday ta'limning maqsadi - bilimni hamda uni amalda qo'llay bilish ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatleri va ko'rsatmalarni ishlab chiqishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Demak, ta'lim jarayonida pedagogik hamkorlik asosiy elementlardan biri hisoblanib, talabalarni faollashtirishga, mustaqil fikrlashga imkon beradigan interaktiv ta'lim metodlarini o'zlashtirish va o'quv jarayoniga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Eng avvalo, talabalar faolligini oshirishda “ta'lim beruvchi - ta'lim oluvchi” dialogidan voz kechishini va “ta'lim beruvchi -guruh - ta'lim oluvchi” ko'rinishidagi uch tomonlama o'zaro munosabatga o'tishni nazarda tutadi. O'quv guruhi, tarkibi bo'yicha harakatchan kichik guruhlariga bo'linadi va ularning har biri o'zicha o'quv materialini o'zlashtiradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, shu tufayli biz bilan ta'lim oluvchilar o'rtasida ancha mustahkam aloqa o'rnatiladi, shaxsiy va bir vaqtning o'zida ta'lim jamoaviy ruhiy holat kuchayadi. Ta'lim

oluvchilarning hamkorlikdagi harakati shakllanadi, bu esa o'quv- bilish jarayonini faollashtirishga, ularda empatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko'maklashadi: - vazifani hamkorlikda bajarish jarayonida ta'lim oluvchilarda, o'rtoqlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga motivatsiya paydo bo'ladi; - ta'lim oluvchilar bir-biriga savollar beradilar, shuning uchun ular savollarni aniq shakllantirishni bilishlari zarur, javoblarni argumentlashtirishni, tushunishga erishish uchun esa, ular bir-birlarini diqqat bilan eshitishlari kerak; - guruhlarda ishlash paytida, zarurati bo'lganda ta'lim oluvchilar yordam berishlarini so'raydilar va boshqalarga yordam berishni o'rganadilar. Kichik guruhlarda ishlash, ularni stress holatlardan xalos etadi, ya'ni noto'g'ri javob berganda butun jamoa oldida izza bo'lishdan, qo'rqishdan xoli bo'ladi. Guruh a'zolari, javobni do'stona baholab, ularda o'ziga ishonch tuyg'usini uyg'otish imkonini beradilar. 4-5 kishidan iborat guruhda, qo'rqoq kishi, 25 kishilik guruh oldida o'zini tutishga nisbatan, o'zini ancha erkin his etadi. Ta'limning ushbu shakli, ta'lim oluvchilar bilimini o'zaro hamkorlikda boyitishni ta'minlaydi: faqatgina kooperatsiya va harakatlar (bilish) usullari bilan o'zaro almashish, umumiy mahsulot olish - muammoni yechish imkonini beradi.

Ta'lim tarbiya tizimining umumiy maqsadi jamiyatimizga teng huquqli demokratik davlat talablariga javob bera oladigan mas'uliyatli barkamol jamiyat a'zolarini O'quvchilarda intellektual kerativ ko'nikmalar rivojlanishi ularning bilish faoliyatini faollashtiruvchi metodlar (muammoli o'qitish, disput- darsi, ijodiy qo'llash talab etiladigan masala va mashqlar, analiz, sintez, o'quvchilar egallagan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish) orqali amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash lozimki, fanlararo aloqadorlikdan foydalanib bilimlarni mustahkam va ongli ravishda egallash, faqat muammoli o'qitish sharoitida amalga oshirish mumkin. O'qituvchi tomonidan o'quvchida mavjud nazariy bilim, haëtiy va ishlab chiqarish tajribalaridan foydalanib notanish masalani yechish taqozo etiladigan muammoli vaziyat yaratilishi, ularning fikrlash faoliyati va faolligini keskin oshiradi.

Kasbiy faoliyat jarayonida zamonaviy o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish orqali shaxs hayotiga hamda uning ijtimoiy rivojlanishiga ma'lum bir darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishning bosh go'yasi – shaxsning turli hil sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellektual va axloqiy- ma'naviy rivojlanishidir. Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan avval ushbu tushunchaning asl mohiyatini, shundan so'ng esa uni takomillashtirish yo'llarini bilish lozim.

Ilmiy adabiyotlarda kompetentsiya so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: Kompetentsiya (lotincha Competentio dan Competo-ga erishaman,

uchrashaman, mos kelaman) - bu mutaxassisning ma'lum darajadagi kasbiy muammolarni hal qilishdagi shaxsiy bilish qobiliyatidir. Shuningdek, kompetentsiya deganda ma'lum bir tashkilot, kompaniya xodimlarining (yoki ayrim xodimlar guruhining) shaxsiy, kasbiy va hokazo fazilatlariga rasmiy ravishda tavsiflangan talablar tushuniladi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni oshirish uchun kerak bo'lgan bilimlarning, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni o'z faoliyati davomida munosib qo'llay olishidir. O'qituvchi albatta, alohida bilim ko'nikmalarni egallashi bilan birga, ma'lum bir mustaqil yo'nalish bo'yicha bilimlar va harakatlarni o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Demak, kasbiy kompetentlik pedagogdan mutaxassislik bilimlarini boyitib borish, yangi axborotlarni kuzatib ularni qo'llay bilish, izlanuvchanlik va yangi bilimlarni qayta ishlab o'z faoliyatiga qo'llay olish mahoratini ham talab etadi.

K. Angelovski o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasi tuzilishini pedagogik mahorat orqali aniqlaydi

Pedagogik mahorat bu yerda to'rt guruhga ajratiladi:

Ta'limning ob'ektiv jarayoni mazmunini aniq pedagogik vazifalarga "tarjima qilish" qobiliyati: shaxs va jamoani o'rganish, shu asosda yangi bilim va dizaynni faol o'zlashtirishga tayyorligini aniqlash, jamoani rivojlantirish va alohida talabalar; ta'lim, tarbiya va rivojlantirish vazifalari kompleksini aniqlash, ularni konkretlashtirish va ustun vazifani belgilash.

Mantiqan tugallangan pedagogik tizimni qurish va yo'lga qo'yish qobiliyati: o'quv vazifalarini kompleks rejalashtirish; uni tashkil etish shakllari, usullari va vositalarini asosli tanlash.

Ta'limning tarkibiy qismlari va omillari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash va o'rnatish, ularni amalda qo'llash qobiliyati: zarur sharoitlarni yaratish (moddiy, axloqiy, psixologik, tashkiliy va boshqalar); talaba shaxsini faollashtirish, uning faoliyatini rivojlantirish;

Pedagogik faoliyat natijalarini qayd etish va baholash qobiliyati: o'quv jarayoni va o'qituvchi faoliyati natijalarini introspektsiya qilish va tahlil qilish; dominant va bo'ysunuvchi vazifalarning yangi to'plamini belgilash.

O'zbekistonda o'qituvchining kasbiy kompetentligi va uning o'ziga xos jihatlari tog'risida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. B.Nazarova olib brogan tadqiqotlarga ko'ra kasbiy kompetentlik quyidagi tarkibiy asoslardan tashkil topadi:

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har tomonlama yetuk intellektual rivojlangan, ijtimoiy sifatlar bilan tarbiyalangan, milliy va ma'naviy qadriyatlarga sadoqatli, yangicha fikrlaydigan, o'z shaxsiy va fuqarolik pozitsiyasiga ega, milliy mafkuraning barcha sifatlarini o'zida mujassamlashtirgan barkamol shaxsni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Yuqorida keltirib o'tilgan ko'nikmalarning barchasi o'quvchilarni, ya'ni bo'lajak kichik mutaxassislarni kelajakda o'z faoliyatlarini tashkil qilishlari, mustaqil ravishda ish boshqarishlari, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishlari, jamoada o'z o'rnlariga ega bo'lishlarida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni <https://lex.uz/>
2. Mirziyoyev Sh.M. 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.
3. Afanaseva I.V. Voprosi integratsii nauki i obrazovaniy. Ta'lim texnologiyalari. – № 4. Toshkent, 2007. – S. 24-25.
4. Yensh E.R. Zur Eidetik und Integration Typologie, 1941. Filosofskiy ensklopedicheskiy slovar red.-sost. YE.F. Gubskiy i dr, 2003. – S.128.
5. Ochilov M. “O'qitish usuli-pedagogik texnologiyaning asosiy komponenti” // “Xalq ta'limi” 1999-y, 6-son 32-35 betlar

“GOSPITAL PEDAGOGIKA” FANINING HAMDA KASALXONA MAKTABLARINING
KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI

Inogamova D.R.

Nizomiy nomidagi O'zb.MPU, prof. (PhD)

Maqolada o'zining tarixiga ega bo'lgan “Gospital pedagogika” deb ataladigan fan hamda kasalxonalar qoshida tashkil qilingan ta'lim maktablarining kelib chiqishi, ijtimoiy-pedagogik yondashuvlari, turli mamlakatlarda tashkil etilgan kasalxona maktablari, shuningdek, uzoq vaqt davomida davolanayotgan bolalar bilan ishlash uchun pedagogik kadrlar tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: kasalxona pedagogikasi, kasalxona maktabi, bolalar shifoxonasi, oddiy maktab, ijtimoiy-pedagogik muhit, individual ehtiyojlar, akademik yordam, zamonaviy texnologiyalar, pedagogik yordam, terapevtik pedagogika, g'amxo'rlik maktabi.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ДИСЦИПЛИНЫ «ГОСПИТАЛЬНАЯ
ПЕДАГОГИКА» И ГОСПИТАЛЬНЫХ ШКОЛ

В статье рассматривается история возникновения дисциплины «Госпитальная педагогика», истоки развития госпитальных школ при больницах организованные в разных странах, их социально-педагогические подходы, а также специфика подготовки педагогических кадров для работы с детьми, находящимися на длительном лечении.

Ключевые слова: госпитальная педагогика, госпитальная школа, детская больница, обычная школа, социально-педагогическая среда, индивидуальные потребности, академическая поддержка, современные технологии, педагогическая поддержка, лечебная педагогика, заботливая школа.

THE ORIGIN AND DEVELOPMENT OF THE DISCIPLINE OF "HOSPITAL PEDAGOGY"
AND HOSPITAL SCHOOLS

The article discusses the history of the discipline called "Hospital Pedagogy", the origin of educational schools organized under hospitals, their socio-pedagogical approaches, hospital schools organized in different countries, as well as the specific features of training pedagogical personnel to work with children undergoing long-term treatment.

Keywords: hospital pedagogy, hospital school, children's hospital, ordinary school, socio-pedagogical environment, individual needs, academic support, modern technologies, pedagogical support, therapeutic pedagogy, caring school.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni – Konstitutsiyada bolalarni himoya qilish to'g'risidagi qoidalar belgilangan. Mamlakatimizda bolalar salomatligini asrash va mustahkamlash, sog'lom avlodni voyaga yetkazish, har bir bolaga sogligidan qat'iy nazar sifatli ta'lim-tarbiya berish uchun yuqori sifatli sog'liqni saqlash hamda ta'lim tizimini yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida 2015-yilda tibbiyot muassasalari qoshida tashkil qilingan maktablarda uzoq muddat davomida davolanayotgan bolalarni o'qitish masalalarini hal etish maqsadida “Idoralararo ishchi guruhi” tuzildi. Moliyalashtirish, litsenziyalash va me'yoriy-huquqiy jihatlar bilan bog'liq masalalardan tashqari, boshqa dolzarb masalalarga ham e'tibor qaratildi:

- tibbiy kasalxonalarda maktabgacha ta'lim;
- psixologik-pedagogik yordam xizmatlarini rivojlantirish;
- umr ko'rish davomiyligini cheklovchi progressiv kasalliklarga chalingan bolalarni o'qitish;
- qo'shimcha ta'limni rivojlantirish;
- tibbiyot kasalxonalarida davlat yakuniy attestatsiyasini o'tkazish uchun sharoit yaratish;
- yuqori bilimga intiluvchan va iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, uzoq muddatli davolanayotgan bolalar o'rtasida olimpiada va raqobat harakatini rivojlantirish;
- kadrlar tayyorlash va boshqalar.

Asosiy qisim. Uzoq muddat davolanayotgan bolalarga ta'lim beradigan kasalxona qoshidagi ta'lim maskani “Gospital maktab” deb ataladi. Maktablarning maqsadi uzoq muddatli davolanayotgan bolaga, maktab o'quv dasturidagi bilimlarni egallash va tengdoshlaridan orqada qolmasga imkon berishdir. Bundan

tashqari, kasalxona maktablari o'qitish kasal bolalarni reabilitatsiya qilish va muhitga moslashtirishga yordam beradi. Ushbu turdagi ta'lim kasal bolaga kelajakka bo'lgan ishonchini oshiradi, kasalxona rejimida vaqtini oladi va kasallik haqidagi keraksiz tashvishlardan chalg'itadi. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, hospital pedagogika uzoq tarixga va an'analarga ega. Uning kelib chiqishi tadqiqotchilarning (A.G. Rumyantsev, S.V. Sharikov) fikricha, 1802 yilda dunyoda birinchi bolalar shifoxonasining (Fransiya, Parij) paydo bo'lishi va XIX asrning ikkinchi yarmida pediatriyaning keyingi gullab-yashnashi bilan bog'liq.

Birinchi kasalxona maktablari Irlandiya va Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan (masalan, 1959 yilda Durham davlat maktabi tizimi asosida tashkil etilgan Dyuk bolalar kasalxona maktabi). Jahon amaliyotida 2000-yillarda yirik tibbiy tadqiqot markazlari qoshida kasalxona maktablari tashkil etilgan. Ko'pincha kasalxona maktablari oddiy maktabdan farq qilmaydigan ta'lim dasturlarini amalga oshiradigan mahalliy davlat maktabi negizida tashkil etilgan. Bu uzoq muddatli davolanayotgan bolalarga akademik maqsadlarga erishish va davolanishdan keyin odatdagi ijtimoiy va pedagogik muhitga qaytish imkoniyatiga ega bo'lish imkonini berdi.

Avstraliyadagi kasalxona maktablarining asosiy ijtimoiy-pedagogik yondashuvlari, kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun ta'limni qo'llab-quvvatlash modellari quyidagilardan iborat:

- bolaga va uning individual ta'lim ehtiyojlariga e'tibor qaratish;
- moslashuvchan, uyda ham, maktabda ham, kasalxonada yoki boshqa jamoat joylarida ham tashkilot uchun qulay bo'lishi;
- shifokorlar, o'qituvchilar, talabalar va ularning ota-onalari o'rtasida aloqa kanallarini yaratish;
- o'quvchilarga tegishli akademik yordam ko'rsatish;
- ijtimoiy va hissiy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini ta'minlash;
- ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari o'rtasida bo'g'in bo'luvchi, lekin o'quvchilarning ota-onalari emas, o'qituvchi yoki ta'lim mutaxassisi tomonidan tashkil etiladi;
- talabaning o'qishga jalb etilishi va tengdoshlari bilan muloqot qilishi uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

Shuni ta'kidlash kerakki, boshqa shifoxona maktablari ham ushbu tamoyillarga amal qiladi. Misol uchun, Filadelfiya bolalar kasalxonasi bolalarga akademik ko'nikmalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga yordam berishni maqsad qilgan. Masalan Finlyandiya tajribasi juda qiziqarli bo'lib, u erda shifoxona maktablari o'qitishni "maxsus ta'lim o'qituvchilari" - bemorlarning turli guruhlariga uchun bir vaqtning o'zida bir nechta rollarni o'ynaydigan o'qituvchilar amalga oshiradilar, kasalxonada o'qitish tartibi oddiy maktabdagi o'qitishdan sifat jihatidan farq qiladi. tiklovchi, tuzatuvchi (davolovchi) xarakteriga ega. Avstraliya Qirolligi bolalar kasalxona ta'lim instituti olimlari xuddi shunday xulosaga kelishdi.

Melburndagi Qirollik bolalar kasalxonasida (Melburn, Avstraliya) 750 nafar bemor va ularning ota-onalari/vasiylari o'rtasida xatti-harakatlar va o'qitish strategiyalarini baholash bo'yicha tadqiqot o'tkazdilar va maktab, kasal bola, uning ota-onasi/vasiylari va bolalar o'rtasidagi eng muhim aloqa nuqtalarini tasvirlab berdilar.

Rossiya Federatsiyasida birinchi bolalar shifoxonasi 30 yildan so'ng Sankt-Peterburgda paydo bo'ldi (Nikolayev kasalxonasi, 1834y). Bu davr davlat va jamiyatning bolalikning zaif toifalariga, «xavf ostidagi bolalar»ga e'tiborning kuchayishi bilan bir vaqtga to'g'ri keladi. XIX asrning ikkinchi yarmida, «rahm-shafqat jamiyati» ustoz-pedagog murabbiylari bolalar shifoxonalarida bolalar bilan ishlaganlar. XX asr boshlarida, uzoq muddatda davolanayotgan bolaga hamrohlik qilish haqida allaqachon yangi tushuncha shakllangan: «Pediatriyaning vazifasi bolaning sog'lig'i uning tug'ma hayotiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga imkon berishini ta'minlashdir». S.V.Sharikovning so'zlariga ko'ra, hospital pedagogika pediatriya va pedagogikaning – «kech bolasidir»: «Bolalar kasalxonalari paydo bo'lishi bilanoq, uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni o'qitish amaliyoti paydo bo'ldi».

Tibbiy yordam bilan birga bolalarga pedagogik yordam ham ko'rsatilgan misollarni ko'rishimiz mumkin. Shunday qilib, XIX-asrning oxirida «Ruhiiy kasallar shifoxonasida» bemorlarning ahvoli shu darajada ediki, viloyat rahbariyati, taniqli rus psixiatri va jamoat arbobi V.I.Yakovenkoni «ishni tartibga solish uchun» taklif qilishga qaror qiladi va u 3 yil davomida ruhiy kasallar bo'limini boshqaradi (1890 yildan). Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bu vaqt mobaynida muassasalarda zarur shart-sharoit yaratish, davolanishga insonparvarlik tamoyillari asosida yondashish, bemorlarni to'g'ri parvarish qilish, ovqatlanish, hayot faoliyatini tashkil etishda namuna bo'lgan. V.I.Yakovenko bemorlarni saqlash va ularga g'amxo'rlik qilish uchun sharoitlarni yaxshilash uchun kasalxonadagi bemorlar, jumladan bolalar uchun «insonparvar pedagogika tamoyillari asosida» o'quv jarayonini tashkil qilish uchun sharoit yaratadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, matematika, rus tili va ijodiy faoliyat, jumladan musiqa bo'yicha darslar tashkil etilgan.

V.P.Kashchenko, A.A.Dubrovskiyning «terapevtik pedagogikasi» ham alohida ta'kidlanishi kerak, uning tamoyillari kasallarga nisbatan insoniy munosabatlarga asoslangan hamda uning ko'pgina qoidalari Rossiyada tashkil qilingan kasalxona maktablari «UchimZnaem» loyihasining modeli uchun asos bo'ldi.

Rossiyaning defektologiya fanini asoschisi, korreksion (terapevtik) pedagogikaning asoschisi V.P.Kashchenko 1908 yilda, xususiy tibbiyot va o'quv muassasasi «Noqulay bolalar uchun maktab-sanatoriy»ni yaratganligi noyob meros xisoblanadi.

1950-yillarda mamlakatimizda bolalarni sil kasalxonalarida o'qitish tizimini shakllantirish, «sanatoriy-o'rmon maktablari» deb ataladigan makталarni yaratish bilan tavsiflanadi. 1960-yillarning oxirida, bolalarni psixiatriya shifoxonalarida o'qitish boshlandi, keyingi o'n yilliklarda bolalar shifoxonalarida va uyda uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni o'qitish amaliyoti tarqaldi. 1981 yilda bolalar shifoxonalarida va uyda uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni o'qitish tartibini belgilab beruvchi birinchi idoralararo hujjat qabul qilindi (SSSR Ta'lim vazirligining maktubi, 1981 yil).

1992 yilda «Ta'lim to'g'risida»gi qonun qabul qilingandan so'ng, (uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun sanatoriy tipidagi) ta'lim muassasalari to'g'risidagi standart qoida paydo bo'ldi. 1990-yillarning oxiridan «Orel shahridagi shifoxonalarda uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni o'qitish uchun o'rta umumta'lim maktabi» bo'lganligi misol bo'ladi. O'qituvchilar bolalarni nafaqat yosh xususiyatlarini, balki mashg'ulot paytidagi jismoniy, psixologik va hissiy holatini ham hisobga olgan holda, davolash ishlarini olib borishni o'rgatganlar.

1997 yilda Rossiya davlatining poytaxti Moskvada «Bolalar onkologiyasining ijtimoiy-psixologik muammolariga» bag'ishlangan Birinchi xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Mazkur konferensiya doirasida birinchi marta «Gospital pedagogika masalalari», alohida davolanayotgan bolalar, o'ta kasal bemorlar, shuningdek, ularning oila a'zolarini ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash muammolarini hal etish yo'llari muhokama qilindi. Rossiyaning N.N.Blokhin nomidagi «Bolalar onkologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti» qoshida o'tkazilgan saraton kasalliklariga bag'ishlangan ilmiy tadbirda, Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, markaz direktori, RAMS muxbir a'zosi, professor L.A.Durnovning so'zlariga ko'ra, «bolalarda saraton kasalligini davolashning zamonaviy samarali usullarini amaliyotga joriy etish, bolalik davridagi xavfli o'simtalardan davolangan shaxslarning muhim toifasining paydo bo'lishiga olib keldi». Natijada, ularni jamiyatga moslashtirish, avvalgi hayotiga qaytarish, normal ijtimoiylashuv, ya'ni «kasb-hunar egallashi va ishga joylashishi, psixologik, yuridik va boshqa ko'plab muammolarni» hal qilish zarurati paydo bo'ldi.

E.A.Babenkovaning alohida ma'ruzasi gospital pedagogikasi masalalariga bag'ishlandi. Ehtimol, bu shunday kontseptsiyani birinchi marta amaliyotga joriy etishning maqsad va vazifalari, tamoyillari, o'ziga xos uslubiy va didaktik usullarini belgilashning tajribasidir. Shuningdek, uzoq vaqt kasal bo'lgan bolalar bilan ishlash uchun kadrlarni “malaka oshirish kurslarida yoki turli xil kasalliklarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumot olish mumkin bo'lgan pedagogika universitetlarida” tayyorlash zarurati paydo bo'lgan.

1997 yilgi konferensiya doirasida xorijiy tajriba ham tilga olindi, ta'kidlanishicha, psixologik, tibbiy va pedagogik reabilitatsiya muammolari ko'plab mamlakatlarda bir necha o'n yillar davomida hal qilinmoqda. Ma'lumki, kasal bolalarni tarbiyalash va reabilitatsiya qilishning ozmi-ko'pmi rivojlangan tizimi mavjud ko'plab mamlakatlarni birlashtirgan Evropaning gospital pedagogikasi tashkiloti (HOPE) uyushma sifatida 1919 yilda paydo bo'lib, 1988 yilda esa YUNESKO va JSST xalqaro tashkilotlari homiyligida Evropa gospital kasalxonalarida o'qituvchilarining birinchi Kongressi bo'lib o'tdi.

M.Papadimitru, M.Meister, J.Haverkate kabi mutaxassislar tomonidan ushbu masalalar o'rganilmoqda. Bu masalani chuqurroq o'rganar ekanmiz, biz bir qancha misollarni keltirishimiz mumkin, masalan, Buyuk Britaniyadagi «Treloar School & College»ning uzoq tarixiy nuqtai nazardan yaratilganligi, zamonaviyroq bosqichi – «Child Life Services» (AQSh) va boshqalar.

Rossiyada kasalxona pedagogikasining rivojlanishida yuqorida tavsiflangan voqealardan keyin yana bir nechta voqealar sodir bo'ldi, ular nihoyat «UchimZnaem» loyihasi bilan bog'liq yangi bosqichning paydo bo'lishini oldindan belgilab berdi.

Avvalo, bu bolalar gematologiyasi va onkologiyasidagi yutuq bo'lib, Rossiyada «yagona klinik tavsiyalar, tibbiy-iqtisodiy standartlar va gematologik va onkologik kasalliklarga chalingan bolalarni davolashni optimallashtirish bo'yicha hamkorlikdagi ko'p markazli klinik tadqiqotlar»dan foydalanishning boshlanishi bilan bog'liq. Ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra, «adekvat ontogenetik rivojlanishni ta'minlaydigan va bolalarning hayot sifatini yaxshilaydigan reabilitatsiya va moslashish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish muammosi dolzarb hisoblandi».

2011 yil iyun oyida Dmitriy Rogachev nomidagi bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va immunologiyasi milliy tibbiy tadqiqot markazi ochildi, 2012 yilda Moskvadagi 109-sonli maktab

o'qituvchilari uzoq muddatli davolanayotgan o'quvchilar bilan ishlay boshladilar, 2014 yilda esa A.G.Rumyantsevning gospital pedagogikasi masalalari, saraton va gematologik kasalliklarga chalingan bolalar va o'smirlarning tibbiy va psixologik-ijtimoiy rehabilitatsiyasini tashkil etish kontekstida alohida belgilanadi. 2014 yilda Rossiyada «UchimZnaem» gospital maktablari loyihasini yaratishga olib kelgan barcha muammolarni 2015 yilda uning muallifi va direktori S.V.Sharikov tomonidan batafsil yakunlandi. Ushbu sohadagi aniq me'yoriy asoslar, «G'amxo'rlik maktabi» kontseptsiyasi doirasidagi gospital pedagogikaga yondashuvlarni va tibbiyot tashkilotlari shifoxonalarida bolalarni o'qitishning mavjud modellari o'rtasidagi farqni ochib beradi.

Har yili har qanday rivojlanish nuqsonlari, jumladan, jiddiy sog'liq muammolari bo'lgan bolalar soni tobora ko'payib bormoqda. Har yili 250 mingga yaqin bola (tug'ilgandan 18 yoshgacha) bolalar shifoxonalarida (21 kundan ortiq) uzoq muddatli statsionar davolanishdan o'tadi. Bolalar bilan ishlaydigan o'qituvchilar va shifokorlarning eng muhim vazifasi - bolalarning sifatli ta'lim olish, bolaning va uning otasining to'liq huquqli ta'lim muhitiga to'g'ridan-to'g'ri kirishlari, ular uzoq vaqt qolishga majbur bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashdir.

2015-yilda tibbiyot tashkilotlarida uzoq muddat davolanayotgan bolalarni o'qitish muammolarini amaliy hal etish bo'yicha “Idoralararo ishchi guruh” tuzildi. Mutaxassislar birinchi marta moliyalashtirish, litsenziyalash va boshqa me'yoriy-huquqiy jihatlar bilan bog'liq asosiy masalalardan tashqari, kompleksdagi barcha masalalarga e'tibor qaratmoqdalar. 2019-yilda «Uzoq muddat davolanayotgan va sog'lig'i sababli ta'lim muassasalariga bora olmaydigan bolalarning ta'limini tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar» nomli yagona idoralararo hujjat paydo bo'ldi. «Uzoq muddatli davolanish va uzoq muddatli davolanishga muhtoj o'quvchilar» deganda uzoq muddatli kasal bolaning holatini aniqlashga aniqlik kiritilmoqda.

Ushbu spetsifikatsiya juda muhim, chunki “maxsus ta'limga muhtoj bolalar” haqida gapirganda, biz quyidagilarni nazarda tutamiz:

1) nogiron bolalar; 2) imkoniyati cheklangan o'quvchilar; 3) uzoq muddatli davolanishga muhtoj o'quvchilar.

Huquq va imkoniyatlarni tartibga soluvchi, alohida shart-sharoitlar yaratish talablarini belgilovchi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini belgilovchi tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan uchta guruh, uchta maxsus maqom, ularning har biri o'z ta'rifiga ega. Biroq, haqiqiy amaliyotda guruhlarning har birining me'yoriy «himoyasi» holati boshqacha va bir qator ekspertlarning fikriga ko'ra, «uzoq muddatli davolanishga muhtoj o'quvchilar» guruhi hozirda eng kam himoyalangan.

Hozirgi vaqtda muammoning dolzarbligi tobora ortib bormoqda, bu butun Rossiya va butun dunyo mutaxassislarining e'tiboridan dalolat beradi. Kasalxona pedagogikasi masalalari yirik anjuman va forumlarda, jumladan, O'zbekistonda ham muhokama qilinmoqda. Kasalxona pedagogikasi sohasidagi mutaxassislar va tadqiqotchilar uchun birinchi kunlardan tushuntirish va tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish, shuningdek, o'quv jarayonini axborot-metodik ta'minlash muammolarini hal qilish muhim vazifa hisoblanadi.

Kasalxona maktablari loyihasini rivojlantirishning eng muhim vektori umumiy pedagogika tizimida maxsus bo'lim - shifoxona pedagogikasini yaratishdir. Uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni o'qitishning joriy amaliyotini tahlil qilish jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borish, shifoxona pedagogikasining rivojlanishini bashorat qilish uchun uslubiy asoslarni ishlab chiqish uchun ilmiy kuchlarni jalb qilish va ushbu sohada nazariya va amaliyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini asoslash uchun asos yaratadi.

Mamlakatning ilmiy tashkilotlari va yetakchi universitetlari bilan hamkorlikda loyiha bugungi kunda ushbu yo'nalishdagi asosiy tadqiqot mavzularini ishlab chiqmoqda, masalan:

- uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va usullari (tarbiya sohalari va darajalari bo'yicha);

- kasalxona maktabida o'quv faoliyati;
- kasalxona maktabida maktabgacha ta'lim;

- uzoq muddatli davolanayotgan bolalarning farovonligi uchun shifoxona maktabining ta'lim muhitini loyihalash;

- kasalxona maktabi uchun kadrlar, shu jumladan ilmiy kadrlar tayyorlash;
- uzoq muddatli davolanayotgan talabalarning kasbiy o'zini - o'zi belgilashini rivojlantirish;
- uzoq muddatli davolanayotgan bolalar bilan korreksiya va rivojlanish sinflari;
- progressiv kasalliklarga chalingan va hayot prognozi noaniq bo'lgan bolalarni o'qitish.

Oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda O'zbekistonda birinchi marta ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash doirasida ilmiy-tadqiqot dasturlari ochildi, maxsus magistratura dasturlari, kasbiy qayta tayyorlash dasturlari, kompleks ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ishlab chiqarish amaliyotlari tashkil

etilmoqda. Bolalarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilishda fanlararo yondashuvni amalga oshiradigan fanlararo jamoa a'zolari sifatida o'qituvchilarning funktsiyalarini ko'rib chiqish katta ahamiyatga ega.

Alohida mavzu - bu xodimlarni tanlash, malaka tavsiflari va vakolatlari, shaxsiy fazilatlar va shifoxona o'qituvchisining qadriyatlariga qo'yiladigan talablarni aniqlash, doimiy kasbiy rivojlanishning ichki tizimini yaratish va uslubiy yordam. Kasalxona o'qituvchisining vakolatlari, missiyasi va qadriyatlar, maxsus vazifalari va ish sharoitlari ham tadqiqot mavzusiga aylanadi. Bu boradagi eng dolzarb uslubiy va tadqiqot mavzularidan biri uzoq muddatli davolanayotgan talabalar bilan ishlashda farqlash, individuallashtirish va shaxsiylashtirishdir.

Individuallashtirish va shaxsiylashtirish hozirgi bosqichda ta'limni rivojlantirish vektori sifatida kasalxona pedagogikasi tajribasini inklyuziv yondashuvni amalga oshiradigan umumiy ta'lim tashkilotlari o'qituvchilari uchun talab qiladi. Turli xil ta'lim qobiliyatiga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash qobiliyati zamonaviy o'qituvchining majburiy kompetensiyasidir, ammo haqiqiy amaliyotda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola bilan ishlash muqarrar ravishda muammolarga olib keladi. Ular o'qituvchining tayyor emasligi, kimga va qanday yordam so'rashni bilmasligi yoki bunday imkoniyatga ega bo'lmasligi, dars o'tishda bir qancha qiyinchiliklarni boshdan kechirishi mumkin, qabul qilish va ishtirok etish o'rniga rahm-shafqat va noliyiq maqtov orqali bolaga munosabat, alohida yondashuvni talab qiladigan bolalar bilan ishlash uchun mos shakl va usullarni bilmaslik.

Bu alohida ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlashda shaxsiy munosabatni qabul qilish va o'zgartirish bosqichidan yuqori professionallik va pedagogik mahoratga qadar qiyin yo'l bo'lib, ko'plab muammolar hali ham hal qilinishi kerak. Endilikda viloyat va viloyat bolalar shifoxonalari qoshidagi O'zbekiston Respublikasi Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiya markazi (Markaz) qoshida tajriba tariqasida maktablar ochilmoqda. Mamlakatimizda gosptial pedagogika bo'yicha tajriba to'plangan: 2022-yilda uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim bilan ta'minlash maqsadida birinchi “Mehrli maktab” ochilib, unda sog'lig'ida o'zgarishlari bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiya olmoqdalar. Ular maktabda ijtimoiy moslashuv bilan ta'minlanadilar va ularning kasalliklarining xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlar olib boriladi.

Ushbu o'quv majmuasida ta'lim, maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlanib, umumta'lim maktabida davom etadi. Ta'lim berishda bolaning sog'lig'i, intellektual va jismoniy imkoniyatlari hisobga olinadi. Bolalar kasalliklariga qarab kichik guruhlarda yoki yakka tartibda o'qishadi. Ushbu maktabda quyidagi tashxislari bor bolalar o'qiydilar: bronxial astma, yurak kasalliklari, epilepsiya, qandli diabet, gemofiliya, xavfli o'smalar, bolalar cerebral paralichi va boshqalar. Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va immunologiyasi milliy tibbiyot ilmiy-tadqiqot markazida bemor bolalar uchun “Mehrli maktab” tashkil qilindi. Bugungi kunda maktabda har kuni 130 dan ortiq bola tahsil olmoqda. 2023-yil 27-mart holatiga ko'ra, “Mehrli maktab”da maktabgacha yoshdagi bolalar soni 61 nafar, shundan 33 nafarini qizlar tashkil qiladi. Maktabdagi o'qitish dasturlari shifokorlarning tavsiyalarini inobatga olgan holda tuzilgan. Fan o'qituvchilari shifokorlar bilan birgalikda ishlaydilar, shifokorlar bolani qanday tarbiya qilish va o'qitish bo'yicha tavsiyalar beradilar. Yaxshi natijalarga erishish maqsadida pedagogika universiteti qoshida talabalarga kasalliklar haqidagi ma'lumotlar o'qitilishi zarur. Tibbiyot fanlari pedagogik ta'limni hisobga olgan holda o'qitilishi kerak. Chunki keyinchalik o'qituvchi bolaning yoshiga qarab xususiyatlarini yaxshiroq tushunishiga yordam beradi.

Tibbiyot fanlari, masalan, "Gospital pedagogikaning tibbiy va biologik asoslari" fanlari doirasida o'qitilishi mumkin. “Gospital pedagogika” fanining mazmuni uzoq vaqt davolashni talab qiladigan kasalliklarni, masalan, saraton, sil, miya falaji, qandli diabet, epilepsiya, bronxial astma, tuberkulez, kuyish va hokazo og'ir kasalliklarni qamrab olishi mumkin. Ushbu kasalliklar bo'lajak o'qituvchiga yoritilishi kerak.

Xulosa. Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda “Gospital pedagogika”ni joriy etishda nafaqat Yevropa mamlakatlarida yoki Rossiya Federatsiyasida to'plangan xorijiy tajribaga tayanish, balki mamlakatimizning defektologiya ta'limida to'plangan tajribasini ham hisobga olish kerak. Mamlakatimizda defektologiya ta'limi qadimdan shakllangan va yuqori sifatga egadir.

Mutaxassislar tayyorlashda pedagogik va psixologik fanlar bilan bir qatorda tibbiyot fanlari ham munosib o'rin tutishi zarur. O'quv mashg'ulotlarini o'tkazishda o'qituvchilar kasalxonada yotgan bolalarga uzoq davom etgan kasallik paytida yo'qotilgan vaqtni ushlashda, bilimlardagi kamchiliklarni bartaraf etishda va dasturni bajarishda yordam berishlari kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim jarayoni nafaqat o'qitish funktsiyasini bajaradi, balki kasallik yoki jarohatlardan keyin bolaning reabilitatsiyasi, moslashishi va ijtimoiylashuviga yordam beradi va tez tiklanish uchun rag'bat yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Козырева О.А. «Создание инклюзивной образовательной среды как социально-педагогическая проблема». // Вестник ТГПУ. Выпуск № 1. — 2014. С 112–115.
2. Фурьева Т.В. «Интеграция особых детей в общество». // Педагогика. — 2006. №7. С 29–37.
3. Inogamova Dilfuza, Rustamova Nodira. Using of interactive teaching methods in the process of self- education of future teachers// International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 09, 2020.
4. Inogamova D.R., Babaxanova D. «Совместная деятельность института и детских учреждений, способствует профессиональному становлению будущих педагогов». Science and innovation 1.B8 (2022): 674-677.
5. Иногамова Д.Р. «Междисциплинарное интегрированное обучение с практикой – залог успеха в подготовке госпитальных педагогов». Technical science research Uzbekistan. ISSN (E): 2992-9148. 2024 volume-3, issue-10. 2025.

**MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING IJTIMOY-MADANIY
SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

Kuchkarova Nazira Kaxramon qizi,

*Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta
tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti,
nazirabobojonova476@gmail.com*

Ushbu maqola “Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari” mavzusini o‘rganishga bag‘ishlangan. Malaka oshirish, zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi va uning samaradorligi tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishga bog‘liq. Maqolada tinglovchilarning madaniy va ijtimoiy ko‘nikmalarini oshirish, ularni jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlash, shuningdek, pedagogik usullar va metodlarni qo‘llash orqali bu jarayonni qanday amalga oshirish mumkinligi yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillar, masalan, kommunikativ ko‘nikmalar, jamoaviy ishlar, madaniyatlararo muloqot va o‘zaro hurmat kabi tushunchalar ham ko‘rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot natijalari malaka oshirish dasturlarini yanada samarali tashkil etish va tinglovchilarning shaxsiy hamda professional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: malaka oshirish, tinglovchilar, ijtimoiy-madaniy salohiyat, pedagogik asoslar, ta’lim tizimi, madaniy ko‘nikmalar, ijtimoiy ko‘nikmalar, kommunikativ ko‘nikmalar, jamoaviy ishlar, madaniyatlararo muloqot, o‘zaro hurmat, pedagogik usullar, professional rivojlanish, ta’lim sohasidagi mutaxassislar

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ
СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ**

Данная статья посвящена изучению темы «Педагогические основы развития социокультурного потенциала обучающихся в процессе повышения квалификации». Повышение квалификации занимает важное место в современной системе образования, и его эффективность напрямую зависит от развития социокультурного потенциала обучающихся. В статье рассматриваются способы повышения культурных и социальных навыков обучающихся, их подготовки к активному участию в жизни общества, а также способы реализации этого процесса с помощью педагогических методов и приемов. Также рассматриваются факторы, важные для развития социокультурного потенциала, такие как коммуникативные навыки, умение работать в команде, межкультурный диалог и взаимоуважение. Результаты данного исследования помогут более эффективно организовывать программы повышения квалификации и окажут положительное влияние на личностное и профессиональное развитие обучающихся.

Ключевые слова: повышение квалификации, слушатели, социокультурный потенциал, педагогические основы, система образования, культурные навыки, социальные навыки, коммуникативные навыки, работа в команде, межкультурный диалог, взаимоуважение, педагогические методы, профессиональное развитие, специалисты в сфере образования

**PEDAGOGICAL BASIS OF DEVELOPING THE SOCIO-CULTURAL COMPETENCES OF
STUDENTS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL TRAINING**

This article is devoted to the study of the topic "Pedagogical foundations of the development of socio-cultural potential of trainees in the process of advanced training". Advanced training occupies an important place in the modern education system, and its effectiveness depends on the development of the socio-cultural potential of trainees. The article discusses how to improve the cultural and social skills of trainees, prepare them for active participation in society, as well as how this process can be implemented through the use of pedagogical methods and techniques. It also considers factors that are important in the development of socio-cultural potential, such as communication skills, teamwork, intercultural dialogue and mutual respect. The results of this study will help to organize advanced training programs more effectively and have a positive impact on the personal and professional development of trainees.

Keywords: *advanced training, listeners, socio-cultural potential, pedagogical foundations, education system, cultural skills, social skills, communicative skills, teamwork, intercultural dialogue, mutual respect, pedagogical methods, professional development, education professionals*

Kirish. Tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish pedagogik jarayonning murakkab va ko‘p qirrali jihatlaridan biri bo‘lib, u nafaqat bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki shaxsiy hamda kasbiy kompetensiyalarni yanada takomillashtirishga qaratilgan tizimli yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun malaka oshirish tizimida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash hamda o‘quvchilarning ijtimoiy va madaniy muhit bilan uzviy aloqasini ta‘minlash muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish pedagogik modeli uzluksiz ta‘lim prinsiplari asosida shakllantirilishi, bunda nazariy va amaliy jihatlarining o‘zaro uyg‘unlashuviga alohida e‘tibor qaratilishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Modellastirish jarayoni pedagogikada gnoseologik va universal jarayon sifatida qabul qilinadi, ya‘ni u nazariy va amaliy muammolarni hal qilish uchun model sifatida ishlatiladi. Shuni hisobga olish kerakki, har xil muammolarni yechish uchun yagona, barcha holatlarga mos keluvchi model klassifikatsiyasi mavjud emas.

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda “pedagogik model” tushunchasiga turli xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, bu tushuncha turli jihatlarida talqin qilinadi. Ko‘plab olimlar “model”ni pedagogik obyektni tushuntirish, o‘rganish va aniqlashtirishga xizmat qiluvchi tadqiqot usuli sifatida ko‘radilar. Ular uchun pedagogik model obyektning mohiyatini tushunishga va unga nisbatan turli ilmiy tahlillar olib borishga yordam beradi.

Boshqa bir guruh olimlar esa pedagogik obyektning namunaviy shaklini tahlil qilish orqali uning tuzilishi yoki faoliyat jarayoniga bevosita ta‘sir ko‘rsatish imkoni tug‘diruvchi vosita sifatida e‘tirof etadilar. Bu yondashuvda model pedagogik obyektning amaliy jarayondagi ishlash mexanizmini aniqlash va undan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan.

Mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini modellastirish bo‘yicha N.F.Tugeshev tomonidan umumiy metodologik yondashuv ishlab chiqilgan. U, yaratiladigan modelda kutiladigan natija va shu maqsadga erishish yo‘llarining uzviy uyg‘unligini ta‘minlash zarurligini alohida ta‘kidlab, quyidagicha fikr bildiradi: “Mutaxassis modeli muammosi o‘quv rejalari kabi o‘quv dasturlarning ham mazmunini aniqlashda muhim ahamiyatga ega”. Bu nuqtai nazar, o‘quv jarayonida o‘quv dasturlari va rejalarning mazmunini aniq belgilashga yordam beradigan vosita sifatida modellastirishga keng yo‘l ochadi.[1]

Pedagog olim N.A.Muslimovning ta‘kidlashicha, “mutaxassis modeli quyidagi uch asosiy tarkibiy qismdan iborat:

1. Yangi ijtimoiy bosqichga xos bo‘lgan xususiyatlar asosida shakllangan faoliyat turlari – bu turdagi faoliyatlar zamonaviy ijtimoiy talablarga mos bo‘lishi lozim.

2. Kasbiy talablari aniq belgilangan faoliyat turlari – bu faoliyatlarda kasb egasiga qo‘yiladigan talablar aniq va tushunarli shaklda ifodalanadi.

3. Davlatning ijtimoiy-siyosiy tuzilmasi hamda uning ma‘naviy-axloqiy tizimi mohiyatiga ko‘ra shakllantirilgan faoliyat turlari – bunda davlatning umumiy tuzilishi va qadriyatlariga mos ravishda kasb egasining vazifalari belgilangan”[2].


N.A.Muslimov mutaxassis modelini shunday ta‘riflaydi: “Mutaxassis modeli – bu ishlab chiqarish sohasida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal qilishni ta‘minlaydigan, ma‘lum sifatlarni ta‘riflaydigan hamda kasb egasining mustaqil bilim olish va o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini aks ettiruvchi andoza hisoblanadi”[3].

H.B.Berdiyevaning fikricha, “Ijtimoiy-madaniy salohiyatning mazmunini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan ilmiy adabiyotlar tahlili uning quyidagi o‘ziga xos jihatlarini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi:

birinchidan, ijtimoiy-madaniy salohiyat o‘zida jamiyat va madaniyat talablarini ifoda etishi mumkin. Bu esa, shaxsning ijtimoiy-axloqiy meyorlar mazmuni haqidagi bilimlarga, madaniy talablar asosida faoliyat shakllarini tashkillashtirish ko‘nikmasiga egaligi hamda uning qadriyatli yo‘nalganligi bilan izohlanadi.

ikkinchidan, ijtimoiy-madaniy salohiyat insonning ijtimoiy o‘zaro sheriklik, hamkorlik sub‘ekti sifatidagi yaratuvchilik xususiyatlarini ham aks ettiradi”.

Ijtimoiy-madaniy salohiyatning mohiyati shaxsning ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyat talablariga mos sifatlarini ifodalaydi. Ushbu omil malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan model yaratishni zarur qildi (1-rasm).



1-rasm. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishning pedagogik modeli

Mazkur model tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish jarayonini bosqichma-bosqich, tizimli va aksiologik asosda tashkil etishning nazariy hamda amaliy mexanizmini ifodalaydi. Modelning markazida inson – ya'ni tinglovchining qadriyatli shaxs sifatida shakllanishi, uning kasbiy faoliyatida ijtimoiy-madaniy tajriba va qadriyatlarni ongli ravishda o'zlashtirishi va qo'llay bilishi yotadi. Ushbu yondashuv inson shaxsining faqat kasbiy kompetensiyalarini emas, balki uning ma'naviy, axloqiy, estetik va madaniy jihatdan yetukligini ham ta'minlashga xizmat qiladi. Model o'z mohiyatiga ko'ra

aksiologik paradigmani amaliy ta’limga tatbiq etuvchi kompleks tizim bo’lib, unda qadriyatlar, insoniylik, ijtimoiy hamkorlik va refleksiya asosiy determinant sifatida qaraladi.

Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, modelning asosiy nazariy poydevori G.V. Suxomlinskiy, A.V. Mudrik, E.G. Bagdasaryan, M.S. Kagan, I.F. Isaev, hamda zamonaviy pedagogik aksiologiya vakillari – F. Sharifian, G. Hofstede, va N. D. Nikandrovlarning ilmiy qarashlari bilan uyg’unlikda shakllangan. Ularning tadqiqotlarida shaxsning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi jarayoni shaxsning ichki dunyosi, qadriyatlar tizimi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy tajribaning uyg’unlashuvi orqali ro’y berishi ta’kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur model ijtimoiy-madaniy salohiyatni inson faoliyatining dinamik strukturasi sifatida talqin etadi: u bilimdan (kognitiv) boshlab his-tuyg’u (emotsional), amaliy faoliyat, refleksiya va integratsiyagacha bo’lgan uzluksiz, bosqichma-bosqich rivojlanishni o’z ichiga oladi.

Modelning ilmiy qiymati, avvalo, uning bosqichli tashkil etilishida namoyon bo’ladi. Kognitiv bosqich tinglovchilarda qadriyatlarning nazariy mohiyatini, ularning ijtimoiy-madaniy tizimdagi o’rnini anglashni ta’minlaydi. Bu bosqich shaxsning ongli tushunchalarini shakllantirish uchun poydevor vazifasini bajaradi. Ijtimoiy-madaniy salohiyat bu jarayonda bilim majmui sifatida namoyon bo’ladi: shaxs ijtimoiy tajriba, tarixiy-madaniy meros va jamiyat qadriyatlarini biladi, ularning ahamiyatini tushunadi. Bu bosqich G. Allportning “qadriyatlar shaxsiy yo’nalishlar tizimidir” degan g’oyasiga mos ravishda, qadriyatlarni kognitiv struktura sifatida shakllantirishni ta’minlaydi.

Modelning ikkinchi – emotsional bosqichi shaxsning hissiy-intellektual sohasini faollashtirishga qaratilgan. Bu jarayonda tinglovchilar qadriyatlarga nisbatan ichki e’tiqod va samimiy munosabatni rivojlantiradi. Bu bosqich A. Maslou, K. Rojers va V. Frankl kabi gumanistik psixologlar ta’kidlaganidek, shaxsning o’zini anglash, ma’naviy o’sish va o’zini qadrlash jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Emotsional bosqichda shakllanadigan qadriyatlarga ijobiy munosabat keyingi bosqichlarda amaliy faoliyatning motivatsion asosi bo’lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, bu bosqich ijtimoiy-madaniy salohiyatning hissiy barqarorligini, tolerantlik, empatiya, bag’rikenglik va madaniyatlararo muloqotga ochiqlikni ta’minlaydi.

Amaliy bosqich esa modelning markaziy bo’g’ini bo’lib, unda nazariy bilim va hissiy e’tiqodlar faoliyatda ifodasini topadi. Bu bosqichda tinglovchi qadriyatlarni kasbiy, kommunikativ va ijtimoiy faoliyatida ongli ravishda qo’llay boshlaydi. U madaniyatlararo muloqotda qadriyat mezonlari asosida qaror qabul qilishni, konfliktli vaziyatlarda axloqiy tamoyillarni asos sifatida tanlashni o’rganadi. Ushbu bosqich zamonaviy kompetensiyalar – kommunikativ, axloqiy va ijtimoiy kompetentliklarning shakllanishida hal qiluvchi rol o’ynaydi. Amaliy faoliyat qadriyatlarning ijtimoiy ahamiyatini konkret tajribaga aylantiradi va bu orqali shaxsning ijtimoiy-madaniy salohiyatini real faoliyat jarayonida mustahkamlaydi.

Refleksiv bosqichda tinglovchi o’zining qadriyat tizimini tahlil qiladi, uni baholaydi va zarurat tug’ilganda yangilaydi. Bu bosqich metakognitiv faoliyatni faollashtiradi, ya’ni shaxs o’z tafakkurini va qarorlarini kuzatadi, o’zining qadriyatli yo’nalishlarini ongli boshqaradi. Bu jarayon A. Kolbning tajriba asosidagi o’qitish modeli va D. Schonning “reflektiv amaliyotchi” konsepsiyasi bilan uyg’unlikda kechadi. Refleksiya natijasida tinglovchi o’zining qadriyatlar tizimini yangilaydi, o’z faoliyatini axloqiy-mezoniy jihatdan baholashni o’rganadi, bu esa shaxsning ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytiradi.

Integrativ bosqich esa modelning yakuniy va eng murakkab pog’onasidir. Bu bosqichda qadriyatlar shaxs hayoti va kasbiy faoliyatining ajralmas qismiga aylanadi. Tinglovchi o’zining kasbiy faoliyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg’unlashtiradi, ularni doimiy ravishda yangilab boradi, ularni ijtimoiy muhit bilan o’zaro ta’sirda rivojlantiradi. Integratsiya bosqichi ijtimoiy-madaniy salohiyatning yuqori darajasini ifodalaydi: bunda shaxs nafaqat qadriyatlarni biladi va ularga amal qiladi, balki ularning targ’ibotchisi, tashuvchisi va tarbiyachisiga aylanadi. Shu tariqa, qadriyatlar shaxsning kasbiy identiteti va ijtimoiy faoliyatining asosiy ko’rsatkichi sifatida namoyon bo’ladi.

Ilmiy jihatdan modelning yangilik darajasi shundaki, u ijtimoiy-madaniy salohiyatni faqat bilim va ko’nikmalar majmui sifatida emas, balki shaxsning aksio-madaniy o’sish tizimi sifatida talqin etadi. Unda shaxs rivojlanishining kognitiv, emotsional, faoliyatli, refleksiv va integrativ omillari uzviy bog’liq tizim sifatida ko’rilgan. Bunday yondashuv ijtimoiy-madaniy salohiyatni o’lchash, baholash va rivojlantirish uchun aniq pedagogik mezonlarni belgilash imkonini beradi.

Natijada, mazkur model pedagogik jarayonning insonparvarlik, qadriyat markazlilik, shaxsga yo’naltirilganlik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan kompleks mexanizmini ifodalaydi. U malaka oshirish tizimida tinglovchilarni nafaqat kasbiy jihatdan, balki ma’naviy va madaniy jihatdan yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli, tolerant, global madaniyat sharoitida samarali faoliyat yurita oladigan shaxs sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Shu sababli, modelning ilmiy ahamiyati faqat nazariy asoslarda emas, balki amaliy ta’lim tizimida qo’llanish imkoniyatlarida ham namoyon bo’ladi. U pedagogik faoliyatni insoniy

qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, madaniyatlararo muloqotni kuchaytirish va ijtimoiy integratsiyani ta'minlashning samarali mexanizmi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimizdan shu jihat ma'lum bo'lmoqdaki, “malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishga imkon yaratuvchi pedagogik shart-sharoitlarga quyidagi jihatlarni keltirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

malaka oshirish ta'lim muassasasi professor-o'qituvchisining tinglovchiga ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirish sub'ekti sifatidagi munosabati;

ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirish jarayonida tinglovchilarning yoshi, mutaxassisligi, shaxsiy xususiyatlari, kasbiy ehtiyojlarini hisobga olish;

tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini sezilarli ta'sir qiluvchi o'quv modullarining shaxsiy rivojlantiruvchi imkoniyatlaridan samarali foydalanish”.

Tadqiqot jarayonida malaka oshirish tinglovchilarining ijtimoiy-madaniy salohiyatini shakllantirish darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi quyidagi mezonlar belgilandi:

kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan umuminsoniy, maxsus va kasbiy xususiyatlar hamda fazilatlariga ega bo'lish, shuningdek, bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatining rivojlanganligi;

o'z vataniga, xalqiga, tili, dini, urf-odatlari va qadriyatlariga chuqur hurmat va to'liq anglash hissiga ega bo'lish, shuningdek, boshqa mamlakatlarning madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlari haqida xabardorlik.

o'zaro munosabat va birgalikdagi faoliyatni bilish, “boshqa millat va elat vakillari bilan do'stona munosabat o'rnatish, o'zga millat va elatlarning tarixi, madaniyatlari, tillari, ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlari va ana'analari, fikrlari hamda diniy e'tiqodlarini to'g'ri qabul qilishga tayyorligi;

boshqa dinlar namoyondalari bilan ochiqko'ngillilik, samimiylik, bag'rikenglik asosida do'stona munosabat o'rnatish”, millatlararo totuvlikni mustahkamlashga o'z hissasini qo'shish istagi;

turli madaniyatlar o'rtasida o'zaro tushunishni ta'minlash, madaniyatlararo aloqalar jarayonida boshqa madaniyat vakillarining xulq-atvoriga kommunikativ moslashish, ulardan o'rganish va bu ta'sirni o'z xulq-atvorida ifoda etishga tayyorlik;

shaxsning ijtimoiy muhit talablarini tushunib, ularga muvofiq harakat qilishi, o'z xatti-harakatlarini to'g'ri yo'naltirishi va mavjud vaziyatni tahlil qilish orqali oqilona va mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmasi;

boshqa xalqlarning madaniy boyliklarini chuqur tushunish va qadrlash, ularni o'z milliy va madaniy qadriyatlari bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan ochiq va ijodiy yondashuv;

vijdonlilik, ochiqko'ngillilik, boshqalarni hurmat qilish, o'z-o'zini tanqid qilish va bu orqali shaxsiy o'sishga intilish kabi xususiyatlarni shakllantirish;

“o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga ega bo'lgan ishonchni mustahkamligi, fikrlash madaniyati va shaxsiy sifatlarini rivojlanganligi;

jamiyatning ijtimoiy madaniyati, ustuvor ma'naviy-axloqiy qoidalar”, shaxslar o'rtasidagi muloqotning turli shakl va usullarini tushunish hamda jamoa doirasida samarali hamkorlik qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlarga ega bo'lish.

Xulosa. Tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini oshirishning pedagogik modeli ishlab chiqildi. Ushbu model tinglovchilarni kasbiy va shaxsiy jihatdan rivojlantirish uchun nazariy asoslarni, amaliy mashg'ulotlarni va ijtimoiy-madaniy faollikni qo'llab-quvvatlaydigan metodlarni birlashtiradi. Modelda jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda yangi bilimlarni taqdim etish, madaniyatlararo muloqotni kuchaytirish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Adabiyotlar:

1. Ермаков Д. Компетентность в решении проблем. //Народное образование. – Москва, 2005. – №9. – С.89.
2. Berdiyeva H.B. Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. – 2021. – №9. – P.891-892.
3. Berdiyeva H.B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish muammolari. // “Uzluksiz ta'lim tizimi muammolariga kreativ yondashuv: nazariya va amaliyot” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Termiz, 2020. – B.509-511.
4. Андреев А. Знания или компетенции? // Журнал «Высшее образование в России». – Москва, 2005. – №2. – С.3-11.

5. Андреев В.И. Педагогика. Учебный курс для творческого саморазвития. 2-е изд. – Казань, 2000. – 608 с.
6. Андриади И.П. Основы педагогического мастерства: Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб. заведений. – М.: «Академия», 1999. – 160 с.
7. Асадов Ю.М. Индивидуально-психологические особенности учителя и их учет в процессе повышения квалификации: дисс... канд. псих. наук. – Т., 1995. – 150 с.
8. Аскарлов А.Д. Халқ таълими ходимларини малакасини масофадан ошириш тизимини такомиллаштириш: пед.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Т., 2017. – 250 б.
9. Астафьева О.Н., Захарова О.А. Информационно-коммуникативная компетентность личности в условиях становления информационного общества. Сб. м-лов междунар. науч. конф. «Судьба России: вектор перемен» 8-10 июля 2007. // URL: www.uralveltsin.ru/usefiles/media/Astafieva.
10. Axmedov M.M., To'xtaboev J.S. Ustoz qiyofasida ma'naviy etuklik masalalari // “O‘zbekiston agrar sektorini takomillashtirishda mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T., 2015. – B.43-44.
11. Madina Fazliddin qizi Zikirjonova// Xorij davlatlarini ta'lim tizimi (aqsh, yaponiya, germaniya misolida) // <https://cyberleninka.ru/article>
12. Ashurov B.T. Modulli-kompetentli yondashuv asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish. // “Zamonaviy ta'lim” ilmiy-amaliy ommabop jurnal. – Toshkent, 2020. – № 2(87). – B.11-12.
13. Базаров Т.Ю., Ермина Б.Е. Управление персоналом. – М.: ЮНИТИ, 2002. – 430 с.
14. Karimov Komiljon Abduraximovich// professional ta'lim tizimi pedagog kadrlar malakasini oshirishda ustoz-shogird munosabatlari // <https://cyberleninka.ru/article>

DUAL TA'LIM JARAYONLARIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Pardaboyeva Dilshoda Ne'matulla qizi,
Jizzax politexnika instituti doktoranti
Dilshoda_pardabayeva@mail.ru

Ushbu maqolada O'zbekistonda kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi yo'nalishlari tahlil qilingan. Ta'lim jarayoniga dual ta'lim tizimini joriy qilish mehnat bozori ehtiyojlarini qondirishdagi innovatsion yechim sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish va ularning ta'lim tizimi samaradorligiga ta'siri, xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlashtirishning kadrlar malakasini oshirishdagi o'rni keng yoritilgan. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali ta'lim jarayonini kuchaytirish va milliy ta'lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash strategiyalari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Professional, ta'lim, kompetensiya, metodika, dual ta'lim, kommunikativ, iqtisodiy ta'lim, raqamli texnologiya, kasbiy ta'lim, kasbiy modul.

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье анализируются новые направления реформ, реализуемых для совершенствования системы профессионального образования в Узбекистане. Внедрение дуальной системы образования в образовательный процесс рассматривается как инновационное решение для удовлетворения потребностей рынка труда. Также широко освещаются вопросы внедрения цифровых технологий и их влияние на эффективность системы образования, роль сертификации в соответствии с международными стандартами в повышении квалификации кадров. Обсуждаются стратегии укрепления образовательного процесса за счет механизмов финансовой поддержки и обеспечения международной конкурентоспособности национальной системы образования.

Ключевые слова: Профессиональное, образование, компетентность, методика, дуальное образование, коммуникативное, экономическое образование, цифровые технологии, профессиональное образование, профессиональный модуль.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE IN DUAL EDUCATION PROCESSES

This article analyzes new directions of reforms being implemented to improve the vocational education system in Uzbekistan. The introduction of a dual education system into the educational process is considered as an innovative solution to meet the needs of the labor market. The introduction of digital technologies and their impact on the efficiency of the education system, the role of certification in accordance with international standards in improving personnel qualifications are also widely covered. Strategies for strengthening the educational process through financial support mechanisms and ensuring the international competitiveness of the national education system are discussed.

Keywords: Professional, education, competence, methodology, dual education, communicative, economic education, digital technology, vocational education, vocational module.

Kirish. XXI asrda ta'lim jarayonining asosiy maqsadi — raqobatbardosh, kasbiy jihatdan tayyorlangan, mustaqil fikrlovchi va samarali muloqot qila oladigan mutaxassisni tayyorlashdir. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, xususan, **kasbiy ta'lim tizimini amaliyot bilan uyg'unlashtirish** yo'lida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda kasbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga mos malakali mutaxassislar tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son “Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni bu boradagi ishlarning huquqiy asosini yaratdi [1].

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish, uni zamonaviy talablarga moslashtirish va xalqaro tajribalarni joriy etish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz tomonidan 2024-yil 16-oktabrda qabul qilingan PF-158-sonli Farmon mamlakatimizda kasbiy ta'lim sohasidagi islohotlarning yangi bosqichini belgilab berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu farmonda ta'lim jarayonlarining integratsiyasini ta'minlash, raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish va xalqaro standartlarga mos ta'lim dasturlarini ishlab chiqish belgilangan. Ta'lim tizimi nafaqat iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirish, balki jamiyatning umumiy taraqqiyoti uchun ham asosiy omildir. Xususan, mehnat bozoriga muvofiq mutaxassislarni tayyorlash orqali mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, ta'lim sifati jamiyatda bilimli avlodni shakllantirish orqali milliy taraqqiyot uchun mustahkam asos bo'ladi. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini oshirish, uni jahon talablari darajasiga yetkazish va iqtisodiyotning yangi talablariga moslashuvchanlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida, ayniqsa, kasbiy ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda sirtqi ta'lim tugatilib o'rni yangi "Part time" o'quv amaliyoti va kechki ta'lim shakllari joriy qilinadi. "Part time" shakli – bu kelgusida yoshlar uchun bir kunda ham ishlab, ham o'qish imkonini beradi.

Prezident farmonida ta'kidlanganidek, xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish, dual ta'lim amaliyotini tatbiq qilish va ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish O'zbekistondagi ta'lim sifatini yangi darajaga olib chiqish uchun strategik ahamiyatga ega bo'ladi.

Dual ta'lim tizimi – ixtisoslashgan ta'lim turi bo'lib, talaba nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikmalarni esa bevosita ish joyida, yani tashkilotda olish imkoniyatini yaratib beradi. Dual ta'limning asosiy maqsadi, talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini tayyorlashdan iborat. Dual ta'lim sharoitida ta'lim nafaqat o'quv muassasalari, balki sanoat korxonalari, firmalar, tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

Dual ta'lim tizimi doirasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish o'quvchilarni ishlab chiqarish muhiti bilan yaqinlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchi:

- **nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtiradi,**
- **ish joyida ustozlar bilan muloqot qiladi,**
- **mijozlar yoki hamkasblar bilan kasbiy munosabat o'rnatadi,**
- **kasbiy vaziyatlarda muloqot strategiyalarini tanlay oladi.**

Shu orqali dual ta'lim o'quvchilarda kommunikativ madaniyat, ijtimoiy faollik, fikrni aniq ifoda etish hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Muslimov N.A. ta'kidlaganidek, kasbiy ta'lim o'qituvchisining kompetentligini oshirish ham o'quvchilarning muloqotga tayyorgarligini belgilovchi muhim omildir [2].

Choriyev R.K. esa dual ta'limda o'qituvchi–ish beruvchi–o'quvchi hamkorligini o'quvchining kasbiy va kommunikativ yetuklik darajasini oshiruvchi asosiy omil sifatida ko'rsatadi [3]. **Avliyaqulov A.K.** va **Xodjayev N.S.** tomonidan ishlab chiqilgan dual ta'lim modeli o'quvchining real ishlab chiqarish jarayoniga integratsiyasini ta'minlab, kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi [4].

Tajriba-sinov ishlari

Tajriba-sinov ishlari Jizzax viloyatidagi kasb-hunar maktablarida o'tkazildi. Unda 2 ta o'quv guruhi ishtirok etdi:

- **Eksperimental guruh** – dual ta'lim tizimi asosida o'qitilgan o'quvchilar;
- **Nazorat guruhi** – an'anaviy usulda o'qitilgan o'quvchilar.

Tajriba davomida kommunikativ kompetensiyani baholash uchun quyidagi mezonlar ishlab chiqildi:

1. Muloqot madaniyati (fikrni aniq ifoda etish darajasi)
2. Hamkorlikda ishlash (jamoada faol ishtirok etish)
3. Professional terminlardan to'g'ri foydalanish
4. Konflikt vaziyatlarda murosaga kelish qobiliyati

Natijalar shuni ko'rsatdiki, eksperimental guruhdagi o'quvchilarning muloqot madaniyati va kasbiy nutq faolligi 27% ga oshgan, hamkorlikda ishlash ko'nikmalari esa 30% ga yaxshilangan. Ishlab chiqarishdagi ustozlar bilan muntazam aloqa o'rnatish o'quvchilarning o'z fikrini ochiq bayon etish, muammoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish qobiliyatini mustahkamlagan.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy yangiliklar aniqlandi:

1. Dual ta'lim tizimi sharoitida kommunikativ kompetensiyani baholashning yangi mezonlari ishlab chiqildi.

2. O'qituvchi–ish beruvchi–o'quvchi o'rtasidagi ko'p tomonlama kommunikativ model taklif etildi.

3. Kasbiy muloqotda **“kommunikativ vaziyatlar texnologiyasi”** asosida mashg'ulotlar o'tkazish usuli ishlab chiqildi.

4. Dual ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda integrativ yondashuv (nazariya + amaliyot) samaradorligi tajriba orqali isbotlandi.

Dual ta’lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish o’quvchilarning kasbiy tayyorgarligida muhim o’rin tutadi. Chunki kommunikativ kompetensiya — bu shaxsning o’z fikrini erkin ifodalash, hamkorlikda ishlash, mijozlar bilan to’g’ri muloqot o’rnatish qobiliyatidir.

Rivojlangan davlatlarda kommunikativ kompetensiyani baholash uchun maxsus diagnostik testlar, amaliy mashg’ulotlar natijalari va psixologik kuzatuvlar tizimi qo’llaniladi. O’zbekiston ta’lim tizimida ham bu yo’nalishda “kompetensiyaviy yondashuv” asosida baholash uslublari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda [5; 6].

“Dual” so’zi lotin tilidan olingan bo’lib, biror narsaning ikki qismga taalluqliligi, ikkita narsani ifodalovchi, ikki qismdan iborat, degan ma’nolarni bildiradi.

Dual ta’lim tizimi — bu nazariy ta’lim bilan ishlab chiqarishdagi amaliyotning uyg’unlashgan shaklidir. Ushbu tizimda o’quvchi nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi, balki ularni amaliyotda qo’llash imkoniyatiga ega bo’ladi. Shuningdek, tadqiqotchi **R.K. Choriyev** o’z ishida dual ta’lim tizimi asosida mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish, ayniqsa kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda o’qituvchi–ish beruvchi–o’quvchi o’rtasidagi o’zaro hamkorlikning o’rni katta ekanligini ta’kidlaydi.

Dual ta’limning asosiy ustunliklari quyidagilardan iborat:

- Ishlab chiqarishga yaqinlashtirish: dual ta’lim orqali o’quvchilar ish beruvchilar tomonidan belgilangan aniq kompetensiyalarni o’zlashtiradilar.

- Kasbiy ko’nikmalarni mustahkamlash: amaliyot jarayonida o’quvchilar nazariy bilimlarini amalda qo’llash imkoniyatiga ega bo’ladilar.

- Mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik: dual ta’lim tizimi orqali bitiruvchilar zamonaviy mehnat bozori talablariga to’liq javob beradigan ko’nikmalarga ega bo’ladilar.[7]

Shu bilan birga, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

Interfaol metodlardan foydalanish (rol o’yinlari, debatlar, treninglar, “Case-study” usuli);

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llash (virtual muloqot, onlayn hamkorlik platformalari);

Mentorlik tizimini joriy etish, ya’ni ishlab chiqarishdagi tajribali mutaxassislar tomonidan yosh o’quvchilarga yo’l-yo’riq berish;

Kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirishga yo’naltirilgan treninglar tashkil etish [8].

Dual ta’limning samaradorligi ish beruvchilarning faol ishtirokida namoyon bo’ladi. Ular ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida faol ishtirok etib, o’quvchilarga amaliyot uchun zarur infratuzilmani ta’minlaydi va o’quv dasturlarining ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligini nazorat qiladilar. Shuningdek, ish beruvchilar o’quv jarayonida ishtirok etish orqali o’zlariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatiga ega bo’ladilar. Bitiruvchilarning kasbiy ko’nikmalari ishlab chiqarish jarayonining talablariga muvofiq ravishda shakllantiriladi. Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvdan foydalanish tamoyillarini tizimlashtirish ko’zda tutilgan.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv bu - professional mutaxassisni samarali tayyorlashni ta’minlaydigan nazariy bilimlar, ko’nikmalar, qobiliyatlar, kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlarining optimal nisbati asosida kompetensiya va malakalarni shakllantirishga qaratilgan uslubiy paradigmatic tarkibiy qismlarning majmuidir. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning ta’rifidan ta’lim maqsadlari, ta’lim mazmunini tanlash, o’quv jarayonini tashkil etish va ta’lim natijalarini baholashning umumiy tamoyillari majmui shaklida shakllantirishi mumkin.

Dual ta’lim tizimi Germaniyada keng tarqalgan bo’lib, uning ta’limiy va iqtisodiy yutuqlari dual ta’limning ahamiyati haqida gapiradi. Germaniya kadrlar malakasi bo’yicha yetakchilardan biri bo’lib, uning dual ta’lim tizimi ko’p jihatdan butun Yevropa Ittifoqi uchun namuna hisoblanadi. Germaniya modeli dual ta’limning klassik namunalaridan biri sifatida tan olingan. Germaniyada o’quvchilar ta’lim jarayonining katta qismini ishlab chiqarishda o’tkazadilar, bunda ish beruvchilar ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ishtirok etadilar. Mehnat bozori talablariga mos ravishda tuzilgan o’quv dasturlari o’quvchilarni ishlab chiqarish jarayonida zarur bo’lgan aniq ko’nikmalar bilan ta’minlaydi. Bu tizim orqali ishlab chiqarish jarayoniga yaqinlashgan kadrlar mehnat bozorida raqobatbardosh bo’ladi. Janubiy Koreya modeli esa texnologik va innovatsion yondashuvlari bilan ajralib turadi. Koreyada ta’lim jarayoni yuqori texnologiyali sanoat talablariga mos ravishda tashkil etilgan bo’lib, o’quvchilarga amaliyotda zarur innovatsion ko’nikmalarni shakllantirish imkoniyati taqdim etiladi. Hozirgi kunda professional ta’lim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo’llash, zamonaviy o’quv uslubiy majmualarini ishlab chiqish muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, professional ta’lim tizimi maqsadida xorijiy mamlakatlarning kasbiy ta’lim tajribalaridan foydalanilmoqda. Ushbu

ishlarning amalga oshirish ta'lim sohasida xalqimizning boy merosi buyuk mutafakkirlarimizning g'oyalari va davrimizning ilg'or yangiliklarini o'zida mujassamlashtirgan metodik tizimining yaratishiga asos bo'lmoqda.

Dual ta'limni tashkil etishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Korxona (tashkilot)dagi ishlab chiqarish sharoitlari bilan Ta'lim muassasalari o'quv jarayonlarini o'zaro bog'lash;

- O'quvchilarni mehnat faoliyati ishtirokchisiga aylantirish orqali ta'limning ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismini korxona(tashkilot)larda hamda Ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorlik formatlari va modellarini ishlab chiqish;

- Ta'lim dasturlarini mehnat faoliyati bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirgan holda kompetensiyalarni shakllantirish;

- Ta'lim dasturlarini ish beruvchilarning talablari va ulardagi texnologik yangilanishlar asosida takomillashtirib borish;

- Kadrlarni tayyorlash va ta'lim dasturlarini amalga oshirishni moliyalashtirish;

- Korxona (tashkilot)lar va Ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro tarmoq hamkorligining shakl va uslublarini takomillashtirish;

- Bitiruvchilarni baholashda korxona (tashkilot)lar ishtirokini yanada kengaytirish;

Hujjat bilan quyidagilarni nazarda tutuvchi Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi:

•Dual ta'limni tashkil etish va uning bosqichlarini;

•Dual ta'limda o'quv jarayoni va ishlab chiqarish amaliyotini olib borish tartibini;

• Dual ta'lim ishtirokchilarining vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini belgilashni.

O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha to'plangan tajribalarni o'rganish, kompetentli yo'naltirilgan professional ta'lim sharoitida interaktiv metodlar hamda innovatsion treninglardan foydalanish asosida pedagogika kollejlari o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning tadqiqotimizda ishlab chiqilgan modelini amalga oshirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlar e'tiborga olinganda samarali bo'ladi, degan farazni ilgari surishga imkon berdi va buning uchun quyidagi beshta o'zora bir-biri bilan bog'liq bo'lgan shart-sharoitlarni aniqladik:

- o'quv-ilmiy, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-ma'rifiy yo'nalishlarda suhbatlashish ko'nikmasi va qobiliyatini rivojlantirish, o'quv rejalarida o'qitish ko'zda tutilgan o'quv fanlari, o'quv guruhi ichki holati va pedagogika kollejida o'quv jarayoni sifatini oshirish uchun yaratiladigan ta'lim muhitini o'z ichiga olgan o'zaro ta'sirlashuv asosida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan axborot ta'lim muhitini yaratish;

- pedagogika kollejlari o'quvchilarini o'zaro munosabatlarda muloqotning nutq shakllaridan to'g'ri foydalana olishlari uchun kommunikativ kompetensiyalarning rivojlantirish qobiliyatini egallaganligini rag'batlantirish;

- kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda turli xil axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini oshirish;

- o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchilar o'rtasida o'zaro ta'sirlashuvining turli ko'rinishlarini tashkil etish;

- interaktiv metodlar hamda treninglarni o'qitishda zamonaviy o'qitish vositalari (maxsus o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalar, elektron o'quv kurslari boshqalar) dan foydalanish orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun mo'ljallangan o'quv jarayonining uslubiy ta'minotini yaratish;[9]

Professional ta'limda dual ta'limi tizimini joriy qilinishi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, yirik va kichik biznes sub'yektlarida aholi ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarning bandligini ta'minlash hamda kambag'allikni qisqartirish uchun mehnat faoliyati bilan ta'limni uyg'unlashgan holda tashkil etish orqali malakali kadrlar tayyorlash asosiy maqsadi hisoblanadi, shunday ekan professional ta'lim muassasalarida o'quvchilar olgan nazariy bilimlarini amaliy bilan birgalikda olib borsa bu bilimlari ularning mehnat faoliyatida birinchi navbatda, qo'rqmaslikka, ishlarni bajarayotganda ishlatadigan xomashyoni tejab ishlatishga, texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishga shu bilan birgalikda ularda mehnat faoliyatida yangiliklar yaratishga olib keladi. Chunki dual ta'limda ham nazariy bilim, ham amaliy ishni birgalikda o'ganishida unda yuqori ma'suliyat yuklatilgani uchun jarayonni xatosiz qoidalariga rioya qilgan holda bajarish hissini o'zida o'zi sezmagani holatda ham bajarishga harakat qiladi. Bu esa ularning mehnat faoliyatida yuksaklikka erishishiga, buning zahirida esa yoshlarning o'z-o'zidan yangiliklar yaratishiga va ularning izlanishiga va jahon mamlakatlarining tajribalaridan foydalanishiga olib keladi. Vaqt oliy hakam deb bejizga aytilmagan chunki bunda yoshlarimiz shu belgilangan vaqtda o'zi qiziqqan mutaxassisligi bo'yicha

ham bilimga, ham ishni o'rganishga bir vaqtda erishadi, bunda esa ta'lim sifati ham mehnat faoliyati ham o'sib rivojlanish to'xtovsiz boradi.

O'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda «o'quvchi-ijtimoiy tarmoq» rejimida muloqot olib borish ham o'ziga xos muhim hisoblanadi. Bugungi axborot asri va pandemiya davrida masofaviy ta'lim tizimini shakllantirish dolzarb masalalardan bo'lib qoldi. Ko'pgina mamlakatlar ta'lim tizimida sifatli kadrlar tayyorlash uchun o'qish jarayoni zamonaviy AKTlarga asoslangan masofaviy ta'lim (MT) shaklini qo'llashadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida masofaviy o'qitish ta'lim-tarbiya berishdagi dolzarb, shuningdek, tobora ommaviylashib borayotgan shakli sanaladi. Masofaviy ta'lim uslubi o'qitishning yangicha zamonaviy shakli bo'lib, u o'quvchining mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mustaqil bilim olishga, izlanishga, fikrlashga o'rgatadi. Masofaviy ta'limning afzalligi shundaki, unda har kim o'ziga qulay vaqtda, qulay joyda, qulay muhitda bilim olishi mumkin. Shu tufayli ushbu tizim bugungi kunda dunyoda keng ommalashmoqda.[10].

Hozirgi kunda amaliyotning uchta talabidan unumli va o'rinli foydalana olish bilim, tajriba va ko'nikmani taqozo etishi tayin. Ijtimoiy masofalanish, uyda qolish va masofadan ishlashga amal qilish asnosida ta'limning masofaviy imkoniyatlaridan foydalanishda ibrat bo'layotgan ta'lim muassasalari ham kundan kunga ko'payib borayotgani ahamiyatga molik.

Xulosa shuki. Malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda, agar mas'uliyatning bir qismini biznes hamjamiyati vakillari zimmasiga olgan bo'lsa, erishish mumkin. Shu bilan birga, davlat, ish beruvchilar va o'quv yurtlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yaratish kerak. Ta'lim muassasalarida o'rnatilgan intizom ta'lim muassasalari jamoasini jipslashtirish, ta'lim muassasasi ichki hayoti va faoliyatining mo'tadil kechishini ta'minlaydi. Intizom o'quvchilardan hamjihatlik asosida faoliyat olib borish, o'quv yurti manfaati uchun birgalikda kurashish, rahbariyat hamda vakolatli o'quvchilar organlari, uning a'zolari talabalarni to'g'ri talqin etish va ularning bajarilishini talab etadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son “Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.
2. Muslimov N.A. Kasb-hunar ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
3. Choriyev R.K., Kasb ta'limi mutaxassislarini dual ta'lim tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoref.- T.: 2020. 22 s.
4. Avliyaqulov A.K., Xodjayev N.S., “Professional ta'lim tizimida dual ta'limning modeli”, Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, 2020-yil,
5. Ashurova S.Y., Karmova N.N., “Dual ta'lim shaklida mutaxassisning kasbiy standartlarini loyihalash”, Uslubiy qo'llanma.-T.:2024.
6. Hutmuratova D.R. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda kommunikativ yondashuvning o'rni. – “Ta'lim va innovatsiyalar” jurnali, 2023.
7. Choriyev R.K., Kasb ta'limi mutaxassislarini dual ta'lim tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoref.- T.: 2020. 22 s.
8. OECD. Key Competencies for Lifelong Learning: Framework 2020. – Paris: OECD Publishing, 2020.
9. Azizov O. (2021). Ўқувчилар каммуникатив компетенциясини “Санъат” фанларини ўқитиш жараёнида шакллантириш ва ривожлантириш. Журнал инновации в начальном образовании, 2(Архив№ 3).
10. Азизов О. (2022). Педагогика коллежи ўқувчиларининг коммуникатив компетенцияларини шакллантириш ва ривожлантиришда инновацион ёндошув. Innovations in primary education

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI EVRISTIK FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI**

Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich,

Termiz davlat universiteti professori,

pedagogika fanlari doktori (DSc)

shomirzaevm@tersu.uz

Sharipova Mohigul Bozor qizi,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

mohigulsharipova10@gmail.com

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining evristik fikrlashini rivojlantirishda samarali interfaol metod va vositalardan foydalanish va ta‘lim sohasida qo‘llanilishining ijobiy natijalari haqida ma‘lumot berilgan. Shuningdek, maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida evristik fikrlashni shakllantirishda sinfdan tashqari ishlarda to‘g‘ri tashkil etish va jahon tajribalarida samarali hisoblangan topshiriqlar berish sezilarli darajada natija berishi ilmiy asosda ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: mantiqiy fikrlash, rivojlantirish, evristik qobiliyat, metodika, faoliyat, natija, qobiliyat.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ
ЭВРИСТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

В статье представлена информация о положительных результатах использования эффективных интерактивных методов и средств в развитии эвристического мышления учащихся начальных классов и их применении в сфере образования. Также в статье на научной основе показано, что правильная организация внеурочной деятельности и постановка задач, признанных эффективными в мировом опыте, оказывают существенное влияние на формирование эвристического мышления у учащихся начальной школы.

Ключевые слова: логическое мышление, развитие, эвристическая способность, методология, деятельность, результат, способность.

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF HEURISTIC
THINKING OF PRIMARY CLASS STUDENTS**

The article provides information about the positive results of the use of effective interactive methods and tools in the development of heuristic thinking of elementary school students and their application in the field of education. Also, in the article, it is shown on a scientific basis that the correct organization of extracurricular activities and the assignment of tasks considered effective in world experiences have a significant effect on the formation of heuristic thinking in elementary school students.

Keywords: logical thinking, development, heuristic ability, methodology, activity, result, ability.

Kirish. Bugungi kunga kelib ta‘lim mazmuni va uning metodik tizimi yanada takomillashtirilmoqda. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar va pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quv jarayonida o‘quvchilarga ma‘lum darajada bilim berish, dastlabki amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilishning o‘zi yetarli emas. Ularda ijtimoiy tajriba, ya‘ni kompetentsiyalarni shakllantirish alohida dolzarblik kasb etmoqda. SHu bilan bir qatorda o‘quv jarayonining metodik tarkibini ham boyitish, ta‘lim samaradorligini ta‘minlash maqsadida ta‘limda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uchun qulay muhit yaratish nihoyatda zarur.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchi shaxsini har tomonlama shakllantirish, ularda fikrlash faolligini tarkib toptirish uchun qulay davr hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqning rivojlanishi bilan bir qatorda fikrlash faolligi ham vujudga keladi. O‘quvchining taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, tizimlashtirishga oid dastlabki ko‘nikmalari uning o‘z fikrlarini mantiqiy izchillikda aniq, obrazli, ravon bayon qila olishida namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xorijlik olimlar tomonidan ilgari surilgan dastlabki nazariyalardan biri assotsiativ yo‘nalishga bag‘ishlangan. Bu yo‘nalish vakillari assotsiatsiyani fikrlashning asosi deb hisoblaganlar. Angliyada David Yum, Gartli D., ‘ristli ‘., Djems Mill, Djon Styuart Milg’, Aleksandr Ben, Gerbert S‘enser, Frantsiyada T.Ribo, Germaniyada Teodor T.Sigen, Yulius Ebbingauzlar

assotsiativ yo‘nalish vakillaridir. “Assotsiatsiya” tushunchasini dastlab D.Lokk izohlagan. Uning fikricha assotsiatsiyani butun ruhiy kechinmalar, jarayonlar va fikrlashning umumiy mexanizmi sifatida qarash mumkin. Muallif ushbu yo‘nalishda uchta asosiy g‘oyani ilgari surgan:

-assotsiatsiya to‘g‘risidagi;

-bilimning hissiyotdan kelib chiqishi;

-fikrlash jarayonining boshqalardan holi xarakteri haqidagi g‘oyalar. Ushbu nazariyaning kamchiligi shundan iboratki, unda sub‘ektning aqliy faolligi, hal qilinayotgan muammoning mohiyati bilan bog‘liqligiga e‘tibor berilmagan. Ushbu nazariya faqat o‘z-o‘zicha, hamda o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan xolda fikrlashga asoslanadi. Aqliy faollikning eng rivojlangan ko‘rinishi ham xotiraning qayta ishlashi mahsuli deb qarash assotsiativiyondashuv tarafdorlariga xosdir.

Fikrlash jarayoni muammolari bixeviorizm nazariyasida o‘ziga xos talqin qilingan [3].

Biz izlanishlarimiz davomida boshqa psixologlar, didaktlarning xulosalari, g‘oyalari va qoidalariga ham tayanganmiz. Ushbu bilimlar, yondashuvlar o‘rganilayotgan muammoning fanlarni o‘qitish metodikasi sohasidagi uslubiy o‘rnini aniqlashda yordam berdi. Bular Elg‘konin D.B., Davqodov V.V., Zankov L.V., Kabanova-Meller Ye.N., Samarina Yu.A. va boshqalarning qarashlarida o‘z ifodasini topgan. Rivojlanuvchi ta‘lim nazariyasining namoyondalaridan Elg‘konin D.B. va V.V.Davqodovlar nazariy (ammo, odatiy empirik bo‘lmagan) bilim va fikrlash, o‘qish faoliyatini yanada batafsilroq tadqiq etishga muvaffaq bo‘lganlar. Rivojlantiruvchi ta‘lim jarayonida o‘quvchilar ham o‘qituvchilar ham ta‘lim jarayonining teng huquqli sub‘ektlari hisoblanadilar. Ushbu nazariya shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim nazariyasi bilan uyg‘unlashgan holda ilg‘or texnologiyalarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda o‘qitiladigan darslar, tashkil qilinadigan sinfdan tashqari ishlar, ayniqsa bu jarayonda taqdim etiladigan maqsadga yo‘naltirilgan savol va og‘zaki mashqlar ham muhim o‘rin egallaydi. An‘anaviy darslarda esa o‘qituvchilar o‘quvchilarga yozma mashqlar bajartirishga alohida e‘tibor qaratganlar. Bu jarayonda o‘quvchining diqqati asosan topshiriqlarni to‘g‘ri yozishga qaratiladi. Ko‘chirib yozilayotgan masala yoki mashqning mazmuniga o‘quvchilar yetarlicha e‘tibor qaratmaydilar. O‘quvchilarning fikrlash faoliyatini shakllantirish abstrakt-obrazli tafakkurini rivojlantirish maqsadida o‘qituvchilar maxsus tanlangan og‘zaki mashqlar tizimidan foydalanishlari lozim. Chunki og‘zaki mashqlar o‘quvchilarning fikrlashlarini tezlashtiradi.

Tahlil va natijalar. Fikrlash – muayyan voqea-hodisa haqida ma‘lum bir xulosaga kelish uchun mulohaza yuritish, o‘ylashni ifodalovchi tushuncha [5].

Fikrlash ham faoliyatga mos bo‘lgan harakatga ega bo‘lishni talab qiladi. Boshlang‘ich ta‘limda o‘rganiladigan ta‘lim elementlarini o‘zlashtirishga, ular ustida amallar bajarishga qaratilgan faoliyatdir.

Og‘zaki mashqlar o‘quvchilarga hodisaning mohiyatini tezda ko‘rish, tushunish va uning bajarilishini to‘g‘ri izohlay olish imkoniyatini beradi. Yozma mashqlarni bajarish davomida esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari voqea hodisaning mohiyatini anglab olishga qiynaladilar. Og‘zaki mashqlarning xarakteri turli-tuman bo‘lishi mumkin: ob‘ektni berilgan belgilariga ko‘ra topib olish bo‘yicha mashqlar, ob‘ektning o‘xshashligi va farqlarini topib bo‘yicha mashqlar yoki qonuniyatlarni aniqlash, tasniflashga doir mashqlar va h.k.

Bundan tashqari og‘zaki mashqlar dars shakllarini rang-barang qilishga yordam beradi. Avvalo, qiziqarli mashqlarni kiritish orqali o‘quvchilar faolligini oshirish mumkin, xususan, didaktik o‘yinli, muammoli darslarni tashkil qilishda og‘zaki mashqlar asosiy o‘rinni egallaydi. Ma‘lumki, darslarda yoki sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini faollashtiradi. Bu esa ixtiyoriy majburiy bo‘lmagan diqqatni, xotirani, assotsiativ faoliyatni hamda o‘quvchilarning taqqoslash, solishtirish, xulosalar chiqarish va umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog‘liq masalalarning hal qilinishini ta‘minlaydi [7].

Og‘zaki mashqlar sinfdagi har bir o‘quvchi bilan individual ishlashga imkoniyat yaratadi. O‘quvchining imkoniyatidan kelib chiqib, uning aqliy va psixologik imkoniyatlarini hisobga olib, taklif etilgan tabaqalashgan og‘zaki mashqlar tizimi o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini maksimal rivojlantirishga sharoit yaratadi.

Og‘zaki mashqlar fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyani qo‘llash vositasi hamda o‘quvchilarning fikrlashini rivojlantirish, o‘quv jarayoni mahsuldorligini oshirish borasida katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, o‘quvchi shaxsini rivojlantiruvchi asosiy vositadir. Demak, maqsadga yo‘naltirilgan og‘zaki mashqlar ta‘limning shaxsga yo‘naltirilganlik g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib qo‘yadi. SHuning uchun, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda maqsadga yo‘naltirilgan og‘zaki mashqlardan foydalanish muammosi o‘quv jarayonida ta‘lim metodlarni qo‘llash bilan bevosita bog‘liq.

Bu sohada quyidagi muammolar mavjud:

-boshlang'ich sinflarda ta'limning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini kuchaytirish zaruriyati bilan ularda mantiqiy fikrlashni maqsadga yo'naltirilgan og'zaki mashqlar vositasida shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan metodikani ishlab chiqilmaganligi;

-boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlarining batafsil ochib berilmaganligi;

-o'qitiladigan darslarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini tashkil qilishda maqsadga yo'naltirilgan og'zaki mashqlardan o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun foydalanishning zaruriyatining mavjudligi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etish zaruriyati biz tanlagan mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Xususiy didaktikada o'quvchilarning fikrlashini rivojlantirishga oid ko'plab ilmiy yondashuvlar mavjud. So'nggi yillarda fan-texnikaning rivojlanishi natijasida o'quvchilarning o'qitishdagi ta'lim texnologiyalari ham takomillashtirildi. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ta'limning yangi paradigmasiga o'tilishi munosabati bilan o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini ham yangi sifat bosqichiga ko'tarish ehtiyoji kuchaydi. O'quvchilarning fikrlashini rivojlantirish masalasida mutaxassislar turlicha yondashuvlarni ilgari surganlar.

Bixeviorizm - (inglizcha behaviour – xulq-atvor, xatti-harakat) 19- asrning oxirlarida shakllanib, 20-asrda rivojlangan Amerika psixologiyasidagi yetakchi oqimlaridan biri. Bixeviorizm ta'limoti asosida inson va jonivorlarda muhitning ta'siri, qo'zg'atuvchilarga javoban amalga oshiriladigan ishlar, nutqiy va hissiy javoblar tizimining amalga oshirilishini anglatadi.

Bixeviorizm g'oyasi tarafdorlari fikriga ko'ra tashqi rag'batlarga javoban fikrlash jarayoni vujudga keladi. Mazkur yo'nalish tarafdorlari o'z tajribalarini asosan hayvonlarda o'tkazganlar. Inson va hayvonning fikrlashini bir-biriga o'xshash deb bilgan bixeviorizm tarafdorlari fikrlashni organizmning muammoli sharoitga ko'nikishga qaratilgan harakati deb bayon qilganlar.

Fikrlash faoliyatining asosiy mexanizmi sifatida struktura tamoyilini ilgari surib bu g'oya fikrlash jarayonining butun dinamikasini fikrning tarkibini almashinuviga olib keldi, yahni uning tarkibi fikrlash faoliyati natijalarini o'rganish bilan almashtirildi.

Izlanishlardan ma'lumki, inson tafakkuri insoniyat tomonidan yaratilgan bilim olish jarayonida rivojlanib sub'ekt uchun faol, yaratuvchanlik faoliyatidir.

Inson fikrlashini rivojlantirishning nazariy yondashuvlari quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

-Yaxlitlik va tizimlilik.

-Refleksivlik.

-Tanqidiylik.

-Innovatsionlik.

-Qayishuvchanlik.

-Noaniq vaziyatda o'z taqdirini o'zi belgilay olish qobiliyati.

-Mahsuldorlik.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini ta'lim oluvchilarda ong, xarakter, dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi tabaqalashtirish va individuallashtirish printsiplari tashkil etadi.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'limning an'anaviy ta'limdan farqi shundaki, u turli bilim sohalarini bo'yicha shaxsning xilma-xil, mustaqil va maqsadga muvofiq faoliyatini tashkil etilishi uchun zarur shart-sharoitni yaratib berish orqali ta'lim oluvchining intellektual va axloqiy jihatdan samarali rivojlanishini ta'minlaydi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda bilim va malakalarni amalga oshirishni shakllantirish ahamiyatlidir. Turli, haqiqiy bilim va malakalar o'quvchilarda qancha ko'p hosil qilinsa, ularning fantaziyasi, fikrlashi o'sadi hamda murakkabroq bo'lgan topshiriqlarni bajara oladilar.

Insonning dunyoqarashini rivojlanishida uning tili va nutqining rivojlangan bo'lishi juda muhimdir. Chunki, topshiriqning yechilishi jarayonida o'quvchi topshiriqni yechish yo'llarini o'z nutqi orqali bayon qilishi, topshiriqning asosiy elementlarini ayta olishi, grafik chizmalarni chiza olishi va bilishi- o'quvchi ijodiy tafakkurini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. O'quvchi qanchalik darajada ko'p so'z boyligiga ega bo'lsa, uning ichki, aqliy imkoniyatlari ham yuqori darajada rivojlanadi va shakllanadi. Ijodiy jarayonda o'quvchi avval to'shiriqni xayoliy tasavvuri, ya'ni aqli orqali bajaradi, reja tuzadi, keyin esa bureja tashqi imkoniyatlar asosida amalga oshiriladi.

Forobiy «Aql to'g'risida»gi kitobida axloqli kishining «o'n ikki tug'ma xislati»ni ta'riflab, odamning fikrlash qobiliyatiga to'xtalib o'tadi. Forobiy fikrlash qobiliyati yuqori bo'lgan inson barcha topshiriqlar yuzasidan o'tkaziladigan tahlillarni tez va to'liq tushunadigan, uning ma'nosini o'zlashtirib, so'zlayotgan

shaxsning maqsadi va bayon qilingan fikrining rostligini tushunadigan, quvvati hofizasi kuchli, borliqdan qabul qilgan ma'lumotlarining barchasini eslab qoladigan, xotirasida saqlab qoladigan, zehni sezishi bilan, bu alomat nimani anglatishini tezda aniqlab oladigan, fikri va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini to'liq va izchilbayon eta oladigan, bilimlarni oson, tez o'zlashtira oladigan bo'lishini ko'rsatib o'tadi [1].

Abu Ali ibn Sino «O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar» nomli asarda fikrlash jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarga batafsil to'xtalib o'tgan. Olimning «Tadbiri manozil» («Bolani tarbiyalash va o'qitish») asarida o'quvchilarning fikrlashini yaxshilash, bilim berish samaradorligini oshirishda fan yutuqlarini egallashga qiziqish yuzaga kelishi va raqobatlashish imkoniyatini yaratishda o'quvchilarni birga o'qitish zarurligini ta'kidlaydi.

Olim suhbatdoshiga hurmat bilan munosabatda bo'lishiga to'xtalib, shunday deydi: “Sening fikring (bolaning) yuragiga yetib borib, unga o'ylab, fikr yuritib ko'rishga imkon bersin... Agarda sening suhbatdoshing yoki do'sting sening so'zlaringga va nasihatlaringga e'tibor bermayotganini sezsang, su'batni boshqa vaqtga ko'chir” [5].

Inson fikr, aql, sezgilari vositasida bilimlarni egallanishi to'g'risida qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy mulohazalarini bayon qilar ekan, shunday deb yozadi: “Faqat sezgi orqali, sezgi organlari bilan erishilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarishda foydalansa, ana shu sezgilar yordamida idrok qilinadigan narsalarni o'rganishda juda katta yutuqlarga erishishi mumkin. Istaklarga mehnat tufayli erishiladi” [4]. Uning ta'kidlashicha, hayotiy vaziyatlarda, mavjud muammolarni yechish jarayonida sezgi organlari orqali qabul qilingan ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri idrok qilinmasdan, balki fikr to'liq tashxislansa va tegishli xulosalar chiqarilsa, ana shu bilimgina haqiqiy va mustahkam bo'ladi.

Xulosa va takliflar. SHu tariqa biz “fikrlash” tushunchasiga nisbatan bir nechta yondashuvlarni tahlil qildik. Fikrlash shaxsning faolligini tavsiflovchi jarayon bo'lib, uning uzluksiz rivojlanayotganligi faoliyatda namoyon bo'ladi. Bu faoliyat fanlarni o'rganish jarayonida o'quv masalalarini yechish faoliyatida namoyon bo'ladi.

Mantiqiy fikrlash nazariya va amaliyotni, fikrlashning konvergent va divergent turlarini uyg'unlashtiradi hamda o'ziga xos topqirlik bilan tavsiflanadi.

Konvergent fikrlash muammoning yagona yechimini topishga qaratilgan, divergant fikrlash esa masalaning mumkin bo'lgan barcha yechimlarini izlashga yo'naltirilgan fikrlash tarzidir.

Biz izlanishlarimizda boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlashni rivojlanishining evristik, mantiqiy algoritmik uslublaridan foydalanishga harakat qildik. Evristik uslublar real hodisalarning matematik modellarini qurishning asosli ekanligini ko'rsatdi, mantiqiy uslublar esa uning “qathiy” talablari bilan matematik model ichidagi masalani yechishga xizmat qildi.

Fikrlash jarayoni topshiriqni yechish tartibi bilan chegaralanganligi sababli fanlarni o'rgatishda o'quvchilarning fikrlash hodisasiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Murakkablik darajasiga ega bo'lgan topshiriqlarni yechishda, o'quv kursining qo'shimcha bo'limlarini o'zlashtirishda, o'qitishning muammoli-izlanish uslubidan foydalanish maqsadga muvofiqir.

Adabiyotlar:

1. Педагогика. Энциклопедия. III жилд. жамоа // Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. – 400 б.
2. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика, 1991. 479 с.
3. Савенков А.И. Маленькие исследователи в реальной жизни // Дошкольное образование. № 7-2004. С. 6 -19.
4. Ҳошимов К., С.Очил Ўзбек педагогикаси антологияси. Икки жилдлик. - Тошкент: ўқитувчи, 1995. - 464 б.
5. Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Истиқлол, 1994. -321 бет.
6. Навоий А. Маҳбуб ул қулуб. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
7. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. - 178 б.

ФОРМИРОВАНИЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЫСЛИТЕЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ

*Рахмонова Шохруза Собиржон кизи,
преподаватель Андижанского
государственного педагогического института*

Мышление — одна из важнейших способностей, обеспечивающих языковое, умственное и социальное развитие индивида, а также определяющая его обучение и будущее. Поэтому во многих странах уделяется особое внимание развитию мыслительных способностей учащихся. Ведутся активные исследования того, как учащиеся думают, как развивают свои мыслительные навыки и какие типы мышления они используют. В этом процессе старые методы, включающие косвенное обучение мыслительным навыкам и применяемые на протяжении многих лет, постепенно отходят на второй план. Вместо этого акцент смещается на новые подходы, модели и методы, которые являются более эффективными и продуктивными. Эти методы включают интерактивное, процессное, прямое обучение и модели с объяснением техник.

Ключевые слова: мышление, мыслительные способности, студенты, методы обучения, технологии, критическое мышление, креативность, развитие мышления, цифровые технологии, проектная деятельность.

DEVELOPMENT AND IMPROVEMENT OF STUDENTS' THINKING ABILITIES

